

Y.V. Bondarev



QING'OO



Rus adabiyoti durdonalari

YURIY VASILYEVICH  
**BONDAREV**



**QIRG'OOQ**

*Roman*

TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2021

UO'K 821.161.1-31 ✓

KBK 84(2Ros=Rus)


B 85 ✓

Rus tilidan *Dilafruz Matyoqubova* tarjimasini

Kitobxonlar diqqatiga havola qilinayotgan mazkur asar o'tgan asrning 50-yillarida Germaniyaga sayohat qilgan ziyolilar hayotidan hikoya qiladi. Romanning asosiy qahramoni mashhur rus yozuvchisi.

Asar to'qimasiga Ikkinchi jahon urushining so'nggi kunlaridagi voqealar ham singdirib boriladi. Muallif teran falsafiy mushohadalar orqali inson baxti va muhabbati, shaxs va jamiyat munosabatlari, har bir odam o'z saodat «qirg'og'i»ga yetib olishida uning ma'naviy qiyofasi asosiy mezon ekanligi haqida fikr yuritadi.





## **BIRINCHI QISM**

### **NARIGI TOMONDA**

#### **BIRINCHI BOB**

Havo layneri to‘qqiz ming metr balandlikda reaktiv dvigatellari-ni guvullatganicha uchib borardi. Arktikaning oftobli ayoz hukmron cheksiz muzliklari, ufqdagi ko‘zni qamashtiruvchi muz tog‘lar qalin oynali illuminatorlardan bir-bir o‘tib, shaffof bulutlar tizmasi qa‘rida qolib ketayotganga o‘xshardi.

Osmoni falakda xiyol titrab uchayotgan samolyot ostida-gi bo‘shliq vahimali guvullasa ham, iliq salon oftob tushayotgani uchun shinamlashib, aerodromdagi intiqlik tugagan, parvoz xayr-li boshlanganidan yo‘lovchilar ham xotirjam edilar. Zarrin quyosh nurida tovlanib, chor-atrofga sekin taralayotgan sigaretalar tutuni hozir, ayniqsa, xushbo‘y sezilardi. Yo‘lovchilar bellariga tortilgan tasmalarni yechishar, yumshoq kreslolarining orqa suyanchiqlarini o‘zlariga moslardilar. Xushbichim, lablaridan yoqimli tabassum ari-maydigan sertakalluf ikki stuardessa (ular bu yerga xalqaro reyslar ro‘yxati reklamalaridan kelib qolishganga o‘xshardi) tarqatayotgan gazetalarning shitirlashlari eshitila boshladi. Yo‘lovchilar mana shu ikki stuardessa qiz bir necha daqiqa avval, uchish oldidan patnislar-da hozirgiday mayin tabassum bilan ulashgan obakilarni so‘rib tuga-tishayotgandi. Salonda ruscha va nemischa so‘zlar eshitila boshladi. Samolyotdagi barcha yo‘lovchilar endi xotirjam tortib bu yog‘i ham yengil ko‘chadi, qiynalmasmiz, degan umidda edilar.

Odam aerodromga chiqqanida avvaliga o‘zini bola-chaqa va idora tashvishlaridan xoli seza boshlaydi. Nikitin ham samolyot-da illuminatorlardan ko‘rinayotgan oftobli osmonga tikilar, qud-ratli dvigatellarning bo‘g‘iq guvullashi, notanish yo‘lovchilarning g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘irlari qulog‘iga chalinar, ko‘kdagi ruhiy osoyish-

talikning doimo ko'makka tayyor farishtalari bo'lmish xushbichim stuardessalarning chehralaridan muloyim tabassum arimas, bundan salon yanada yashnab, rohatijonday tuyulardi. Nikitin parvoz tashvishini tortmay bemalol, yoyilibroq o'tirarkan, yoniga o'girilib, Samsonovga savolchan qaradi. Ikkovi shu choqqacha biror marta ham hamsafar bo'lishmagandi.

Qornidagi tasma to'qasini hali ham bo'shatmagan Samsonov yon kreslolarga faromush tikildi. Bu kreslolarda ko'rinishidan turist, yoshlari bir joyga borgan uch nafar nemis ayoli o'tirardi. Ular shang'illab gaplashishar, tutayotgan sigaretalari bilan hozirgina stuardessalar o'tib ketgan oldingi salonning pardasiga ishora qilishardi. Nikitin dvigatellar guvullashi aralash «essen», «frishtyuk» so'zlarini ilg'ab oldi-da, gaplashgisi kelayotgani uchun sho'xchan so'z qotdi:

– Platosha, birovlarning gapiga quloq solma. Nimani gapirishyapti? Hozir keltiriladigan nonushtanimi? Qaniydi yaxna tovuqdan keyin mineral suv bo'lsa.

– Nemis ayollar ochiqib qolishibdi, – javob qildi Samsonov xo'rsinib. – «Metropol» mehmonxonasida nonushta qilganimizga ancha bo'ldi, hozir biror narsa yeb olsak, zarar qilmasdi, deyishyapti. Boyoqish kyolniklar... Chug'urlashlarini eshitib ko'nglim ag'dariyapti. Intoksikatsiya. Urushda ular bilan gaplashaverib me'damga tegib ketgan...

– Yo'q, Platon, samolyotda konyak bilan yaxna tovuq durust.

Yonoqlari keng, qorg'in Samsonov tasmani yechib, kreslo suyanchig'ini orqaroqqa tushiradigan moslamani paypasladi-da, Nikitinga baqa ko'zlarini qaratdi. So'ng o'zini beso'naqay orqaga tashlab, anchagacha pixillab turdi. Ko'zlarini qattiqroq tikmasa ham Nikitin aytgan hazilnamo gapning tagiga yetmoqchi bo'layotgani sezilar, o'zi ham shirakayf edi. Kresloga yarim yastangan Nikitin esa xayolida yaxna tovuq bilan mineral suvdan bo'lak narsa bo'lmagan safsataboz turistga o'xshardi.

– Sayohatimizdan xursandligingni ko'rib turibman, Vadim. Nimadir bo'ladi ishqilib.


– Bilsang, nemislar yurtiga sen bilan birga borayotganimdan xursandman, – dedi Nikitin.

– Men ham, – g'o'ldiradi Samsonov. – Rost.



Nikitin bilan Samsonov o'n besh, o'n yetti yildan beri tanish edilar. Ana shu yillar mobaynida ularning hayotlari bir xilda kechdi hisob. Ikkovining kitobi ham deyarli bir paytda chiqardi. Uslublari esa butunlay boshqa-boshqa edi. Nikitin asarlari ta'sirchan va haqqoniyatda keskin bo'lsa, Samsonov prozasi silliqligi bilan ajralib turar, mualliflarning fe'l-atvorlari ham bir-birinikiga tamomila zid edi. Urushdan keyingi avlod xususidagi deyarli bir xil tanqidiy maqolalarda ikkovining nomi yonma-yon tilga olinar, ijodda bir-biriga o'xshamasliklarini o'zlari ham tushunib turishlariga qaramay, nuqul bir-birini qo'msardilar. Bunga sabab urush yillaridagi mushtarak tajribali avlod taqdiri va ko'p yillik tanishliklari natijasida muomalalarida o'zaro vujudga kelgan, shu choqqacha do'stlikka aylanib ketmayotgan qandaydir yaqinlik edi. Ana shu yaqinlik vajidan ular goho kechqurunlari telefonlashib, taxminan quyidagicha tegajoqlik qilishardi: «Kekkayib ketdingmi, Vadimushka? Qo'ng'iroq qilmayapsan-ku? Maqtovlardan erib divanda sigaretangni tutatib yotibsanmi? Bunaqada povestlaringni qachon yozasan, qariya? Mardikorlar yolladingmi? O'qidim, o'qidim. Professoring chakkimas, chorrahadagi ko'zlari qiyiq qiz ham durust, generaling chiqmaganov, juda nozik, ziyolinamo bo'lib qolibdi, bunaqasini ko'rmovdik. Shoshmay tur, men yozayotgan narsamni tamomlay, hammangiz anqayib qolasizlar». «Ishonaman, Platosha, bir hayratga tushay, deb yuribman». «Shoshilma, Nikitin, shoshilma, sahifalarim ustida qon yig'laysan hali, – Samsonov telefonda kulardi-da, kechinmaga aloqador va lo'nda, baquvvat, chiroyli jumalarni o'qib berardi. – Qalay, havasing keldimi? Sochingni yulyapsanmi? Mana shunday yozish kerak, bolakaylarim. Asarning xotimasini uch yil o'ylaganman. Eh, sizlar haliyam g'irt go'daksizlar!»

Samsonov juda sekin ishlar, kuniga bir qator, bir abzats yozar, har bir so'zni ming azoblar bilan qog'ozga tushirar, shunda har xil xayollarga borardi. Sifatlashlarga toqati bo'lmasa ham jumllarida sifatlashlar qalashib yotar, biroq asarni boplar, ayniqsa, uning oxiri, so'nggi boblari zo'r chiqardi. Shunday bo'lsa ham unga uslubdagi picha g'alizlikni aytishganda Samsonov har bir so'ziga mahkam yopishib olib, qattiq himoya qilar, nashriyot muharrirlari bilan mojarolashgani mojarolashgandi. Ba'zi bir tanqidchilar uning jahl ustida musht tushirib qolishidan hayiqishar, boshqalari Samsonovni qalam-




kashlar ustiga mag'zava to'kishdan ham toymaydigan jizzaki baqiroq deb atardilar. Chunki Samsonov klub kularlarida ittifoqo biror ehtiyotsiz tanqidchini uchratib holsa, unga o'shqirib qolardi:

— Ha, chillaki suqrotlar, noshud haqiqatgo'ylar, bir qadah aroq ustida bo'lmag'ur aksiomalarni chaynab o'tiribsizlarmi? Sizlarga g'aliz telegraf uslubi yoqadi-da, a? Men telegrafchi emasman! Ezmakash ekanmanmi hali? Shundayligimcha qolganim bo'lsin! Bu yerdagi valaqlashlaring bir pul menga, tupurdim! Sizlarni juda yaxshi ko'raman va bag'ringa bosaman. Hozir esa surgu dori olib, yengil tortgani dorixonaga ketyapman!

Samsonovning o'lguday qaysarligi ko'plarni g'ijintirar, shu jihatdan u dushmanlar bilan bir qatorda muxlislar (bo'sh kelmaydiganlar hurmatlanadi) ham orttirgandi. Nikitinni Samsonovga yaqinlashtirgan narsa ham shu edi. Nega deganda, Samsonovning qaysarligida ilgarigi harbiycha qat'iyat, o'ziga ishonch sezilar, bu esa o'sha paytlarda bag'oyat zarur edi... Nikitin birinchi kitobi chiqqanidan keyin yozgan har bir narsasini Samsonov tezda va ishtiyoq bilan o'qib chiqishiga, picha maqtab, tanqid qilishiga o'rganib qolgandi. Samsonov shunday paytlarda go'yo fikrini dangal aytmayotganday ko'rinmasa-da, hayajonlanganidan go'shtdor yuzi qizarar, ko'zoynagi tagidan noxush, ma'yus va g'amgin boqardi. Shunday damlarda Nikitinning ko'z oldiga Samsonovning tartibsiz kabineti kelaverardi. Unda kitob taxlangan kattakon shkafklar bo'lib, yozuv stolidagi siyohdon-piyohdonlari ham qadimiy va benihoya vahimali, qo'lyozmalar, kitoblar, dumaloq va mayda yozuvli sahifalar ochiqsochiq yotardi. To'lgan sahifalarda qahvali idish qoldirgan yumaloq izlar bo'lardi. Samsonov ishlaganida uzluksiz qahva ichardi. Nikitin kabinet burchagidagi enli taxta karavotni ham eslar, rosa ishlab, tinka-madori qurigandan keyin ana shu taxta karavotda peshanasini yostiqa bosganicha so'zmi, jumlamu qidirib o'zicha g'udranib yotganlarini ham ko'z oldiga keltirardi. Bir kuni ertalab, ayni ishlaydigan mahalda do'stining uyiga kirganida uni xuddi shu alfozda ko'rgandi.

Nikitin og'aynisining oppoq sahifa ustida tutqich bermaydigan so'z topolmay qiynalishlarini o'ylagandayoq g'alati bo'laverardi. Nega deganda, o'zini-o'zi har kuni to'qqiz soat ishlashga majbur qilsa ham hadeb o'chirib-yozaverishlaridan qat'i nazar, yengil, tezroq



yo'zardi. Samsonov ishlayotgan paytni koni azob (kuniga to'rt soat ishlardi) desa bo'lardi. Samsonovdan ikki baravar ortiq azob tortsa ham buning har qalay zavqi bor edi. Shu vajdan ham Samsonov kitoblari xususida so'z ketganda Nikitin pinagini buzmas, hazil-huzul qilib, og'ir jumllarni tushunaman, shuning uchun ham birovlarining gaplarini behayolarcha takrorlab, o'zlari o'ylab topganday qilib ko'rsatayotgan yasama yozuvchilarni savalash kerak, derdi. U Samsonovning dilini og'ritishni istamaganidan dangal gapga sira ham og'iz juftlamasdi.

– ...O'sha nemis ayollari nonushta-ponushtasini jin ursin, – dedi Nikitin oyna pardasini kattaroq ochib qo'yarkan. – Oftobni qara, Platon. Yerdagi tashvishni unutilib tezroq daxldor bo'laver abadiyatga... Chakki emasman-a, she'r bilan olyapman, shoirlarning nonini yarimta qilyapmanmi deyman-da, a?

– Operettalardan ariyalar boshlab, butun salonni boshingga ko'tarmasang edi, deb qo'rqyapman, – g'o'ldiradi Samsonov. – Tinchlikmi o'zi?

– Yerda kuz, tuman, osmoni falakda esa hammayoq pokiza, beg'ubor, ko'm-ko'k, hech qanday kuz nishonasi yo'q, mana buni go'zallik desa bo'ladi, Platosha!

Samolyot illuminatorlari ortidagi sovuq bo'shliqda yuksak quyoshning oqish nurlari ko'zni qamashtirar, pastdagi oppoq bulutli tekislikda qimir etmay turgan qand rang kungurador muz tog'larning o'tkir cho'qqilari yaltirib qolardi. Havoda o'ynoqlayotgan qor shu'lasini oftob nuri aralash salonga ham tusharkan, suyanchig'i orqaroqqa surilgan kreslolar uzra suzuvchi sigaretalar tutunini ham yoritardi.


Samsonov illuminatorning yaltiroq oynasiga atayin beparvoroq qararkan, ovozini chiqarib qo'ydi:

– Undan ko'ra, qani ayt-chi... Gamburgdagi adabiy jamiyat nima, qanday narsa o'zi? Qaysi yo'nalishda? Pardani tort, ko'zni olyapti...

Nikitin ramkasi g'ijillovchi pardani yarmigacha tortib qo'yib so'radi:

– Seni nimasi tashvishga solyapti?

– G'arbiy Germaniyada kimlarning qo'liga tushishimizni bilsam, devdim. Seni bu tashvishlantirmayaptimi?





– Frau Gerbert degan ayolning xatlaridan bilishimcha, ular jahon taraqqiyparvar yozuvchilarining uchrashuviga taklif qilishyapti. Jumladan, Sharqiy yevropadan ham. Oldinroq polyaklarni chaqirishgan. Endi bizni taklif qilishyapti. Bundan o'zingning ham xabaring bor.

– Mayli, shunday bo'la qolsin. Umuman, xabardorman xolos. Xo'sh, kim o'zi u frau Gerbert?


– Qaydam, – Nikitin shunday degach, barnog'i bilan oynaga ko'rinmas «Gerbert» familiyasini yozdi. – Familiyasining yozilishiga qaraganda oppoq to'r yoqali, olijanob, oqsuyak, rus adabiyoti – Dostoyevskiy, Chexov, Tolstoyga oshufta kampir bo'lsa kerak. Mana, uning oxirgi xatini o'qib ko'r.

Nikitin yon daftaridan to'rt buklog'liq xat olib uzatdi. Samsonov mashinkada yozilgan oq yaltiroq qog'ozni ochdi-da, qoshlarini chirmirgan qiyofada tarjima qilib izohlashga tushdi.

– «Muhtaram janob Nikitin! (E-ha, hali janob ham ekansan-da. U holda hammasi ravshan... Nechuk seni ilgari, chol tirikligida tanobingni tortib qo'yishmaganiykin?) Gamburg shahar adabiy klubi dumaloq stol atrofida uchrashib turish... (Bu dumaloq stollar rosa rasm bo'ldi-da, yo'q, stol yonida emas, o'sha dumaloq... fahmimni qara-ya, endi tushundim: o'tkir qirralari yo'q stol atrofida) hozirgi zamon madaniyati haqida, yozuvchi qaysi mamlakatda – g'arb kapitalizmi tuzumidami yo Sharq kommunizmi tuzumida yashayotganidan qat'i nazar, do'stona vaziyatda «Yozuvchi va hozirgi zamon madaniyati» mavzusida munozaralar o'tkazishni o'zining vazifasi deb biladi. Sizning uchta novellangiz, janob Nikitin... (Axborotingiz uchun shuni aytishga jazm etamanki, janob Nikitin. Yevropada novellalar deb romanlarni atashadi, esingizdan chiqmasin, muhtaram zot).

– Davom et.

– Davom etaman... G'arbiy Germaniyadagi «Veber» nashriyoti tomonidan chiqarilgan. «Shtern», «Shpigel» jurnallarida sizni Sharq adabiyoti osmonida chaqnayotgan yulduz deb ta'riflangan maqolalar bosilgan, «Orqa tomonga yo'l» degan oxirgi novellangiz bizda, ziyolilar va yoshlar orasida sira tildan tushmaydi... (Buni qara-ya, nimalar bo'lyapti o'zi, g'arb kitobxonlarining sevikli yozuvchisi bo'lib qolibsanku. G'arbnii maftun etib, «Yo'l»ing bilan hammani ortda



qoldirganingga qaramay, Xudoning bir bandasiday kamsuqumgina bo'lib o'tirganingni-chi!)

– Bo'lganingcha bo'laver-u, lekin bu yog'ini uqib olaver.

– «...intelligensiya va yoshlar orasida men ham kitob do'konimdagi asarlaringizning hamma nusxalari ikki haftada sotilib ketganini bildirishdan mamnunman...» (O'-ho'! Qalam haqiga chamadonlaringni hozirlayver. Pichog'ing moy ustida... Kapitalizmni xonavayron qilib, tilanchi holiga keltirib qo'y-e.)

– O'qi, o'qi.


– «...mashhur adabiyot professori va «Rodvol» nashriyotining tanqidchisi doktor Kuns iste'dodingiz fojiaga moyilligini aniqlab, ikkita otaxon ustozingiz borligi, ya'ni Dostoyevskiy va Tolstoylardan o'rganganligingiz haqida yozgan edi. Shunga qaramay, menimcha, garchi oxirgi novellangizning xotimasi ancha og'ir, yurakni qanchalar ezib yuborsangiz ham Sizga ulardan ko'ra Chexov yaqinroq turadi! Urush boshida qahramonlaringizni shafqatsiz nobud qilganingizdan ko'zlarda yosh halqalanadi va anchagacha dildan ma'yuslik ketmaydi. Bu juda mungli kitob». (Bu, frau, deyman, tap tortmas tanqidchiga o'xshab, borini aytib qo'ya qoldi-ku. Sen pessimist chiqib qolding, fojiali kunlar kuychisi!)

– Ko'rib turganingday.

«...Kaminani bunchalar dadil mulohazasi uchun afv etgaysiz, janob Nikitin, buni shaxsiy maktubda aytyapman va sizga picha erish tuyulsa e'tibor bermay ham qo'ya qoling. Yozuvchi o'zidan bo'lak hech kimning gapiga quloq solmasligi kerak...» O, bu frau mug'ambir ekan-ku, yozuvchi mustaqil bo'lishi kerak, degan fikrni qistiriyapti! Munozara boshidayoq borini to'kib solyapti.)

– Davomini o'qi.

– «Adabiy klub tashrif buyurishingizni istab yigirmanchi avgustda taklifnoma yuborgandi, biroq sizdan hanuzgacha javob ololmadik. Gamburgda iloji boricha tezroq bo'lishingizni o'tinib so'raymiz. O'ninchi bilan yigirmanchi noyabr o'rtalarida shahrimizga kelish imkoniyatingiz bo'lsa, biz safaringiz ko'ngilli o'tishi yo'lida hamma choralarni ko'rgan bo'lardik. Nemis tilida gaplasha olmasangiz, tarjimon bilan kelishingizdan ham xursand bo'lamiz. Noshiringiz janob Veberdan ehtirom va minnatdorchilik ila salom qabul qilgaysiz. Eng yaxshi tilaklar bilan Sizga muntazirmiz. Adabiy klub a'zosi



Gerbert xonim. Pe-Es. Uchish oldidan samolyotingiz reysini xabar qiling, Sizni Gamburg aeroportida kutib olaman. Mabodo juda ham o'zgarib ketmagan bo'lsangiz, kitobingizdagi suratingizdan tanib olarman, degan umiddaman».

– Aj-jab va qiz-ziq, – Samsonov Nikitinga xatni uzatarkan, chuqur nafas olib, ma'yus ko'zlarini salon shiftiga tikdi. – Tarjimon kelishidan ham xursand bo'lisharmish. Tarjimon xorijiy komissiyaning notanish vakili sifatida keladi-da. Zo'r! Men – tarjimonman. Bunisi yanayam zo'r! Yozayotgan romanimni bir yuz yigirmanchi betiga kelganimda to'xtatib, sen bilan birga Gamburgga uchypman, tashvishingga sherikchilik qilyapman. Xo'sh, bundan ne foyda? Rozi qilgani loaqal konyakka ham puling yetmayapti-ku. Ha, shunday! Tarjimoning bo'lib borishim shartmidi? Lezen und shprexen doychni o'zing ham eplarding-ku, axir! Yo meni xo'jako'rsinga taklif qiluvdingmi?

– Sen turganda men nemischa gapirmasam ham bo'ladi, – javob qildi Nikitin. – Men bilan aynan sen borishingni istovdim, Platon. Xorijiy komissiyaga bu bir rasmiyatchilik. Ikkovlon bo'lsak, har tomonlama yengil ko'chadi.

Samsonov ko'zoynagini olib, mushti bilan ko'zini ishqaladi-da, qattiq esnoq aralash dedi:

– Rahmim kelyapti senga, janob Nikitin. Nechuk nomingni g'arbda bu qadar ko'tar-ko'tar qilishyaptiykin? Ehtiyot bo'l, esankirab qolma ishqilib. Kekkayib ketma. Buni xat va hokazolar tufayli aytyapman-da... Kino, bebiliski pullar va Gerbert xonimga o'xshash g'arblik muxlislarini seni yo'ldan urmasaydi, deb qo'rqaman. Farishtaday parvoz qilyapsan, yerga gunohga botib tushmasang bo'lgani.

U yana laqqa baliqday og'zini kerib, qattiq esnagandi, «a-ha-ha-ha» deganga o'xshash ovoz chiqdi. Nikitinning bundan kulgisi qisqartirib dedi:

– Rahbarona ko'rsatmalarini bajarishga harakat qilaman, Platosha. Esnashniyam boplayapsan-da. Nahotki uyqung kelayotgan bo'lsa?

– Gap bunday, Sharq yulduzi, sen endi aytgan gaplarimning mag'zini chaq, bu yog'iga nima qilishingni chamala, o'yla, kallangini ishlat, men bo'lsam picha shlyafen, shlyafen...



Samsonov qo'llarini ko'kragi ustida chalishtirib, ko'zlarini yumdi, burnida chuqur nafas olgandi, yuzi sertashvish odam hordiq chiqarayotgan paytidagiga o'xshash loqayd va tund tusga kirdi. U shuncha yugur-yugurlar, aerodromdagi intiqlik, uzundan-uzoq gurunlardan toliqqani uchun mudradimi yo mudramoqchi bo'ldimi, haytovur ko'ksi ustida chalkashgan miqti qo'llari-yu, butun ko'rinishi o'z qadrini biladigan xotirjam odam qiyofasiga o'xshab qoldi.

«Hozir uni kimga o'xshatish mumkin? – ko'nglidan o'tkazdi Nikitin Samsonovga tikilib turib. – Oilaning mustaqil boshlig'i. Sog'-salomat, semizligi o'ziga yarashgan, ishlari joyida odam. Zorlanmasa ham nimadandir tashvishda. Yana nima deyish mumkin? Farosatli, batartib, uyida sarishtalikni yoqtiradi. Turish-turmushi adolatparvar. Nega bunday deb o'ylayapman? Shuning uchunki, u yonimda bo'lsa, ishlarim yengil ko'chadi...».

## IKKINCHI BOB

Nikitin yo'lovchilar guruhi pnevmatik eshikdan Gamburg aeroportining oynaband binosiga kirganida hamon samolyot uchishini his etib, qulog'idan qo'nayotgandagi dvigatellar shovqini arimagani uchun ayol kishining:

– Janob Nikitinmisiz? – deganini zo'rg'a eshitdi.

Qirq yoshlarda, bo'ychangina, qora kostumli, qo'ng'ir sochlari-ga oq oralagan ayol jilmayganicha birinchi zalning eshiklari oldidagi kutib oluvchilar to'dasidan chiqib, Nikitin bilan Samsonovga jadal yaqinlasha boshladi. Nikitin ham jilmayib, to'rt shisha konyak joylangan zilday portfelini yerga qo'ydi-da, yuragi dov bermayroq nemischaladi:

– Gerbert xonim-ku! Adashmadim shekilli! Salom! Ha, men Nikitinman. Bu esa do'stim – yozuvchi Samsonov. (O'ta odobli Samsonov frau Gerbertga bilinar-bilinmas bosh irg'ab qo'ydi.) Demak, har qalay, meni tanib olibsiz-da? Suratimdanmi? Rostdanmi?

– Ha, ha, janob Nikitin. Kelganingizdan g'oyat xursandman! Qachondan beri ko'zlarimiz to'rt edi. Umid uzib ham qo'ygandik...

Gerbert xonim Nikitinning qo'l qisishiga javoban qattiq qo'l qisib mehmonning yuziga qararkan, oq oralagan sochlariga yarashmagan, yoshlarniki kabi hayajonli, quvnoq moviy ko'zlarida qo'rquv va

sarosimaga o'xshash yasama jilmayish paydo bo'ldi. So'ngra ayol oldingi so'zlarini takrorladi:

– Ha, ha, janob Nikitin... Marhamat, mashinaga chiqinglar. Sal narida turibdi mashina. Yo'q, oldin yuklarni olamiz. Yaxshi yetib keldingizlarmi?

– Durust, – javob qildi Nikitin. – Tashakkur. To'rt muchamiz sog'.

Zaldan yuklarni olib, aeroport binosidan chiqqanlaridan keyin frau Gerbert hamon jilmaygancha ularni zumda mashina yoniga yetaklab bordi. Nikitin shunda xonim yo'l-yo'lakay, mashina kalitini olish uchun bo'lsa kerak, asabiy tarzda apil-tapil sumkachasi qulfini ochib-yopganini payqab qoldi.

– Janoblar, bir daqiqa diqqatingizni tortaman... Hozir mehmonxonaga boramiz... Chamadonlarni, marhamat, mashina yukxonasiga joylanglar. Janob Nikitin, malol kelmasa, yonimga o'tirsangiz. Yonma-yon gaplashib ketishimiz qulayroq.

Gerbert xonimning yaltirab turgan to'q olcha rangli yangi «mersedes»i qulay, kenggina edi. Keng-mo'l yukxonaga chamadonlar bemalol sig'di. Gerbert xonim yonida o'tirgan Nikitinning dimog'iga xonimdan taralayotgan xushbo'y atir bilan mashinaning sintetik qoplamasi anqituvchi kimyoviy achimsiq hid urildi. U odam uyidan uzoqlashganida doimo dimog'iga gup etib o'zga hayot, begona narsalar hidlari urilishini o'ylarkan, yuragi siqilib ichida: «Mana, yana xorijdaman», deb qo'ydi.

– Sigareta chekasizlarmi? – so'radi frau Gerbert. – Janob Nikitin? Siz-chi, janob Samsonov?

– Tashakkur, samolyotda ko'p chekib qo'yibman. Keyinroq.

– Men ham, – dedi Samsonov. – Hozir chekkim yo'q.

Frau Gerbert yana sumkachasi qulfini tortib, tizzasi ustida ochdi-da, chaqqonlik bilan sigareta pachkasi olib, yutoqib-yutoqib tutun tortdi. Sigareta tutuni mashinaning oldingi oynasi tomon o'rladi. Frau Gerbert shundan keyin ixcham, yupqa charm qo'lqopini g'ijirlatib kiya boshladi.

– Uzi, bir daqiqa diqqatingizni tortaman... – dedi Gerbert xonim. – Gamburgga birinchi kelishingizmi, janob Nikitin?

– Birinchi kelishingizmi, deb so'radigiz-a? Ha. Iltimos, frau Gerbert, shoshilmayroq gapirsangiz. Ko'nikmaganman-da, tushunolmay qolyapman.

Gerbert xonimning afti gunohkorona bujmaydi, sababi, tor va ilonday cho'zinchoq qo'lqopga barmoqlari sira sig'a qolmasdi. Shundan keyin u qo'lqopini yulqib olib, g'ijimladi-da, o'rindiqdagi sumkachasiga tashlagach, mashinani yassi tosh yotqizilgan ko'chaga burib turib so'radi:

– Jilla qursa biror marta Germaniyada bo'lganmisiz, janob Nikitin? Hech qachon-a?

– Urush yillari bo'luvdim. Qirq beshinchi yilda, frau Gerbert.

– Berlindami?

– Ha, uchta shaharda. Berlin, Potsdam, Kyonigsdorfda. Kyonigsdorf chekkadagi, kichkina shaharcha edi, – dedi Nikitin.

– Voy, xudoyim-ey, Germaniyada bo'lgan ekansiz-da! – xitob qildi Gerbert xonim. U yutoqib sigareta tortarkan, dona-dona qilib so'radi: – Ayting-chi, janob Nikitin, nahotki urush bo'lganligini haligacha eslab yursak?

– Afsuski, shunday, frau Gerbert.

Gerbert xonim har bir so'zini xuddi uyda dars berayotganday cho'zib talaffuz etar, Nikitin ham unga shu alfozda shoshilmay javob qaytararkan, noyabr oyida tundroq ko'rinuvchi yomg'ir shivalayotgan shaharga qiziqib qarardi. Shahar yomg'irdan bo'kib, kulrang osmon uylarning tomlarigacha pastlashganday tuyular, do'konlarning peshoyna chiroqlari barvaqt yoqilgan, yo'lkalarda qora soyabon tutganlarning oqimi tinim bilmas, svetofor yonidagi chorrahalarda yo'lovchilar to'planishib turishardi.

Nikitin yomg'ir yuvgan, kuzda ham yam-yashil, bir tekis qirqilib, ustida hurpayma oq chag'alaylar kezayotgan maysazorga yaqinlasharkan, o'zicha mana shu namgarchilik, kuzgi g'ira-shira ko'chalar-u yomg'irda birday ivib peshoynalar yonidan o'tib borayotgan soyabonlar, chorrahalarda yonib-o'chib, ko'chadan ko'chaga o'tuvchi mashinalar oqimiga dam-badam yo'l berayotgan svetoforlarni ham yodida saqlab qolishga urinardi. Garchi u ko'p narsalar keyinchalik baxtga qarshi unut bo'lib, xotirada faqat yillar g'alviridan o'tgan ikir-chikirlar-u mashinadagi atir bilan sintetik koplamalarning kimyoviy hidiga o'xshash islar yoxud Gerbert xonimning ko'p urinishlardan keyin sabri chidamay tor qo'lqopini yulqib olgani, yoki u titroq qo'lidagi oltin suvi yugurtirilgan mittigina zajigalkasini yoqib, sigaretasini tutagani singari harakatlar qolajagini bilsa ham, borini eslab qolish Nikitinning hamishagi odati edi.

Nikitin Gerbert xonimga savolchan qaradi. Frau Gerbert avtomobili kapotida ko'lmakcha hosil qilayotgan yomg'ir zarralariga beparvo qaragan holda sigaretasining kulini mashinasidagi tortib qo'yilgan kuldonga asabiy qoqib tushirdi. Shundan so'ng Nikitin Gamburg ko'chalarining rutubatliligi, soyabonlarga tushayotgan yomg'ir tomchilarini, neon chiroqli do'konlardagi sintetik plashlar hidi dimog'iga urilib, Samsonovga gap qotdi:

– Kuzdagi Nevskiy ko'chasining xuddi o'zi-ya. To'g'rimi, Platon?

– Bo'kib ketibdi, – deb qo'ydi Samsonov o'tirgan joyida qimirlab qo'yib. – Gamburgning tarovati-da bu. Yomg'ir kamlik qilib turuvdi o'ziyam bu yerda. Yaqindan beri namgarchilikni ko'tarolmay qoldim. Bod kasalim qo'zib qolmasin-da, ishqilib.

– Ruscha hangomalashganimiz uchun uzr, – dedi Nikitin Gerbert xonimga o'girilib va barmoqlarini qirsillatganicha jumla izlay boshladi: – Biz kekxa askarlar kuzni yoqtirmasliklarini gaplashdik. Sababi, kuzda jarohatlari qaqshaydi. Hazin fasl... – qo'shib qo'ydi keyin hazilomuz. – Tushunyapsizmi?

Gerbert xonim Nikitinning so'zlarini tushunayotganga, hatto mehmonning gapidan keragidan ham ortiq ma'no uqib olayotganga o'xshardi. U Nikitinga sinchiklab qaradi-da, oq oralagan sochlariga nisbatan qora pilikdek qoshlarini uchirib gap boshladi. Gapi sigareta tortgan paytidagina bo'linib qolardi:

– Hammamiz yoz o'tgach, hazin kuz faslini boshdan kechirsak kerak, janob Nikitin. Ammo kuzdan keyin qish keladi. Unda bundan ham battar bo'ladi. Qishda hamma odamlar qattiq sovqotishadi... Hatto Rossiyanglarda ham. Axir inson umri davlat chegarasi emas-da.

– Ehtimol, – kulimsirab qo'ydi Nikitin. – Bunda ruslarning piymalari ham ish berolmay qoladi.

Avtomashinaning cho'tkalari oynani bir xilda qirtillatib, ezib yog'ayotgan yomg'ir tomchilarini bir tekisda sidirib tushirardi. Mashinaning terlagan o'ng va chap oynalari yonidan turnaqator mashinalar shipillagancha yetib kelib, keyin g'uv-g'uv quvib o'tarkan, yaproqlar yopishgan qora asfaltga benzin bug'larini purkardi. Shunda ham chorrahalarining o'tish joylarida yomg'irdan yalt-yult qilayotgan soyabon tutganlar to'dalashib o'tib-ketib turishardi. Gam-

burgning noyabr oyidagi yog'ingarchilikda g'ira-shira ko'rinayotgan do'konlari va mayxonalari, chiroqlari barvaqt yoqilgan ko'chalar Nikitinga birdan sovuq, xira, etini uvishtiradigan darajada rutubatli ko'rinib ketgani uchun tezroq mehmonxonaga, pokiza, sokin, yap-yangi o'rinli shinam hamda issiqqina xonaga yetgach, hamisha yangi joyga borganidagiday kiyimini yangilab, soqol olib, shundan keyin restoranga tushib, qaynoq, xushbo'y qahva ichgan ko'yi Gerbert xonimdan safarlari dasturini batafsil surishtirgisi keldi. Hamisha xorijda ro'y bergani kabi hozir ham frau Gerbert «Rossiya» so'zini talaffuz etarkan, Nikitinning ko'z oldida olisdagi Moskva chiroqlari yoritgan Arbatning tunggi tor ko'chalari, uni turmush urinishlari, vazifalar, stol yonida o'tirib bajaruvchi kundalik ishlaridan ajratib turgan cheksiz dalalar gavdalandi. U hali o'sha ishlarni bajarish uchun qattiq vijdon azobida, uy, kabineti, sermashaqqat, ammo ohanrabodek o'ziga tortuvchi, ezgu sirlar to'la taxt qog'oz sahifasini sog'ingan qiyofada qaytadi. Shundan so'ng Nikitin uyga qaytish zavqini bir lahza tasavvur etarkan, suhbatdan chalg'imaslik uchun grammatik qoidaga rioya qilib shunday dedi:

– Mening avlodim xususiga kelsak, frau Gerbert, biz qirq ikkinchi yil bahorida navqiron, xushchaqchaq va ayniqsa, baxtiyor edik. Urush tugadi. Tinch mehnat qilish boshlandi. Biz endigina yigirma yoshdan sal oshgandik xolos. Qanday ajoyib. Negadir shu haqda o'ylab ketibman, frau Gerbert.

– Bolakay ekansan, – gapga qo'shildi do'rillab Samsonov. – O'shanda men yigirma to'rtga kirgandim, sen esa judayam go'dak ekansan. Qiziq: zambaraging uchiga tagligingni ilib yurmasmiding ishqilib?

– Undan ham battar, otaxon, har bir jangdan keyin tagliklari-mizni zambarak stvollarida quritardik... UZR, frau Gerbert, biz yana og'aynim bilan ruscha savol-javob qilib oldik.

Gerbert xonim mashina oynasiga tutun purkab jim ketaverdi.

– Biroq... sizning hozir ham xushchaqchaqligingizga ishonish mumkin, janob Nikitin. – deb qo'ydi frau Gerbert ehtiyotkorona. – Menimcha, siz baxtlisiz, sog'-salomatsiz. Kayfiyatingiz ham bir me'yorda, durust...

Nikitin so'nggi jumlaning shamasini yaxshi tushunmagani uchun barmoqlarini qirsillatib, Samsonovni yordamga chaqirdi:



– Platon, iltimos, so'nggi jumlani o'z tilimizga ag'dar. Mening kayfiyatim doim durust va... yana qanday?

– Kayfiyatingiz bir me'yorda, baxtiyorsiz, janob Nikitin, – tarjima qildi Samsonov. – Hm... Qo'shimcha qilsam, yengiltak odamday taassurot qoldiryapsan, bu yog'iga hushyor bo'l. Mabodo men biror bema'ni gap qilib qo'ysam jin ham urmaydi, ammo senga mumkin emas. O'zingni baxtiyorday tut, klassik. Shunday bo'lsin!

– Tashakkur, tushundim. Endi javobimni ag'dar, men chalkash-tirib yuborishim mumkin, og'ir jumla ekan, jin urgur, – dedi Nikitin jiddiylashib. – Qo'polligim uchun uzr, Gerbert xonim. Bilishimcha, mening yonimda faqat beg'am ahmoqlargina har jihatdan to'la baxtiyor bo'la oladilar. Bir me'yordagi kayfiyat esa odamni ko'p nar-sadan saqlaydi. Chunonchi, o'z-o'zingdan ham. To'g'ri, doim ham shunday bo'lavermaydi.

– Janob Nikitin, men sizni...

Gerbert xonim Nikitinga hayratli ko'm-ko'k ko'zlarini tikdi-da, gapini tugatmay boshqa mavzuga ko'chdi:

– Janoblar, hademay yetamiz. Sizlar qadimiy va shinam «Regina» mehmonxonasiga joylashasizlar. Muyulishdan o'tsak bas, janoblar.

Gerbert xonim mashinasini mehmonxonaning oynaband eshigi ro'parasidagi serdaraxt tor ko'chada to'xtatdi. Ko'cha shaharning mashinalar oqimi tinimsiz o'tib turadigan sershovqin katta yo'lidan ancha chetda edi. Nikitin bilan Samsonov mashina yukxonasidan yuklarini olganlaridan keyin gilamlar to'shalgan, g'oyat sokin, hat-to tashqaridagi asfaltga yog'ayotgan yomg'ir ovozi ham eshitil-maydigan keng-mo'l, kimsasiz vestibulga kirishdi. Hamma yoqdan qadimiy jihozlarning isi anqirdi. Peshtaxta ortidan go'shtdor yuzli bir kishi «Guten ta-ag!» deya mulozamat bilan xuddi uydagiday ba-maylixotir chiqib keldi. U frau Gerbertga shivirlab nimadir dedi-da, Nikitin bilan Samsonovga salgina bosh iring'ab, peshtaxta yoniga tak-lif qilgach, pasportlarini so'radi. Ro'yxatga olish ko'p cho'zilmadi. Shundan keyin haligi kishi dumaloq kataklardan mehmonlar-ning har biri uchun raqamli kalitlarni oldi. So'ngra chamadonlarni ko'targanicha vestibul ichkarisidan lift tomon yo'naldi. Oynali de-vorda uning aksi ko'rinib turardi.

– Katta rahmat. Bizni yaxshi olib keldingiz, frau Gerbert, – dedi Nikitin. – Bundan keyingi rejalar qanday?

– Shoshilmayroq gapiraymi, janob Nikitin?

– Hozircha ha, iltimos. Ko'nikib olishim kerak-da hali. Bo'l-masa, Samsonov tarjima qildiraverib charchatib qo'yamiz.

Gerbert xonim jilmaydi.

– Samolyotda toliqib qolgandirsizlar, hozir dam olinglar. Kech-qurun sizlarni uyimda ko'rsam xursand bo'lardim. Soat yettida olib ketgani kelaman. Endi esa... bemalol, xonalaringni ko'ringlar, istasanglar kiyinib, o'n daqiqalardan keyin pastga tushinglar. Sizlarni restoranda kutaman. Birgalikda ozroq ichishimga ruxsat etasizlar. Nima deyilardi? Na vashe zdo-rov-ve-ye? – dedi u ruscha cho'zib va sal xijolatda nemischa so'zlar izlarkan, Nikitin kabi qo'llarini qirsilatib qo'ydi. – Ruschasiga shunday deyiladimi? Yo qo'pol qilib ayt-dimmi?

– Chiroyli gapirarkansiz, frau Gerbert. O'n daqiqadan keyin pastda bo'lamiz.

Ular liftda beshinchi qavatga ko'tarilishdi-da, qalingina, uzun va ko'm-ko'k, yumshoq sintetik gilam to'shalgan yo'lakka chiqib, yonma-yon turgan xonalarini tez topib olishdi; xonalarning eshiklari atayin qiya ochiq bo'lib, chamadonlari ham kiritib qo'yilgandi.

Nikitinning xonasi kuz paytidagiday nimqorong'i, yomg'ir tomchilari deraza oynalarini mayin chertardi. Nikitin plashini yechib, chiroq yoqqandi, ikki kishilik karavotdagi top-toza choyshabli o'rin, yarqiroq oppoq yostiqlar yashnab ketdi. Yostiqlarning ko'rinishiyoq huzur bag'ishlar, ularning yuqorisida yubkchasimon bejirimgina abajurlari bor edi. Katta kiyim shkafi, o'tirib ishlasa bo'ladigan va ustiga ingichka oyoqli priyomnik qo'yilgan yozuv stoli ko'rinib turar, uchta yumshoq kreslo qurshovidagi torsherning pushti rang gumbazi ostidagi jurnal stolchasi yalt-yult qilardi.

«Hamma narsa joy-joyida, nemislarga xos saranjom-sarishta», ko'nglidan o'tkazdi Nikitin galstugini yecha turib. Keyin nim ozonator hidi anquvchi, to'rt burchakli plafonlar yog'dusida yaraqlayotgan oyna, ilgaklari bor xonaga kirdi. «Ishlatilmagan» so'zi yoziqli qog'oz lenta yopishtirilgan ko'm-ko'k umivalnik tepasida dazmolangan, yupqa va qalin sochiqlar ko'rinardi.

mehmonxona-restoran hayoti mana shu yerdan boshlanadi. Muhtaram Vadim Nikolayevich, kimligi hozircha noma'lum frau Gerbert bunchalar mehmonnavozlik ko'rsatishiga qaramay xorijdagi bu o'n kun abadiyatday tuyulsa kerak. O'lguday holdan toyasiz hali. Nachora, kelganingizdan keyin buyog'iga qo'yib bering, chidang endi...».

Nikitin hozir ortda qolgan, bu yerdan olis, yomg'irli, ming kilometr nari masofadagi narsalar, uyi haqida o'ylashni istamasdi. Sababi, bir haftadan keyin kabinet, xotinini, Moskvaning qish arafasidagi noyabr sovuqlarini sog'inib dilxun bo'lishini bilardi.

«Hozircha hammasi a'lo darajada», Nikitin shunday xayol surarkan, chamadonidagi Parijda xarid qilgan galstugi bilan ohorli fransuzcha ko'ylagini kiya turib endi boshqacha, gashtli kunlar boshlanajagini sezardi. Shu payt eshik taqillab, Samsonovning do'rildoq ovozi eshitildi:

– Tayyormisan? Bizni ayol kishi kutayotgani esingdan chiqmasin, klassik.

– Kiraver, erkakchasiga bir ryumkadan otishga qalaysan? Kelganimiz sharafiga, – Nikitin ko'ylagining yengiga zaponka taqayotib, ochiq turgan portfeliga imo qildi. – Men, o'zing ko'rib turganingday, eksteryer bilan bandligimda olib ochgin-da, stakanlarga ellik grammdan quy.

– Buni qara-ya, senga priyomnik, menga xarob tranzistor, xonalarimiz yonma-yon bo'lsa ham sinfiy tengsizlik ayon ko'rinib turibdi, – do'rilladi Samsonov xonaga shubhali ko'z yugurtirib. Keyin Nikitinning portfelidan olgan shishani tishi va eshik kaliti yordamida ochdi-da, stakanlarga jiringlatib quydi. – Qani, Gamburg tuprog'iga sog'-salomat qo'nganimiz uchun olamiz. Frau Gerbertga yoqib qolganingni aytib qo'ya qolay. Uni senga boqishlarini sezingmi? – Samsonov konyakni hidlab ko'rdi. – Oh, hidingdan aylanay!..

Nikitin badaniga yopishib turgan shoyi ko'ylagi va pidjagini kiydi-da, xonasi pokizaligidan mamnun, beg'am qiyofada jigarrang konyak tovlanayotgan stakanni olib Samsonov bilan urishtirib icharkan, bu kuchli ichimlik ko'ksini qizdirib o'tayotganidan tomoq qirib qo'ydi:

– Yaxshi ketdi, qoyil! Kuzatuvchanlik masalasiga kelsak, Plato-sha, Sherlok Xolmsning o'zi ekansan.



– Manavindan gazak qil. – Samsonov choʻntagidan ikkita obaki olib bittasini Nikitinga bamisoli sovgʻaday uzatdi. – Ol, samolyot-da gʻamlab oluvdim. Keyin pastga, frau Gerbertning yoniga tushamiz.

Ular obaki shimgancha liftda vestibulga tushishdi-da, oyoq tovuqlarini yutadigan gilamlar toʻshalgan, koʻzgular, tepadan plafonlar yogʻdu taratayotganiga qaramay nimqorongʻi tuyuluvchi vestibuldagi peshtaxta yonida turgan mehmonxona nozirining bosh irgʻashiga javoban «danke» deya restoranga kirishdi. Restoran negadir boʻm-boʻsh, qorongʻiroq, devorlaridagi chiroqlari xira yonar, bahaybat derazalar ortidan yomgʻir yogʻayotgani koʻrinar, oynalar ham yomgʻir tomchilari bilan qoplangandi.

Sochini silliq tarab, lablariga boʻyoq tortib, egnidagi qora kiyimida juda orasta koʻringan Gerbert xonim deraza yonidagi stolcha oldida oyoqlarini chalishtirib oʻtirardi. Nikitin bilan Samsonov kirib kelganida u oʻqiyotgan qalin menyudan boshini koʻtarib, ularni tabassum bilan qarshiladi.

– Janoblar, aniqlab olaylik, kim nima yeydi-yu, kim nima ichadi?

– Birorta yengilroq ichkilik. Ozgina yogʻsizroq choʻchqa goʻshti, pishloq, qahva, xullas. nonushtabop boʻlsa, – Nikitin shunday deb dasturxonga sigaretasini qoʻyarkan, frau Gerbertga mulozamat qildi. – Sovet sigaretasini chekib koʻring. Kuchliroq, lekin zararsiz.

Gerbert xonim chiroyli tekislangan tirnoqlari bilan qutidan sigareta olib, uning nomini oʻqishga urindi-yu, oʻqiyolmay kulib yubordi.

– O, ruslar!.. Men joʻn sigaretalarni yoqtirmayman, marhamat, sizlar ham chekib koʻringlar, – taklif etdi xonim nemis sigaretasini surib qoʻyib. – Eng asosiysi, nima ichamiz? Konyakmi? Viskimi? Nemis arogʻimi yo rus arogʻi?

– Rus arogʻi Moskvada ichiladi, – deb qoʻydi Samsonov chukur mulohaza qilayotganday ohangda. – Germaniyada nemis arogʻi ichilsa kerak, deymen. Yanglishmadimmi, janob Nikitin?

– Yanglishgandayam qattiq yanglishding, – dedi ruschalab Nikitin, keyin shartta nemischa gapirishga oʻtdi: – Ozroq sizlarning arogʻingizdan ichamiz, frau Gerbert. Urush davridan beri shnaps taʼmini ham unutib yuborganman.

– O, yo‘q! Endi bu boshqacha aroq, urushdan buyon ko‘p vaqt o‘tdi, hamma narsa o‘zgarib ketgan, – e‘tiroz bildirdi Gerbert xonim Nikitinga uzrli qarab. So‘ngra nimqorong‘i zalga o‘girildi. – Gerr ober!..

Sal nariroqda stol tuzab yurgan metrdotel pildirab keldi-da, bo-yagina bularni qarshi olgan mehmonxona noziri kabi muloyimlik bilan tepakal oqsoch boshini frau Gerbertga savolomuz engashtirdi; kraxmallangan oppoq ko‘ylagi, kapalaknusxa galstugi uning oqsu-yaklar restoranining xodimi ekanligini bildirib turar, frau Gerbert aytdan har bir so‘zni oppoq va silliqqina qo‘lidagi qalam bilan blok-notiga yozib olardi. Nihoyat, metrdotel yana boshini odob bilan sal eggan ko‘yi boyagiday mayin odimlab kimsasiz nimqorong‘i zalga yo‘naldi.

– Janob Nikitin, xatimda yozgan gamburglik noshiringiz bu-gun sizni mening uyimda ko‘rish umidida, – dedi Gerbert xonim sumkachasini tizzasiga qo‘yib. – U mendan avvalo minnatdor-chilik izhor qilish va... so‘nggi kitobingiz qalam haqini topshirishni o‘tingandi. Uch yarim ming marka. U ko‘proq to‘lasa ham bo‘lardi albatta. Biroq, taassufki, mamlakatlarimiz o‘rtasida mualliflik kon-vensiyasi tuzilmagan. Janob Veber badavlat odam. Lekin u pulga sa-xiylar toifasidan emas. – Shundan so‘ng Gerbert xonim xijolatomuz jilmayib, Nikitinga «Veber-ferlag» nashriyotining nomi gotik bosma harflar bilan yozilgan qalingina konvertini uzatdi. Keyin sumkacha-sidan boshqa yupqaroq ikkita konvert chiqarib, gapini tamomladi: – Bularda sizga, janob Nikitin va sizga, janob Samsonov, mayda xara-jatlar uchun klubimiz ajratgan yetti yuz ellik markadan bor.

– Sizga ham, noshirimga ham rahmat, – dedi Nikitin. – Osmon-dan tushganday bo‘ldi bu pullar. Ko‘nglimiz ko‘tarildi.

– Gamburddan sellofanga o‘ralgan «mersedes»ni olib ketadi-gan bo‘lding endi, millioner Rokfeller. – Samsonov pulni qappay-ma kartmoniga soldi-da, o‘ylanib turgach, ko‘zoynakli ko‘zi bilan Gerbert xonimga qaradi. – Muhtaram hamkasbimning so‘nggi kitobi qanday tarqalgan, ya‘ni sotilib ketganini bilsak bo‘ladimi?

– Reklama qilindi, shundan keyin kitob Stalin shaxsiga sig‘inish tugatilgandan keyingi sovet ziyolilarining hayoti haqidagi roman sifatida sotildi-ketdi. Janob Veber sharqlik yozuvchiga qiziqish uyg‘otish va bundan foyda olishni o‘rniga qo‘yadi, – frau Gerbert

shunday javob qilarkan, konvertlarni ichki cho'ntaklariga beso'naqaylik bilan joylashtirayotgan Nikitindan ko'zini uzmasdi. Keyin birdan hayratlanib so'radi: – Pul olganda sanab olmaysizlarmi? Yo Rossiyada pul sanab olinmaydimi odatda?

– Sanaladi, men ham sanab olaman, – dedi Nikitin. – Biroq nemislarning batartibligi butun olamga ma'lum shekilli.

– O, bu asta-sekin barham topib boryapti, janob Nikitin.

– Hatto Germaniyada hammi?

– Rossiyadagilar yangi Germaniyani yaxshi bilishmasa kerak.

Nikitin bilan Samsonov hozir mashinada aeroportdan kelayotgandagiday toliqishmagan, mehmonxona nomerida ichilgan konyakdan keyin yayrab, o'zlarini bemalol tutishardi. Sababi, hamma ish o'ylaganlaridan ham ziyoda ketar, kelishlari, mehmonxona, noshir yuborgan bebiliski pul bilan adabiy klubning choychaqasi ko'ngildagiday bo'lgani uchun Nikitin ham, Samsonov ham qiynalib qolishni xayollariga ham keltirishmasa bo'lardi. Bundan tashqari, Nikitin endi frau Gerbertning gapirish uslubi, talaffuzidagi o'ziga yarashadigan sokinlikni aniqroq tushuna boshlaganidan o'zi ham nemischani dadil va bemalolroq gapirardi. U endi xoriydagi hordiq, ishdan bo'shligi gashtini surar, uyda bekor kunlari yozuvlar qalashib yotgan qog'ozga aniq jumla topib yozolmagandagi kabi vijdon azobida qovrilmasdi.

Bu orada ofitsiant jichcha-jichchadan aroq quyilgan jajji ryumkachalar, qayrilma jo'mrak, shokoladsimon is taratuvchi qahva to'ldirilgan temir choynaklar, qaynoq sutli ixcham chinni idishlar, savatchadagi ustiga salfetka tashlangan oppoqqina, yumshoq bulkachalar, yupqa parraklangan qora non, muzlatkichda turgani uchun ustini titrovchi reza tomchilar qoplagan saryog'ning chorqirra bo'laklari solingan idishni chaqqonlik bilan stolga keltirib qo'yardi.

Bularning hammasi: muzday, hidsiz aroq («Sizning sog'lig'ingiz uchun, Gerbert xonim»), saryog' surtilgan kusus-kusus bulkachalar, xushbo'ygina totli qora non parraklari ustiga qo'yilgan cho'chqa go'shti, iforli turk qahvasi-yu, pishloq bo'laklari Nikitinga g'oyat mazali tuyuldi. Shu vajdan ham u hozir o'zini jisman yengil va bemalol sezar, kechikkan nonushta, mehmonxonadagi bo'm-bo'sh bu restoranning sokinligi va tashqarida tinimsiz shivalayotgan yomg'irdan yayrab o'tirardi.

## UCHINCHI BOB

– Yanglishmasam, Gamburgni inglizlar olishgandi shekilli? Biroq shunisi qiziqki, vayronalar ko‘rinmayapti.

– Olishmagan, Platon, qirq beshinchi yilda kirib kelishaver-gan. Oldiniga bir necha kvartalga bomba tashlashgan-da, bema-lol, osongina kirishgan. Garchi bu yerdagilar unchalik qarshilik ko‘rsatishmagan bo‘lsa-da, bomba tashlab keyin shaharni ishg‘ol qilishgan. Nemislar vayron qilingan kvartallarni tiklab olishgan, al-batta.

Yomg‘ir shahar uzra tinimsiz suv zarralarini sochar, osmon-ni bo‘zrang tuman qoplagandi. Sirpanchiq yo‘lka yog‘day yaltirar, yomg‘irdan yalt-yult qilayotgan temir mashinalar asfaltda akslanib o‘tib turardi. Svetoforlarning odimlovchi odamchalar shakli tushi-rilgan chiroqlari soyabonlari nam, ustlariga suv o‘tnas plash kiygan o‘tkinchilar chorrahalarda kuymalanganda dam yashil, dam qizil tusga kirib, yo‘lovchilarning harakatlarini tartibga solardi. Metroga tushiladigan joylar tepasidagi cho‘zinchoq teshikkulcha nusxa «L» harflari neon nuridan bo‘zarib turardi. Xiyobonlardagi ko‘m-ko‘k maysalar nim xira tortgan, ko‘lmaklarda sarg‘ish yaproqlar, sovqot-gan hurpayma oq chag‘alaylar gulpushtlardagi sarg‘ish yaproqlarni bir-bir bosib yurishardi. Hammayoqdan kech kuzak isi kelar, qayoq-qa qaramang, shildir-shildir, sovuq, yaqin dengizdan yoqimsiz nam-garchilik ufurardi.

– Taajjublanarli narsalar ko‘p, – dedi asta Nikitin o‘tkinchi-larning odatdagi xotirjam chehralariga bir qur nazar tashlab. – Ikko-vimiz hamma mashmasha boshlangan nemis tuprog‘ida yuribmiz-u, o‘lay agar, masalan, manavi tuppa-tuzukkina amaki... – u may-xona eshigi yonida parvoyi falak arzon ingichka sigara chekib tur-gan katak plashli kekxa, horg‘in odamga qaradi, – manavi amaki tomog‘i yirtilguday «xayl» deb baqirib, senga yoki menga Staling-rad bo‘zag‘asida o‘q uzganiga ishongim kelmayapti. Yo manavinisi o‘shanaqami? – Nikitin ko‘zini ushoqqina, ko‘rinishidan muloyim, qorin qo‘ya boshlagani uchun paltosi tiqilibroq turgan nemisga tikdi. Nemis bir qo‘li bilan soyabonini boshi uzra tutib, ikkinchi qo‘lida yo‘lka yonidagi loyga belangan «folksvagen»ining eshigiga kalit so-lardi.



– O‘xshaydi-a? Oila boshlig‘i, pivoxo‘r, gapga chechan, kech-qurunlari bolalarini tizzasiga oladi... Muloyim odam. O‘q uzish qo‘lidan kelganmikin? Odamlarni otish, osish-chi? Mana shunisi ta-ajjub, Platon, mana shunisi...

– Xo‘sh, «xayl» deb qichqirib o‘q uzgan kim bo‘lmasa? – to‘ng‘illadi Samsonov. – Hammasi muloyim, ko‘ngilchan, ajoyib odamlar ekan-ku... O‘q uzgani kim o‘zi?

– «Kim» emas, «nega» va «nima sababdan?» Gap ana shunda.

– Turqidan bilish qiyin, Vadim. Aksincha, chalkashtiradi.

– Ko‘ramiz, ko‘ramiz...

Nikitin toshdan qurilgan, qop-qora, tepasidagi ko‘kimitir «S» harfi yog‘du taratuvchi zallari do‘konga o‘xshash charog‘on vokzal yonidan o‘tayotganlarida oynaband gazeta kioskasi oldida to‘xtadida, peshoynadagi yoyma va terib qo‘yilgan rasmlı jurnallar orasidagi muqovalari chiroyli kitoblarning nomlarini bir boshdan ovozini chiqarib o‘qiy boshladi:

– «Kendi». Yosh qiz haqidagi roman. «Madriddagi qotillik». Tushunarli. Bularda nima moda bo‘lsaykin? Tarjimani eplayolmasam to‘g‘rilab tur, Platon. Frans Kafkaning kitobi arzonlashibdi. Ko‘ryapsanmi? Yigirma olti markadan o‘n yetti markaga tushibdi. Bu qandaysi bo‘ldi? Yaqinda G‘arbda hammaning tilidan tushmay yuruvdi-ku. Burchakda turganlari yangi kitoblar. «Petening turmadan xotiniga yozgan xatlari». Qiziq. U turmadan xotiniga nimalarni yozganikin? Genri Millerning «Saraton tropigi». Shahvoniy roman. Tushunarli. Manavinisi nima? «Ikkinchi jahon urushi». Bu boshqa gap. Ketishimiz oldidan hech bo‘lmasa shu kitobchani olishimiz kerak.

– O‘ng burchakdagi qizil muqovaga qara – dedi Samsonov peshoyna ustiga engashib. – Maoning sitatalari. Xo-xo! Yonidagi «Gitler o‘lganmi?» degan kitob. Qiziq, bularni kim olarkin?

– Buni frau Gerbertdan so‘rash kerak. «Gitler o‘lganmi?» niyam olsak bo‘lardi.

– Ko‘zing yetadimi? Bojxona-chi? Bexosdan tekshirib qolishsa-chi? «Chet el adabiyoti bormi?» Ana o‘shanda ko‘rasan tomoshani.

– Hech narsa qilmaydi. Bu kitoblar ommaviy kutubxonalar uchun emas, shaxsan foydalanish uchun sotib olinadi. Yozuvchi bo‘lgandan keyin hammasini bilishimiz kerak, mutlaqo hammasini.



– Nimani bilish kerak? Nimasi tushunarsiz? Kim o‘q uzgani-ni tushuntirib beraman. Hozir qirq ikkidan oshganlarning hammasi, ha, hammasi o‘q uzgan, Vadim. Bir vaqtlari bizda Gitlerni «jinni», «telba yefreytor», «shol» deb yozganlari aniq ta’rif emas. U ishon-tirish quvvatiga ega dahshatli shaxs edi. Nutq irod qilgan paytlarida nemislar, ayniqsa, ayollar hayajonga tushib, ho‘ngrab yig‘lashardi. Shuni bilasanmi?

– Juda u qadar bo‘lmasa ham tushunarli, ravshan. Menga ba’zi bir muhim detallar haligacha qorong‘i, Platon, g‘arb nemislarini umuman bilmayman hisob. Uneksplored. Jumboq. Ular kimlar o‘zi? Qanday odamlar? Haliyam ilgarigidaymilar? Askarlarga buyuril-gan uchta «naql»ni hanuzgacha unutmayman. «Fyurerga ishon, bo‘ysun, jang qil...» Mayli, ko‘rarniz. Biz hech qanday muzey-pu-zeyga bormaymiz albatta. Muzeylar odamni chalg‘itadi. Bitta istisno bor. Halok bo‘lganlarga o‘rnatilgan yodgorlik bilan portni ko‘ramiz. Eng muhimi, ko‘chalardagi odamlarning ko‘rinishlari va ko‘zlari... Kelishdikmi?

– Bo‘pti.

– Bo‘lmasa, ayn moment, yodgorlik qayerdaligini aniqlaymiz.

Nikitin shaldiroq plashining tugmasini yechib, yon cho‘ntagidan shahar xaritasini oldi. Uni mehmonxonada cho‘ntagiga solib qo‘ygandi. Hozir ustiga mayda yomg‘ir tomchilari tushayotgan xa-ritada aks ettirilgan ko‘chalar tarmog‘iga ko‘z tashlab, uni yana cho‘ntagiga joylarkan, dedi:

– Bu yerdan olisroqda ekan. Piyoda bora qolamizmi, nima de-ding? Rozimisan? Ko‘chalarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rsam, degandim. Qiynalib qolmaysanmi?

Notanish odamni dastlab ko‘rganingizda yoqishi yo yoqmasligi ma’lum darajada uning ko‘rinishi rol o‘ynagani kabi begona shahar (faqat xorijdagina emas) bilan ilk to‘qnashuv ham Nikitinda beixti-yor qiziqish uyg‘otdi. Shuning uchun ham ko‘chalardagi ola-chipor olomon, gavjum yo‘lkalar, metro va tramvaylarning tiqilinchligi-ga, pivoxonalar-u kichik mayxonalar, g‘ovur-g‘uvur ko‘ngilochar qovoqxonalarning liq to‘laligi maroqli tuyular, savdo rastalaridagi keti uzilmas xaridorlarning nimagadir e’tibor berib, tashvish torti-shi yoki loqaydmi, kulimsirabmi, qovoq solib o‘tib turishlari, go‘yo yo‘qlikdan kelib, yana yo‘qlik sari ravona bo‘layotganlari, chala-

yarim eshitiluvchi gaplari, kimningdir tushunarsiz imo-ishorasi... bari-bari diqqatni tortardi. Bular hammasi to'xtovsiz hayajonlantirayotgani uchun ham Nikitin chamasi qandaydir o'zligini unutgan, ilk bor ko'rayotgan odamlarga qo'shilib ketganday bo'lardi. Ayni vaqtda bu odamlarning yashirin, Nikitin anglamoqchi bo'lgan, lekin anglolmayotgan turmush tarzlari ayri tushib ham turardi. Shuning uchun ham Nikitin qiynala-qiynala hamon sirligicha qolayotgan narsalarni aniqlash umidida derazalarga nigoh tashlardi. Bitta derazaning harir pardasi yopiq qolibdi, xona ichkarisidagi ko'zgu qarshisida sochini tarayotgan ayolning soyasi ko'rinyapti («ayol yolg'iz, yonida kim bor-u, ayolning o'zi kim ekan?»). Tun sukunatiga cho'mgan qorong'i hovlilar, siyqa eshik taglari, olis qadam tovushlari eshitiluvchi sirli zina maydonchalari, yuqori qavatdagi eshik taqillashi, devorlariga telefon nomeri-yu nomlar egri-bugri yozilib tashlangan avtomat budkachalar, bo'sh mashinada qolgan sigareta qutisi yoki xiyobon o'rindig'ida unutilgan sahifalari ochiq jurnal Nikitinda insonning jumboq hayotini bilishga qizg'in ishtiyoq uyg'otdi. U bolaligida bir kuni bexosdan ko'chada kimdir tushirib qoldirgan yangigina, qizil charmli, zarrin qulfchasi yaltiroq hamyon topib olganida ham shunday bo'lgandi. Nikitin bu hamyonni qandaydir aybsinish bilan orqa hovlida qayin g'o'lalari ortidagi kaptarxonaga yashirib qo'yuvdi. Goho u tirqishlaridan quyosh nuri tushuvchi, parrandalarning pat, qurigan tezagi anqiyotgan kaptarxonada o'tirgancha kimgadir tegishli jajjigina qalamtarosh, tartibli buklangan uch rubllik, kimningdir labiga picha ishlatilgan, qip-qizil, mazasi chuchmal siqma lab bo'yog'ini soatlab kuzatib o'tirarkan, bu narsalarni kimningdir qo'lida turganday tasavvur etar va qo'rqa-pisa o'sha notanish ayolning qiyofasi, bo'y-bastini ko'z oldiga keltirib, ovozini eshitganday bo'lardi. O'sha ayol nazarida yosh, ma'yus, xuddi mana shu sadaf qalamtaroshday benihoya bejirim, derazasi o't o'chiruvchilar binosining ertalabki oftob nurida qizigan qalin devorga qaragan xonasida tanho o'zi o'tirganday tuyulardi. Biroq tasavvuridagi u ayol o'zining ko'p qavatli uyi va Moskva daryosi ortidagi ko'chada yashovchi birorta ham ayolga o'xshamas, husni, qaddiqomati, yurishi boshqalardan ajralib turmas, o'zi go'zal, kamsap, g'amgin, chamasi qadimiy javon va ko'zgusi bor salqingina, shinam va nimqorong'i xonasida yolg'iz o'zi edi. Nikitin yoz saharxezi bu



notanish ayolning ochiq derazasiga asta yaqinlashib, qizg'ish deraza rafiga qalamtarosh, lab bo'yog'i va uch rubl pulli ixcham bejirim hamyonni tashlaganini va o'zining bu mardonavor ishidan erigan holda juvonning hayratda: «Kim u?» deganini ham tasavvur qildi.

Bolalikdagi ro'yobga chiqmagan bu sinchkovlik tafsilotlari allaqachonlar unut bo'lganiga qaramay, undan qandaydir sokin va elas-elas xotira qolgan, yoshi ulg'aysa ham o'zgalarning pinhoni hayotlarini bilish ishtiyoqi hamon iztirobli zavq bag'ishlab kelardi.

– Mana u, – dedi Samsonov. – O'qi. «Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan va bedarak ketgan askar va zobitlar xotirasiga. 1939 – 1945 yillar». U yog'i: «Hammamiz halok bo'lsak ham Germaniya boqiydir».

– Nachora, zo'r gap, – deb qo'ydi Nikitin. – Qani, bu yog'ini ham ko'raylik-chi, Platon.

Yodgorlik salobatli, tund, qora toshini yomg'ir yuvgan, unsiz, zich saf tortgan, jahannam yoxud abadiyat sari odimlayotgan askarlarning tun og'ushidagi bareflari qad ko'tarib turardi. Qurol-yarog'lar, kaskalar, ko'zlari noaniq jonsiz yuzlar. Pastdagi tosh to'shamalarda qora temir gulchambarlar sovuq yaltirar, yoniga yangi gulchambarlar qo'yilgandi. Oq va qora shokilali motam lentalari yomg'irdan yerga qapishgan, ulardagi malta xochi tasvirlari vahimali tuyular, temir gulchambarlar orasida yangi uzilgan astralar, qip-qizil nozik chinnigullar yotar, ularning qizil barglari isqirt plitaga va gulchambarlardagi gotik harflari bilan bitilgan: «225-piyoda askarlar diviziyasida jang qilgan askarlardan», «Bundesverning zaxiralari-dan», «Sobiq uchuvchilardan», «Sobiq jangchilardan» degan yozuvlar ustiga ham qon tomchilari kabi to'kilgandi.

Shu choq nogahon Nikitinning dimog'iga temir aralash tuproq hidi urilganday va pulemyotlarning tarillashiga o'xshash ovozlar, oftob jaziramasida orasidan kimningdir: «Tanklar!» degan faryodi ayon eshitilganday bo'ldi. Stvolning yon tomonida ko'ringan tank zirhining nafasni qaytaruvchi otashi urilganday, tank motorlarining vag'illashidan qulog'i bitib, sintetik benzinning murda isi kabi badbo'y hidi, o'q-dori gazlarining zarbidan ko'ngli ag'darilganday tuyuldi...

Nikitin ana shularni eslarkan, quloqlari zirqirar, to'plar har gum-burlaganida ko'tarib tashlashi va ikkinchi vzvod komandiri Shi-



kanovning tanish hirqiroq ovozi, jilmayganda ko'rinadigan tekis tishlari, sigirniki singari oqish kipriklarining titrashi ko'z o'ngidan nari ketmasdi. O'shanda Shikanovning qoq ikkiga bo'lingan yarim yalang'och jasadi qontalash nimtaday qarag'ayga ilinib qolgan-di. U to'pning qalqonini bo'yagan qon jazirama oftobda yaltirab ko'rinayotgan tinchoqar Psel daryosi yaqinidagi qizigan qumga singib ketayotganini ham ko'ruvdi. Tanklar daryoning chap qirg'og'ida hujumga o'tdi, Shikanovning vzvodi esa birinchi bo'lib daraxtzor chekkasidagi marrani egallab, okoplar qazib-qazimay o't ochdi. U Nikitinning vzvodidan ikkita snaryadni ortiqcha otib, o'zib ketgandi.

Kechqurun esa ishg'ol qilingan Gadyache shahrida jangdan keyin o'lja olingan rom ichishdi, Nikitin o'shanda qandaydir g'alati qiyofada batareya komandirini hayron qoldirib, daraxtzor chekkasidagi marrani mening vzvodim egallab, birinchi o't ochsa Shikanov omon qolardi, deb baqirgandi. U tasodif va omadi ofat keltirgani uchun o'zini shu tariqa oqlagandi. O'sha paytlarda Nikitin hali urushda hech kim qismatga chap berolmasligini tushunmasdi. Shoshma-shosharlik qilib noaniqlikka yo'l qo'ygani uchun qismat Shikanovni ayovsiz jazoladi. Nikitin ogohlantiruvchi bunday jazolarni bir necha marta ko'rsa ham baribir uni urush oxirigacha aql bilan ish tutishga o'rgatolmadi. Yoshlik tajribadan o'rnak olmas ekan. Ammo oradan ko'p yillar o'tgach, sovuq terga botib uyg'onarkan, tushida unga ko'z tikkan mash'um qismat sal yanglishib boshqalarni mahv etganini bir necha marta boshidan kechirdi. Tanklar hujumida halok bo'lganlarning yuzlari va ovozlari eslash nihoyatda og'ir edi. Odamlar umriga chovut solgan bu ashaddiy riyokor qismat urush bilan chambarchas bog'liqdir.

– Nega qovog'ingni solib olding? – so'rab qoldi Samsonov. – Nimalarni o'ylayapsan? Yur endi. Yetar.

– Sabr qil. Ko'raylik...

Nikitin hamon sochilgan gullarning qora to'shamalarga qapishib yotgan barglari, qabristondagi kabi lentalari so'nik gulchambarlarning uchli va nam temirlaridan ko'zini olmay turarkan, toshdagi ana shu nam gullardan, lentali qora malta xochlari, yomg'irda ivigan lentadan ajal isi anqiyotganday bo'ldi. Bir vaqtlari, kuzakda o'rmonning qalin joylari, yomg'ir rasvosini chiqarib yuborgan yo'llardan o'tganlarida dimog'lariga murda hidi gupillab urilgandi.

O'shanda yo'llarning chekkalaridagi ariqlar bo'yida o'sgan qirqu-loqlar ham shalabbo, nemislarning loyga botgan protivogaz qutilari, abjaq yassi koteloklari, ag'darilib yotgan, loyqa suvli kaskalari ham ko'rinardi. O'rmon yo'llaridagi irigan jasad hidi dimog'ni bo'g'ar, nafas olgani qo'ymasdi.

«Bu nimasi bo'ldi? – dedi Nikitin ichida o'zidan o'zi nafratlanib jirkanarkan. – Yengolmayapmanmi? Unutolmayapmanmi? U mendan kuchliroqmi? Nega men boshqa o'limni, onasi, xotini, qaylig'i to'kkan ko'z yoshlarni tasavvur qilolmayapman? Nega ular rahmimni keltirmayapti?»

Yon tarafdin ohista yaqinlashayotgan qadam tovushlari eshittildi. Yodgorlikka qotma, baland bo'yli, beli tor sarg'ish palto kiygan erkak yaqin keldi. Uning boshida shlapasi yo'q, oqara boshlagan sochlarining farqi ochib qo'yilgan, soqoli olingan yuzi tund va xotirjam ko'rinardi. U bir barmog'i bilan gulchambar lentasini to'g'rilab qo'ydi. Lentada gotik harflar bilan bitilgan: «225-piyoda askarlar diviziyasida jang qilgan askarlardan» degan yozuv bor edi. Gulchambarli kishi shundan keyin boshini engashtirgan ko'yi bir necha lahza xayolchan tek turib qoldi.

«Bu nemis nimalarni o'ylayotganikin, o'tmishdagi zafarlarnimi yo mag'lubiyatlarinimi? Yo halok bo'lgan polkdoshlarinimi? Yoshi ellikka yaqinlashib qolganga o'xshaydi. Demak, jang qilgan. Qayerda? G'arbdami? Yo Sharqdami?»

Nikitin sinchkovligi tutib nemisdan, Sharqiy frontda 225-diviziya tarkibida ruslarga qarshi jang qilmaganmisiz, deb so'rashga tayyor ham edi. Biroq nemis yonidagilar o'ziga e'tibor berishayotganini sezdi shekilli, Nikitinga sovuq bir qarab qo'ydi-da, yodgorlikdan nari ketdi. So'nggi urfdin tikilgan kuzgi paltosi yag'riniga yopishib turardi.

«Yoshiga qaraganda gaupman yoki mayor bo'lsa kerak», deb ko'nglidin o'tkazdi Nikitin. U adashishi mumkinligini bilar, shunday bo'lsa ham nemisning kimligiga bosh qotirganicha zobit mundiridagi yag'rinini ko'z oldiga keltirdi-da, ko'zoynagini dastro'moli bilan artayotgan Samsonovdan so'radi:

– Masalan, manavi kim bo'ldi?

– Senga o'q uzgan nemis, – javob qildi Samsonov hasratli ovozda. – «Doychland, Doychland yuber alles». O'zini harbiycha tutishi-

ni sezdingmi? O'-ho'. Yana bittasi keldi-ku. Uning bundesver lashkari bo'lajagi, kimdir zimdan «uchinchi reyx»ning ilgarigi buyukligi xususidagi gaplarni qulog'iga quyayotganiga shak-shubham yo'q.

Nikitin yoshi o'n birlardagi, kalta shim, loy sachragan oq va uzun paypoq kiygan bola yodgorlikka yaqin kelganini ko'rdi. Bola erinibgina saqich chaynaganicha tosh to'shamalardan tap tortmay xuddi sport maydonchasidagiday qo'llarini langar qilganicha yura boshladi. Gulchambarlardan to'kilgan gullarning barglari sariq botinkasining tagida ezilardi. Bola shundan keyin dumaloq qornini shishirib, ingichka boldirlarini taranglatdi-da, sakrab-sakrab barelyefdagi pulemyotning bo'rtiq stvolini ushladi, og'zida chaynayotgan saqichdan pufakcha chiqarib, to'shamadan sakrab tushdi. So'ngra to'ssiq ortidagi yaproqlar to'p-to'p qalquvchi va oq chag'alaylar bor ovozda chinqirayotgan hovuz tomonga yurdi. Oq chag'alaylarning sarg'ishroq hovuzdagi sayrog'i olisdan ham eshitalardi. Qushlar tumshuqlarini cho'zganicha hovuz bo'yida bir-birlarini quvlashar, jon holatda qanot qoqishar, yonginasidagi erinchoq o'rdaklar bo'yinlarini likillata-likillata to'kilgan yaproqlar oralab chag'alaylardan uzoqlashardi. Oq va uzun paypoqlari loyga belangan bola bo'lsa hovuz aylanib choparkan, chag'alaylarga yo'l-yo'lakay oyoq silkir va og'zida pufak yasab, to yorilib ketguncha puflardi.

– Tom Soyer... O'xshaydimi? – dedi Nikitin.

– Nemis nasabidan, – uning gapini to'g'riladi Samsonov. – Qani, jildik endi. Bu yerda hammasi ravshan. Mashhur Reeperbanga transportda boramizmi? Yo yana piyoda sudralamizmi? Ivib ketmadingmi, Vadimushka?

– Jin ursin seni, metroda bora qolamiz.

Yomg'ir shivalab turardi. Ular sovuq yelvizakli, selgigan plashlar va soyabonlar hidiga to'la metroga tushishdi.

Ular metrodan Reeperbanga chiqqanlarida yomg'ir tingan, qora bulutlar port atrofi va ko'zdan pana dengiz uzra pastlab suzar, osmon ko'pchib, bahaybat bulut parchalari tunuka tomlarga tekkuday bo'lib siljirdi.

Bu yerda, hatto metro yaqinida ham hamma narsa mehmonxona atrofidagi markaziy, shinam ko'chalarga o'xshamas, bari bo'lakcha, dabdabali, g'alati, ulkan, madaniy shaharlardagi maishatparastlar

ehtiyojini qondirishga tayyor Gamburgning huzurbaxsh, hamisha mehmondo'st sohiliga qadam qo'yadigan turli millatlarga mansub sayyohlar va savdo flotining dengizchilariga mo'ljallab kimdir o'ylab topgan (bir oqshom, bir kecha, bir soatga) hayotdan darak berardi.

– Mashhur San-Pauli rayoni mana shu, – dedi Nikitin. – Fosiqlik dargohi. Vino. Ishratxona.

– Hm, – deb qo'ydi Samsonov. – Ko'rinib turibdi.

Bu yerdagi har bir burchakda mayxonalarining qo'poldan qo'pol viveskalari, ixcham islovatxonalar, restoranlarning, Amerika klublarining reklamalari turlicha rangda tovlanardi. Chor-atrof dansinglar, tungi kabare, «Tabu», «Kolibri», «Mulen Ruj», «Safo» kabi shahvoniy nomlar bilan to'la, peshoynalarida yalang'och va do'ndiq ayollarning turfa alfozdagi rangli suratlari ko'zga tashlanardi. Ularning hammasida ayollarning behayo, sharmsiz rasmlari aks etgandi. Xullas, bu og'uli, inson sharm-hayosini oshkora toptovchi, shahvat bandalariga makon bo'lgan joy edi.

Reeperban hozir kunduzdagiday gavjum emas, chiroqlar hali yonmagan, reklamalar charaqlamas, tungi kabarelar ishga tushganicha yo'q, dansinglar ochilmagandi. Nikitin klublar va kinoteatrlarning chorlovchi viveskalarini ko'rganida o'zicha xayol qilgan oqshomgi sermijozlikdan hanuz darak bo'lmasa ham ko'chada harakat boshlanib ketgan, birin-sirin tungi hayot kuchga kirar, o'rtamiyona qorong'i mehmonxonalar, mayxona peshoynalari ortida, hovli yoki darvozaxonalarda g'imirlayotganlar ko'rinib qolardi. Shuning uchun ham formali palto kiygan, epchil va barvasta qo'riqchilar eshiklar yonida esnab yurishar, goho yo'lkadan kelayotgan o'tkinchilarning yo'llarini surbetlarcha to'sib chiqib, kaftlaridagi surat, qandaydir biletlarni ochib ko'rsatishar va hirqiroq ovozda lablari lablariga tegmay:

– Yangi kino! Kirish haqi uch marka!.. Axborot uchun uch marka! Suv tekin! – deb qichqirishardi.

– O'n besh daqiqa uchun besh marka! Yoshgina shved qiz... Bir-birlarini yaxshi tushunadigan go'zal ikkita mulat qiz ham bor!

Bu yerda, yo'laklarda soyaga o'xshash, rangpar, pul ishlash payidagi ko'zlari tamagir, uchi ingichka botinkali yigitlar darvozaxonalardan sirpalib chiqishar, tor ko'chalar to'ridan sho'ng'ib chiqib,

shivirlagan ovozda qayergadir kirishni taklif etishardi. Ayni vaqtda sochlari oppoq qora kiyimli odamlar yigitlarni qattiq kuzatib ko'chaga ko'z-quloq bo'lib turishardi. Hamma joyda, derazalar tagida, darvozaxonalar va mayxonalarning eshiklari yonida qo'llaridagi ochiq soyabonlarini o'ynagan ko'yi katta yoshli, yuzlari salqi, qattiq pardozi qilgan fohishalar ko'rinishar, yonlaridagi kalta yubka kiyib, bilaklariga sumkacha osgan yosh fohishalar ham bemalol sigareta chekib turishardi.

Mehmonlar bu ko'chada to'xtashmadi, chaqirganlarga javob qilmay, yo'llarida davom etishdi. Ular yenglarida otkritka tutgan, ketlaridan qolmay shivirlovchi rangpar yigitlar, po'pisali o'qrayuvchi savlatli kishilar, mehmonlarga ko'z uzmay tikilayotgan kekxa, semiz qo'shmachi ayollar hamda yoshgina, sirdan qaraganda farish-taday pokiza, sarg'ish sochli, qovoqlarini ilk bor ko'kimtir rangga bo'yagan qizlarga o'xshovchi kunduzgi fohishalar oralab naq tikkanli simlar orasidan o'tib borayotganday keta boshlashdi. Nikitin ham tevaragidagi bu behayolliklarning barini kimdir qonuniylashtirib qo'yganidan odat tusiga kirib qolganini sezib oldi. Shu vajdan bu yerdagilar inson hirsiga daxldor jamiki narsalarni bilishar, ishva, noz, g'amzalar yod bo'lib ketgan, narxlar ham didga yarasha, ko'ngil nimani tusasa, o'shani qilish mumkin edi. Nikitin shularni o'ylarkan, negadir juda ezilib, siqilib ketdi, yuragi zirqiraganday bo'ldi.

Ular kunduzgi fohishalar kvartalidan o'tib, muyulishda, tor ko'chaga burilaverishda bukchaygan, ko'rinishi qarimsiq shveytsar-ga duch kelib qolishdi. Zarrin jiyakli forma kiygan, chala uyqu, soqoli o'siq bunday shveytsarlar odatda mehmonxonalar eshigi yonida turguchiydi. Ajindor yuzli horg'in shveytsar mehmonlarga ta'mali imo qildi-da, shivirlab yolvora boshladi:

– Janoblar, uch markagina bersanglar... Pugal maydonidan keltirilgan qisqa fransuz filmlarini ko'rishinglar mumkin. Ko'rib turibman, nemis emassizlar, bir nazar tashlab qo'ysanglar yomon bo'lmaydi, So'nggi filmlar. Mana, bilet, janoblar, uch marka arzimas pul... ishontirib aytamanki...

– Kirib o'ta qolamizmi? – so'radi Nikitin Samsonovga ikkilanib-roq yuzlanib. – Bir ko'rsak ko'ribmiz-da. Hamma narsani bilishimiz kerak, shunday bo'lgach... Nima deding?



– Mayli, ko'rsak ko'raveramiz, foydasi tegib qolar, – javob qaytardi Samsonov negadir yuziga qon tepib, so'ngra shveysarga olti marka mayda pul sanab berib, to'ng'illab qo'ydi: – Bilsak bila qolaylik.

Ular yon tarafdin yugurgilab kelgan eshikbon egilib-bukilib ochgan ensizgina eshikdan kirib, nim yorug' tosh zinadan chuchmal zax hidli issiq atir anquvchi yerto'laga tushishdi, zina oxiridagi ichkarini to'sib turgan vazmin baxmal pardani surishdi. Shunda choqqina g'ira-shira zal to'ridagi ekrancha yorishdi. Ovozsiz bu film mehmonxona nomeridagi erkak bilan ayolning behayo harakatlarini namoyish qilardi.

Nikitin bo'sag'adayoq nimqorong'i zalga tikilib bo'sh joy qidir-di, stullar hech yerda ko'rinmasdi. Zalda bir necha stolchalar bo'lib, devorlarda qizil chiroq yoniq turar, qorong'ilikdan burchakdagi mayxonaning qizg'ish oynasi yaltirardi. Dastlab bu zal ham, mayxona ham tashlandiq, kimsasizday tuyuldi. Keyin o'ng tomondagi ko'zgular yonida uchta ayol gavdasi ko'zga tashlandi. Ular yon tomondagi pardaga yaqin stolcha tevaragida o'tirishardi. Shu choqulardan bittasi cho'zibroq:

– Hello-o! – deb qo'ydi.

Ekranning stulsiz, tund zalga tushgan ko'kimtir yog'dusida ikkita qizning o'milaridan turib, shoshilmay qilpanglagancha yaqin kelayotganlari ko'rindi. So'ngra kinoteatr kontrolyorlari kabi («ayn moment») Nikitin bilan Samsonovni yarim doira shaklidagi lojaga boshlab, stolcha yoniga o'tqazishdi-da, nafas bo'g'adigan atir hidi burqsitib, bu mayxona-kinoteatrning udumi shunday, demoqchiday shartta ikkovining o'rtasiga o'tirib olishdi.

Nikitin yonida o'tirgan qizga qarashga ulgurmasidan uchinchi, chamasi, ofitsiant qiz yaqin kelib, qo'l fonarini yoqdi. Shunda Nikitin uning sarg'ish sochlari, chuvak yuzini ko'rib, talaba ekanligini taxmin qildi. Qiz tomdan tarasha tushganday, janoblardan nima ichishlarini so'radi.

– Nima ichmoqchisizlar, deysizmi? – Nikitin nemischalab qayta so'radi-da, picha boshi qotib turgach «Qo'mondonlikni qo'lga ol», deganday Samsonovga imo qildi.

– Koka-kola, – Samsonov biror narsa buyurish zarurligini bilgani uchun eng arzon ichimlik nomini aytdi. – Ikkita.

«Bu qizlar kim bo'ldi? Nega ular o'rtamizga o'tirib olishdi? – Nikitin shularni ko'nglidan o'tkazarkan, darhol sertakalluf yapon geysalarini esladi. – Balki bular ham shu yerda ishlashar, tomoshabinlarni zeriktirmasliklari kerakdir. Bu qiziq, ammo hojati yo'qqa o'xshaydi».

Dam o'tmay, stolchada ikki shisha muzday koka-kola, rom quyilgan ikkita kichkina qadah paydo bo'ldi. Qizlarga shundan keyin jon kirib, g'imirlashib qolishdi, tirjayganlaricha koka-koladan quyishdi. Qizlardan biri koka-kolani Samsonovga, ikkinchisi Nikitinga uzatgandi, Nikitin axiri unga qaradi. Nikitinning yonida o'tirgan qiz bug'doyrang, yonoqdor, shahlo va tim qora ko'zlari ifodasiz, yupqa sviteri ko'ksini bo'rttirib turar, oyog'ini chiroyli chalmashtirib olgan, yubkasi tor va kaltaligi uchun oppoq sonlari ochilib qolgandi.

Qiz qadahdan bir ho'pladi-da, oyog'ini qimirlatib, imo bilan Nikitindan sigareta so'rovdi, Nikitin bajonidil unga sigareta berib, gugurt ham chaqdi. Gugurt yorug'ida qizning qalin burni, quyug bo'yalgan kipriklari, sigareta mundshukini halqaday qisib olgan do'rdoq lablari, qizil bo'yoqdan yaltirayotgan doirasimon timoqlari ko'rinib ketdi. Qiz sigaretani shoshilmay chekarkan, oyog'ini yana qimirlatib, tizzasini Nikitinga tekkizdi, bamisoli mushuk suykalib o'tganday kafti bilan sochlarini siypaladi.

– Mening ismim Geda, – dedi u shivirlab. Keyin qo'li Nikitinning yuzida to'xtadi-da, qulog'ining yumshoq joyini chimchilab qo'ygach, qo'shimcha qildi: – Sen kimsan, inglizmisan? Namuncha jiddiy bo'lmasang!

– Geda? – Nikitin qayta so'rarkan, qizning sovuq, achimsiq alkogol hidi kelib turgan qo'lini yuzidan olib tashladi.

Bu bilan u bunaqa behayolikka tobim yo'q, demoqchiday ekranga tikilib o'tiraverdi. Ekrandan esa behayo sahnalar davom etardi... Nikitin filmni oldiniga mubham qiziqsinish, so'ngra ensasi qotib tomosha qilarkan, tomog'iga ko'ngilni aynituvchi nimadir tiqilganday bo'ldi.

– Ingliz, ich...

Nikitin lojadagi shiqir-shiqirlarga chalg'ib, qovog'ini ochmay ekrandan ko'zini uzarkan, qo'l fonarining yorug'ida stolchalari-da paydo bo'lib qolgan vino, ikkita timqora shisha, to'rtta qadahni ko'rdi. Ofitsiant indamay qadahlarga vino quyardi. Geda Nikitinni

zimdand kuzatib, vino ho'plardi, ofitsiant esa ekranning o'ng tarafidagi qaygadir eltuvchi yo'lni yashirib turgan parda ortiga o'tib ketdi. Keyin pardaning burmalari chayqaldi-da, u yerdan erkak kishining hirqiroq shivirlagani eshitildi.

Bo'layotgan bema'niliklardan Nikitinni vahima bosib, vujudi bezgak tutganday muzlab keta boshladi. Qandaydir tuturuqsiz, ortiqcha edi bular. Ekranda terlagan yalang'och badanlar ko'rsatilardi. Kimsasiz Reerperban, begona yerto'ladagi qorong'i va pinhoniyl mayxona, stoldagi buyurilmagan vino, parda ortidagi shivir-shivir, umrida birinchi bor ko'rib turgan yonoqdor Gedaning oyog'ini tizzasiga tirab o'tirishi nima degan gap axir? Ha, hoziroq jo'nab qolish, nimaiki bo'lsa ham o'zni qo'lga olish, aftidan, tabiiy ravishda yorug' dunyodan, noyabrning tund havosidan, bu yerning temir beton devoridan o'tolmayotgan odamzod tovushlaridan benasib bo'lgan bu shubhali yerto'lani tark etish darkor. Hozir hammayoq tinch va jon asari yo'qday sukunat cho'kkani uchun Nikitin parda qimirlab, ortidan erkak kishining shivirini eshitganidan keyin hech kim bilmaydigan bu tashlandiq, qorong'i yerto'laning ichkarisini, osma zax ravoqlarni, suvoqlari ko'chgan devorlarini, iflos va badbo'y kanalizatsiya quduqlari va shaharning loyqali quyqalari oqadigan ariqlarini, bu joylarda birorta ham tirik jon yo'qligini ko'z oldiga keltirdi.

«Ketishimiz kerak, ha, ketishimiz kerak!» Nikitin ichida shunday deb turganida Gedaning shivirlaganini eshitdi-yu, nemischa jummalarni tushunib yetishga harakat qila boshladi.

– Kecha vrachga ko'rindim, soppa-sog' ekanman. O'zimga qarab yuraman, ingliz...

Geda ishvali jilmayib ko'kragi bilan belini shoshilmay siladi.

– Men eng yaxshi raqqosaman, kechqurunlari bu yerda raqs tushaman. Ko'kragimga bir qara. Silab ko'rging kelyaptimi? Belimni ham ko'r... Sen kimsan, inglizmisan?

– Yo'q.

– Polyakmisan? Yugoslavmisan?

– Yo'q.

– Yo rusmisan?

– Ruslar bu yerda bo'lishganmi?

– Bittasi kelgandi. Yoqimtoy. Lekin josus edi.



- Nimaga josus deysiz?
- Ruslarning hammasi josus.
- Bu bo'hton, azizam Geda.

– Seni sekin qizishayotganingni ko'rib turibman, – xirillab kuldi Geda. – Yo sen... anavinaqalardanmisan? Balki boshqasini istarsan? Xotirjam bo'l, men ko'ngling nima tilasa hammasini qondiraman.

- Yo'q, azizam, men hech nima istamayman...

«Ketish kerak, hoziroq bu yerdan ketish kerak. Buni Samsonovga aytmasa bo'lmaydi!» ko'nglidan o'tkazdi Nikitin. U vahimada bo'g'ilib ketayotganini butun vujudi bilan sezar, ekranda ko'rsatilayotgan voqealarni mutlaqo idrok qilmasdi. Qarshisida hamon yalang'och erkak va ayollarning gavdasi lipillab o'tardi. Nikitin bularning barini ko'rmasam der, vaqtlari behuda ketayotganidan achinib, Samsonovga qararkan, avvaliga uni topolmadi. Gedaning barvasta gavadali sherigi burchakka qisib qo'ygan Samsonov qorong'ida ko'kintir basharasini silkitib, jahl bilan nimalarnidir g'o'ldirar, o'zini oqlayotgan, himoya qilayotganga o'xshardi.

- Yetar, ketdik bu yerdan! – dedi Nikitin shartta.

Samsonov hars-hurs qilganicha Nikitinga ko'zoynagini qaratarikan, mayxonaning bo'm-bo'sh zalida uning:

- Hisob-kitob! – degan ovozi yangradi.

Ekraning o'ng tomonidagi parda qimirlab, tortildi-da, sarg'ish sochli tanish ofitsiant shoshilmay yaqinlasha boshladi. U stolchaga ikkita hisob-kitob qog'ozi qo'yib, uni dimog'dor qiyofada qo'l fonari bilan yoritdi. Nikitin hisob-kitob qog'ozini durustroq ko'rolmadi, chunki Samsonovning ofitsiant qo'lidagi fonari yoritgan yuzi zumda o'zgarib, taajjubda qichqirib yubordi:

– Qayoqdan keldi shuncha pul? Adashyapsiz! Yuz ellik marka?! Biz faqat koka-kola buyurdik-ku! Kechirasiz! Biz vino ichganimiz yo'q!

– Puling yo'qmi, ingliz? Narx-navoni bilmaysanmi? – dedi ofitsiant hamon pinagini buzmay, unga yaqinroq egilib. – Necha marka to'lay olasan? Hammasi bo'lib qancha puling bor?

– Yuz marka. – yolg'on gapirdi Samsonov tutilib. – Men faqat yuz marka to'lay olaman.

- Cho'z o'sha yuz markani!..

Samsonov burnidan qattiq nafas olib, xavotirli qiyofada yon cho'ntagidan kartmonini chiqardi. Qalt-qalt qilayotgan barmoqlari bilan uni kovlashtirib, ellik markali ikkita qog'oz pul uzatgandi, ofitsiant kartmonning bir chekkasiga chang solgancha chiyilladi:

– Unda yana pul bor! Ol! Sen ham... to'la! Sening ham puling yo'qmi?

Ofitsiant shundan keyin qo'l fonarini Nikitinning peshanasiga qattiq tirab, chiroyli yuzida g'azab bilan sapchishga hozirlangan-day yaqinlashib, ekranni to'sib qo'ydi. Nikitin undan bunday qo'pol zo'ravonlik kutmasa ham bu yog'i tahdid va tamaga o'tayotganini anglar-anglamas, yerto'la burchagidagi parda qimirlaganini sezib qoldi. Baquvvat ikki o'spirin (biri oq ko'ylakda, yechilgan galstugi osilib turar, boshqasi qora sviterda edi) oldinma-keyin ichkaridan chiqib kelishdi-da, jimgina sigaretalarini chekkancha orqalarini o'girib mayxonaning baland stullariga bemalol o'tirib olishdi.

– Fonarchadan o'z o'rnida foydalanish kerak, azizam, – dedi Nikitin. – O'shanda yaxshiroq bo'ladi.

Nikitin qo'li bog'liq odamning ayanchli qiyofasini yaxshi tasavvur qila olar, chunki raqib qo'l qayirib, tomoqqa yopishishi, o'ljasi noiljligini sezganda kulishiga ko'p marta guvoh bo'lgandi. Mana shu hol hozir bu yerda, kimsasiz mudhish yerto'lada jo'ngina qopqonda ham ro'y berishi: mushtlashuv, kaltaklash, tunash, boringki, hatto qotillik ham bo'lishi mumkin, sassiq zax yo'llar, shahar kanalizatsiyasining tashlandiq quduqlari atrofida biron ta ham guvoh yo'q, bordi-yu o'ldirib ketishsa, birov topolmas, bilmasdi ham...

Shuning uchun ham Nikitin ahvoli tangligini darrov anglab, ganguib qolgan Samsonov singari ofitsiantga ters gap aytishdan yaxshilik chiqmasligini ko'nglidan o'tkazib, o'zini yanada xotirjam tutishga uringan holda o'ziga tegishli 143 marka yoziqli hisob-kitob qog'ozini, so'ngra Samsonovning ham 143 markali hisob-kitob qog'ozini beparvolik bilan oldiga tortdi. Bu ancha ko'p pul bo'lsa ham hozir ko'ziga kam, arzimaday ko'rinib ketdi. Ha, shunday, tezda, imillamay uch yuz markani to'lab, bu bilan noyabr havosiga, yoqimli yomg'ir, nam asfaltga chiqib olish huquqini sotib olmasa bo'lmaydi... Ana shu arzimas, ozgina mablag'ni to'lash o'rindan qo'zg'alib, yana oldindagi vazmin pardani tortish, yerto'laning nimqorong'iligi, beparvo vino ho'playotgan Geda burqsitayotgan atir hi-

didan, yuz-ko'z demay chang solishga shay engashib turgan sarg'ish sochli ofitsiantning darg'azab yuzidan qutulib ketishga imkon berardi.

Nikitin zinaga qadam qo'yish ishtiyoqida yengil tortdi-da, pake-tidan uch yuz marka sanab olib, loqayd qiyofada ofitsiantga uzatdi: «Ikkimizning to'lovimiz». Ofitsiant pulni uning qo'lidan yulqigan-day tortib oldi. Shundan keyin Nikitin Samsonovga qisqa qilib:

– Eshikka qarab yur, bo'l tezroq!.. – dedi.

Ofitsiant lablarini cho'chchaytirganicha stolga qaytim tangalarni qo'ya boshladi. Boyagi ikkita erkak teskari qaraganlaricha nazar-pi-sandsiz miq etmay chekib o'tirishardi.

Nikitin xayolan «Tez, tezroq», deya turmoqchi bo'lgandi, Geda uning tirsagidan ushlab, plashi yengiga yopishgan ko'yi joyidan qimirlatmay qo'yganini ko'rdi-yu, qoni miyasiga urganday bo'ldi. U shundan keyin Gedani turtib yubormaslik uchun («U hozir chiyillab, meni urishyapti, deb dodlaydi, ana o'shanda boshlanadi mashmasha») og'ir-bosiqlik bilan yengiga tirmashgan qiz barmoqlarini asta bo'shatib, zo'rma-zo'raki jilmayganicha ichida («Yo'q, hech nima bo'lgani yo'q!») nafrati qo'ziyotgan bo'lsa ham rohat-u zavq olgan odamday g'oyat muloyim ovozda:

– Danke shyon... Auf viderzeen...<sup>1</sup> – deb qo'ydi. Nikitindan keyin Samsonov stolni qorni bilan turtib, o'rmidan beso'naqay turdi-da, pishillab, bo'ynini buqaday engashtirganicha eshik tomon yurdi. Nikitin ketma-ket unga ergashdi. U bo'sag'adagi zax hidi singigan pardani ko'tarib tashlaganidan keyingina tik zinada ko'ngilni ochuvchi kunduzgi yorug'likni ko'rdi. Shunda ham pastdagilar ortimizdan quvib chiqishmasaydi, degan hadikda edi...

Ikkovi hars-hurs qilib tosh zinadan ko'cha eshikka chiqishdi. Oynaband eshikdan kuz kunining xira yorug'i tushib turardi. Ular tashqariga, ozodlikka chiqib, yo'lka, nam asfaltga oyoq bosishdi. Keyin ikkovi ham Reeperbanning achimsiq, zax havosidan to'yib simirgach, u yoq-bu yoqqa nazar tashlashdi.

– Xayriyat-e! – deb qo'ydi Nikitin. – Jin ursin bunaqa joyni.

Ostonada turgan qorovul o'zini ko'k shineli tagidagi dog'ni ketkizish bilan bandday ko'rsatar, ajindor, burishiq yuzida laganbardor-

<sup>1</sup> Katta rahmat... Xayr.

lik emas, yasama o'ychanlik ifodasi sezilardi. Nikitin kamoli kufuri oshgani uchun mayxonaning nomi-yu, o'zini banogoh va notasodifiy holda bir yoqlik qilishi mumkin bo'lgan ana shu shveytsarning xunuk turqini eslab qolmoqchi bo'layotganini sezdi.

– «Intim-bar», – deb o'qidi Nikitin eshik ustidagi neon nuri yoritgan viveskani. – Bir yuz birinchi razryadli fohishaxona uchun zo'r nom! Bunchalar beozor muassasa! Shunaqasiyam bo'larkan-da, Platon?

– Shunchalik ham tentak bo'lamizmi-a, qip-qizil ahmoqlik! – g'azabi qaynagan Samsonov terlagan peshanasini urib-urib qo'ydi. – Uch yuz marka-ya! Shilishdi! Tunashdi! Kuppa-kunduzi-ya! Rosa boplashdi, rosa ahmoq qilishdi!

– Qutulib chiqqaningga shukur qilsang-chi, Platon, – dedi Nikitin xursand ovozda. – Nima ham qila olardik? Nima, fohishaxonadagilar noinsof bo'larkan, deb politsiyaga arz qilasanmi yo kanslerga norozilik bildirasanmi? Bundan ham battar bo'lishi mumkin edi. Ular bizni inglizlar xayol qilib yengil-yelpi shilishdi xolos, kimligimizni esa bilishgani ham yo'q. O'sha sohibjamol Gedaning ruslar haqida nima deb vaysaganini eshitdingmi? Ichkaridan chiqib kelib tepamizda qaqqaygan haligi ikkitasi-chi? Chegara suvlaridagi drednoutlar.

– G'irt tentak ekanmiz! Ha-da! Uch yuz marka-ya!

– Sadqai sar o'sha markalar, yonimizda bo'lmagan edi, deb tasavvur qilaver! Aniqrog'i, kapitalistik mamlakatdagi har qanday qalam haqi harom pul hisoblanadi.

– Hecham-da! Bunaqasi ketmaydi, kechirasan! Men senga bir yuz ellik marka uzataman, albatta beraman. Tentakligimiz uchun bab-baravar chuv tushamiz!

– Hech qanday puling kerak emas, Platon. O'sha uch yuz marka ni esimdan chiqarib yubordim. Ular yo'q edi men uchun.

– Qarzdor bo'lib yurolmayman, buni ham esingdan chiqarma!.. Go'l, ovsar bo'lmasak biz ahmoq, eshaklar shu ko'yga tusharmidik? Kelib-kelib tag'in borib turgan shaloqlarning tuzog'iga ilindik-a!

– Bo'g'ilaverma. O'tgan ishga salavot. Bunaqasi qimmatga tushadi o'zi. Baribir qiziq bo'ldi-da, o'lay agar.

Nikitin g'azabi qaynab, jahldan bo'g'riqib ketgan Samsonovni tinchitmoqchi bo'lib kuldi. Shunda ham vujudiga sig'mayotgan

ojizlik hissi anchagacha ketmasligini sezib turardi. Peshanasiga fonarini tiragan sarg'ish sochli ofitsiantning afti ham, uning: «Sen ham to'la!» degan tahdidi-yu, mayxona peshtaxtasi yonida sigareta chekib, bamaylixotir o'tirgan ikkita bahaybat o'spirin ham, Geda, buyurilmagan vino ham – bari birorta isbot va dalil yo'q bachkana zo'ravonlikning o'zginasi edi. Chunki ro'y bergan hodisa odatdagiday tabiiy ko'rinardi. Vino, qizlar, hisob-kitob qog'ozidagi haqini ololmay qiynalayotgan «bechora» ofitsiant qizning yonini olishga tayyor turgan ikkita qo'riqchi... Bunda aybdorlar yo'q, to'g'rirog'i, bor edi. Ular ko'ngil ochishni istab kirgan va o'zlarini shilish, tahqirlash, chuv tushirishga yo'l qo'ygan ikkita chet ellik edi...

## TO'RTINCHI BOB

Nikitin ancha vaqt pulsizlikdan keyin kattagina nashriyot kasasidan birinchi marta olgan uch ming rubl gonorar har biri qog'oz lentachalar bilan zich bog'lanib muhrlangan va qandaydir imzolar chekilgan uch nafar qalin-qalin bog'lamlar edi. Bu bog'lamlar eski pidjak cho'ntagida yoqimli qappayib turardi. Nikitin nashriyot eshididan iyun oftobi porlayotgan tashqariga chiqdi. Bu qalin jurnalda hikoyasi chiqqani ko'ksiga zavq baxsh etar, ancha vaqt intiqlikdan so'ng erishgan mablag'dan esa nihoyatda baxtiyor edi.

Nikitin birinchi uchragan tamaki do'konchasidan qimmatbaho «Gersegovina Flor» papirosi sotib oldi-da, sarxush-kayfiyatda qarzlari, Paveletsk vokzali yonidagi ijaraga olgan dog'-dug' bosgan besaranjom xonasini ham unutilib, yozgi, gavjum, issiq, soyada peshin jazirasi qurshagan teraklar qad ko'targan ko'cha bo'ylab odimlay boshladi. Quvonchi ichiga sig'may, o'tkinchilar yuziga qararkan, o'ylardi: yo'q, odamlar uning nomi hozir shuhrat topgani, barcha gazeta do'konchalarida u yozgan, tartibsiz saxtiyon xonadagi liqildoq stol yonida o'tirib yaratgan hikoyasi bor jurnalning yangi soni sotilayotganidan bexabarlar. Ulardan hech kim Nikitin ko'chadagi notinim o'tkinchilarni hayratga solishi, ma'yuslantirishi, qoyil qoldirishini bilmaydi. U hozir puldor, qarzlaridan uzilishi (xona, bekaning ovqati haqi) mumkin, o'ziga yangi kostum, ichki kiyim, botinka xarid qilsa ham kelgusida xotirjam ishlashi, odamlarni tag'in hayratga



solish, noyob iste'dodi qarshisida ta'zim qildirish uchun puli qoladi hali.

Nikitin muyulishdagi gazeta do'konchasi atrofida ancha aylanib, oftob qizdirgan oynadan kitob va jurnallarning muqovalarini tomosha qildi, yangi gazetalar, «Ogonyok»ning so'nggi sonini sotib olayotgan o'tkinchilarni kuzatarkan, nazari dam-badam hikoyasi chiqqan qalin jurnalga tushib qolardi. Familiyasi bor, birinchi sahifani ajib qora qilib to'ldirgan harf va tinish belgilardan iborat satrlardan taralayotgan bosmaxona bo'yog'ining isi hali dimog'idan ketmagan, hikoyaning boshlanishini yod bilar, asarning «Kuz kunlaridan birida» sarlavhasini o'qigan odamning kuzning hazin nafasi ufuruvchi: «Yomg'ir bog'ni shitirlatar, tomni, zina ustini taraqlatar, shamol ko'lmaklardagi to'kilgan yaproqlarni qiyshaygan kemalar yanglig' quvardi» degan jummalarni o'qigandan keyingi holatini ko'z oldiga keltirardi. Nikitin dastlabki jumlar ustida ishlaganida ko'ngli to'lmagan, butun hikoyani yozib bo'lgandan keyin ham unga ko'p sayqal bergan, qo'shgan, qisqartirgan, so'zlarni almashtirgan, sifatlashlarni olib tashlagan, bu jumlar zavqbaxsh jazo, azob kabi tushiga ham kirgandi. Shunga qaramay, bu azobning tagi lazzat bo'lib, uning keti ko'rinmas, tinim ham bilmasdi.

U papiros chekkanicha faromushday do'koncha oldida bitta-yarimta hikoyasi bosilgan jurnalni sotib olib quvontiruvchi fursat yetishini kutarkan, birinchi sahifadayoq ko'zga tashlanajak dastlabki jummalarni ichida yoddan o'qirdi: «Yomg'ir bog'ni shitirlatar, tomni...» Bu quyma, zo'r jumla bo'lib, o'quvchini bosh ko'tarmay hikoyaning davomini o'qishga va daryobo'yi shaharchasidagi oktabr havosi yaproqlarini to'kkan bog'ning kuzgi manzarasidan zavqlanishga undardi.

Oynaband do'konchadagi sotuvchi chol beparvo, ish bilan band, u gazeta sotar, eski doka o'ralgan barmoqlari bilan tanga sanar, keyin peshtaxta ostidagi yemishdan olib kavsharkan, dahanida limonli vafli uvoqlari qolardi.

«Nima gap o'zi? Nega jurnalni olishmayapti? – deb o'ylardi Nikitin kavshashdan bo'shamayotgan sotuvchi cholga qarab. – Bu chol qalin jurnalning jiddiy va mashhurligini yaxshi bilishi va yangi sonini har bir odamga taklif qilishi kerak-ku, axir. Cholga buni aytsammikin yo aytmasammikin?»



Nikitin do'koncha oldida xiyla vaqt odamlarga xalal berib turdi. Do'konchaga yaqinlashganlar unga turtinib o'tishardi. Shu vajdan sotuvchi chol birdan unga shubhali tikildi-da, gazeta dastalari ortidan qo'zg'olib, chiyildoq ovozda so'radi:

– Sizga nima kerak, yigit?

Nikitin shundan keyin xijolatda hikoyasi chiqqan jurnalni oldida, sarlavhalariga ko'z tashladi. Keyin yangi nom ekanligini bildiruvchi familiyasi qora harflar bilan yozilgan betni ochib, dastlabki satrlarga ko'z yugurtirarkan, o'zini hayratomuz ko'rsatgan qiyofada:

– E, chiqibdi-ku... – dedi.

– Nima chiqibdi? Yangi narsami? Muallifi kim ekan? – Sotuvchi chol shundan keyin vaflisini sichqonday kirsillatgan ko'yi, o'ta beparvolik bilan avval jurnaldagi familiyaga, so'ng hikoyaning sarlavhasiga tikildi.

– Bu mening hikoyam, – Nikitin o'zini go'yo shon-shuhrat me'dasiga tekkanday beparvo ko'rsatishga urinarkan, sotuvchining xira ko'zlarida qiziqish paydo bo'lganini sezib xursand bo'lib ketdi.

– Siz muallifimisiz?.. Siz-a? Yozib turasizmi? Shunday deng!.. Bunaqa yosh mualliflarni sira ham ko'rmagandim... Siz yozuvchi bo'lsangiz kerak-a? Juda xursandman...

– Ha, bu mening hikoyam, – Nikitin qovog'ini solib gapini takrorlagach, cho'ntagiga qo'l soldi. – Menga ikkita jurnal bering. Kechirasiz, uchta bera qoling. O'zimda bir nusxa ham yo'q ekan.

Nikitin yolg'on gapirdi, chunki unga muallif sifatida jurnaldan ikki nusxa berilgandi. U esa hozir do'konchadagi chiroyli ko'rinib turgan binafsharang, hali hech kim qo'l tekkizmagan jurnallarni go'yo ular hoziroq sotilib ketadiganday dastasi bilan apil-tapil xarid qilishni istardi. Chunki hayotida mo'jizakor burilish bo'lgan muallifligini matbaa yo'li bilan isbotlovchi dalillar qolmasdi-da.

– Nasrnavis Nikitin? Senmisan o'zi? Narsangni sotib olyapsanmi? Zo'r-ku, bu yog'i!

Nikitin orqa tomonidan «o»ni cho'zib aytuvchi kimningdir dangal va betakalluf ovozi eshitib, sotuvchi kaftiga tashlayotgan tangali qaytimni changallaganicha qunishib, o'girilib qaragandi, she'rlari chiqib turadigan, adabiy doiralarda ko'plarga taniqli bo'lib qolgan yosh shoir Vasiliy Vixrovni ko'rdi. Vasiliy Vixrov mallasoch, yelkalari keng, ezma, qishloqchasiga oppoq va baquvvatli-

gi jihatidangina emas, balki she'mi qoyilmaqom o'qishi bilan ham Yeseninga o'xshab ketardi. Nikitin uning universitetdagi adabiy kechalarda she'r o'qiganini ko'p marta ko'rgandi.

– Nosir... Iste'doding zo'r!

Vixrovning egnida eski, g'ijim pidjak, ko'p kiygan ko'ylagi yoqavayron, tartibsiz taralgan sochlari peshanasiga tushib turardi. U xushchaqchaq qishloq yigitlariday suyunib ketgani uchun Nikitinni tap tortmay orqasidan quchoqlab, jarangdor ovozda dedi:

– Hikoyangni o'qib chiqdim, jurnalda ikkovimiz yonma-yon ekanmiz, unda mening balladam bosilgan, ko'zing tushmadimi? O'qib chiq! Men sening narsangni o'qidim, durust, zo'r! Unda bir joyi bor, nimaydi? «Chiroqlar qorong'ilikda lipillardi», shekilli... Bu she'riy satrning o'zginasi, birodar! Iste'doding zo'r, Nikitin, oldinga yorib o'tib, ilhom qanotida Chexovning yonidan joy olasan! Ba-rakal-la, prozaik, ba-ra-kal-la!

– Yo'l bo'lsin? – Nikitin qizarib vafllisini kavshay-kavshay Vixrovning do'rillashini tinglayotgan sotuvchiga qaradi. – Markazgami?

– Markazga bo'lsa, markazga-da! Ketdik. Gonorar oldingmi? Yuvamiz-a? Sening qaldirg'oching, mening balladamni yuvamiz! Biror joyda o'tiramiz. Otamlashamiz. Madaniyat bog'iga, toza havoli joyga boramiz! Vaqtning qalay, bolalaring yig'lab qolishmaydimi? Xotiningni ko'zi to'rt bo'lmaydimi? Qaynonang o'qlov ushlab turmaydimi?

– Yo'q, bo'ydoqman.

– Trolleybus bekatiga yurdik, Chexov! Birinchi hikoyani yuvmasak gunoh bo'ladi! Yo'l yuvilib, top-toza bo'lib turadi-da, tushundingmi? Shon-shuhratga eltuvchi oq poyandoz! Jin urgur, sen prozaikka xudo bergan o'zi, tushundingmi?

Nikitin avvaliga xursandlikdan to'lqinlanganini («Axiri hayotimda muhim, ajoyib voqea ro'y berdi-ya!») yaxshi eslar, stolchadagi hikoyasi bosilgan qator jurnallar ana shuni eslatib turgani, Markaziy bog' navnihollarining qalin yaproqlari, qalamkash do'sti bilan kupa-kunduzi kirishgan yozgi kafening rang-barang oynalarida yaraqlovchi iyun kunining jazirama oftobi va kechalari ishlab qiynalganlarini zumda tarqatib yuborgan qadah-u hayotida yangi ajib bosqich boshlanayotgani sababli o'zini xursand, saxiy sezardi. Barcha odamlar, buyumlar, yerdagi soya, jazirama quyoshga mehri tovlanar, ka-

fening ular o'tirgan ayvoniga dov-daraxt, chuchmal yaproqlar, kafe tevaragidagi oftob qizitgan ozoda va supurib-sidirilgan xiyobonlarning hidi ufurardi.

Nikitin sherigining proza poeziyasi, hikoya detallari, ijodning sehrli lahzalarida qalamni tebratishga undovchi kuch, boshqalar aytolmagan gaplarni aytish uchun omon qolgan ba'zi omadli front yozuvchilari haqidagi ezmakashligini jon qulog'i bilan tingladi. Shunda Vixrovning sog'lom yuzi, yaxshi fikr tug'ilganda chaqrab ketuvchi moviy ko'zlariga, peshanasini qoplagan malla sochlari-ga zavqlanib tikilar va bu Vixrov har qalay ajoyib yigit, san'at bilan ishga, o'zim har kuni topolmay qiynaladigan jozibali so'zlarga qattiq ishonadi, deb o'ylardi. Suhbatdoshining gapini eshitgani sayin ilgari, mana shu uchrashuvimizgacha uni yaqindan bilmas ekanman, uning urushda bo'lgani, universitetni tamomlab, she'rlari chiqib turishi-yu, o'zini oddiy ko'rsatish maqsadida «o»ni atayin cho'zibroq aytishini bilardim, xolos, deb ichida o'zini-o'zi koyirdi.

Vixrov pardozsiz mardona nasr, latif nazm, butun adabiyot, yozuvchi deb atalmish tasavvurning buyuk kuchi bilan ikkinchi hayot yaratadigan odamlar sog'lig'i uchun qadahlar ko'tardi. Shundan keyin u so'nggi paytlarda yozgan va hali bosilmagan she'rlaridan o'qishga tushdi. Nikitin esa ichgani sari Vixrovning iste'dodiga, zakovati, nozik qalbiga qoyil qolar va o'qilgan har bir she'rdan keyin: «Qoyil, zo'r, a'lo!» deya azbaroyi zavqi kelganidan oshnasini quchoqlab o'pmoqchi bo'lardi. Ko'ngli ham, qo'li ham ochiq Nikitin do'stiga azbaroyi besh ketganidan uni nihoyat ikki marta o'pgach, mehri jo'shib sal bo'lmasa yig'lab yuborayozdi.

Nikitin zavq-shavq, ezigulikdan xursand o'tirsa ham oson kechmagan taqdiri, hayoti yo'lida muhim va bebaho bosqich boshlanganini unutmasdi. Ha, hayotida ko'pdan buyon kutilgan, baxtli, yangi davr boshlandi. Qalin jurnalda bosilgan ilk hikoyasi boshqalarning nazariga tushishi, tanqidchilar yangi iste'dod paydo bo'lganini yakdillik bilan ta'kidlab, hatto «Beqiyos hikoya» yoki «Beqiyos lirik proza» kabi yagona sarlavha ostida o'z fikrlarini bayon qilishlari lozim edi. Shunda munosib obro' orttiradi, mashhur bo'lib ketadi, nomi chiqib, hammaning qalbidan joy oladi. O'shanda ko'pdan beri dilida ardoqlab kelayotgan va bamisoli shirin tushida tug'ilgan orzusi ham ro'yobga chiqadi. Metroda, trolleybusda ketayotganida ki-

tob o'qiyotgan qizga qarab qolsa o'sha kitob muqovasida o'zining nomini, sahifalarda o'zi yozgan satrlarni, tanish jummalarni, o'zining jumllalarini ko'radi... «U eshikni tarsillatib yopdi-da, zinadan teraklarni shitirlatayotgan yomg'irga chopib tushdi...». – «Men kutib olmayman, – dedi u qo'pollik bilan. – Xayr». – «Yo'q, – qiz shunday deya uning yelkasidan siladi. – Men kelaman, hatto kutib olmasang ham kelaman...».

Nikitin ham alyor aytar, ichar, yana ichamiz, der, Vixrovning she'rlarini tinglar, uning ovozigina ham, yaqindagina yozgan, kuz oqshomida botayotgan quyosh temiryo'l izlarini qizartirib turgan be-katchada ayrilishgan yigit bilan qizning xomush holatlarini tug'yonli tasvirlovchi ishqiy lirikasidan ham zavqlanar va sel bo'lib bugun o'yi ham, tushunishi ham o'zimga o'xshagan maslakdosh, umr-bodlik do'st orttirdim, deb o'ylar va ayni paytda: «Ha, biz bu yerda o'tiribmiz, negaki hikoyam bosilganda, kelgusida bunaqa hikoyalar yanayam ko'payadi!» deb boshi osmonga yetardi.

Ular odam kam yozgi kafeda to qosh qorayguncha o'tirib, she'rxonlik qilishdi va aniq so'zning mangu sehri borasida to'lib-toshib tortishishdi. (Manavi soddalik va daholikni qara, quloq sol: «Mungli yulduz, oqshom yulduzi! So'nik dalalarga sochding kumushing...»). Yoki manavini qara: «Esimdadir ajib ul lahza: ko'z o'ngimda bo'lding namoyon...». Manavinisiga sira aql bovar qilmaydi-ya: «Ko'z o'ngimda bo'lding namoyon, bamisoli oniy manzara, sof go'zallik timsoli yanglig'...». Manaving ham mag'zini chaqib ko'r: «Rossiya, qashshoq Rossiya, menga sening xarob uylaring, o'tkinchiday ul qo'shiqlaring, ilk sevgining ko'z yoshiday gap!». Shunaqa narsani yozib qo'yib, bemalol oyoqni uzatib ketaversang bo'ladi! Buyuk adabiyot, bashariy gigantlar!)). Ular tortishishar, bir-birlarining gaplarini ma'qullashar, so'zlarini bo'lishar, obidiyda ham qilib olishardi. Nihoyat, sevimli prozaning sehrlil satrlarini yodaki o'qisharkan («Taman – Rossiyaning dengiz bo'yi shaharlari orasidagi eng rasvo qishloq...») – Bu hikoyaning zo'r boshlanmasi, kayfiyatning ajib ifodasi! Lermontov beqiyos! Chexov bo'lsa hikoyani tugallashni juda ham o'rniga qo'yadi-da! Manavi jumlasini yodingdami: «Misyus, qayerdasan?»), yana alyorlar aytishdi, oxiri qandaydir shirinroq likyor, ketidan qahva ichishdi, bir-birini yaxshi ko'rib qolganlarini aytishib, adabiyotga, fe'lga va sifatlashga,

tirik qolgan front qatnashchilarining o'zaro do'stligiga ont ichishdi va nihoyat, go'yo tuman oralig'idan chiqib qolganday, o'zlariga kelib qolishdi. Bu paytda bog' xiyobonlariga oqshom cho'ka boshlagandi. Pulning betiga qaramay hisob-kitob qilib turishganida ofitsiantlar kalakaomuz hingillashib qo'yishdi, chamasi, ular Nikitin pulni ayovsiz sarflaganiga qaramay (Vixrov cho'ntagiga qo'l yugurtirganida u chin ko'ngildan xafa bo'lgandi), ikkovini ham esi uncha joyida bo'lmasa kerak, degan xayolga borishgandi. Chunki, ikkovining adabiyot borasidagi tortishuvlari, baqirib-chaqirishlari, bahslari, obidiyda qilishlari va ustlaridagi eski kiyimlari atrofdagilarni taajjubga solardi.

Ular xiyobondan chiqib ketisharkan, qizigan yuzlariga oqshomning salqin shabadasi urildi. Shunda terlab ketgan, hayajoni hali ham bosilmagan va sarg'ish sochlari peshanasiga yopishib qolgan Vixrov ko'kragini bo'rttirgan ko'ylagining tugmalarini yechib, bir qo'lida Nikitinni quchoqlab oldi-da, lab-lunjini yig'ishtirolmay zavqli, sal hirqiroq ovozda Bunin she'rlaridan o'qiy boshladi.

«Zo'r she'r, – qoyil qolib ko'ngildan o'tkazdi Nikitin Vixrovning sokin ovoziga quloq solib, ayni paytda o'zining jaranglayotgan ko'ngil tori sadosini ham tinglarkan. – Hammasi zo'r, men hozir shirakayfligimdan uyalmayman ham. Nega gurunglashishga bopta bu kafedan barvaqt turib ketdik?»

Nikitin hozir ikkovi bog'dan chiqib, chiroqlari bo'zarib yonayotgan ko'chalardagi olomonga qo'shilib ketib, bir-biridan ayrilishlarini, ya'ni Vixrov she'r o'qishini, Bunin she'ridagi so'zning olmosday tovlanishi haqidagi gapini bas qilgach, trolleybusga o'tirib, Moskvaning bir chekkasiga yo'l olishini, o'zi bo'lsa metroda Paveletsk vokzaligacha borib, muyulishdan o'tganidan keyin eski, suvoqlari ko'chgan uyning ikkinchi qavatidagi mog'or hidi keluvchi, mebellari qadimiy va shalag'i chiqqan xarob xonasiga ko'zi tushajagini xayoliga keltirmas, bunga rozi bo'lmasdi ham. Yo'q, yo'q, gurunglari va zavqlari, bir-biriga, adabiyotga, barcha odamlarga mehrlari tovlanib turganida birdan ketib qolishsa yaxshimas-ku, axir. Bugun butun olam ko'zlariga boshqacha, go'zal ko'rinayotganda-ya!

– Rostini aytsam, Vasiliy, uyimga ketgim kelmayapti, hali erta, – dedi Nikitin. – Markazgacha piyoda bormaymizmi-a?




Vixrov shunda kechqurunlari bo'sh bo'ladigan, yo'lovchilar kam, Kunsevogacha borib qaytuvchi daryo tramvayida «ketar jafosi»ga Moskva daryosida aylanishni taklif qildi. Bu tramvayga Madaniyat bog'i pristanida chiqib, so'ng shaharning biror joyida tushib qolsa bo'lardi. Nikitin taklifdan xursand bo'lib ketdi.

Ular daryo tramvayida bir ryumkadan konyak ichgani bufetga kirishdi. Vixrov shunda past bo'yli, ko'krakdor, qora ko'z, ustiga kraxmallangan oppoq xalat kiygan bufetchi ayolga donjuanchasiga ko'z qisib qo'yib, Blokdan jaranglatib bir satr o'qidi: «Har oqshom tayinli o'shal soatda...» Bufetchi ayol hirlinglay-hirlinglay nam peshtaxtaga ryumkalami qo'ygach, qoshlarini ishvali uchirib qo'ydi: «Talaba bo'lsanglar kerak-a? Stipendiya oluvdinglarmi? Bayram qilyapsizlarmi?» Vixrov shundan keyin Nikitinni oshnalarcha quchib, bufetchi ayolga, sizday jonon ayolning ko'zlari yosh, iste'dodli yozuvchiga tushib turibdi, dedi-da, Nikitinga tezda hikoyasi chiqqan jurnalni dastxat bilan taqdim etishni maslahat berdi: «Xalq ham o'qisin-da, Vadim...»

Nikitin xijolatda bufetchi ayolning ismini qayta so'rab, shu yerning o'zidayoq hikoyaning sarlavhasi ostiga dastxat yozib berdi. So'ngra konyakning pulini to'larkan, o'zini pulga saxiy boyvachcha ko'rsatib, bufetchi ayol nam likopga qo'ygan qaytinga qaramadi ham.

Shundan keyin daryo tramvayining pastdagi charog'on salonida faqat ikkovigina o'tirishib, negadir shampan buyurishdi, yana gapga tushib ketib, she'r o'qishdi, chaqchaqlashishdi. Ochiq derazalardan suv salqini, neft hidi aralash shabada urilar, Moskva daryosidagi to'lqin shovqini ham eshilib turardi. Tramvay poli vintning suv tagida bo'g'iq aylanishidan zirillar, shahar orqada qolib, qayoqqadir burilar, chiroqlari granit bilan qoplangan sohil uzra suzardi. Oradan picha o'tgach, salon yanayam ajiblashdi.

Nikitin azbaroyi yechilib ketganidan (u ko'yilagini ham ayamasi shu topda) pulning betiga qaramay sarflardi, qora ko'z bufetchi ayol bilan uning yordamchisi, aftidan, seruyqu baqaloq ayolga shampan va shokolad olib berdi, surbetliklari ayon, yuzlari oftobda qoraygan ikkita matros yigitni konyak bilan siyladi. Bu matroslar salondagi yozuvchilarga sira ham o'xshamaydigan ikkita dovdirsifat odam maishat qilib o'tirganini ko'rish uchun dam-badam kirishardi. Bufetchi





ayol esa endi eshilib, shishalarni patnisga qo'yardi-yu, to'ppa-to'g'ri salonga kelardi. Nikitin shunda parvo qilmay, pulni g'ijimlab uning kaftiga qistirar, qaytimini so'ramas, nega deganda adabiyot, hayot, kelajak, go'zal jononlar uchun paydar-pay qadah ko'tarishayotgandi. Nihoyat, anchagina toliqqan Vixrov ko'zlarini yumib, mushtini yonog'iga qo'yganicha do'rillagan yo'g'on ovozda «Orol ortidan teran joylarga» ashulasini boshlab yuboruvdi, ayollar ham oldiniga jo'r bo'lishdi, biroq tezda eslari o'zlariga kelib («Sekinroq, bo'lmasa bezorilik qilishyapti, deb o'ylashadi») bir-biriga po'pisa qilishdi-da, hingillaganlaricha barmoqlari bilan yuqori palubani ko'rsatishdi. Tepadagi ochiq palubada ikki-uch yo'lovchi plashlariga o'ralib o'tirishar, chamasi, ular Kundevoda yashashardi.

Gurung qizib, zavq-shavq qaynab turgani uchun Nikitin tamaki tutuni to'la, charog'on salonda goho odamlarning ovozlari yaxshi eshitolmas, notanish erkak va ayollarning basharalarini ko'rar, notanish, xunuk bu odamlar Nikitinning qo'li ochiqligiga ishonqiramay ajablanishardi («Nimaga anavi bufetchi ayol nuqul hingillaydi, lablarini cho'chchaytirib, shama qilayotganday qarab qo'yadi? Nega ko'zlari chiroyli-yu, og'zi bunchayam xunuk?») Nikitin shunda («Menga nima bo'ldi o'zi? Nega bunday qilyapman?») xiyol xijolat chekib, o'zini hushyor tortganday sezardi.

Ular soat o'n ikki bo'lgandagina «Udarnik» kinoteatri yonida tramvaydan tushishdi. Nikitin hamon qizib, ajoyib o'tgan kun bilan sehrli oqshom zavqidan sarxush bo'lgani uchun Vixrovga, seni taksiga o'tqazib, kuzatmasam, uyimga ketmayman, deb qistalang qila boshladi... Shundan keyin ikkovi sohildan Balchug tomondagi taksi bekatini tomon yurishdi. Qoqila-suqila borisharkan, chekib olish (ular tinimsiz chekishardi) va bir-birini yaxshi ko'rib qolganlari, ko'ngillari birdayligini aytish va yana uchrashishlari zarurligini ta'kidlash uchun tosh to'siq yonida tez-tez to'xtashardi.

Banogoh ishlari o'ngidan kelib qoldi: Pyatnitskiy nomli bostirma ko'chadan chiqaverishda taksining ko'k chirog'i ko'rinib, ko'prik yonidagi bekatga yaqinlashgandi, ikkovi baravariga «ale!» deb baqir-chaqir aralash qo'llarini silkishdi, mashina to'xtadi. Shundan keyin Vixrov bilan Nikitin og'a-inilarday quchoqlashib, o'pishishdi. Nikitin yolg'iz o'zi taraddudlanib qolaverdi. Soatlarcha chaqchaqlashish, chekishlar-u tort-tortlar, gaplari bir joydan chiqib, zavq us-

tida aytgan gaplari o'tib ketgan, nazarida endi unga nimadir yetishmasdi.

Ovchinnikov sohilida, reklama chiroqlari o'chiq, qorong'ilik qo'ynida qolgan «Zarya» kinoteatri qarshisida, zim-ziyo, yuqori qavatlarning yakkam-dukkam derazalaridagina chiroqlar ko'ringan Pyatnitskiy ko'chasining muyulishida, fonar tagidagi to'siqda chamasi kinodan chiqqan bir guruh o'spirinlar chaqchaqlashib o'tirishar, yondan o'tgan Kanavaning qoramtir dog'li suviga erinibgina tuflab qo'yishardi. Kalta pidjakli, bukchayganroq, baquvvat bir yigit zerikkanidan o'zini-o'zi xursand qilmoqchiday shimining keng pochasini shalvirata-shalvirata yo'lkada oyoq o'yin qilardi.

– Hoy do'stim, chekishdan yo'qmi?

Yigit sohildan yolg'iz o'zi kelayotgan Nikitinni ko'rib hushtak chaldi. Nikitin salgina gandraklab ularga yaqin kelib, sigaret qutisini iltifot bilan tutarkan («Marhamat!»), yigit shartta qutiga chang soldi-da, boshqalarga bosh irg'ab so'radi:

– Hammaga berasanmi? Barimizda tugagan, yonimizda hech nima yo'q, sherik...

– Ha, ha, albatta, chekinglar, yigitlar.

Yigitlar Nikitinning atrofida bir-birini turtib, qutiga qo'l cho'zishdi. Ildam barmoqlar sigaretalarni chaqqon sug'urardi. Fonar yorug'ida Nikitinni notanish, navqiron, hushyor tortgan yigitlar o'rab olishgan, nazarida uning saxiylik qilayotganiga ishonishmasdi. Biroq Nikitin bugun Madaniyat bog'ida, daryo tramvayining charog'on salonida maza qilgani, hayotida zo'r voqea ro'y berganidan yigitlarning qo'llariga sigareta tutgandi. U azbaroyi baxtiyorligidan lablarini yig'ishtirib ololmasdi.

– Bu arzimagan narsa-ku, yigitlar! Sigaretaga pulingiz yo'qligini fahmlab turibman. Hammasi boshimdan o'tgan. Mening ham bir tiyinsiz qolgan vaqtlarim bo'lgan.

– Nima? – so'radi zabardast yigit o'tkir va qiyiq ko'zlarini Nikitinga shubhali tikib. – Nima deding?

– Sizlarga juda ham sigareta olib bergim kelyapti, yigitlar, nega deganda yonda bir tiyin yo'q bo'lish qandayligini bilaman-da. – dedi Nikitin bosh irg'ab.

U yigitlarga yaxshilik qilishni istar, hozir ularni uchratib qolganiga sira achinmas, yozning ko'kimtir kechasidan to ertalabga-

cha sokin bo'ladigan Pyatnitskiy ko'chasining reklama chiroqlari o'chirilgan «Zarya» kinoteatri ro'parasida kuymalanayotgan yigitlar uning yordamiga muhtoj edilar. «Ha, ha, – dedi u ichida, – uyimga borgim kelmayapti. Butun kecha Moskvani aylanib, kechikkan yo'lovchilarni uchratib, chekishishim, tanishishim, xuddi mana shu yigitlar bilan gurunglashayotganday gurunglashishim mumkin. Odamlar bilan tanishish qanday ajoyib-a!»

– Menga qaranglar! – dedi Nikitin yigitlarga do'stona ohangda. – Mabodo «Balchug» yopilmagan bo'lsa, restoranga boramiz, sigareta olib, birorta vino-pino ichamiz, gurunglashamiz... Rozimisizlar, yigitlar?

– Kimning hisobiga? Pulini kim to'laydi? – kalta pidjakli baquvvat yigit shunday dedi-yu, biroq o'ylab qolib shu zahoti kimnidir ko'prikning narigi tomonidagi «Balchug» restorani tomon yugurtirdi. – O'sha yoqqa zing'illa!

O'sha damning o'zida ikki yigit zim-ziyo ko'prik orqali parda tortilgan derazalaridan yorug' tushayotgan restoran tomon yugurdi. Ular restoranning oynaband eshigini boshlariga ko'targuday bo'lib taqillatganlari, so'ngra ichkaridan qorovulning gavdasi ko'ringanida: «Och, otaxon!» deb buyurganlari, biroq eshik ochilmay, qorovulning qorasi ko'zdan yo'qolgani shundoqqina ko'rinib turardi. Shundan keyin haligi ikkita yigit qaytib kelishdi. Ulardan biri hayajonli ovozda shivirlab baquvvat yigitga nimadir degandi, u «hali shundaymi», deganday Nikitinning qanshariga qattiq tikilib, cho'ziq ohangda so'radi:

– Sen, uchar, «Balchug» yopiqligini biluvdingmi?

– Afsus. Nachora, ming afsus, – Nikitin bo'shshinqirab xo'rsindi. – Men juda ham xohlovdim-da, yigitlar...

– Aldovdingmi, savdoyi? – yigit yoqimsiz, yasama ovozda shunday deya qo'li bilan paxmaygan sochini surib, go'yo urmoqchiday jimgina to'dalashib turgan sheriklariga ko'z qisib qo'ydi. – Siylamoqchi bo'lding-u, qarasang puling yo'q ekanmi? Cho'ntagingda sariq chaqa ham yo'q!

Nikitin yigitning jag'dor yuziga tikilar, lekin baxtiyor odamlar alam yoki kalakani payqamaganlariday u ham yaqinlashayotgan xavf-xatarni sezmasdi. Biroq yigitning aldoqchilikda ayblayotgani erish tuyular, hatto nafsoniyatiga ham tegardi.

– Yo‘q, – dedi u samimiyat bilan. – Noto‘g‘ri aytding... mening pulim bor.

– Aldayapsan, bir tiyining ham yo‘q! Qani, ko‘rsat-chi! – o‘shqirdi yigit tahdid va do‘q aralash. Uning dag‘dag‘a bilan «qani» deganidan zo‘ravonlik sezilar, qiyiq ko‘zlari va jag‘dor basharasi tun qorong‘iligida g‘azabli tus olganday tuyulardi.

Nikitin uning sovuq o‘qrayishi, dag‘dag‘asidan hushyor tortib, chiroq tagidagi o‘ziga tikilishayotgan yigitlar shay holda qimirlab qo‘yishganini ko‘rdi. «Hozir nimadir bo‘lishi kerak», Nikitin shunday xayolga borib a‘zoyi badani muzlab ketganday bo‘ldi. U ahmoqona vaziyatda qolganini fahmlasa ham nimaga bu yigit oldida o‘zini oqlashi lozimligini tushuna olmasdi. Shu bois ham undan hafsalasi pir bo‘lganday kulimsiradi.

– Nodon ekansan, ko‘rib turibman, – Nikitin orqa cho‘ntagidagi pullarini titkilab, duch kelgan shildiroq ellik rublni olib ko‘rsatdi. – Ha, men sizlar bilan, yigitlar, juda ham...

Yigit shu zahoti shartta changalini uzatgandi, Nikitin o‘zini muhofaza qilayotganday qo‘lini tortdi. Biroq yigitning barmoqlari ellik rublni ushlashga ulgurib, uni o‘ziga qarab tortuvdi, pul qoq o‘rtasidan sharillab yirtildi. Yigit shundan keyin shoshib qolib, bir qadam orqaga chekindi-da, nafasi tiqilib xirildoq ovozd:

– Qani, hammasini ber, savdoyi! Bu yoqqa ber! – dedi.

Nikitin keyinchalik o‘sha tunni eslab, yigit yaxshilikcha ellik yoki yuz rubl so‘rasa, yo‘q demasdim, aksincha, mastligimda xursand qilgan bo‘lardim xolos, degan xayolga borgandi.

– Nimaga endi? – dedi Nikitin shivirlab.

U avvaliga yigit nima uchun iltimossiz, zo‘ravonlik bilan pulni yulqib olmoqchi bo‘lganini tushunolmagandi. Endi uning yigitga nafrati qo‘zib, kalta pidjagi-yu, qizargan qiyiq ko‘zlari bilan sovuq turqi ko‘ziga yomon ko‘rinib ketdi. Shuning uchun u tutila-tutila gapini tugatdi:

– Sizlar olti kishi... men bo‘lsam, men bilan olishmoqchimisan, y-yigit? Nachora, q-qani!..

Nikitin shundan keyin olishishga shayday, pulning qolgan qismini cho‘ntagiga soldi-da, mushtlarini qisib shartta oldinga bir qadam tashladi.

– Yaqinlashma, o‘laksa! Men zahmman! Yaqinlashma! – chiyilladi yigit va talvasadanmi, yo Nikitin birdan hamla qilganidan-

mi, og'zi mayishib ketdi. Keyin u tomoq qirib tupurgandi, tupugi Nikitinning yuziga emas, ko'kragiga kelib tushdi. Nikitin yigitning qiyiq ko'zlarini tuman orasidan ko'rayotganday unga tashlandi-da, titroq jag'dor dahaniga, tupukli og'ziga nafrat bilan musht tushirgandi, yigit xirqiroq ovozda baqirib yubordi. Shu payt orqa tomondan nimadir Nikitinning boshiga zarb bilan urildi-yu, chiroq kuchli chayqalib qirilgan yonog'i achishdi. Tepasida sharpaga o'xshash gavgalar xirillashar, baqir-chaqir qilishardi. Sakrab depsinayotganlardan kimningdir qattiq ovozda: «Jigariga tep, jigariga!» degani eshitildi. Shundan keyin Nikitinning qovurg'asi, ko'kragiga zarb yog'ila boshladi. «O'rnimdan turolsam, bas, ishqilib o'rnimdan tura olay-da!» Qo'llarini asfaltga tiragan Nikitin oldinga intilib, qon ko'rganda vahshiylashib ketadigan bo'rilarga o'xshab qolgan bezorilar orasida o'zini o'ng va chapga ura boshladi. Unga tushayotgan zarbalar alam qilmas, vujudida jo'sh urgan qandaydir kuch ta'sirida kamoli g'azab bilan: «Qo'rzoqlar! Ifloslar!» deya baqirar, engashgan ko'yi chap berib, jonini qimmatroqqa tushirishga ahd qilgan mahkumday bor quvvatini jo qilgan mushti bilan duch kelgan basharaga tushirardi. Garchi u darg'azab, ko'rinishi dag'dag'ali tus olgan bo'lsa-da, hamon boyagi jag'dor yigitni izlar, o'shanga hamla qilardi. Yigit esa dam ko'rinib, dam sheriklarining yelka, yag'rinlari panasida ko'zdan yo'qolar, «Yerga bosinglar, yerga!» deb chinqirardi.

Oxiri o'sha baxtli on (u chindan baxtli on edi!) keldi-yu, tevarigidagi qo'llar pidjagini tar-tar yirtib yuborgani eshitildi. Nikitin tepki va musht yeya-yeya nihoyat jag'dor yigitga yaqinlashgandi, yigit vahimali dod solib, sohil to'sig'idan ko'prik tomonga tisarila boshladi. Bu xoli, keng joyda Nikitinga negadir hech kim xalal bermay qo'ydi. Yigit ko'prikda yonlamasiga tisarila turib, shimining cho'ntagidan nimadir olmoqchi bo'lardi. Nihoyat, qalamtaroshning kumushsimon damli uzun tig'i yalt etib ketdi. Ammo yaltiragan tig' Nikitinni cho'chitmadi, aksincha, u g'azab bilan yigit tomonga tikka borarkan, xotirjam g'udranib qo'ydi:

– Ana endi durust, yakkama-yakka qoldik... Umringda biror tankka o'q uzgan-uzmaganing ma'lum bo'ladi hozir... («Buni nimaga aytyapman? Nimaga gapiryapman buni?») O, ko'rasan endi, hezimchalish... Sendaqalar urushda ham uchrovd! O, senga o'xshaganlar Qadimgi Rimda ham bo'lgan... («Qanaqa Rim? Ni-



malar deyapman?») Xo'sh, qani ayt, sen zo'rmi yo menmi... Hozir ma'lum bo'ladi-da! Men zo'rmi yo senmi?

– Qorningni yorib tashlayman! – yigit yuzini silkitib, bo'g'iq ovozdagi o'shqirgandi, chakka sochlarigacha titrab ketdi. U biqinini ko'prik panjarasiga tirab, qo'lidagi qalamtaroshni o'qtaldi.

Ibtidoiy jamoa kishisi qorong'i tunda g'origa yaqinlashgan kuchli g'animga hamla qilib, qo'lidagi xarsang bilan uning boshini majqlashni mo'ljallaganida shunday dahshatli na'ra tortgan bo'lsa ehtimol. Hozir esa g'or ham, ibtidoiy jamoa kishisi ham yo'q, faqat osuda Pyatnitskiy ko'chasi-yu, Kanava ko'prigi, jag'dor, og'zi-burni qon yigit bilan hammayog'i dabdala, kiyimlari pora-pora, og'zidagi qon ichiga ketayotgan, haqligidan azbaroyi kufuri oshgan-u, hammayoqni ag'dar-to'ntar qilib, soddaligi, tahqirlangan va oyoqosti qilingan izzat-nafsini muhofaza qilishga tayyor turgan Nikitingina bor edi. Shu bois Nikitin butunlay boshqacha ko'rinar, o'ziga sira o'xshamas, bu uning vajohatidan ham sezilardi...

– Shunday eslab yurasanki hali, iflos!.. Maqsadim boshqa ediya! Olti kishilashib yopishdinglar... Yo'q, yo'q, gap puldamas!.. – Nikitin qaltiroq mushtida tig'i nayzaday qalamtarosh ko'rinayotgan yigitga quruqshoq lablari orasidan arang shivirladi. – Xo'sh, pichog'ingni yashirarsan endi, a? Yo yashirmaysanmi? Yashirasanmi? Yo'qmi!..

– Yaqinlashma! Qorningni yorib tashlayman, o'laksa! – bo'kirdi yigit yana tahdid va do'q aralash.

Shu payt Nikitinning chap qo'liga issiq va qattiq nimadir urilganday bo'ldi. Yigit ko'zlarini xunuk chaqchaytirar, og'zi katta ochiq edi. Qo'li pichoq tegib qonaganini sezgan Nikitin engashgan ko'yi chetlandi-da, o'ng qo'li bilan pastdan bezorining dahaniga musht tushirgandi, yigit qattiq chiyillab, so'kindi. Keyin yigitning qonga belangan yonoqlari, kosasidan chiqib ketay deyayotgan ko'zlari yanayam yaqinlashuvdi, Nikitin uning shilimshiq basharasiga ikkinchi marta musht urdi. U vujudidagi g'azab aralash bor kuchini ana shu zarbiga jo qilgandi.

Banogoh orqa tomondan og'ir va qattiq zarba tushib, yerga quladi va nazarida tepasidagi oyoqlar tapir-tupuri, tushayotgan tepkilar, hushtak, kattiq baqir-chaqir unga uzoqdan eshitilayotganday tuyuldi.

– Qochinglar, xit!



Bir zumda hammayoq suv quyganday jimib qoldi.

Nikitin shundan keyin o'rnidan irg'ib turdi-da, og'zidagi qonni tuflab tashlab, boshi qattiq shang'illayotgani uchun gandraklab yura boshlagandi, ortidan kimdir kelib uni mahkam ushladi: «Tinchlaning, tinchlaning!» Bezori bo'lsa ko'prik panjarasi yonida turardi. Ikkita militsioner uning kiftidan ushlab olishgan, yapaloq burni bilan yonoqlarini qon yuqi battar xunuk ko'rsatardi. Qo'lida qalamtarosh yo'q edi. U militsionerlarning qo'lidan chiqishga urinib, siltanar, gapi tomog'idan yo'talday otilib chiqardi:

– Uyimga ketayotsam yopishib oldi, yaramas!.. La'nati mast! Yo'limni to'sib pul berasan, deydi yaramas!

Nikitin madorsiz oyoqlari chalishib zo'rg'a turar, biror so'z aytishga ham majoli kelmas, faqat tirjayardi xolos.

Ikkovini ham militsiyaga olib borganlaridan keyin yigit ho'ngillagan ovozda boyagi gapini takrorlarkan, kinodan uyga qaytayotgandim, manavi la'nati mast yo'lda cho'ntagimni kovlashtirib, ellik rubl pulimni tortib olmoqchi bo'ldi, deya isbotlashga tushdi. U cho'ntaklarini ag'darib, navbatchining tumshug'i tagida yarmi yirtilgan ellik rublni silkitdi. Ko'rinishidan ancha kibrlı, peshanasi keng kapitan peshtaxta ortidan shubhali qaragancha yirtilgan ellik rublni olib («Q-qa-ni...»), stolga qo'ydi. Militsioner timalaverib sog' joyi qolmagan, lekin juda mustahkam o'rindiqqa o'tqazib qo'ygan Nikitin yigitga tikilar, tuflagandagi tirish aftini («Men zahmman»), ko'prikdagi mushtlashuv paytida qo'rquvdan xirqiragan va qonga to'lgan og'zini («Qorningni yorib tashlayman!») eslarkan, nochorligi va alamidan yig'lab yuborayozdi. Chunki ko'prikda ikkovi yakka-yakka solishishlariga xalal berishgan, o'sha to'dadagilardan bitta nomardi orqa tomondan xiyonatkorona urgan, chalib yerga yiqitgandi. Birov yoningni olmasa, sening ham, raqibingni ham so'ziga quiloq solinmaydigan militsiyaxonada esa hatto sohilda bo'lgan voqea, uning asl sababini batafsil aytib berishning ham iloji yo'q edi. Yigitning yig'lab-siqtab, «manavi mast jinni, savdoyi», tiqilinch qilib, pul ber, degani, bosh tortganidan keyin cho'ntagini kovlaganini tushuntirishga urinayotgani, bunga yirtilgan qog'oz pulni ro'kach qilayotgani Nikitin ayta oladigan va aytmoqchi bo'lgan haqiqatga nimasi bilandir sal yaqin kelishi mumkin edi-yu, biroq g'irt teskarisi bo'lardi.

«Axir bugun, xuddi shu bugun hayotimda zo'r voqea ro'y berdi, men ham, mabodo o'sha baxtning o'zi bo'lsa baxtiyor edim chamasi. Shu vajdan mening olamdagi bor narsalarga va yo'lda tasodifan uchrab qolgan ana shu notanish yigitlarga ham yaxshilik qilgim keluvdi...»

«Yaxshi ko'ringim keluvdi, deganingiz nimasi? Aniqroq gapi-ring».

«Xo'sh, menda pul bor edi, ularda sigareta yo'q ekan, hammasini siylamoqchi bo'ldim. Ha, sigareta chekib, ular bilan o'tirib, gurunlashgim keluvdi».

«Kechasi-ya? Notanish odamlar bilanmi? Nima maqsadda?»

«Sizga aytsam, mening yaxshilik qilgim keluvdi. Hammaga. Nima, o'zingizda shunday bo'lmaganmi?»

«Biz, o'rtoq fuqaro, hammamiz yaxshilik qilishimiz kerak. Biroq nima sababdan ularni siylamoqchi bo'ldingiz? Ular bilan nima ishingiz bor edi? Bitta-yarimtasini tanirmidingiz?»

«Yo'q. Nahotki buning ahamiyati bo'lsa?»

«Gapni kalta qilganda, o'rtoq fuqaro, mast ekansiz, uyingizga borib uxlasangiz bo'lardi. Esi joyida odamlar shunday qilishadi-ku».

«Ha, esi joyida odamlar shunday qilishadi».

«Siz, nima, ruhiy kasalliklar dispanserida hisobda turasizmi? Yo urushda kontuziya orttirganmisiz?»

«Garchi kontuziyam bo'lsa ham hozircha hisobda turmayman...»

«Qayerda ishlaysiz?»

«Hozir hech yerda ishlamayman. Uyda ishlayman. To'g'rirog'i, bir xonani ijaraga olganman».

«Nimaga hech qayerda ishlamaysiz? Harbiy pensiya olasizmi?»

«Yo'q, olmayman. Universitetdan keyin gazetada ishladim, keyin ketdim. Nima bilan tirikchilik qilishimni tushuntirishim qiyin. Shinelim, etigim, zobitlarga xos kompasimni sotdim... Yana nima? Ha, «Gvardiya» degan ko'krak nishonimni botinkaga alishdim. To'g'rirog'i, uni bir polkdoshimga sovg'a qildim. U ikki yil oldin poyezdda hamma hujjatlari, nishon-u ordenlarini kiyim-kechagi bilan oldirib qo'yan ekan. U botinka sotib olib, menga tortiq qildi».

«Demak, siz tayinli biror ishsiz va tirikchilikka ishlab pul topmay yashaysizmi? Shunday tushunish kerakmi?»

«Unchalik emas. Menda mablag' deyarli yo'q. Biroq uzzukun... ertalabdan kechgacha ishlayman. Kechasi ham. Ko'pincha kechasi bilan o'tirib chiqaman. Deyarli har kechasi. Uyqu nimaligini bilmayman. Dostoyevskiy yoki Balzak qanday ishlaganlarini bilasizmi? Tolstoy, Flober, Renami-chi? Renarning «Kundaliklar»ini o'qiganmisiz?»

«Bas! Jig'imga tegmang. Tolstoyning kimligini bilamiz, aqlimiz yetadi. Militsiya bu yerda bekor laqillab o'tiradi, deb o'ylaysizmi. Tolstoyni ro'kach qilganini qarang-a. Savol qisqa va aniq – nima bilan shug'ullanasiz? Ishingiz qanday?»

«Nima ish qilasiz, ishingiz qanday, deysizmi? Yaxshi, javob berishga harakat qilaman. Ertalabdan kechgacha va kechasi bilan so'z, kerakli jumlani izlayman va ko'pincha topolmayman... Biroq hayotda hammasidan ham odamlar topgan so'zimdanda kulib, quvonib yoki ma'yus tortib, yig'lashlarini istayman. Sabr qiling, qayoqdagi bema'ni gaplarni aytyapman-a! Boshqa narsani tushuntirishim kerak. Manavi yigitni ko'ring, ko'ring. Yolg'onni juda o'rniga qo'yyapti-ya! Nima uchun? U sizga Iuda Iskarriotani eslatmayaptimi? O'zim qirq beshinchi yilda o'q uzib o'ldirolmagan to'p komandiri Mejeninni eslatmayaptimi?»

Nikitinning qizigan miyasidan sirg'alib o'tgan bu dialog nazarida xuddi tushida bo'lganday tuyulgani uchun u dastro'moli bilan pichoq tilib ketgan qo'lini bosardi. U alamini yutib peshtaxta oldida g'azab bilan nimalardir deyayotgan yigitning xunuk va yeb yuborguday ko'zlari, isqirt basharasi-yu qonagan burmini ko'rdi. Keyin jirkanib qarayatgan navbatchi ortidan borarkan, dabdalasi chiqqan pidjagini ko'rdi. Bu pidjagini yaqindagina bezori yigitlar (go'yo bu bitta-yu bitta pidjagi ekanligini bilganday) qo'llari baland kelishini bilishgan-u, dalvay-dalvay qilib tashlaganday edi. Nikitin kaltaklangan, ust-boshi iflos bo'lsa-da, ishi qandayligini tushuntirayotgani, Tolstoy bilan Renarning fidoyiligi, so'z qidirishi, yaxshilik qilish borasidagi gaplari bemavridligini angladi. Qulog'iga kulgimi, o'kirishga o'xshash qandaydir ovoz ham kirardi. Shunda beixtiyor aqlsiz ish tutayotgani uchun xijolat chekarkan, bo'g'ziga ittifoqo yoqimli achchiq kulgi tiqilib, ko'ksi kuchli o'kirishdan pora-pora bo'ldi. Keyin o'sha kulgi bilan o'kirishni bo'g'ila-bo'g'ila yutgach, xona o'rtasida kulrang xoli bo'shliqda

navbatchining amirona yuzi va o'quvchiliki kabi egri-bugri harflar yozib tashlangan stoldagi siyohdon yonida yotgan o'z pasporti, g'ijim-g'ijim yirtiq ellik rubl pul bo'lagi solingan, chamasi yigitning guvohtomasini ko'rdi-da, tishini g'azabli qisirlatdi: «Nima bo'ldi menga? Ham yig'lagim, ham kulgim kelyapti-ya... Hech qachon bunday ahvolga tushmagandim-ku! Asabim bo'shshib, o'zimni idora qilolmay qoldimmi? Ishqilib shunday bo'lmasinda... Hammaning ko'z oldida...»

– Shunday bo'luvdimi, o'rtoq Nikitin? – navbatchining ovozi qulog'iga qumday g'ijirlab eshitildi. – Siz xuddi hozirgiday g'irt mast holda o'rtoq Milyayevning pulini tortib olishga uringansiz. Shunday bo'lganmidi?

– Ha, ha... – Nikitin arang shunday dedi-yu, yana o'kirik aralash kulgi tomog'iga tiqilib, ko'z yoshlari yuzini yuvdi.

– Yirtiq pulni egasiga qaytaring.

– Ha, ha, egasiga... marhamat...

Nikitin uzatgan yarimta ellik rublni navbatchi siyoh yuqi, dehqonchasiga dag'al barmoqlari bilan haqligiga ishonganday qiyofada dadil olib, uni guvohtoma xatidagi ikkinchi yarmisining ustiga qo'ydi. So'ngra guvohtoma yopilib, shosha-pisha stolga cho'zilgan yigitga uzatildi.

– O'rtoq Milyayev, pulingizni oling. Bankda almashtirib berishadi. Endi, o'rtoq Nikitin, protokolga kiritish uchun sizga bir necha savolim bor.

«O'zimni tutolsam bo'lgani... Qani endi tomog'im bo'g'ilmasa... O'zimni yerga uryapman. Og'iz ochishga ojizman. Nachora... Menga nima bo'lyapti?... Savdoyiga o'xshayman-a. Frontda askarim shu ahvolga tushsa, unga ishonmay qo'ygan bo'lardim», Nikitin tomog'iga tiqilib kelgan achchiq kulgidan, ko'z yoshlarining nordon ta'midan bo'g'ilar, yutinayotganini birov ko'rmasin uchun teskari o'girilib, ko'ngli behuzur bo'layotganday qalt-qalt titrardi.

– Bunaqa isqirt mastlarni o'tqazib qo'yish kerak!.. Hali bu yerni ham bulg'ab ketmasaydi... – yigit zo'ravonlikdan muhofaza qilingan kabi jo'shib kalondimog'lik bilan shunday dedi-da, buyumini tanib qolgan odamga o'xshab ellik rublning ikkala bo'lagi solingan guvohtomasini kalta pidjagining cho'ntagiga joyladi. Keyin to'siq oldida yana egilib-bukilganча ivirsiy boshladi. – Men ketaveraymi,

o'rtiq kapitan? Ishchi odamman, ertalabki smenaga borishim kerak. Ayrimlarga o'xshab...

Shundan keyin Nikitin chidab turolmadi. Yigit undan ikki qadam narida, yog'och to'siq yonida turar, yonoqlari yaltirar, xunuk ko'kargan og'zi mamnun ochilib turgani uchun mayda tishlari ko'rinardi. Uning so'zlari, balanddan kelishi, navbatchi oldida egilib-bukilishi emas, balki o'zini g'olib ko'rsatib, oshkora hiringlayotgani Nikitinning ko'z oldiga boshqa bir manzarani keltirdi. Bu haqda u sohilda yigitning qo'lida pichoq ko'rganida ham o'ylamagandi: ha, ha, bu yigit mabodo ulgursa bormi, o'sha pichog'i bilan yerda chilparchin yotgan Nikitinning qornini «yorar», ustun kelgan qo'rqoqday hingillaganicha uning ko'zlarini ham bemalol o'yib olgan bo'lardi.

– Pichog'ing qani? – Nikitin arang shivirlab, naq esi og'ganday kulgi va yig'idan bo'g'ilgan vajohatda yigitga tashlangandi, bezori o'zini orqaga tashladi. Mushti uning suyakdor kiftiga tegdi xolos. Yigit o'zini orqaga tashlaganida muvozanatini yo'qotgani uchun yag'rini va boshi bilan devorga urildi-da, o'sha zahoti xirillab Nikitinga xezlandi. Bu paytda ikkita militsioner Nikitinni yana o'rindiqqa eltishayotgandi. Yigit Nikitinga musht tushira olmay, o'tkir tirmoqlari qoshidan yonog'igacha timdalab tushdi. Chamasi, u Nikitinning ko'zini mo'ljalga olgandi.

– Ko'rdinglarmi? Ko'rdinglarmi?.. Menga pichoq bilan tashlanuvdi!.. Pichog'ini ariqqa tashlab yubordi! Ariqqa uloqtirib yubordi, yaramas!

Navbatchi bir-ikki sakrab to'siq ortidan chiqdi-da, yaxshi o'zlashtirgan usul bilan yigitning qo'llarini orqasiga qayirdi va eshik tomon olib borayotib militsionerlarga qat'iy buyurdi:

– Ikkovini ham hamab qo'yinglar! Yakka-yakka. Tushunarlimi? Ikkovini ham!

Bir yarim soatdan keyin Nikitin tiralib ketgan o'rindiqda aftlarini bujmaytirib, g'ujanak yotgan qorong'i, isqirt kiyimlar hidi anquvchi xonaga militsioner kirdi-da, unga yuzini yuvib, ketidan yurishini buyurdi. Nikitin militsiya hojatxonasining jo'mragida yuvinib, dastro'moliga artindi. So'ng ikkinchi marta navbatchi xonasiga olib kirildi.

U hamon militsionerlar qarshisida boyagi o'kirik va kulgini unutilmay ezilib turgani uchun navbatchi to'sig'i ortidagi qotma-



gina, kekxa, yuzi qonsiz, hang-u mang, qadimiy shlapali, oyog'iga eski tufli kiygan kampirni ko'rib hayron bo'ldi. Kampir Nikitinga go'dakday mo'ltirab shivirlagan ovozda:

– Vadim Nikolayevich, Vadim Nikolayevich, sizga nima bo'ldi? – dedi.

Bu Nikitin yashaydigan kvartiraning egasi Mariya Pavlovna Steshnova edi. Nikitin urush yillari qazo qilgan tarix professori bevasidan bir xonani ijaraga olgandi. Kampir ajabtovur uyatchan, sal nojo'ya so'zdan ham qizarib ketaverardi. Nikitin kampirning bu yerga nimaga, qanday kelib qolganini o'ylarkan, dabdala, chala-yarim yuvilgan yuzi, dalvay-dalvay pidjagi unda qanday taassurot qoldirganini tasavvur etdi-da, bo'g'iq ovozda navbatchidan, bu ayol militsiyada nima qilib yuribdi, deb so'radi.

– Chaqirdim. O'zingiz aytgan uy telefoni bo'yicha chaqirdim, – javob qildi navbatchi noxush. – Mana sizning ijarachingiz, Mariya Pavlovna. Yaxshi-ya? A?

– Menmi? Sizga-ya? Hecham-da! – dedi Nikitin navbatchining gapiga tushunolmay. – Hech qanday telefon bergan emasman! Sizga hech qanday telefon raqami bermovdim-ku!

– Sizga nima bo'ldi, Vadim Nikolayevich, nima bo'ldi? – gangib qolgan Mariya Pavlovna o'rindiq chekkasiga cho'kdi. – Siz sira ham ichmasdingiz-ku! Yo xudoyim, sizni kim bu ko'yga soldi?

– Buni urib bo'larkanmi?! – deb qo'ydi navbatchi. Uning Nikitinga qadalgan haqiqat yanglig' o'tkir ko'zlari hamon gumonsirab boqardi. – Biz birinchi marta ana shunday ish tutamiz, Mariya Pavlovna, ana shunday. Birinchi safar... Bizdan buni oling-u, uyingizga keting. Shaxsan javobgarligingizga olasiz. Vassalom. Boringlar. Mana pasport. Sizning, o'rtoq Nikitin, matbuotga maqolalar yozib turishingizga sira ham ishonolmayapman. Ichib olib, odamlarga daf qilib yurasiz. Buni nima deb atasa bo'ladi?

– Xudo haqqi, Vadim Nikolayevich, xudo haqqi, bu yerdan tezroq ketaylik, – g'udrandi Mariya Pavlovna shoshib qolib. – Uyga yuring, qarog'im, yuzingizga ho'l latta bosish kerak. Hozir ko'chadagilarga qanday ko'rinasiz endi?

Ayol kechirim so'raganday shlapasini navbatchiga qimirlatib qo'ydi-da, qaltirab barmoqlari bilan Nikitinning qo'ltig'idan olib, avaylabgina eshik tomonga tortdi. Uning ko'rinishi go'yo bu yerdan



Nikitin ikkovini chiqarib yuborishadi-yu, hech narsa ro'y bermagan-day bo'lib ketadiganga o'xshardi.

– Kechirim so'rasangiz bo'lardi, o'rtoq Nikitin, – dedi navbatchi qovog'ini uyib. – Qilgan bemazagarchiligingiz hech qanday qolipga sig'maydi asti...

– Vadim Nikolayevich, qarog'im, xudo haqqi, kechirim so'ray qoling!

– Uzr, Mariya Pavlovna, men hozir... – Nikitin xunuk vajohatda to'xtab navbatchiga kalakaomuz qaradi. – Siz haqsiz. Men ichib, kechalari odamlarni tunayman, pullarini tortib olaman. Haqiqatni judayam boplab aniqladingiz. Mening pulimni o'sha yaxshi, halol yigitga berdingiz. Jin ursin o'sha pulni! Biroq, afsuski, sizdan kechirim so'rayolmayman.

– Boring, boring! – achchig'i chiqdi navbatchining. – Mahmadona ekansiz, o'rtoq Nikitin! Garchi maqolalar yozib tursangiz ham juda mahmadona ekansiz!..

Shundan keyin ular sokin, tong oldidan bo'zargan ko'chaga chiqishdi. Endi sarg'ish asfalt. tramvay izlari chor tarafga kesib o'tgan tosh ko'cha aniq ko'rinardi. Nikitin Mariya Pavlovna militsiyaga chaqirilgani uchun azbaroyi ezilib ketganidan, bemahal bezovtalik uchun kechirim so'ray boshladi. Ahmoqona anglashilmovchilik deb sizni ancha ovora qilishibdi, dedi.

Mariya Pavlovna bo'lsa, hamon o'ziga kelolmay, uning so'zlarini tinglar, gapini ma'qullaganday beso'naqay-shlapasini silkitar va aybdor farishta singari sekingina xo'rsinib qo'yardi.

«Uni... ilgari bilmagan ekanman-da», ko'nglidan o'tkazdi Nikitin.

Nikitin Mariya Pavlovnaning uyida turganiga bir yildan oshgan, bir-biriga zaruriy gaplardan tashqari hech qachon yurak ochdi qilishmagandi.

– Mariya Pavlovna... – ichida o'zini la'natlagan Nikitin xijolatda ayolga minnatdorligi ortganidan xirqiroq ovozda gap boshladi. – Mariya Pavlovna, kechirasiz... Men va'damda turolmadim... Yonimda pulim yo'q edi. Sizdan to'rt oylik qarzdorman-ku. Siz so'ramadingiz ham... Hozir pulim bor. Marhamat, hoziroq hammasini to'layman... Meni kechiring...

Shundan keyin u cho'ntaklarini kovlashga tushib, gijimlangan pullarini yig'a boshladi. U gangib, qayta-qayta sanab chiqsa,

yonida judayam kam pul qolibdi: uch ming rubldan tanga-chaqa qo'shilganda yetti yuz ellik rublgina qolibdi xolos. Nikitin Madaniyat bog'i, daryo tramvayining salonini esladi, o'shanda ham Vixrov emas, o'zi sarf qilgandi. Shuncha ko'p pul sarf bo'lganiga aqli bovar qilmas, qolaversa, mushtlashuv paytida yigitlardan birortasi cho'ntagiga qo'l solgani sezilmovdi.

– Kechirasiz, Mariya Pavlovna, pulimni yo'qotganga o'xshayman, – dedi Nikitin o'zi to'qigan yolg'onidan yerga kirib ketguday bo'lib. So'ngra shosha-pisha bir hovuch pulni Mariya Pavlovnaga tiqishtira boshladi. – Bu yerda bir oyning haqi... Qolganlarini keyin, keyin beraman. Yaqin kunlarda, menga ishoning.

Hayratga tushgan Mariya Pavlovna yurishdan to'xtab, shlapasini yana xijolatli silkib qo'ydi. U sal o'ziga yoqmaydigan gap eshitsu ham shunday kayfiyatga tushardi.

– Qo'ysangiz-chi, Vadim Nikolayevich, pulga balo bormi, menga qarang axir... Kerak emas, kerak emas, xudo haqqi... Pulni topganingizda berarsiz, qachon bo'lsayam. Hozir zarur joyi yo'q.

– Mariya Pavlovna! – yolvordi yana Nikitin. – Iltimos qilaman!


– Kerak emas, dedimmi, kerak emas, – Mariya Pavlovna qo'lini orqasiga tortib oldi. – Yuring, Vadim Nikolayevich. Yuzingizga hozir ho'l doka bosish kerak, bo'lmasa ko'chaga qanday qilib chiqasiz?.. Undan keyin sirayam xijolat bo'lmang. Mening ham o'g'lim bor edi axir. Bunaqa voqealar bo'lib turadi...

Shundan keyin Nikitin ayolning tirsagidan avaylabgina ushlab yonma-yon keta boshladi. U marhuma onasining tirsagidagina shunday ushlagan bo'lardi. Yo'l-yo'lakay nuqul uzrlar so'rar, qoqilib ketib qotmagina bu kampirni turtib yuborishdan cho'chirdi.

Nikitin oradan ko'p yillar o'tib, o'shandagi voqealarni eslarikan, yuragi orqasiga tortib ketgan, chunki ezgulik, olijanoblik bilan g'azab va nafrat yuzma-yuz kelib qolgandi.

## BESHINCHI BOB

– Bizni unutilgan qirqinchi yillar ayirib turardi, ammo hozir siyosiy tuzumlar ajratib turibdi. Men rus va nemis ziyolilari o'rtasidagi totuvlik tarafdoriman, janob Nikitin. Ruschasiga qanday bo'ladi? N-na-vash-she zdorovye!..



– Bu istak hozir xalqaro istakka aylangan. Sizning sog'lig'ingiz uchun, janob Ditsman!

Ular Gerbert xonimning keng-mo'l mehmonxonasidagi kamin yonida o'tirishardi. Torsherlar nurida patli gilam kalta qirqilgan yam-yashil maysazorga o'xshar, kamindagi o'tinlar asta chirs-chirs yonib, Nikitin yoqimli harorat hamda o'qtin-o'qtin ho'planayotgan konyak ta'sirida g'oyat yayrardi. U yonidagilar qanday savollar bermoqchiligidan qat'i nazar, hatto nemis xonadonining bashang jihozlangan, gilamlar to'shalgan va sokin, olov qalangan kamin oldida, chamasi oqshomgi gurungbop mana shu burchakda ham o'zi va siyosiy qaysar, zaharxanda suhbatdoshi oralaridagi tabiiy mavjud tafovutni yanglishmay farqlashga shay edi.

Nikitin bilan Samsonov mehmonxonaga kirishlari bilanoq, ularni o'z mashinasida olib kelgan uy bekasi Gerbert xonim ikkovini to'planganlarga, o'zining so'zlari bilan aytganda sara, yaqin do'stlariga tanishtirdi. Bunaqa paytlarda qoida tusiga kirgan navbati bilan tanishuv, yaxshi keldinglarmi, toliqib qolmadinglarmi, qabilidagi silliqqina savollar, Gamburg kuzi nam kelganligi, taassufki, bu yil odamni shamollatadigan yomg'ir ko'p yog'ayotganligi borasidagi mulohazalar, kimning nima ichajagi muloyimlik bilan aniqlab olingandan keyin Nikitinning so'nggi tarjima romanlari nashr etilgan eng yirik «Veber» nashriyotining bosh muharriri janob Ditsman ma'noli ko'z qisib, darhol ikkita shishani (mozal vinosi bilan konyakni ehtiyot shart ma'nosida!) yaqinrog'iga surib qo'ydi. So'ngra u Nikitinni hol joniga qo'ymay, mehmonxona burchiga yetaklab, boshqalarga kula-kula ba'zi haqiqatlarni aniqlash maqsadida sovet yozuvchisini picha vaqt band etajagini bildirdi.

Gerbert xonim ham xushchaqchaqlik bilan rus yozuvchisini nemis tanqidchisi ixtiyoriga tashlab qo'ya olmasligini, sababi, janob Ditsmanning egotsentrizmidan voqifligini aytib, mehmonlarni birga-birga suhbat uchun kamin, olovga yaqinroq taklif qilayotganini aytdi. Shundan keyin chorpahil, qip-qizil yuzli va yarg'oq boshi yaltirayotgan janob Veber stolcha tomonga kelib, yumshoq kresloga yastangandi, yoniga teatrning taniqli aktrisasi, novcha, xipchabel xotini Lota Tittel yaqinlashdi. U ovozi rasta o'smirday bo'g'iqroq ovozda do'rilladi:

– O, men Sharq bilan G‘arbni tomosha qilmoqchiman. Oxiri nima bilan tugarkin? Urush e‘lon qilish bilanmi?

Janob Ditsman bir daqiqa ham nafasini rostimay, go‘yo g‘animat bu imkoniyatdan xursand kabi peshlangan aqlini ishga solib Nikitindan ajralmay qo‘ydi. Uning bidillab gapirishi, rangpar yuzi, o‘ynoqi ko‘zlarining yiltirashi, ingichka barmoqlari bilan dambadam qadahni og‘ziga keltirib ichkilikdan ho‘plab qo‘yishi, ochiq qutidan sigareta olib, qirra burniga yaqinlashtirib, tamakini yutoqib hidlashi (u yaqinda yuragi zaif bo‘lgani uchun chekishni tashlab yuborgandi), qo‘ying-chi, bari harakatlari va gapirishidan Nikitin avvaliga jiddiyroq tortdi, adabiy davralarga xos aql mashqidan iborat o‘yin boshlanishiga shay bo‘lib turarkan, dilidan: «Bu janob Ditsman, sobiq va ephil reportyorlardan chiqqanga o‘xshaydi», degan fikr kechdi. Biroq o‘sha «o‘yin» davom etgani sari Nikitin unga tobora jiddiyroq va chuqurroq berilar, endi janob Ditsman ochiq qutidagi sigaretani hidlab huzur qilganida uning asabiy qo‘llari harakatiga qiziqibroq tikilardi. Samsonov bo‘lsa, Nikitinning iltimosiga ko‘ra, faqat og‘ir jumlalarnigina tarjima qilar, ko‘rinishi salobatli, hamma tugmalari qadoqli pidjagini dumaloq qorni turtibroq turardi. U kamin ta‘sirida isib ketgani uchun peshanasida ter rezalari paydo bo‘lgandi.

Gerbert xonim Nikitinning ro‘parasida o‘tirar, qora koftochkasining yoqasi sviter yoqasiga o‘xshab oppoq bo‘ynini bamisoli erkak kishining silashiday o‘rab turar, ingichka zanjir uchida cho‘zinchoq tilla medalyon yiltillardi. Sochi rus ayollariniki kabi turmaklangan, quloqlari jajjigina, oq oralagan silliq sochi qizlarnikidan qolishmaydigan adl qomatiga yarashmayroq turganini payqab olsa bo‘lardi. Ittifoqo Nikitinning xayolidan ehtimol bolaga hushi yo‘qligi, balki umr bo‘yi o‘zini parvarish qilishga majbur etadigan zohidona tiyqlik oqibatida bitta ham bola tug‘magan ayollardagina shunday bo‘lishi mumkin, degan fikr lip etib o‘tdi.

Bu, chamasi, uncha to‘g‘riga o‘xshamasdi. Nega deganda, Gerbert xonim rohiba ayollarga o‘xshab o‘zini qismas, konyak ichar, ko‘p chekar, sigareta tutuni orasidan zavq to‘la zangori ko‘zlari ko‘rinib qolardi.

Gerbert xonimning nigohi Nikitinning nigohi bilan tez-tez to‘qnashib qolar, go‘yo xonim Nikitin konyak ho‘plaganida yoki gu-

gurt chaqqanida sinchiklab, boshqalardan yashirincha mehmonning kostumi, galstugi va zaponkalarini o'rganayotganday gohida bezovta jilmayib negadir jig'iga tega boshladi. Gerbert xonimning nazari tushgan paytlarda Nikitin xuddi birov uzoq va qiynab suratga olayotganday beixtiyor qimirlab, holatini o'zgartirishni istardi.

Gerbert xonim bir marta kulib turgan ko'zlarini yerga qaratib, yubkasidagi kulni chertib tushirdi-da, ko'kragidagi medalyonchaga barmoqlari uchini tekizib qo'ydi. Nikitin shunda uy bekasi chindan ham ana shu medalyon bilan meni suratga olib, mittigina sirli magnitofonchasi bilan ovozimni yozayotgan bo'lsa ham ajab emas, degan gumonda o'zicha jilmayib qo'ydi. «Nimaga endi? Bundan nima foyda? Bo'lmagan gap-e!» Nikitin janob Ditsmanning navbatdagi savoliga muxtasar javob qilarkan, ko'ngliga kelgan gumonni quvib, Gerbert xonimga qaramaslikka urinayotgan ham ediki, no-gahon xonim unga ko'z uzmay tikilayotganini sezib qoldi. Shunda badaniga birovning sovuq qo'li tekkanday, qovog'ining solib qaragandi, xonimning uni aldashga, sigareta tutuni ortiga yashirinishga ulgurolmagan chehrasini yaqindan ko'r-di-yu, eti junjikib ketdi. Nikitin ro'parasidagi Gerbert xonimning lab chekkalariga yashiringan gunohkorona nim tabassum-u, nim irjayish, ko'zlari savolchan va muloyim, qo'rquv aralash boqqanicha qolganidan hayratga tushgan, bu ko'zlar kimningdir tanish ko'zlariga o'xshar, qandaydir alamli, g'ira-shira esda qolgan va sira tutqich bermas nimalarnidir es-lardi. «Bu ko'zlar kimni eslatyapti? Kim? Ehtimol, bir vaqtlari tushimda ko'rgan xayoliy tom tepasidagi qo'l yetmas osmon parchasi, ehtimol, bamisoli bolalikday beg'ubor, bahorning xushbo'y islariga to'la oftobli dalalarni eslatayotgandir?.. Nima bu? Bunaqa bo'lishi mumkin emas, men Gerbert xonimni sira ham ko'rmaganman, u bilan sira ham uchrashmaganman, uni birinchi marta shu yerda, aeroportda ko'rdim xolos... Sarobmi? Tasavvurmi? Bu yog'i qoyil-ku... Bunaqa savolchan, gunohkorona va muloyim boqishlarni qayerda ko'rganimni eslayolmayman, yo'q, yodimda yo'q. U nimaga menga bunaqa qarayapti? – Nikitin ichida shunday deya o'zini badgumonlikda ayblab tinchitmoqchi bo'ldi-yu, biroq xayolida qandaydir chala, birovning esdan chiqqan familiyasini eslashga uringanidagiga o'xshash uzuq-yuluq narsa qoldi. – Yo'q, uni hech yerda uchratmaganman. Qirq beshinchi yildami? Urushdami, Ber-



lindami? Biz nemislarning kvartiralarida turganimizdami? Kallaga qayoqdagi narsalar kelishini qarang-a! Ko'z ifodasi esda qolarkanmi? Uni qayerda ko'rgan ekanman? Mabodo ko'rgan bo'lsam ham o'shanda yoshi nechada bo'lgan ekan? Ha, uning yuzini sira ham ko'rmaganman... Alahlashmikin? Ehtimol, tasodifan biror joyda – Moskva ko'chasidami, poyezddami, qo'ying-chi, xorijdami shunga o'xshagan birortasini ko'rib, o'sha xotiramda qolgan bo'lsa-chi? Dunyoning turli burchaklarida yashovchi tashqi ko'rinishlari, ovozlari, qaddi-qomatlari jihatidan bir-birlariga juda ham o'xshagan odamlar uchrab qoladi-ku... Bularning baridan esim og'ib borayotganga o'xshaydi! Menga yana bir nima bo'ldi chog'i...».

U sog'lig'i uncha yaxshi emasligini bilardi. Keyingi yillarda, olti yashar o'g'li Igor o'lganidan keyin Nikitinning goh-goh mazasi qochib – bunga aqli sira bovar qilmas – xastaligini o'ta toliqish, asablari qaqshagan, deb tushuntirish mumkin edi xolos. Kechalari ezilib, vijdon azobida azbaroyi yolg'izlikdan qiynalgani uchun uxlay olmay chiqar, tomog'iga nimadir tiqilib, nafasini bo'g'ar, naq qabristonda vidolashayotib, ko'zlari doimo go'dakchasiga shodon porlovchi, kulgi, o'yinga hamma vaqt tayyor, ertalablari go'yo birovdan yashirinayotganday malla sochlarini silkitganicha qiyqirib kabine-tiga kirib keladigan va totli ma'sumlik bilan tizzasiga yopishadigan o'g'lining muzday og'zidan o'pib, qor qo'ngan yarim ochiq kiprik-lari orasidan so'nik, to'q zangori ko'zlarini ko'rganidagiday ahvolga tushardi.

Qishning o'sha kuni Nikitin aqldan ozganday bo'ldi: o'zi sezdimi yo shunday tuyuldimi, o'g'lining qor inib erimay qolgan muzday og'zidan o'payotganida uning og'zi bunga javoban sal qimirlaganday tuyuldi-yu, jajjigina lablarning sovug'i vujudiga tinimsiz, qiy-malovchi azob yanglig' o'rmladi.

Nikitin Moskvadagi kvartirasida turolmadi. O'g'li o'lgandan keyin kvartirasi birdan huvilladi-qoldi. Har nafasda o'g'lining o'rni bilinib, ovozi, qiyqirishlari, chuvillashlari qulog'idan ketmas, karavotchasi o'yinchoqlari sochilib yotardi. Nikitin shaharni tark etib, chorbog'da ishdan bosh ko'tarmaganidan tinka-madori qurib, uyqusizlik dardiga chalinib, ko'ziga har xil narsalar ko'rinadigan bo'lib qoldi. Chorbog'da yolg'iz o'zi, telefon ham yo'q, kechqurun allamahol bo'lgandagina pechni yoqar, soatlab olovga tikilib, eski

shkafni ohista qitirlatayotgan sichqon ovoziga quloq solib, bog'dagi dov-daraxtlarning qahraton sovuqdan qarsillashlaridan cho'chib-cho'chib o'tirardi. Bir kuni kechasi allamahol chirog'i yoniq va jim-jit stol yonida o'tirganida nogahon kabinet derazasini kimdir ohista chertganday bo'ldi. U qo'rqib ketgani uchun o'midan turib, pardani tortishga ham majoli yetmadi. Shunda juda xavotiri (ikkinchi qavatdagi xonaning derazasini kim ham taqillata olardi?) oshdi, bu yana biror falokat alomatimi, xotinim tinchmikin, degan xayolga borarkan, tanida joni qolmadi hisob. U vujudi titrab-qaqshab o'midan arang qo'zg'aldi, derazaga bir amallab yaqinlashib, pardasini tortib qo'ydi... Biroq tashqarida hech kim ko'rinmasdi. Sovuq tunda pos-yolkadagi tomlardan baland archalarning uchlari qorayib turar, osmonda turkum-turkum yulduzlar chaqnardi. Yirik moviy bir yulduz qor uyumlari bosgan qishloq yo'lining naq ustida mayin va go'zal jivirlab turardi.

Nikitin o'shanda muzlagan deraza oynasiga peshanasini tiraganicha Igor mana shu tungi osmonni ko'rolmay, qandayligini bilolmay va his etolmay olamdan o'tganini esladi. Nega deganda, bu manzarada, ana shu osmon ostida hayot, yoshlik, navqironlik, sevgi iztiroblari degan narsalar mavjud edi. Nikitin hozir o'tgan umriga achinar, o'g'lidan ayrilganiga sira aqli bovar qilmas, shuning uchun mana shu osmonni ham, sehrli jivirlyotgan yulduzni ham ko'rmasam, derdi.

Nikitin ertalabki qirchillama sovuqda qor uyumlari bosgan qishloq yo'lidan stansiyaga yugurdi, nima gapligini tushunolmagan navbatchini bezovta qilib telefonga yopishdi. Go'shakdan ko'zidan uyqusi ketmagan va xavotiri oshgan xotining nima bo'ldi, deganini eshitganidan keyin shivirlab: «Ovozingni eshitishni istovdim», dedi-da, so'ngra naq bir soatcha perronda o'zini bosib olishga urinib, chekib turdi.

Nikitin kuzakkacha ana shunday telbasifat bo'lib yurdi...

– Siz, janob Ditsman, ziyolilar totuv yashashlari tarafdoriman, dedingiz. Bu shioringizga qanday ma'noni jo qilmoqchisiz?

– Shior emas, e'tiqod, janob Nikitin, shiorlardan bezganimga ancha bo'lgan. Siz siyosatni ko'zda tutyapsizmi?

– Hozircha uni tinch qo'yaman. Iloji boricha o'zimizni tiyamiz.

– Mabodo ular birlashgudek bo'lishsa, – shu choqqacha jim o'tirgan Veber kulimsirab naycha bilan kokteylidagi limonni aylantirib qo'ydi, – juda bema'ni ish bo'ladi, quloq-miyani qoqib qo'lga berishadi. Qarabsizki, har kuni bo'lmag'ur mashmashalar, birorta kichik inqilobni to'qib chiqarishaveradi. Men esa intellektual emas, noshirman, unda nima qilaman? Men realistikligimcha qolaman. Yo'q-yo'qmi? Avvalgiday ehtiyojga qarab kitob va televideniye dasturlarini chiqaraveraman, nima, bunga ham yo'q, deysizmi? Kechqurunlari nemis xonadonlarida aql o'rgatuvchi mahmadonagarchiliklaringizni tinglashmaydi, aksincha, men chiqargan dasturlarni tomosha qilishadi. Yo'q-yo'qmi? Nemislarga aql o'rgatuvchi mahmadonagarchilikdan ko'ra oldi-qochdi filmlar, revyular, yaxshi reklama zarurroq.

– Sizning kapitalistligingiz endi ma'lum bo'ldi. – hazillashdi Samsonov. – Tashqi ko'rinishingizdan ham yirik kapital vakiliga o'xshab ketasiz.

Kamin oldidagi yumshoq kresloda yalpayib o'tirgan xo'ppasemiz, yuzlari qip-qizil, boshi taqir janob Veber kam ichar, naychadan limonli kokteylni mudrabroq tortayotganga o'xshardi. U Samsonovning gapidan keyin lablarini chipillatib qo'ydi-da, aqlli mitti ko'zlari tiyraklashdi.

– Tashqi ko'rinishingiz sizga o'xshaydi, janob Samsonov. – Veber hazilga tushunib qo'lidagi naycha bilan havoda Samsonovning semizligini chizib ko'rsatdi. – Garchi qonunlaringizga ko'ra siz nashriyat, aksiyalar egasi bo'lolmasangiz ham sizga o'xshayman. Yo'q-yo'qmi? – U chaynalib gapirar, «nicht? nicht?»ni jo'n talaffuz etardi. – Sizlarning... hm... tasavvurlaringizga, gazetalarigizdagi karikaturalarga ko'ra, – janob Veber gapida davom etarkan, mitti ko'zlari sho'x o'ynab ketdi, – kapitalist kim o'zi? U bo'xchaqorin, nimchali, dollar to'la qop ustida o'tirib qo'llari bilan och-yalang'och ishchini bo'g'ayotgan janob. Yo'q-yo'qmi?

– Ha, shunday karikaturalar chiqqandi, janob Veber. – Uning gapini tasdiqladi Samsonov. – Bo'lmasa, kapitalistni qanday tasvirlashni tavsiya etasiz? Kapitalistning asl mohiyati shu emasmi axir?

– Bu masalada men bilan bahslashmasligingiz mumkin. – muloyimgina e'tiroz bildirdi Veber. – Men kapitalistlar kalaka qilingan karikaturalarni anchadan beri yig'ib kelaman. Dunyoning

hamma gazetalaridagi karikaturalarni to'playman: o'z qiyofamni boshqalar nazari bilan ko'rishni istayman-da. Sizlarning kommunistik gazetalarigizdagi karikaturalarni sinfimga siyosiy munosabat desa bo'ladi... Buni bilish menga maroqli. Lota! – U naychasi-ni stolchadagi shishalar tomon silkib, yosh xotiniga muloyim ko'z suzdi. – Boshqasini bilmayman-u, ammo sanoqda adashmayman, sen viskiga ikki bo'lakdan muz solyapsan. Ovozdan ayrilmaysanmi ishqilib? Yo'q-yo'qmi?

– Sen nimagadir pulga tobi yo'qlar davlatmandliging haqida qanday fikrdaliklarini bilib olmoqchisan, – dedi Lota Titel do'rillab. – Ermaging boshingga balo bo'lishi turgan gap.

– Siyosiy karikatura bizdagiday ularda ham olomonga mo'ljallangan beo'xshov tashviqot xolos! – deb qo'ydi janob Ditsman. Keyin sigareta qutisini dimog'iga tutib chuqur hidladi. – Men hozir iflos siyosatdan gap ochishni istamasdim! Undan bosh og'riydi. Shunday emasmi, janob Nikitin?

– Ham ha, ham yo'q. Hozirgi zamon odami siyosatsiz yashay olarmikin?

– Biroq, janob Nikitin...

– Sizlarga, janoblar, hech qanday «biroq» bo'lmagan siyosat haqida shuni aytay bo'lmasa, – erkakshodalik bilan shartta gapga aralashgan Lota Tittelning uzun kipriklari bilan pilik qoshlari ta'sirida chuvak ko'rinayotgan upa-elikli yuzi qizarinqirab ketdi. – Mabodo bilgilaring kelayotgan bo'lsa, o'sha siyosatni o'zimdada sinab ko'rganman! U menga sirayam yoqmagandi! Yaqinda meni Polshaga taklif qilishdi, u yerda nemischa qo'shiqlar aytdim, qisman klas-sikadan, qisman olamga mashhur ashulalardan ijro etdim. Qanaqa ashula aytishimni to'ppa-to'g'ri zaldan turib buyurishardi... Hech qayerda meni Varshavadagiday kutib olishmagan! Polyaklarni yaxshi ko'rib qoldim! Keyin ahmoqona xatoga yo'l qo'ydim. Menga Sharq hukmdori haqidagi ashula yoqadi. Bu ashula bizda, G'arbda juda mashhur. Sharqning zolim va qudratli bir fотиhi shaharlarni bosib olganidan keyin asiralarni ko'ngli tusarkan. Asiralarga vahshiy hayvonday tashlanarkan. – Lota Tittel yalpizli sigaretaga joylangan kahrabo mundshtukini kuldonga qo'ydi-da, barmoqlarini bukib, yovvoyi hirs ortgan shohning asiralarga qanday tashlanganini ko'rsatgach, gapida davom etdi. – O'sha ashula «Oralaringda shun-

day hukmdor yo'qmi?» degan savol bilan tugardi. Oldiniga zal tinchib qoldi, hech kim chapak chalmadi. Faqat bir daqiqadan keyingina hurmat yuzasidan qarsaklar bo'ldi. Men sevimli polyaklarimni shu tariqa xafa qilib qo'ydim...

– Sharqqa borayotganda azizam Lota, repertuarni sinchiklab tashlashga to'g'ri keladi, – Ditsman sigareta qutisini ko'pchiyotgan dimog'idan olmay gapirdi. – Sharqda har doim ham g'arbcha yumorlar ketavermaydi. Yumorlarimiz orasida farq bor.

– Turgan gap, janob Ditsman, – zaharxanda qildi Samsonov. – Sharq hanuz tramvay harakatiga xalal berayotgan oq ayiqlar va teatrga kiyib boriladigan piymalar muammosi bilan ovora.

– O, o! – Ditsmanga jon kirib, qutini stolga tashladi-da, ikkala qo'lini ko'tardi. – Sharqdan hujum, taslim bo'laman! Bo'lmasa, janob ruslar, shunga javob bersangiz: nima uchun askarlaringiz Germaniyaga kirishganda nemis ayollarini zo'rlashgan?

– Zo'rlashgan, deysizmi? Bunga ishonchingiz komilmi? – hayron bo'ldi Nikitin.

– Men bilaman, janob Nikitin. Ancha-muncha voqealarni bilaman.

– Ehtimol, ba'zi bir hollarda nemis ayollarining o'zlari sharq odamlarining qandayligini sinab ko'rmoqchi bo'lishgandir? Shunday deyilsa ham bo'lar balki? – javob qildi Nikitin mumkin qadar muloyimlik bilan. – Bir yoqlama cho'rtkesarlik qaltis tavakkal qilishdir, janob Ditsman.

Nikitinning javobidan so'ng hamma unga qaradi. Hamon ko'zlari nam Gerbert xonim ko'kragidagi medalyonining ingichka zanjirini iltijoli cho'zib qo'ydi. Janob Veber pixillab kular, Ditsman e'tiroz bildirishga shaylanardi. Shu payt Lota Tittel qo'qqisidan dehqon ayollari kabi qo'lini beliga tiradi-da, sarg'ish sochlarini silkitib shunday dedi:

– To'ppa-to'g'ri, janob Nikitin! Ayol xohlamasa, uni zo'rlab bo'lmaydi! Men boshqa narsa haqida, yana polyaklar to'g'risida gapirmoqchiman, janoblar! Men aqlli, nozikta'b va musiqani sevadigan polyaklarni yaxshi ko'rib qoldim. Ular mehmondo'st, tarbiya ko'rgan kishilar, urush haqida mening oldimda og'iz ochishmadi. Sukut saqlashdi. Urushni eslatgilari kelmadi. Ularga Osvensimni ko'rmoqchiligimni aytganimda, sizga, nemis ayoliga bu narsa



ko'ngilli bo'lmaydi, deyishdi. Men qattiq turib oldim, shundan keyin haqiqiy jahannamni ko'rdim. U yerda aqldan ozish mumkin, xuddi shunday! Nemis harbiylari, gapning ochig'ini aytganda, po'ngbosh zolimlar bo'lishgan ekan! O'shanda «eses»chilarimizning bashalarini yumdalagim keldi! Sizlarga aytadigan gapim shu: hozir bechora va ma'suma nemis ayollari zo'rlanganligi haqida gapirib o'tirishimizning o'zi kulgili. Miq etishga haqimiz yo'q.

– Urush urush-da, azizam Lota, – dedi Ditsman kulimsirab. – Nemislarning aksari sadizmni emas, so'zsiz itoat – mazoxizmni afzal ko'ruvchi tiplardir, Urush – bu buyruq. Siz o'sha paytlarni yaxshi bilmas ekansiz, azizam Lota!

– Urush – bu rasvogarchilik, ziyolicha safsatasiz rasvogarchilikning o'zginasi! – Lota Tittel jizzakilik bilan gapni shartta kesib, mundштukini kresloda salqi ko'zlarini xotiniga muloyimgina tikib o'tirgan janob Veber tomonga silkidi. Janob Veber xotining go'daksifat qiliqlarini hazm qilib ketaverardi. – Mening kapitalistim Osvensimda o'zim suratga olgan filmni televideniya ko'rsatgisi kelmadi. Bunaqa narsani hech kim ko'rmaydi, deydi. O'zi esa dasturlarni Amerikaning tuturiqsiz oldi-qochdilari, kanalizatsiya quvurlariga munosib vesternlarning kinoaxlatlariga to'ldirib tashlayapti! Qachon qarasang, erkaklarning bo'rtiq lik-lik quymichlaridagi eskigan jinsilarini-yu «Pif-paf!», «Uel, uel!»ni ko'rasan. – Lota Tittel og'zini qiyshaytirib, bo'g'iq «uel, uel», deya munshdtuki bilan stolchadagi qadahlarni nishonga olib, o'q uzilgandagigā taqlidan ovoz chiqardi. – Bu faqat keyingi paytlarda ko'payib ketgan xomkallalarga kerak xolos! Durustroq bosh qotirib ko'rishni hech kim istamaydi! Hammaning fikri-zikri muzlatkich-u mashinalar, amerikacha pul topishda!

– Lota, – aftidan xotining dag'al sapchib ketishiga ko'nikib ketgan javob Veber muloyimlik bilan shunday deya mitti ko'zlarini kokteylli qadahga tikib, naycha bilan undagi limon bo'lagini aylantirishga tushdi. – Sen avvalo sotsial-demokratik partiyadan bundestagga saylangan deputat emas, ajoyib aktrisasana... Yo'q-yo'qmi? Hozir hech kim o'tmishga qaytishni, o'zini bezovta qilishni, ayblarini bat-tar og'irlashtirishni istamaydi. Yo'q-yo'qmi?

Lota Tittel keskin bir harakat bilan sarg'ish sochlarini yana silkitib qo'ydi.

– Nega deganda siyosatning o‘zi bemazagarchilik, Karl! Hamma esini yo‘qotganday pul topish bilan ovora, yaqin orada Germaniya Yevropadagi Amerika shtatlaridan biriga aylanishi turgan gap! Ko‘p o‘tmay biz shahvatparast bo‘rdoqilarday osmonni ham ko‘rolmay qolamiz! Natsistlar konslagerda sillangni quritishgan bo‘lsa ham hech nimani eslashni istamaysan, Karl! Pul, pul, pul deganing degan!..

Janob Veber hamon xotiniga muloyim boqib, yarg‘oq boshini qashlab qo‘ydi-da, naychadan kokteyl tortib, haqiqatning tagiga yetish mashaqqatligini tushuntirmoqchi bo‘lgan odamday asta gap boshladi:

– Qirq beshinchi yili konslager ozod qilinganda hech qaysimiz pulni o‘ylamasdik, Lota. Men o‘shanda mana bunday edim... – Veber jimjilog‘ini ko‘rsatdi. – Yo‘q-yo‘qmi? Janoblar, meni o‘shanday tasavvur qilolmaysizlar. Cho‘pday ozib ketgan, sillam quriganidan arang qimirlardim... Ozodlikka chiqqanimizda ko‘zda yoshim halqalanar, quyoshga, maysalarga tikilardim. Hayotim omon qolgan, la‘nati urush tugab, natsistlar yo‘qotilgan, men esa baxtiyor edim-da, janoblar!..

– Sizni ruslar ozod qilishdimi yo amerikaliklarmi? – qiziqsindi ishonqiramay Samsonov.

– Bizni Amerika askarlari ozod qilishdi. Ular tanklarda kelib, darvozani buzib kirishdi. Biz lagerdan uch kishi yo‘lga chiqib, Amerika gospitaliga ketdik. Men bilan birga Oksford universitetini bitirgan, samolyoti bilan urib tushirilgan, zodagon ingliz yigiti va otasi lagerda o‘lgan o‘n ikki yashar bola bor edi. Ozodlikning o‘sha kuni bizda majol qolmagandi. Yo‘lda sudralib borarkanmiz, telba baxtiyorlarday bahor kuniga jilmayib boqardik. Yo‘l chekkalarida bombardimon paytida abjag‘i chiqqan mashinalar yotar, esimda, bittasida – «opel-blis» degan yuk mashinasida pulli po‘lat sandiq dabdalasi chiqib yotardi. Asfaltda bog‘lam-bog‘lam million-million markalar sochilgan. Nima? Yo‘q-yo‘qmi? Yo‘lda markalar uchar, reklama varaqalariday poshnalarimizga ilashardi. Ularga birov qaramasdi ham. Biz hayot, hayotdan sarxush edik xolos, janoblar! Faqat hamroh bolakaygina pochta otkritkalarini yiqqanday bir necha qog‘oz pulni terib oldi. Yo‘q-yo‘qmi? Shundan keyin biz Amerika gospitaliga yetib olib, o‘zimizni polga tappa tashlab, o‘likday qotib uxladik.

Uyg'onganimda qarasam, bola yonimda yotar va pullarni qiziqib tomosha qilardi...

– Qanaqasiga? Yonida bola yotganmish-a! – Ditsman shoshapisha shunday deya oyog'ini chalishtirdi-da, uchi ingichka botinkasini qimirlata boshlagandi, tor pocha shimining tagidan qizil ipak paypoqli to'pig'i ko'rinib ketdi.

– Juda qiziq, janob Veber! O'n ikki yashar ma'sumgina bolami?

– Siz, ziyolilar, hamma narsadan fosiqlik izlaysizlar, – yumshoq-qina e'tiroz bildirib qo'ydi Veber.

– Tilingizdan tutildingiz, janob Veber! – Ditsman kulib yubordi-da, Nikitin bilan Samsonovga ma'noli ko'z qisib qo'ydi. – Bolaning oti nimaydi?

– Men, – gapida davom etdi janob Veber, – uch kundan keyin eski reyxmarkalar muomalaga kiritilajagi e'lon qilinganini aytmoqchi bo'luvdim. Biz o'shanda ham cho'ntaklarimizni pulga to'lg'izib olmaganimizga achinmadik... Mabodo hozir yo'lda abjag'i chiqib yotgan pul to'la seyfni ko'rib qolguday bo'lsam nima qilardim? Politsiyaga qo'ng'iroq qilardim, ehtimol yuraksizlik qilganimdan ruhiy kasalxonaga tushib qolarmidim. Yo'q-yo'qmi?

Veberning qontalash yuzlari mug'ambirona shishib, piqillab kulib yuborgandi, Nikitin bo'shashinqirab:

– Ajabtovur sujetni buzingiz-da, janob Veber, – deb qo'ydi.

– Uni sizga asl holida sotaman, – javob qaytardi janob Veber xursand bo'lib. – Sujetimni romaningizga kiritasiŷ, uni kattagina nuxhada chiqaraman, sotilgan har bir kitobning besh foizi menga... Darvoqe, Moskvada qora ikra bilan hisob-kitob qilsangiz ham bo'ladi. Yo'q-yo'qmi?

– Shartnoma! Chek yozib beraman! Faqat bitta sharti bor, romanga o'sha lo'ppigina bola qatnashgan voqea ham kiritilsa! – Ditsman qiypanglab, pidjagining yon cho'ntagidan chek daftarini olib silkitdi. – Shunchalar iste'dodingiz bo'lganidan keyin bu noyob voqeani o'xshatib yozishingizga ishonaman, janob Nikitin!

– Bu hazilda oshkora taklif bor, – Samsonov stol tagidan Nikitinni oyog'i bilan turtib qo'ydi. – Tushunarlimi?

– Minnatdorman, – dedi Nikitin, – chek daftaringizni cho'ntagingizga solib qo'ying, bo'lmasa, Genri Millerning shonshuhratiga havasimni keltirib qo'yasiz.

– Sujet bir markaga sotib olindi, janoblar! Janob Nikitinning ishonchli vakili bo'lishimga ijozat berasizlarmi?

Gerbert xonim yaltiroq sumkasini shirq etib ochdi-da, bir markali yap-yangi tangani hammaga ko'z-ko'z qilib, janob Veberning cho'ntagiga solib qo'ydi. U bo'lsa tomoq qirib, ko'z qisgach, cho'ntagini shapatilarkan, dedi:

– Sujet juda arzon ketdi-da. Yo'q-yo'qmi?

– Tashakkur, Gerbert xonim, men sizni kotiba qilib olishga tayyorman, negaki sho'rim qurimasligiga aminman, – dedi Nikitin.

Gerbert xonim arzimagan bu gapga kulib qo'ydi, Nikitin esa tilining uchida turgan va sira tutqich bermayotgan familiyani eslayolmay g'ijinayotganday zo'r berib, o'tganlarni xotirlashga urinar ekan, Gerbert xonimning hayratangiz savolchan, uzoq sinchiklab tikilishi, noz-u karashma aralash jilmayishini ilgari ham ko'rgani xayolidan o'tdi: o'shanda ham xuddi shunday vaziyat edi. Kamindan issiq kelib turar, sigareta tutuni torsherning soyaboni ostiga taralib, o'zi esa qandaydir ayol ro'parasida o'tirar, ayolga hozirgiday nozarur so'zlar aytardi. Ayol ham shunchaki jilmayib qo'yar, bunaqa tabassumlarni Nikitin ilgarilari ham ko'rgandi. Biroq hozir har qancha zo'r bersa ham aniq eslayolmas, chunki xayoliga fikrlar emas, fikrlar ko'lkasi, reallik emas, reallikning xira soyasi kelardi.

«Menimcha, u nimadandir bezovta, mendan nimagadir xavotir olyapti, – ko'nglidan o'tkazdi Nikitin. – Buni uning qarashlari, jilmayishi va haligi marka bilan gapni tamom qilgani bildirib qo'ydi».

– Urush bilan bog'liq davmi kulgi qilganingiz g'alati bo'ldi, janoblar, – Samsonov biqqi qo'llarini ko'kragida chalishtirgancha no-rozi ohangda gap boshladi. – Pul, bola, noyob voqealar. Pirovardida Germaniyaning kechmish fojiasi bilan bog'liq bo'lgan boshqa jiddiy tushunchalar ham bor-ku. Men bunda xalqingiz, vataningiz taqdiri, kelajak uchun javobgarlikni ko'zda tutyapman. Millionlab nemislar nima uchun qurbon bo'lishgan?

Janob Ditsman joyida tipirchilab, stolcha uzra barmoqlarini silkitdi.

– Nima? «Vatan», «xalq» tushunchalari, «javobgarlik» deysizmi? Ularning qadri ketib qolganiga ancha bo'lgan! Ular Gitler tomonidan natsistlik maqsadlarida foydalanilgani uchun obro'si qolmagan! «Vatan» va «burch» degan eski tushunchalarni revan-

shistlarning kichkina to'dasi yana ishga solyapti! Mabodo urushdan oldingi yaxshiliklardan gapiradigan bo'lsangiz hozirgi zamon g'arb odamini bilmay turaverasiz. G'arb odami hozir siz his etadigan Vatan degan narsadan yiroq! Uning pasporti, rasmiy grajdanligi bor, uni davlat bilan biriktirib turadigan narsa shu xolos! Nemis pasportida: hamma mamlakatlar uchun, degan yozuv bor! Hamma mamlakatlar uchun, janob Samsonov!

– Demak, bilishimcha, rasmana kosmopolitizm ekan-da? Ya'ni, mavhum olamda erkin intellektual bo'lib yashash osonroq-da!

– Nima? Kosmopolitizm? Mavhum? Ha-ha! Zo'r gap aytdingiz! – qichqirdi Ditsman. – Kosmopolitizm yaxshi narsa, har kim ko'ngliga kelgan ishni qiladi, birov bilan birovning ishi bo'lmaydi. Biroq... G'arbdagi erkinlikda loqaydlik ham, birov birovdan begonasirash ham mujassamdir, bu esa hozirgi dunyoning jumbog'i! Men sira ham bo'yab-bejamoqchimasman, janob Samsonov! G'arb ziyolisi yolg'iz. Juda yolg'iz.

– Bundan chiqdi, natsizm diktaturasi vaqtida... o'sha la'nati yolg'izlik, odamlarning begonasirashi bo'lmagan ekan-da, janob Ditsman?

– Hozirgiday darajada yo'q edi. Boshqa narsa, qo'rquv bor edi. Hozir odamlar konslagerlarga tashlanmaydi, o'ldirilmaydi, hech kim ta'qib qilinmaydi... Biroq ayni paytda odamlarning begonasirashi, la'nati insoniy qo'rquvdan kam ham, yaxshi ham bo'lmagan jamiyat dardidir! Ha, xuddi shunday!

– Unda, gap nimada, deb so'ramoqqa ijozat etasiz, – Samsonov Ditsmanning shiddatli xurujiga dosh bergan holda qaysarlik bilan so'radi-da, qo'lini ko'kragiga qattiqroq chalishtirdi. – Bundan chiqdi, «faterland» va «Doychland» tushunchalari bor «uchinchi reyx» yomon bo'lmagan ekan-da? Doychland yuber alles?

– Siz mendan Gitler diktaturasining tarafdori deb gumonsirayapsizmi?

– Buni istamayman. Biroq natsistlar apparatining o'n foizi ziyolilar bo'lganligini bilaman. Yaqingindagi tariximizda Germaniya aqlgo'ylari o'ziga yarasha ma'naviy politsiya rolini o'ynaganlar. Men sizni bilmayman, shuning uchun ham qo'li tirsagigacha qon bo'lgan ziyolilar haqida gapiryapman. Ochiq gapirayotganim uchun uzr!



– O, janob Samsonov!.. – Gerbert xonim andak gina qilmoqchi bo'lgan edi, lekin shu payt Ditsmanning chuvak basharasiga ko'zi tushib, jim qoldi.

«Dastlabki o'q ochish nuqtalarini ishdan chiqardi, endi ko'z ochirgani qo'ymay transheyani tekislashga tushadi, Platonga qoyilman, – Nikitin Samsonovning katta ketib, bahs ta'sirida oshiribroq yuborayotganidan jahli chiqa boshladi. – Nima uchun Gerbert xonim bahs qizishini istamayotganday, nimadandir bezovta bo'layotganday tuyulyapti menga?»

– Siz otalarimiz gunohi uchun bizni ayblayapsizmi? – aftidan Samsonovning bunchalar to'g'riso'zligini kutmagan Ditsman hech narsaga toqati yo'qday, ming azobda shiftga boqdi. – Siz otalarimiz qo'lidagi qon bizning qo'llarimizni ham bulg'adi, demoqchimisiz?

– Gapiring, gapiring, janob Samsonov! – Lota Tittel yelpig'ichsimon kipriklarini besabr pipiratib qo'ydi. U ichilgan viski, manavi beso'naqay rusning dag'al xurujidan qizishib, kresloga yarim suyangandi, tarang, nozik, zarrin libos sirib turgan qomati yanayam go'zal ko'rinib ketdi. Nikitin shunda hayot va shon-shuhrat hali tinkasini quritmagan bu estrada xonandasi boks, sport tomoshalari, hatto qovoqxonalardagi tasodifiy mushtlashuvlarni ham tomosha qilishni yoqtirsa kerak, degan xayolga bordi. Mushtlashuv chiqqanida qovoqxona ichkarisida o'tirganlar qiyqirib mushtlashayotganlarga dalda berib turishardi, yuvosh, o'ksik, nozik va vazmin Gerbert xonim esa bunaqa qilolmasa kerak.

– Sen ko'p bayonot-u savollar berding, Platon, – dedi Nikitin. – Ularning ishlari mohiyatini ochib berolmasmikin, deb cho'chiyapman.

Kamindagi palyonlar uzoq chirsillab yongandan keyingi cho'kkan sukunatda janob Veber hingillabmi yo ming'irlabmi qandaydir noaniq ovoz chiqarib qo'ydi, so'ngra uning uyquchan ko'zlari mug'ambirona o'ynoqlab ketdi-da, ancha dadillashdi.

– Janob Samsonov, men o'zimni oqillar toifasiga qo'shmayman. Men noshirman, sizning nuqtai nazaringizdan qaraganda kapitalistman... ammo... e... savol berishga ijozat etasizmi? Birodarlar qabris-toni yoki bir odamning qabri oldida dilimizdan nimalar kechmog'i kerak? Bunda gap-so'z-u achinish kamlik qiladi, yo'q-yo'qmi?

– Men javobgarlik haqida gapirdim, – Samsonov qovog'ini ochmay e'tiroz bildirdi. – O'tmish oldida javobgarligi bo'lmagan hozirgi hayot – soxta jannatdir.

– E-e... so'zlar o'zini o'zi cheklab qo'yyapti. So'zlar o'z ma'nosiga ega bo'lmog'i uchun kinoya joiz. Siz, janob Samsonov, to'g'ri so'zlar va hislarga qattiq ishonasiz. O'sha Birodarlar qabristonida qahramon ham, gestaponing qiynoqlariga dosh berolmay sotqinlik yo'liga kirgan va haqiqiy qahramonlarni tutib bergan bo'shtob odam ham yotgan bo'lishi mumkin emasmi? Siz qahramonga achinganday, unga ham achinasiz. Yo'q-yo'qmi?

– Sotqinga achinamanmi? Ko'z yoshi to'kamanmi? Mutlaqo! Biz odamlar va ziyolilarni kimga tarafdor – jallodlargami yoki ak-sinchami, ana shu mezon bilan baholaymiz.

– E-e... siz meni tushunmadingiz, janob Samsonov, tushunmadingiz. Men hozirgi zamon kishisini aytyapman.

– Tushundim. Men ham hozirgi zamon kishisini ko'zda tutyapman. Masalan, mana siz. – Samsonov shundan keyin ko'zoynakdan janob Ditsmanga qattiqroq tikildi. – Mana siz... Gitler vermactida xizmat qilib, jangga kirganmisiz?

– Ha, albatta, xizmat qilganman. Chetda qolmaganman.

– Qayerda, bilsak bo'ladimi?

– Berlinda. Folkssturmda jang qilganman. Urush oxirlab qo'shinlaringiz shaharga yaqinlashganida men yosh yigit edim, janob Samsonov. O'shanda mart, aprel edi. Sizlar o'shanda Germaniyaning ichkarisiga kirib borar, bizlar esa mudofaada edik.

– O'shanda qancha rusni o'ldirgansiz? Bittami? Ikkitami? Qanchani?

Kamindagi palyonlar chars-churs yonib xonaga harorat ufurardi. O'rtaga cho'kkan sukunatda hamma Ditsmanga xavotirli qarab qo'yishdi. Nikitin Gamburgdagi kamin isitib, gilamlar bilan bezatilgan va torsherlar yog'du sochgan bu shinamgina go'shani chorak asr oralig'idagi dahshatli, qonli o'tmish bilan taqqoslarkan, nazarida janob Veberning nim yumuq qovoqlari, Lota Tittelning yelpig'ichsimon kipriklari, Gerbert xonimning oppoqqina chehrasini sovuq shabada yalab o'tganday bo'ldi.

– Kimni o'ldirganimni bilmayman, ko'zim tushmagan, – janob Ditsmanni hayajonli ovozi notekis chiqdi. – Faustpatron bilan bit-

ta tankni ishdan chiqardim. Sizlarda uni «o'ttiz to'rtinchi» deysiharkan. Qo'shinlaringiz reyxstag tomon siljiganlarida men Shpree qirg'og'idagi yerto'ladan o'q uzgandim. Tank yonib ketdi, boshqa hech nimani ko'rolmadim. Keyingi tankingiz... nimaydi... «I – S»... Iosif Stalin, shundaymi? Ikkinchi tank bizni payqab qolib, yerto'la derazalarini o'qqa tutdi. Biz tezda g'oyib bo'ldik.

Janob Ditsman g'ijimlangan sigareta qutisini iskab stolga tashladi-da, Samsonov yana savol bermasidan kulimsirab dedi:

– O'zingiz qancha nemisni o'ldirgansiz, janob Samsonov?

Samsonov ensasi qotib javob qildi:

– Men armiya shtabida tarjimonlik qilganman, shuning uchun ham o'q uzmaganim... Siz, gapingizga ishonadigan bo'lsak, faustpatron bilan tankni yondirgansiz, demak, to'rtta sovet tankchisini o'ldirgansiz. Nima uchun? Natsizmni o'z ixtiyoringiz bilan himoya qilganmisiz yo majburanmi? Qanday?

– Janob Samsonov! – Ditsman yolg'ondakam iltijo qilayotganday titroq qo'llarini cho'zib, barmoqlarini qimirlatdi. – Men unda yosh edim, g'o'r, tentak edim, miyam chalg'igan, vatanparvarlik marshlarini xohlagancha taraqlatib chalsa bo'ladigan barabanning g'irt o'zi edim! Mabodo biz... bir-birimizdan o'pkalashga tushsak, sira ham umumbashariy haqiqatni topolmaymiz! Biz ham aholining o'n foizdan ko'prog'ini yo'qotdik! Shunda ham men, siz janob Samsonov, qancha nemisni o'ldirdingiz, siz ham janob Nikitin, deb so'rashni xayolimga keltirmovdim. Janob Nikitin esa, bilishimcha, shtabda xizmat qilmagan... artilleriya zobiti bo'lgan, demak, u jisman farishta ham, gandist ham bo'lmagan! Shundaymi, janob Nikitin?

– Xarakterimni aytmayoq meni qayoqdan bunchalar yaxshi bilib ola qoldingiz? – dedi Nikitin shunchaki hazillashganday qiziqish bilan. – Menimcha, birinchi marta ko'rishyapmiz shekilli?

– Sizni nahotki urushda uchratmagan bo'lsam? – Ditsman kulib yubordi. Shunda uning keng va nozik peshanasiga ter ko'pchidi. – Xo'sh, misol uchun Berlinda? Ehtimolmi? Shunday bo'lishi mumkinmidi?

– Bu deyarli mumkin emas, – jiddiy javob qildi Nikitin. – Men belletristikani, qolaversa, fantastik belletristikani yoqtirmayman. Men realistman, janob Ditsman.

– Realizmda ham mumkin, unda realistlarning ham xayollariga kelmaydigan juda ko‘p narsalar bo‘ladi! Berlinda ko‘p millionli ikki armiya to‘qnashdi, u yerda men ham sizni... – Ditsmanning burun kataklari kerilib, qadahni qo‘lga oldi-da, chala qolgan gapini vinoga qo‘shib ho‘plab yuborganday bo‘ldi. – Biroq men, – u salfetka bilan labini artib, salmoqlana-salmoqlana gapida davom etdi. – Biroq men o‘shanda ro‘paramda rus ziyolisi, masalan, yozuvchi Nikitin turgani-ni bilganimda, unga o‘q uzmagani bo‘lardim...

– Uzgan bo‘lardingiz, – dedi Nikitin ishonch bilan. – Mabodo sizni o‘shanda uchratmaganimda men ham o‘q uzardim. Bu ham yana realizmning o‘zi. Bunda odamning qo‘lidan bo‘lak ish kelmaydi.

– Yo‘q, siz, ha, siz menga o‘q uzmagani bo‘lardingiz... – Ditsman duduqlanib ohista gapirdi. – O‘shanda siz ham yosh edingiz, meni, ya‘ni o‘zingizday yosh yigitni otib tashlamadingiz... Men sezaman, bilaman. Yoki boshqa birorta nemis qizni ham otmadingiz... Ha, siz otmagan bo‘lardingiz... Janob Samsonov dadilroq: paq etib otadi-qo‘yadi, qarabsizki, bitta, yana bitta la‘nati nemisning urug‘i qurib-di...

– Shitirlaydi qamish yoki Kafka uslubidagi Madrid saroyi sirlari, – Samsonov ruschalab gapirdi-da, stol tagidan Nikitinni, kayfda bu qanday g‘o‘ldirash bo‘ldi, biror narsani tushunyapsanmi o‘zi, de-ganday yana turtib qo‘ydi.

Nikitin shu payt Gerbert xonimning yutini broq, qaqdaydir iltijoli ohangda gapirayotganini eshitib qoldi:

– Fridrix, bo‘ldi, endi ichmang, sizdan iltimos qilaman. Chekish-dan o‘zingizni tiyolganingizdan keyin yuragingizni ham vinodan saqlang-da. Iltimos...

Gerbert xonim yer suzganicha o‘tirardi: ipday ingichka iztirob ajini oq oralagan sochlariga nisbatan qora va silliq qoshlarini qan-sharida ayirib turardi. Uning vino xususida majburan aytgan gapini, janob Ditsmanning ismi bilan ataganini Nikitin negadir do‘stlar, ya-qinlar yoki er-xotin orasida bo‘ladigan siltalash o‘rmi qabul qildi. Gerbert xonim mehmonlarini o‘ziga yaqin odamining kayfdagi xira-liklaridan siqilaverib charchagan va boadab bekaday bu yog‘ini ham yaxshilab tekislab qo‘ydi. «Ditsman unga kim bo‘ladi? Xushtorimi? Qarindoshimi? – ko‘nglidan o‘tkazdi Nikitin. – Uni erim, deb ta-

nishtirganini eslayolmayman». Nikitin shundan keyin o'zi, Ditsman, Gerbert xonim va Samsonov o'rtasidagi o'ng'aysizlikni biroz tekislash maqsadida xayolning g'alati o'yini borayotgani borasida hazil qilmoqchi bo'luvdi, Ditsman epchillik qilib qoldi.

U kaftlarini kreslo suyanchig'iga urib shartta o'rnidan turdi-da, pidjagi tugmalarini qadarkan, xushchaqchaq qiyofada gap qotdi:

– Ha, turgan gap, aqlli ayolsiz. Tashakkur. Men ham yuragim yana sanchib qolishini istamasdim. Bu kerakli narsa, – u shunday deya barmog'ini ko'ksining chap tomoniga urib qo'ydi. – Ko'rishguncha xayr, janoblar. Biz hali yana ko'rishamiz! Rostdanam picha mazam qochdi. Borib yotay!

Janob Ditsman ta'zim qildi-da, novcha qaddini o'nglab, uzun oyoqlarida gansiraklay-gansiraklay qalin gilamdan eshikka qarab yurdi.

– Fridrix! – dedi Gerbert xonim o'rnidan turib. – Bunaqa ahvolda mashina haydashingiz qiyin bo'ladi! Uzur, janoblar, bir daqiqaga...

Gerbert xonim Ditsmanga yetib oldi. Ilgarigiday dadil janob Ditsman yelkasini uchirib, go'yo mashina kalitini buraganday, qo'lini qarsillatgach, kulgi aralash javob qildi:

– Ichganimda mashinani poygachiday haydayman, ishonavering! Har mahalgidan yaxshiroq haydayman.

Ular tashqariga chiqishdi. Eshik mehmonxonadagi sokinlikni yaxshi saqlab turgani uchun kamindagi palyonlarning chars-churs yonayotgani eshitilib turardi. Mehmonlar uy bekasi birdan tashqariga chiqib, gap bo'linib qolganidan ranjiganday bir-birlariga qarab qo'yishdi. Janob Veber kresloda cho'kib o'tirar, har nafas olganda yumshoq nimchasi sirib turgan qorni qimirlar, tirmog'ini nimchasi-ga ishqar, yarim yumuq, shishinqiragan qovoqlari ostidagi ko'zlari bilan torsher nurida tirmog'i yaltirashini tomosha qilardi. U shundan keyin qadahida qolgan kokteylni naychadan qattiq xo'rillatib ichdi-da, muloyimlik bilan dedi:

– Janob Ditsman ajoyib bosh muharrir, iste'dodli essechi, intellektual inson...

– ...Nashriyotningda uni – itoatgo'y mardikor sifatida saqlab turibsan. Bir oy oldin yuragi chatoq bo'lgandi! – Lota Tittel shartta boshini ko'tarib qo'shimcha qildi. – Shunday emasmi?



– Lota, Lota, Lota... – Janob Veber muloyim va yuvoshlik bilan e'tiroz bildirdi. – Sen yana aktrisa emas, balki sotsial-demokrat sifatida bayonot beryapsan. Yo'q-yo'qmi? Janob Ditsmanning yuragi unga men to'layotgan behisob puldan emas, hozirgi intellektuallarga xos o'zni tiyolmaslikdan chatoq bo'lgan. Yo yo'q-yo'qmi?

– Mensiz zerikib qolmadingizmi, janoblar? – Gerbert xonim mehmondo'st beka kabi mayin kulib kelarkan, shoshilayotgani uchun hatto uzr so'rayotganday ko'rinardi. Janob Veber bo'lsa ancha vazminligiga qaramay, o'rnidan ildam turib iljaygandi, kal boshi bilan tekis tishlari yaltirab ketdi. Shundan keyin Lota Tittel sumkachasiga qo'l cho'zib yengil qo'zg'alganda ko'ylagi shitirladi. Er-xotin biri olib, biri qo'yib ajoyib oqshom uchun minnatdorchilik bildirib, Gerbert xonim bilan xayrlasha boshlashdi. Gerbert xonim esa bosh irg'ab, tabassum qilsa ham ko'pincha rus xonadonlarida bo'ladiganday ularni qolinglar, deb qistamasdi. Janob Veber bilan Lota Tittel Gerbert xonimning qo'lini bo'shatganlaridan keyin Nikitin va Samsonov bilan xayrlashishga tushishdi. Ularning ikkovi ham Lota Titteldan keyinoq o'rinlaridan turishgandi.

– Biz ham ketaylik endi, Gerbert xonim, – dedi Nikitin. – Rahmat, sizga...

– O, yo'q, yo'q, yo'q! Andak sabr qilasiz, janob Nikitin!.. – Gerbert xonim birdan Nikitinning gapini bo'lgani uchun ko'zlariga xijolatli boqdi. – Sizni ozroq tutib qolmoqchiman. Janob Samsonovni, mabodo u kishi yo'q demasalar, janob Veber mashinasida mehmonxonaga eltib qo'yadi, sizni esa yarim soatdan keyin o'zim tashlab kelaman. Men siz bilan bo'lg'usi munozara haqida gaplashmoqchidim.

«U nega meni hammaning oldida Samsonovdan ajratyapti? Sababi nimaykin?» dilidan o'tkazdi Nikitin. U ko'ngliga o'rmalagan shubha, qandaydir ziqlikdan noqulay ahvolga tushganini sezdi. Charchagani, bosh og'rig'i, ko'p aylanib toliqqanini vaj ko'rsatishga ahd qilganiga qaramay rozilik ohangidagi javobi o'ziga ham erish tuyuldi:

– Nachora. – So'ngra Samsonovga o'girilib ruschalab xotirjam qiyofada qo'shimcha qildi: – Borgandan keyin xonangga kiraman. Uxlab qolma. Kut.



– Qiziq... Shu yerda tunashingni iltimos qilishmayaptimi ish-qilib? – ruschaladi Samsonov ham Gerbert xonim tomonga no-xush qarab. U jonga tekkan yog‘ingarchilik haqida gapirayotganga o‘xshardi. Shundan keyin janob Veber qarshisida chayqalib, qo‘lini orqasiga olarkan, qizarib ketdi.

– Demak, iltifotingizga ishonsam bo‘ladimi? Meni eltib qo‘yasizmi?

– Albatta, albatta! – Lota Tittel malla sochlarini silkitgandi, hamma yoqni xushbo‘y hid tutib ketdi. U ikkinchi marta Nikitin-ning qo‘lini erkakchasiga qisib, shivirladi: – Har qalay, biz nemis-larni xush ko‘rmaslikning sababi bor, janob Nikitin, loaqal urushni eslashning o‘zi kifoya. O, bu alohida millat!

Ular kutubxonadagi charm divanda o‘tirishardi.

– Iltimos, shoshilmayroq gapirsangiz. Bo‘lmasa gapingizni yax-shi tushunolmay qolaman.

– Janob Nikitin, bu voqeaga juda ko‘p bo‘lgan, mana shu albom-ni ko‘rib, hammamiz nodon va qo‘rqmas bolalar bo‘lganimizni esla-sam dahshatga tushaman. Sizga ba‘zi narsalarni ko‘rsatmoqchiydim.

– Nimani ko‘zda tutayotganingizni tushunmadim.

– Urushni ko‘zda tutyapman.

Gerbert xonim muqovasi charm yo qora tUSDagi yumshoqqi-na matodan yasalgan albomni tizzasiga qo‘ydi-da, bo‘shashibroq temir qulfini surib, qalin sahifalarni varaqlashga tushdi. Albom-ning sahifalari lopillab tushayotgani uchun Nikitinning dimog‘iga qandaydir achimsiq, vaqt o‘tishi bilan sarg‘ayib ketgan qog‘oz isi – barcha oilaviy albomlardan keladigan o‘ziga xos hid urildi. Gerbert xonim suratlar orasida nimadir izlar va chamasi topolma-yotganga o‘xshar, Nikitin bo‘lsa uning qo‘li osha sarg‘ish varaq-lardagi kekxa Kayzer kabi mo‘ylovdor, sochlarining farqi ochiq, mundirlari gavgdalarini tarang ko‘rsatayotgan notanish erkaklarning rasmlarini ko‘rib turardi. Rasmdagi ba‘zi erkaklarning iyaklari tik yoqalariga tegar, oq ko‘ylakdagi oppoq yuzli ayollar, sarg‘ish va jingalak sochli bolalar davrasida bemalol o‘tirishardi. Shundan keyin albomda qaynoq qumdagi tank yonida turgan yoshgina, ta-kabbur zobitning rasmi ko‘rindi. Uning pilotkasiga niqob to‘ri tor-tilgan, yap-yangi temir xoch tankchilar kiyadigan qora kurtkaning cho‘ntagi tagida yaltirardi.

- Bu zobit kim, Gerbert xonim? – deb so‘radi Nikitin.  
– Otam, janob Nikitin. U Tobruk bo‘zag‘asida halok bo‘lgan.

Afrika korpusida.

– Demak, Rommel qo‘lida xizmat qilgan ekan-da? Tobruk – bu qirq ikkinchi yil. Onangiz... tirik bo‘lsalar kerak-a, Gerbert xonim? – Nikitin odob yuzasidan so‘rasa ham ayni paytda Gerbert xonim qarindosh-urug‘lariga daxldor bo‘lgan bu albomni nimaga varaqlayotganiga tushunolmasdi. Nikitinning nazarida bu albom qattiq asabiy, vinodan avzoyi buzuq, urushga aloqador chalakamchatti gaplar bilan qandaydir reallikka yoki bir vaqtlari uchrashgan bo‘lishlari mumkinligiga og‘uli shubha urug‘i sochgan janob Ditsmanga ham daxli borday tuyulardi.

Nikitin banogoh noqulay ahvolda qolganini o‘ylab qovog‘i osildi. Hamma uy-uyiga jo‘nab ketdi. Sherigining qolishiga rozi bo‘lganidan jahli chiqqan Samsonov ham mehmonxonaga yo‘l oldi. O‘zi esa Gerbert xonimning biroz qoling, degan taklifiga birorta durustroq bahona topolmagani uchun bu yerda qolgan va endilikda Gerbert xonimning qarindoshlariga, albomdagi begona suratlariga qarashga majbur edi. Shuning uchun ham Nikitin hozir o‘zining bo‘shobligi, qattiqroq turolmasligini o‘ylab xunobi ortardi.

– Onam o‘ttiz oltinchi yilda qazo qilgan, janob Nikitin, – gap boshladi Gerbert xonim. – Albomdan sizga otamni ham, onamni ham ko‘rsatmoqchi emasdim... Toliqib qolmadingizmi, janob Nikitin? Sizni bekorga ushlab qolmadimmi?

– Yo‘q, yo‘q, – javob qildi Nikitin. Ichida esa o‘zini la‘natlab jahli chiqar, afti bujmaygan, ne qilarini bilmay nuqul peshanasini ishqalardi. – Kechirasiz, boshim... mayli, o‘tib ketadi...

– Boshog‘riq dori beraymi?

– Rahmat. Bosilib qolar.

Gerbert xonim chaqnoq ko‘zlari bilan Nikitinga gunohkorona tikildi. Uning qo‘llari albom ustida yotar, ne qilarini bilmayotganday sado chiqmas, har nafas olganida past tushib, yuqori chiqayotgan ko‘kragidagi medalyonchasi qimirlardi. Nikitin uning nimagadir shayligidan hushyor tortib, chamasi Gerbert xonim sira ham ikkilanmay menga birorta jiddiy, muhim, men bilmagan, xayolimga ham kelmagan gap aytsa kerak, deb o‘yladi. Shuning uchun ham Gerbert xonimga gapirganida ovozi benihoya xotirjam eshitildi:

– Qulog'im sizda, Gerbert xonim. Menga nimanidir aytmoqchisiz shekilli, gapiravering...

– Ha, aytmoqchiman, janob Nikitin.

Gerbert xonim stolchadan sigareta oldi. Nikitin epcillik qilib gugurt chaquvdi, Gerbert xonim salgina kulib qarab minnatdorchilik bildirgan bo'lsa-da, so'ngra tizzasidagi albomini tortinibroq surib, ohista so'radi:

– Janob Nikitin, Kyonigsdorfdagi manavi uy sizga tanishmi? Uni sal bo'lsayam eslay olasizmi?

Shu payt Gerbert xonimning ko'zlaridan tabassum arib, sovuq yaltirashgina qoldi. U endi qolgan suratlardan hajmi boshqa albomning qattiq varag'iga o'rnatirilgan rasmga ehtiyotkorlik bilan tiki-la boshladi. Surat tagida o'quvchi qo'li bilan gotik uslubda yozilgan quyidagi so'zlar bor edi:

«Kyonigsdorf. Vilgelmsstrasse, 7-uyimiz».

Bu surat urushdan ilgari olingani uchun ancha sarg'ayib ketgandi. Shunga qaramay, undagi tasvir yaxshi va aniq, nemis shaharlaridagi barcha nemislarniki kabi ikki qavatli uy, boloxonasining qizil cherepitsasi oftobda yaltirar, yaqinroqdagi qarag'aylarning ertalabki paytda bir tomoni yorishib turgani, uy oldidagi ko'm-ko'k, kalta o'rilgan maysazor durustgina ko'rinardi. Maysazor o'rtasida velosiped yotar, yonginada sportchilar kiyimidagi, oftobda qoraygan qizcha o'tirar, kalta sariq sochlarini shapkachasi pana qilardi. Qizcha velosipedning yaltiroq ruli yaqinida o'tirar, rul esa yozgi qalin, xushbo'y maysadan temir shox singari chiqib turardi....

Gerbert xonimning sigareta tutgan ikki barmog'i tirmoq bo'yog'idan ko'kargani uchun go'yo beixtiyorday qizchaning chehasini yashirib, Nikitinga uyni ko'rsatardi. Nikitin bo'lsa g'alati kayfiyatda go'yo xotiralarini ag'dar-to'ntar qilib, bir vaqtlardagi qizigan, yog'li va nordon havo rohatbaxsh urilganini, uyning peshingi bahor quyoshi yoritgan devorini, ochiq derazani, ichkaridagi salqinni, uy ichidan eshitilayotgan patefon ovozi sezib, ko'rib, eshitganday bo'ldi. O'shanda ham xushbo'y o'tli maysazor o'rtasida simlari qo'ndog' bilan dabdala qilingan velosiped yaltirab yotardi.

Ha, Berlin mavzuidagi chorbog'li shaharcha Kyonigsdorfdagi bir vaqtlari xuddi mana shunga o'xshab maysazorini qarag'aylar qur-



shagan yaxshigina va qulaygina nemis uyi bor edi. Batareya to'plari olmazordan yuz ellik metr narida ko'l bo'ylab o'tadigan yo'lni o'qqa tutishni mo'ljallab yerga ko'milgan, «studebekker»lar esa qarag'aylarning ko'lkasida niqoblanmay turardi. Ha, Nikitinning vzvodi xuddi ana shunday uyga joylashib, to'rta yoki beshta xonani egallagan, vzvodda inglizcha markali («Xiz masterz voys») patefon bilan Polshada, Varshava mavzuidagi o'rmonda vayron qilingan viladan olinib, Germaniyagacha sindirmay olib kelinayotgan ancha-muncha plastinkalar bor edi.

Biroq o'shanda ochiq derazadan eshitalayotgan patefon ovozi, maysalar va tamaki hidi, oftobli may tongi hamda bir tomoni yorishib turgan qarag'aylar bilan bog'liq qandaydir dahshatli, xatarli va quvonchli narsa nobud bo'lishiga sal qolib, kuchli g'azab, mehr-u rahmdillik boshqalardan ayirib turgan hayotini rasvo qilayozgan taqdiriga daxldor bo'lgan qandaydir baxtli va o'ta berahm nimadir bor edi.

Nikitin urushning oxiri va tinch yashash arafasidagi o'sha damlarni eslar, hayotga o'ta tashnaligini ham, yoshlik tug'yonlarini ham, o'sha oftobli, sokin, hammayoq yam-yashil ko'rinadigan kunlarda qarag'aylar tagidagi shinamgina uy, uni tashqi olamdan ayirib turgan derazasi bor qo'rqinchli sarg'ish devor ham xotiridan ko'tarilmagandi...

– Bu qizcha kim? – so'radi bo'g'iq ovozda Nikitin va nafasi bo'g'ilib ko'kragiga ko'proq havo kirsin uchun qaddini sal o'ngladi. U hozir o'sha qizchani yuzini ko'rishni judayam istar, o'sha abadiy yo'qolgan chehra bamisoli tushdagi kabi o'tgan-u ketgan talay voqea-hodisalarni tushuntirib berishi, ko'z oldiga keltirishi va esiga tushirishi mumkin edi.

– Qizchami? – javob qaytardi Gerbert xonim suratning bir qismini yashirib turgan titroq barmoqlarini qalin albom sahifalari uzra harakatlantirib. – Bu, menman, janob Nikitin.

– Siz? Bu sizmisiz?

– Suratda o'n bir yoshdaman. O'sha yili Chexoslovakiyadagi g'alaba sharafiga velosiped olib berishuvdi. Onam vafotidan keyin dadam meni juda erkalatib yuborgandi...

– Dadangiz o'sha armiyadamidi?



– Ha... Janob Nikitin, maysa ustida qanchalik isqirt «kenguru» o'tirganini qarang, qo'llari uzun, kiflari qoqsuyak. O't-olov qizaloq paytim...

Yo'q, o'shanda u bunday emasdi, Nikitin umrida ko'rmagan, qovushimsiz bu qizchanning jangari o'g'il bolaniki kabi yuzi, uzun qo'llari-yu, qoqsuyak kiflarini eslolmaydi. Oftob qizitgan o'tloq, qarag'ay va maysa ustidagi velosiped bilan chambarchas bog'liq bir lahzagina davom etgan o'sha voqea esiga tushganida Nikitinning vujudi sevinchdan zirqirab ketganday bo'ldi. Negaki Nikitin boshidan kechirgan bu muhim va asosiy narsani xotirasi qatida saqlab kelardi-da. Shu vajdan uy, o'tloq, qarag'aylarning suratlarini tomosha qilarkan, ularni birin-ketin taniy boshlaganidan yuragi orqasiga tortar, ayni paytda bular o'sha uy, o'sha o'tloq, o'sha qarag'aylar emas, deb o'zini ishontirmoqchi ham bo'lar, buni xotira aldoviga yo'yardi. Shunda ham xotirasi uni aldamasligini va bulardan hozir ko'z yumolmasligini baribir bilib turardi.

– Manavi uy esingizda yo'qmi, janob Nikitin?

– Biz Germaniyada bunaqangi uylarda ko'p to'xtagandik, – dedi Nikitin. – Afsuski, eslolmayman.

Nikitin Gerbert xonimga pinagini buzmay shartta yolg'on gapirgani sababli yana tomog'iga nimadir tiqildi, havo yetishmay yuragi gupillab urib ketdi. Gerbert xonim esa, hang-u mang bo'lib qolgan-di. Uning bu holatini ko'rgan Nikitinning hamma yog'i – kiflaridan tortib ko'kragi-yu, yuzigacha zirqirab ketdi. Negaki Nikitin hozir Gerbert xonim go'yo o'z ko'zi bilan ko'rgan xiyonatidan talmovsira b turganday ahvolda edi. O'zini o'sha narsani unutganga yoki eslashni istamayotganga solar, negaki barini unutib yuborishga haqli edi-da. Gerbert xonim ham shundan keyin o'zini ko'pda urintirmay, ruhsiz gapira boshlagandi, ovozi pasayib shivirlash darajasiga tushib qoldi:

– Ha, ha, janob Nikitin, oradan qancha yil o'tdi. Mening yoshligim mana shu uyda kechgan...

Gerbert xonim titrab sigareta tortdi-da, albomdagi kulni puf-lab tashlab, yerdan ko'zini uzmay kuldonda qattiq ezg'ilab o'chira boshladi. Nikitin albomdagi suratlarni zo'raki qiziqsinish va e'tibor bilan tomosha qila boshladi. U oftobli may subhidamida suratga tushgan qizchanning ko'rinishi xunuk, tund va yoqimtoy o'g'il bolaga o'xshashini, salgina tanqaygan burni, yoshlik sepkillari toshgan

yuzini frau Gerbertning ingichka qoshlari, jajji quloqlari va turmaklab qo'yilgan sochi, ko'kragidagi medalyonchasi, tomirlari arang sezilib turgan chakkalariga muqoyasa qilarkan, xayoliga kelgan narsadan dahshatga tushib, sira ishongisi kelmasdi... U, harchand solishtirmasin, xayolida yashab kelayotgan yoxud unut bo'lib ketgan Emma bilan frau Gerbertni bir-biriga sira ham o'xshata olmas, go'yo go'dakcha tushni o'ngidagi narsaga qiyoslayotganga o'xshardi.

«Biz o'shanda Kyonigsdorfdagi qancha turgandik o'zi? – deb o'ylardi Nikitin xayolidan o'sha bahor kunidagi olis, xuddiki ro'y bermagan voqealar bag'ridan tutib olishga zo'r berib urinib. – U yerda kam, bir necha kun, bir haftacha turdik. Nahotki mana shu frau Gerbert o'sha Emma bo'lsa? Nahotki? Emma o'shanda o'n sakkizda edi. O'shani deb men, serjant Mejenin va batareya komandiri Granaturov bir-birimiz bilan rosa g'ijillashib qoluvdikmi? Bunaqa bo'lishi mumkin emas! Mabodo ikkovimiz ham bunchalar o'zgarib ketgan ekanmiz, meni u qanday qilib tanib oldi? Hozir oynaga, ha, oynaga qarasa, chakkalarimiz oqarib ketgani-yu, ko'z ostilarimizdagi ajinlarni ko'ramiz! U meni qanday qilib taniydiykin?»

– Janob Nikitin... meni, meni unutmang, oradan qancha yil o'tdi... Men bo'lsa siz kechasi va ertalab qog'ozga ruschalab: «Ko'rishguncha, Emma», deb yozganlaringizni hanuz eslayman. Ko'-rish-gun-cha...

Gerbert xonimning pastroq va cho'zibroq aytgan oxirgi so'zi Nikitinni boloxonaning o'sha urush yili oftob qizdirgan tomi tagida o'tirganidagiday olovli to'lqini bilan kuydirganday bo'ldi. Nikitin o'shanda Emma bilan ochiq deraza oldidagi stol yonida o'tirib, taftli oq qog'oz sahifasiga ruscha so'zlarni bittalab yozar, pastda mashinalar qolmagan, faqat o'tloqdagina to'rtinchi to'pning motori ishlayotgan «studebekker»i kutib turar, u yerdan birlari olib, birlari qo'yayotgan askarlarning ovozlari eshitilardi: «Emma, auf vider-zeen! O'rtoq leytenant, ketaylik endi!»

Nikitin shundan keyin noiloj xayrlashuv oldidan uni nazokat bilan o'pdi, sochini siypaladi, bag'riga bosdi, boshqa uchrashmasliklarini bilgani uchun yig'lab yuborayozdi. Emma ko'z yoshidan nam, o'ksish, alam iztirobida xun bo'lgan sepkildor yuzini yuqori ko'tarib Nikitinni qo'yvormay tutila-tutilla nuqul ruschasiga: «Va-dim, mehri-bo-nim, me-ni u-nut-ma-a-a», derdi.

Nikitin qizdan ajralib, yugurganicha zinadan pastga tushdi. U mashinaga o'tirgan paytda ham Emma hamon deraza oldida turardi. Biroq Nikitin qizga qo'l silkimadi, deraza tomonga o'girilib ham qaramay, bo'g'iq ovozda: «Ketdik! Marsh!» deb qichqirdi xolos.

– Gerbert xonim... – Nikitin shunday dedi-da, egilib Gerbert xonimning ko'zlariga qaramay, uning sovuq, qaltiroq qo'lini o'pdi. – Ishongim kelmayapti, Emma.





## IKKINCHI QISM

### TELBALIK

#### BIRINCHI BOB

O'shanda nima bo'lgandi o'zi?..

Urush poyezdi uzoq to'rt yil davomida tezligini jadal oshira borib Germaniyaga bostirib kirib, qizigan g'ildiraklari bilan mag'lub, ulkan Berlinniig boshi berk tosh ko'chasiga sanchilib qolganday bo'ldi. Berlinda endi bombalar yemirib, derazalarning o'rnigina qorayib ko'rinuvchi devorlar taftli tuproqdan mung'ayma qoyalar kabi chiqib turar, uylarning katta darvozalari taqataq berk, liftlar ishlamas, qavatlardagi sahnchalarda sokin kvartiralardan sho'rvalar isi anqimas, qadam tovushlari, eshiklarning tiqillashi, podyezdlarda qo'shnilarning odatdagi o'zaro so'rashishlari, muloyimlik bilan aytilgan «danke shyon» ham, «bitte zer» ham eshitilmay, hamma joyda dasht singari sukunat hukmron, butun boshli shaharda birorta ham o'q ovozi yangramasdi. Berlindagi so'nggi mudofaa marrasi – reyxxanselyariya bilan reyxstag ishg'ol qilingan. Hammasi tamom bo'lgandi. Shaharda bir necha kun quturgan yong'in asta-sekin pasaydi, qora tutunlar hamma joyda erinibgina tarqaldi va yongan tanklarning qop-qora tanalari bosib ketgan, dabdala barrikadalar, snaryadlardan ilma-teshik, ag'darilayozgan tramvaylar to'la maydonlar va ko'chalar, egilgan chiroqli temir ustunlar, hali ham sovumagan g'isht uyumlari bamisoli qizg'ish parda ortidan ko'rinayotganday ko'zga tashlanardi. Barrikadalar oldi va ortidagi zog' uchmas tosh ko'chalarda peshoynalari abjaq do'konlar va sataroshxonalarining peshlavhalari pulemyotlarning o'qlaridan shikastlangan. oldida ko'zgu siniqlari uyumi, yaqinrog'ida yondirilgan mashinalar, bronetransportyorlar, abjaq to'plar ayqash-uyqash chorahalarda va markaziy ko'chalarning muyulishlarida, xullas, hamma

yerda tanklarning zanjirlari mashaqqatli nemis protivogazlarining silindrlari, qora burgut tasvirli pachaq nemis kaskalari, mayishiq velosipedlar, dalvay-dalvay aravachalar, parcha-purcha plash-palatkalari, ruslarning sarg'ish paxtaliklari, ilonday chulg'anma isqirt doka qoldiqlari, portlash to'lqinlari uloqtirgan avtomobillarning rezina g'ildiraklari yotardi. Yo'lkaning u yer-bu yerida devordan nima bilandir qirqib olinganga o'xshash yaxlit-yaxlit mebel parchalari orasida ustini g'isht zarralari bosgan pianino ko'rinadi. Uning lang ochiq, mung'aygan torli qa'ri ko'zga tashlanar, bu vayrona tepasida, yuqori qavatdagi kvartirada pianino parchasi, devorning bir qismigina qolgandi xolos. Devorga yopishtirilgan qog'ozlarda yaqindagina ilig'liq turgan suratlarning to'rtburchak o'rni qorayib ko'rinar, ilma-teshik shiftdagi tasodifan omon qolgan qandil shisha o'rgimchakday chayqalardi.

Qayoqqa qaramang, boshdan-oyoq toshdan iborat mash'um shahar bir necha kundirki o'lim talvasasida o't purkardi. Tanklarning bahaybat stvollaridan o'q uzilar, pulemyotlar tinim bilmas, yerto'lalarning chorburchak tuynuklaridan reaktiv faustpatronlar chaqin chaqnatib na'ra tortar, shahar jahannam o'ti ichida qolgandi. Qulagan imoratlarning devorlariga so'nggi xunrezlik qilishga da'vat etuvchi: «Berlin hielbt deutsch», «Schlag neun Ruseen tot» ya'ni: «Berlin nemislarniki bo'lib qoladi», «To'qqizta rusni o'ldir» kabi shiorlar yopishtirib tashlangandi.

Faqat 2-mayga kelib yong'inlar pasaydi. Ammo havoda kul, beton kukuni, pishiq g'isht, vayronalardagi murdalarning badbo'y hidi anqirdi. Yong'in qurshagan tosh yo'laklar, qurum bosgan ko'chalar tepasidagi balkonlarda choyshablar, oq mato parchalari hilpirardi. Kuchsiz shamol soviyotgan gulxanlar kuli, qog'oz parchalarini to'zitar, tomlardan yo'lkalarga osilib, abjaq chiroqlarga chirmashgan uzuq-yuluq elektr simlarini ham silkitardi.

O'sha may kuni bahorgiday serquyosh bo'lib, baland moviy osmondagi bulutlar ham yaltirar, g'aroyib sukunat cho'kkani uchun quloqlar qattiq shang'illar va go'yo bu mag'lub shaharda birorta ham qurolli askar, birorta ham fuqaro bo'lmaganday tuyulardi.

Biroq aslida bunday emasdi. Askarlar, tanklar, to'plar, mashinalar, aravalar, buyruq punktlari, xo'jalik qismlari, sapyorlar, aloqachilar band etgan Berlin barrikadalar qalashgan Brandenburg



darvozasi yonida uzilgan so'nggi o'qdan keyinoq qattiq uyquga ketgandi.

Bu inson irodasiga bo'ysunmaydigan uyqu edi. Ko'pdan kutilgan nafasni rostdash fursati yetib, Berlindagi so'nggi qarshiliklar tugatilgan, so'nggi qal'a – reyxstag taslim bo'lganidan hamma xursand, shodon va boshi osmonga yetgandi. Berlinni ishg'ol qilgan askarlar so'nggi marraga yetganda tinimsiz yugurishdan to'xtab hordiq nashidasi va sukunatdan gangiganga o'xshardilar. Hamma kalovlanib gimnastyorkalarining ter bosgan yoqalarini yechar, charchoqdan qaltirayotgan barmoqlari bilan tamaki o'rashar va bir vaqtning o'zida ko'zlari yumilib ketar, ba'zilar oftobda o'ragan tamakilarini oxirigacha ham chekolmay, reyxstagning quyosh qizdirgan ustunlari tagidagi zinalarda, qumli yo'lkalarda, unsiz ibodatxonalarining tosh plitalarida, badavlat xonadonlarning gilamlarida, egalari tashlab ketgan kvartiralardagi o'rinlarda yechinib ham o'tirmay tappa uzala tushishgan, o'rinlardagi qalin adyollarni ham olib qo'yishmay, to'p stvollarida o'tirishar, dala oshxonasining qozoni yonida chayqalgan stolga ko'kraklarini bergan ko'yi deraza raflarida uxlashardi. To'rt yillik urush mobaynida siqilgan prujina pirovardida o'zini bemalol qo'yib yuborgani uchun, uni bo'shashtirib yuborgan so'nggi kuch yemish yoki bir qultum suv emas, balki uyqu bo'lgandi.

Hali ham u yer-bu yeri tutayotgan Berlindagi buyruq punktlarining tinimsiz aloqasi qo'shni armiyalarga, Moskvaga «uya» markazida o't ochish to'xtatilgani, reyxxkanselyariya bilan reyxstag yengilib, Gitler o'zini o'ldirgani haqida muttasil xabar yetkazib turganiga qaramay, bu uyqu bir necha soat davom etdi. O'shanda bedor bo'lgan, safdagi yoki shtab zobitlaridan birortasi askarlarni turg'izib, ilgarigiday ovozda buyruq berishga jur'at etolmasdi. Bunday qilishga hozir hech kimning haqi yo'q edi.

Osmoni falakdan nur sochayotgan issiq may oftobi og'ushidagi Berlin qattiq uyquda bo'lib, uzun tun paytlaridagi kabi hamma podyezdlar taqataq berk, mayxonalar va shikastsiz peshoynalarning temir panjaralari tushirilgan, lekin qorong'idagi xilvat kvartiradagilar deraza tirqishlaridan ko'hna shaharlarida ko'zlari tushgan narsalarga shubhalanibroq hadikli qarab-qarab qo'yishardi. Endi hech bir narsa: yuvilgan ko'chalarning bir vaqtlardagi yog'day yaltirashiyu, ertalabki orastaligini eslatmas, bosh shtabning ana shu yaltiroq



ko'chalardan yelib borayotgan mashinalari, soqollari toza qirilgan patrullar, pelerinli plashdagi zobitlardan ham darak yo'q edi. Bir-biri bilan uchrashib qolganda shlapalarini ko'tarib salomlashadigan do'konchi yangi gazeta sotib oladigan har kungi o'tkinchilar ham yo'q, sochi silliq taralgan, oppoq peshbandli yosh, quvnoq kelner sataroshxonada yuzini xushbo'y sovun ko'pigidan keyin o'tkir us-taraga tutib, yaxshi atir, issiq kompressdan huzur qilib yotgan biror-ta havasmandga patnisdagi qahrabo yanglig' pivoni eltmoq uchun mayxonadan sataroshxonaga ko'chani shoshilmay kesib ham o'tmasdi.

Ilgarigi saranjom, qat'iy tartibli va bemaol Berlindan asar ham qolmagandi.

Nikitin qo'mondonligidagi vzvod tobe bo'lgan batareya piyoda askarlar bilan Tirtgartenning kunchiqar yog'idan reyxxkanselyariya bunkerlari tomon hujum qilar, keng xiyobondan qandaydir baland devor yoqalab, qadam-baqadam ilgarilardi. Narigi tomondan tank-larning olis guvullashlari aralash avtomat ovozlari qattiq va tez-tez eshitilar, pulemyotlardan ham surunkali o'q yog'ilib turardi. Ikki marta o'sha yoqdan yovvoyi bo'kirish eshitilganday (odam bunaqa baqirmaydi) tuyuldi, shunda har yerda hozir-u nozir bo'lgan snaryad tashuvchi, qoshlarigacha malla, uzun bo'yin, har narsadan ajablana-veradigan Ushatkov Nikitinning yoniga chopqillab kelib, kaptarniki kabi bezovta ko'zlarini chaqchaytirganicha devor tuynugidan daraxt-lar tagida qafaslangan hayvonlar ko'rinayotgani, tepalikda xartumi-ni ko'targan bir fil yurgani, chamasi birorta ham o'q uzmay siljiyot-gan askarlarimizga faustniklar va avtomatchilar old tomondan o'q yog'dirishayotgani-yu, ko'prik oldida «o'ttiz to'rtinchi» tank yona-yotganini xabar qildi.

Nikitin jangchilarning gaplaridan diviziyalarining so'lrog'ida ge-neral Katukovning tanklari jangga tashlanganini, Ushatkov «o'ttiz to'rtinchi» tanklar hayvonot bog'ida paydo bo'lganini xabar qilgan paytda o'z to'plari bunkerlarga yaqin qolganini sezib, ichida faqat: «Yonginada ekan», deb qo'ydi.

Batareya jangchilari to'plarni Soo rayonigacha uylarning o'pirilgan joylari, sobiq kvartiralar o'rnidagi g'isht va shag'al uyum-lari, bostirmalarning qulagan yog'ochlari ustidan qo'lda itarib bo-rishdi. Hayvonot bog'ining shimoli-g'arbiy tomoni muyulishlarida

barrikadalar qurilgan ko'chalardagi qudratli mudofaa nuqtalaridan kechasi-yu kunduzi o'qqa tutib turilgani uchun mashinalarda o'tib ketishning iloji yo'q edi. Birinchi to'pni pirovardida bulturgi xazonlardan hamon zax va nam kuzga xos chirindi isi kelsa ham daraxtlarida yangi yaproqchalar ko'rinuvchi keng bog'ga olib chiqib, butalar ortida yarim doira yasab turgan o'ziyurar to'plarga qarata shiddatli o't ochildi.

O'ziyurar to'plar asta-sekin chekinib, o'zlariga tanish qandaydir yo'llardan o'rmon yalangligiga kirib ketdi. Keyin ular yana xiyobon chorrahasida ko'ringandi, oldindagi piyoda askarlar avvaliga yer bag'irlab qolishdi, so'ngra bir-bir daraxtlar orasiga tarqalishdi. Avtomatlarning tirillashi, to'plarining o'qtin-o'qtin gumburi titrayotgan shoxlardagi yaproqlarni uchirar, o'ziyurar to'plar va batareya to'plarining tutuni, portlashlar chaqini osmonni qoplab olgani uchun askarlar hozir – ertalabmi, kunduzimi yoki kechki paytmi, bilishmas, shu vajdan quyuq zulmat og'ushida qolgan bu bog' Berlin markazida emas, balki butun olamdan uzilgan, oldinda piyoda askarlarimiz ham, siljiyotganlar ham yo'q, faqat o't, gumburlashlargina borgan o'xshardi... Beton to'siqning naryog'idan tanklarning goho quloqqa arang chalinadigan guvullashi eshitilgani, hayvonlar bo'kirishi-yu zulmat xiyobondagi alangalar yalt-yulti, so'qmoq chorrahalarida tutun taratuvchi o'ziyurar to'plar, yer zirillashi, vishillab baland-past uchayotgan og'ir snaryadlar, shaharchadagi bir tekis portlashlar ovozi, yonginada tarillayotgan avtomatlar – hammasi aralash-quralash bo'lib ketgan, nemislarning to'p o'qi yetmaydigan masofadagi mudofaa chiziqlarida ham harakat to'xtab, o'zgarishsiz turardi.

Kechga tomon to'plar oldida piyoda askarlarga qarashli ikki aloqachi o'smir paydo bo'lib qoldi. Ular bu yerda umuman nemislar bo'lmaganday simli g'altaklarini g'ijirlata-g'ijirlata baqir-chaqir bilan qorong'ilikdan qayoqqadir sim tortib ketishdi. To'p raschyot'lari yonidan yugurgilashib o'tayotganlarida artilleriyachilarga kuldiruvchi qiziq, qo'pol so'zlar aytishdi. Artilleriyachilarning porox dudidan niqobsimon qoraygan bashalarini ko'rishgach, qotib-qotib kula boshlashdi: «Bunkerda o'zimiznikilar, hovli fritslarning jasadlari bilan to'lib ketibdi! Bamisoli qabriston! O'sha yerdan buyruq

<sup>1</sup> Raschyot – zambarak yoki pulemyotni boshqaruvchi jangchilar guruhi.

punktiga aloqa simi tortyapmiz! Mo'ylovli yaramas Gitlerni esa u yerdan topolmadik!»

Aloqachi yigitlar qorong'ilikka sho'ng'ib, daraxt shoxlaridan jadal ingichka sim tortib ketishdi. To'xtovsiz janglar, kecha vayronalardan to'p olib o'tilganda sillasi qurigan Nikitin aloqachi yigitlarga ko'zi tushdi-yu, nemislar qarshiligiga qaramay, piyoda askarlarimiz ishg'ol qilgan joylarni ko'rishga intiq yurgani ham negadir esidan chiqdi.

– Uxlanglar, – deya oldi zo'rg'a Nikitin. – Xohlaganlar suv keltirishsin-da, yuvinib uxlashsin. Buyruqqacha bemalol.

Nikitin reyxsanselyariyaning bunkerlarini baribir ko'rolmadi. Tonggi salqinda u motorlar shovqini, odamlar ovozidan uyg'onib, zambarak tagiga to'shalgan shoxlar ustida yoniga ag'darilgach, shinelini boshidan olib tashladi. Yonida soqchi, uchinchi to'pning navodkachisi Tatkin turar, u bog'ning namxush ayozidan sovqotgani uchun qunishib irjayar, bug'doyrang mo'ylovini ham chamasi mana shu so'yoqligini yashirish maqsadida qo'yganday edi.

– Nima? – baqirdi unga Nikitin.

– Batareya komandiri keldi, – dedi Tatkin yo'talarkan, badanini isitish uchun turgan joyida tipirchilab. – O'zimizning Granaturovimiz... Avtomobilda oshxonani ham surgab kelibdi.

Tevarak-atrof suv quyganday jimjit va nurafshon, birorta ham o'q ovozi eshitilmasdi. Vzvod jangchilari to'plararo ustlariga shinnellarini yopib yotishardi. Xiyobon o'rtasida, to'plardan sal narida yangigina o'lja – «opel» ko'rinar, unga ko'chma oshxona tirkalgan. daraxtlar tagiga ko'kish tutun taralardi. Batareyaning davangi starshinasi bo'yin tomirlari o'ynoqlab, oshpaz madadida qozonning qopqog'ini burab ochayotgandi. Qopqoq ancha issiq shekilli, ikkovi qo'llarini tez-tez tortib olib, qo'yishardi. Bu orada gulxonadagi nam xazonlarni shitirlatib «opel» tomondan batareya komandiri Granaturov katta-katta qadam tashlab kelardi. U etagi uzun shinelini baquvvat kiftlari bilan to'g'rilab qo'yar, shineli ostidan dokali qo'li ko'rinardi. Rangi siniq, o'ziga yarashgan chakka soqollari sezilarli darajada o'sib ketgan, jahldor bo'lsa ham hozir kayfi chog' edi. U dag'alroq, ammo xushnud ovozda hayqirdi:

– Tirikmisan, Nikitin? Berlin mudofaasi shtabini asir oldig-u, endi par to'shaklarda uyquni uryapsizlarmi, so'loqmonlar! Zap ba-

tareyam bor-da! Uyg'on! Hamma ovqatlansin! Starshina, hamma o'lja shnapsdan ulash, kayfiyat ko'tarilsin. Ovqatniyam bo'kib qolgunlaricha ber! Tushunarlimi? Qo'limni o'q sal timdalab o'tdi xolos. Gospitalga yotib oladi, deb o'ylovdngmi, Nikitin? Qo'limni boylab, qoqsholga qarshi ehtiyoti shart ukol qilishdi, keyin tunagani bir uyga kira qoldim. Mana endi «opel»da ko'chma oshxona bilan kelib turibman, xo-xo! Yo'lda hayvonot bog'i bilan polkning buyruq punktini uchratdim! Sening ular bilan aloqang yo'q, sez-yapman! Mensiz maza qilganga o'xshaysizlar-a, ayg'irlar! Knyajko qayerda?

Granaturov bundan ikki kun oldin Shprey qirg'og'idagi nemislar qo'lidagi metro stansiyasini o'qqa tutish paytida yaralangan bo'lib, o'sha yerdan medsanbatga yuborilgan, birinchi vzvod komandiri leytenant Knyajko esa uning o'miga qolgandi. Nikitin batareya komandirining shovqinidan uyg'onib ketdi. U vzvodi vayronalardan Tirgartenga siljiyotgani, kecha o'ziyurar to'plar bilan jang bo'lgani. leytenant Knyajko ikkita to'pga komandirlik qilayotgani va hozir qo'shni xiyobonda ekanligi haqida axborot bermoqchi ham bo'ldi. Biroq Granaturov uning gapiga quloq solib o'tirmadi. Sog' qo'lini silkib, Nikitinning gapini bo'ldi-da, to'plararo qimirlamay yotgan askarlarga qararkan, Nikitinni to'plardan chekkaroqqa yetaklab, past ovozda Berlin tamom bo'lganini durbinsiz ham ko'rsa bo'ladi, shtabdagi mish-mishlarga qaraganda diviziya shahardan olib ketilarmish, shuning uchun ehtiyoti shart yo'lga chiqishga tayyorgarlik ko'rish kerak, dedi. Shundan keyin u askarlar tomon yo'naldi. Askarlar kechqurungi jangda qattiq holdan toyganlari uchun uyquli qiyofada tomoq qirib yo'talishar, tuflashar, starshina tarqatgan sigaretalarni ayamay chekib, o'lja «opel», unga tirkalgan oshxonaga qarashardi. Ayrimlar esa jon kirib, koteloklarini taraqa-turuq qilishayotgandi.

– Nega imillayapsizlar, yigitlar? – baqirdi Granaturov. – O'ziyurar to'plarga hujum qilish – arslonlar bilan olishishday gap! Tushunarlimi? – Granaturov xushnud so'kinib qo'ydi. – Yo'lda starshina bilan hayvonot bog'iga burildik: la'nati yo'lbarslar hozir yo'lkalarda yurishibdi, bo'rilar fil tevaragida to'dalanishgan, qorniga mina boylangan begemot esa hovuzda yotibdi. Slavyanlarga o'sha




yerda qiyin bo'ldi! O'ziyurar to'plar – hisobga kirmaydi, arzimagan gap! Shundaymi yo yo'qmi?

Granaturovning diviziya shahardan olib ketiladi, degani to'g'ri chiqdi. Ikkinchi may kuni tush payti artilleriya polki joyidan qo'zg'alib, Berlin – Kyonigsdorf yo'lidan ilgarilashi xususida buyruq olindi. Bunchalar shoshilinch tadbir sababini batareyada birorta ham odam bilmas, shu vajdan jangchilar hordiq orzusi bilan devorlari qulagan, tutayotgan vayrona uylar orasidan Berlin ko'chalari bo'ylab yo'lga tushishdi. Yuksaklikda moviy osmon, tiq etgan ovoz eshitilmagani uchun ularning quloqlari bitib qolganga o'xshardi.

«Ix vays nixt, vas zol es bedoyten, das ix zo traurig bin... Di lyuft ist kyul und es dunkelt...». Jin ursin, u yog'i nimaydi? Esimdan chiqibdi. Buni kim yozgandi? Gyotemi, Geynemi? Loreleya, Loreleya haqida qandaydir ertak!.. U sochlari yoyiq Reyn bo'yidagi qoyada o'tirar, tevarak-atrof jimjit, to'lqinlar mavj urardi. Loreleya esa negadir kuylar, menimcha qandaydir hazin qo'shiqni aytardi. Ha-ha, qandaydir hazin qo'shiqni. Xo'sh, kim yozgan o'zi – Gyotemi yoki Geynemi? Hammasini unutilman, qoyil! Buni qaysi sinfda o'tuvdik? Sakkizinchidami yo to'qqizinchidami? E, sendaqa dono, nemis tili bilimdonidan o'rgildim! «Xenda xox», «Nixt shissen», «shneller», «shayze». Xo'sh, bularni bilaman, nemischalab onadan so'kishni ham qotiraman! Zo'r, gerr leytenant! Endi, aytaylik, siz Loreleya haqidagi ertakni o'qiganmisiz yoki masalan, bir krujka pivo qancha turadi, degan gap qanday aytiladi.

Par ko'rpali o'rinda huzur qilib yotgan Nikitin nemischa-ruscha so'zlashuv kitobini varaqlab, jinniday o'zi bilan o'zi gaplashar, salqin, subhidam sokinligi, nemis xonadonining o'zi yolg'iz yotgan shinamgina boloxonasi shiftiga tushayotgan zarrin shu'lalardan zavqlanardi. Uyg'onganiga ancha bo'lgan bo'lsa ham bekorchilikdan qo'li bo'shamasdi. U endi hech narsadan xavotirlanmas, zarur topshiriqlar berishdan hali oldingi marradagiday tunda postlarni albatta tekshirishi, telefonga chaqirib qolishlarini, to'satdan buyruq kelishi, hujum yoki yo'lga chiqish oldidan batareya komandiri yo'qlab qolishini kutishga hojat ham yo'q edi. Diviziya jangchilari dam olishga jo'natilganlari uchun Berlindan ellik kilometr olis-




dagi haliyam qayerdadir davom etayotgan asosiy voqealardan chet, qizil cherepitsali tomlari, toshdan qurilgan va uchi ingichka tomlari cherkovlari, oftobro'y, osoyishta, gulga burkangan olmazorlar, barvaqt qiyg'os gullaydigan, to'siqlar osha yo'laklarga osilib tushgan sirenlari qo'ynidagi Kyonigsdorfdan kun bo'yi qimirlashmasdi. Bu shaharga urush yo'lamagan, unga birorta snaryad ham, o'q ham otilmagandi. Olisdan elas-elas eshitiluvchi to'plar gumburi, derazalarning zirillashi, Nikitin keyinchalik bilganiday Berlindagi janglar paytida sovet shturmchi samolyotlari ikki marta tomlar ustidan o'tganini aytmasa, urush bu shaharni butkul chetlab o'tgandi. Shunga qaramay, artilleriya polki kecha kechqurun «studebekker»larning guvullashi bilan hammaning uyqusini buzib, shaharchaga kirib kelganida ko'chalar kimsasiz, pardali derazalarning birortasida ham chiroq ko'rinmas, balkonlarda motamsaro tushirilgan pardalargina ko'rinardi xolos.

Katta leytenant Granaturov o't ochish nuqtalarini shaharning janubi-g'arbiy chekkasida qurishga buyruq berdi. Nikitin shundan keyin o'z vzvodini egasiz uyga joylashtirdi. To'plar ochiq maraga olmazor ihotasidan yuz ellik metr nariga qo'yilgan, naridagi katta ko'l shahar chekkasini qurshab turar, ko'lning narigi betidagi qoramtir o'rmon, undan chiqqan yo'l tarmog'i bahorgi yaylovlarning uvati ko'rinib turardi. U yerda, o'rmonda Granaturovning qo'lidagi ma'lumotlarga ko'ra, Berlin ostonalarida tor-mor qilingan fashist qismlarining kechalari «sekingina» g'ivirlyadigan fidoyi «vervolf»lari bor ekan.

Qurolni qo'l cho'zsa yetadigan joyga qo'yib uxlashga, sukunatda salgina shitirlashdan irg'ib turishga majbur qiladigan oldingi marradagi odatiy sergaklik, ya'ni xavf-xatar birinchi subhidamdayoq yo'qolgan, unga mayning shivalagan xushbo'y yomg'iri, olmazorlargacha taralgan qishloqqa xos osoyishtalik, yayrab o'sgan va yomg'irdan yanada yashnab ketgan maysalar barham bergandi. Shu vajdan ham oradan ko'p o'tmayoq shaharchani sirenni tosh hidi aralash xushbo'y isini tutib ketdi.

Askarlar urush boshlangandan beri uzzukun bunaqa maza qilishmagandi hisobi. Ular nemislarning mutlaqo xayolga kelmaydigan xonadoni sharoitida yuvinib, kirlarini chayib, dazmol bosishdi, o'zlariga qarashdi, ovqatlanishdi.



Nemislarning bashang uylari turli kastrulkalar va bankalar terilgan ozoda oshxonalari, rang-barang kafel bilan ishlangan hojatxonali hammomi, toshoyna hamda polga to'shalgan yumshoq gilamlari, yotoqdagi keng-mo'l o'rinlari, qalin par ko'rpalari, yumshoq yostiqlari bilan hayratda qoldirar, bularning bari xayoliy, kecha boshlangan bayramday tuyular, shuning uchun ham bir necha o'n kilometr naridagi Berlining dahshatli vayronalari-yu kuyuk toshlar hidi burqsiyotganiga odamning ishongisi kelmasdi.

Polk shtabidan, diviziondan hech qanday buyruqlar kelmagan, batareyadagilar ertalabki va kechqurungi yo'qlama, qorovul tayinlashdan bo'lak harbiy ishlar bilan shug'ullanishmas, kunlari bemalol kechardi: shoshilmay nonushta qilishar, to'plarni ko'zdan kechirishar, tushki ovqatdan keyin kechqurungi tamaddi anchaga cho'zilardi. Ketidan shishali «bir»<sup>1</sup> ichishar, so'ngra «otboy» bo'lib, nemislarning chuchmal sigaretalarini to'xtovsiz chekishib, o'takasi yorilayozgan fraulardan gaplashishar, kula-kula derazalardan ba'zi birovlariga jilmaya boshlagan nemis juvonlariga taalluqli hazil-huzullar ham qilishar, o'lja zajigalkalar, xanjarlar va to'pponchalarni tikib karta o'ynashlar yarim kechagacha davom etar, so'ngra ertalabgacha go'daklarday maza qilib uxlashardi. Urush, Berlin, eses qismlarining Avstriya Alpidagi qarshiligi, sovet armiyasining Chexoslovakiyadagi hujumi – front olamidagi bu voqealarning bari olislarda, minglarcha kilometrga, tumanli va uzoq abadiyatga yo'qolgan-u, bu yerda esa kishini sarxush etuvchi sukunat, bahor subhidaming xushbo'y islari, charaqlagan oftobli havo hukmron edi.

Shaharchadagi do'konlar, sataroshxonalar, pivoxonalar hali ham yopiq bo'lsa-da, ko'chalarda goho-goho qora kostum, to'qima nimcha kiygan keksa nemislar ko'rina boshlagandi. Ular to'plarga, mashinalarga, aravalarga hadixsirabroq qarashardi. Ro'paralaridan askar va zobitlar chiqib qolguday bo'lsa ehtirom bilan boshlaridan kigiz shlapalarini olib iljayishar va itoatkorona: «Guten tag, gerr zoldat!», «Guten tag, gerr offitsir!» deyishardi.

Nikitin ham ko'p qatori bemalol va parvoyi falak yurar, hamma-ga o'xshab, tugab qolgan urush batareyaga taqdirning o'zi ato qilgan bu osoyishtalikni buzishi mumkinligini xayoliga keltirmas, shuning uchun ham bekorchilikdan zobitlarga Germaniya chegarasida ulas-

<sup>1</sup> Bir – vino turi.

hilgan nemischa-ruscha so'zlashuv kitobi yordamida nemischaning o'rganishga kirishgandi.

U bugun subhidamda huzur qilib yotganicha ovozin chiqarib, o'zi bilan o'zi gaplashar, kitob varaqlar, trevogasiz, birov bezovta qilmay, qoyilmaqom jimlikda to'yib uxlagani uchun vujudi tiniqqanligi-yu, pokiza ichki kiyimlarda yotganligini bor vujudi bilan sezardi.

– «Ix vays nixt, vas zoll es bedoyten, das ix zo traurig bin». Shunday... tarjima qilamiz: «Nega bunchalar ma'yusman, bunisi nima, bilmayman». Mana bunisi esimda, – Nikitin par ko'rpa tagida maza qilib kerishdi. – Keyin quyoshning zarrin nurlari tushgan, unniqqan, gullar va yaproqlar rasmi bor qog'ozlar yopishtirilgan xonani ko'zdan kechira boshladi. Shlapa kiygan mo'ylovli chollar va to'qima shlapada tushgan basavlat kampirlarning rasmlarini, qadimiy, ba'zi bir joylari chatnagan javonni, kiyim shkafini, eshikning chap tomonidagi ramkada turgan yumaloq ko'zguni, yozuv asboblari va usti berk shamli stolchani, kimdir noma'lum sababga ko'ra qoldirgan dazmolni ham ko'zdan kechirdi.

– Chindan ham, bu yerda kim turganini bilmaganimdan afsusdaman, – dedi Nikitin. – Bu nemischasiga qanday bo'ladi? Ver – kim degani. Hayot – leben. Xo'sh, endi, gerr leytenant, jumla tuzishga harakat qilib ko'ramiz!

Biroq u jumla tuzolmadi. Birinchi qavatdagi eshik taraqlab ochildi-da, kimdir hovlidan kirib keldi, so'ngra ovozdan rosa xudo bergan ekan shekilli, pastdan turib baqirdi: «Uyg'on! Uyquni bas qilinglar, slavyanlar!» O'sha zahotiyuq uyquli tovushlar, tomoq qirishlar, kulgi aralash esnash eshitildi. Kimdir bittasi chiyillagan ovozda xitob qildi:

– Eh, birodarlar, tushimda zap bir juvonne ko'rdim-da. Devor yonida turib, ko'zini qisib, shundayam imlayaptiki...

– Sen-chi? Qashinib turaverdingmi yo ishga kirishdingmi, po'ng bosh? U yog'i nima bo'ldi?

– Rasvo!.. Tushda ko'rmoq bo'ladi-yu, yemoq bo'lmaydi. – izoh berdi u chiyillab. – Eh, yigitlar, bitta silliqqinasi bo'lsa, mana shu par to'shakda to'shga tortib, bir hafta ovqat yemasdan faqat... Sen qayoqdan kelding, serjant? Nega vahima qilasan? Kechasi bilan sang'ib kelib, odamlarni tong otmasdan uyg'otyapsan!

Shundan keyin serjant Mejeninning buyrug'ona jarangdor ovozi eshitildi:

– Qani, soqolni qiringlar, yuvininglar, o'zingizga qaranglarda, koteloklarni olib, nonushtaga chopinglar! Uyquniyam rosa ol-yapsizlar o'zi! Shishib ketibsizlar-a! Hamma tursin! Leytenantni uyg'otdinglarmi?

– Uxlayversin, turib ham nima qildi...

Nikitin shundan keyin zinadan kelayotgan vazmin qadam to-vushlarini eshitib qo'lidagi kitobni tashladi-da, kreslodagi kiyimlari-ni oldi. Galife shimini kiygach, ovoz berdi:

– Men o'rnimdan turdim, Mejenin! Kiravering! Shoshilinch nima ishingiz bor? Har holda tanklar hujumi bo'lmasa kerak? Nun, bitte, xerayn! – U nemischalab qo'shimcha qildi: – Bitte!

– Ruxsatmi, o'rtoq leytenant?

Uchinchi to'p komandiri, baquvvat, suyaklari buzuq, to'laroq, egniga top-toza gimnastyorka kiygan, xuddi hozirgina shudringdan yurib, ho'l butalarni yelkasi bilan surganday zobitcha xrom etigi bilan pogonlariga nam tekkan serjant Mejenin kirib keldi. Uning yuzi oppoqqina, kipriklari quyuq, sarg'ish va o'tkir ko'zlari yoqimtoy edi. Mejenin omadi chopgan xotinboz, jazmanlikka suyagi yo'q hisoblanar, batareya bir kun yo ikki kun birorta joyda to'xtadi deguncha qayerda bo'lmasin, ayollar bilan darrov til topisha qolardi. Buni u boshqalardan yashirmas, ko'krak cho'ntagida orqasiga ehtirosli satrlar bitilgan bir olam suratlarini olib yurar, goho kayfda maqtanib, mabodo o'lguday bo'lsam butun Ukraina va Polshadagi rahmdil xotinlarim ko'z yosh to'kib, serjant Mejeninni yodga olishadi, derdi. Uning to'p komandiri sifatida ham omadi chopgandi. Vzvodga Dneprdan o'tish paytida kelgan, biror marta ham yarador bo'lmagan, mukofotlar ham uni gospitalardan izlab, ovora bo'lmay tezda topa qolardi.

Mejenin ko'zlarini mug'ambirona qisdi-da, qo'lini shunchaki chakkasiga qo'yib, kulimsiradi:

– Guten morgen, o'rtoq leytenant, sizda bitta maslahatli ishimi bor. Maslahatlashsam zarar qilmasdi. Ruxsat etasizmi?

Nikitin uning nam etigi bilan ho'l pogonlariga tikildi-da, ajablanib so'radi:



– Siz nima... vzvod bilan birga tunamadingizmi? Qayerda edingiz, serjant?

– Fashist xonimlarning yonidamasdim. Garchi u rasvolarning o‘zlari yopishishsa ham. – Mejenin o‘zini oqlamay, aksincha, aniqlik kiritib dadil va qat’iy gapirdi. – Ko‘chada ketayotsang, derazadan qo‘llari bilan imlab, tamannolashishadi...

– Nima bo‘pti? Kechasi qayerda edingiz?

Nikitin kreslodagi silliqina, yaltiroq tasmasini olganda dimoqqa terning taftli hidi urildi. Shundan keyin u sog‘lomligi, yaxshi uxlab turgani, navqironligidan zavqlanib, tasmani beliga taqdi, biqiniga to‘pponchasining taftli qinini surib qo‘ydi-da, ko‘zguga yaqin borib, jiddiy qiyofada sochini taray boshladi. Hozir uning Mejeninga ruxsatsiz vzvodni tashlab ketgani haqida dashnom berib, bahor subhidamidagi yaxshigina kayfiyatini buzib, ta‘bini tirriq qilgisi kelmasdi. Batareya hordiq chiqarib, buyruqsiz turganiga qaramay, Nikitin intizom haqidagi buyruq hozircha birov tomonidan bekor qilinmagani ni Mejeninga biror narsa bilan eslatib qo‘ymaslik uchun hozir o‘zini bazo‘r jiddiy ko‘rsatardi.

Mejenin Nikitindan to‘qqiz yosh katta, tajribaliroq, jismoniy baquvvat bo‘lib, qo‘l ostidagi askarlarni bir o‘shqirishda o‘ziga bo‘ysundirardi-qo‘yardi. Nikitin hozir to‘p komandiri bilan yakka-ma-yakka qolgani uchun o‘zini noqulay sezar va kuchi to‘lib-toshib turganidan g‘ijinardi ham.


– Xo‘sh, nima bo‘pti? – Nikitin sochini tarab bo‘lib, ko‘zgu orqali serjantning o‘ziga bermalol qarab turganini ko‘rgach, savolini takrorladi. – Xo‘sh, nima gapingiz bor edi, Mejenin?

– Men bir narsani so‘ramoqchiydim... O‘rtoq katta leytenant, nemislarning puli va soati haqida u-bu narsa bilasizmi?

– Tushunmadim, – Nikitin taroqni pufladi. – Nima deganingiz bu?

– Ayn moment, o‘rtoq leytenant.

Mejenin tashqariga chiqdi-da, zumda zinapoya olib chiqadigan maydonchadan brezent qop ko‘tarib kirib, polga qo‘ydi. Qopning temir «surgi»si oxirigacha tortilmagan, majaqlangan surgichli muhrning ko‘m-ko‘k bo‘laklari yo‘g‘on kanopda osilib yotar, chamas muhrlangan qulf yulib olingandi. Mejenin qopga engashdi-da, Nikitinga zimdan bermalol boqib, «Shura» degan so‘z ko‘karib



turgan sertomir qo'li bilan «surgini»ni tortdi. Og'zi ochilgan qopdan sariq qog'oz belbog'li bir necha taxlam pulni olib kresloga qo'ydi, so'ngra zargarlar zirak va uzuklar sotadigan chiroyli qutichani olib, undan ingichka tasmali kumushsimon soat chiqardi.

– Qarang-a, o'rtoq leytenant, shtampovkami yo shtampovka emasmi? – dedi Mejenin kipriklarini pirqiratib. – Siz nemischada picha chug'urlaysiz, bu yerda nemischa nimadir yozilgan. G'ilofidan menimcha... shtampovka bo'lmasa kerak.

– Buni qayerdan oldingiz? Qaydan? – Mejenin soatni tasmaida pinagini buzmay aylantirib, fosforli siferblatini pufladi, barmog'i bilan oynasini artdi.

– Aybli boshni qilich kesmaydi, o'rtoq leytenant.

– Aybli emas, egilgan boshni, – uning gapini to'g'riladi Nikitin.

– Aybli boshni juda ham kesadi-da. Xo'sh, qayerdan oldingiz?

– Hammasi joyida, qing'ir-ping'iri yo'q, – Mejenin pastroq tushib qaddini rostladi. – Rost gap, kechasi dala gospitalidagi tanish hamshiralarni ko'rgani boruvdim. Ulardan birining tug'ilgan kuni edi, bu sabab qonuniy shekilli. Ular feyn yoki... Shteyn... dorfedami, kim biladi deysiz, til ham kelishmaydi, xullas, bu yerdan olti kilometr naridagi qishloqda. Tongotarda o'rmondan qaytayotsam desangiz, o'ng tarafimda, butalar ortida mashinaga o'xshagan nimadir qorayib ko'rindi. Aftidan, shtab mashinasiga o'xshaydi-yu, toza abjag'i chiqqan. Xudo toshbaqaning rasvosini chiqarganday mina ham uni dabdala qilib tashlabdi. Shunaqa ish bo'lib qolgandan keyin ko'rsam ko'rayin, deb o'yladim. Yaqinroq borsam, mashinada latta-puttalar-u manavinaqa qutichalar bilan qoplar. Hammasi top-toza. Sabrim chidamay ularni ochdim. Qutichalarda soatlar, qopda bog'lamlil pullar bor ekan. Qulay bo'lsin, deb qopga soatdan yigirmatasini tashladim, qolganlarini o'sha yerda qoldirib, qutini tag'in bitta-yarimtasi ilib ketmasin uchun butalar orasiga yashirib qo'ydim. Shunday ish bo'ldi, o'rtoq leytenant. Bu soatlar qimmatbahomi yo hech narsaga arzimaydimi – shuni bilsam, degandim.

– Hujjatlar-chi? Unda hujjatlar bor ekanmi? – so'radi Nikitin. – Olmadingizmi?

– Hujjatlarni nima qilaisiz. muzeyga qo'yarmidingiz? Urush bugun yoki ertaga tugaydi. Siz bo'lsa hujjatlarni surishtiryapsiz. Qimmat bormi o'zi? Ortiqcha matoh-ku.

Birinchi qavatdan askarlarning qattiq ovozlari eshitilar, koteloklar taraq-turuq qilardi. Ortiqcha tashvishlari bo'lmasa ham g'ivirlab qolishgan, nonushta oldidan hushyor tortgan askarlar starshina Berlindagi omborlardan o'lja kiritgan, me'yori bilan tarqatayotgan pivo ilinjida.

– Ko'rib turibman, hammasini bilarkansiz, serjant. Urush tugashi ham aniq. Biroq naq ertaga tugashini sizga kim aytdi?

– Sezdim-da, ishqilib, o'rtoq leytenant. Bu yerda qiladigan hech ishimiz qolmadi, o'qlarni ham otib bo'ldik.

– Men ham shuni xohlardim. Lekin sezgingiz hali asos bo'lolmaydi.

Nikitin odatda Mejenin bilan rasmiy gaplashar, bu ham to'p komandirini o'zidan nariroq tutishning bir yo'li edi. Mejeninning tap tortmay takabburona hingillab qo'yishlari, sovuq qarashlari Nikitingga uncha tobi yo'qligini ko'rsatardi. Leytenant Nikitin moskvalik bo'lib, ota-onasi bag'ridan yaqindagina chiqqani uchun uyida yegan obakilarining mazasi hali og'zidan ketmagan, maktabga qatnab yurgan kunlarini ham unutganicha yo'q edi. Mejenin esa o'ttizga borgan va ko'p balolarni ko'rgandi.

– Qanaqa boylikni qo'lga kiritganingizni ko'ramiz, serjant.

Nikitin zich bir bog'lam shaldiroq pulni qo'lga olganida burgut tasvirli qora muhr ostidagi «Deutsche Reichsbank 5000» yozuviga ko'zi tushdi-da, taxlamni go'yo keraksiz toshday ochiq turgan qopga uloqtirdi. Keyin Mejenin uzatgan soatni ko'zdan kechirib, tasma-sining uchidan ushladi-da, uni serjantning kaftiga qo'yib, beparvo dedi:

– Arzimas narsalar, Mejenin. Reyxsmarkalar yaroqsiz, pechga tashlasa ham bo'ladi. Soatlar – Shveysariya soatlari emas. Nemis askarlariga pasxa sovg'asi. Tushundingizmi?

– Tushunarli, – dedi Mejenin chiroyli kipriklarini kalakaomuz yumib. – Balki reyxsmarkalar biror narsaga yarab qolar, o'rtoq leytenant? A? Axir, million-a?..

– Qopni olib, vzvodga boring, – gapni bo'ldi Nikitin. U alam bilan dahanidagi o'siq sarg'ish soqolini siypaladi. – Zarurroq ishingiz bor, deb o'ylasam, arzimas narsa bilan kelibsiz. Ushatikovga ayting, issiq suv keltirsin. Soqolni qirib, nonushta qilgani boraman.

– Tushunarli, – Mejenin pilotkasini qoshigacha bostirib kiydi-da, qopni baquvvat kiftiga tashlab, tashqariga chiqdi. Keyin zinani etigi bilan gursillatib yo‘l-yo‘lakay qattiq ovozda buyruq berdi: – Ushatikov! Pardozi uchun leytenantga issiq suv hozirla! Undan keyin...

Mejenin ovozi pasaytirib, nimadir degandi, Nikitin tepada bo‘lgani uchun uning gapini eshitilmadi. Pastda, birinchi qavatda askarlarning fugas bombasi portlagandagiga o‘xshash hamma yoqni larzaga keltiruvchi kulgisi ko‘tarildi. Ular kimningdir bunga javoban aytgan gapiga zo‘r berib kulishar, biroq askarlarning xaxolab kulishlaridan ular Nikitinni yoqtirishmaydi yoki toqatlari yo‘q ekan, degan ma‘no chiqmas, buni leytenantning o‘zi ham bilardi. Uyquga to‘yib, issiqqina xonadon sharoitida miriqib dam olgan vzwod jangchilari istagan hazil, askiyani jon deb ilib ketib, yalpisiga yayrab kulishar, shu vajdan ham xushchaqchaqlik avjida edi.

«Mejeninning menga tobi yo‘q» ko‘nglidan o‘tkazdi Nikitin nikelli ustara, yumshoq cho‘tka, buklama sovundon va bir quti o‘tkir zolingen olmoslarini deraza rafiga terayotib. Bu bisotning bari, chamas, 1943-yilda qandaydir nemis zobitiga paketlarga joylashgan Daniya konservalari, kishmish, fransuzcha shokolad va qog‘oz archa bilan birga rojdestvo sovg‘asi bo‘lishi kerak edi-yu, biroq Jitomir bo‘zag‘asida yukli eshelondan o‘lja qilib olingandi.

– Nimaga kulyapsizlar o‘zi? – deb so‘radi Nikitin vzwoddagilar orasidagi eng yosh Ushatikov lab-lunjini yig‘ishtirolmay kotelokda qaynoq suv keltirganida. Ushatikov o‘zini tutolmay ohista kulib yubordi.

– Ularni tushunib bo‘larmidi, o‘rtoq leytenant, – dedi u kafti bilan og‘zini berkitib. – Biror narsa deyishadi-da, nuqul kulishadi. – Shundan so‘ng Ushatikov zavqlanib, hayratlanayotganining ifodasi sifatida uzun qo‘llarini beliga urdi. – Bir nima nash‘a qilganday haddeb xaxolashyapti!

– Bunaqa kulgilar bizga tanish. Borib nonushta qiling, – dedi Nikitin. U pastdagilarning baravariga xaxolaganlarini eshitib o‘zi ham jilmaydi.

Tom ustidagi quyosh Nikitinning yelkasini ertalabkidan ham kuchli qizdirar, Nikitin esa ko‘zgu oldida betashvish odamday qarag‘aylarning ochiq derazadan ichkariga kirayotgan yog‘li isini sezib, bamaylixotir soqol qirardi. O‘lja sovun, yuziga surtilgan

ko'pikdan ham xushbo'y hid kelar, ustara asta-sekin tekkandan keyin buningsiz ham toza yuzi yanada silliq, yaxshi va chiroyli bo'la borardi. U soqol qirayotib ko'zgu aks ettirgan yuziga, chanqoq ko'zlariga qarar va xayolidan piyoda askarlarning razvedkachilari Oderdayoq oliftagarchilik uchun qo'yanlaridek men ham ingichka mo'ylov o'stirsam qalay bo'larkin, degan fikr kechardi. Nikitin tajriba uchun ingichka mo'ylov qoldirgandi, bundan u savlatli ham, olifta ham bo'lib qolmadi. Bir lahza mo'ylovini siypalab turdi, keyin ovozi chiqarib «jin ursin!» dedi-da, mo'ylov qo'yish fikridan qaytdi. Mabodo mo'ylov qo'ysa, Mejenin beo'xshov bir hingillardi-da, keyin uning: «Leytenantimiz mo'ylovcha qo'yibdilar-ku! Nima zarurati bor ekan-a?» degan zaharxandali ovozi oshitilardi.

Nikitin soqolini qirib bo'lgandan keyin sochiqni issiq suvda ho'llab, ko'zguda yosharib ketgan yuzini tomosha qildi, so'ngra sochiq bilan yuzi, bo'yni, ko'kragini artib ana shu bug'li kompressdan mushaklarining yayrashi, hech yoqqa shoshilmayotgani, bekor, hatto jiddiyroq bosh qotiradigan narsasi ham yo'qligi uchun ajoyib bahor tongining tetiklantiruvchi ta'sirini sezardi. Holbuki, bir kun oldin yonayotgan Berlinda buni xayolga ham keltirib bo'lmasdi.

– Leytenant, hoy leytenant, nonushta qiling! – pastdagi tinimsiz kulgi orasidan Ushatikovning ovozi eshitildi. – Pivo sovib qoladi!

Shundan keyin sochi taralgan, tugmalari qadoqli Nikitin nam sochiq bilan porox dudi xiralashtirgan ordenlarini a'rdi, yengil va musaffo qiyofada yana bir marta ko'zguga qarab:

– Hammasi joyida. Hammasi zo'r, – deb qo'ydi.

U aylanma zinadan g'ala-g'ovur oshxonaga silliq suyanchiqqa tirsagini qo'yib tushayotganida birdan xayoliga mana shu barcha yangi, yengil, bemalol, jang-u jadallardan yiroq xursandchiliklar bugun-erta uzilib qolishi, barham topishi mumkin, o'zim ham, vzvodim ham nemislarning mazkur shaharchasida omonat baxtning g'aroyib va olovli tumanida yashayapmiz, degan sovuq fikr kelib qoldi. Keyin iflos, terga botgan, chakak-chakak yuzini ko'z oldiga keltirdi. O'tgan oqshom, askarlarini nogahoniy jannatday bo'sh nemis xonadoniga joylashtirgach, birinchi marta boloxona ostonasidan ichkariga kirib hozirgi ko'zguga qaraganida aft-basharasi ana shunday alfozda edi.



## IKKINCHI BOB

Kenggina, derazalaridan qiyalab oftob tushuvchi, vzvod askarlari chaqqaqlashib, hazil-huzullari bilan boshlariga ko'tarayotgan oshxonada Nikitin kechikibroq ko'rinish bergan bo'lsa ham: «E, leytenant, joyingni egalla, hammasi tap-tayyor!» degan shodon gaplar bilan qarshi olindi. Shunda uning zinadan tushib kelayotgandagi xavotirlanishlari tarqadi-ketdi. Nikitin ko'ngli joyiga tushgani uchun bu safar ichida: «Hozircha hammasi yaxshi ketayotgandan keyin bosh qotirishning nima keragi bor! Eng muhimi – vzvodim ham, o'zim ham sog'man! Yana nima kerak?» deb qo'ydi.

Askarlarning ko'pchiligi stol atrofida, Mejeninning ortida chuvillashar, serjant esa stuldagi qopni tizzalari bilan qisib, qutidan olingan soatni tasmasida aylantirar va askarlarga qarab shovqin solardi:

– Kallani ishlataylik, birodarlar, bundan odam bir nimalik bo'larmikin? Qovurilgan cho'chqa go'shti, pivo va nemislarning har qanday yemishiga alishtirish mumkin. Qanday almashtiriladi? Tatkin, bu yoqqa qara, nonushtadan keyin ro'paradagi yopiq do'konning egasini topib, xo'sh, soatlarni yaxshilikcha kelishuv bilan narsalarga almashtirsak, aslida sizdaqa la'natilarni bo'g'ib tashlashimiz kerak bo'lsa ham bir amallab chidab turibmiz, deysan! E'tirozlar yo'qmi, shunday qilamizmi?

– Bo'lmasam-chi! Tatkin buni eplaydi, hisob-kitobga juda usta u! Kolxozda hisobchilik qilganida cho'tni bamisoli pianinoday o'ynatgan bo'lsa ajab emas! Uni starishna qilsak bo'lardi, hisobniyam snayperchasiga olib borardi-da! – Mejeninning ortida turganlar xaxolab qo'yishdi. Ular past bo'yli, malla, doim hisob-kitobni o'rniga qo'yib yuradigan, uchinchi to'p navodkachisi Tatkini o'rtaga olib, kiftlariga qoqa boshlashdi. U esa askarlarning bunaqa beozor tegishishlaridan hatto egilib, yo'talib ham qo'ydi. Tatkin intendant bo'lsa, Berlin ikkinchi marta bemalol ishg'ol qilinardi-ya! Tatkin unvonsiz generalning o'zginasi, hamma narsaga aqli yetadi.

– Qopdagilarning bari soat bo'lmasa kerak? – xo'jalik sohasidagi uddaburonligi maqталayotganidan erib ketgan Tatkin qop «surgi»sini chaqqon qo'llari bilan surdi. – Nima bu? Qog'oz shildirayotganga o'xshayapti... Bu nima o'zi?

– Millionlar, Tatkin, tuzukroq qarasang-chi, valakisalang! – baxirdi Mejenin. – Qonuniy reyxsmarkalar, tushundingmi, yo'qmi? Bularga sigir bilan uygina emas, derazadan sigareta ol, deb imo qiluvchi nemis xonimni ham sotib olsa bo'ladi, tushundingmi? Bu yoqqa qara, Tatkin! – Mejenin bu ishi qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan sezib, qopdan bitta bog'lamni oldi-da, stol chetiga urdi. – Har birida besh mingdan! Sababini bildingmi endi? Bu bog'lamni razvedka uchun ol, Tatkin, istagan do'koningda bir sinab ko'rchi, olisharmikin yo yo'qmi? Bu pul bilan umrbod tirikchilik qilsa bo'ladi, birodarlar!

– Nahotki million bo'lsa? – deb yubordi Ushatikov Mejeninning kifti osha qushday uzun bo'ynini cho'zib stoldagi pulni yaxshiroq ko'rish uchun. – Kapitalistlardaymizmi endi? Qopdami? Nahotki hammasi rostakam pul bo'lsa? – hayqirdi Ushatikov odaticha hayratlanib.

– Demak, millioner bo'libsan, yigit, cho'ntaklaringni ochaver!

– Shuncha pulni nima qilaman? Nima qilaman? Dahshat-a!

– Gazak o'rvida shavlaga qo'shib yeb yuborasan, keyin yana so'raysan! Gangib qolmaysan!..

Askarlar birlari olib, birlari qo'yishar, jinnilik qilib, vazmin kaftlari bilan Ushatikovning qoqsuyak yag'riniga urishar, quchoqlab teginishar, u bo'lsa xuddi qitig'i kelayotganday toychoq kabi tipirchilardi. Shundan keyin to'rtinchi to'p komandiri, yoshi kattaroq bo'lgani uchun o'zini bosib olgan, bola-chaqali, har narsaga shodlanavermaydigan katta serjant Zikin qoldiq tamakisini tuflab tashlagach, salobatli ovozda chaqirdi:

– Ushatikov!

– Xo'sh?

– Buning oti nima? – u shunday deya tamaki tutunidan sarg'ayib ketgan barmog'ini ko'rsatdi. – Bilasanmi o'zi?

– Bilaman, o'rtoq katta serjant, barmog'ingizda, nahotki ko'rmayotgan bo'lsam? – Ushatikov soddaligiga borib ko'zlarini pirpiratganicha turaverdi.

– Adashyapsan, Ushatikov, barmoq emas, shoti. Yo bo'lmasa, aytaylik, tovuq, – dedi Zikin astoydil. – Durustroq qara, yigit. Yo ko'zoynaksiz ko'rolmaysanmi?

– Nega tovuq bo'larkan endi? Kalaka qilyapsizmi deyman, o'rtoq katta serjant?

– Bo'lmasa bu yog'ini eshit. Sen, Ushatikov, kulish-u savol berishdan boshqa narsani bilmaysan, – dedi Zikin. – Kalugangizda shunday safsataboz tirmizaklar tug'iladimi? «Nahotki nemislar bo'lsa», «Nahotki tanklar bo'lsa?» Hamma savollaringni aytmasingdanoq bilaman. Bu yerda ham: «Nahotki rostakam bo'lsa?» degan savol kallangni gangitayozdi. Xo'sh, bular rostakam bo'lganida millionlarni nima ham qila olarding? Biz, birodarlar, naq kurortda turibmiz-u, tariqcha ham aqlimiz yo'q ekan! Kallamiz qursin.

– Hoy-hoy, Zikin! – baqirib berdi Mejenin ko'zlarini ola-kula qilib. – Mening lochinlarimga til tekkiza ko'rma-ya! Mabodo biror naf chiqadigan bo'lsa, anqayib o'tiraveramizmi? Nima, biror narsali bo'lishga haqimiz yo'qmi? To'g'rimi, yigitlar? Sen, Zikin, bizning avliyomizsan, bizlarni duo qilaver! O'ljalor qoidasi bilan qo'lga tushirilgan. Hammasi joyida. Qalay, Tatkin, pullar joyidami? Qani, buxgalter, hamma eshitadigan qilib gapir, ular biror narsaga arziydimi yo men, manavi Zikin aytganday, aqlim joyidamasmi? Millionni yolg'iz o'zim cho'ntakka urmayman, onam bunaqa tarbiya bermagan.

U beo'xshov hiringlab, Zikinning damini o'chirib qo'ydi. Shundan keyin askarlar uning yonini olganday chuvillay ketishdi. U esa ishbilarmonchasisiga ehtiyotkorlik bilan bir bog'lam shaldiroq pulning bankda yelimplangan belbog'ini tirmog'i bilan surdi-da, tomoq qirib, ikkala barmog'iga puflab, bitta qog'oz pulni tortib oldi. So'ng uni oftobga solib, unaqasiga ham, bunaqasiga ham gumonsirab aylantirib ko'rdi. Shu topda uning mo'ylovli mug'ambir basharasi muhim va ahamiyatli ish bilan band ekanligini ifodalab turardi.

– Qalbakiga o'xshamayapti, – dedi u. – Bu bir minglik reyxs-marka. Sira ishim tushmagandi. Bunaqasini bilmasdim.

Shundan keyin Tatkin qog'oz pulni yana avaylab bog'lamga soldi-da, xuddi chang qoqqanday barmog'ini barmog'iga urib qo'ydi.

– Sen buxgalter, hisobchi bo'lsang, moliyaga tishing o'tsa, unda rosa ish topildi, – dedi ovozini balandlatib Mejenin. – Qani, kallangni ishlat, buxgalter, pul to'lashga to'la haqimiz bor, tushudingmi

yoki yo'qmi? Biz nemis xonimlariga pul to'laymiz, shunda hammasi qonuniy bo'ladi!

– Bo'sh kelma, Tatkin, bo'sh kelma! – tevarak-atrofdan askarlarning dalda beruvchi ovozlari eshitildi. – Taka bo'lsin sut bersinda! U gazandalar bizdan hammasini tekinga olishuvdi, biz bo'lsa vijdon bilan ish tutyapmiz... Soatlarni nima qilamiz? Demak, biz endi millioner ekanmiz-da, ha-ha! Sen, serjant, ichimizda juda uddaburon ekansan... Birodarlar, nonushtalik shavla bilan «bir»ni esdan chiqardinglar-ku! Leytenant ham qarab turibdi!

«Qandaydir g'alati bema'nilik. Pulning ularga nima keragi bor?» ko'nglidan o'tkazdi Nikitin churq etmay Tatkinni kuzatib. Mejeninning pul va soatlarni ko'rganda quloqlari dikkaygan vzvodi askarlarini boshqarishi ham nazaridan chetda emasdi. Axir bundan bir kungina muqaddam u yerda, Berlinda, Soo xiyobonlarida hayotdan bo'lak narsaning sira ham qimmatini kolmagandi-ku.

– Mejenin, stoldagi manavi bo'lmag'ur narsalarni yo'qoting! Nonushta qilish kerak. – Nikitin oraga cho'kkan jimlikdan foydalanib «leytenantlik» joyiga o'tirgach qo'shimcha qildi: – O'ljali qopingizni stol tagiga oling, bo'lmasa boshim g'ovlab ketadi. Bugun starshina nima ulashdi o'zi? Pivomi? O'lja o'rniga har kimga uch shishadan pivo ulashing, serjant. Shunda durust bo'ladi.

Nonushta o'tgach, qora shishalardan vish-vish ko'pigi chiqib turgan pivoni oshxonadan olingan katta qirrali krujkalarga quyib, hazilnamo alyorlar bilan urishtirib ichishdi. Oshxonadagi bufetdan «foydalanish»ga olingan kattagina zolingencha qoshiqlarni chinli likoplarga jaranglatib tekkiza-tekkiza shavlani ishtaha bilan tushirishdi, bir-birlariga navbat bermay baqirib-chaqirishdi, Berlinda o'tgan o'n olti kunni, ko'cha janglari va barrikadalarni, kvartiralar va uylarning o'pirilgan joylaridan Tirgartenga o'tib borganlarini eslashdi. Mana endi orasta qizarinqirab o'tirishibdi, esga kelib qolgan arzimangomalardan ham xursand bo'lib xaxolashyapti, o'tob esa derazadan yopirilib kiraman der, stollarni, yag'rinlarni qizdirar, xullas, ichkari isib borardi. Nonushta paytidagi gurung tinim bilmas, sigareta va tamaki tutuni hammayoqni bosgan, pivo hidi ham anqirdi. Odamlar oshxonada siqilishibroq o'tirishsa ham yaqindagina bami-soli igna teshigidan o'tganlari uchun bundan buyongi tinch turmush haqi boshlaridan kechgan barcha narsalarni eslashar, shu bois bahor

issig'iga ham parvo qilmay o'tirishni buzgilari kelmas, suhbat rosa cho'zilsa ham hech kim to'ydim, demasdi.

Nikitin pivodan ho'plab, qiliqlari, kulishlari va ovozlari ohangidan o'ziga tanish va notanish askarlarga qarardi. O'tgan bir kecha-kunduz ichida askarlarning baxtiyor taqdirilarida ro'y bergan o'zgarishdan hozir terisiga sig'masdi. Baquvvat, gimnastyorkasi-ning yoqa tugmalari yechiq, terga pishgan, paydar-pay «urush kaput bo'ldi, ayollar uchun, hammamizni tindiradigan nemis xonimlari uchun» deb qadah ko'tarayotgan Mejenin ham, ko'zlari sodda boquvchi, qo'llarini hayratda beliga urib, har bir ilmoqliroq so'zga sharaqlab kulishga tayyor Ushatikov ham, bo'shagan shishalarni bilintirmay boshliqlardan nariroqqa, stol tagiga olib qo'yayotgan quv Tatkin ham, to'rtinchi to'p komandiri, bosiq, o'ragan tamakisini o'ychan tortib o'tirgan Zikin ham – ana shu turlicha va o'ziga yaqin kishilarning bari hozir negadir uni tinchlantirar, hozirgi hayotlari va o'tmishdagi kunlari borasida bariga ko'nib, shak keltirishmas, shuning uchun ham ularni toliqqan, jahldor, dud bosgan, o'ziga itoatgo'y kishilar deb tasavvur qilib bo'lmasdi. Nikitin bularning hayoti uchun o'zini doim javobgar sezar, yaqindagina esa pul va soat masalasidagi tentakliklarini ko'rib g'ashi kelgandi. Shu bois ham u ichida afsuslanib: «Nega endi ularga xalal berishim kerak? Bunday ko'ngilxushlik ham qilishsin-da...» deb qo'ydi.

Shundan keyin Nikitin garchi askarlariga tirikchilik masalalarida bir to'xtamga kelishlarida maslahat berishga haqi bo'lmasa ham jahli chiqishiga ofitserlik unvoni huquq berganini ko'nglidan o'tkazdi. U askarlariga qaraganda bitta narsani durustroq bilar, u ham bo'lsa o't ochish nuqtalari, to'plar, mo'ljalni hisoblash va o'q uzish edi. Vzvoddagi har bir kishining hayoti bilan bog'liq bo'lgan mana shu asosiy narsaning o'zigina vzvovidagilarning o'ziga bo'lgan hurmatini saqlab, tobora mustahkamlardi. Negaki, u yoshidan qat'i nazar, urushda eng muhim narsani tushunishda boshqalarga qaraganda tajribaliroq edi.

Nikitin jangchilariga komandir bo'lsa ham ko'pgina askarlar bilganlariday qahraton sovuqda gulxan yoqish, sho'rva pishirish, uydagi pechga ildam olov yoqib yuborish-u, ayol bilan yotish yoki ustiga plash-palatkani yopinib huvillagan qishloqdagi asalari uyasini «tekshirmoq» bahonasida chelak to'ldirib asal olishni, otishma ol-



didan zambarak to'sig'iga yag'rinini ishqab, isinib olishni bilmasdi. Mudofaada turganlarida keksa Zikin ko'p marta shu yo'l bilan jon saqlagandi. Biroq o'rinli dag'allik, komandircha gapirish, zobitcha nafsoniyatli bo'lish, jangda qotirib so'kishni o'rganib olgani uchun bu sifatlari uni boshqalar bilan tenglashtirib turardi. Ayollar xususida gap ketganda u o'zini ko'pni ko'rganday bemalol tutar, ayniqsa, Jitomirdan keyin urushda bir martagina chinakamiga ayol kishini quchoqlab o'pganini, mabodo Mejenin bilguday bo'lsa, ziyolichasiga bo'shtobligini oshkora yomon ko'rib qolishi ham ehtimoldan xoli emasdi.

Gurung tinmas, tamaki tutunlari askarlarning bo'g'riqqan yuzlari qarshisida to'lqinlanar, go'yo kechagi xursandchilik bugun ertalabdan qayta boshlangandek hayajonda aytilgan so'zlarni anglab bo'lmasdi. Cho'zilgan nonushtani bas qilmagan Nikitin ham oshxonadan chiqib ketmadi va ana shu gurungga quloq solgan ko'yi tashqarini qizitayotgan quyoshni va uning ichkariga tushayotgan nurlaridagi ko'kimtir mayda zarralarni kuzata boshladi.

– Vayronalardan Tirgartenga siljiganimizda shunday voqea bo'lgan, do'stlarim, – katta Zikin yo'g'on qilib o'ralgan tamakisini torta-torta salmoqlab gap boshladi, – esimda, to'rtinchi uying kattaligi pechkaday keladigan teshigidan to'pimizni sudrab olib o'tsa bo'larmikin, degan ma'noda o'tib ko'rdim. Bu ish kechqurun bo'lgandi. Nemis kvartirasiga kirdim, mebel dabdala, zimiston, hammayoq chang-chung, shiftdagi tirqishdan arang xorug' tushib turibdi. Ungacha biz qo'shni yerto'lada o'ljaga olgan yog'li konservalarni rosa tushirganimizdan qornim burab, nima qilishimni bilmay turardim. Shunday ahvolda iching g'o'ldirab turgandan keyin to'pni teshikdan olib o'tib bo'larkanmi? Ham o'lasan, ham kulasan! Teshikdan o'tdim deguncha tasmamni bo'ynimga soldim-u, avtomatimni yonimga qo'yib, cho'nqaya qoldim: burchakda risoladagidek o'tira qoldim. Shunda desangiz, qorong'ida qandaydir shitirlash eshitilganday bo'ldi, kimdir pishilladi, keyin tomoq qirishga tushdi. Meni titroq bosdi, avtomatimga qo'l cho'zdim. Qarasam, burchakda frits o'tiribdi, uning ham tasmasi bo'ynida, yaxshilab joylashib olib, xayolga tolgan ekan, oyog'ining tagida avtomati...

– Obbo, xudoyim-ey! Nahotki frits bo'lsa? Qanaqasiga endi? Tirikmi? – Ushatikov qattiq hayratga tushganidan kaftini beliga urdi. – Rostdan ham tirigimi?

– O'lik frits tasmasini bo'yniga solib, zaruratdan o'tirganini qayerda ko'ruvding, yigit? – Zikin unga o'shshayibroq qaradi, tevaragidagilar esa gurra kulib yuborishdi. – U ham desang, meni ko'rishi bilanoq avtomatiga yopishdi-da, chamasi ingrab yubordi, qorong'ida yaxshi ajratolmadim, yoshi kattaroq bo'lsa kerak-da. Nima qilish kerak? Bir-ikki lahza nafasimiz ichimizda, bir-birimizni yeb qo'yguday bo'lib o'tirdik. Shunda desang urush tugul yorug' jahon ham ko'zimga qorong'i ko'rinib ketdi. Xayolimga nimadir keladi: mabodo u birinchi bo'lib boshlasa, unda men ham ulgurarman... Nemis bo'lsa avtomatini birdan avaylab qo'ydi-da, menga xuddi kasal qo'yday jovdirab, mo'ltirayverdi... Men ham avtomatimni yerga qo'yib, xasta qo'yday mo'ltiradim. Shundan keyin hojatimizni chiqarib bo'ldik. U esa tasmasini tishlaganicha, avtomati bo'ynida teshikdan ura qochdi, orqasi yalt etdi xolos! Xo'sh, shundan keyingina o'rnimdan turdim... Ana shunday bo'luvdi.

– Demak, qo'rqibsanda, Zikin, a? – Mejenin qattiq xaxolab, stolni mushtlagandi, zarbi askarlarning kulgisini bosib ketdi. – Eh, siz xudojo'ylarni qarangu! Cherkovga bora qolsanglar bo'larkan! Men uni avtomatdan birgina o'q bilan o'tirgan joyida tinchitardim-a! Fritsga rahming kelibdi-da?

Zikin o'ychan tamakisini pufladi-da, qat'iyat bilan gapirdi:

– Garchi aqling bo'lsa ham, serjant, nodon ekansan. Shunaqasi ham bo'ladi, axir. Odam bo'lgandan keyin...

– Tovuqbosh safsataboz ekansan, Zikin! – dedi Mejenin yo-noqlarini o'ynatib. – Bunaqa paytda otlar o'ylasin, ularning kallasi katta bo'ladi... Men ham Berlinda bir marta bekorga qo'rqib, tepa sochim tikka bo'lib ketgan. O'sha ko'channing oti nimaydi? Unter... den... linden, esingizdami, yigitlar? Frits pulemyotchi hech so'z ochirmasdi, balkondan chorrahani tinimsiz o'qqa tutardi. Qarasam, ikkinchi qavatda. Zinadan yugurib chiqdim, aha, mana o'sha kvartira. qo'ng'irog'i ham, yozuvi ham turibdi. Kiftim bilan itarsam, la'nati eshik ochiq ekan. Birinchi xonada gilamlar, mebel, lekin odam zoti yo'q... Stolda qandaydir yemish, shisha, konservalar. Kvartira bo'lsa judayam keng. Pulemyotning ham ovozi o'chgan, uy suv quyganday jimjit. Qo'limni avtomat tepkisidan olmay, oyoq uchida xonama-xona yurdim, oxirgi eshik yopiq ekan, uni ochib yubordim. Shunda orqa tomonimdan kimdir «Ku-ku, ku-ku!..» deb yuborsa bo'ladimi!

O'zimga o'zim, kuning bitibdi endi, Mejenin, dedim! Jon holatda burildim-u, avtomatni qo'yib qoldim. Qarasam, soat ichidan kakku chiqib «ku-ku, ku-ku» layotgan ekan, men bo'lsam unga, soatga, devor va ko'zgularga o'q uzdim. Kakku joyidan irg'ib chiqib «ku-ku» laydi, men bo'lsam, u yaramas mayda-mayda bo'lib ketmaguncha otaverdim! Mana buni qo'rqish deydilar, Zikin. sen bo'lsang, menga tovuqboshlik qilib, qayoqdagi ichburug' fritsdan safsata sot-yapsan! Shuyam gap bo'пти-yu! Jannatga tushmoqchi bo'lsang, Zikin, shuni unutmaki, senga qancha fritsni o'ldirganingga qarab sham yoqish kerak! Do'zaxda esa hammamiz baribir uchrashamiz, to'ping bilan qancha nemisni quritding? A?

– Soat bilan ko'zgularni bekorga dabdala qilibsanda, – dedi Zikin salmoqlab. Shundan keyin u yangidan tamaki o'rashga tushdi. – Ichingda shayton bor, Mejenin, dumini o'ynatyapti.

– Dumini o'ynatayotgani to'g'ri gap! – Mejenin mushukday ko'zlarini yumdi-da, rohatlanib kerishib qo'ydi. – Bunaqa ishni hurmat qilaman! Eh, birodarlar, urushgacha boshqacha edi. Meni zarbdor, ishchanlardan deyishardi. Goho ishdan qaytib kelib, boshim yostiqa tegdi deguncha toshday qotardim: xotinim o'shanda g'alva qilardi albatta: «Bundan chiqdi, asablaring soppa-sog' ekan-da, Pertenka!» – «Soppa-sog' deysanmi? – derdim xotinimga. – Asablarimni allaqachon traktorning ehtiyot qismlariga alishib yuborganman». O'shandan keyin qanday ham muhabbat bo'lardi, deysiz? Domkrat bilan ham ko'tarib bo'lmaydi! Urush tugasa, birodarlar, ana shu bemalolgarchilikni ancha-muncha eslab yuramiz!..

– Senga, ichingda shaytoning bor, deyapman, – Zikin gapini yana takrorladi.

– Hammasini yeb qo'ymas, biror narsa qolar! – Mejenin har mahaldagiday vzvod jangchilarini og'ziga qaratib, Zikinni bosib ketdi-da, may oftobida ko'zlarini yumganicha huzur qilib kerishib, orden to'la miqti ko'kragini siypalab qo'ydi. U hamma narsada omadi keladigan ko'rkam yigit bo'lgani uchun ko'p maynavozchiliklari, mahmadonagarchiliklari kechirilar, xuddi sehrlab qo'yilganday o'zi ham, qo'l ostidagi to'p raschyoti ham janglardan shikastsiz chiqardi. Belorussiya chegarasidan to shu yergacha birorta ham talafot ko'rmagandi. Jangda odam Mejenin bilan o'zini bemalol sezar va qayg'urmasa ham bo'lar, oldingi marradagi har qanday vaziyatda

ham hammayoq xotirjamligi sezilib turardi. Mejenin ham urushda sira bosh qotirmay, omadi kelishiga, taqdir ko'p marta boshini silaganiga qattiq ishonib yurganga o'xshar, o'zining batareyadagi qadri-ni ham yaxshi bilardi.

– Qaranglar, yigitlar, buxgalter Tatkin juda ichidan pishganlardan ekan-a, to'g'rimi? – Mejenin askarlarni kuldirishda davom etib, Tatkin tomonga ko'z qisib qo'ydi. – Dono odamday churq etmay o'tiribdi. Kallasi raqamlarga g'ij-g'ij, yuvoshgina odam bo'lsa ham juda quvga o'xshaydi, xudo ko'rsatmasin! Ishdan qaytib kelayotganida birorta boldiri zo'rini ko'rib qolsa, qo'lidagi cho'tini butaga uloqtirib, xo'rozday uni avrashga tushadi. Bunaqa malla ephillar qizlarning ofati bo'lishadi-da! Shundaymi, Tatkin? To'g'ri gapiryapmanmi?

– Slavyanlar, qaranglar-a! – xaxolab qichqirdi kimdir. – Tatkin uch likop bo'tqani yeb, yarim buxankani paqqos tushiribdi. Ana ishtaha-yu, mana ishtaha!

Jussasi ixcham Tatkinning ishtahasi yaxshi, istagan paytda har qancha ovqatniyam hazm qilib yuboraverardi. Goho hatto kechasi soqchilikda turgan paytlarida ham g'amlab olgan qoq nonlarini sichqonday qirtillatardi. Hozir bo'lsa hamma qarayatgani uchun kavshashdan to'xtagan, tulkinikiga o'xshash chuvak yuzi jiddiy va o'ychan ko'rinardi.

– Tushunyapman, o'rtoq serjant. – u malla qoshlarini Mejeninga uchirib qo'ydi. – Haligi pullarni aytyapsiz-da. Nonushtadan keyin birorta do'konga razvedkaga borib kelsammikin?

– Sen bilimdon, nemischani bilasanmi o'zi? Qo'ling bilan gapirasanmi yo ko'zing bilanmi? – so'radi Zikin.

– Bunaqa narsani gapirmasdan ham tushuntirsa bo'ladi. Pulning o'zi hammasini tushuntirib qo'yadi.

– Tatkin, seni aqlliliging uchun yaxshi ko'raman-da, endi ochig'ini aytaver, aylanishgan bo'lsang kerak-a? – bo'sh kelmasdi Mejenin. – Sen, uchar, chiroyli erkak bo'lgansan-a? Bo'ying ham baland, yelkalarig keng, garmonda valslarni ham qotirib tashlagan bo'lsang kerak! O'lguday daydiligingni ko'rib-bilib turibman o'zi!

– Aqlimga kelmovdi, – xunuk Tatkin sarg'ish qoshlarini pastga qaratdi-da, yuvoshligi bahonasida gurungdan chetlashmoqchi bo'ldi.

Nega deganda, vzvodidagilar qiziqchilik uchun unga osilib olishgandi.

– Aldayapsan, Tatkin, chalg'ityapsan! Aytib ber, eshitaylik, undan keyin men garchi leytenant sudga berishiga sal qolgan bo'lsa ham Jitomir voqeasini gapirib beraman! Ha, bu o'tib ketgan ish bo'lsa ham juda qiziq bo'lgandi. Kulgi bo'lsinga aytib beraymi, o'rtoq leytenant? Keyin menga tish qayrab yurmaysizmi?

Mejenin bemavrid tilga olgan va Jitomirda bir mahallar bo'lgan ko'ngilsiz voqea chindan ham ro'y bergan. Nikitin esa uni eslashni istamasdi. Sababi, Mejenin bu bilan leytenantni boplamoqchiga o'xshar, uning uyatchanligi va tajribasizligini o'sha paytlardayoq bilib olgandi.

– Jitomirga balo bormi bu yerda, serjant. Aytarli hech narsa bo'lmagandi-ku! – Nikitin keskin shunday dedi-yu, Mejenin ko'zini uzmay turgani uchun yuzi lovullab ketganini sezdi, nozik kipriklari ham pirpirab qo'ydi.

– Noto'g'riroq aytdimmi, leytenant? Men yomon narsani aytmayman, xotinlar haqida gap ketadi xolos, – dedi Mejenin. – Agar yanglishmasam, urushda ayollar yo sovg'a, yo o'lja bo'ladi, menimcha shunday...

– Men o'ljalarni ko'zda tutyapman, – Mejeninning gapini bo'ldi u. Nikitin o'zining ovozi boshqacha chiqayotganidan ham, Mejeninning Jitomir haqidagi gapiga e'tibor berganidan ham achchiqlanardi. – Naq sizning o'lja pullaringizni, – u aytilishi lozim bo'lgan narsalarning butunlay teskarisini gapirdi. – Zikin haq: bu pullarning nima keragi bor? Germaniyaga savdogarchilikka keldikmi? Soatlar bo'lsa, boshqa gap. Ularni, Mejenin, soati yo'qlarga ulashing. Hech bo'lmasa postda turganlarida vaqtni aniq biladigan bo'lishadi. Pulni esa... Hech qanday do'kon-u, hech qanday savdo-sotiqning keragi yo'q. Qani, Tatkin, reyxsmarkalarni sanab chiqing-chi («Reyxsmarkalarni sanab ko'rishlarini nimaga aytdim?»). Yaxshisi, ularni yo yoqvoring, Mejenin, yoki bitta-yarimtaning ko'zini o'ynatib yurmasligi uchun polk shtabiga topshiring. Vzvod ahmoqona savdogar holatiga tushib qolishini istamayman!

Nikitin bu buyrug'i bilan Mejeninning g'azabini oshirib, nafso-niyatiga tegishi va ayni paytda vzvod komandiri sifatida askarlarini kunlik yumushga aylanib qolgan uch-to'rt kunlik kayf-u safodan be-



nasib etib, ta'blarini tirriq qilishi ham mumkin edi. Biroq u beixtiyor buyurib yuborganidan hamma jimib qoldi, askarlar endi u bilan Mejening yurak hovuchlab qarashardi. Mejenin bo'lsa, tishini tishiga qo'yganicha Nikitinga sarg'ish va qattiq ko'zlarini tikdi-da, asta dedi:

– Tushundik, leytenant. Bajaraman. Buyurilganiday, bizning ishimiz bo'ysunish.

Keyin u stulni taraqlatib o'rnidan turdi va adl qomatini rostlagach, tagida qop yotgan stol yoniga keldi-da, «surgi»ni cho'zib-tortib, qopning ichidagi yassi qutichalarni ham, to'zg'ib ketgan bog'lam-bog'lam pullarni ham oshkora ag'dardi. So'ngra buyruq berdi:

– Kimning soati bo'lmasa, shoshilmay tanlab olaversin! Tatkin, pulni sana! Leytenantning istagan soatini tanlab olishga haqi bor!

– Hojati yo'q! Meniki hali yurib turibdi, – javob qildi Nikitin. U qo'lidagi eski, millarini qurum va okop changi bosgan, Gomel yaqinidagi deyarli qon to'kilmagan jangdan keyin zobitlar blinda-jidan topib olgan soatini irim qilib yangisiga almashtirmaganini ko'nglidan o'tkazib qo'ydi.

Mejeninning buyrug'idan ruhlangan askarlar stol oldida kuymalanib, sirdan qaraganda jajjigina ko'ringan qutichalarni tavakkaliga tanlab olishayotganlarida oshxonaga birinchi vzvod komandiri leytenant Knyajko kirib keldi-da, ostonadanoq hayqirdi:

– Sihatlik tilayman, ikkinchi vzvod! Salom, Nikitin! Nonushta qildinglarmi? Bo'lmasa, nimaga mushukka ovqat bermadinglar?

Leytenant Knyajko ancha navqiron bo'lib, beli ham ingichka, gimnastyorkasi o'ziga juda yopishib, badanini tarang ko'rsatib turar, tasmasi u yelkasidan ham, bu yelkasidan ham o'tgan, ko'zlari qizlarning ko'zlariday moviy va muloyim edi. U har safar vzvodda ko'ringanida bamisoli nozik, omonat odam kelganday tuyulardi. Biroq u ko'rinishidangina shunday edi. Ko'pincha Knyajkoning yosh qiyofasi jiddiy, bag'oyat keskin tusga kirar, shunda Nikitinni uning ovozi, nigohi, kelishgan qaddi-qomati hushyor torttirayotganday bo'lardi. Knyajko moskvalik professor oilasidan, filologiya fakultetida o'qigan. Ozerkovskaya sohilida yashagan, Nikitin turgan Pyatnitskaya ko'chasini ham yaxshi bilardi. Ular Moskva daryosining narigi betidagi yo'lkalarda bir-birlarini sira ham uchratishmagan,

faqat frontda, qirq uchinchi yilning oxirida do'stlashib olishgandi. Leytenant Knyajko frontning ichkari tomonidagi hospitaldan kelgani uchun ham oqsoqlanib yurar, batareyadagi jangda halok bo'lgan birinchi vzvod komandirining o'rniga tayinlangandi. Bungacha u piyoda askarlar orasida xizmat qilib, Dneprda rota komandiri bo'lgan, biroq yaradorligi va oqsoqligi tufayli o'qchi qismga olinmay, o'z ishtagi ko'ra, divizion artilleriyasiga yuborilgandi.

– Birinchi vzvod tashrif buyurgan bo'lsa, birodarlik salomi, – javob qildi Nikitin Knyajko kelganidan suyunib ketib. U shu paytda Moskva daryosining narigi betidagi tor ko'chalarda kechgan bir vaqtlardagi iyul subhidamlarini, devorlar tepasidagi quyosh va ko'chalardagi teraklardan uchib tushgan bulduruqlarni dili bilan tuyganday bo'ldi. – Salom, Andrey! Nima u? Mushukni qaydan olding?

– Qayoqdan, deysanmi? Ikkinchi vzvodda shunday tartibsizlik bo'ladi o'zi, sho'rlik jonivor hammaning ko'zi oldida ochidan o'lishiga sal qolibdi. Sizlar nimaga qaramaysizlar?

Leytenant Knyajko benihoya orasta ko'rinar, gymnastyorkasining g'ijim joyi yo'q, sariq sochining farqi qiyshiq ochilgan, namlab taralgan, mushakdor ko'kragidagi qator ordenlari ko'zni olar, etigi ham yaraq-yuruq qilardi. Sal bukilgan qo'lida tantanali saflanish paytidagiday furajkasini emas, hurpayma, oqishroq mushuk ushlab turgani g'alati tuyulardi. Mushuk isqirt tumshug'ini uning yelkasiga tirab olgan, Knyajko esa uni silashini qo'ymasdi.

– Qarasam, jonivor uy oldida yetimcha-yu g'arjbday o't yeb o'tiribdi, – dedi Knyajko. – Ko'zing qayoqda qoldi, Nikitin? Ushatikov, unga tez bo'tqadan bering, askarchasiga boqing, bo'lmasa, vzvodimga olib ketaman!

Knyajko mushukni pastga tushirdi. Mushuk bo'lsa junlari to'kilib ketayozgan qorni bilan chalqancha yotib oldi, so'ngra askarlarning etiklari ezg'ilagan gilamga huzur qilib bo'ynini suykadi, oyog'ini erinibgina qimirlatib, go'yo Knyajkoni boshlagan o'yinini davom ettirishga taklif etganday bo'ldi.

– Yo tavba, rostdanam mushuk-ku! – hozirgina suyunib yangi soat taqib olgan Ushatikov zumda soatni ham esidan chiqarib, xursand kulib yubordi. – Nahotki nemis mushugi bo'lsa? Pish, pish... oyog'i bilan nimalar qilayotganini qarang-a! Ruschaga tushunadimi? Unga nima deyiladi o'zi?

– Faqat fransuzcha gapiriladi, – Knyajko jiddiy qiyofada yengida qolgan mushuk tuklarini chertib tushirdi. – Nemis mushuklari odatda fransuzcha so‘zlashiladigan oqsuyak xonadonlarda tarbiya qilina-di, biroq shunda ham rus bo‘tqasidan burun jiyirmaydi. Tushundin-gizmi?

– Men to‘g‘risini so‘rayapman, o‘rtoq leytenant... E-he, judayam savlatli ekan-ku!

Ushatikov kaptarnikiga o‘xshash muloyim ko‘zlarini chaq-chaytirganicha mushukning qomini siypalab qo‘ydi, mushuk esa o‘ynashib oyog‘i bilan uni asta turti, Ushatikov cho‘nqayib o‘tirdi-da, ko‘zlarini pirqiratgan ko‘yi muloyim va mayin ovozda chaqirdi:

– Pish, shprexen, shprexen, kom, kom, senga bo‘tqa beraman... Xenda xox, gut, gut, guten morgen... E-he, judayam savlatli ekan-ku.

– Miyasiniyam achitib yubordingiz, – dedi Nikitin kulgisini bo-solmay, – nemis mushuklari ham bittagina xalqaro tilni tushunisha kerak, deyman. Pish, pish, pish. Sinab ko‘ring-chi. Tushunmasa, ne-mischa so‘zlashuv kitobini qo‘lga olasiz.

– To‘g‘ri, o‘rtoq leytenant, tushunishi kerak, pish, pish, pish! – Ushatikov hamon cho‘nqayganicha orqasiga tisarilib mayin ovozda mushukni chaqirdi. – Bu yoqqa, bu yoqqa, burchakka kel, bo‘lmasa etiklari bilan bosib olishadi seni...

– Biror yangi gap bormi. Andrey? – so‘radi Nikitin. – Shtabdan birorta ko‘rsatma yo‘qmi? Hamon churq etishmayaptimi?

Leytenant Knyajko gimnastyorkasiga ilashib qolgan tuklarni olib tashlab reyxsmarkalar uyulib yotgan stolga, pul bog‘lamlarini qator tizib qo‘yayotgan Tatkinga, Mejenin atrofidagi soatli qutichalarni hayajonlanib olishayotgan askarlarga qayrilib qararkan, dedi:

– Hammasi ilgarigiday. Birorta ham buyruq yo‘q. Qiziq, qayerda va qaysi bankni musodara qildinglar, Nikitin? – u kinoya qilsa ham moviy ko‘zlari jiddiylicha qolaverdi. – Berlindami? Yoki Kyonigsdorfdami?

– Kunimiz yaxshi o‘tyapti-da, o‘rtoq leytenant! – javob qildi Mejenin askarlar qurshovidan ovozini balandlatib. – Hovlida hamma qulayliklar, dorixonada telefon bo‘lsa ham hech kim qiziqmayapti! Iltimos, sovg‘adan olsangiz, kafolati ma‘lum – bir yil yurib beradi!

– Sizlarda bunaqa narsalar serobmi deyman-a?

– Hammaga yetadi, o'rtoq leytenant, bir vagon-u bitta aravachada bor! Manavi yassirog'ini oling, qo'lingizga yarashadi... Soniyani ko'rsatadigan mili ham bor.

– Nemislarning hech nimasini olmayman, – javob qildi Knyajko quruqqina. – Bilishimcha, Mejenin, bunaqa ishni dafn xizmatlarigina qilishadi.

– Yap-yangi soat, o'rtoq leytenant, xuddi do'kondan chiqqanday. Qo'ldan yechib olinganmas!

– Baribir.

– Tu-shun-dik, – dedi Mejenin cho'zibroq. – Har kimning didi har xil, birovga u yoqadi, birovga bu. Bizning leytenant ham prinsip-lilardan.

Mejenin ko'zlarini qisganicha soatni burab, yurishini eshitib ko'r-di-da, hafsalasi pir bo'lib, uni stolga tashlovdi, soat qutichalar orasiga tushdi.

– Juda soz, – Knyajko Nikitinga o'girildi. – Nonushta qilib bo'ldingmi? To'plarni bir aylanib kelaylik. Bugun kun yaxshi. Naq yozning o'zi.

– Ha, yaxshi kun, – uning gapiga qo'shildi Nikitin va kecha yu-vilgan pilotkasini kiyib, Mejeninga tayinladi: – Mabodo shtabdan telefon qilishsa, tezda yetkazinglar.

– Vahimali emas, durust qilingan, – dedi Knyajko eshik oldida oshxona burchagiga imo qilib. U yerda Ushatkov cho'nqayib o'tirgan ko'yi nemis kotelogi qopqog'iga askarlarning likopchalari-dagi qolgan-qutgan so'k bo'tqani qirib-sirib, mushukni boqardi.

Kun allaqachon yoyilib ketgan, nemislarning bu viloyat shahar-chasidagi sokin ko'chalarning bir tomoniga oftob tushib turgani uchun ancha issiq, ikkinchi tomoni esa soya bo'lgani sababli hamon salqin, bahorgidek zaxroq edi. Salqin havoda temir ihotalardan osilib tushgan, barvaqt qiyg'os gullovchi sirenning yoqimli isi anqirdi. Yo'lkalardan yurganda dimoqqa uriladigan va kishini sarxush etuvchi chorbog' isiga sokin ko'chalarga sira ham to'g'ri kelmaydigan askar oshxonalarining tutuni, selgiyotgan yo'l yoqasida turgan mas-hinalarning benzin isi aralashib ketayotgandi.

Bu sokin shahar allaqachon uyg'ongan, cherepitsali tomlari qip-qizarib turar, qarag'ay tanalari oftobda oltinday tovlanar, polk tashvishidagi starshinalarning baqiriq-chaqiriqlari, nonushtadan ke-

yin yuviladigan qozonlarga oshpazlarning cho'michlari taraqlab tegayotgani eshitar, chekkaroqdagi bog' ichkarisida turgan frontning orqa tomoniga tegishli mashinalarning motorlari gurillayotgani ham quloqqa elas-elas chalinardi. Ibodatxona yonidagi choqqina ko'chalarda yoz qilib olishgan shinelsiz, paxtaliksiz askarlar guruh-guruh ko'rinib qolishar, ular ko'chalarning o'rtasidan yurishib, gollandcha fonuslar tagidagi pansionlarning begona tildagi viveskalari, sartaroshxonalarning oynaband peshoynalaridagi ayollarning ulama sochlarini, yopiq pivoxonalarning tushirib qo'yilgan deraza to'siqlarini tomosha qilishar, ibodatxonaning tosh to'shamalari, silliq zinalarida maza qilib dam olib, chekishar, oftobda isinishar, gurunqlashishar, ibodatxonaning moviy osmon og'ushidagi tomining gotik usuldagi nayzalariga qarashardi.

– Quvnoq shaharcha, – dedi Knyajko ro'paralaridan kelayotgan askarlarning chestlariga Nikitindan durustroq chest bilan javob berib. – Maza qilib yashashgan. Umuman aytganda may – ajoyib faslda!

Nikitin so'radi:

– Menga ayt-chi, bryurgerlar qayerda o'zi? Yerto'lalarda o'tirishibdimi? Berkinib olishganmi? Yo biz turgan uyning egalarga o'xshab qochib ketishganmi?

Bu ko'rinishidan ozodagina, top-toza, qulay, kichkina do'konlari, restoranchalari, mayxona va ehtimol berlinliklar yozda dam olgani kelishadigan pansionlar ko'p tipik kurort shaharchasi edi. Biroq hozir hech yerda nemischa so'zlar eshitilmas, garchi askarlar uylarni egallab, kvartiralarda egalari bilan birga turishgan bo'lishsada, hamma yerda derazalarga pardalar tortilgan, mashina motorining ovozi yoki ko'chma oshxonaning taraqa-turuqi yaqinlashib, ko'chada askarlarning xaxolashlari yoki gurunqlari eshitilib qolgan paytlardagina pardalarning chekkasi sal ko'tarilardi xolos.

– Menimcha, nemislar Venkning afsonaviy armiyasi Berlinni qutqarishiga ishonmay qo'yishganga o'xshaydi. Shunday bo'lsa ham nimanidir kutishyapti, – javob qildi Knyajko. – Bu yog'ini aytсам, o'zim turgan uyning egalari nafaslarini chiqarishmaydi, oyoq uchida yurib, shivirlab: «Gitler kaput», deyishadi va nuqul askarlarga egilib-bukilishadi. Meni ham xuddi generalday ko'rib, poyandoz



bo'laman, deyishadi. Hatto yotgan joyimdayoq qandaydir bemaza narsani «kofe» deb ichirishga harakat qilishadi. Chingizxon bosqiniday bo'ladi, deb o'ylayotgan bo'lishsa kerak-da. Nemislar nemisliklaricha qolishadi. Kraft! Kraft! Zo'r kuchga bo'ysunishadi.

– O'zim turgan uyning egalari qayoqqa qochishganini bilishga qiziqyapman, – dedi Nikitin. – Hamma narsalarini tashlab ketishgan, uyda hech kim yo'q.

– Mana senga oliy irqning vakili, ko'zing uchib turgan ekan, – dedi Knyajko aftini burishtirib. – Chamasi, shirakayf.

Ro'paradan oppoq gullagan zich sirenlarni ayirib turgan temir panjaralar soyasida qizil yuzli keksa nemis tosh to'shamalarga omonat oyoq bosib kelar, boshida qora shlapasi bor edi. U birdan to'xtab, boshidan shlapasini olgandi, qip-qizil tepakali ko'rinib ketdi. Nemis shu alfozda shlapasini ezgilagancha egilib-bukilar, tili ham arang aylanardi:

– Guten Morgen, Herren Offiziere, guten Morgen. Rus karasho, Gitler kaput... alles... Stalin gut, karasho, Gitler plyoxo, kaput, – nemis Nikitin bilan Knyajko to'unga ro'para bo'lgunlaricha o'rganib olgan so'zlarini qayta-qayta takrorladi. So'ngra qizil yuzidagi ajinlari iltijoli titradi. – Entschuldigen sie, bitte, Herren Offiziere, geben sie mir, bitte, ein Stück Zigarette<sup>1</sup>. Rus karasho sigarette... Vodka gut.

– Senda topiladimi? – o'zi chekmaydigan Knyajko Nikitindan jiddiy so'radi. – Bo'lsa ber. Bu oriy qayerda ichib olganikin? Menimcha slavyanlar saxiyliklarini ko'rsatib qo'yishganga o'xshaydi. Shunday.

– Bitte, – Nikitin o'lja sigaret qutisini ochdi, nemis esa hamon shlapasini kiymay barmog'ining uchi bilan avaylab bitta sigareta oldi-da, iskgagach, ingrab yubordi. Buni ko'rib Nikitinning rahmi keldi. – Ko'proq olavering... Jin ursin, nemischasiga qanday aytilardi? Bitte, nehmen Sie noch Zigaretten, bitte, bitte<sup>2</sup>!

– O! Nur zwei Zigaretten, danke schön, danke schön<sup>3</sup>, – minnatdor nemis boyagiday astagina ikkinchi sigaretani oldi. Sigareta qutisini tomosha qilib turib yasama hayrat bilan hayqirdi: – O, «Juno»,

<sup>1</sup> Uzr, janob zobitlar, menga bitta sigareta beringlar.

<sup>2</sup> Marhamat, yana bitta sigareta oling, marhamat, marhamat.

<sup>3</sup> Faqat ikkita sigareta, katta, katta rahmat.

deutsche Zigaretten! Danke schön, entschuldigen Sie, bitte, Herr Offizier! Gitler kaput! Auf Wiedersehen!.. Rus karasho!

Shundan keyin nemis shlapasini terlagan boshi uzra tutganicha panjara oldida uzoq turib qoldi. U Nikitin bilan Knyajko o'tib ketayotganida burilib, yasama tishlarini ko'rsatib irshaydi.

– Rus karasho, vodka gut. Hamma gap shunda ekan-da, – dedi Knyajko va yo'l-yo'lakay kelishgan gavdasini cho'zib, panjara ortidagi sirendan bitta novdani sindirib olib hidladi. Sirenning shabnamli namxush hidi Nikitinning ham dimog'iga urildi. Knyajko sarg'ish qoshlarini yana chimirdi. – Sen bilan bitta narsani gaplashib olmoqchiydim, Vadim. Bizni nima uchun Kyonigsdorfga keltirib qo'yishgani hali noma'lum. Bu shunchaki bo'lmasa kerak, deyman. Berlindan keyin batareyamizda maynavozchilik boshlandi. Go'yo urush tugab, hammamiz yoppasiga telba bo'lib qolgandaymiz. Shtabdan hech qanday buyruq yo'q. Nuqul bekorchimiz. Bugun kechasi soqchini tekshirib qo'yay, deb chiqsam, u postida yo'q, divanda chaqaloqday maza qilib uxlab yotibdi. Bu hech chidab bo'lmaydigan narsa! Bu ahvolda ertadan boshlab batareya bilan saf tayyorgarligini qattiq o'tkazishga kirishaman. Bu slavyanlarimizni sal silkitish, osmondan bir amallab pastga tushirib qo'yshi kerak-da. Yo'qsa, bu yerda yuvosh buzoqchalarga aylanib qolamiz.

– Ha, – dedi Nikitin. – Mening vzvodimda ham shunga o'xshagan bema'niliklar bo'lyapti. Biroq o'zim ham, hammasi tugadi, degan fikrdan qutulolmayotganimni bilasan-ku...

Ular jim qolishdi. Ko'chaning o'rtasidan sapyor askarlar kelishar, ularning kulgilari, og'izda chalinadigan garmonchaning ingichka ovozi ham eshitalardi.

– Mejenining o'ljalarga o'ralashib qolibdimi, deyman, – dedi Knyajko siren novdasini o'ng qo'lidan chap qo'lga olib, yaqinlashgan askarlarning chestlariga javoban chest berib. Askarlarning xushchahchaq, quv ko'zli bittasi lab garmoshkasida «Katyusha»ni chalardi. – Tag'in u hammani ezyapti. Sezyapsanmi?

– Sezyapman, biroq ajoyib to'p komandiri.

– Kelishuvchansan – o'n to'qqizinchi asr advokatisan. – dedi Knyajko. – Bunda oqilona naf ko'rmayapman. Sen vzvod ko-

<sup>1</sup> O, «Yuno» nemis sigareti! Katta rahmat, kechirasiz, janob zobit.

mandirisan, hali hammasi yakunlanguncha askarlaringga ta'sir ko'rsatishing kerak...

– Nahotki hali-beri tugamaydi, deb o'ylasang?

Ular panjasida bir krujka pivo bor ayiq tasvirlangan eski vi-veskali yopiq mayxonadan yon tomondagi ko'chaga burilishdi. Bu yerda artilleriyaga yuk yetkazib beruvchi mashinalar, medsanbatning yuklari va aravalari tirband edi. Ular yo'lka bo'ylab o'sgan keksa qarag'aylarning sarg'ish soyalaridan o'tib bora boshlashdi. Ko'chaning oxirida go'yo oldindagi imoratlarning tomlari ikkala tomonga surilganday bo'lib, sayxonlik uzra ketgan tiniq va to'lqinsimon moviy havo, parqu bulutli zangori osmon ko'zlarini qamashtirdi. Shahar chekkasidagi cho'zinchoq ko'llarning bamisoli kurortlardagiday qumli plyajlari, sohillari, undan naridagi oftobda tovlanayotgan maysalar ham ko'zga tashlanar, xullas, may oyining peshin paytidagi issiq havosi hukmron edi.

– Menimcha, bordi-yu nochor ahvolda qolsak o'zimizni kechirolmasak kerak. – deb qo'ydi Knyajko o'ychan qiyofada.

## UCHINCHI BOB

Oldindagi marradan yiroq sokin bu shaharchada hali ham chiroqlarni niqoblashga amal qilinardi. Kechqurunlari birinchi qavatdagi kabinetmi, kutubxonagami o'xshagan katta xonada pardani zich tortib o'tirishar, starshina Berlin omborlaridan topib kelgan bavariya pivosini no'sh qilib o'lja sigaretalarni ayamay chekish-u gurunglashishdan boshlari chiqmasdi.

Vag'ir-vug'ur avjida, stol tepasidagi lampamoy chiroqning ko'm-ko'k shisha soyaboni sigaretalar tutuni orasida loyqa suvdagidek suzar. kiyik shoxlari va qoramtir kartinalar qurshovidagi qadimiy kitoblarning zarrin muqovalari uzra ko'k meduza yanglig' qalqirdi. Kartinalarda qora bulutlar ostidagi qoyalar kabi qad kergan o'rta asr qasrlari tasvirlangandi.

Kechki ovqatdan keyin qo'qqisdan tibbiy xizmat kichik leytenanti Aksenova hamrohligida batareya komandiri Granaturov kelib qoldi. U Shpreening g'arbiy sohilida qo'lidan yaralangan, ovozi do'rilloq yigirma besh yashar zabardast yigit edi. Kelishi bilanoq medsanbatda to'pchilarni sog'inib qolgani, xamir bo'tqa yeyaverish

joniga tekkani-yu, Galochka bilan yo'li bir tushib qolganini do'r-do'r aytib, meni haliyam batareya komandiri deb bilsanglar mehmonlarni kutib olasizlar, dedi. Shu yerda kunduzgi ishlardan gurlashib o'tirganlarida Granaturov o'lja qilingan, Nikitin taqiq solib qo'ygani uchun hozir keraksiz qog'oz bo'lib yotgan reyxsmarkalarni eshitdi-da, ko'p o'ylab o'tirmay ulardan oqilona foydalanish, ya'ni har kimga o'n ming markadan ulashib, kartada yigirma bir o'ynashni, shu tariqa ishqda kimga omad yor-u, kimga yor emasligini aniqlashni maslahat berdi. Galyaga bosiq leytenant Knyajko ko'z qisib taklif qildi:

– Iltimos, Galochka, baxtingizni sinab ko'ring, bizga qo'shiling. Bunaqa paytda ayollarga omad kelishini tomosha qilish qiziq bo'ladi.

– Nimaga? Siz meni ayollik xususiyatlaridan mahrum qilmoqchimisiz, Granaturov? – dedi Galya loqayd kitob javoni tagidagi charm qoplangan divanga o'tirarkan. – Bundan shaxsan sizga naf yo'q.

– Shaxsan mening suvga cho'kkan odamday nuqul omadim kelgani kelgan, – xo'rsindi Mejenin qopdan bog'lamlil pullarni stolga olib qo'yayotib. – Medsanbatga bir marta bo'lsa ham tushsam, degandim-da, o'rtoq tibbiy xizmat kichik leytenanti.

– Unda albatta tomosha bo'lardi, ortingizdan xamir bo'tqangizni ko'tarib yurishardi. Sho'ri qursin medsanbatning. – Galyaning ovozi kalakaomuzroq chiqar, yuzi chuvak, soch-u qoshining qoramtiriligi, oppoq peshanasi demasa, u ham askarlar davrasidagi gapga chechan medsanbat vrachlari va hamshiralaridek ashaddiy shaddodga o'xshardi.

– Demak, karta o'yinini boshladik! – buyruq berdi Granaturov. – Qani, slavyanlar! Axtung!

Mejenin birinchi bo'lib bankka pul tikdi-da, odatdagi valetlar o'rniga Gitlerning qo'shaloq rasmi bor yap-yangi atlas kartani shig'illatib suzishga tushdi.

– Kitoblar, kiyik shoxlari, qadimiy gravyuralar, – dedi Galya xonaga ko'z yugurtirib. Keyin u Knyajko bilan Nikitniga tikildi. – Kimningdir ruslar tomonidan bezovta qilingan turmushi... Ular bizdan nechog'li qo'rqishlari va yomon ko'rishlarini tasavvur qil-

yapman. Leytenant Nikitin, bu yerga vsvodingizni o'zingiz joylash-tirdingizmi?

– Albatta, – dedi Nikitin. – Bo'm-bo'sh uy. Egallari yo'q.

– Leytenant Knyajko qo'shni uydami? Yonma-yonmisizlar?

– Ehtimol, – quruqqina javob qildi Knyajko. – Vsvodim yon uyda bo'lsa bordir.

– Jangovar vsvodlar yonma-yon turadi, shuni unutmang, Galochka! – Granaturov Mejenin stolga tashlagan kartani olib xonani boshiga ko'targuday shang'illadi. – Yana bitta. Shunday... Baxtimdan, yana. Ha, taqdir – kotelok, hayot – balalayka, tort-tort! Har jihatdan omading kelyapti, serjant! Besh yuz marta yutqazdim! Omadli shayton ekansan! Qani, bir sinab ko'r-chi, leytenant Knyajkoning omadi kelarmikin?

– Tonmayman, aytishlaricha, onam boshimni toshdan qilib tuqqan ekan. – Mejenin o'yin yaxshi boshlanganidan xursand bo'lgani uchun bankda ko'paygan pulni to'dalab, yana karta suzishga tushdi. – Aytishlariga qaraganda, ilgari ekspluatatorlar ayollarni karta-ga tikisharkan. Qancha tikasiz, o'rtoq leytenant? Olavering, sizga to'ppa-to'g'ri ochko chiqadi – uch, yetti, tuz... Ochmasdan olishga o'ynamaysizmi? – deb so'radi u Knyajkodan. So'ngra kipriklarini piri-piratik divanda suyanibroq o'tirgan Galyaga muloyim nigoh tashlab qo'ydi. Galyaning ko'kish yubkasi juftlashgan tizzalarini sirib turar, etigi yaltirardi. – Siz, Galya, mabodo o'stra zamonlarda yashab, kartada yutqazsangiz, nima qilardingiz, bilsam bo'ladimi?

– Ochmasdan olishga o'ynamayman. – Knyajko suzilgan kartalarini ochmasdanoq yuzi Galyaning qisqa kulgisi va jarangdor ovo-zidan bujmayib ketganday bo'ldi.

– Zo'r hazil qilarkansiz, Mejenin! Sizga yaxshi javobim bor. Qirq beshinchi yildagi o'rta asr feodali ekansiz. Xudo ko'rsatmasin, meni yutib olsangiz, yosti-q tagiga o'tkir xanjar qo'yib qo'yardim.

– Demak, sirayam ayamay o'ldirarkansiz-da?

– O'y-lab-netib o'tirmasdim. Bir lahza ham.

– Bu gapni hazm qil-u, tirjayaver, serjant, tushunarlimi? – Granaturov zavqlanib shunday derkan, sog' o'ng qo'li bilan kamaridagi yaltiroq xanjarini qinidan sug'urib, uni havoda o'ynatdi. – Sovg'a qilaymi, Galya? Ehtiyot shart-da!



– O'n yetti, – Knyajko parvo qilmay kartalarini ochdi. – O'zingizda qanday, Mejenin?

– O'n to'qqiz, o'rtoq leytenant, – Mejenin kartalariga puflab hi-ringladi. – Yutqazdingiz! Happayi halol yutqazdingiz. Eh, sevgida hech omadim yurmayapti-da...

– O'qib ko'r-chi, Knyajko, xanjarniig damiga nimalar yozil-ganikin, – Granaturov shundan keyin xanjarni Knyajko oldidagi bog'lamli reyxsmarkalar ustiga tashladi. – Ichimizda nemischaga fa-qat sening tishing o'tadi. Qani, o'qi-chi! Hamma eshitsin!

– Blut und Ehre, – qovog'i soliq Knyajko xanjarga yozilgan so'zlarni o'qib, tarjima qildi. – Blut – qon, Ehre – nomus.

Mejenin usta qimorbozday kartani chiyladi-da, uni tekislayotib kesatgan bo'ldi:

– Qisqasi, xanjarcha omad degani ekan-da. O'zimizning «Yo or-denlar ko'kragingda, yo kallangni ko'r butada» kabi. Xo'sh, o'rtoq leytenant? Omadga o'ynaysizmi? Ochmasdan olishga.

– Suzing, – dedi Nikitin. – Menga baribir. Bankaga bera qoling, mayli.

– Faylasufsan-da, Mejenin, sendan o'tadigani yo'q! – Granatu-rov epchil harakat bilan xanjarni qinga soldi. – Bu matohni, do'stlar, Berlinda, gitleryugendning Shpreedagi yozgi maktabi shtabida oluv-dim. To'ppa-to'g'ri – qon va nomus. Zo'r aytilgan. Shuning uchun ham Galochkaga tutuvdim. Pivodan quyaymi, Knyajko?

– Yo'q, kerak emas.

– Uzi, chekish-ichmasliging esimda yo'q. Zohidsan-ku. Tank zirhi, temir-beton!

Granaturov stoldan ochiq shishani topdi. So'ngra qora, yondi-ruvchi ko'zlari bilan Galyaning boshidan to chalishtirib o'tirgan oyoqlari-yu tor qo'njli xrom etiklarigacha qiziqsinib kuzatgach, il-jaygan ko'yi so'radi:

– Zeriktirib qo'ymadikmi sizni, Galochka?

Galya endi hech kimga qiyo boqmay, qadimiy kabinet divani burchida yuzini mushtiga tirab beparvo o'tirardi. Ikkinchi qo'li bi-lan tizzasidagi kolenkor muqovali vazmin kitobni varaqlar, oppoq peshanasi pastga qaragan, payvasta qoshlari qorayib ko'rinar, yuzida qandaydir o'ychan va bosiq ifoda aks etardi.

– Galochka, – dedi Granaturov muloyim ovozda qiz tomonga egilib. – Nega hadeb kitobga qovog'ingizni solyapsiz? Biz bilan gaplashib o'tiring, ozroq pivodan totinsangiz-chi, bu yog'i hammasi joyida bo'ladi. Mabodo bitta-yarimtamizdan tortinayotgan bo'lmang tag'in. Siz nimaiki qilsangiz, haqingiz bor, Galochka, oddiy askar emas, zobitsiz, axir!

Granaturov Knyajkoga qarab jilmaydi. Knyajko bo'lsa ensasi qotib, aftini burishtirdi, portupeyli ko'kragi sal ko'tarilgan, farqi qiyshiq sochi silliq taralgandi. Nihoyat, u quruq va norozi ohangda:

– Xiralik qilmaslikning iloji yo'qmi, o'rtoq katta leytenant? – dedi.

– Nega jahling chiqyapti, leytenant, nahotki seni xafa qilgan bo'lsam? Yo Galyani ranjiddimmi? – yolg'ondakam taajjublangan bo'ldi Granaturov. – Mana endi aybsiz aybdor bo'lib ham qoldim.

– Tushunishimcha, – boyagiday ohangda gapini davom ettirdi Knyajko, – tibbiy xizmat kichik leytenanti batareyada hech kimga bo'ysunmaydi va ixtiyori o'zida. Shuning uchun maslahatlaringiz shaxsan menga kulgili tuyulyapti.

– Obbo leytenant-e! Obbo Knyajko-e, baribir seni yaxshi ko'raman, sababini o'zim ham bilmayman! – zo'rma-zo'raki xaxoladi Granaturov. – O'lay agar, yaxshi ko'raman, qachon bir-birimizni sensirashga o'tamiz o'zi? Yo meni sizlab yuravermoqchimisani?

Knyajko hamon sovuq boqardi.

– Sensirolmayman sizni, o'rtoq katta leytenant. Menga kattalar bilan ustav bo'yicha muomala qilish qulayroq.

«Ha, Knyajko o'rtalarida bo'lib o'tgan eski mojaroni unutmabdi, kechirmabdi ham, – ko'nglidan o'tkazdi Nikitin tavakkaliga to'rtinchi kartani ochmasdan olayotib. – Ha, u nimasi bilandir kombatga qaraganda keskinroq va dadilroq. Buni Granaturov ham bilgani uchun Galyaning oldida u bilan g'ijillashishni istamayapti.»

– Yutqizdim, albatta, jin ursin! – Nikitin shunday deb pulni stol-dagi pul uyumiga qo'shib qo'ydi. – Rostdanam omadingiz kelyapti, Mejenin.

– Boshim toshdan bo'lib tug'ilgan ekanman, o'rtoq leytenant. Shahardagi gilamlarda yumalab o'smaganman-da!

– Bosh toshdan bo'lishiga nima yetsin! Nachora, yana bir marta sinab ko'raylik-chi, boshi toshdan bo'lmaganlarning qanday oma-

di kelarkin, – dedi Knyajko birdan qaysarlik bilan. – Faqat bilib qo‘ying – ochmasdan olish emas. Kartani suzing, serjant.

– Kutubxonaga e‘tibor berdinglarmi? – Bemavridroq savol berib qoldi Galya jiddiy ko‘zlarini kitobdan uzib. – Qiziq, bu yerda kimlar turganikin-a? Qayoqqa ko‘chib ketishdiykin? Kechqurunlari mana shu stol yonida erkaklar boshlarida tungi qalpoq, ayollar esa xalatda o‘tirishib, manavi ko‘hna kitoblarni o‘qishgandir. Ular urush, Gitler, biz – ruslar haqida qanday xayollarga borganlarini sira ham tasavvur qilolmayapman... Mana endi hammasini tashlab qochib ketishibdi.

– Bo‘m-bo‘sh uy, – uning gapini tasdiqladi Nikitin.

– Bo‘sh... – Galya lampamoy chiroq yoritgan chang-chung so-yabon, devorlardagi qalin ramkalarda turgan kartinalar, eski charm kreslolar, derazalarga tortilgan qizil duxoba pardalar, yalang‘och ayollarning ixcham tasvirlari chizilgan kaminga razm solib gapida davom etdi:

– Hatto xonadon pushtipanohi – qadimgi farishtalar ham qolib ketibdi. Esingizdami, Nikitin? Maktabda Rim tarixini o‘tganimizda bularni eslab qoluvdim. Tashlab ketilgan begona uyda negadir ma‘yus tortib qolgan paytlaringiz bo‘lmaydimi, Nikitin? Qandaydir fayzsiz.

– Nega endi fayzsiz bo‘larkan? Ajabtovur-ku! – taskin bergan bo‘ldi Mejenin va kartaga puflab uni naq burni oldida epchil chiy-ladi. – Mana endi bu yog‘i chatoq ketdi. Uchlik!.. Puf-puf, bir balo bo‘ladi shekilli!..

– Farishtalarni yaxshi eslolmayman, – dedi Nikitin. U Galyaning bosiq ovozini eshitganida dilidan bu gap menga ham, Granaturov-u Mejeninga ham emas, Knyajkoga qaratilgan, degan fikr kechuvdi. Galya ehtimol Knyajko bilan bir xonada garchi u butun oqshom bir og‘iz gapirma-da, mana shu alfozda birga o‘tirishga ham rozi edi. Yo bu Nikitinga shunday tuyulganmikin?

– Urushdan keyin erga tegasiz, uyingizni bundan ham ha-vas qilguli yasatib yuborasiz! – Granaturov ko‘zini qisib qo‘ydi. – O‘shanda sizni bir kirib ko‘rsam qani edi.

– Rostdanmi?

– Haydab yubormasmidingiz? Sal mo‘ralasam ham mayliydi...

– Ancha kutishingizga to‘g‘ri keladi. Juda ancha, o‘rtoq katta leytenant.

– Nega ancha? Bu yerda ham jazmanlaringiz ko'p-ku. Jimji-log'ingiz bilan sal imlasangiz, bas, poyingizga hammasi emaklab keldi.

Galya kulimsirab, tizzasidagi kitobni parishon varaqlashga tushdi.

– Men tanlaydigan qayliqman, Granaturov. Shunaqa esi past ayollar ham bo'lishiga siz sira ham ishonmaysiz.

– Oh, Galochka, erkaklar ham oyoq ostida yotishgani yo'q-ku.

– Erkaklarga toqatim qolmabdi. Urushda judayam jonimga tegib ketishdi.

– Kimni yoqtirasiz bo'lmasa? Ayollarnimi? Ayollarga turmushga chiqilmaydi. Mumkin emas!..

– Birovni sevib-sevmay turmushga chiqishim bilan kimning nima ishi bor? Yo tavba, juda qizig'-a! Shuni juda ham bilgingiz kelyaptimi?

– Naqadar silliq va keraksiz vaysaqilik! – dedi Knyajko Mejenin suzgan kartalarni erinibgina ochib. Keyin jahlini arang bosib, gapini oxiriga yetkazdi. – Undan ko'ra, shtabdagi yangiliklardan gapirsangiz-chi, kombat. Menimcha, to'pchilarga qaraganda med-sanbatga yangiliklar ko'proq kelib tursa kerak.

– Yangiliklarni? – Granaturov o'ng qo'lida pivo shishasini ochdi-da, qadahini shisha bo'yniga urishtirdi. – Galochka, siz uchun! Qanaqa yangiliklar, deysizmi? Hozircha batamom xotirjamlik, do'stlarim. G'arbda janglar ketyapti. Yana arzimagan maydachuyda narsalar ham bor. Berlin ostonasida tor-mor qilingan qandaydir to'dalar u yer-bu yerdagi o'rmonlarda izg'ib yurishganmish. Bu la'natilar asir tushishga qo'rqishayotgani ayon, lekin fritslarning qochadigan joylari yo'q.

– Ha, bu matematik hisob! Meni ikki ochkoga yutdingiz! Omandingiz keldi, bundan chiqdi, o'zingiz ham boshi toshdan bo'lib tug'ilgan ekansizda, a?

– Undan ham zo'r, Mejenin, zo'r, – dedi Knyajko quruqqina. Chaqaloqligimda gilamda piyma kiyib yurganim ham esimda.

– Leytenant Knyajkoning hamma narsada omadi kelyapti, polkdagi eng baxtiyor odam-da! – Granaturov chap qo'li osilgan dokaning pogoni tagiga kirib qolgan joyini to'g'rilarkan, do'rillagancha gapni ilib ketdi: – To'g'rimi, Galochka? U bundan yuz yil oldin

yashaganida gusar bo'lardi. Oq dasturxonga to'kildi vino... Ashulada shunday deyilarmidi? O'shanda mening o'rimga qolib o'tirmay gusarlar polkiga komandir bo'lardi.

– Biz ketaylik endi, o'rtoq katta leytenant, – Galya kitobni shartta yopib javonga qo'ydi. – Men vrach sifatida hozircha davolanishda ekanligingizni eslatib qo'yishim kerak.

– Galochka, azizim! – Granaturov dodlab yuborayozdi. – Medsanbatgami? Shunday zo'r pivoni tashlab, palatadagi xurrakchilarning yoniga boramanmi? Toqatim yo'q. Jonimga tegib ketishdi, bir kunmas bir kun ularning hammasini otib tashlayman, chidolmayman!

– Toqatingiz yo'q bo'lsa qolavering. Menga desa ertalabgacha. Bugun sizga ruxsat beraman. Men bo'lsa navbatchiligimga borishim kerak. Bu yog'iga ogohlantirib qo'ymoqchiman. Qizaloq yoshidan allaqachon o'tib ketganman, shuning uchun, iltimos, meni hech kim kuzatmasin.

– To'ppa-to'g'ri, ketishingiz kerak, – Knyajko Galya tomonga qaramay, uning gapini sovuqqina ma'qulladi.

– Qo'ysangiz-chi! Bir o'zingiz-a? Kechasi-ya? Nemislar shahrida-ya? – Granaturov stolni sharaqlatib surdi-da, stol uzra baquvvat gavdasini ko'tardi. – Men o'z qarorimni bekor qilaman, Galochka! Men tayyorman!

– Yo'q, – dedi Knyajko sovuqqina. – Shaharda patrullar bor, xavfsiraydigan yeri yo'q, o'rtoq katta leytenant.

– Albatta, – Galya bosh irg'ab, sekin kulib qo'ydi.

Batareyada birinchi vzvod komandiri leytenant Knyajko bilan medsanbat vrachi Aksenovanning pinhoni munosabatlari, ular batareyadan tashqarida qaysi paytda va qachon uchrashishlarini hech kim bilmasdi. Shunga qaramay batareyadagilar avvaliga ularning aloqasi borligini tasmollab yurishdi, keyinchalik esa ular bundan yarim yil oldin Prussiya chegarasidayoq, Knyajko artilleriya polkining orqa tomonida oyog'idagi jarohati ochilib, o'n kun davolanishida tanishib olganlaridan voqif bo'lishdi. Knyajko medsanbatdan chamasi muddati bitmayoq chiqqan, ozib ketgan, indamas, hamon qattiq oqsoqlanib yurar, hujum boshlangan paytlar batareya yo'lda ketayotib qizil xochli sanitar mashina to'p yonida to'xtab, undan nozikkina, qoraqosh, oppoq yuzini to'sday sochlari qur-



shagan medsanbat vrachi tushib, birinchi vzvodning to'pi yonida, hassa tayangan Knyajko bilan yonma-yon qadam tashlaganida ham leytenant o'zini jiddiy tutar va sir boy bermasdi. Medsanbat vrachi o'shanda jiddiy tarzda chamasi yaralangan oyog'iga daxldor savollar bersa ham Knyajko o'lganining kunidan, yarim rasmiy javob berar va tezroq ketishini betoqat kutayotganday tuyulardi. Vrach ham shundan keyin batareyada ko'p qolmasdi. Knyajko esa qovog'ini ochmay, uning kelganini sira eslamas, askarlar garchi qiziqsinib qarasar-da, jahli chiqishidan cho'chiganlari uchun ovozlarni chiqarib bir narsa deyisholmasdi. Yo'ldagi bunaqa uchra-shuvning guvohi bo'lgan Granaturov bir marta Knyajko yo'qligida g'ashi kelib va tegajoqlik uchun leytenantimizning ta'bi judayam nozik yoki ayollardan qo'rqadi, suluv jonon bo'lsa «bekorga oyoqdan tolyapti», degandi.

– O'zingiz ilmoq tashlab qo'ya qoling-da, ayol zoti kapalakday gap, uhib qayoqqa ham borardi, o'rtoq katta leytenant, – maslahat berdi tajribali Mejenin kipriklarini pipirاتب. – Yoningda shunday farishta yurgandan keyin dovdirashning o'zi gunoh! Xudo ham kechirmaydi.

Qisqasi, Shpandad qal'asi yaqinidagi otishma payti Granaturov kuzatuv punktida tuproq tagida qolib, yengil kontuziya bo'lsa ham artilleriya polkining medsanbatiga tushib qoldi. Batareyaga bir haftadan keyin qaytdi. U hamon ilgarigiday do'rillar, ovqat yeyeverganidan yanada to'lishgan, yonida konservalar, armiyadagi tanish razvedkachilardan olgan uch shisha aroq keltirgandi. Granaturov darhol blindajiga batareya zobitlari va serjantlarini yig'ib, «oqpadar o'g'ilning uyga qaytishi»ni yuvdi. Shunda u zobitlarga, ichmaydigan Knyajkoga sinchiklab ko'z yugurtirdi, Mejenin xiralik qilib undan «medsanbatdagi u-bu narsa»lardan gapirib berishni iltimos qilganida Granaturov zobitlarga xushchaqchaq va taltaygan qiyofada qaradida, yasama kamtarinlik bilan do'rilladi:

– Noqulay-da, birodarlar, ishonmaysizlar-da, keyin aldadi, deb yurasizlar...

– Judayam qiynab yubordingiz-ku, o'rtoq katta leytenant! – shoshirdi Mejenin. – Biz ham ichkari tomonlarda bo'lganmiz axir! Nahotki uzilib qolgan bo'lsak?

– Birodarlar, sizlarga aytsam, bir ish bo'ldi, – Granaturov axiri majburday gapga tushdi. – Medsanbat nemislar shaharchasida joylashgan ekan. Frontning orqa tomoni, hammasi joyida, palatalarda elektr, issiqqina, choyshablar oppoq, ovqatlanish rejim bo'yicha, hatto o'lja qiyom va qahvadan ham berib turishardi, xullas, ertakdagiday yashardik, oldingi marradagi qiyinchiliklar yo'q! Kontuziyam esa yengil, yuraversam bo'lar, kurortda dam olardim hisobi. Medsanbatda desangiz, birodarlar, bitta juvon bilan tanishib qoldim, qaddi-qomati, ko'kragi, oyoqlari, o'ychan ko'zlari sizlarga aytsam, farishtaning o'zginasi, xuddi malika Tamaraga o'xshaydi. Ertalab kelib haroratimni o'lchaydi, «ahvolingiz qalay», «o'qishingizga kitob olib kelaymi», deb so'raydi, xullas, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiramiz. Bir kuni kechqurun u navbatchilikdan bo'shaganidan keyin kuzatib qo'ydim, o'zi nemislarning uyida turarkan. Bordim. Xonasi alohida, hammayoqda gilam, derazalarda parda, kattakon karavot, jimjitgina, uyning egalari churq etishmaydi, ovozlari ham eshitilmaydi. Hammayoq ozoda, charog'on va shinamgina. «O'tiring», dedi. O'tirdim, unga tikilib kallamni ishlata boshladim. U bo'lsa bufet oldiga borib keldi, qarasam, ichadigan narsa ham topilib qoldi, tibbiyot spirti bor ekan. Men ichdim, u bo'lsa, ichmasdan menga o'ychan qarab o'tirardi. Xo'sh, dedim ichimda, sharoit ma'lum, shundan keyin rasamadi bilan hech qanday tayyorgarliksiz hujumga o'ta qoldim. Albatta, u shivirlab, «yo'q, yo'q, kerak emas, meni tinch qo'ying, qo'lingizni oling», deganga o'xshash gaplarni aytdi, rangi quv o'chib ketdi, hatto tishlari takilladi, biroq o'zi meni karavotga tortib, tugmalarini yechardi... Yotganimizdan keyin chiroqni o'chirdim, u yog'i, birodarlar, ming bir kechaning xuddi o'zi bo'ldi. Dekameron! Shunaqa kitobni o'qiganmiding, serjant?

– Ishingiz tezgina bita qolibdi, o'rtoq katta leytenant, – Mejenin gumonsirab uning gapini bo'ldi, – juda kitobiy chiqyapti. Ayollar rosa qarshilik ko'rsatishadi, keyin kuch qarshisida taslim bo'lishadi. Sizda esa dabdurustdan...

– Bo'lmagan gap! Yolg'onni rosa qiyyapsiz, kombat, – Nikitin ham g'ashi kelib ishonmadi. – Buni medsanbatda to'qiganingizni bo'yingizga olavering. Bekorchilikdan to'qigansiz.

– Aldayapmanmi? – so'radi Granaturov tishlarini xunuk irjaytirib. – Demak, aldayapman-a? Marhamat, mana, suratini ham esdalikka beruvdi!

Granaturov shundan keyin gapga aralashmay o'tirgan Knyajkoga suyanganicha ko'zlari yonib, gimnastyorkasining cho'ntagidan surat oldi-da, stolning o'rtasiga tashladi.

– Endi nima deysizlar?

Rangida qon qolmagan leytenant Knyajko shartta o'rnidan turdi-da, jimlikda portupeyasini g'ijirlatib, o'ng qo'li bilan zumda biqinidagi qindan «TT»ni olgandi, Granaturov bamisoli filday bo'kirib yubordi: «Senga nima bo'ldi? Senga nima bo'ldi? To'pponchani qo'y, deyapman! Tashla!» Nikitin esa falokatning oldini olmoqchiday, Knyajkoga tashlandi. Stol Granaturov qo'llari bilan ushlagani uchun chayqalib ketib, shisha singani eshitildi, konserva bankalari orasidan nimadir oqdi. Nikitin shunda Knyajkoning go'daklarnikiga o'xshash qonsiz, keskin yuzini aniq ko'rdi. Uning oppoq oqarib ketgan lablari arang qimirladi:

– Menga qarang, katta leytenant, hoziroq qilmishingiz uchun kechirim so'ramasangiz itday otib tashlayman!

– To'pponchani joyiga sol, Andrey, eshityapsanmi? Joyiga sol, deyapman! – Nikitin xirqirab yana oldingi gapini takrorladi-da, g'azab bilan Granaturovga o'girildi: – Kechirim so'rang, kombat! Eshitdingizmi?

– Hazillashdim, dedim-ku, axir! Tushunmadingmi? – bo'g'ilib baqirdi Granaturov.

Knyajko hamon g'azabnok qiyofada Nikitindan chetlana turib qattiq jerkidi:

– Ahmoqona hazil! – So'ngra sal shashtidan tushdi shekil-li, to'pponchasini g'ijirlovchi qinga solgach, negadir sochini silab qo'yib, jadal tashqariga otildi.

Blindaj suv quyganday jimib qoldi. Keksa serjant Zikin qovog'ini uyub tizzasi ustida tamaki o'ramoqchi bo'lar, ammo uddalolmasdi. Zobitlar mojarosi paytida hatto pinagini ham buzmagani Mejenin ichkilik isrof bo'lganiga achinardi shekilli. U nuqul iskanar, ochiq konservalarga qarab-qarab qo'yardi. So'rida o'tirgan Granaturov entikib dastro'moli bilan ter bosgan yuzini arta boshladi. Uning chakka soqollari, yo'g'on bo'yni, harsillab nafas olishi shu topda Nikitinga judayam xunuk ko'rinib ketdi.

– Hezimchalishday nimaga yolg'on gapirdingiz, kombat? – deb so'radi Nikitin jahl bilan. – Bunga sizni nima majbur qildi?

– Esini yebdi!.. Tentak... – dedi Granaturov tomog'iga kelgan kulginimi, yig'inimi ichiga yutib. – Bolalik qilganini qarang-a!

– Mana shunday qahramonlarcha o'lib ketaveradingiz, o'rtoq katta leytenant, – deb qo'ydi Mejenin o'zicha konserva bankani kovlab. – Aroqni isrof qilganimiz chakki bo'ldi-da.

– Knyajkoda nima qasdingiz bor edi, kombat? Nima qilardingiz yolg'on gapirib? – Nikitin stoldagi namiqqan rasmni oldi. – Hech qanday yozuvi yo'q-ku. Demak, uni sizga esdalikka bermagan.

– Buning sizga daxli yo'q, aralashmay qo'ya qoling! – Granaturov achchig'i kelib suratni Nikitindan tortib oldi. – Leytenant Knyajkoning bunaqa ishlarda qanaqaligini bilasizlarmi? Itlik qiladi, o'ziyam yemaydi, birovgayam yedirmaydi. O'sha ayolning boshini aylantirishga aylantirib qo'yib, mana endi o'zi chap berib yuribdi. Mayli! Xotin kishi deb g'ijillashib yurmayman, sizlarni laqillatdimmi yo laqillatmadimmi, bu sir sirligicha qolaversin! – Granaturov burnini kerib nafas oldi-da, suratni shart-shart yirtib, stolga otdi. – Hammangiz ham ziyolinamosizlar o'zi! He, avliyoliklaringdan o'rgildim!

...Birinchi vzvod komandiri bilan batareya komandiri g'ijillashib qolishgani Nikitinning ko'zini ancha-muncha ochib qo'ydi. Ular hozir g'ijillashishmasa ham keyinchalik to'qnashishlari turgan gap edi. Knyajko Granaturov oldida Galyaga quruqroq muomala qilar, Galya esa bunga churq etmay chidab ketaverardi. Nikitin bundan va hozir aqli bovar qilmayotgan bo'lak narsalardan ham taajjubda edi...

– Yo'q, o'rtoq katta leytenant, – odatdagiday o'jarlik qila boshladi Knyajko. – Tibbiy xizmat katta leytenanti Aksenovani kuzatmay qo'ya qoling. Meni xursand bo'lsin desangiz, o'tirib karta o'ynang.

– Yo tavba, nimalar deyapsiz? – xitob qildi Galya kulib. – Buning biror ahamiyati bormi?

– Obbo, batareyamning mushketyorlari, mushketyorlari-ya! Atos, Portos va... uning oti nimaydi? Menga shuncha buyruq berganlaring yetar, judayam taajjubga soldinglar o'zi! – Granaturov to'satdan samimiy xaxoladi. – Sizga aytib qo'yay, leytenant Knyajko, juda katta tikadi. Qo'liga tushib qolsangiz bormi, dodingizni xudoga aytaverasiz!

– Topdingiz, katta leytenant. O‘yin katta bo‘lyapti, bankka ur-yapman, – deb qo‘ydi Knyajko ohista. – Qancha pulingiz bor, Me-jenin?

Mejenin kartani chiylarkan, reyxsmarkalar uyumiga ko‘zini qisib chamaladi.

– Sakson besh ming, o‘rtoq leytenant. Biryo‘lasigami? Hamma-sigami? Meni bittada qulatmoqchimisiz?

– Hammasiga olaman, dedim-ku!

– Yutvolaman, deyapsizmi?

– Umidvorman.

«Yutadimi yo yutqazadimi, unga baribir-ku», degan fikr kechdi Nikitinning xayolidan. So‘ngra u Granaturovga, keyin Galyaga ilhaq tikildi. Oradagi sovuqchilik tufayli Knyajko va kombatning gaplari qovushmayotgani ko‘rinib turibdi. Nikitin yana shuni ham yaxshi bilardiki, Granaturovning tamoman aksi bo‘lgan Knyajko sharoit ta-lab etsa boshqalarga ham, o‘ziga ham o‘zini beozor maynavozchi, royish, yon bosadigan qilib ko‘rsata olmasdi. Bu uning ham afzal, ham zaif tomoni edi.

«Nahotki u hozir ham o‘z irodasini sinab ko‘rayotgan bo‘lsa?»

Nikitin Knyajkoni dastlabki tank hujumlari payti to‘plar yoni-da besh daqiqacha tik turib yaqinginadagi snaryad oskolkalari bosh uzra chiyillab o‘tishidan ham cho‘chimay, rangi o‘chgan ko‘yi tank-larning o‘q uzishini kuzatgani, ana shu tushunarsiz qaltis tavakkal-chilik bilan vzvodning ko‘z oldida taqdirini sinaganini ko‘rgandi. Uning komandir handag‘iga sakrab tushib, telefonda raschyot a‘zolari to‘plar oldida tanklarga nishon bo‘lib turishmasin, deb ba-qirishi ham g‘alati edi. Knyajko shundan keyin Nikitinga, endi qo‘rqmay qo‘ydim, degan va to‘jang tugagunicha o‘zini xotirjam tut-gandi.

Galya bo‘shashibroq:

– Men ketdim, yaxshi qolinglar, artilleriyachilar, – dedi-da, buk-langan plash-palatkasini yozib, yelkasiga tashladi. – Granaturovni qoldiraman. Hammasi joyida bo‘ladi. Medsanbat olis emas.

– Galochka! – masxarabozlarday iztirobli qichqirdi Granaturov. – Nima qilyapsiz o‘zi? Chiroyli rus qizi... kechasi bir o‘zi-ya? Bego-na shaharda-ya?

– Men hech nimadan qo‘rqmayman, Granaturov. Nemislar rus vrachlariga tegishmaydi. Yaxshi yotib turinglar, artilleriyachilar.



Galya hammaga qarata «yaxshi yotib turinglar», degan bo'lsa ham Nikitin Knyajkoning bema'ni karta o'yinidan bosh ko'tarib, Galyaga qarashini, loaqal bosh irg'ashini istardi. Ammo buning o'miga Knyajko Mejenin ketma-ket tashlayotgan kartalarga tikilardi xolos. Leytenant Knyajko Granaturovning yaltoqlanib do'rillashlarini ham, Galyaning kalakaomuz javoblarini ham go'yo eshitmas, yarashikli zobitcha formasi bilan boadab, qobiliyatli boladay stol yonidagi sigareta tutuni orasida o'tirar, abajurning ko'k shu'lasini farqi qiyshiq, silliq taralgan sochi, qattiq tortilgan portupezasi, Berlin olingandan keyin taqqan yangigina pogonlarining kumush yulduzchalarida o'ynoqlardi.

– Kelib turing, Galya, – dedi Nikitin Knyajkodan jahli chiqib. Keyin Galyani eshikkacha kuzatib qo'ydi.

Galya ostonada to'xtab, plash-palatkasining bog'ichlarini bog'ladi, pilotkasi tagidan osilib turgan qora sochlari yuzini yanada oppoq ko'rsatar, lablari gunohkorona va ma'sum cho'chchayardi. U eshitarlar-eshitilmas arang:

– Meni bu yerda faqat sizgina yaxshi ko'rasiz, leytenant, – deb qo'ydi.

Nikitin Galya bu so'zlarni o'z ma'nosida emas, boshqacharoq, ma'yus, do'stona va minnatdor ohangda aytganini fahmladi-da, qovog'ini uyub beso'naqaylik bilan yo'lak eshigini ochdi.

– Kelib tursangiz xursand bo'lamiz, Galya.

– O, judayam ajoyib jonivor-a! Qayoqdan kelib qoldi bu? – Galya ostonaga hatlayotib plash-palatkasining etagini qayirdida, qorong'i xonalardan askarlarning xurraklari eshitalayotgan yo'lakning naryog'ida kulcha bo'lib yotgan siyrak jun, ko'zlari uyquli mushukni chaqqon qo'lga oldi. – Bu kimniki? Nemislarniki-mi? Qanday yaxshi-ya! Jonivorlarni ko'rmaganimga ham yuz yil bo'ldi shekilli!

Galya qorin junlari siyrak, oyoqlari ingichka, yoruqqa dosh berolmay qora ko'zlarini ochib-yumayotgan mushukni qo'lida go'dakday ko'tarib turardi. U kulib mushukning tumshug'ini yuzi, chiroyli qora sochlariga bosgach, asta Nikitinga murojaat qildi:

– Bechora xurillayapti, yo tavba, bunchayam ozg'in, qovurg'alarini qolibdi xolos... Yaqindagina bolalagan bo'lsa kerak-da. Bolalari bormi? Yo so'qqaboshmi? Daydimikin?

– Qaydam, – javob qaytardi Nikitin. – Uni ertalab leytenant Knyajko keltiruvdi. Menimcha, hovlidan olib kirdi shekilli.

– Leytenant Knyajko! – dedi Galya hamon mushukni silab-siy-palarkan, ovozi ancha jonlanib. – Manavini medsanbatga olib ket-sam maylimi?

– Nemislar isqirtini nima qilasiz? – Nikitin shunday degandi, uning ovozini Granaturovning yasama darg'azab do'rillashi bosib ketdi:

– Shu taviyani-ya? Medsanbatgami? Sanqilarni hurmat qilarkansiz-da?

Stol yonidan turgan Granaturov etigini g'ijirlatib Galyaga yaqin-lashdi.

– Qo'ying bu la'natini, Galochka, – dedi u keyin muloyim ovoz-da. – Hamma yoqni burga bosib ketadi, o'laksa-ku axir, rangi qur-sin!

– Xo'sh, ruxsat berasizmi yo yo'qmi, leytenant? – so'radi Galya. Uning ko'zlarida ranjish alomati paydo bo'lib, mushukni siypala-yotgan qo'li ham sekinlashdi. Knyajko indamaganidan jahli chiqqan Nikitin shartta javob qaytardi:

– Oling, olavering, sizga yoqqan bo'lsa, so'rab ham o'tirmang.

– Burgali taviyani tashlang, dedim sizga, – muloyimgina do'rilladi Granaturov tishlarini yaltiratib. – Xo'p desangiz, ertaga razvedkachilarim qopchiqlarida butun shahardagi eng zotdor mu-shuklardan besh-o'n, yigirmatasini keltirib berishadi. -

– Rostdanmi? Yigirmatasini-ya? Yuztasining iloji yo'qmi, o'rtoq katta leytenant?

– Buyursangiz bas, bajariladi. Nemislarning yuz xil mushugi po-yingizda bo'ladi, Galochka! Medsanbatda boqsangiz, birorta ham sichqon qolmaydi.

Galya boshini ko'tarib, Granaturovning yarqiroq tishlariga qaradi-da, mushukni shartta yerga qo'ydi-yu, burmini jiyirdi: «May-navozchilikni bas qilsangiz-chi!» Keyin apil-tapil plash-palatkasiga o'ralib uyqudagi askarlarning alahsirashlari eshitilayotgan dim va qorong'i yo'lakka chiqdi. Nikitin Galyaning ketidan hovlida-gi yo'lka orqali darvozagacha indamay ergashib bordi. Soqchining yonidan o'tayotganida askar esnoq aralash: «Leytenantmisiz?» deb qo'ydi. Hali oy ko'tarilmagan, ibodatxonadan nari bog' ortidagi

kunchiqar tomonga qarag'ay shoxlari oralab picha yog'du tushardi. Siren isi ufuruvchi panjara yoniga kelganlarida Nikitin yana bir mar-ta taklif qildi:

– Medsanbatgacha kuzatib qo'yaymi?

– Sirayam hojati yo'q. O'zim yetib olaman. Qani ayting-chi, kimdan va nimadan qo'rqishim kerak?

Galya Nikitinga o'girilib yaqinroq keldi. Ana shu sokin tun qo'ynida qizning yuzi, oppoq yonoqlari va qop-qora sochlari Niki-tinga judayam yaqin turgani uchun u tag'in bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin bo'lmagan «nimanidir» esladi. Ana shu «nimadir» bir paytlardagi kun bo'yi o'ftob shimgani uchun qizigan hid taratuvchi taxta devorlar ko'lankasi tushgan, hovlilardan aprel hovuri kela-yotgan qandaydir ko'chalar o'rtasida turganidagiday qulog'i ostida yoqimli jarangladi. Nikitin shirin yutinsa-da, tili aylanmay qolgan, shuning uchun loaqal: «Xayr, kelib turavering, Granaturovga par-vo qilmang» ham deya olmadi. Qiz chaqqon ko'zlari bilan Niki-tinning yelkasi osha cherkov ortidagi qarag'aylar uzra qizarinqirab ko'tarilayotgan oyga tikilardi.

– Qanday tun-a... esingizdami? «Yulduz so'zlashur yulduz bi-lan...» «Xush kelar xudoga sukunat-u cho'l...» – dedi Galya shivir-lab. – Uyimizdan juda uzoqlab ketdik-a... Hammasi naqadar hazin. Qolaversa, o'zim ham juda tentakman-da! Menga hech qanday yor-dam bera olmaysiz-ku, to'g'rimi? Men bo'lsam buni sira ham bil-mas, undan achchiqlanar, ustidan kulardim. Naqadar bema'nilik, tavba! – Galya plash-palatkasining bog'ichlarini tortdi. – Hechqi-si yo'q, leytenant, bu judayam yomon, biroq hissiyotimni tiyaman, rohibalarday och-nahor yuraman, ertalablari ustimdan sovuq suv quyaman... Qora non yeb ozaman. Tiz cho'kaman. Shunisi borki, meni qizaloqligimdan ibodat qilishga o'rgatishmagan, mana shunisi chatoq-da!.. Endi nima qilaman? Nima qilishim kerak? Alam ustida Granaturovga ko'ngil qo'yaymi?

Galya g'alati, chuqur alam bilan kuldi. Nikitinning nazarida qoshlari titrab kulayotgan Galya obidiyda qilayotganday tuyulardi. Qizning qorong'ilikda chaqnayotgan ko'zlarida yoshdan asar yo'q, hozir u boshiga ishqning kulgili emas, balki nogahoniy savdosi tush-gan boshqa birovning holiga kulmoqchiga o'xshar, o'zi ham shun-day ko'yga tushajagi ilgari xayoliga ham kelmagandi.

«U nega men bilan bunday oshkora gaplashyapti?» ko'nglidan o'tkazdi Nikitin Galyaning o'sha ochiqligi va zo'rma-zo'raki, yig'i aralash kulgisidan xijil tortib.

– Buni men tushunmayman, – dedi Nikitin.

– Tushunmaydigan nimasi bor? Umuman, tushunish shartmikin? Oh, sizga qayoqdagi bo'lmag'ur narsalarni gapirdim-a, leytenant, – dedi Galya boshini orqaga tashlab. – O'zim aybdorman... Borib karta o'ynayvering. Ayolning arzimas oh-vohidan o'sha durust, Nikitin. Yaxshi yotib turing.

– Xayr, Galya. Ertaga keling.

– Va'da berolmayman, leytenant. Ko'raman.

Nikitin sirenlari osilib turgan panjara yonidaplash-palarka yo'lkadan uzoqlasha boshlaganini ko'rdi, etik poshnalarining ovozi hali tosh to'shamalarda aniq g'ijillardi. Shundan keyin Nikitin ko'cha eshikni yopdi-da, hayallaganimni qanday tushunisharkin, deb o't bosgan tor yo'lkadan soqchiga yaqinlashdi. Mudroq soqchi uy yonida og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga tashlab esnar, yo'talib qo'yardi. Nikitin unga buyruq ohangida dedi:

– Soqchi, hozir katta ko'chaga chiqing-da, vrach Aksanova med-sanbat chorrahasiga yetib olgunicha ehtiyot shart picha qarab turing.

– Tushunarli, o'rtoq leytenant. – soqchi chim ustida ketayotib tomoq qira-qira, uyquchan g'o'ldiradi. – Zap kecha bo'ldi-da, yulduzlar o'zimizning Rossiyadagiday chaman, oy ham chiqyapti. Bunaqa kechada askar bo'lmasang, xayolga har xil narsalar keladi...

– Nima? – so'radi Nikitin.

– Bunaqa kechada qishloqni aylanish kerak. Qizlar qo'shiq aytishadi, dalalar sokin, faqat qiziloyoq ovozi eshitiladi... Uyga qaytsak bo'lardi-da. o'rtoq leytenant! – xiyla jim qolib ovozi susaygan soqchi shirin orzuga berildi. – Mana, soqchilikda turibman-u, o'ylayapman: yaqinda tugashi kerak, hazilmi bu? Germaniyaning markazidamiz, uyga qachon qaytarkinmiz? Eh, oy juda chiroyli chiqyapti-da, – soqchi daraxtlar uzra yorishayotgan va qizarayotgan osmonga tikilib davom etdi: – Bahor-a... uyga qaytsak bo'lardi, uyga...

«Ha, ha, Germaniyadamiz, hozir bahor, – deb o'yladi Nikitin. U o'tgan ana shu kunlar ichida birinchi marta kishini bolalikdagi quvonch yoshlari singari yengillashtirib, tiniqlashtiradigan navqironlik

zavqi ta'sirini aniq va ayon sezgandi. – Ha, ha, albatta, bahor, urush ham tugaydi!»

Qorayib ko'rinayotgan ibodatxonaning chap tomonidan chiqqan oy qarag'aylar uzra tutunsiz alanga tiliday yuz ko'rsatdi-da, yuksak jomxona oynalarida akslandi, tosh devorlar, temir panjaralarni yoritdi, ko'chalarga ajib, bog' qorong'iligini quyuqlashtirgan tiniq ko'kimtir shu'la yog'ildi, cherepitsa tomli yon uylarning hovlilariga harir moviy parda tashlangandek bo'ldi. Nikitin turgan osuda hovli ham, eshikkacha ketgan g'ira-shira yo'lka ham maysa islari anqiyotgan salqin havoda tosh qotgandi.

«Yaralanmadim, tirikman, nima bo'lmasin, Berlinda vzvodimning omadi keldi, qolgani esa arzimagan narsa. Hammasi yaxshi, hammasi joyida, mana, Germaniyada bahor, urush tugashiga yaqin qoldi, nemislar shahridagi manavi oydin kecha qanchalar soz, yigirma yoshdaman, hali ko'rolmagan ko'p narsalarni ko'ramiz», deb o'yladi Nikitin Galyani tashqari eshik oldida kuzatgandagidek ajib holatga tushib.

Nikitin hozir yoshlik zavqi ta'sirida bo'lgani uchun hamma narsa ko'ziga yaxshi ko'rinar, qalbi mehr-u muhabbatga to'liq edi. Bolalikning oltin chog'larida bir marta o'ziga nasib etgan baxtiyor onlar tez orada yana qaytib kelishi, qalbidan muhabbat joy olishiga ishonardi. O't-olov ichidagi, notanish, yarim-yorti vayron qilingan, shafaq tomplarini yoritib, to'plar o'tayotgan ko'chalardagi qizil tosh to'shamalarda akslanayotgan shaharlardan o'tganlarida yoki yomg'ir shivalab turgan tumanli havoda o'rmon chekkasidagi chorbog'li yolg'iz uy elas-elas ko'zga tashlanganida urush raxna solib turgan quvonchli damlarga tezroq yetishish istagi yanada jo'sh urardi. Ko'zga elas-elas tashlanadigan boyagi yolg'iz uyda esa o'tmishdagi kunlarda sira ixlosi qaytmagan kimdir borday, shuningdek, qirmizi yuzli ayollar ham yashashayotganday tuyular, rohatijon bu maskandagilar uni quchoq ochib kutib olishlariga ishonardi.

Nikitin o'shanda yomg'irning kapyushonga urilishi, loyning chilp-chilp qilishi, to'p g'ildiraklari ovozlarni eshitib borarkan, bolalik paytida ko'rgan tushi ko'z oldiga kelaverardi. Tushida qandaydir bir xayoliy poyezd kunbotardagi zarrin cho'lda qalin maysalar oralab ketayotganini ko'rgandi. O'zi bo'lsa, ko'kimtir shu'lalar ajib holda yoritgan vagonda, xushbo'y shabada urilayotgan ochiq deraza



oldida turganmish, oppoq, tiniq, musaffo nimanidir sezayotganday bo'larmish. Ko'ziga ertaklardagiday ajib va bo'm-bo'sh cho'l, qalin maysalar orasida vahimali o'sgan sariq gullar, botayotgan quyosh za'faron tusga kiritgan olis ufqda binafsharang ko'rinayotgan sohilda o'sgan xurmolar qatori sirli shaharlar qorasi ham ko'rinarmish. Ular naqadar rohatijon tuyulayotgani uchun armondan chiqquncha to'yib yig'lagisi kelarmish. Bunaqa cho'l aslida bo'lmagan, o'zi ham bu tushni qachon ko'rganini eslayolmasdi. Shunga qaramay, uni o'zi yetisha olmagan qandaydir ajib bir narsaday eslab, ko'z oldiga keltirib yurardi.

## TO'RTINCHI BOB

Bu orada karta o'yini ham tamom bo'ldi. Terlab ketgan, yutqizgani uchun o'ziga kelolmayotgan Mejenin reyxsmarkalarni o'lganining kunidan Knyajko tomon to'dalar, u bo'lsa barmog'ini kamariga suqqanicha stuli bilan birga qimirlab, tepaga, lampamoy chiroqning soyaboniga tikilardi. Katta leytenant Granaturov bo'lsa gimnastyorkasi yoqavayron qiyofada qandaydir kuyni g'ing'illab, oyog'i bilan polni tapillatar, tumbochkaga batareya jangchilari Polshadayoq o'lja qilgan patefonni o'rmashtirardi. Navbatchi aloqachi kitob javonlari tagidagi pastak stolda dong qotib uxlar, yuzi dala apparatiga qo'yilgan pilotkasiga botib ketgandi.

– Kuzatib qo'ydingmi, ishqilib? Xo'sh, qalay, Nikitin? – so'radi Granaturov gumonsirab. – Zo'rsan, zo'rsan, mushketyor! Zimdan ishingni bitiryapsan!

– Tushunmadim, – dedi Nikitin. – Uni ko'cha eshikkacha kuzatib, picha ochiq havoda turdim. Shahar jimjit, tun ajoyib. Patefonga buncha yopishmasangiz, kombat? Hamma uxlayapti, askarlarni uyg'otib yuborasiz...

– Ularni musiqa tugul «Katyusha» otib ham uyg'otolmaysan! Xurraklari naq beshta patefonni bosib ketadi. Uyg'onishar emish-a! Hechqisi yo'q, ashula allalasa qattiqroq uxlashadi, – Granaturov bo-yagiday oyog'i bilan polga depsib plastinka tanlashga tushdi. – Bu yerda polyakchasiga... «Vecherna godina» deyilibdi, demak, bu oqshom payti, degani bo'ladimi? Bunisi qalay, Nikitin, yomon emasmi? Tango yo kayfiyatga bopta dil yayratar bo'lsin-a. To'g'rimi?

– Shuni qo‘ying, – Nikitin shunday deya kamin oldiga kelib, farishtalarning haykalchalarini siladi. – Durust bo‘ladi.

Granaturov igna tegishi bilan vishillay boshlagan plastinkani qo‘yib charm kersloga yastangandi, prujinalarigacha g‘ijirlab ketdi. U kresloda o‘rmasgach, yarador qo‘lining dokasini picha bo‘shatdi, oyoqlarini cho‘zib, Knyajko bilan Nikitinga tishlarini yarqiratgancha sho‘xchanlik bilan gapirdi:

– Ahvolimiz yomon emas-a, slavyanlar. Hashamatli uy, pivo, urush dag‘dag‘asi eshitilmayapti. Eh, zo‘r-a, birodarlar! Sizlarga aytsam, janob rus zobitlari, biz yaxshilab dam olishga haqlimiz, omadimiz bor ekan, mana, omon qoldik, Rossiyaga qaytsak, qaytgudekmiz. Eng muhimi to‘rt muchamiz sog‘. Yana bir oygina mana shunday dam olib, yayrab, orqaga, Smolenskka, jonajon qayinlarimiz yoniga qaytsak qani edi! Eh, hammasi zo‘r, birodarlar, zo‘r! Mejenin, – qichqirdi u, – qani, manavi kaminni bir oqsuyaklarga o‘xshatib yoqaylik-chi! Bu yerda o‘tin-po‘tin topilarmikin? Olov ham musiqa yangrab turganda xo‘p yonadi-da. Yayrashga haqlimiz, birodarlar! – dedi Granaturov yana boshini orqasiga tashlab, musiqaga monand kreslo suyanchig‘ini barmog‘i bilan chalarkan.

– Musiqa bor-u, tansa bo‘lmayapti-da, – Mejenin reyxsmarkalarning hammasini Knyajko yonidagi stol chekkasiga to‘dalarkan, yutqizgani alam qilgani uchun ovozi arang chiqardi. – Haqqi halol, pul sizniki. Omadingiz keldi, qoyil qilib yutib oldingiz. Bularni nima qilasz?

Knyajko boyagiday stulda loqayd tebranib, musiqaga beparvo quloq solar, qarshisidagi bir nuqtaga tikilardi. U xiyla jim turganidan keyin javob qildi:

– Kaminga tashlang. Yoqing.

– Tushunmadim, o‘rtoq leytenant.

– O‘shanda tinchroq bo‘lasiz. Mejenin. Kaminni reyxsmarkalar bilan isitishga urinib ko‘ring-a, – dedi o‘ychan qiyofada Knyajko. – Men afsonaviy boyligimni kuydiraman. Sizdan yutib olgan boyligimni.

– A-a, shunga qaror qilibsiz-da. Shayton yo‘ldan urmasin, deganday, a? Bizga nima-ya? Yoqaveramiz! Buyurilsa bas!

Mejenin g‘alati rozilik bilan kamingacha bo‘lgan oraliqni o‘lchab ko‘rib, uning temir panjarasiga reyxsmarkalarni ildam uloq-

tira boshladi. Keyin zajigalkasini kamindagi pul to'dasiga yaqinlashtirib, chekka-chekkalaridan tutashtirdi. O't tekkan pullar oldiniga sekin qimirlab, chekkalari bukilib, qoraya boshladi-da, so'ngra birdan lovullab yonib, Mejeninning alamli yuzini yoritdi.

– Mana yana, – Nikitin qopda qolgan reyxsmarkalarni oyog'i bilan surib keldi. – Hammasini o'tga tashlang.

– Balki, ehtiyoti shart ozrog'ini olib qolarmiz? Nima dedinglar? – Mejenin umidvorlik bilan kitob javonlari tomonga ko'z qisib qo'ydi. – Mana, qancha yoqilg'i, bir yilga yetib, ortib ham qoladi.

– Aytganni qilavering, serjant. Hamma pulni kaminga tashlang.

– Eh, sizlarni yaxshi ko'raman-da, janob rus zobitlari, – dedi Granaturov yumshabroq. – Sizlarni yaxshi ko'raman va hurmat qilaman, shaytonlar... Birodarlar, plastinkani bunday xotirjam eshitaylik. Picha shovqin solmay turinglar.

Xonani tutun, achimsiq kuyundi hidi tutib, oyoqlarga olov tafti urila boshladi. Kaminning temir panjarasida olov girdoblari ko'paydi, stol tepasida soyabonli xonaki chiroq yonib turgani uchun, kamindagi olov shu'lasiga qo'shilib, javonlardagi kitoblarning qirrasini oltinday tovlanar, uyga sukunat cho'kkan, siyqa plastinka vishillab aylanar, undan ayol kishining begona tilda aytgan ashulasi yangrardi. Ashulada hijrondan keyin kechki paytdagi alamli va quvonchli sog'inch onlari, intiq uchrashuvni kutish haqida kuylanardi. Chuvak yuzli leytenant Knyajko stuli bilan yengil chayqalar, qorato'ri, chakka soqollari qiyshiq o'stirilgan, xayolga berilib, kresloda cho'zilibroq o'tirgan Granaturovni ham Nikitin bir lahza qayerdadir ko'rganday, qayerdadir birga bo'lganday, ikkovini ham ko'p, juda ko'p zamonlardan, ming yillardan beri bilib, shunday divanli, kitobli, oynaband soyabonli begona xonada birga o'tirishganday bo'ldi. U Granaturovni patefon tomondan ayol kishining yangrayotgan dardli ovozi yaqinidan doka bilan bog'lanib bo'yniga osilgan qo'lini ham ko'rar, Knyajkoning ko'zlari esa o'ychan, cho'nqayib o'tirgan Mejenin esa qopdagi reyxsmarkalarni olib, kaminga tashlab turardi.

Nikitin avvallari ham ikki marta xuddi shunday ahvolga tushganini bilardi. Shundaymidi yo shunga o'xshashmidi... Qayerda? Qachon? Biroq u kitoblari va kamini bo'lgan nemis xonadonini, o'tin o'rniida pul yongan, go'yo bir daqiqqa muqaddam shahar ko'chalarida

jang tugab, olam tinchiganday, banogoh tun cho'kkan benihoya so-kin bunaqa joyni umrida ko'rmagandi...

Ayol ovozi polyak tilida kechki payt yorini kutgani, u esa kel-magani haqidagi ashulasini tugatgan, akkordion ovozi ham tin-gan, faqatgina aylanayotgan plastinkaning vishillashigina eshiti-lardi xolos. Hech kim churq etmasdi. Kamindagi alanganing qizil tillariga qarashar, bunaqa chuqur sukunatni tun paytida ilk marta ko'rishayotganday bo'lishar, shu vajdan ham u urushdan o'nlarcha kilometr narida huzurli ikki kuni bilan zimdan mug'ambirona sinab ko'rayotgan taqdir qilvirligi soxta umid singari xavotirli edi. Plas-tinka aylanishi to'xtab, igna ham g'ijirlamay qo'ydi. Shundan keyin olov yonishi, Mejenin kamin panjarasiga indamay tashlab turgan va yonib bo'lgan qog'ozning ohista shitirlashi eshitildi. Birinchi bo'lib ko'z ochgan Granaturov qo'lining dokasini tortib qoshlarini o'ychan chimirdi, tebranayotgan Knyajko tun sukunati chulg'agan derazalar-ning pardalariga savolchan qarardi. Oydinli kechalarda oldingi mar-ralarda bo'luvchi sehrli tinchlikni eslatuvchi chuqur sukunat hukm-ron bo'lib, Nikitin soqchining deraza tagidagi qadam tovushlarini ham eshitmay qolgani uchun: «Uxlab qolmaganmikin ishqilib?» de-gan xayolga bordi.

– Nima gap o'zi? Uyda kim izg'ib yuribdi? Soqchi biror nar-sa izlayaptimi? – sezgisi o'tkir va qulog'i ding Mejenin kamindan zobitlar tomonga xavotirli qaradi. – Zo'r sukunat bo'ldi-da. Xuddi go'ristonda o'lik yurganday...

– Soqchini tekshirib ko'ring-chi, Mejenin, – dedi Nikitin, – bo'lmasa, xonadondagilarning bari qirib tashlanganga o'xshaydi. Jumladan soqchi ham.

– Hozir tekshiraymi?

– Hozir. Chiqib ko'ring.

Mejenin endi tashqariga chiqqan ham edi, Knyajko o'rnidan tu-rib, belidagi to'pponchasini to'g'rilagach, qaddini odatdagiday chi-royli rostladi-da, Nikitinga jiddiy dedi:

– Men ham vzvodga boray endi. Soqchilar har kecha tekshirib turilsa zarar qilmasdi.

Hamon huzur va zavq og'ushida bo'lgan katta leytenant Grana-turov kreslodagi bahaybat gavdasini qimirlatib kerishgach, olijanob-lik bilan javob qaytardi:

– Sabr qil, Knyajko. Soqchilarga hech balo urmaydi. Ketsang, zerikib qolaman. Xudo ursin agar! Ulfatchilik hurmati o'tiraylik. Meni uncha xush ko'rmasligingni bilsam ham seni yaxshi ko'raman, leytenant. O'tgan gap-so'zlarni eslagan nomard! Birodarlar, yana bitta dil yayrataridan qo'aylik...

Granaturov gapini tugatolmadi... Yuqoridan, ikkinchi qavatdan yugurganlar dupuri, bo'g'iq qichqirishlar eshitildi, yuqoridagi eshik taraqladi, keyin qalin, paxtali narsa bilan to'silganday ovozlar eshitilmay qoldi. Knyajko shiftga bir qarab qo'yib xotirjam, ko'm-ko'k ko'zlarini Nikitindan uzmay gapirdi:

– Menimcha, slavyanlaringga bir nima bo'lganga o'xshaydi... Eshitmayapsanmi?

– Odamlaringdan birortasi tekin o'lja deb shnapsdan ko'proq tortib qo'ymovdimi? – so'radi Granaturov bamaylixotir. – Oynalarni sindirishmasmikin, jin urgular?

– Bema'ni gap! U yerda nima ham bo'lishi mumkin! – yelka qisib qo'ydi Nikitin. U ikkinchi qavatda, mana shu kabinet tepasidagun joy o'zining xonasi ekanligini yaxshi bilar, vzvoddagilardan birortasi ham yaqin yo'lamas va yo'qligida bekordan-bekorga u yoqqa kirmasdi ham. – Sabr qil, qarab kelay, keyin seni kuzatib qo'yaman, – Nikitin Knyajkoga shunday dedi-da, tepadagi shovqin va ovozlardan o'zi ham xavotirlanib eshik tomon yurdi.

Yo'lak tinch, qorong'i bo'lib, daraxt va etiklarning hidi kelar, quyi xonalardan askarlarning qattiq xurraklari, uyqudagi vzvodning tamshanishi va alahsirashlari eshitilardi-yu, ammo ikkinchi qavatdan, boloxonadan na qadam tovushi, na shitirlash quloqqa chalinardi. Yo'lakning oshxona yonidagi kichik xonadan boshlanib, boloxonaga olib chiqadigan aylanma zinapoyasi ham osoyishta ko'rinardi.

– Mejenin! – Nikitin qorong'i quyi xonalar tomonga qarab tusmollab chaqirdi. – Qayerdasiz?

Javob bo'lmadi.

Nikitin jahli chiqib picha kutdi, so'ng omonatgina aylanma zinanani paypaslab, ikkinchi qavatga ko'tarila boshladi. U zinaning qorong'i maydonchasida to'xtab, boloxona sukunatiga quloq soldi.

Bir daqiqa o'tar-o'tmas qulog'iga qandaydir cho'ziq, ma'rashga o'xshagan, zaif ingrash eshitildi. Bu ovoz xonaning ichidan kelar, qandaydir olishuv, «Ahmoq, ovozingni o'chir, rasvo ekansan!»



degan hirqiroqli shivirlash ham yangrardi. Nikitin bu yerda nima bo'lyapti-yu, kechasi xonasiga kim kela olishiga tushunolmay yuziga qon tepib, boloxona eshigini tortdi.

– Kim bor? – deb qichqirdi u.

Keng oynadan tushayotgan oy yog'dusi xonaning yarmi-ni yoritib, ochiq kiyim javonining oynabandli eshigida akslanar, ag'darilgan vena stuli yonida g'ijimlangan kiyimlar uyulib yotar, boloxona ichkarisidagi karavotda prujinalarni qisirlatgancha qandaydir gavdalar olishardi. Nikitin birinchi ko'rgan narsa oppoq ayollar tizzasiga o'xshagan nimadir bo'ldi. Oydinda bu tizza adyolga burkani-burular, par ko'rpaning chekkasi polga sirg'alib tushgani uchun ochilib ketar, ustidan kimdir bosib yotgan yostiq tagidan kelayotganday bo'g'iq ovozlari eshitilardi:

– Nein, nein, nein!..<sup>1</sup>

– Kim bor o'zi, jin urgur!..

Nikitin bo'sh boloxonaga nemis ayolni olib kirgan vuzvodimdagi askarlarimdai bitta-yarimtasini ko'rib qolaman, degan dahshatdan tutoqib, karavotga tashlandi-da, qorong'ida kimningdir keng yelkasidan qattiq tortdi. Keyin Mejeninni o'rindan ko'chgan katta jussasi va xirqirab so'kinayotgan ovozidan tanib qoldi. Mejenin oy nurida Nikitinga qo'rqinchli ko'rindi. Uning sarg'imgir yuzidagi ko'zlari sovuq chaqnar, og'zi qorayib turar, hars-hurs nafas olardi. – Mejenin! – darg'azab qichqirdi Nikitin. – Bu nima qilganing? Esing joyidami?

– Yopishma, leytenant... xalaqit berma, leytenant... – Mejenin takining nafasni bo'g'uvchi hidini burqsitib, Nikitinga xirilladi. – Yopishma!.. Ket! Nima ishing bor, leytenant? Bu yerdan ket... Ket. Yaxshilikcha aytyapman!

Mejeninning ana shu sovuq va xunuk qarashida, telbasifat g'o'ldirashida qandaydir razolat, hayvoniylik bo'lgani uchun nafrati qo'zigan Nikitin uni bor kuchi bilan karavotdan nari itarib o'shqirdi:

– Esing joyidami? Bu nemis ayol kim? Qayoqdan? Bu yerga qanday kelib qoldi?

– Josus la'nati, uyga kirib qopti... – hushini yig'ib olgan Mejenin pishillab shunday dedi-da, keyin so'kinganicha o'ringa tashlanib, qi-

<sup>1</sup> Yo'q, yo'q, yo'q!..

mirlamay chalqanchasiga yotgan ayolning ko'ragini yopib turgan yostiqni yulqib oldi. – Tur! Gapir! Xonaga nimaga kirding? A? Xaritani, planshetkani o'marmoqchiming? Gapir, g'alamis, shprexay, shprexay, gapir deyapman senga!

Mejenin juvonning qo'lidan mahkam ushlab turgani uchun bechora oldinga egilib, ayanchli ravishda: «Nein, nein», deb zorlanardi xolos. Nikitin oy yorug'ida ayolning egilgan bo'yni, oqargan yuzi, alamdand yumilib ketayozgan ko'zlarini, bir tomonga yoyilib xunuk osilib tushgan uzun va sarg'ish sochlarini ko'rdi.

– Qo'lini qo'yvoring! Bechoraga nega yopishasiz? Sizga aytyapman, serjant! – Nikitin boyagiday g'azabli ovozdab buyurdi. – Qanaqa planshetkani aytyapsiz? Jin ursin-e! Bema'ni gaplarni qo'ying, planshetka doim yonimda yuradi-ku! Bu yerda uni qanday uchratib qoldingiz? Nima qilayotgan ekan?

– La'natining bu yerga qanday kelib qolganini kim biladi deysiz? Shkafni ochibdi... Kiyimlarni olibdi... Kirsam, derazani ochaman, deb urinib qoldi... – Mejenin hars-hurs qilib ayolning qo'lini qo'yvordi-da, oyog'i bilan poldagi latta-puttalarni tepdi. Nemis ayol bo'lsa qo'lga tushgan jonivorday birdan devorga qapishib, boshi qaltirab, tishlari takilladi, hiqillaganicha ingrab: «Nein, nein, nein» deb takrorlardi.

– Ovozingni o'chir, qanjiq! – o'shqirib berdi Mejenin, – hadeb «nayn» deyaverasanmi! Undan ko'ra, ayt, bu yerga nimaga kelding? Qayoqdan kelding? Qanday qilib?..

– Baqirmang, Mejenin! Ruschaga tushunmagandan keyin sizga qanday javob qiladi! – Nikitin nima qilish, qanday chora ko'rish kerakligini hali bilmasa ham nemischa so'zlarni xotirlashga harchand urina-urina nihoyat gapirdi: – Wer sind sie, Rrau? Ya'ni, siz kimsiz?.. Qayerdانسiz?

Tishlari takillayotgan nemis ayol tanasini ham qaltiroq bosgan-cha o'zini qorong'i burchakka olgandi. U arang nafas olib Nikitinga javob qaytargandi, Nikitin tushunolmadi, faqat birgina «Haus» degan tanish so'znigina tushunib, do'q aralash so'radi: – Haus? Wer sind sie? Warum Haus?<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Uy? Kimsiz? Nimaga uy?

– Leytenant! Eshityapsanmi? – deya Mejenin derazaga tashlanib, uni mushti bilan sindirguday urib bir tavaqasini ochdi. – Trevoga bo'lganga o'xshaydi!

Shu payt deraza tagidan ovozlari, do'pir-do'pir qadam tovushlari, ketidan: «To'xta, to'xta, otaman!» degan qattiq ovoz eshitildi. So'ngra miltiq zatvori sharaqladi, yana oyoq tovushlari eshilib, askarlar uy oldidan yugurib o'tishdi, qizg'ish narsa nur sochib qattiq gumburladi. Miltiq ovozidan keyingi jimlikda so'kinishlar, kimningdir bo'g'iq chiyillagani, so'ngra pastdan, birinchi qavatdan Granaturovning do'rillagan ovozi eshitildi:

– Soqchi! Bu yoqqa olib kel, bu yoqqa! Kim o'zi? Tirik bo'lsa sudrab kelaver!..

– O! Ku-urt Ku-urt! – oyna tomon cho'zilgan nemis ayol ho'ngrab pastga egildi va go'dakday pitirlab, dodladi: – Nicht schieben! Kurt, Kurt!..<sup>1</sup>

Nikitin aylanma zinadan qorong'i birinchi qavatga yugurayotib buyruq berdi: «Mejenin, nemis ayolni pastga olib tushing! Tez!» Pastdagi xonalardan uyg'onib ketgan askarlarning ovozlari eshitilardi. Nikitin pastdagi yo'lakda kimgadir, chamasi, uyqusi yaxshi ochilmay yugurib chiqqan Ushatikovga («Trevogami? Nemislar-mi?») urilib ketib, mehmonxonaning eshigi lang ochiqligini, ostondan narida askarlar tiqilinchligini ko'rdi. Birdan nimadir yuz berib, ko'z ochib-yumguncha vaziyat o'zgargani kabi Nikitin ko'kragi zir-qirab ketganini sezdi.

Nikitin ichkariga kirib kelganida Knyajko bilan Granaturov hayajonlangan, qovoqlari osilgan holda xona o'rtasida turishar, ikkovlari ham karabinining zatvorini yarim jangovar holda ushlab turgan soqchiga, dam o'n oltilardagi, oriqligidan xunuk, ko'zoynakli, o'ziga katta, biqini kuygan va yelkalari halvirovchi nemis mundiri kiygan isqirt bolaga qarashardi. Bolaning oyog'idagi chang-chung katta etikning qo'nji oyog'i ingichkaligidan keng ko'rinar, askarcha shimi yashirib turgan tizzalari qaltirayotgani ham sezilardi.

Arang nafas olayotgan bola lablarini yalar, soch qoplagan peshanasini ter bosib ketgan, qirra burni anchadan buyon suv tegmagan yuzida o'likning burniday qaqqayib turardi.

<sup>1</sup> Otmanglar! Kurt! Kurt!

– Xo’sh? – o’dag’ayladi Granaturov nemisga yaqinlasharkan, tepadan qora va o’tkir ko’zlarini tikib. – Bunaqa jangari gusar qayoqdan paydo bo’lib qoldi? Vervolfikmisan? Xo’sh, quroling qani? Uni yaxshilab tintib ko’r-chi! – buyruq berdi u soqchiga. – Yaxshilab tinti, tushunarlimi? Avra-astarigacha!

Ko’zlari ola-kula soqchi karabinini kiftiga ilib, javray-javray nemis bolaning cho’ntaklarini tintiy boshladi.

– Turganimda oy chiqib qoldi... Qarasam, uying orqasida nimadir shitir-shitir qilyapti. Mushukmi, kuchukmi yoki birortasi zaruratga chiqdimi, deb o’yladim. Har kungi ish-da... Qarasam, uy orqasidagi olma tagida bittasi turibdi, ko’zi derazada, ko’zoynagi oy nurida yaraq-yaraq qiladi! Yo’-o’q dedim, vsvodimizda ko’zoynak taqadiganlar yo’q edi. Muyulishdan otilib chiqdim-da: «To’xta, otaman!» deb baqirib qoldim. U qochuvdi, osmonga o’q uzib, izidan tushdim. Yetib olib, yiqitgandim, bu gazanda chiyillab qo’limni tishlab oldi! Shunda gardaniga boplab tushirdim...

Soqchi nemisning hamyonidan chiqqan isqirt dastro’mol, askarlarning snaryadnusxa qo’lbola zajigalkasi, ezg’ilanib ketgan «Yuno» sigareatasi qutisi, galet uvoqlari yopishgan moyli bir hovuch to’pponcha o’qi, sellofandagi kichkina suratni navbati bilan stolga terib qo’yganidan keyin qo’lini shinelining bariga yaxshilab artdi va dalilli bo’lsin uchun Granaturovga qo’lini ko’rsatgach, izoh berdi:

– G’arch tishlab olsa bo’ladimi, nemis kanasi! Bu verwolf, razvedkachi o’rmondan chiqqanga o’xshaydi, yo’qsa, bunaqa hid kelmasdi undan. Ko’rinishi odambashara bo’lsayam, naq gazandaning o’zi!

– Bori shumi? – so’radi Granaturov tepadan nemisning egilgan boshiga qarab. – Demak, qurol yo’q. Qani, soqchi, uni qo’lga tushirgan joyingni yaxshilab qarab kel-chi. Ehtimol, o’sha yerda qolgan-dir.

– Eshitaman. Hozir bajaramiz.

Soqchi nemisdan yonlab chetlandi, so’ngra kirza etigini do’qillatib eshik tomon yo’nalgandi, ostonada Mejeninga duch kelib qolib, g’oz qotgan ko’yi unga yo’l bo’shatdi. Chakka tomirlari o’ynoqlab ketgan Mejenin ichkariga yoshgina, sarg’ish sochli, olazarak, haddan tashqari isqirt ko’ylagi beligacha yirtiq nemis qizni turtib kiritdi. Qizcha qil ko’prik ustidan muvozanat saqlab

o'tayotganday bazo'r odimlayotgani uchun tugmasi yechiq ko'ylagi yoqasidan bo'rtiq o'mrov suyagi xunuk ko'rinib turar, tishlangan lablari go'shti chiqib ketganga o'xshardi. Qiz nemis bolani ko'rib jon holatda bo'g'iq shivirladi:

– Kurt, Kurt!

Shundan keyin u oldinga engashib o'kirigini bosmoqchiday kafti bilan og'zini berkitdi, bola bo'lsa bukchaygan ko'yi kir yuzchasini qiz tomonga burgandi, sarg'ish qirra burni ustidagi ko'zoynagi titrab ketdi. Ammo u hech narsa demay, faqat yutinibgina qo'ygani uchun kekindagi yuqori chiqib pastga tushdi.

Adyolda sirg'aluvchi oppoq tizza, bo'g'iq ovozdagi faryodni hali ham unutmagan Nikitin sochlari to'ziq, qo'rquvdan xunuklashib ketgan nemis qizcha, vzvod egallagan uyda negadir paydo bo'lib qolgan g'ujanak, o'zi cho'pday ozg'in-u, tashqi qiyofasi jangari ko'rinayotgan bolaga qararkan, bular o'rtasida o'zaro bog'liqlik borligini fahmlab, Mejenin tushuntirish berishidan oldinroq gap boshladi.

– Kombat, nemis qizni mening xonamda ushladik... – u g'o'ldirab qolib, hozir vaziyatni chigallashtiradigan narsalarni o'rtaga solmaslik maqsadida Mejeninning nomini atamadi. – Avvalo shuni aniqlash kerakki... qizning shkafdan kiyim olishi sababi tushunarsiz...

– Shu qiz-a? Sening xonangda ekanmi? – dedi Granaturov qizga qattiq tikilib. – Agar mana shu irkir mushukcha ham josus hisoblan-sa, xo'sh, nega u aynan sizning xonangizga kirgan? Shuning uchun bularni so'roq qilish kerak, hoziroq! Kimliklarini aniqlash lozim! Ularni kim yuborgan? Nima maqsadda? Leytenant Knyajko!.. – u gurungda churq etmay o'tirgan va qovog'i soliq Knyajkoga qarab, fig'oni oshib ketdi. – Bizda nemischaga seninggina tishing o'tadi. Bo'l ularni so'roq qil. Bo'laqol, Knyajko, ishga kirish! – Granaturov ish topilib, bundagi mas'uliyatni o'z bo'yniga oladiganday Knyajkoni shoshirdi. – Qani, boshla, savolni men beraman. Hoziroq hammasini aniqlaymiz, shundayyam shprexay qilishsinki, gazandal-lar!

Knyajkoning afti burishdi.

– Men qanday savol berilishi borasida yetarli tasavvurga ega-man. Bu birinchidan, ikkinchidan, siz bilan qachon sensirashga o'tuvdik? Bugunmi?



– Bo'ldi, bo'ldi, tortishib o'tirmaylik. Sizlayman. Tamom.

– Minnatdorman.

Shundan keyin qaysarligi butun vujudidan sezilib turgan, tasmasi bilan portupeyasi belini xipcha ko'rsatayotgan leytenant Knyajko asirlar tomon yurdi-da, dam cho'pday ozg'in bolaga, dam qizchaga qarab, xotirjam qiyofada bir-ikki og'iz nemischa gapirdi. Nikitin o'ziga tanish «Name» so'zini eshitib ularning familiyalari so'ralayotganini bildi, qo'rquvdan qizning shishgan lablari arang ochilib, shivirlab javob berganini ko'rdi:

– Emma... Herr... Offizier...

Bola bo'lsa, soqovday miq etmas, faqat kekirdagi yuqori chiqib past tushardi xolos. Shundan keyin Granaturov Knyajkoning orqa tomonidan yaqinlashib, bolaning yelkasiga barmog'i bilan niqtadi:

– Nima, tildan qoldingmi, ovsar? Oting Kurt-ku! Shunaqami? So'rang-chi, vervolfdanmikin? O'rmondanmisan? U yerda qancha odam bor?

Knyajko uning gapini sovuqqonlik bilan bo'ldi:

– Gap bunday, o'rtoq katta leytenant, yana shunday gapimni bo'lib, asirning yelkasiga niqtasangiz, so'roqni to'xtataman.

– Bo'pti, bo'pti! – do'rilladi Granaturov ensasi qotib. – Izzat-ikrom zo'r, ko'rib turibman. Mabodo biz ularning changaliga tushib qolsak, nima qilishardi! O'tda qovurishardi!

– Ichagimizni burnimizdan o'tkazib, yig'lagani ham qo'yishmasdi, – gapga aralashdi Mejenin. – Ha, nemis oyimcha hali zo'r ekan, o'zini qo'y og'zidan cho'p olmagan qilib ko'rsatyapti. Josus, qanjiq!

Mejenin qizning orqa tarafida depsinib, uning to'zigan sochlari, xipcha beli, bo'liq boldirlari va nozik oyoqlariga ko'zlarini qadab turdi. U, chamasi, boloxonada mana shu nimjon qizcha qarshilik ko'rsatib, yostiq tagidan baqirgani uchun o'zini ham, uni ham kechirolmas, hozir alami ichida, qizni gapi bilan uzib olar, yeb yuborguday o'qrayardi. Buni faqat Nikitingina tushunayotgandi.

«Mejenin yuqorida menga nimalarni valdirovdi o'zi? – ko'nglidan o'tkazdi Nikitin boloxonada o'zi guvoh bo'lgan bema'nigarchilikdan xavfsirab, – uni nimada ham ayblashim mumkin? Bu qizni zo'rlamoqchi bo'lgandami? Buni hech kim ko'rmadi, shuning

uchun ham Mejenin mendan cho'chimaydi, nemislarga achinadigan odamning o'zi yo'q. Mana, masalan, o'zim achinyapmanmi?»

Birinchi qavatning yo'lagidan shovqin eshilib, qadamlar gursilladi, eshik qiya ochilib, to'rtinchi to'p komandiri keksa Zikinning jiddiy yuzi ko'rindi. U qovog'ini ochmay axborot berdi:

– Bizga patrullar kelishdi! Kim o'q uzdi, deb so'rashyapti. Bir-pasda yetib kelishdi!

– Ular bilan gaplash, Nikitin, – buyurdi Granaturov. – Ko'p tushuntirib o'tirma, qisqa bo'lsin, o'zimiz hal qilamiz!

Nikitin nemislarning kiyim iladigan ilgak tagidagi tumbochkaga qo'yilgan moychirog'i sarg'ish yog'du sochayotgan yo'lakka chiqdi. Devorlarida askarlarning ko'lkalari o'ynayotgan ikkita xonada ham moychiroqlar yonib turardi. Yo'lakning tashqari eshigida plash-palatkali uchta notanish kishining gavdasi ko'rinar, ularning quollari xira yaltirardi. Ulardan biri Nikitinni ko'rishi bilanoq yaqin keldi. Furajkasiga qaraganda zobit, qaddi raso va qotma bu kishi boshliq-chasiga qat'iy so'radi:

– Nima sababdan uchastkangizda o'q uzildi, o'rtoq leytenant? Kim uzdi o'qni?

– Uncha xavotirlanadigan joyi yo'q, – javob qildi Nikitin barini batafsil aytish ishni chalkashtirishi, doimo tiqilinch qilib yuradigan komendaturani batareya ishlariga aralashtirishi mumkinligiga aqli yetib. – Soqchi yanglishibdi. Sababini o'zimiz aniqlayapmiz.

– Nemislar shahrida kechasi o'q uzish – bexavotir narsa emas, favqulodda hodisa axir, – yumshoqroq e'tiroz bildirdi zobit. – Kecha masalan, axborotingiz uchun o'rmonda shtab mashinasini o'qqa tutishdi. Bitta askarimiz o'ldi, ikkita zobitimiz og'ir yaralandi. Xavotirlanadigan joyi yo'q emish-a! Batareyangizdagilarning bari hush-yormi?

Shundan keyin yoshi kattaroq va ko'rinishi jiddiy bu zobit af-tini shartta Nikitinga yaqinlashtirib, hidlab ko'r-di-da, askarlarga o'girildi. Ular esa xonalarning eshiklarida baravariga o'qrayib qarashar, serjant Zikin bo'lsa moychiroqdan ko'zini uzmay qolgandi. Vzvod churq etmay begona boshliqlar oldida Nikitinni qo'llab-quvvatlashardi. Nikitinning o'zi nega komendaturadan kelgan zobitga yolg'on gapirgani, patrul xizmat yuzasidan taxmin qilgan narsa jiddiylikni oxirigacha anglab yetmagandi.

– Nimaga o‘q uzilganini aniqlaymiz, – dedi Nikitin. – Boshqa savollar yo‘qmi? Men borishim kerak.

Zobit picha to‘xtab turdi.

– Ehtiyot bo‘ling, leytenant, ko‘zni kattaroq ochinglar. Germaniya sharoitida beboshvoqlik nimalarga olib kelishini bilasizmi?

– Ko‘zimizni kattaroq ochamiz. Bilamiz.

Patrullar yo‘lakdan chiqayotganlarida ularni yonlab kelayotgan soqchi shoshilganidan oralariga tiqilib, sal bo‘lmasa zobitning plash-palatkasiga o‘ralashib qolayozdi. Zobit bundan ajablanib chetlandi, soqchi esa etigini do‘qillatganicha yugurgilab kelgach:

– Yo‘q, hech nima yo‘q, o‘rtoq leytenant! – dedi.

– Kallangiz ketadi! – to‘xtatdi uni Nikitin. – Uyning atrofini yaxshilab qaradingizmi?

– Burchak-burchaklargacha qarab chiqdim, o‘rtoq leytenant. Hech nima yo‘q!

– Yaxshi, pastga boring. Uxlab qolmang, tushunarlimi? – Nikitin picha o‘ylanib turdi-da, farmoyish kutayotgan Zikinga yuzlandi: – Hozircha trevoga yo‘q ekan, to‘plar oldidagi soqchilarni tekshirib chiqing.

Oshxonada so‘roq davom etardi.

Nemis bola qushnikiga o‘xshash kichkinagina boshini egib Knyajkoning savollariga tutila-tutila javob berar, ko‘zoynagi ter bosgan qirra burni uchiga tushib ketardi. Gap orasidagi jimlikda tupugini ichiga yutar, ko‘rinishi ayanchli va nochor edi. Knyajko gapni bo‘lmay, har bir jumladan keyin o‘ychan mulohaza qilib ko‘rardi.

Sog‘ qo‘li bilan yarador qo‘lini ushlab xonada u yoqdan bu yoqqa odimlayotgan Granaturov dam-badam Knyajkoning orqasiga kelib qo‘qqayar, ma‘noli tomoq qirib, bo‘g‘iq ovozda g‘udranishidan tortinibgina nemischa gapirayotgan bolaga ishonmayotgandi. Tutunning nochor ahvoli ham gapga dalil bo‘l olmayotganday tuyulardi. Nemis qizning ortidagi Mejenin beli yirtiq ko‘ylakka alamzada ijrig‘anib qarashi Nikitinning g‘ashini keltirar, nega deganda, quturgan Mejenin boloxonada og‘zidan qo‘lansa tamaki hidi burqsitib: «Ket, leytenant, ket, xalaqit berma, deyapman» degani hamon xotirida edi.

– Qattiqroq gapir, itvachcha! Ming'irlama! – Granaturov va-johat bilan shunday deya gapini eshitib battar qunishgan nemisga o'girildi. – Nega qopga tushgan sichqonday qitir-qitir qilasan? Undan ochiqroq qilib so'rang, Knyajko! Vervolfdanmi u? Hami yoki yo'qmi?..

Xona jim bo'lib qoldi. Yoshli ko'zlari yanada chaqchayib hi-qillayotgan qizcha Granaturovning toqatsiz, zahar tomuvchi yuziga tikilgandi, Granaturov do'rildoq ovozi bilan yana xonani boshiga ko'tardi:

– Ochiqroq, ha yoki yo'q. Fashistmi yo suyagi qotmagan go'dakmi? Bu uyga ular qanday kelib qolishgan?

Knyajko xuddi biror yeri og'riyotganday buralib, bosiq ovozdagi javob qaytardi.

– Bozordagiday shang'illayvermang... – u xotirjam gapirsa ham ohangida g'azab sezilardi. – Ismi Kurt, familiyasi Gerbert, o'n olti yoshda, bir oy oldin verfolfga olingan, janglarda qatnashmagan. Bunga ishonsa bo'ladi. Keyin, Kurt Gerbert manavi qiz – Emma Gerbertning tug'ishgan ukasi. Buni ikkovi ham tasdiqlashdi.

– Opa-ukami? Xo-xo, judayam ishondik-da! Balki bir o'rinda yotishar ham, – deb qo'ydi Mejenin yanib. Granaturov uning ovozi-ni bosib savolini takrorladi:

– Ikkovi tunda qanday qilib bu uyga kelib qolishibdi? Maqsad? Maqsadlari nima ularning?..

– Nima, meni so'roq qilyapsizmi? – Knyajko shunchaki so'rasa ham ko'zlaridan g'azabi ortib borayotgani sezilib turardi. – U holda yaxshilab eshitib oling! Emma Gerbert bilan Kurt Gerbert aytishla-riga qaraganda, shu uyning egalari ekan. Mana, egalar ham topilib qoldi, – Knyajko Nikitinga kulimsirab qarab qo'ygach, tarjima qi-lishda davom etdi: – Bu yerda bobosi bilan uchovlon turishgan ekan, bobosi, bilishimcha, iste'fodagi polkovnik ekan. Großvater ist Oberst?<sup>1</sup> – u aniq bo'lsin uchun yo'l-yo'lakay nemischalab savol bergandi, nemis qiz shu zahoti bosh irg'ab, umid va muloyim rizo-lik bilan: «Ja, ja, Oberst... Reichswehr»<sup>2</sup> deb qo'ydi. – Ha, iste'fo-dagi polkovnik, yoshi yetmish beshda ekan. Bir oy avval jo'nab ketibdi, aniqrog'i, inglizlar va amerikaliklarga yaqinroq bo'lay,

<sup>1</sup> Bobongiz polkovnikmi?

<sup>2</sup> Ha, ha, polkovnik... Reysxver.

deb Gamburgga qochibdi. Menimcha, bizning kelayotganimizdan cho'chiganga o'xshaydi. Emma Gerbert uyga qarab qolgan ekan. O'n uchinchi aprelda, sovet samolyotlari shahar ustida paydo bo'lishganida bir o'zi qo'rqib, buni so'zma-so'z tarjima qilyapman, uydan narsalarini olibdi-da, shu shaharchadagi dugonasi yonida, qandaydir saroychada jon saqlabdi.

– Polkovnik bobosi amerikaliklar panohida uloq bilan bostirmada yashayotgan ekan. Manavi Kurt-chi.... Ivanich avtomat bilan o'rmonda behuda laqillabdi-da? – shartta luqma tashladi Granaturov. – Zo'r uy egalari-ku! O'z uyiga opasi bilan razvedka maqsadida kelibdimi? Bu yerda nima kerak ularga? Asosiy gap mana shunda! Kim jo'natgan ularni?

Knyajkoning ko'zlaridagi (Nikitin kutganiday) g'azab so'ndi. Knyajko ham chamasi Granaturovning so'nggi savoliga ahamiyat bermadi shekilli, u Nikitingagina hotirjam gap qotdi:

– Men senga aytsam, mayda bolalarni ezib so'roq qilish, ayniqsa, ular bilan olishmoqchi emasman. Bu birinchisi. Ikkinchisi, bu sodda bolalar Berlin qo'ldan ketgamagini bilishmagani uchun endi kutishdan foyda chiqmasligiga aqllari yetib, uyni tashlab Gamburgga, ruslar kelayotganidan o'takasi yorilgan keksa Grossfarterlar yoniga kelishga ahd qilishibdi. Mayda-chuyda olib, kiyimni o'zgartirgach, yo'lga tushishmoqchi ekan... Kurt o'rmondan qaytib kelib, opasiga shunday debdi. Ular menga shunday deb tushuntirishdi. Senga aytsam, men ham bunga ishonishga tayyorman. Endi bu yog'ini eshit. Emma uyga bog' tomondagi orqa yo'ldan kiribdi. Kurt pastda kutib turibdi. Darvoqe, Kurt o'rmonda ko'lning nar-yog'ida yigirma kishidan iborat verfolflar turganligi, jumladan, tormor qilingan qandaydir qismdan kelgan yefreytor boshchiligidagi uning tengdoshlari, o'n besh-o'n olti yashar o'g'il bolalar borligini ham aytdi, ular avtomatlar va faust-patronlar bilan qurollanishgan ekan.

Granaturov katta-katta odimlab Kurtga yaqinlashdi.

– Xo'sh, avtomatlar va faustpatronlar bilan qurollanishganmi? Yigirma kishimi? U holda, qani ayting-chi, qadrli Kurt, ular hozir qayerda? Vervolflar qayerda turishadi? Ko'zoynakda hech narsani ko'rib bo'lmayapti-ya! – Granaturov bo'ralab so'kindi. – Vo... Zind... vervolflar? – u nemischa so'zlar tanlay turib shartta



to'pponcha qiniga qo'l cho'zdi. – Vo... ist vervolf? Vifil... kilometr? Shprexe<sup>1</sup>, itvachcha! Qani? Javob ber!

Kurt boshchasini qoqsuyak yelkalari orasiga tortdi, yirik ter donalari bosgan lablarini yalab qo'ydi. So'ngra ko'zlari jovdirab nimir degandi, gapiga tushunib bo'lmadi. Nikitinning nazarida bola hatto shalpanq quloqlarigacha oqarib ketganday tuyuldi. Qo'rqib ketgan qiz esa tili kalimaga kelmay, Granaturov bilan Knyajkoga iltijoli boqar, jajji siynasi qimirlamasdi ham. Nihoyat, u tilga kirib yolvordi!

– Nein, Herr Offizier, nein! Nein!<sup>2</sup>

Keyin nochorligidan xo'rliigi kelib kaftlari bilan yuzini berkitgan ko'yi to'zigan sochlarini silkitdi.

Kurtning isqirt yuzidan ter oqib, boshi yelkalari orasiga yanayam chuqur tortilar, ingichka bo'yni borgan sari past egilib, mundir ostidagi kuraklarigacha bo'rtib chiqqandi. Shu payt aksirigi qistagandi, uni bazo'r qaytarib uzuq-yuluq g'udranoldi xolos.

– Kecha o'rmonda shtab mashinasini o'qqa tutishibdi, – dedi Nikitin Knyajkoga asta. – Patrul xabar berdi. Buni u bilarmikin?

– Kecha? O'qqa tutishibdimi? – gapga aralashdi Granaturov. – Qani, Knyajko, so'rachi, itvachchadan! Ular o'qqa tutishibdimi?

«Nahotki mana shunday churvaqalar o'rmonda pistirma qo'ygan bo'lishsa? – deb o'yladi Nikitin. U mashina o'qqa tutilganini burni oqayotgan uvoqdekkina mana shu nemis bola bilan qi-yoslashga urinardi. – Sira ishongim kelmayapti. Bular avtomatdan o'q uzguncha so'rg'ichini so'rsin. Bu yoshdagi bolalar o'q uzishi mumkin emas!»

– Bu mishiqi churvaqa nima deb valdirayapti o'zi? – o'shqirdi Granaturov to'pponchasining qinidan qo'lini olmay, dag'dag'a bilan. – Javob qilmagan bo'lsa, savolni takrorlang, Knyajko, ha, yana takrorlang! Kecha o'q uzib, bugun razvedkaga kelibdimi? Javob bersin!

Knyajko savoliga olgan javobni xotirjam tarjima qildi:

– U kecha o'rmonda emas, shaharda, opasining yonida bo'lgan ekan. Bundan tashqari, yefreytor har kuni kechasi tunash joyini o'zi tanlarmish. Kim sirni oshkor qilsa, otilarkan. Frits Gofman degan

<sup>1</sup> Vervolfar qayerda? Nechanchi kilometrda? Gapir...

<sup>2</sup> Yo'q, janob zobit, yo'q! Yo'q!

bittasi oyog'ini daraxtga urib olib, yurolmay qolgani uchun otib tashlanibdi... yefreytor uning og'zini kafti bilan ushlab, yuragiga otibdi.

– Obbo yaramas-e! – deb qo'ydi Mejenin nafrat bilan yefreytornimi, Kurtnimi nazarda tutib. – Bunaqalarni bitta qo'ymay osish ham kamlik qiladi. Men ularga «xayl Gitler!» qandayligini ko'rsatib qo'yadim. Qaniydi qo'limga tushishsa! – Oyoqlari joyida turmayotgan Granaturovning bug'doyrang yuzida qon qolmagandi.

– Demak... gapirishdan bosh tortyapti? To'g'ri tushundimmi, Knyajko? – dedi u ovozini pasaytirib. Keyin ko'zlari chatnab, boshini eshik tomonga qattiq silkib qo'ydi. – Qani, hamma chiqsin-chi, bolani qoldirsanglar bas! Fritslar Smolenskda ota-onamga qanday muomala qilishgan bo'lsa, men ham bu gazanda bilan shunday gaplashib qo'yay bir! Shunday bulbuligo'yo qilayki bu marazni!..

– Gazandalar! Pachakilashib o'tiribmiz-a! Bularning hammasi fashist itvachchalari, gum qilish kerak, vassalom! – zahrini sochdi Mejenin qattiq so'kinib. – Odamlarimizni qiynashgan, endi bo'lsa og'ziga tolqon solib o'tiribdi-ya, Gitler olqindisi! Kecha o'q uzganmi, axir?

Nikitin qirq birinchi yilda Smolenskda Granaturovning oilasi (otasi maktab direktori, onasi esa muallima edi shekilli) boshiga tushgan dahshatli fojiani chala-yarim eshitgan. Granaturovning o'zi esa bu haqda kam gapirardi. Nikitin shuni eslarkan, kombatning bo'zargan yuzi shafqatsiz tus olib tishlarini g'ijirlatayotgani, qattiq qisilgan gurziday mushti titrayotganini ko'rdi. Nikitin kombatni bunaqa g'azabnok, ko'ziga qon to'lgan holda ko'rmagani uchun u hozir bir musht tushirsa, har qanday odamni til torttirmay o'ldirsa kerak, degan xayolga bordi, u nemis qiz bilan boloxonada qolganida ham ana shunday qiyofaga kirgan, bu g'azab bamisoli alanga olib, undan Granaturovga o'tganga o'xshardi. Yuragini intiqom o'ti kuydirayotgan olomon kuchsiz, gangigan dushmaniga hamla qilish kerak bo'lganida arzimas gijgijlashga ham ucha qoladi, zo'rg'a qarshilik ko'rsatayotgan mag'lub dushman esa ustun g'animdan ko'ra ham kuchliroq nafrat qo'zg'atadi. Nikitin buni tushunmasa ham beixtiyor his qilib turgandi, banogoh xona nemis qizning chinqirig'idan larzaga keldi. Qiz tevaragidagilarning harakatlari, ovozlari va qarashlaridan hozir nima ish bo'lajagini tushunib, ho'ngraganicha Kurtga

otilgandi. U ukasining bo'yniga yopishib, boshchasini yuziga yaqinlashtirishga urinarkan, titroq barmoqlari bilan bolaning sovuq yuzini changallash taraddudida iltijo qila boshladi:

– Kurt, Kurt, Kurt!.. Antworste!..<sup>1</sup>

– Mejenin! – o'shqirdi Granaturov Kurt tomon yo'nalib. – Mavnavi manjalaqini ko'zimdan yo'qot! Hamma chiqsin! O'zim gaplashib qo'yaman! Mana shu mishiqi sizlarga o'q uzdimi hali? Shundaymi, Mejenin?

Mejenin kaftiga tuflab, go'yo o'tin yormoqchiday qo'llarini ishqadi-da, shartta nemis qizning yelkasidan changallab, uni Kurt dan ajratdi. Shu payt banogoh Knyajkoning o'tkir ovozi xonani larzaga keltirdi:

– Qayt orqaga!..

Knyajko ikki qadam tashlab, bamisoli siqilgan po'lat prujina singari tirsagida Mejeninni turtarkan, rangi oqargan ko'yi Granaturov bilan Kurtning o'rtalariga kirdi-yu, xuddi hukm o'qiyotganday ovozda Granaturovni ogohlantirdi:

– Men tirik ekanman, bunday qilishingizga yo'l qo'ymayman! Tushunarlidir-a, kombat?

– Mejenin! Chiqing bu yerdan! – buyurdi Nikitin Knyajkoning qat'iyatidan qattiq ta'sirlanib. – Hoziroq bo'shatib qo'ying xonani!

– Obbo leytenanti tushmagur-e!

Mejenin g'azabdan xiralashgan ko'zlarini Nikitinga qadadi-da, odaticha ko'z pirpiratgach, negadir kaftini kaftiga qattiq ishqab, Granaturovga xirqiradi: «Bularga nemis qizlar qadrliroq ekan-da, a?» Shundan keyin eran-qaran yurib borib mushti bilan ochgan eshikni tashqaridan qattiq yopgandi, chiroqqacha lipillab ketdi.

– Xo'p, mayli! – deb qo'ydi Granaturov tishlari orasidan. Keyin stol tomon borib, yarador qo'lini ko'ksida tutgan ko'yi stulga yaslandi. – Xo'sh, demak, afsonaviy mushketyorlar, urush oxirida nemislarni deb bir-birimizning bo'g'zimizga yopishamizmi? Demak, sizlar mendan ko'ra rahmdilroqmisizlar? Sizlar musichaday beozor, xo'sh, men-chi?..

Granaturov junbishga kelgan g'azab-nafratini bazo'r jilovlab, xiyla o'zini bosdi shekilli, yumshaganroq ohangda davom etdi:

---

<sup>1</sup> Javob ber!

– Mana shu itvachchalarni deb qirilishamizmi? Yo bir-birimizni otib tashlaymizmi? Shularni deb-a? Eh, Knyajko, Knyajko, bu yog‘iga qanday yasharkinmiz endi? Men bilan qirpichoqligingni bas qilsang bo‘lardi. Nima, biz okopdoshlarmizmi yoki dushmanlarmizmi?

Ammo Knyajko churq etmadi. Uning hamon rangida rang yo‘q, ko‘zlari boyagiday murosasiz va qat‘iy boqar, pogonlaridagi yangi yulduzchalari, yaraq-yuruq xrom etigi, yaxshilab taralgan farqi ochiq sarg‘ish sochi qiyofasiga mos kelmasdi.

– Gap bunday, – Knyajko Granaturov aytgan so‘zlarning biron-tasini ham eshitmaganday, tushuntirishga kirishdi: – Bu nemislar uy egalari ekanligi aniq, o‘rtoq katta leytenant. Demak, uy ularga tegishli. Bizga emas, ularga. Buni inkor etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ular o‘z buyumlarini yigishtirishsin-da, xohlagan tomonlariga, Berlingami, Gamburggami ketaverishsin. Ketishsin.

Granaturov tirnoqlari bilan bo‘sh stakanni chertdi.

– Do‘q-po‘pisagina eshitgan bu oyimtilla yefreytorining yoniga ketaversinmi? Shundaymi, Knyajko?

– O, hatto shunday bo‘lganda ham bu ancha xatarli, o‘rtoq katta leytenant! Yigirma nafar bolakay og‘zilarida so‘rg‘ichlari bilan bitta yefreytordan qo‘rqib o‘rmonda o‘tirishibdi. Manavi Kurt o‘rmonda yana kimlar qolganini tasdiqlab turibdi.

– Oh, qanday yaxshi!

– «Oh»i nimasi?

– Avtomatlar bilan faustpatronlar so‘rg‘ichmi sizningcha, Knyajko?

– Menimcha, munosib dushman bilan olishish kerak, manavi-naqa... – Knyajko oriq, qo‘rquvdan jimib qolgan Kurt, qontalash, shishib ketgan lablari nim ochiq nemis qizga bu safar loqayd qarab qo‘yib, jumlasini tugatdi: – jo‘jalar bilan emas.

– O, qanday yaxshi gaplar-a, leytenant!

– Eslatib qo‘ymoqchiman, – gapida davom etdi Knyajko. – Siz rasman medsanbatda davolanyapsiz, o‘rtoq kombat. Men sizning o‘rningizda batareya komandiri bo‘lib turibman. Shuning uchun ham bir qarorga keldim. Hech qanday jang bo‘lgani yo‘q. Bularni asir ham olganimiz yo‘q. Ularning o‘zlari uy egalari sifatida kelishdi. Takrorlayman, xohlashsa, ketaverishsin. E‘tiroz bildirmassan-a, Nikitin?

«Ha, aytganidan qaytmaydi. Gap tushuntirish qiyin-ov! Nega bunday qat'iy qarorga kelgani tushunarsiz xolos», ko'nglidan kechirdi Nikitin. U Knyajkoning Granaturov har qancha e'tiroz qilsa ham ko'nmasligi, tankka qarshi marralar tanlashda ham ko'pincha kombatning aytganini qilmay, uning jahlini chiqarib, vzvodi uchun o't ochish nuqtalarini o'zbilarmonlik bilan belgilaganlarini bilgani uchun hozir ichida Knyajkoni ham qoralar, ham unga qoyil qolardi. Nikitin Knyajkoning qarori juda to'g'riligini to'la-to'kis sezmasada, uning o'ziga tanish, bir lahza ham bo'shahmaydigan qat'iyatiga tan bergani sababli:

– Gapingga qo'shilaman. Jang bo'lgani yo'q, biz bularni asir olmadik, – dedi.

– Juda soz, – deb qo'ydi Knyajko.

Granaturov gilamga oyoqlarini cho'zgan ko'yi yalpayib, sog' qo'lini pastga tushirib, toliqqan va oxiri nima bo'larkin, deya kala-kaomuz qiyofada tishini tishiga qo'ygan odamday o'tirardi. Qovog'i soliq Mejenin nemislar bilan tez-tez gaplasha boshlagandi, Granaturov ko'krigidagi bor nafasini chiqarib kesatgan bo'ldi:

– Yelkangga katta mas'uliyat olmayotganmikin, Knyajko? Og'irlik qilmasmikin? Judayam haddan oshilyapti-da! Bunaqa buyruq dastidan yig'lab yurmasak edi hali...

Knyajko javoban hech narsa demadi, hatto nemislar bilan gaplashishdan ham to'xtamadi. Nikitin sochlari to'ziq Emmaning labdahani osilib ketgani, Kurtning qushnikiga o'xshash boshchasi asabiy titrab, u yelkasidan bu yelkasiga og'ib ketayotganini ko'rib mana shu och-arvoh bola so'roq paytida bir marta bo'lsayam o'zini erkatoy va kasalmand, aqlli ko'rsatadigan ko'zoynagini olmadi-ya, dagan fikrdan ko'ngli xira tortib, ensasi qotgani uchun:

– Qiziq, buning o'q uzish qo'lidan kelarmikin? – deb so'radi.

– Bu ish ahmoqning ham qo'lidan keladi, – javob qaytardi Knyajko va nemislarga tushuntirishni oxiriga yetkazgach, ikki marta:

– Alles! Alles!<sup>1</sup> – deb buyruq berdi.

Shunisi g'alati bo'ldiki, «Alles» buyrug'i berilganidan keyin Emma mayda odimlab Knyajkoga yaqinlashdi-da, shishgan ko'zlari

<sup>1</sup> Bo'ldi! Bo'ldi!



bilan yer suzganicha yer baravar bukildi, keyin nogahon uyalinqirab Nikitinga ham shunday ta'zim bajo keltirgach, chuqur minnatdorchilik bildirdi: «Danke schön, Herr Offizier!»<sup>1</sup>. So'ngra hali ham qutulganlariga ishonmayotgan ukasining shalviragan qo'lidan ushlab, eshik tomon yetakladi. Oyoqlari chalisha-chalisha opasiga ergashgan bola orqadan baqirib qolishlari yoki o'q uzishlarini kutganday, boshini mundirining yoqasiga chuqurroq tortardi.

Knyajko yana bir marta nemischalab:

– Alles, – degach, tutqunlar chiqib ketishdi. Eshik yopilganidan keyin qo'l soatiga qarab jiddiy ohangda: – Uyqu oldidan toza havо olish payti yetganga o'xshaydi. Biry'o'la soqchilarni tekshirish kerak, – deb qo'ydi.

Bir lahza oraga sukunat cho'kdi.

– Eh, janob zobitlar, janob zobitlar, aha-ha... – esnadi Granaturov og'zini katta ochib. – Zimmaga ko'p narsa olindi-yu, lekin bu yog'i nima bo'larkin hali? Mabodo biror kor-hol yuz berguday bo'lsa, kimdir pogoni bilangina emas... boshi bilan javob berishiga to'g'ri keladi.

– Rostdanmi? – ensasi qotdi Knyajkoning. – Nachora, pogon ikkita, bosh bitta, men-da javob beradigan, o'rtoq katta leytenant.

– Men sen bilan boraman, – dedi Nikitin, – har ehtimolga qarshi soqchilarni o'zim tekshiraman.

– Soqchilarni doim tekshirib turish kerak, – javob qildi Knyajko. Keyin pilotkasidagi g'uborlarni orastalik bilan puflab, boshiga kiydi. – Ketdik, Nikitin.

– Xo'sh, yo'l bo'lsin? – so'radi o'y surayotgan Granaturov Knyajkoga o'girilgan bug'doyrang yuzini ayanchli burishtirib. – Medsanbatgami? Bekorga ovora bo'lasiz. Galochka hozir uxlayapti, leytenant. – So'ngra u stulni g'ijirlatib, ko'z-ko'z qilganday ikki metrli qaddini rostladi. – Mening o'mimdasiz-u, zimmangizga hamma mas'uliyatni olyapsizmi? Qoyil-e! Mabodo haligi irkit o'rdakcha ukasi bilan josuslik qilgani kelgan bo'lsa smershga<sup>2</sup> nima deb javob qilasizlar, janob zobitlar? Javobini o'ylab qo'ydinglarmi? Bo'lmasa shunday: uch kishilik javob topib qo'yinglar, bu yog'i ham o'rtada

<sup>1</sup> Benihoya minnatdorman, janob zobit!

<sup>2</sup> Smersh – harbiy kontrazvedka bo'limi.

bo'lsin-da. Men baribir tavakkalchiliklaring uchun sizlarni yaxshi ko'raman, shaytonlar!

Yelkasiga plash-palatkasini tashlagan Knyajko Granaturovning yarim hazil gapiga keskin javob qildi:

– Javobini o'ylab o'tirishning hojati yo'q. O'shanda tribunal men bilan shug'ullanadi, o'rtoq katta leytenant. – Knyajko safdagi kabi qo'lini pilotkasiga yaqinlashtirib, yumshoqroq ohangda qo'shimcha qildi: – Yaxshisi, ertalabgacha divanda yoting. Xayr!

Ular chiqib ketishdi.

## BESHINCHI BOB

Kechasi allamahal bir necha marta uyqusi buzilgan Nikitin bezovtalanib joyida ag'darildi, boshini ko'tarib, sukunati, butkul oy nuriga cho'mgan shaharning tiq etgan tovush eshitilmoqchi jimligiga quloq soldi. Ochiq derazadan sirenning namxush isi, olma hidiga to'yingan muzdek sabo kirar, qizigan yuziga namchil shabada urilardi. Bo'm-bo'sh nurafshon osmonda, kunbotish tomondagi uchi ingichka cherepitsali tomlar uzra, qarag'aylarning orqasida oy bami-soli xom tarvuz tilimiday osilib turardi. Tomlar ham, bog'lar ham, toshlari zarrin ko'chalar ham tunga xos osuda, goh-goho uy yonida soqchi qadam bosganda maysa shitirlar, Nikitin xotirjam tortib, yana uyquga ketardi.

U tongotarda yonginasida eshitilgan begona tovushdan cho'chib ketdi. Ko'zini ochib, yoniga ag'darildi-da, qo'li bosh tomonidagi stulda turgan gimnastyorkasi ustidagi to'pponchasi qiniga cho'zildi. Shu payt uni nogahon zinapoya maydonchasidagi qadam tovushlari uyg'otib yuborganini payqadi. Eshik ohista taqillab, so'ngra tinchidi.

Tong yorishgan va salqin edi. Qarag'aylarning uchlarigacha ko'rinar, tiniq, musaffo subhidam hukmronlik qilardi.

– Kim u? – qichqirdi Nikitin. – Ushatikov, sizmisiz?

Eshik yana ohista taqilladi-da, qiz bolaning bazo'r nemischalab gapirgani eshitildi:

– Darf man herein, Herr Offizier?..<sup>1</sup>

«Bu qandaysi? – o'yladi Nikitin bezovtalanib. U kechagi voqealarni eslab, xayoliga bir fikr keldi. – Bu o'sha freyleyn Emmamikin?

<sup>1</sup> Kirsam maylimi, janob zobit?

Kechasi postlarni tekshirib kelganimda u ukasi bilan boloxonadagi o'zlariga tegishli xonada narsalarini yig'ishtirayotuvdi-ku. Ha, ular bugun ertalab ketishlari kerak edi... Nega yonimga kirmoqchi bo'lyapti? Biror gap aytmoqchimi? Biror narsa ro'y berdimikin yo?»

Nikitin nima bo'lganiga yaxshi tushunolmasa ham har ehtimolga qarshi «ruscha-nemischa so'zlashuv» kitobini izladi. uni topolmaganidan keyin par ko'rpani ko'kragigacha tortib, yutinibroq javob qildi:

– Kiring. Xeroyn. Eshik ochiq.

Eshik g'ijirlab asta qiya ochildi. Uning tirqishidan avval finjonli patnisha, guldor xalat yengidan chiqib turgan nozik qo'lchalar ko'rindi. Qo'lida patnis, yonlarnasiga kirib kelgan Emma tizzasi bilan eshikni turtib berkitdi, keyin tortinibroq jilmaygach, uyquli ovozdada salomlashdi:

– Guten Morgen, Herr Offizier, guten Morgen!..<sup>1</sup>

– Guten Morgen, – dedi Nikitin ham, u qizdan xijil tortar, chamasi, o'ziga atalgan patnisdagi qahvali bashang finjonning ko'rinishidan ajablanardi. Birinchi marta bunaqa noqulay ahvolda qolganini yashirolmagani uchun qizarib ketib, maktabdan esida qolgan so'zlar yordamida tutila-tutila savol berdi:

– Was ist das? Warum?<sup>2</sup>

– Ihr Kaffee, Herr Offizier. Bitte schön.<sup>3</sup>

Qiz xalati barini to'lqinlatib iymanibroq yaqinlashdi-da, muloym bosh irg'ab, patnisni o'rin chetiga qo'ydi. Qattiq xijolat bo'lgan Nikitin hatto par ko'rpa etagidagi oyog'ini ichkariroqqa tortib, qizga uyquli ko'zlari bilan qarab turardi.

– Was ist das? Warum? – so'radi Nikitin maktabda o'rganib olgan boyagi gapini takrorlab.

– Bitte sehr, Herr Offizier, bitte sehr, Guten Morgen!

– Guten Morgen! – g'udrandi Nikitin qizning jilmayishidan dovdirab. U o'mniga qahva keltirilganiga e'tiroz bildirish uchun ham so'z topolmasdi.

– Bitte sehr.

<sup>1</sup> Xayrli tong, janob zobit, xayrli tong!

<sup>2</sup> Bu nima? Nima uchun?

<sup>3</sup> Qahva, janob zobit. Marhamat.

Qiz ham shoshib qolib o'rin yonida kechagiday ta'zim qildi, uning hayajonli ko'kimtir ko'zlari ehtiyotkorona tabassum bilan Nikitinning lablariga tikilar, Nikitin bo'lsa xonada pardozi sovuq sovuqning ishi yoki nimtati atir hidi taralganini sezdi (Nikitin bo'lsa hidni nemis zobitlari turadigan blindajlarda sezgan, o'zlari egallagan mana shu bo'm-bo'sh uydagi buyumlardan ham nemislarga xos chuchmal is kelib turardi). U negadir qiz o'ziga oro berish uchun yaqindagina sovuq suvda atir sovuq ishlatib yuvingan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Qizning oftobda kuygandek ko'ringan sariq sochlari yaxshilab taralganidan oltinday yaltirardi. Qizlarga xos xiyol tanqaygan burni atrofidagi sepkillari ham sezilardi. Faqat og'ziga ilgirigiday xunuk, lablari shishgan va tishlangan edi.

Nikitin qizning ustiga yostiqlik tashlab, mana shu o'rinda chalqancha yotgani, «nein, nein» deb bo'g'iq qichqirgani, derazadan tushib turgan oy nurida tizzasining qimirlaganini eslarkan, bular Emmaning ham esida turgan bo'lsa kerak, deb peshanasini ter bosib, ko'zini chetga oldi.

– Danke<sup>1</sup> – dedi Nikitin o'sha rasmiy ohangda jiddiy. Shu payt xayolidan: «Qahvani o'ringa keltirib berish yaxshi emas. U nimani kutyapti? Qahvani ichishimni? Bu qanday odat? Nima qilish kerak?» degan fikr kechdi.

Shundan keyin u tavakkal o'rin o'rtasiga o'tirib, ko'rpani ko'kragigacha tortdi-da, jajji chinni finjonni qo'liga olib, iliq va achchiq ichimlikdan bir ho'pladi, so'ngra ikkilanibroq yana bir ho'plab, bo'shagan finjonni patnisga qo'ydi.

– Danke, – Nikitin chamasi shunday paytlarda qilingan e'tibor, u uchun aytiladigan alohida tashakkurni bir amallab bildirish uchun xijolatda yolg'on gapirdi: – Qahva ajoyib ekan. Ya'ni... wunderbar, ausgezeichnet Kaffee<sup>2</sup>. Tashakkur.

– Bitte schon, Herr Offizier. Ta-ashak-kur?..

Qiz tushunib jilmaygan ko'yi o'sha g'alati tavozeli ta'zimini bajo keltirgandi, Nikitin taajjubda tashvishlana boshladi. Chunki Emma ta'zim qilayotganida xalatining kesimidan oppoq tizzalari ko'ziga ko'rinib ketgandi. Nikitin qip-qizarib shartta devor tomonga o'girildi va yana kecha oqshom boloxonaga kirganda o'rniga

<sup>1</sup> Rahmat.

<sup>2</sup> Ajoyib, yaxshi qahva.

o'ralashgan gavda hamda xuddi shu xunuk bukilgan tizzalarni ko'rgani esiga tushdi.

– Danke, – g'o'ldirab qo'ydi Nikitin quyosh nurlari bamisoli suv sathidagiga o'xshash qizg'ish jilolanayotgan silliq shiftga qarab.

«Hozir qiz chiqib ketadigan biror narsa deyish kerak, – mushkul ahvoldan qutulishga oshiqardi Nikitin. – U shu yerda, men bo'lsam kiyinganim ham yo'q. Nima desamikin: «komm», «weg», «zurück»mi? Yoyinki eshik tomonga qo'l silkisammikin? Yoki jilmayib: «Danke, zurück» desammikin? Muloyim, qattiqqo'l, rasmiy muomala qilaymi yo? Kecha meni qaltis vaziyatda ko'rgandi. Mejeninga baqirib beruvdim. Shuning uchun mendan cho'chiyapti shekilli-da. U nima deyapti o'zi? Nima haqda gapiryapti o'zi?»

– Herr Leutnant... Hamburg, Kurt dort<sup>1</sup> – Nikitin nigohi qizning iltijoli ko'zlari bilan to'qnashib, uning ayrim uncha tushunarli bo'lmagan so'zlarinigina tushundi.

– Jin ursin... Nemischa bilmayman, – dedi u. – Salgina bilaman xolos. Nima? Nima dedingiz?

Emma nimalarnidir xavotirli, yolvorib tez-tez bidirlar, ingichka ovozi boshqacharoq, jumalari qandaydir jonsarak iltimosga o'xshab ketardi. Nikitin anglashga urina turib nogahon «Kurt», «nach Hamburg» degan tanish so'zlarni ma'no jihatidan birlashtirdi, qiz barmog'i bilan patnisda odam yurishini qilib ko'rsatganidan so'ng ko'ngliga kelgan gumonni tasdiqlatib olgani qaytarib so'radi:

– Qanaqasiga? Kurt ketdimi?.. Kurt kom nach Hamburg<sup>2</sup> ya'ni... – Nikitin barmog'i bilan odam yurishi tasvirini ko'rsatdi, keyin katta so'roq alomatini chizdi-da, takrorladi: – Gamburg? Kurt? Bir o'zimi? Kurt ein? Siz-chi?

– Kurt, Kurt... – qiz moviy ko'zlarini tikib, bosh irg'agandi, sarg'ish sochlari yuzini to'sib qo'ydi. Keyin intizor qiyofada cho'chibroq kaftini ko'kragiga bosdi-da, hayajon bilan nimalarnidir tushuntirib bidir-bidir yolvora boshladi.

Nikitin uning so'zlariga tushunmasa-da, goh jilmayib, goh qovog'ini solardi. Yuzidagi salgina o'zgarish ifodasi qizning ham yuziga ko'char, u dam yalinar, dam quvonar, dam g'amgin tortardi. Nikitin nihoyat uzil-kesil qarorga keldi:

<sup>1</sup> Gamburg, Kurt o'sha yerda.

<sup>2</sup> Kurt Gamburgga ketdimi?



– Menga qarang... shu yerda, qayerdadir so‘zlashuv kitobi bor. Iltimos, uni menga uzatib yuboring. Bitte, geben Sie mir Buch. Klein Buch<sup>1</sup>. U qo‘li bilan javonni ko‘rsatdi. – O‘sha yerda bo‘lsa kerak. Deutsche-russische Buch<sup>2</sup>. Iltimos. Bitte...

Nikitinning gapiga quloq solayotgan Emma uning nigohini kuzatarkan, lablarini cho‘chchaytirib «O!» dedi-da, patnisni ildam javonga qo‘yib, ikkala qo‘li bilan go‘yo nozik narsani ushlayotganday yap-yangi, hali varaqlanmagan so‘zlashuv kitobini olib, o‘rin tomon bir qadam tashlagach, yana ta‘zim qildi:

– Bitte schön, Herr Leutnant.

Nikitin kitobni ochib: «Asirlarni so‘roq qilish», «Qishloq joyda so‘zlashish» («Bular baribir kerakli joymas!») boblarini varaqladi, «Tinch aholi bilan so‘zlashish» bobida to‘xtab, kerakli jumlanı topgan qiyofada so‘zladi:

– Noch einmal... Langsamer sagen Sie, bitte<sup>3</sup>.

– Ich bleibe-e... hier... mein Haus... mein Zimmer...<sup>4</sup> – negadir Emma ham grammatikaga xilof cho‘zibroq gapirdi. U qo‘lini tobora ko‘kragiga mahkamroq bosib, boshini inkor ma‘nosida sarak-sarak qilardi: – Ich, ich... bleibe hier... Haus...

Nikitin peshanasini tirishtirib kitobdan uning so‘zlariga mos javoblar izlar («Haus» va «Zimmer»ni maktabda o‘qiganidan beri bilardi) va keraksiz, avtomatdan ketma-ket o‘q uzib, baqirib aytiladigan: «Uyingizda nemis askarlari yashirinmaganmi?», «Yuqoridagi xonalarda hech kim yo‘qmi?», «Bu kvartiraning egasi kim?» degan savollardan boshqa birorta durustroq jumla topolmasdi.

– Tushunmayapman... Nich verstehe<sup>5</sup> – g‘o‘ldiradi Nikitin o‘zidan jahli chiqib. – Xuddi soqov ovsarga o‘xshayman-a! Nima deyapsiz? Haus? Zimmer?

– Ein Moment, Herr leutnant! Entschuldigen Sie...<sup>6</sup>.

Qiz o‘rin chetiga o‘tirib, kitobga qaragan ko‘yi xiyol egilgandi, Nikitinning dimog‘iga xushbo‘y, taftli badanning yoqimli hidi urildi. Nikitin qizning tiniq, e‘tiborli ko‘zlari, yonoqlaridagi sekillari bilan

<sup>1</sup> Marhamat qilib kitobni menga bering. Kichkina kitobni.

<sup>2</sup> Nemischa-ruscha kitob (buzib aytilgan).

<sup>3</sup> Yana qaytaring... Iltimos, shoshilmayroq gapirsangiz (buzib aytilgan).

<sup>4</sup> Men qolaman... bu yerda... mening uyim... mening xonam.

<sup>5</sup> Tushunmayapman.

<sup>6</sup> Kechiring.

pilik qoshlarining chetini ko'rib turardi. Qiz yaqin turgani uchun u qora terga botib, qalin ko'rpa tagidagi oyog'ini beixtiyor nari tortdi va g'ulg'ula tushgan dilidan: «Nega kitobni ko'rishiga ruxsat ber-yapman? Bu harqalay harbiy sir-ku!.. Nega u o'ringa o'tiradi? Unga shuni aytish kerak!» degan fikr kechdi.

– O! – dedi qiz jimjilog'ini satr tagidan yurgizib mamnun. Ayni paytda u shivirlab gunohkorona iltimos qildi: – Lesen Sie russisch, Herr Leutnant<sup>1</sup>.

«Qanday aytsam ekan? Qanday?»

Nikitin qizning mujilgan timoqli jimjilog'i tagidagi satrlarni unchalik yaxshi tushunmay, savolni nemischasiga tez o'qiyolmadi, ma'nosini esa ruscha tarjimasidan o'qib oldi: «Sizlar qochqinmisizlar? Qaysi shahardan?!» – «Yo'q, bu bizning uy, biz shu yerda qolamiz».

– Ich bleibe. Ich bleibe... Kurtin Hamburg, ich bleibe<sup>2</sup>, – dedi Emma sekin va ehtiros bilan Nikitin taxminan qiz yalinayotgani, ruxsat so'rayotganini, bu yerda qolmoqchiligini va rus askarlari band etgan uyda qoldirishmaydi, deb qo'rqayotganini tushundi.

«Nega Kurt ketib, o'zi qoldiykin? U chindan ham Gamburgga ketganmikin? – gumonsiradi Nikitin. – Nima uchun Knyajkoga emas, menga murojaat qilyapti? Kecha bularni Knyajko so'roq qilgandi-ku. Buning o'z uyida yashashiga ruxsat berishga haqim bormikin? Bema'nilik!.. Qiz shu yerda qolgan ekan, turgan gapki, Kurt o'rmonga ketmagan...».

– Gut... – Nikitin lug'atni yopdi-da, uni stuldagi qinli to'pponcha bosib turgan kiyimlari ustiga tashladi. – Gut. Bitte. Gut. Das ist, – u so'zlarni terib gapira boshladi: – Das ist... richtig<sup>3</sup>.

– O, Herr leutnant! Danke schön, danke! O, Herr Leutnant!<sup>4</sup>

Moviy ko'zlari shodon kulayotgan qiz unga o'girildi-da, yengil ingrab, yuzida qandaydir ajib ifoda aks etgan ko'yi boshini uning yostig'iga tashladi. Xonaga yana xushbo'y ifor taraldi. Nikitin qizning atir sovun hidi anquvchi muzday qo'llari bo'yniga chirmashganini sezdi. Qizning qo'llari ehtiros bilan uni lo'ppi, nim ochiq

<sup>1</sup> Ruschasini o'qing, janob leytenant.

<sup>2</sup> Men qolaman. Men qolaman. Kurt Gamburgda, men qolaman.

<sup>3</sup> Yaxshi. Marhamat, yaxshi, bu... bu to'g'ri.

<sup>4</sup> O, janob leytenant! Katta rahmat, rahmat.

va taftli, nafas olgani qo'ymaydigan lablari sari tortardi. Nikitin keraksiz, xatarli nimadir bo'lyapti, buni hoziroq, tez oldi olinmasa bo'lmaydi, deb ko'nglidan o'tkazdi. Biroq qizning olma ta'mli, elituvchi lablari nimalarnidir shivirlar, lablariga tegar, suykalari, yopishardi. Bo'shashgan barmoqlari esa uning qo'lini izlar, avaylabgina pastga, mursagi ichidagi qaynoq vujudi sari undardi. Nikitin qizning silliq qorni, yumshoqqina biqini, sarxush etuvchi yalang'och badanini sezarkan, boyagi keraksiz xavfli nimadir bo'lyapti, degan fikr esiga tushib, ustiga bosib tushayotgan qizdan o'zini tortmoqchi ham bo'ldi. Chunki kecha kechasi xuddi mana shu o'rinda qiz bilan Mejenin o'rtasida zo'raki ro'y berishiga sal qolgan voqea sodir bo'lishi mumkin, buni qizning o'zi xohlab turardi. Nikitinning miyasiga «Nega?» degan savol uchqun yanglig' urildi. U shundan keyin ixtiyorini topshirayotgan qizning kiftidan ushlab, picha chetlatdi-da, nafasi tiqila-tiqila arang:

– Emma... nein... – dedi.

– Sergeantnain... Soldaten nein! – xitob qildi qiz ayanchli tovushda va ehtiros bilan uni quchoqlab, buralganicha siynasini ko'kragiga bosdi. – Danke schön. Danke...

Qizning ana shu «nein»ida ayollikka xos qandaydir tushunarsiz, kecha kechasi boloxonadagi qat'iyatga sira ham o'xshamaydigan tamanno mujassam edi. Nikitin og'zidan erkakka xos bo'lmagan ana shu so'z chiqib ketganidan hatto tishini tishiga qo'ydi, qizning moviy shahlo ko'zlari jovdirayotganini ko'rarkan, negadir tun qo'ynidagi shahar uzra ko'tarilgan payt Galyani kuzatib qo'ygani, ajib qo'ng'iroqchani og'zidan o'zi nozik jingillaganini esladi va dilidan: «Bundan keyin afsuslanib yurmasmikinman? Xiyonat qilyapmanmi?» degan fikr kechdi.

– Danke schön, mein Leutnant. Danke schön.

– Danke schön?.. – Nikitin arang tushunib beixtiyor shunday deb yubordi. – Warum? Warum?.. Nega «danke schön?»

– Ich, ich... Ruig...! Tss!..

Emma karavotdan irg'ib turib, eshik qulfini shirq etkazib tushirdi-da, pildirab o'rniga qaytgach, itoatkorona tiz cho'kib, peshanasini uning yelkasiga qo'ygandi, sochlari Nikitinning yuzlarini to'sib qo'ydi.

<sup>1</sup> Men... men... sekin...

Nikitin qizning uzuq-yuluq shivirlashlarini eshitardi. Emma sochlari tagidan nim jilmayib sal o'girildi-da, tortinibgina mursagi bog'ichlarini bo'shatib, uyalinqiraganday yechina boshladi. Keyin ko'zlarini yumgancha Nikitinning qo'lini topib, lablariga suykab o'pdi. U bamisoli sovqotganday titrar va tishlari takillardi.

«Umrimda bunday holatga tushmovdim. Faqat o'shanda, qurshovda qolganimizdagina... – dahshat bilan o'yladi Nikitin qizning tishlari takillashi o'ziga o'tmasligi uchun ham harakat qilib. – Biroq bu nemis qiz, men esam rus zobitiman-a, axir...».

– Emma... Emma...

Miyasiga qon tepgan Nikitin eshikka olazarak qarab, gangib qolganidan xijolatda, bu endi boshqa sira ham takrorlanmaydi, deya o'zini ishontirgan ko'yi, talaffuz etganda boshqacha eshitaluvchi Emmaning ismini atadi-da, dudog'i bilan uning sovuq yuzidagi ifori anqib turgan nam, tillarang sochlarini surib, qarshisidagi muntazir, tashna lablariga chippa lab bosdi.

...Ular chordoqdagi dag'al pichan uyumi orasida yotishar, Nikitin qiz qorong'ilikda undan ko'z uzmayotganini sezib turardi. Tom tirqishidan tushayotgan oy shu'lasida qizning ko'zlari yaltirar, u qalt-qalt titrab gapirardi:

– Menga qara, nega surilib olding? Mendan hazar qilyapsanmi? To'g'ri, anchadan beri yuvinganimiz yo'q. Hamma yog'imiz ter hidi... Menga qara, qurshovdan chiqolmaymiz shekilli. Ular ertalab qishloqqa kirishadi. Eshityapsanmi, hammayoq jimlik-a?

– Ha.

– Men bugun nimagadir o'limdan qo'rqdim. Tankka qarshi batareyadagi Klava esingdami?

– Ha.

– U ertalab, ikkinchi marta qurshovni yorib o'tmoqchi bo'lganimizda o'ldi. Qanday halok bo'lganini ko'rdingmi?

– Yo'q.

– Ko'rmaganing yaxshi bo'libdi. Snaryad hosil qilgan chuqurda faqat hamshira sumkasi qoldi. Yo'q, paxta, doka parchalari... va yana qandaydir dahshatli narsalar. O'zi chiroyli edi, esingdami? O'tib qolsa, orqasidan hamma qarardi. Biroq u hech kimni yoniga yaqin yo'latmasdi. Sizlardan birortangiz ham... Ko'zlari qandayligi

hozir ham esimda! Qomatini aytmayсанmi! Sambitday. Hech nima ko'rmay ketdi. Esizgina...

Nikitin miq etmas, uning qimirlashga ham, javob qilishga ham, qurshovning ikkinchi kunida bironta to'pi omon qolmagan tankka qarshi batareyalarning saninstruktori Klavanning ko'zlari-yu qaddiqomatini eslashga ham majoli qolmagandi. Qiz pichanni surib, Nikitinning og'ushiga kirdi va bir qo'li bilan uning bo'ynidan quchoqlab, ikkinchi qo'li bilan uch kunlik jang davomida terga botgan gimnastyorkasining tugmalarini yecha boshladi. Shundan keyin qo'lini yigitning terdan chilp-chilp ko'kragiga asta tiqdi. Qizning dag'al, bir necha kundan beri suv ko'rmagan kafti Nikitinning ko'kragini mayin va muntazir silab, barmoq uchlari qo'ltiqlariga tegib ketardi. Yigit birdan rashki kelib, dilida: «Kim bilan birga bo'lganida bunaqa qilganikin?» degan xayolga bora boshladi.

– Menga qara, sumkamda spirt bor, – shivirladi qiz yig'laganga o'xshash ovozda Nikitinning yuz-ko'zlaridan o'pa-o'pa, – yuzingni loaqal spirt bilan artib ol. Faqat menga qaramay tur. Men hozir... Balki shunda bizga yaxshiroq bo'lar. Bu qurshovdan chiqib ketolmaymiz, bilib turibman. Mayli, chiqmasak chiqmabmiz. Biror marta ayol bilan shunday... bo'lganmisan?

– O'zing-chi, o'zing biror erkak bilan bo'lganmisan?

– Bir vaqtlari, qizaloqlik paytimda bo'luvdi. Hazillashib. Al-laqaysi bir saroyda... tushundingmi? Lekin rashk qilma. Senga bu baribir-ku?

– Bilmadim.

– Rashk qilmaslik kerak. Sen yotaver, seni o'paman. Keyin sen meni o'pasan.

O'sha sovuq tongotar arafasida ikkovi ham qurshab olingan qishloqdagi chordoqda bir-birlariga to'yib, uxlab yotganlarida, Nikitin qattiq gumburlashdan uyg'onib apil-tapil ko'zlarini ochdi. Qiz esa uni quchoqlab bilagida yotar, xuddi himoya topganday boshini bemalol qo'ygan, yuzi go'dak yuziday ma'sum, sal xafaroq, sochidan bodom hidi kelardi. Nikitin qizning kecha yuzi tiniq ko'rinsin uchun uringanlarini eslab rahmi kelar, ikkovlari ham tajribasizliklariga borib shoshqaloqlik oqibatida visol lazzatini yetarlicha surmaganlaridan afsuslanardi.



Chordoqning binafsharang darchasidan motorlarning gurillagan ovozlari tobora ayonroq eshitila boshladi, ko'p o'tmay, sariq nur zirillayotgan oynani siypab o'tdi, ko'chadagi tank ovozlari orasidan nemis tilidagi buyruq eshitildi... Nikitin ko'chada nimalar bo'layotganini hali ko'rmasa ham nemislar qishloqni ishg'ol etishgani, divizion tor-mor qilinganidan keyin bir nechtagina askar bilan o'zi-yu mana shu qiz qolganini bilardi. Shuning uchun ham ko'kragi muzlabroq qo'lini qizning boshi tagidan tortib oldi-da, chordoq darchasi yoniga bordi. Chiroqlarni yoqqan tanklar kolonnasi ko'chani to'ldirib kelar, yo'lning ikkala tomonida esa piyoda askarlar safi odimlardi.

– Tur! Tez! – Nikitin qizning yelkasidan ushlab, silkidi-da, apil-tapil tasmasini taqa boshladi.

Nima gapligiga tushungan uyquchan qiz aftini bujmaytirib: «Nima? Qanaqa tanklar?» dedi. Biroq gap nimadaligiga aqli yetganida Nikitin unga og'iz ham ochirmay shivirlab, bir qadam ham qolmaysan, deb buyurdi. Keyin avtomatini shay tutib, chordoq eshigini ochdi-da, egasiz uyning zax dahliziga oldin o'zi tushdi.

Tanklarning guldurashi, zanjirlarining shiqirlashi butun uyni boshiga ko'tarar, oynalar zirillab, tanklarning chiroqlari uyni ko'ndalang yalab o'tar, po'panak isi bosgan dahlizdagi bo'sh chelakning bandi ham shiqirlardi.

– Biz bu yerdan chiqolmaymiz... o'zim ham shunday o'ylovdim, – dedi Nikitinning ketidan tushgan qiz shivirlab. U qutulib ketishdan umidini uzganday yonog'ini Nikitinning yag'riniga qo'ydi. – Qayoqqa qochamiz? Bizni o'ldirishadi, leytenant...

– Ortimdan yur! Bir qadam ham qolma! Tomorqalardan yuramiz... O'rmonga! – Nikitin qizning ko'z yoshisiz yig'lab, ojiz qolayotganini ko'rgani uchun g'ijindi. – Ma! To'pponchamni ol! Otishni bilasanmi?

– Yo'q, yo'q... Faqat jarohat bog'lashni bilaman xolos.

– He, jin ursin, qara! Manavini bosish kerak. Bu tepkisi. Nishonga olib turib, bosish kerak!

Shundan keyin ular titig'i chiqib ketgan uvatlar orqali qocha boshlashdi. Qorong'ilik, chekkadagi uylarni yaxshi ko'risholmas, chuqurlarga tushib ketib, shamolda dirillayotgan jo'xori poyaloriga urilishar, ikkovining ham o'pkalari shishib ketgan, quloqlari

shang'illashidan bo'lak hech nimani eshitishmasdi. Motorlar ovozi, tankchilarning ochiq luklardan eshitilayotgan nemischa buyruqlari endi chap tomondan kelardi, tank chiroqlari ham uylar orasida pasayib, o'sha tomonga keta boshladi. Nikitin bilan qiz tongotar havosida bo'zrayib turgan dalaga tomorqalar orqali o'tib borishar, undan naridagi siyohrang osmon tagidagi tekis o'rmonni ham ilg'ab qolishgandi.

Nikitin mushak otilib, hammayoqni, yog'och ko'priknini ham ko'kish nuri bilan yoritib yuborganidan kerakli fursatni qo'ldan boy berdigina emas, oldindagi tepalikda turgan ikkita askar «Halt» («To'xta») deb baqirganlarini ham ancha kech eshitdi. U qizning yengidan tortib, o'zini tappa yerga tashladi-da, boshini nam ang'izga suqdi. Shu payt avtomatdan uzilgan o'qlar ustlaridan vizillab o'tdi.

«Halt, Halt!» – bu so'zlar Nikitinning qulog'iga yuragi urishiga qo'shilib eshitalardi.

Shundan keyin Nikitin avtomatining stvolini oldinroqqa chiqardi-da, yagona qarorga kelib shivirladi:

– Ular ikkita... hozir yaqin kelishadi, men bir sidra o'q uzaman! Shundan keyin ko'prikdan chopib o'tamiz! Ko'prikda to'pponchadan osmonga bo'lsa ham o'q uz! Tushundingmi?

– Bo'пти. Tushundim. Anavi...

Nemislar yaqinlashishmadi. Ular tepalikda arang ko'rinib, yigirma metr naridagi yulduzli osmon tagida turishar, bir-biri bilan asta gaplashishardi. Shundan keyin vishillab otilgan mushaklar quloqlarini qomatga keltirdi. Banogoh Nikitinning avtomati tarillab boshqa ovozlarni bosib ketdi. U pastlatib o'q uzgan, nega deganda, daryo yoqasidagi tepalikda turgan ikkita nemis askarini yaqqol ko'rgandi, tepalik tongoldi osmoniga nisbatan qorong'iroq bo'lgani uchun askarlar yer tishlagani ham ko'zga tashlandi.

Cho'kkan jimlikda oldindan kimningdir chinqirgani, go'yo avtomat kaskaga tekkandagiga o'xshash temirning sharaqlashi eshildi. Nikitin jallod boltasidan qutulgan mahkumday butun vujudi to'liqinlanib qizga boshqacha ovozda hayqirdi:

– Tez bo'! Ko'prikdan o't! Orqada qolma! Tez!

O'zi esa irg'ib turdi-da, boyagiday qahr bilan tepalikka ketmaket o'q yog'dirgach, ilonizi yugura-yugura oxiri daryoga o'tadigan yo'lni topdi. U o'q uza-uza sohilga chiqib oldi. Besh metrcha oldin-

da xodalardan qurilgan bo`m-bo`sh ko`prik ko`rinar, suvda binafsharang osmon aks etardi.

– Leytenant, sabr qil! Ortiq kuchim qolmadi... Shoshma!

Nikitinga yetib olgan qizning o`pkasi tiqilib, yuzida qon qolmangandi. U to`pponchali qo`lidagi sanitar sumkasi bilan zo`rg`a shivirladi:

– Hozir yiqilaman... Sabr qil, kuchim qolmadi...

– Sumkani tashla, tashla deyapman! Ortimdan ko`prikka yugur! O`tamiz-u o`rmonga kirib ketamiz! Hammasini tashla! Ko`prikka yugur!

– Yo`q, ortiq yugurolmayman, azizim, sabr qil...

Qiz nafasi tiqilib, yerga cho`kkach, ko`zlarini yumdi. Nikitin favqulodda qo`pollik bilan uning yelkasidan ushlab sudradi, oldinga turtib, darg`azab buyurdi:

– Yugur! Men ortingdan boraman! Bo`l! O`tinaman!..

Ular ko`prikka qadam qo`yganlarida qizning oyoqlari chalishib panjaraga yopishdi-da, bir amallab, arang uch-to`rt qadam bosdi. Keyin hiqillab:

– Bas, meni qiynama... – dedi.

– Bo`laqol! Nima bo`ldi senga? Nima qilganing bu? – Nikitin qizni chopishga majbur qilolmayotgani, o`zi esa uni tashlab yugurishga haqi yo`qligi uchun bo`g`ilib baqirdi. U yana boyagiday qizning yelkasidan siltab tortgandi, panjaradan qo`li chiqib ketgan qiz yiqilishga sal qoldi.

– Tez, bo`l tezroq!

Ular ko`prikda chopa boshlaganlari zahoti orqadan pulemyot tarillab, yonuvchi o`qlar ustlaridan vizillab o`tdi. Nikitinning sochlari-gacha tikkayib ketdi. U qizni ko`prikka yotqizdi-da, yaqinroq surilib dahshatli qiyofada baqirdi:

– Emakla! Narigi betga! Bo`l!.. Emakla, imillamasang-chi!

Nikitin bir daqiqa oldin avtomatidan ustma-ust o`q uzib, tepalikda ko`prikni qo`riqlayotgan ikkita askarni yer tishlatganiga ishon-gandi. Hozir esa qirg`oqdagi okopchada pulemyotli uchinchi dushman qolgani va u bularni ko`prikda ko`rgan zahoti o`t o`chganiga amin bo`ldi.

Qaytadan ustlariga o`q yog`dirilishini bilgan Nikitin xirillab: «Ko`prikning naryog`iga emakla», degan, qizning qanday emaklab

ketayotganiga ham qaramadi. Qiz ingrab ilgari lardi. Dag'-dag' titrayotgan Nikitin ko'prik panjarasi panasida avtomatini xodaga qo'yib olgan, tepalikdan tizilib yalt-yult uchayotgan o'qlar suvga yaqin daraxtlar tanasini g'alvirak qilardi. Uning muzdek temir avtomat tepkisiga yopishgan barmoqlari karaxtlashib qolgandi. Avtomatdan o'q yog'dirarkan, qo'ndiq yelkasiga qattiq tepar, xaloskor suvning yaqinligi dalda berardi: mabodo og'ir yarador bo'lib qolsa, sal o'rnidan qo'zg'alib, panjaradan oshadi-da, yo pastga qulab chilparchin bo'ladi, yoki qutulib ketadi.

– Emakla! Emaklayver! – deb baqirdi u. – Ko'prikdan chiqma! Ko'prikdan chiqma!

Nikitin tepkidan qo'lini olmay, ketma-ket o'q yog'dirishda davom etdi. Shu payt nogahon oraga sukunat cho'kdi. Chunki o'qi tugagan avtomatning «shaq» etib ovozi o'chgandi. U azbaroyi qizishib ketgani uchun qancha o'q borligini ham hisobga olmagan ekan. Qulog'i qattiq shang'illardi. Tepalikdagi pulemyotning ham ovozi o'chgan, endi o'qlar uchmasdi. Nikitin o'rnidan irg'ib turdi-da, engashgan ko'yi etigini do'qillatganicha ko'prikdan narigi qirg'oqqa yugurdi. U qutulganiga suyunib o'zini tepalikdan pastdagi nam may-sazor ustiga tashladi. Shunda muvaffaqiyatli otishma va ko'prikdan yorib o'tgandan keyin ko'raman, deb xayoliga ham keltirmagan narsani ko'rib qoldi.

– Nima gap? Nima qildi?

Qiz gimnastyorkasining ko'krak tugmalarini yechib paxta bilan kiftini artardi. Nikitinning ko'zi qizning qonga belangan, o'tgan kecha pichanxonada (umrida birinchi marta) o'zi o'pib, erkalab, siypalagan siynasiga tushib qoldi. Yonida paxta bilan spirt shishasi turardi! Bu shishani qiz nemislar kuzak sovug'ida qurshab olgan qishloqdagi chordoqda ikkovlari to'yib-to'yib o'pishishlaridan avval yuzlari g'uborini artib tashlash uchun sanitar sumkasidan olgan edi.

– Qachon yaralanding? Qayerda? Qanday qilib? – so'radi Nikitin qiz siynasidagi qondan gangib. Qizning siynasi yumshoq va yoqimli edi, ajoyib hidi hamon dimog'idan ketmasdi. Kutilmagan bu falokatdan shoshib qolgan Nikitin sanitar sumkasidan doka olib yordam berarkan, harsillab gapirdi: – Hozir bog'lab qo'yaman. Shoshmay tur. Hozir...

– Mayli, – pichirladi qiz lablarini arang qimirlatib. Hozir u Nikitindan sira uyalmas, Nikitin esa qizning haroratsiz, karaxt lablari arang ochilganini ko‘rib turar va yordami zarurligini ham sezardi. U ro‘y bergan falokat qarshisida nochorligi va qiz tortayotgan azobni qanday yengillatishni bilmay ich-etini yer, o‘zini aybdor hisoblab, nafratdan dag‘-dag‘ titrardi. Nega qizni yugurishga majbur qildi, yana yelkasidan tortdi-ya? Nahotki u ko‘prikda yaralangan bo‘lsa?

– Meni kechir... Yarador bo‘lganingni ko‘rmovdim, xabarim yo‘q edi. Ko‘prikda yaralandingmi? – qizga achingan Nikitin negadir o‘zini oqlab shunday derkan, uning siynasi, yelkasidan sirg‘alib ketayotgan dokani to‘g‘rilab, tortib qo‘yar, dokadagi qon dog‘i katalashayotganidan dahshatga tushardi. – Ketishimiz kerak... Ayni zimistonda. Yurolasanmi? O‘rmongacha uch yuz metrcha qoldi xolos, u yog‘i ozodlik... Menga suyanib olasan... Sekin yuramiz! Qani, o‘rmingdan tur, bardam bo‘l, kedik!

– Asir tushishni istamayman, leytenant, – ingrab yubordi qiz, – hozir yurolmayman. Picha sabr qil. Menga qarashib yubor.

Nikitin qizni bir pas bag‘riga bosib turdi. Qizning madorsiz gavadasi titrar, dahaniga tegib turgan peshanasi terga botgandi.

Shundan keyin ikkovi oshiq-ma‘shuqday bir-birining og‘ushida daladan asta yurib ketishdi. Qiz Nikitinning belidan quchoqlab olgandi. Nikitin qiz badanining nazokatini ham, vujudining taftini ham sezmas, qulog‘iga o‘ng va orqa tomondagi kolonna ketayotgan yo‘lning chekkasidan tanklarning olis ovozi eshitilar. Qizning qadam tashlashi sekinlashib, yiqilib tushishidan cho‘chigani uchun xirillagan ovozda, o‘rmonga yetib olsak bo‘lgani, shu daladan o‘tib olsak bas, keyin dam olib, o‘zimizning askarlarimizga borib qo‘shilamiz, derdi.

O‘rmonda ikkovi ham qattiq toliqib, xazonlar uyumiga qulashdi. Ularni qattiq uyqu bosib kelgandi. Ammo go‘yo oradan xuddi bir daqiqa ham o‘tmagandek, Nikitin qandaydir ovozlardan uyg‘onib ketdi. Daraxtlar shovullar, silkinayotgan shoxlar va shamol yulqilab uchirayotgan sarg‘ish yaproqlar orasidan sovuq noyabr quyoshi mo‘ralardi. Nikitinning yonida bukchayib o‘tirgan qiz tizzasida to‘pponcha, barmoqlariga tikilib, to‘pponcha tepkisini asta timagan ko‘yi ko‘z yoshlari yuzini yuvar va yig‘lamsirab:

– Leytenant, leytenant... – derdi.



– Nima gap? – Nikitin shunday deya turib o'tirib, qizdan to'pponchani tortib oldi-da, qiniga solib qo'ydi. Keyin so'radi: – Xo'sh, nima bo'ldi? Qurolni nega olding?

Qiz yalang'och shoxlar orasidan mo'ralayotgan xira quyoshga qarab ichidan kelgan yig'ini bazo'r bosardi.

– ...Menga rahming kelyaptimi, leytenant? – so'radi u yig'i aralash burnini tortib. – Dahshatli tush ko'rdim... Go'yo may-sa ustida yotganmishman-u, yuzimda chumolilar o'rmalarmish. Qo'rqqanimdan uyg'onib ketdim, leytenant... azizim, menga rah-ming kelyaptimi?..

– Qo'y bunaqa gaplarni! – shartta uni bo'ldi Nikitin yuragi g'ashlanib. Chunki u o'lganlarning yuzida chumoli o'rmalaganini ko'p ko'rgan, chamasi buni qiz ham ko'rgandi. Nikitin qizni may-sa ustida jonsiz yotishini ko'z oldiga keltirolmasdi. – Ketdik! Kuzda chumoli nima qiladi? Ketdik! Endi bu haqda og'iz ochma! Bir amal-lab yetib olamiz. Yaqin qoldi.

Nikitin kiftini tutib, qizni turg'azib qo'ydi. Qiz ingradi-da, unga suykanib, sovuq, qaqroq lablari bilan yigitning soqol bosgan daha-ni, gimnastyorkasining pogoni yonidagi terlagan bo'yni aralash o'pa boshladi. Uning ovozi noladek yangrardi:

– Sen dunyodagi bitta-yu bitta yaqinimsan... Sendan bo'lak hech kimim yo'q endi. Meni sevasan-a, leytenant? Astoydil-a?

– Ketdik, seni suyab olaman! Ha, seni sevaman! – bo'g'iq g'udrandi Nikitin qizning jovdirayotgan ko'zlariga qaramay. U qiz-ga yolg'on gapirayotgandi. Nemislar ishgo'ol etgan qishloqdan qo-chish, ko'chadagi tanklar kolonnasi, dala va ko'prikdagi otishma, qurshovdan chiqolmaslik xavfi, qizning yaralanishi, o'rmon orqali o'zimizning qo'shinlar tomonga yorib o'tish istagi – bularning bari chordoqda ikkovi surgan visol nashidasini yo'q qilib tashlagandi.

– Ketdik, shunday qilmasak bo'lmaydi! Menga suyan! Biz qochishimiz, bu yerdan yorib o'tishimiz kerak. Yaqin qoldi, o'rmonning naryog'ida bizning qo'shinlarimiz!

Qiz itoatkorona Nikitinning belidan quchoqlab, boshini orqaga tashlagan ko'yi chayqala-chayqala odimlarkan, shivirlardi:

– Rahmat senga, rahmat.

Ertasiga qizning og'zidan qon keldi. Bu ertalab bo'ldi. Ular ke-chasi bilan yurib, o'rmonda rosa tentirashdi, shundan keyin holdan

toyib jilg'aga yaqin jarlikdagi xazon uyumi ustida chalqancha yotib qolishdi. Arang nafas olishardi.

Banogoh Nikitinning qulog'iga ingroq, yo'tal, inqillash eshitildi. Nikitin qizning iztirobli yuzida hayrat va alam o'lim dahshati bilan olishayotgani, qayrilma qoshlari, ko'zlari, og'zidan sizayotgan qonni ko'rib, bamisoli ajal ta'qib etayotganday qiz atrofida parvona bo'la boshladi. Musibat gangitib qo'ygan yigit qizdan nima qilay, nima istaysan, qanday yordam beray, suv ichging kelyaptimi, ko'ngling nima tusaydi, deb so'rardi... Qiz esa nafasi bo'g'ilib, nochor yerga cho'zilgan yonidagi yigitning gaplarini tushunmas, eshitmas, ko'zga ko'rinmay shafqatsiz tahdid qilayotgan ajal bilan jon holatda olishardi. Nikitin jilg'adan pilotkasini to'ldirib suv olib kelib qizning sokin yuziga sepd. U boyagina vujudini qamragan qo'rquv aralash ertaga yoki bahorda jonlangan chumolilar qizning mana shu qoshlari, mana shu qop-qora kipriklaridan o'rmalashini ko'z oldiga keltirdi.

Nikitin tiz cho'kkan ko'yi ter hidli ho'l pilotkasini changallab turar, tishlari takillab, tomog'ini bir narsa bo'g'ardi.

U qizni jarda ustiga loy va xazon tashlab dafn etdi.

Bu Nikitinning, mabodo muhabbat deb atash mumkin bo'lsa, urushdagi ilk muhabbati edi.

«Hali-zamon eshik taqillaydi-da, hammasi rasvo bo'ladi...».

– Name, Name... mein Name Emma, – qiz kulib ko'rsatkich barmog'i bilan o'zining ko'kragi, keyin esa Nikitinning ko'kragiga yumshoq niqtab so'zlay boshladi. – Bitte schön, Name... Jwan? Johaöönn? Russisch heißt Peter? Name...

– Vadim, – javob qildi Nikitin qiz nima so'rayotganini fahmlab.

– Vadi-im, – qiz cho'zib takrorlagach, mamnun kuldi-da, kaf-tini yana uning va o'zining ko'kragiga niqtarkan, (u so'roqda ham shunday qilgandi) hijjalab davom etdi: – Va-di-im, Em-ma, Vadim, Em-ma... Verstehst du? Va-dim, – so'ngra nim ochiq va shishgan lablarini Nikitinning lablariga yengil suykadi. Shunda yuvilgan sochlari Nikitinning yuzini siypalab o'tib, yoqimli hid taratdi. – Emma, Vadi-im...

– Emma, – shivirladi Nikitin. Keyin qizning gavdasi o'ziga yanada mahkamroq yopishib, qo'li esa bo'ynidan quchayotganini sezarkan, o'zi ham qarshilik qilmay, bundan bir necha daqiqa oldin-

gi lazzatni tusab qolgani uchun qizning nim ochiq lablari orasidan ko'rinib turgan sadaf tishlaridan, rohatdan sal egilgan bo'ynidan o'pa ketdi... Nihoyat, ular toliqishdi, lazzat nash'asini surib yotisharkan, ko'zlari yumuq Nikitinning ko'ngliga g'ulg'ula tusha boshladi.

«Menga nima bo'ldi o'zi? Nega bunday qildim? Qanday ro'y berdi o'zi?!»

Nikitin go'yoki sotqinlik, jinoyat, tushda ro'y berganga o'xshash qandaydir xilof ish sodir bo'layotgani, ko'p sabablar tufayli qaltis qadam bosayotganini sezardi.

«Mabodo mana shu voqea batareyaga yoyilsa, qanday tushuntiraman? Nima deb javob beraman?.. Endi nima bo'ladi?.. Bu ish g'alati, ajib ro'y berdi-ku! Endi... Endi nima bo'ladi? – Nikitin o'zini elitayotgan mudroqda, qandaydir bo'shshib shularni xayolidan o'tkazarkan, bu ish qanday va qaysi lahzada ro'y berganini aniq izohlaydigan mantiq topolmasdi. – Ha, men zobitman, o'z qilmishimga javob berishim kerak... Men hech qachon xiyonat qilmaganman, shuning uchun ham keyin menga nima bo'lishining ahamiyati yo'q. Emma, Emma... u ketishi kerak. Hali-zamon eshik taqillaydida, hammasi tugaydi...».

## OLTINCHI BOB

– Kiravering, Ushatikov! Xo'sh, nonushta payti bo'lib qoldimi?

– Tabriklayman, o'rtoq leytenant!

– Sizmisiz, Mejenin? Nima bilan tabriklaysiz? Urush tugadimi?

– Tongning ajoyibligini qarang, o'rtoq leytenant. Quyosh xuddi ertaklardagidek nur sochyapti, qushlar sayrayapti, jimjitlik – naq jannatning o'zginasi. Urush tugagani haqida hali xabar kelmadi. Xo'sh, yaxshi dam oldingizmi?

– Kecha sizga kartada yutqazganimga qaramay juda yaxshi uxladim. Knyajko qayerda?

– Hovlida. Barvaqt keldi. Batareyada jismoniy tarbiya o'tkazishga tayyorgarlik ko'ryapti. Safda yurish mashg'uloti bo'lsa kerak. Soqol olishingizga, mana, qaynoq suv olib keldim.

– Suv uchun rahmat. Bir oz tushunolmayapman... Nega Ushatikovning o'rnidasiz? Unga nima bo'ldi?

Yuvinib, soqolini silliq qirgan serjant Mejenin kotelokni dera-za tokchasiga avaylab qo'ydi-da, go'yo kecha oralaridan hech gap o'tmaganday Nikitinga muloyim ko'zlarini tikdi, so'ngra g'ijim bo'lgan to'shakka qarab sergak tortdi.

Nikitin rasmiy ohangda so'radi:

– Nimadir demoqchimisiz?

– Shaxsiy gap bor, o'rtoq leytenant, – Mejenin erinibroq va ensasi qotibroq gap boshladi: – Kechagi voqea bo'yicha tushuntirib qo'yishim kerak. Kecha rosa adabimni berdingiz. Menga yomon tashlandingiz, sal bo'lmasa to'pponchangizni yalang'ochlay dedingiz, aslida esa ish siz o'ylaganday bo'lmagandi.

Nikitin xrom etiklarini tortib kiyib, go'yo Mejeninning tushuntirishlarini e'tibor bilan tinglayotgandek poshnasini polga urib-urib qo'ydi.

– Ya'ni, qanday? Men qanday o'ylabman?

– Men shovqinni eshitib, o'sha malla nemis manjalaqini garderob oldida ko'rganimda, – Mejenin ko'z ostidan o'g'rincha yana to'shakka qarab, ming'irlashda davom etdi, – u o'zini qo'rqqanday ko'rsatib yig'lasa ham qo'limdan ushlab, meni karavotga sudradi. Naq ustiga tortganida siz kirib qoldingiz... O'shanda xayolingizga yomon fikr keldi. Aslida esa unday emasdi...

Mejenin kiprik qoqmay yolg'on aytar, biroq bu aldovda o'zini oqlash yoki ayblashga shama yo'q edi.

– Menga ertak aytmoqchimisiz, serjant? – deya Nikitin suhbatni boshqa mavzuga burdi: – Vzvodda nima gap, hammasi joyidami?

– Naq dorixonadagiday, – javob qaytardi vijdoni zarracha ham qiynalmagan ohangda Mejenin, so'ng yana kechagi voqeaga qaytdi. – Nemis qizni qarang-a! Ham suzong'ich, ham tepong'ich-ku. O'zi «neyn» deb dodlasa ham meni to'shakka tortdi-ya. Nemis ayollari endi shu yo'l bilan o'ch olishmoqchi shekilli. Siz esa tushunmadingiz. Ochig'ini aytсам, ushbu nozik masalada sizning tajribangiz kam.

Kuni kechagina Mejeninni juda yomon ko'rib, mana shu xonadagi jirkanch kirdikordan keyin aybini kechirmaslikka ahd qilgan Nikitin qizarinqirab chetga o'girildi, uni uyat va nomus ich-etini kemirayotgandi. U o'rtalarida bo'lib o'tgan o'sha ko'ngilsiz voqeaga qaytishni istamasdi. Nega deganda, u bir tomondan Mejenin da-

rajasiga tushmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan aybi yo'q ham deb bo'lmasdi. Shu vajdan vijdon azobida qovurilayotgan Nikitin Mejeniga iloji boricha osoyishtalik bilan javob qildi:

– Bo'ldi, Mejenin, bas qilaylik endi. Eslab o'tirishning hojati yo'q. O'tgan ishga salovat. Sizga ruxsat. Men besh daqiqadan keyin tushaman.

Biroq Mejenin ketavermagach, Nikitin javon tepasidagi ko'zguga yaqinlashdi-da, soqol olmoqchi bo'layotganday dahanini changallab ko'zgu orqali Mejeniga ko'z qirini tashladi. U bo'lsa chiroyli yuziga yarashmaydigan xunuk kurak tishini ko'rsatgan ko'yi irshayib turardi. Bu Nikitinga xuddi shapaloq tortib yuborganday bo'ldi.

– Yana nima gap, Mejenin?

– Ha, anavi, nimaydi-ya...

– Xo'sh, nima demoqchisiz?

– Ko'rinishingizdan, tunda yomon uxlaganga o'xshaysiz, – dedi Mejenin. U ko'zgu orqali Nikitinga qattiq tikildi. – Qovoqlaringiz osti ko'karibdi, toliqqansiz, uyqusizlik yomon-a? Ertalab to'plar oldidagi postlarni tekshirmadingiz shekilli, o'rtoq leytenant? Xonangizdan chiqmadingizmi?

– Ertalab? Yo'q, nimaydi, xo'sh?

– Xuddi ertaklardagidek. Ajabo!

– Kanaqa ertak?! Ajaboyingiz nimasi?

Mejeninning yuzi jiddiylashgan, u endi irshaymas, ovozi axbot berayotganga o'xshasa-da, picha kalaka ohangi ham sezilib turardi:

– Barvaqt turuvdim, o'rtoq leytenant, ehtiyoti shart, soqchilar bilan nemislarni ham bir tekshirib qo'yay, dedim. Zinadan bu yoqqa, ularning sizniki bilan yonma-yon xonasiga ko'tarilib quloq solsam, hech qanday sharpa eshitilmayapti. Eshik ochiq, xonada esa hech kim yo'q. Qarasam, o'rtoq leytenant, sizning xonangizdan, – dedi Mejenin go'yoki hayrati ortib borayotgandek, – sizning xonangizdan qandaydir shivir-shivir, kulgi va nemischa gaplar eshityapti... Hech narsani tushunolmay rosa hayron bo'ldim...

Bardoshi tugagan Nikitin shartta o'girilib, qo'lidagi ko'pikli cho'tkani krujkaga tashladi. Mejeninning gaplari yelkasini og'ir toshday ezib, g'azabi qo'zib ketdi.



– Xo'sh, nimani eshitdingiz? Eshik ortidan men nemischa so'zlarni ovoz chiqarib o'qiganimni eshitdingizmi? Ich weiß nicht, was soll es bedeuten<sup>1</sup>. Shundaymi? («Nima, uning oldida o'zimni oqlayapmanmi? Yolg'on gapiryapmanmi yo o'zimni oqlayapmanmi?») Yana nimalarni eshitdingiz?

Mejenin Nikitinga uyquli ko'zlarini qisib, noxush qaradi, lekin hech narsa demadi. Nikitin garchi serjant sirdan xotirjam ko'rinsada, alami ichidaligi, kecha oralarida ro'y bergan voqeani har tomonlama o'ylab, reja tuzib kelganini sezardi.

– Xo'sh, yana nima demoqchisiz, Mejenin?

– Nemis qizni mendan tortib olgan bo'lib chiqyapsiz, o'rtoq leytenant, – dedi Mejenin Nikitinning tutoqqaniga parvo ham qilmay. – Ikkovimiz til topishganga o'xshaymiz. Biroq oxirigacha emas.

– Aniqroq qilib so'zlasangiz! Nimada til topishibmiz?

Nikitinning qanshari bilan peshanasiga suzilib qarayotgan Mejeninning javobi tayyor edi.

– Bir fikr kelib qoldi, o'rtoq leytenant, buni qanday aytsam ekan sizga? Nemis qiz bilan aloqa qilgan zobitning boshini silamasliklari aniq. Maishiy buzuqlik bu. Naq jazo bataloniga tushish mumkin. Lekin men erkak kishining tabiatini tushunaman. Yopig'liq qozon yopig'lig'icha qolaversin, hidi ham chiqmaydi. Faqat, xudo haqqi, aytib qo'yay, meni hadeb ezavermang. Quyushqonni xush ko'rmayman, tobim yo'q, o'zingiz bilasiz. Tabiatim shunday. O'g'il bola gapim shu. Urush ham, mana, tugay deb qoldi. Tugadi hisob. Bu yog'iga tinchgina yashayveramiz.

Mejenin o'ziga ishongan, mustaqil, gapimni to'g'ri tushunishadi, deb o'ylaydigan odamday bir maromda so'zlar, uning dadilligida hayotda ko'p narsa ko'rgan, til topishish mumkin bo'lganda ahvolni mushkullashtirmaydigan odamning tajribasi borligi sezilib turardi. Nikitinning sabri tugab borayotgan bo'lsa ham sinchkovligi tutib so'radi:

– Bundan chiqdi. hamma narsada sizga xalaqit berayotgan ekanman-da, serjant?

– Erkakchasiga aytyapman, – ming'irladi Mejenin boyagi gapini takrorlab. – Shunda tirikchiligimiz yaxshiroq bo'ladi, o'rtoq leyte-

<sup>1</sup> Men uning nimaligini bilmayman.

nant. Mana, ikkimiz xoli turibmiz. Sizga va'da beraman, aytganlaringizni barini bajaraman, siz esa mening ba'zi bir ishlarimga aralashmasangiz.

– Qaysi ishlarimgizga?

– Qaysi birini aytay?! – ters javob qildi Mejenin kutilmagan-da. – O'rtamizda daryo bor, o'rtoq leytenant. Siz bu qirg'oqda, men esa narigi qirg'oqdaman. Daryoni allaqachon suzib o'tgan bo'lardim. Joningga tegib ketgan, salomat bo'lsinlar. Siz esa hali suzib ko'rmagansiz. Joningizga tegmagan ham. Garchi jangda qoyil qilayotgan bo'lsangiz ham bolalikdagiday maysazor uzra chopib yuribsiz. Turmush achchiq-chuchugini totib ko'rmagansiz. Gap mana shunda. Mening oldimda go'daksiz. Ochig'ini aytaman. Menga xalaqit bermang!

– Menga qarang, serjant! – o'zini tutolmay qoldi Nikitin. – Qo'shmachi xotinga o'xshab eshik tagida gap poylaganingiz yetmagan-day, menga hali tahdid ham qilyapsizmi?! U holda bilib qo'ying: Jitomirdagiga o'xshash «osoyishtagina» ishlarimgiz endi o'tmaydi! Vzvodga boring! Tushunarlimi? Jo'nang!

Mejenin kipriklarini alamli yumib, lunjini qimirlatib qo'ygandi, ayollarnikiga o'xshash jajjigina quloqlari sal qimirlaganday bo'ldi. U taassufli ohangda ogohlantirdi:

– Ko'zingizni oching, o'rtoq leytenant, keyin mendan yozg'irib yurmang. Goho qizishganimda o'zimdan o'zim qo'rqib ketaman. Siz bilan erkakchasiga gaplashsam, degandim. Siz esa eski gaplarni qo'zg'adingiz. Men eski gaplarni unutib yuborgandim...

– U holda kechagi tunni eslatishimni istaysizmi?

– Men bilan g'ijillashishning keragi yo'q, leytenant. Sizga kerakli odamman. Kechagi ishga kelsak, juda mujmal narsa. Kechasi hamma mushuklar bo'zrang ko'rinadi. Xayolga hamma narsa kelishi mumkin, buni hech kim ko'rmagan. Mening esa ko'zim bor. Xudo guvoh...

Mejenin yengil xo'rsinib qo'ydi-da, pastga egilib tartibsiz o'ringa yana ma'noli qaradi, keyin eringandek burilib, chayqalganicha chiqib ketdi.

Nikitin g'azabi ortib, Mejeninning bunchalar nopisandligiga, surbetligi, til topishib, kelishib olmoqchi bo'lganidan battar tutoqardi. Shuning o'ziyiq Nikitinning o'ta go'lligidan nishona edi. Mejenin kecha pand yegani uchun garchi o'tmishga aloqador «siz esa

eski gaplarni qo'zg'adingiz»dan bo'lak gap aytmaganiga qaramay, Jitomirda bo'lgan ishlarning ham alamini olayotgandi.

«Eski gap» qirq uchinchi yilda bo'lgandi. Ha, Nikitin nemislar qarshi hujumga o'tishgan va uyqudagi shaharni tanklar bilan ishg'ol qilishga uringan tumanli noyabr tongini yaxshi eslar, o'shanda batareya komandiridan shaharning g'arbiy chekkasiga siljib, tanklar xavf solayotgan yo'nalishda yangi marra egallash haqida olgan buyrug'ini ham unutmagandi. U shunday buyruq bilan vzvodga qaytganida to'plar yonida Mejeninni ko'rmadi. Uni qidirib, kecha tunashgan, o't ochish nuqtalariga yaqin uylardan birida qattiq mast holda topib oldi. Mejeninning egnida gimnastyorkasi yo'q, qandaydir ikkita yosh juvonnei bag'riga tortib o'tirar, oldilaridagi stolda yuviqsiz likoplar, bo'sh shishalar, konserva bankalari, fransuz shokoladi qoldiqlari, nemislardan o'lja olingan kolbasalar qalashib yotardi.

Kievdan keyin Jitomir shitob bilan olingani uchun nemislar zaxiradagi oziq-ovqatlarni olib ketishga ulgurisholmagan, batareya o'qchilar polkiga madad sifatida yuborilgan va vokzal yonidan o'tayotib avvalo pakgauzlardagi omborlarga duch kelgandi.

Nikitin o'sha tongda Mejeninni vzvoddan emas, o't ochish nuqtalarining yonidagi uydan topganida ko'p-da ajablanib o'tirmay, unga tezda yuvinib, kiyinishni va izidan to'plar yoniga yetib borishni buyurdi. Mejenin bo'lsa, uning gapini oxirigacha eshitmay, stol yonidan chayqala-chayqala turdi-da, xiringlayotgan, qora soch va yarim yalang'och juvonnei unga tomon itarib qichqirdi: ~

– Sen ziyolisan, leytenant! Biz bilan ichgin-da, ziyolichasiga manavi ayol nash'asini sur, u nemislarning gospitalida ishlagan, tajribali! Umringda ayolning qo'lini ham ushlamagan bo'lsang kerak! Uni narigi xonaga olib kir, tortinma, leytenant!

Mejeninning xaxolashidan Nikitin tutoqib ketdi.

– Men kutib turaman, – dedi u xotirjam gapirishga urinib. – Zinada besh daqiqa kutaman. Bo'la qoling, Mejenin.

Nikitin zinada Mejeninning chiqishini kuta boshladi. Vzvod tanklar xavf solayotgan yo'nalishga ko'chirilajagi haqidagi buyruqni birov bekor qilishi yoki o'zgartirolmasligini bu borada tajribasi bor Mejenin yaxshi bilardi.

Mejenin o'n daqiqadan keyin ham chiqmadi. G'azabini arang bosayotgan Nikitin aroq, ter, yog'li go'sht konservalari hididan

dim bo'lib ketgan xonaga yana kirib, Mejeninning mast basharasi-ga qaradi. U hamon gimnastyorkasiz, isqirt ichki ko'ylakda o'tirardi. Ayollardan bug'doyrang, sochi to'ziq bittasi xunuk chiyillab Mejeninning ko'kragiga suyakalanar, baqaloq, yonoqlari katta ikkinchi ayol esa uning qulog'iga nimalarnidir shivirlab, stoldagi shokolad plitkasini sindirmoqchi bo'lardi.

– Mejenin! – baqirdi Nikitin Mejeninning gezargan, mast basharasi va yarim yalang'och, terga botgan, jirkanch ayolga zo'rg'a toqat qilib. – Qani, turing o'ringizdan, Mejenin! Siljishga buyruq olindi! Eshityapsizmi?

– Vzvod qayoqqa boradi? Qayoqqa siljiydi? – dedi Mejenin g'ashi kelganday ko'zlarini chaqchaytirib. – Kiyevni oldik, Jitomirmi ham oldik, leytenant! Nima, bunday o'ynab-kulishga ham haqqimiz yo'qmi? Bunga qon to'kib erishganmiz, axir! Manavi, qoramag'izini ol deypman-ku, leytenant! Qizg'anchiq emasman! Yo bo'lmasa ket, bizga xalaqit berma, erkakchasiga gapiryapman!

– Agar o'n daqiqadan keyin vzvodda bo'lmasangiz, sizni sudga beraman, – ogohlantirdi Nikitin.

– Menga desa otib tashla! – o'shqirdi Mejenin o'rnidan irg'ib turarkan, anchadan beri yuvilmagan ko'ylagi ko'kragini yirtib. – Ot! Lekin avval jannat lazzatidan bahra olmoqchiman!

Nikitin keyinchalik o'sha vaziyatni, sud haqidagi o'zining so'zlari, ovqat, isqirt kiyimlar hidi anqib yotgan xona, buzuq ayollar, Mejenin buyruqni tushumagani yoki tushunishni istamay mast-alast baqirib, xaxolaganini eslaganida g'azablanib ketardi.

Mejenin vzvodga kechqurun, jang tugagandan keyingina bir ahvolda qaytdi. U qattiq qo'rquvda edi. Nikitinga: «Aybdorman, leytenant. Bo'ldi, ikkinchi takrorlanmaydi!» deya va'da berdi. Keyin kula-kula askarlarga, fritslarning konservasidan zaharlanib, qorni og'rib qolgani uchun medsanbatga tushganini aytdi. Nikitin churq etmadi, urushda vzvod talafot ko'rmagani uchun emas, balki jasur Mejenin batareyadagi eng yaxshi to'p komandirlaridan hisoblangani uchun ham uning gunohidan o'tdim, deb o'zini ishontirib yurdi.

Mejeninning Nikitin tekislab yuborgan o'rtadagi sovuqchilikni surbetlarcha keskinlashtirayotgani, chamasi, urushdan xoli maishatda o'tgan, xavf-xatarsiz kechgan ikki sutkaning oqibati edi. Hamma, mana hozir yer yuzida ulkan o'zgarish bo'ladi, erishilgan tinchlik,

yangi hayot va'da qiluvchi abadiy bayram tantana qiladi, deya intizor kutardi.

«Nima qilsam ekan? – dilidan o'tkazdi apil-tapil soqol qirayotgan Nikitin. – O'zim ham gunohkorman, ozmi-ko'pmi aybim bor. Chakki qadam bosib qo'ydim shekilli...».

Batareyadagilar maysazor ustida saf tortgandi. Tevarak-atrof ko'm-ko'k, oftob zabtiga olar, anvoyi o'simliklar, devor yoqalab tizilgan sirenlar-u qiyg'os gullagan olmalar hidi anqirdi. Nikitin safga yaqinlashib ana shu hidlardan to'yib simirdi.

Leytenant Knyajko alohida, «piyodalar» jismoniy tarbiyasi deb atalmish va dam olish paytlari takrorlovchi jismoniy tarbiyasini oxiriga yetkazayotgandi. Bu jismoniy tarbiya qo'l va nayzabozlik jangi, uning usullaridan iborat bo'lib, batareyadagi birorta askar ham, Knyajkoning o'zi ham oldingi marrada qo'llamagan, bular Knyajkoning fikricha tanani jismoniy chiniqtirish uchun zarur edi. Knyajko buni piyoda askarlar bilim yurtida o'qiganida o'rgangandi.

Beligacha yalang'och Knyajko o'tloq chekkasidagi, shahardan (uning buyrug'i bilan) olib kelingan va yerga qoqib qo'yilgan reklama taxtasi oldida turar, taxtada esa pivosi ko'pirib oqayotgan bahaybat krujka tasviri bor edi. Qo'lida nayzasi qaytarib qo'yilgan miltiq ushlagan Knyajko ixcham va pakana Tatkinga salmoqlab murojaat qildi:

– Harakatlaringizni qarang. Shunday yuguradimi askar? Miltiqni shunday ushlaydimi? Mushaklaringiz shalvirab yotibdi, yelkalararingiz bukik, odam qaragisi ham kelmaydi. Qorningizni torting, ko'kragingizni kering, yag'riningizni to'g'rilang! Mana bunday.

Shundan keyin Knyajko tekis qornini ichiga tortib, kiftlarini bemalol kergandi. mushakdor adl gavdasi yanayam bo'rtib ko'rindi. U gimnastika zalida mashq oldidan mushaklarini sinab ko'rayotgan o'smiringa o'xshardi.

Pakana Tatkin bo'lsa oppoq yag'rini va taqir ko'kragini oftobda yaltiratib, tasmasi tarang qornini yo'qotish payida xarsillab nafas olardi. Mo'ylovli, o'zicha doimo nimanidir hisoblab yuruvchi, ko'rinishi mug'ambir odamga o'xshash Tatkin hozir picha gangigan va aftidan jiddiy harakat qilardi. Sobiq hisobchi Tatkin vzvodga beriladigan non, tamaki va shakarni ulushlarga bo'lar, starshina bermagan qoqi non, otilgan snaryadlar, yondirilgan tanklar, batareyadagi-



larga tekkan orden va medallar miqdorini xotirasida saqlar, askarlar ham undagi bu qobiliyatni bilganlari uchun hozir Tatkinni zavqlanib kuzatisharkan, kulishar, yo'l-yo'riq ko'rsatgan bo'lishardi:

– Bundan ko'ra javonni qancha santimetrga tortish mumkinligini cho'tka solsang-chi, Tatkin! Nuqul ovqat yeyaverib qorningni qap-paytirib yuboribsan-ku!

– Qorningdan nafas olma, sariq tullak! Buqaday pishqiradi-ya! Boshqalarga yo'l bermayapsan, burningda nafas ol, baqlajonday burningda!

Leytenant Knyajko askarlarga ko'm-ko'k ko'zlari bilan sovuq bir qarab qo'ygandi, hazil-huzul to'xtab qoldi. Shundan keyin u buyruq berdi:

– Bilag'onlar safdan chiqib, Tatkinga so'nggi hujumga tashlanish mashqini ko'rsatishlarini so'rayman!

Bilag'onlardan birortasi ham safdan chiqmadi, hujumga tashlanishni ko'rsatishga talabgor topilmadi, askarlar endi kulishmas, jiddiy boqishardi. Shundan keyin Knyajko ovozigga qaraganda eti junjikkan Tatkinga buyurdi:

– Yana bir marta! Hujumga o'tganda bor g'azabingiz, dadilligingiz va kuchingizni ko'rsating! Aftingiz ham, ko'rinishingiz ham hamla qilayotgan dushmaningizni sarosimaga solishi kerak! Tushunarlimi? Yana bir marta! Boshlang!

Knyajko miltiqni shartta Tatkinga otgandi, u qurolni ko'kragiga bosib, arang ushlab qoldi-da, tomoq qirib, nayzasini chiqarib qo'ydi. Keyin saf bo'ylab ildam yurib ketdi.

– To'xta! – Knyajko ko'ngli to'lmay qichqirdi-da, shartta Tatkinning ketidan borib qo'lidan miltiqni tortib oldi. – Qaytadan! Yaxshiyamki, piyoda askarlar orasida emas, artilleriyadasiz! Bo'lmasa, hujumga faqat bir marta borardingiz xolos! U yog'i tamom bo'lardi, Tatkin! Bu yoqqa qarang! Hamma qarab, eslab qolsin! – buyurdi Knyajko.

Endi askarlarning bahor, gullar ta'siridagi kayfiyatidan asar ham qolmagan, to'g'rirog'i, Knyajkoning qiyofasi o'zgarib, hujumkor tusga kirgandi. Gavdasi shartta oldinga intildi, nayzasi dushmanga o'qtalغان miltig'i tahdidli shay qotgandi. Shundan keyin Knyajko o'tloqdan reklama taxtasi tomon otilib, bir nimalar deb hayqirgandi, Nikitinning yuragi orqasiga tortib ketdi.

Reklama taxtasi miltiqning yaltiroq nayzasidan ikki qadamcha narida edi, Knyajko unga yetganida o'ngu so'lga tashlandi, shunda mushakdor gavdasi taranglashib, miltiq nayzasi o'qday reklama taxtasining qoq o'rtasiga sanchildi. So'ng nayzani sug'urib olib, kimgadir chap berayotganday qo'ndoq bilan taxta chekkasiga qattiq urib, uni qasir-qusur yerga qulatdi. Mana shu mashq Nikitinga qandaydir g'alati, bekorchi mashg'ulotday tuyulsa-da, lekin Knyajkoning harakatlarida benihoya kuchli nafrat va g'azab namoyon edi.

– Tushunarlimi? – qichqirdi Knyajko Tatkingagina emas, balki batareyadagilarning hammasiga qarata. Shunda uning o'smirnikiga o'xshash qiyofasi yana ilgariqiday xotirjam, kamtar, qaysarona tusga kirdi. – Buguncha shu bilan tugatamiz! Ertaga esa yana takrorlaymiz! Tarqalinglar!

Shundan keyin Knyajko miltiq nayzasini yerga sanchdi.

«Buni nega qilayotganim bilaman, – ko'nglidan o'tkazdi Nikitin. – Nega men Knyajkoga tikilyapman-u, hammasi tez orada biz istagandek tugamaydiganday tuyulyapti?»

Batareya askarlari tarqalishar ekan, qarag'aylarning soyalarida, ko'm-ko'k daraxtlar orasida ularning oftobda qoraymagan yag'rirlari oqarib ko'rinardi. Ba'zilar panjaraga yaqin siren tagidagi vodoprovod tomon yuvingani borishar, ba'zilar maysaga cho'zilgan ko'yi, uning chuchmal bo'yini hidlab, o'lja sigaretalarini shoshilmay chekishar, nonushta fursati yetishini kutishardi. Ko'chma oshxonadan esa uy oldida gullagan olma uzra yengil tutun ko'tarilar, qozondan chiqayotgan bug'dan ko'pchigan oshpaz esa qo'lida cho'michi bilan ovora edi.

«Bu ishlar qanday bo'ldi o'zi? – deb o'yladi Nikitin askarlar qurshovida vodoprovod suvida yuvinayotgan Knyajko tomonga qararkan. – Bugun bari xuddi tushdagiday bo'ldi, men bo'lsam hanuzgacha tasavvur etolmayapman. Ikkovimiz ham shuni istovdikmi? Emma ham, men ham-a? Nima ish bo'lganini Mejenin ham bilarmikin?»

Shu payt serjant Mejenin erinchoqlik bilan yurib nayzasi yerga sanchilgan miltiq yoniga keldi. Uning oftobda yaltirayotgan yelkasini ter bosgan, jundor ko'kragida qanoti yoziq burgut tatuirovkasi ko'rinardi. U miltiqni sug'urib oldi-da, nayzasini o'tlarga surib tozaladi.

«Bu yog'i nima bo'ladi endi?» o'yladi yana Nikitin. U Mejenin miltiqni tozalab bo'lgach uyning ikkinchi qavatidagi oynaga ko'z qisib qarab qo'yganini payqab qoldi. Nikitin ham o'sha tomonga qaradi. Boloxonaning yarim doira shaklidagi derazasi oynasi ortida, pardaning yonida Emma pastga tikilib turardi. Nikitin Emmani siyrak tuman orasidan ko'rganday bo'ldi, shunda u ikkovi ikki dunyo, ikki qutbdan ekanliklarini, bugungi ishi katta xato bo'lganini tushunib turgani uchun go'yo hammaga xiyonat qilganday vujudi zirqirab ketdi...

Nemis qizi Emma dushman toifasidan, Nikitin bu toifani e'tirof etmas, yomon ko'rar va nafratlanishga majbur edi. U bu toifaga qarata uch yil o'q uzdi, snaryad tegib yonayotgan har bir tankni ko'rishi bilanoq boshi osmonga yetdi. Qiz o'sha noxush, g'anim, Nikitin rad etuvchi, uni har bir jangdan so'ng o'z askarlarini snaryadlardan hosil bo'lgan chuqurlarga dafn qilish, taqdir taqozosi bilan o'lmay qolgan vzwod komandirini qoraxat yozishday bexayr ish bajarishga majbur etgan toifaga mansub. Emma tubsiz jarning narigi qirg'og'ida. Nikitin bo'lsa qonga bo'yalgan bu qirg'oqdan. Unga hech narsa bularni bir daqiqa bo'lsa-da unutib, xatarli tomonga olib o'tuvchi sinch tashlashdek haq-huquqni bermasdi. Sal oldinroq, subhidam payti o'sha tomonda qizning anvoyi sochi hid taratgan, quruqshoq lablari intizor titragandi. «Qanday qilib bunday bo'ldi? Nega yo'l qo'ydim bunga? O'zimni kechirolmayman...».

Ha, Emma o'sha qirg'oqda edi... U nimagadir deraza pardasi yonida ko'zini oftobdan pana qilganicha pastga, maysalari jilvalanayotgan o'tloqqa, u yoqdan bu yoqqa yurib chekayotgan va vodo-provodda yuvinayotgan askarlarga qarar, Nikitin ham shular orasida, taqdiri, urush, butun hayoti bilan ana shu askarlarga bog'liq edi. Emma bilan uning orasini oftob aks etuvchi deraza oynasi, so'lim o'tloq, gurunglashayotgan askarlar va ular dushman hisoblangan, har kuni odam o'ldiriluvchi ulkan Berlindan kelib joylashgan osoyishta nemis shaharchasi ajratib turardi.

– Nemis qizcha qarayaptimi-a? – Mejenin Nikitin yonidan o'tayotib muloyim shunday dedi-da, shunday qiyofada qizga ham ko'z qisib, qo'l silkib qo'ydi. – Ruslarga ko'z suzishini qarang-a, alvastini. Sizga qarayapti, o'rtoq leytenant. Yo ayg'oqchilik qilyaptimikin?

Emma Mejeninning qo'l silkiganini ko'rib, o'zini orqaga oldiyu, derazadan g'oyib bo'ldi. Deraza pardasi silkingancha qolaverdi. Nikitin xayolan qizning: «Vadim, Va-di-im», deganini eslab, o'zini qo'lga oldi-da, buyruq ohangida so'z boshladi:

– Gap bunday, Mejenin. Bugun askarlarga pivo bermay nonush-ta qildirasiz, tushunarlimi? Bir soatdan keyin vzvodni to'plar yoni-ga olib borasiz. Mashg'ulot o'tkazamiz. Endi har kuni mashg'ulot o'tkazamiz.

– Tushunarli, – Mejeninning kipriklarini itoatkorona pipiratishidan shunday istehzoli ma'noni uqib olsa bo'lardi: «Men-ku hammasini tushunib turibman-a...».

«Yo'q, hammasini emas! Shu bilan bari tugadi!» Nikitin beixti-yor yo'l qo'ygan va dilini ezayotgan qandaydir qusurdan bir yo'la xalos bo'lganday dadil tortdi-da, Knyajko tomonga jadal yo'naldi. U bo'lsa beligacha yuvinib, askarlar qurshagan vodoprovod yonida u yoqdan bu yoqqa yurar, qizarib ketgan baquvvat badanini sochiq bi-lan artardi.

– Senga havasim keladi, Andrey, – dedi Nikitin. – Qoyil! Piyoda askar bo'lganing haliyam sezilib turibdi.

– Bolalar o'yini, – mensimaganday norozi ohangda javob qaytar-di Knyajko, – markalar, o'ljalalar, xaritalar. «yigirma bir» o'yini, vaqt o'tkazyapmiz ishqilib. Semirib, ayniyapmiz. Negaligini bilasanmi? Hamma urush tugashini kutyapti, urushning esa oxiri ko'rinmaydi. Berlindan bir tupkaning tagiga keltirib qo'yishdi. Bundan maq-sad nima? Noaniq. Ayniqsa g'arbda janglar ketayotgan bir paytda. Xo'sh, bizning yangi xo'jayinlarimiz qalay? Kurt ketibdi-da? Anavi Emma qoldimi? – so'radi Knyajko. – Xabaring bormi?

– Ha, ketdi. Gamburgga ketdi, – javob qaytardi Nikitin va shu zahoti gapni boshqa yoqqa burdi. – Ratsiyani eshitdingmi? Qanday yangiliklar bor? U yoqda nima gaplar?

– Berlinda hech qanday o'zgarish yo'q, – javob qildi Knyajko. Nonushta oldidan o't ochish nuqtalarini ko'zdan kechirishdi.

Batareya marrasi uydan yuz ellik metr naridan boshlanar, to'plar olmazor to'sig'i ortidagi dala chekkasiga o'rnatilgandi. Nikitin bilan Knyajko o't ochish nuqtalariga ko'l bo'yidagi hali shudringi selgi-magan, namxush maysazor sukunatida borishar, maysalar etiklarga urilib, ular bir vaqtlar Moskva yaqinidagi chorbog'larda yurganday

odimlashardi. Nikitin subhidam sukunatida namoyon bo'lgan moviy kengliklar, oftob, taftli yer isi, ko'ldan ko'tarilayotgan hovurdan sarxush bo'lib gap boshladi.

– Urush haligacha tugamaganiga hech tushunolmayapman. Qachon tugaydi o'zi, Andrey? Ikki hafta yo bir oydan keyinmi?

– Nihoyasiga yetganda tugaydi, – keskin javob qildi Knyajko o't ochish nuqtalarining tuproqli tepaliklariga o'ychan tikilib. – Sening savolingga javob shu. Negadir batareyada soqchi ko'rinmayapti. Rosti, boqibeg'am bo'lib ketibsizlar.

– Birinchi kundanoq shunday, – dedi Nikitin. – Nachora, Andrey. Bugun-erta urush tugashini sezishyapti-da...

– Sening soqching ham sezyaptimi? Qayerda u?

Knyajko adashgandi: soqchi o't ochish nuqtasida bo'lib, o'ngirdagi snaryad qutilari orasida mudrab yotar, pilotkasi bilan ko'zi va peshanasini oftobdan pana qilib, avtomati oyog'i yonida edi. Oyoqlarini tortgan soqchi turib o'tirdi-da, bosh irg'ab, borligini bildirish uchun yo'talgach, ehtiyoti shart do'q aralash qichqirdi:

– To'xta, kim kelyapti? – shunday dedi-yu terlagan yuziga tabasum yoyildi. – E, o'rtoq leytenantlar-ku! Eshitishimcha, bu yoqqa sira ham...

– Tush ko'rishga ulgurdingizmi, Ushatikov? – sovuqqonlik bilan uning gapini bo'ldi Knyajko. – Masalan, men gorizental holda uxlasam tushimga har balolar kiraveradi. Nimalar, deysizmi? Masalan, nemislar soqchini to'plari-yu snaryadlariga qo'shib o'g'irlab ketishi... Shunday bo'lishi mumkinmi, Ushatikov?

– Yo'-o'q, uxlamayotgandim, o'rtoq leytenant, tonggi shudringdan keyin oftobda picha qoraydim, quyoshning mayin nuri juda yoqimli bo'ldi-da. – Ushatikovning yuzi yanada yoyilib. – Yana qanday nemislar? Hozir ular qimir ham etisholmaydi. Berlin bizniki bo'lgandan keyin, nima, eslarini yeyishibdimi? Mana, o'rtoq leytenant, serjant Mejenin sovg'a qildi, endi vaqtni aniq bilib turaman. O'lja!

Shunday deya Ushatikov bolalarcha quvonib bilagidagi oynasi va siri oftobda yaltirayotgan soatini ko'rsatdi-da, qulog'iga tutib ko'rib, hayratlanib shivirladi:

– Chiqillab turibdi, fritslarning soati, chiqillayapti. Nega chiqillarkin-a?



– Xuddi bolaga o‘xshaydi-ya, – o‘zi Ushatikovdan ikki yosh kichik Knyajko kift qisib qo‘ydi-da, to‘p staninasiga cho‘kkach, jiddiy qiyofada daryo ortidagi yo‘lga tikildi. Shaharchadan o‘rmon tomon ketayotgan mashinalar hovur orasida elas-elas ko‘rinib qolardi. Shundan keyin Ushatikovga so‘z qotdi. – Nima, urushda soatni endi ko‘rishingizmi, Ushatikov?

– Menning soatim yo‘q edi, bo‘lishini esa orzu qilardim... – bo‘yni uzun Ushatikov shunday deb gimnastyorkasi yengi bilan soatining oynasi sirlangan gardishini avaylab artib qo‘ydi. – Bu soatga hech tushunmayman, sira aqlim yetmaydi, jajjigina g‘ildirakchalari aylanadi. Xuddi joni borday. Nuqul aylangani-aylangan. Mitti odamlar bolg‘a urayotganga o‘xshaydi. Odamlarga vaqtni ko‘rsatishni nima keragi bor, o‘rtoq leytenant? Qiziq-a... Soatsiz yashasa bo‘ladimi yo bo‘lmaydimi? Kunduzi kunduzi, kechasi kechasi-da. Buni nega o‘ylab chiqarishgan ekan-a?

Soddadil Ushatikov odatdagi savollarini berib, jo‘n narsalarga ham hayratlanar, Knyajko esa nimadandir tutaqib, qoshlari chimirilib, o‘rmonga tikilar, go‘yo Ushatikovning oddiy savollarida noxush nimadir borday yuzi jiddiylashib borardi.

«Yaxshiyamki ertalabki voqeadan xabari yo‘q buning, – deb qo‘ydi ichida boshi g‘uvillayotgan Nikitin. – Ajab, eslashni istamasam ham qizning lablari, nam sochlari hech yodimdan ko‘tarilmayapti... unutilib bo‘larmidi bularni?»

– Nikitin, – dedi Knyajko g‘ijinib. – O‘rmonga yaxshilab qara. Yo menga shunday tuyulyapti, yoki birorta slavyan nemis raketasi bilan mushakbozlik qilyapti. Slavyanlarga bir nima bo‘lgan shekilli o‘zi.

– Qani raketalar? – hayron bo‘ldi Nikitin. – Hech qanday mushakbozlikni ko‘rmayapman.

– Ko‘lning chaprog‘iga qara. Bu boyagi suhbatimizning yana bir isboti, – qo‘shimcha qildi Knyajko hech bir shubhasiz.

– Ko‘lning chaprog‘ida?

Hammayoq tinch, olisdagi maysazorlar oftobda yam-yashil tovlanar, cho‘zilib ketgan moviy ko‘lning sathi mayin jivirlar, uning ortidagi qarag‘ayzor o‘rmon ochiq havoda tiniq ko‘zga tashlanardi. Atrofda subhidam hukmron, yangi maysalar yaltiraydi, hech zog‘ ko‘rinmasdi. Faqat olisdagi tosh yo‘lda mashinalar kolonnasi sha-

hardan o'rmon tomonga harakatlanardi. Shu payt yo'lning chaprog'idagi o'rmon tepasida nimadir sezilarsiz lovullab, qizg'ishroq, raketaning so'nayotgan to'zoni yanglig' to'liqinli tutunda yaltirab taralgani ko'zga tashlanib, yana shu tutunsimon chang bilan birga bo'zargan cho'g'lar ko'tarilib, o'rmon ustidagi siyrak tumanda erib ketganday tuyuldi. Bularni ertalabki oftobda ilg'ab olish mushkul edi.

– Endi ko'rdingmi? – so'radi Knyajko.

– Tushunolmayapman, – dedi Nikitin. – Piyoda askarlarimiz u yerlarda nima qilib yurishibdi?

– Slavyanlarimiz o'rmonda o'lja raketnitsalar bilan qarg'a ovlashayotganga o'xshaydi! – Oyoq uchida ko'tarilgan Ushatikov uzun bo'ynini cho'zib qaradi-yu, ko'zlari chaqchayib, ikki biqiniga shapatilab qo'ydi. – Bu qanday qiliq bo'ldi, slavyanlar bekorchilikdan mushakbozlik qilishyaptimi endi? Obbo piyodalar-ey! Ishonganimiz emish-a, tag'in ular!

– Bo'lishi mumkin, Ushatikov, – dedi Knyajko ko'nglidagi shubhani bosib. – Biroq bu tentaklar nega nemis mushaklarini behuda otishyapti? Sababi nima?

– Biznikilar to'qlikka sho'xlik qilishyapti, hoynahoy. Raketnitsalarda qarg'a ovlashyapti, dedim-ku! Ana, «studebekker»larimiz o'rmonga qarab ketyapti! U yerda nemislar nima qilsin? – shodon qichqirib yubordi Brustverda egilibroq turgan Ushatikov. – Ana, mashinalarimiz ketyapti! Ko'ryapsizlarmi?

– Ha, bizning kolonna, – dedi Nikitin.

Tiniq havoda suvi yalt-yult qilayotgan ko'lning naryog'ida-gi o'rmon tomon yo'ldan usti brezentli beshta «studebekker» tizilib borayotgani ko'rinib turardi. Motorlarning ovozi chivin g'ing'illashiday eshitar, oftobda mashinalarning oynalari aks etib ko'zdan yo'qolar, ko'tarilgan chang yo'lga qo'nishga ulgurmay o'rmonga o'rmalayotgan so'nggi mashina ortida sarg'ish devor yanglig' muallaq osilib qolardi. Oxirgi «studebekker» ko'zdan yo'qolgan zahoti o'sha yoqdan uchta bo'g'iq portlash bilan pulemyot tarillagani eshilib, olisdan aks sado berdi. Mushaklar uchqunli doira yasab, tutunsiz uchdi, keyin o'rmon ichkarisida avtomatlar-dan ketma-ket uzilgan o'q ovozi yangradi. Shu payt Nikitin o'rmon chekkasida ikki «studebekker»ni aniq-taniq ko'rib qoldi. Mashinalar yo'lda qayrilishga urinardi.

Amal-taqal qayrilgan birinchi mashina tutunga burkangani-cha yo'ldan yurarkan, yonayotgan dalvay-dalvay brezenti shamolda yulqinardi. Ko'p o'tmay mashinaning kuzovini ham alanga qoplab, oldingi g'ildiraklari ariqqa tushgach, yo'lni ko'ndalangiga to'sib qo'ydi. Burilishga ulgurgan ikkinchi mashina ham to'xtamay yo'lning o'ng tomonidan borayotib oldindagi alanga ichida qolgan «studebekker»ga borti bilan urilishiga sal qoldi, keyin yo'l chekkasi, o'tloq do'ngliklardan sakray-sakray yonayotgan mashinani chetlab o'tdi-da, yana yo'lga chiqib olib tezligini oshira boshladi.

O'tloqdan tosh yo'lga burilgan bu mashina orqadagi yonayotgan «studebekker»dan jadal yiroqlashayotgan mahal o'rmon chekkasidan yer bag'irlagan o't chaqnaq, mashinaning chaprog'ida portlash ro'y berdi. Ikkinchi o'q «studebekker»ning orqasida qora qayun hosil qilib, uni bir ko'tarib tashladi-da, kabina ustida qizg'ish alanga paydo bo'ldi. Ana shu alanga aralash dumaloq tutun tosh ko'chada suzib yo'l chekkasidan o'tib, o'tloqda bilanglay-bilanglay ko'lning qumloq qirg'og'idan ikki yuz metr narida taqqa to'xtab muallaq osilib qoldi.

– Iye, bu nimasi?.. Nima gap?

Boyagiday egilib turgan Ushatkov beixtiyor shunday degach, snaryad qutisiga qopday shilq etib tushdi-da, Knyajko bilan Nikitinga hayratangiz qarab-qarab qo'ydi. Ular churq etmay tosh yo'lga tikilishar, o'rtadagi asabiy sukunat ta'sirida Ushatkov, kunim bitgan-ga o'xshaydi, degan fikrdan battar ezilardi.

– Mashinalarimizga tanklar o'q uzdi-ku, – shivirladi Ushatkov hang-u mang bo'lib. – Yo, Iso Masih! Qayoqdan kelib qoldi ular? Demak, u yerda nemislar bor ekan-da?

– O'qni o'ziyurar to'plar otdi, – dedi Knyajko go'yo o'zicha qiyin muammoni hal qilayotganday ohangda. So'ngra to'p tomon tashlangan Nikitinga o'shqirdi. – To'xta! Foydasi yo'q! Kerakmas! Bu yerdan uzoq! Snaryadni behuda isrof qilasan xolos! Ruxsat bermayman!

– Ikkita mashinamizni yondirib yuborishdi, ikkita mashinaniya... Demak, kolonnamiz to'qnash kelib qolibdi-da, – dedi ohista Nikitin yo'lning naryog'idagi ko'm-ko'k va oftobro'ya joyda o'ziyurar to'plarning nishonga tekkan o'qidan lov-lov yonayotgan ikkita «studebekker»ga qarab. Shu payt u uchinchi mashinani ham ko'rib

qoldi. O'rmondan amal-taqal chiqib olgan bu mashina to'g'ri asfalt yo'lda ham chang ko'tarib shaharchaga yaqinlashar, o'rmon panasidagi o'ziyurar to'p esa unga qarab o'q uzardi. «Studebekker» esa o'ziyurar to'pning nishoniga chap berib, mo'ljal doirasidan chiqib ketishga muvaffaq bo'lardi.

– Telefonga, Nikitin! Tezroq! Ketdik! Ushatikov, shu yerda qolasiz! Kuzatib turasiz! – Knyajko shunday buyruq berdi-da, yonayotgan mashinalarga, o'rmon chekkasini chamalaganday qarab qo'ydi. U yerdan otilgan signal mushagi lojuvard osmonda oqish uchqunlar sachrata-sachrata qaytib tusha boshladi. Atrof yana jimjit bo'lib qoldi.

Nikitin bilan Knyajko uygacha chopib borishdi, batareyadagilarning ham tinchi buzilgandi. Ular ham o'q ovozlari eshitgach yoppasiga o'tloqqa chiqishgan, ba'zilar galetlarini chaynar, ba'zilar koteloklaridagi ichishga ulgurmagan choylarini ko'targan ko'yi sarosimada bog' tomonga tikilardi. Tevarak-atrofdan: «Odamlarimiz o'rmondagi minalarni portlatishyapti shekilli? Yo boshqa narsamikin?» degan ovozlari eshitila boshladi. Serjant Mejenin kuldi-da, hovliqqanlarni tartibga chaqirdi: «Bo'ldi, o'zingizni bosing, nega hovliqib, vahima ko'tarasizlar? Hech qanday buyruq bo'lmadiku! Nonushta qilaveringlar, biror gap bo'lgan bo'lsa, bizlarsiz ham o'zlari eplashadi! Bu nima shov-shuv?» Shundan so'ng u uzun kipriklarini pirqiratganча yaqinlashib kelayotgan zobitlarning jiddiy qiyofalarini ko'rib, o'zi ham hovliqib qoldi.

– Yana urushmi? A?!

– Nonushtani tugatinglar! Batareya, trevoga! – buyruq berdi Knyajko va askarlar tinchishgach, oqsoqlana-oqsoqlana Nikitin bilan uy tomon yo'naldi. Nikitin yo'l-yo'lakay buyruqni Mejeninga takrorladi:

– Vzvod, jangovar trevoga!

Kecha oqshom bekorchilikdan rosa kartabozlik, pivoxo'rlik qilib, patefon qo'yishgan o'sha kabinet-xona yoki mehmonxonaning is bosgan kamini yonida Emma cho'nqayib o'tirardi. Yuragi bir orziqib tushgan Nikitin avvaliga qizning nima uchun bunday o'tirganini tushunmadi. Sarg'ish sochlari to'zigan qiz otashkurak bilan kaminidagi reyxsmarkalar kulini to'dalab, xokandozga solayotgandi. Emma Nikitin bilan Knyajkoni ko'rgach: «Voy!» deb yubordi-da, otashkurakni uloqtirib, tashqariga otildi.

– Nemis qizni aytaman... – dedi telefon yonida navbatchilik qilayotgan soddadil, doʻrdoq labli tili chuchuk aloqachi. – Odamning rahmi keladi. Bu yerga kirib, yoqilgan pullarni koʻrdi-yu, yigʻlab yuborayozdi. Nima shovqin oʻzi, oʻrtoq leytenant?

– Divizion shtabini ulang! – buyurdi Knyajko. – Darhol!

– Xoʻp boʻladi, hozir, oʻrtoq leytenant, – shoshib qolgan aloqachi dala apparatining qulogʻiga yopishdi. – Nahotki nemislar? Yana qay goʻrdan paydo boʻlishdi?

## YETTINCHI BOB

Hoynahoy bu nemislarning tor-mor qilingan birorta qismi-yu, u yo Berlinga, yo gʻarb tomonga oʻtib olmoqchi shekilli. Biroq bir narsa, yaʼni nemislarning kechasi emas, kuppa-kunduzi katta yoʻldagi «studebekker»larga oʻq uzib, oʻzlarini sezdirib qoʻyganliklari tushunarsiz. Oʻladigan hoʻkiz boltadan toymas, qabilida ish tutilayotgan boʻlishi ham mumkin. Yoki tank qismining soʻnggi talvasadagi biror komandiri sabri chidamay, oshkora hujum bilan qurshovda qolib taslim boʻlgan Berlin muzofotidagi shaharchada kimlar va qaysi qoʻshinlar turganligini tavakkal razvedka orqali bilib olmoqchi boʻlgandir.

Nikitin: «Toʻplar oldinga olib chiqilsin!» deb buyruq berishi hamono toʻplar yoniga yugurib ketayotgan askarlarni koʻrdi. Yaqinlashayotgan hozirgi xatar frontdagiga oʻxshamas, tasʼdifiy, ammo muqarrar roʻy berajak bu jang taassurotida batareya tunlari minalar koʻmilgan joyga duch kelib qolgandagiday aʼzoyi badan jimirlashib ketardi.

Oʻt ochish nuqtasida mashinalar shay turar, portlashlar devori ajratib turgan tosh yoʻldagi toʻrtta oʻziyurar toʻp bilan oʻtloqdagi ikkita bronetransportyor qoʻshni batareyaning oʻqi yetmaydigan hudud tomon asta siljirdi. Toʻplarni mashinalarga tirkab bogʻ va oʻtloq orqali trevoga buyruqlari, motorlar ovozi bosib ketgan va askarlar toʻla koʻchaga chiqqanlarida ham, chorrahalarda toʻxtab-toʻxtab, nihoyat, oʻrmon chekkasiga yetib olganlarida ham jangchilar hali oʻzlariga kelisholmagandi.

Bu yerda yana toʻxtab qolishdi. Oldinda, tutun bosgan, chekkadagi uylarning olmozorlariga koʻmilgan tankka qarshi toʻplar pay-





darpay o'q uzardi. Chap tomonda hovlilardan to'p sudrab chiqqan pastak, qudratli «dodj»lar tosh yo'ldagi o'ziyurar to'plarning oldidan kesib chiqmoqchiday yon tomondagi qishloq yo'lidan ketib borardi. Aravalar va ko'chma oshxonalar taraqa-turuq qilgancha orqaga, shahar markaziga qaytishar va yo'ldagi oqimning yo'lini to'sishardi. Mashinalardan ko'chaga piyoda askarlar sakrab tushishar, snaryadlar portlayotgan ko'l tomonga yugurib o'tishardi. Ko'rinishidan badjahl keksa bir podpolkovnik, chamasi, shtabdan bo'lsa kerak, yo'lda narsa ko'pligidan to'xtab qolgan batareya kolonnasi yoniga yugurib keldi-da, to'pponchasining dastasi bilan Knyajko borayotgan birinchi to'p mashinasining qanotiga urib, baqira-baqira to'pponchasi bilan o'rmonni ko'rsatdi. Knyajko mashinaning eshigini qiya ochib, uning gapini eshitgach, bosh irg'ab, Nikitinga olg'a ishorasini qildi.

Harbiy texnikaning g'ala-g'ovuri, shovqin-suron, kunchiqar tomondagi to'polon, tankka qarshi to'plarning siyrak o'q uzishi, baqirib-chaqirib berilayotgai buyruqlar, bunday paytda ishlarini bilib qiladigan starshinalarning farmoyishlari, ko'chma oshxonalar g'ildiraklarining taraqlashi, askarlarning bezovtaligi... yaqin yillardan beri hammaga tanish bo'lgan bu yalpi sarosima va jonsaraklikni Nikitin ayni damda sira hazm qila olmas, bularning bari go'yo o'ngida emas, tushida ro'y berayotgandek edi. Zero, Berlin olingandan keyin dorilamon o'tayotgan hozirgi kunlarda nemislarning to'satdan hujum qilib qolishi hech kimning xayolining ko'chasiga ham kirib chiqmagandi. Shu bois xandaqlar ham qazilmagandi. Knyajkoning jangchilarga «olg'a» deb imo qilgani, piyoda askarlarining ko'l tomonga jadal siljishi, tankka qarshi artilleriyani shatakka olgan «dodj»lar nemislarning o'ziyurar to'plari biqinidan chiqmoqchi bo'lganday, qishloq yo'lidan uchib borayotganini ko'rgan Nikitin jang shaharchada emas, mana shu yerda, ovloqda, o'tloqni kesib o'tgan yo'lda bo'ladi, deb o'yladi. Nega deganda, bu yerga «dodj»lar sudrab kelayotgan, g'animni va ularning tanklarini qiyratadigan to'plar shoshilinch ravishda jamlanayotgandi.

Ko'p o'tmay, Nikitin yanglishganini bildi. Tankka qarshi to'plar batareyasi yo'lni changitganicha o'ng tomonda tobora olislab borar, tosh yo'lni mo'ljalidan qochirmas, piyoda askarlar esa ko'l tomonga yugurishardi. Nikitin endi Knyajkoning vzvodi bilan izma-iz tosh yo'ldan dushmanning o'ziyurar to'plari tomon borarkan, yana

uch kilometrdan keyin dalaga burilib, to'plar tumshug'ini o'sha yoqqa qaratish lozimligi xayolidan o'tdi. Shunda pag'a-pag'a tutunlar orasidan mashinaga urilgan birinchi to'pni ko'rib qoldi. To'pning uzun stvoli ko'rikka hozirlik ko'rilganday solyarka bilan tozalan-gani uchun oftobda yalt-yult qilardi. Nikitin ro'paradagi bahaybat o'ziyurar to'p qorasini, otilgan snaryadlari yoyilib portlayotganini ham ko'rib turardi. «Mana, hademay yaqinlashamiz, keyin to'pni «jangga», mashinalarni esa orqaga, pana joyga olishga buyruq bera-miz, hozir shu yerda, mana shu yerda, dalada hamma narsa bo'ladi!» Nikitinning xayolida shunday buyruqlar aylanardi. To'plardan o't ochish mo'ljallangan joyga yaqin qolganda shunday bo'lardi o'zi, Nikitin oraliqda qolgan o'sha masofani fikran chamalardi. U ma-shinalar ochiq dalada qoldirgan, har mahalgiday g'ilofi olingan va dushmanga nishon bo'lib turgan to'plarni ko'z oldiga keltirarkan, jang maydonidan batareyadagilarning hammasi ham omon qaytmasa kerak, deb ezilib ketdi.

– Suvga cho'kkan odamlarday zap omadimiz kelyapti-da, leyte-nant, – dedi kabinada yonma-yon o'tirgan Mejenin Nikitinga. Meje-ninning ovozi motor guvullab, kuzov qisirlayotganidan bazo'r eshi-tildi, uning sapchishga tayyor turganday tosh yo'ldan ko'z uzmay borayotgani ham Nikitinga erish tuyulardi. – Hamma vaqt to'g'riga uryapmiz... Ular chekinisharmikin-a? – Mejenin go'yo tutun va qizi-gan shamol oynadan o'tib yuziga urilayotganday ko'zlarini yanada qisdi. – O'ziyurar to'plarga qara, leytenant!..

– Ularga nima bo'ldi? Chekinayotganlarni qayerda ko'ryapsiz?

Dalani oftobda sap-sariq ko'rinayotgan tutun bosib, tarqalmas, snaryadlarning tutunlari uni battar quyuqlashtirardi. Ana shu tu-tun oralig'idan tosh yo'lda chayqala-chayqala borayotgan o'ziyurar to'plar qorasi dam ko'rinib, dam ko'zdan yo'qolar, shu bois ular il-garilayaptimi, joyida turibdimi yoki chekinayaptimi, bilib bo'lmasdi.

Nikitin ayni paytda mashinalar harakati va o'tgan vaqtni chama-lab, ular o'ziyurar to'plar tomon uch-to'rt kilometr siljigan bo'lsa kerak, deb o'ylardi. Dushmanni ro'paradan o'qqa tutish uchun shu-ning o'zi kifoya, demak, bu yerda jang boshlab, to'plarni gumbur-latish fursati ham yetdi. Biroq Knyajkoning oldindagi mashinasi tezligini pasaytirmay borardi. Shuning uchun Nikitin birinchi vzvod-dagilarga bir nima bo'lganmi, degan gumonga bordi. Bu to'pni jang-

ga tayyorlamay, dushman o'qiga ko'ndalang qilish bilan barobar edi-da! Biroq Nikitin Knyajkoni naq ikki yildan beri bilar, uning hozir tavakkal qilayotganiga, tadbirkorligiga ham ishonardi. Shu bois dilida, jang mo'ljalimdagidan ham ertaroq tugasa kerak, degan umid uyg'ondi. Nahotki o'ziyurar to'plar chekinayotgan bo'lsa?

O'ziyurar to'plar orqaga tisarila-tisarila chindan ham o'rmonga, o'zlari chiqqan tarafga borar, onda-sonda o'q uzishardi. Yaqinroqdagi bittasi beso'naqay burilayotib sarg'ish dog'li zirhi oftobda yaltirab ketdi-da, tutun chiqadigan quvurlaridan uchqun sachratgani-cha orqaga o'rmaladi. O'sha zahoti ko'chadagi quyuq tutunda uchta o'ziyurar to'p unga ergashib, vazmin va guldirab burildi-da, o'rmon chekkasiga yo'l oldi. Nikitin ularni endi aniq ko'rib turardi. U ko'l bo'yidagi yer bag'irlab, yugurgilab siljiyotgan piyoda askarlar hujumini sekinlatib qo'ygan ikkita bronetransportyor ham yirik kalibrli to'plaridan o'q yog'dirgancha o'rmonga chekinayotganini ko'rib turardi.

Oldiniga shaharni ko'zlab hujum qilgan nemislar o'rmonga chekinishdi. Jang tezda tugaydi, degan fikr Nikitinning xayolidan lip etib o'tganida u adashgan, buning qaltis tomonlari ham yo'q emasdi.

O'ziyurar to'plar yosh qarag'aylarning payhon qilib, ezg'ilab yo'ldan bamaylixotir quyuq o'rmon tomon o'rmalar, ikki cheti qarag'aylar bilan qurshalgan, tor dahlizni eslatuvchi yo'lga o'q uzardi. Yo'l esa snaryadlar portlashi, gumbur-gumburlardan, tutunda qolgan alangalar chaqnashidan jahannamning xuddi o'zginasiga aylangandi. Xuddi birdan qorong'i tushib, chaqinlar chaqnayotgan bu zimistonda ham o'ziyurar to'plar qayoqqa chekinishayotibdi-yu, qayoqdan o'q uzishyapti, daraxtlar orasida marralarini qanday o'zgartiryapti, bilib bo'lmasdi. Nikitin shuning uchun ham bu chalkash va chigal vaziyatda tutun orasidagi o'qlarning oniy chaqnashini ko'rarkan, tasmollab, o'sha yoqqa o'q uzishga buyruq berar, ichida esa nuqul: «Tez, tezroq! Bu la'nati labirintdan, la'nati yo'lakdan ochiqroq yerga chiqib olsak bo'lardi-da! Tezroq, iloji boricha tezroq!...» derdi.

Nikitin to'plar yonida kuymalanayotgan askarlar qorasini ko'rar, to'pchilarini tasmollab tanib, har o'q otilgandan keyin boloxondor qilib so'kinadigan Mejeninning darg'azab baqirig'ini eshitardi.

Knyajko buyrug'i bilan yo'lning naryog'i, chap tomonda gumburlayotgan birinchi vzvod to'plarini ko'rmas, u tomonga qaramasdi ham. Knyajkoning buyrug'i bilan to'pni o'rmon chekkasiga, bulturgixonalar bilan yo'l oralig'iga qo'yib o'q uza boshlashlari bilan o'rtadagi aloqa uzilib qolgandi.

Bir necha daqiqaning ichida hamma narsa ko'zdan yo'qoldi-qo'ydi. Nikitinning ko'pchigan yuzidan sharros ter quyar, ko'zi porox gazlaridan yoshlanar, to'p ochiq joyda turganidan qalqonga oskolkalar sachrab, qizdirib yuborgandi. Qizigan havoda o'lim sharpsi kezib, to'plar gumburlashi, snaryadlar chiyillashi tinimsiz eshitilar, temir nishonlarni ko'zlagan o'qlar qarag'aylarga sanchilar, shoxlarini uchirar, yer va yo'lni o'yib tashlab, asfalt parchalarini askarlarning ter bosgan yag'rinlariga sochardi. Askarlar ham qasdmaqasdiga, darg'azab holda ajal urug'ini yog'dirishdan bo'shshmasdi. Nemislarning o'ziyurar to'plaridagilar ham, ularni ta'qib etayotganlar ham ko'r-ko'rona o'q uzardi. Nikitinning asab torlari taranglashdi, go'yo hozir birorta daydi oskolka tegadiganday va qo'l jangiga o'tadigan odamday asabiy titrar, biror narsa qilolmay, g'azabi toshib turganidan bo'g'ilardi. Bir marta snaryad portlaganida to'p oldidagi qarag'ay panasida jon saqlab qoldi. Issiq to'lqin yuziga qarag'ay bargini urganida yonog'i lovullab ketdi, ushlab ko'rib qonamaganini bildi. Qiziganidan binafsharang bo'lib ketgan kichkinagina oskolka oyog'ining ostiga tushdi. Bu beshafqat ajalning rahm qilgani va ogohlantirishi edi. Nikitin o'zicha kulgan bo'ldi: «Omadim keldi, omadim». Uning bu kulgisini hech kim ko'rmadi. Otishmalardan qulog'i bitib, boshi zirqirab, g'uvillab, ko'zlari yoshlanib ketsa ham tutunda ko'rinmayotgan, yaqin orada ekanligiga qaramay o'qlarga chap berayotgan bu zulmatda go'yo minglarcha kilometr nariga bo'rib qolganday tuyulgan o'ziyurar to'plarni qidirardi.

– Tezroq, tezroq!

Snaryadlar tashilib, mashinalar bo'shatildi, to'plar orasida hali sovumagan bo'sh gilzalar uyulib yotar, bu gilzalarni kimdir oyog'i bilan tepa-tepa porox bug'i chiqayotgan tomonga surar, gilzalarining sharaqlashi ham, Mejeninning boloxonador so'kinishi-yu, askarlarning hayqiriqlari ham Nikitinning xayolidagi o'sha «tezroq, tezroq»qa qorishib ketardi.

– Tezroq!

Nikitin qarshisidagi o'rmon ichida bir narsa kuchli lovullab, tutun aralash alanga ko'tarilganida ham kimning tasmollab otgan snaryadi o'ziyurar to'pga tekkanini bilmadi va bilolmasdi ham. U yoqda, oldinda bir daqiqa hammayoq jimib qoldi, beixtiyor suyunib, nafasi tiqilgan Nikitin nega shoshayotganini o'zi ham bilmay, aftini bujmaytirganicha uchinchi to'pga buyruq berdi:

– Mejenin, olg'a!

Baqirib aytilgan bu buyruqdan ovozi bo'g'ilgan Nikitin uchinchi to'p tomonga o'girilib Mejeninning terlagan yuzi, shishinqiragan yonoqlari, askarlarning to'p tutunidan qorayib ketgan darg'azab yuzlari-yu, Ushatikovning hayrat to'la qizargan ko'zlarini ko'rgach, xirildoq ovozda yana baqirdi:

– Olg'a! G'ildiratinglar! Butalar oralab yo'ldan chekkaroqqa!

– Qayoqqa «olg'a?» – dedi Mejenin to'ng'illab. – Hech baloni ko'rib bo'lmayapti-ku. Nima, o'zimizni o'qqa tutib beraylikmi? – Keyin ko'zlarini qisib so'radi. – Yuzingizga nima bo'ldi? Tirnaldimi? Siz yuz yil yashaysiz, o'rtoq leytenant!

– Ular ivirsib turganida olg'a! To'plami olg'a siljitinglar! – buyrug'ini takrorladi Nikitin qo'lini keskin silkib: – Qani, Mejenin, olg'a! Olg'a!

U hozir qanday kuch amri bilan egallab turgan chizig'idan loqaal o'n metr bo'lsa ham oldinga siljishni buyurayotganini tushuntirib berolmasdi. Xuddi shu payt yo'l tomondan Knyajkoning o'tkir ovozi eshilib qoldi:

– Uchinchi va to'rtinchi to'plar, olg'a-a! Nikitin, olg'a!

Oldinda motorlarning tutun burqsitib gurullashi, zanjirlarning shiqirlashidan o'ziyurar to'plar yo'ldan, unga yondosh ko'chalardan chekinayotganini payqasa bo'lardi. Nikitin ham to'pchilar bilan birga to'pning temir qalqoniga yelkasi bilan yopishdi-da, portlashlar oralig'ida o'rmonning orqa tomonrog'ida o'z askarlarining o'q yog'dirishlariga javoban nemis avtomatchilarining tikuv mashinasini aylantirganday tarillatib o'q uzayotganlarini eshitdi. Tankka qarshi to'plar gumburlarkan, Nikitin o'tloqdagi piyoda askarlar, shahar chekkasidagi yapaloq va ildam «dodj»larni, ular yo'lni kesib, o'rmonga chiqqanini esladi, bundan sal nariroqda yana bir yengilroq jang kechayotgani, u yerda o'ziyurar to'plar, ajal yomg'iri yog'ib



turgan o'rmon yo'lagi yo'qligini esladi-da, oniy lahzada xayolidan o'tgan narsani hayqirib bo'g'ziga chiqardi:

– Olg'a! Olg'a! Tezroq!..

– Baloning og'ziga yetdik, tushundik! Knyajko ikkovlaring yuz yil yashaysizlar, leytenant, yuz yil! – deb ko'ydi Nikitin yonidagi Mejenin. Uning baquvvat, qaynoq yelkasi Nikitinning yelkasi qatorida to'pning temir qalqoniga qapishgandi. Nikitinga esa shu dam serjant harakat qilayotgan bo'lsa ham negadir u to'pni oldinga surish borasidagi buyrug'idan bo'yin tovlayotganday tuyuldi. – Yuz yil yashaysiz...

– Karillayverma, ko'zing tegadi-ya! – chiyilladi to'pning g'ildiraklari tomondan Ushatikov. Uning muloyim va sodda yuzi porox qurumini yuvib tushayotgan terdan ko'kimtir tusga kirgandi. Irimchi Ushatikovning peshanasidan ham ter quyib kelar, kaptamiga o'xshash ko'zlari qo'rquvdan chaqchayib boqardi. – Leytenantlarni gapiraverma! Ularning halok bo'lishini istayapsanmi?

– Bular bizdan ko'p umr ko'rishadi. Ikkovimizni hali bu o'rmonga dafn etib ham ketishadi! Tushundingmi? Bu yerda Berlinni olgandan keyin qahramonlarcha halok bo'ldik, deb yozilgan lavhacha ham qoldiramiz! Nima deding, Ushatikov? – zaharxandalik bilan javob qaytardi Mejenin. Uning terlagan go'shtdor yelkasi Nikitinning yelkasi yonida nomigagina harakat qilayotganday tuyuldi. – bizga o'lgin deyishsa, o'laveramiz! Yo'q, deb bo'larkanmi? Gap bitta bo'ladi! Bizning vazifamiz bajarish... O'lganda ham bitta-yarimtaning ko'kragiga ordenchalarni ilib ketamiz!

Mejeninning yelkama-yelka turishi, uning yasama itoatgo'yligi-yu, xo'jako'rsin harakatlari, xaxolashi va kesatiqlariga avvaliga Nikitin e'tibor qilmadi. Buni u yaqindagina oralarida bo'lib o'tgan to'qnashuv alamiga yo'ydi. Nikitin bundan ko'p yil oldin tasodifiy ravishda yuz bergan hodisani, arzimas bir voqeani eslashni istamas, negaki, u hozirgi qadrdonliklari soyasida unutilib ketgandi. Buni eslashni istamasa ham Mejeninning dam-badam ola qarab qo'yayotgani taajjubga soldi. Yo'q, bu alamzadalik to'qnashuv oqibati emas, balki Nikitin ilgari payqamagan boshqa narsa bo'lib, buni bir lahza muqaddam xayoliga ham keltirmagandi. «Nahotki o'sha bo'lsa?.. Nahotki?» Nikitin jang oldidan to'p yonida Mejeninning odatdagiday bema'ni ko'rsatmalar berib, bemaza hazil qilayotgani-

ga, har xil qiliqlari bilan askarlarni kuldirayotganiga e'tibor qilmagan, to'p qalqonidan chap yoqda turgani uchun yoki nishonga oluvchi askar bilan yonma-yon bo'lgani sababli uni ko'rmagan (Mejenin snaryad tashuvchilarni boloxonador so'kkanlarini ham eshitmagan) va baqirib-chaqirib buyruq berib, quymichiga ura-ura xaxolab: «Mana sizga, fritslar!» deganini eshitmagandi. To'g'ri, otishma paytida Mejeninning baqirib-chaqirib turishi xuddi o'lim xavfini kamaytirib turganday tuyulgandi. Lekin hozir Nikitin to'pni itarishib bo'rarkan, ter bosgan peshanasini yelkasiga surtib Mejeninga qaradi-da, yoqimsiz qiliqlaridan tishlarini g'ijirlatib qo'ydi.

Mejenin xirillab to'pni olg'a surarkan, porox qurumi yuqqan lablari qiyshaygan, ter bosgan yonoqlarining suyaklari turtib turar, yarim yumuq kipriklari orasidan ko'rinayotgan ko'zlari tund boqardi. Uning hozirgi ko'rinishi Nikitin uchun yangilik edi, nega deganda, Mejeninning hozirgi qiyofasi odatdagi avzoyiga sira o'xshamas, u bugun mahkum odamni eslatardi. Nikitin mahkum odamlar ahvolruhiyasi qanday bo'lishini yaxshi bilgani uchun uzuq-yuluq shivirlay oldi xolos:

– Mejenin... Nima bo'ldi, Mejenin?..

Mejenin boshini silkib, tishlarini irshaytirgancha sovuq kulimsiradi, keyin qahr to'la ko'zlarini to'p qalqoni tagidagi bir nuqtadan uzmay xirilladi:

– O'zingni o'qqa tutib berishning nima keragi bor, leytenant? To'rt yil qon kechganimiz kammi? Berlinda ham ozmuncha qon to'kdikmi? Knyajko bilan yana bitta orden olmoqchimisizlar? He, o'rgildim sizlardaqa mishiqi ziyolilardan, jin ursin sizlarni!.. Qayoqqa «olg'a?» Urushning oxirida hammani go'rga tiqmoqchimisizlar?

Mejenin dushmanning o'ziyurar to'plari tomon silljishayotganidan vahimaga tushgan, buni Nikitin yaxshi anglab turardi. Mejeninning o'zini bosolmay aytib yuborgan gapini rosti Nikitin ham xayolidan o'tkazib, bundan o'zi ham cho'chib turgandi. Mag'lubiyat arafasidagi nemislar, tor-mor qilingan Berlindan o'nlaracha kilometr naridagi ana shu shinamgina, osuda, odamlar yayrab qolgan, oftob charaqlab, bahor hukmron bo'lgan, sirenlari isi bilan birga urush intihosi va g'alabaning kishini sarxush etuvchi ajib nafasi kezayotgan shaharcha yaqinida sira ham ko'zda tutilmagan, keraksiz va tasodifiy boshlagan jang qurbonsiz kechmasligi bilan ayni paytda barchani

benihoya qo'rquvga solardi. Nikitin ilk uzilgan o'qlardan o'ziyurar to'p burqsib yongandan keyin bu haqda o'ylamay qo'ygandi. Vaziyat endi orqaga qaytishni taqozo etmagani uchun butun fikr-zikri bu mushkul ahvoldan qutulib ketishda bo'lgan Nikitin nuqul: «Tezroq, olg'a, o'rmon yo'lagidan amallab o'tib olsak bo'lgani! O'ziyurar to'plar panadan turib o'qqa tutib qolishmasin!...» deya takrorlardi.

Nikitin Mejeninni naqadar og'ir o'y ezayotganini tushunib, ne sababdan zahrini sochganini («Nimaga? Hozirmi? Tavakkalchilikmi? Urush so'ngida-ya?») anglab turardi. U to'pga jon-jahdi bilan yopishgancha vazmin g'ildiraklarni og'ir qimirlatib, zildayligidan qiynalayotgan askarlarga qaradi. Ular Nikitin bilan Knyajkoning buyrug'ini bajaramiz, deb o'lib-tirilishayotgandi. Nikitin askarlarga tikilarkan, go'yo Mejeninning tamomila haq so'zlarini eshitgan yoki eshitmaganlarini aniqlashga urinar, jang tugay deganda mabodo jonlari ko'zlariga shirin ko'rinsa bormi, barchasi halok bo'lishi mumkinligini dilidan o'tkazardi. Nega deganda, nemislar daraxtlar panasidagi o'ziyurar to'plardan ularni bemalol qiyratishlari mumkin, buni esa hali o'ttiz yashar bo'lsa-da, ko'plab janglarda obdan toblangan, urushga moslashgan, uning ikir-chikirlarini puxta o'zlashtirib olgan, Nikitinga qaraganda epchilroq va tajribaliroq Mejenin ham juda yaxshi bilar edi.

– Mejenin, Mejenin... – Nikitin xirillab, nafasini rosladi. U bo'g'ilayozgandi. – Jim bo'ling, tushunarlimi? So'zlashish bas endi, bas, Mejenin!

Mejenin hurpaygancha xiralashgan ko'zlarini to'p qalqonidan olarkan, bo'yin tomirlari bo'rtib asabiy shivirladi:

– Hammani qirmoqchi bo'ldilaringmi, hammani-ya?

Tutun bosgan o'rmondagi alanga aralash kuchli portlash yerni qattiq larzaga keltirib to'pning yon-veri o'pirilib ketganday bo'ldi va allaqanday bahaybat qora narsa balandga ko'tarilib, to'pni orqaga siljitdi, daraxtlarning barglari bamisoli quyunday boshlar uzra uchib o'tdi. Bundan gangib qolgan askarlarning sarosimadagi ovozlari eshitildi. Ushatikov ham: «Nima? Nima qilishdi ular?» deb chiyilladi. Nikitin portlashning achimsiq dudidan yo'talib, yengi bilan nam yuziga yopishib qolgan yaproqlarni artarkan, qanday hodisa ro'y berganini tushuntirib berolmas, chunki o'zi ham anglolmagandi. Bu

nogahon portlash ko'p tonnali bomba portlashiga, uzoqqa otiladigan snaryadlarning portlashiga o'xshar, lekin osmonda uning chiyillagani ham, samolyotlarning o'rmon tepasidagi tanish g'uvillashi ham eshitilmagandi.

– Nima gap? Nimalar bo'lyapti u yerda? O'zlarini portlatishyaptimi?

– O'rtoq leytenant!..

– To'xta! – baqirdi Nikitin. – To'xta!

G'alati portlash bo'lgan joyda quyuq zulmat hamma narsani – yo'lni, yerni, daraxtlar-u osmonni ham qoplab olgan, quturayotgan alanga va qalin tutun ko'rinar, ora-sira portlayotgan snaryadlar orasidan bronetransportyorlarning chiziq yasab uchayotgan o'qlari ham ko'zga tashlanardi. O'ziyurar to'plar tutunda ham tasmollab paydarpay o'q uzardi.

– Hozir... – Nikitin ohista shunday deya ag'anagan qarag'ayga o'tirdi-da, daraxtning yuziga yopishgan igna barglarini sidirib tashlagach, planshetkasining timdalanib, qurum bosgan selluloid xaritasiga qarab, nima voqea ro'y berganini bilmoqchi bo'ldi. Asfalt yo'l o'rmondan to'g'ri cho'zilib, ko'l muyulishida chaproqqa burilar, kunbotar tomondagi to'g'onda yog'och ko'prik borligi belgilab qo'yilgandi. Nikitinga hammasi ayon bo'ldi: nemislar ko'prikdan o'tib olishgandan keyin uni portlatib yuborishgan va hozir narigi qirg'oqdan o'q uzishar, ularga endi to'plarning o'qi yetmas. yaqinroq borishning esa iloji yo'q edi.

– Ko'prik, – dedi Nikitin, – nahotki portlatgan bo'lishsa?

Shabada ta'sirida zulmat picha tarqalib, may oftobi bamisoli yelpig'ichdek tutun orasidan ko'rinib, tanalari majruh qarag'aylarni, o'pirilgan asfaltni, yerdagi sarg'aygan xazonlarni yoritdi. Yo'l ketgan tomonda, snaryadlar portlayotgan tarafdagi daraxtlar orasida o'rmon ko'li qo'rg'oshinday yaltirardi. U yerdan uzilgan o'qlar chatnashi tez-tez ko'rinib turardi. Shundan keyin banogoh yomg'ir ovozigga o'xshagan bo'g'iq shovqin, suvning kuchayayotgan shovullashi eshitildi.

– Birodarlar, nemislar ko'prik bilan to'g'onni portlatishibdi! – qichqirdi kimdir hayrat va sarosimada. – U yerda ko'l bor-a! Bu yoqqa, biz tomonga suv kelyapti! Ana, suv yo'lni bosib kelyapti!

Ushatikov ham to'p yonida qalqon osha bo'y cho'zib chiyilladi:

– Bu qandaysi bo‘ldi-a?

Ketma-ket orqadan kimningdir baqirig‘i eshitildi:

– Suv yo‘ldan kelyapti! Biz tomonga! Qara!

– Baqirmasang-chi, shang‘i! – Mejenin o‘shqirdi-da, Nikitinning yonidagi ag‘anagan qarag‘ayga o‘tirib dedi: – Bugun omadimiz kelmasligini sezyapman, ko‘nglim sezib turibdi, leytenant, chekinish kerak. Mashinalarni chaqirib, o‘rmon chekkasiga ketish kerak... Hoziroq, vaqt borida...

– Mashinalar qayga keladi? Yo‘lgami? O‘ziyurar to‘plar bermalol nishonga olishi uchunmi? – e‘tiroz bildirdi Nikitin. – Qayoqqa chekinamiz? Yana o‘rmon chekkasimi? Keyin yana kelamizmi? Nima, chekinishga buyruq bo‘ldimi?

– Qanaqa buyruq? Kimning buyruq‘i? Parvardigor berishi kerakmi buyruqni? Bu yerda xo‘jayin Knyajko ikkovlaring-ku! – g‘ijindi Mejenin. – Suvga o‘q uzasizlarmi endi? Fritslarning ko‘zi oldida qulochkashlab suzmoqchimisizlar?

– Ko‘p gapirmang, dedim-ku sizga, Mejenin, bas qiling! Tushunarlarmi? Yetar, bas!

Mejenin qo‘pol so‘kinib qo‘ydi.

– Xo‘sh, bu yerda birodarlar go‘rini qazirkanmiz-da, noshud qahramonlar! Meni hali narigi dunyoda ko‘p eslab yurasizlar, ko‘rnamaklar!

– Mejenin, to‘p yoniga marsh!

Oftob nurida olisdagi beton to‘g‘onning o‘pirilgan joyidan oti-layotgan suv yo‘lga yaltirab oqayotgani, ko‘l yonidagi pastlikka tushayotgani, chekkadagi ariqlarga oqqani uchun butalarni tebratayotgani, qarag‘aylar tagiga yoyilayotgani ko‘rinib turardi. Hatto oqim sayozroqqa uloqtirib, qalin yaproqlar uzra tipirchilayotgan yirik karp baliqlari ham yalt-yult tovlanardi... Ularning jonsarak pitirlashi o‘q uzilishiga o‘xshardi.

– Qaranglar, tirik baliqmi? («Bu qichqirgan kim bo‘ldi? Ushatikovmi? Nega ajablanadi u?») Birodarlar! Tirik baliq! Bu qandaysi bo‘ldi-a?..

– Shang‘illama! – o‘shqirdi Mejenin unga, so‘ng to‘p tomon yurdi. – Baliq ko‘rmaganmisan umringda! Undan ko‘ra shimingni yechib tayyor tur, halizamon suzishingga to‘g‘ri keladi!

Ammo Nikitin umidsizlanmasdi. U suv to‘plar manziliga yetib kelmay, pastga oqib, singib ketadi, ko‘ldan yuz metrcha masofada-



gi yo'lnigina bosadi, deb o'ylagandi. Lekin suv aksincha, to'xtamay, ariqlarni to'ldirib, pastlikni ham qoplab kela boshladi. Nikitin Mejeninning mashinalarni chaqirish kerak, degan taklifini rad qilgan, to'pchilar to'pni ortga ikki-uch metr surib borishga kuchlari yetmasligini bilardi. U indamaygina turgan askarlarning bezovtalanib endi nima bo'lishini kutayotganlarini, Mejeninning esa yer ostidan boqib qo'yishlarini ko'rib tursa-da, hech qanday buyruq bermay, bu yog'iga nima qilish kerakligi xususida bosh qotira boshladi. Hozir to'pni orqaga surish telbalik, qochish degani. Jang boshlangach, baribir yana olg'a siljishga to'g'ri keladi. Chunki leytenant Knyajkoning buyrug'ini hali hech kim bekor qilmagandi. Nikitinning rejasini ham ahvolni yengillashtiradigan chora, qutqaradigan tadbir bo'lmay, jahl ustidagi majburiy noilojlik ediki, leytenant, nuqul o'ziga-o'zi: «Tezroq tugatish kerak, bu bema'nilikka tezroq barham berish zarur! To'plarni o'rmon orqali, ko'lni chetlab olib o'tib, o'ziyurar to'plarining biqinidan chiqsak, ular chekinadi! Biroq buni qanday bajarish kerak? To'plarni qanday olib o'tish lozim? Hech kimda mador qolmadi-ku», derdi.

– Nikitin! Hoy Nikitin! Nima gap o'zi bu yerda?

Nikitin Knyajkoning keskin va jarangdor ovozi bilan o'ziga keldi. Knyajko yo'ldan ildam o'tib, to'p yoniga yaqinlashdi. Yuzi chuvaklashib, oqarinqiragan, peshana va yonoqlarida qurum ko'rinar, zangori ko'zlarini dam askarlarga, dam Nikitinga sinovchan tikardi.

– Xo'sh, Nikitin, nima, suzmoqchimisan? – ovozi bilan qo'ydi qattiq hayajonlangan Knyajko. – Eshityapsanmi, qo'shnilarimiz o'ngdan ketishdi, qayerda jang qilishayotganini xudo biladi! Piyodalarimiz ham qayerlardadir o'ralashib qoldi! Esiz, o'ziyurar to'plarni deyarli quvib yetgandik-a! Ajoyib! To'plarni o'rmon orqali ko'lni chetlab olib o'tamiz! Imillamaylik, bo'laqol! Mening to'plarim ketidan yuraveringlar! Hozircha o'q uzish to'xtatilsin! Zarur bo'lgandagina o't ochib, oldinga siljiymiz!

– Tushunarli, – javob qildi Nikitin bosh iring'ab. U Knyajkoning o'sha dadilligi, shak-shubha qoldirmaydigan tiniq, jarangdor ovozi ta'sirida cho'chib turgan yuragi gupillab urib ketganini sezdi.

– Bo'laqol, Nikitin! Qani, yigitlar! Boshqa chora yo'q! – Knyajko shunday deb qichqirdi-da, tutunda yo'lni chopib o'tib, daraxtlar

orasida ko'rinmay ketdi. O'sha tomonda ko'ldan chiqqan suv may-salar uzra ko'pirib oqardi.

Knyajko gapirayotganda Mejenin go'yo unga ham, Nikitinga ham e'tiroz bildirmoqchi bo'lganday xo'mrayib tursa-da, lekin churq etolmadi. Knyajko qarag'aylar orasida g'oyib bo'lganidan keyin to'rsaygan qiyofada, kimgadir bor nafratini sochayotganday ohangda xirillab buyruq berdi:

– G'ildiraklarga yopishinglar! Itarsang-chi, itar. Yopishinglar-a, qimirlolmay qolsanglar ham yopishinglar.

Askarlar to'p g'ildiraklariga, qalqoniga yopishishgach, Mejenin ham ularga qarasha boshladi. Jusassi ushoq, malla Tatkin mo'ylovi ostidagi quyonniki kabi labini cho'chaytirib nimalarnidir g'udrangancha, Mejeninning dag'dag'ali baqirig'iga javoban qo'rqibroq hiringlab qo'ydi.

To'pni qarag'aylar orasida hosil bo'lgan keng botqoqdan itarib borishar, g'ildiraklar loyga botib, suv to'la chuqurlarga tushib ketar, ko'lining orqa tomonidan har o'q otilganida to'pchilar negadir bor zalvorlari bilan bosib to'p lafetini yumshoq tuproqqa botirishardi. Oskolkalar cho'g' yanglig' to'p qalqoni tepasidan uchib o'tar, o'q-dori gazlari aralash yopishqoq narsa yuzlariga yopishar, oqib tushar, yelkalarda dog' bo'lib qolardi. Portlash payti askarlar bir lahza egilib, lafet atrofida g'uj bo'lishar, biroq ko'p o'tmay snaryad qutilarini tashishdan charchab, o'ziyurar to'plarning paydarpay o'q uzi-shidan quloqlari bitgach, yaproq aralash loyga o'zlarini tashlashardi. Portlash tevarakka loy sachratar, yerga qapishgan askarlar ustiga suv yog'dirardi. Shundan keyin o'zi ko'rinmayotgan Knyajkoning: «To'p, olg'a!» degan shiddatli buyrug'ini eshitib, arang turishardi-da, Nikitinga o'girilishardi. Shunda ularning qoraygan yuzlari niqob kabi ko'rinar va hamma bir ovozdan qachon tugaydi bu leytenant, deb so'rayotgandek bo'lardi.

– Yana, yana, do'stlar! – derdi Nikitin nuqul. U boshi g'uvillab tursa ham qilayotgan ishi zarurligini o'ziga uqtirar va chayqalgancha vazmin to'pga yelkasini tirab, elas-elas Mejeninning xirillab so'kinishlarini eshitib qolardi. Nimadandir qattiq ezilgan, avzoyi bu-zuq Mejenin juda darg'azab edi:

– Yopishinglar, tirik ekansizlar, qo'yib yubormanglar! Bir boshga bir o'lim. Ketingiz bilan harakat qilsangiz-chi! Ha, tobutingiz mana shu bo'ladi!..

Birinchi to'pni ko'lning o'rmondagi sohildan bir necha yuz metr siljitib, sertutun va suv yumshatgan joydan kenggina va quruq yerga olib chiqqanlarida Nikitin ortiq oyoqda turolmasligini sezdi. U butun tanasi qaltirab, og'zi quruqshab, biqini bilan qarag'ayga suyandi. Arang qimirlyotgan barmoqlari bilan gimnastyorkasi tugmalarini yechib, chuqurroq nafas olmoqchi bo'ldi, ammo tashnalikdan tomog'i qurib qolgandi. Uning ko'ngli ozar, ter teppasidan quyib ko'zi xiralashgan, chakka tomirlari qattiq lo'qillardi. Nikitin o'ng tomonidan Knyajkoning jangga shay to'pini arang ilg'ar va uning nega bu yerdaligini anglolmasdi.

Askarlar ham ingray-ingray to'p atrofiga cho'zilishdi-da, bul-turgi xazonlar uyumiga peshanalarini qo'yishdi. Faqat to'p qalqo-nini ushlab turgan Mejeningina nafasi qisilib esnaganicha, qizargan ko'zlarini Knyajkodan uzmagani ko'yi qurum yuqi ro'molchasi bilan nam qo'lini artardi. Knyajko indamay, etigi bilan maysalarni ohista bosib borar, gavadasi xiyol chayqalib, qattiq toliqqani sezilardi. Lekin u buni bilintirmaslikka urinar, xo'mraygan alamli qiyofada nimani-dir izlardi.

– Tushunarlimi, Nikitin? – dedi Knyajko yaqin kelib, jarang-dor ovozda. – Qo'ldan chiqdi-ya! Qutulib ketishdi, yaramaslar! Ko'prikni portlatishdi, biz bu yerdaligimizda... – jahldor Knyaj-koning rangi o'chgan, gimnastyorkasining ko'kragi nam, ho'l pes-hanasidagi sarg'ish sochlari dog'-dug' pilotkasi ostidan chiqib tu-rar, hozirgi tashqi ko'rinishida Nikitinni lol qoldiradigan ilgarigi ozodalik va orastalikdan asar ham yo'q edi. – Qutulib ketishdi-ya! Osongina qochib qolishdi. Tushunyapsizmi? – Knyajko ro'paradagi qirg'oqdan ko'zini uzmay gapida davom etarkan, kir dastro'mo-lini changalladi. – Nima bo'lganini bilasizmi? Shunday bo'ldiki, ular bizdan emas, biz ulardan chekindik. Tentaklik. Uchta bemaza o'ziyurar to'pni qo'ldan chiqarib yubordik-a! Ular endi orqa tomo-nimizda sanqib yurishadi! Buning uchun o'zimni sirayam kechirol-mayman!..

– Qo'ysang-chi, Andrey! – Nikitin zo'rg'a nafasini rostlab qiy-nala-qiyнала qo'shimcha qildi. – Qo'ysang-chi... Menga qara. Andrey, ehtimol shunday bo'lishi kerak bo'lgandir. Balki bu oxirgi jangdir. Balki omadimiz kelgandir...

– Nima, oxirgi jang, deysanmi? Oxirgi jang haligidaqa... emas, haqiqiy jang bo'lishi kerak edi... – tishlarini g'ijirlatib qattiq so'kindi Knyajko. U sira ham bunday so'kinmasdi.

«Ha, men jang bo'lishini istamayman, – dedi Nikitin ichida, – lekin uning xayolida boshqa narsa... Nimani o'ylayotgan ekan? Yo-vuzlikmi? Qoniqmaslikmi?»

Oldinda ham, chap tomonda ham, o'zlari to'pni g'ildiratib borayotgan pastlikda ham – hammayoq jimjit, snaryadlar uchmas, vayron bo'lgan ko'prik tevaragida portlashlar ko'zga tashlanmasdi. Ko'l qarshisidagi qirg'oqda so'ngan alanganing oftob yoritgan binafsharang kuli oqar, qarag'aylar ostida suzib yurgan tutun suvga aralashib ketardi. Yondirib yuborilgan o'ziyurar to'p esa hamon tutab, endi tutunli o'rmondan motorlarning gurullashi ham, zanjirlarning shiqirlashi ham eshitilmasdi... Oldindagi tankka qarshi to'plarning gumburlashi ham tingan, faqatgina o'rmon oralig'idan, ko'lning o'ngroq tomonidan asalari g'o'ng'illashidek avtomatlar tarillardi. Bu ovozlari yaqindagina o'rmonni larzaga keltirgan to'plar gumburlashiga nisbatan arzimasi va bexatar edi.

– Piyodalar, – deb qo'ydi Nikitin horg'in. – Eshityapsanmi, Andrey...

– Piyoda askarlar ekanligini bilib turibman, – uning gapini bo'ldi hamon dastro'molini g'ijimlab turgan Knyajko. – Uchta burilolmaydigan o'ziyurar to'p o'rmonda to'rtta to'pga qarshi o't ochsa-yu, biz uni osongina qo'ldan chiqarib yuborsak! Yo'q, bu beso'naqay to'plarning qochib ketishiga ikkimiz aybdormiz, Nikitin! Ular endi orqa chiziqda ancha-muncha askarlarimizni nobud qilishi mumkin! Bu jang ana o'shalar uchun oxirgi jang bo'ladi!.. – Uning qaysarligi tutib, qiyofasi o'zidan ko'ngli to'lmagana o'xshash tusga kirdi. So'ng birdan so'rab qoldi: – Yonog'ingga nima qildi? Qachon yalab o'tdi?

– E, arzimagan narsa. Daydi oskolka tegdi. Hechqisi yo'q, bitib ketadi, – javob qildi quruqshagan lablari bilan jilmayib Nikitin. U xotira bo'lsin uchun planshetkasiga solib qo'ygan, o'zini o'ldirmagan oskolkani olib ko'rsatishni negadir istamadi. Knyajko-ni o'zi bunaqa narsalarni sira ham gapirmas, tasodif haqidagi gaplarni esa safsatabozlik deb hisoblardi.

– Bor, ko'lga borib yuvinib kel! – qat'iy buyurdi Knyajko Nikitinning oskolka yalab o'tgan yuziga tikilib turib. – Ahvolingni qara...

Nikitin o'ziga bo'ysunmayotgan oyoqlarini yo'l tomonga yigirma qadam tashlashga majbur qilish qanchalar qimmatga tushishini

bilib turardi. Yarmi quyuc tumandan xalos bo'lgan ko'lning moviy suvida osmon akslanar, uning oftob jilva qilayotgan, benihoya sokin suviga egilib, hovuchlab olib, «oh, oromijon-a» demoqchi edi, lekin shu payt Knyajko o'rmonning ichkari yo'lidan avtomat ovozlari kelayotgan tomonga zo'r berib tikilayotganini ko'rib, o'zi ham beixtiyor o'sha tomonga qaradi.

– Xo'sh, – dedi Knyajko. – Qo'shnilar ham paydo bo'lishdi.

Ikki tarafidagi yashil qarag'aylar oftobda oltinday tovlanayotgan uzun yo'lning oxirida o'rmon ichkarisidan bir guruh odam chiqib qoldi. So'ng buyruq bo'ldi chog'i, guruhdagilarning hammasi yo'lning chap tomonidan ko'l tomon yugurgilab kela boshlashdi. Oldindagi miqti, zobitlar furajkasini kiygan kishi plash-palatkasini hilpiratib chopar, avtomati ko'kragida ko'ndalang edi. U ortiga o'girilmay: «Orqada qolmanglar, birodarlar, qolmanglar!» deb hayqirardi. Bo'yi ancha past bo'lsa ham maysa ustida charm etikli oyoqlarini iloji boricha katta-katta tashlar, ko'rinishdan chaqqon, ildam va chopag'on edi. U ko'lga yaqinlashgach, yo'ldagi to'pni payqab, qo'lini osmonga dadil va ogoh qilganday ko'tarib buyurdi: «To'xta! Shu yerda kutinglar! Dam olinglar!». Shundan keyin bami-soli tepilgan sharday plash-palatkasini hilpiratgancha to'plar tomon yugura turib yo'l-yo'lakay hayqirdi:

– Zambarakchi emas, iblis ekansizlar! Oftobda qorayyapsizlarmi, bekorchilar? Yag'rinlaringni kunga toblab yotibsizlarmi? Chap beryapsizlarmi?

U ham xursand, ham g'azabnok holda harsillagancha zobitlar yoniga chopib keldi. Uning navqiron chehrasida yaqinginada bo'lib o'tgan jang asorati sezilar, furajkasining ayvoni orqaga qarab qolgan, qizargan qovoqlari ostidagi qop-qora ko'zlari bilan bir to'plarga, bir Nikitin bilan Knyajkoga qarar, go'yo izlagan narsasini topolmayotganga o'xshardi.

– Hoy, panadagi soyapar artilleriyachilar, urush xudolari, nima qilyapsizlar o'zi? Nimaga o'q uzmayapsizlar? Yoki oftobda toblanib, uyquni uryapsizlarmi?! Kipriklaringizni avaylayapsizlarmi? – piyoda askarlarga xos dag'al va qattiq ovozda baqirdi u. – Sizlarga maza ekan-ku, ryazanlik bekorchilar! To'pdan bir-ikkita paqillatib qo'yib, keyin oftobda toblanib yotish ekan-da, a? Urushni tugatib qo'ya qoldinglarmi? Uyalmay yalpayib o'tiribsizlar-a, jin urgurlar!



– Hoy, yetar, bas! – jahli chiqib ketdi Nikitinning. – Namuncha otga o'xshab kishnamasangiz! Qayoqdan paydo bo'lib qoldingiz o'zi?!

Knyajko qoshining sal titragani demasa, qilt etmadi. U adl qomatini tik tutib, kaftini chakkasiga yaqinlashtirdi-da, g'azabini bosib, osoyishta qiyofada rasmiy ohangda so'z boshladi:

– So'rashga ijizat bersangiz, o'zingiz kim bo'lasiz? Men batareya komandiri vazifasini bajaruvchi leytenant Knyajko bo'laman. Kim bilan gaplashayotganingizni bilib qo'yishingiz uchun o'zimni tanishtiryapman. Baqirishni bas qilib, o'zingizni bosing. Hovliq-mang! Nega shovqin solayotganingiz, nima gapligini tushuntirishingizni so'rayman!

– Baqirmang emish-a! Ayovsiz jang ketyapti, odamlarimdan ayrilyapman-u, sizlar, urush xudolari bo'lsa oftobda yalpayib yotib-sizlar!

Piyoda askarlar zobiti Knyajkoning gapidan keyin sal hovuridan tushdi. U o'zini dam qarag'aylar ko'lankasida kutib turgan askarlariga, dam bezovtalangan, yuzlarini qop-qora qurum bosgan to'pchilarga olazarak qarar ekan, tanqa burni kataklari kengaydi, plash-palatkasi tagidan chiqargan qo'lini zarda aralash qiyshiq furaj-kasi soyaboniga yaqinlashtirdi:

– Rota komandiri katta leytenant Perlin. Ha, sizlar ham sizlarni tuzlagan kim ekanligini bilib qo'yinglar. Mayli, endi oramiz ochiq, bir-birimizda haqimiz qolmadi! – U xuddi qalpog'ini-yerga urganday kaftini chakkasidan olgandi, tishlari yaltirab ketdi. – Bo'ldi! G'ijillashganimiz yetar, endi bas! Begonalar emasmiz-ku axir, to'g'rimi? Menga yordam qilsang bo'lardi, leytenant, xo'sh, nima deysan? O'q uzib, madad berib turinglar. Ma'qulmi? Men bu frits gazandalarni o'rimondan quvib chiqarolmayapman! – katta leytenant endi iltijo qila boshladi, – uyga kirib olishgan, devorlari shundayyam qalinki, mana bunday! Ichkarida turib, avtomatlardan o'q yog'dirishadi, ularga sira tik hujum qilib bo'lmayapti! Qolaversa, ularga bronetransportyor ham madad berib turibdi! Yerdan bosh ko'tartirishmayapti! Vzvodim bilan aylanib o'tib, orqa tomondan chiqdim, biroq buning ham foydasi bo'lmadi, leytenant! Ularga bir juftgina snaryad yo'llasanglar, la'natilarni suvaraklarday uydan to'zitib chiqarardim-a! Nima deysizlar? Bo'ladimi? Artilleriyachi

og'aynilar, bronetransportyorni ikkitagina snaryad bilan yo'q qil-sanglar, bu yog'i oson ko'chardi. Bo'ladimi? Iltimos, birodarlar, chin yurakdan o'tinaman! Urush oxirlagani sezilib turibdi, birodarlar, odamlarni bekorga nobud qilishning nima keragi bor, har kimning ham yashashga haqi bor-ku! O't ochib yordam bersanglar qaniydi! Bo'ladimi? O't ochib bir to'zitib beringlar!..

Nikitin bundan bir daqiqa oldin dag'allik bilan do'q urgan, o'qchilar rotasining pakana komandir, katta leytenantning xijolatda iltijo qilayotgani, bezovta to'pchilar-u, Mejeninning esa o'sha zobitga badqovoq va nafrat bilan tikilayotganini ham ko'rib turardi. Nikitin bir lahza tutoqdi-yu, keyin o'zini bosib oldi. Piyoda askarlarning bu yerga qanday kelib qolishgani, to'g'on nimaga va qanday vaziyatda portlatilgani, narigi qirg'oqda yonayotgan o'ziyurar to'p bilan nima ishi bor? Yoki o'rmon ichida nima qiladi, o'z rotasi odamlarini omon saqlab qolsa bo'lgani-da. Shuning uchun ham Nikitin istehzosini yashirmay va ensasi qotib so'radi:

– Nega plash-palatkada yuribsiz? Ehtimol, hujumga o'tishda xalaqit berayotgan bo'lsa kerak? Yo yomg'ir yog'ishini kutyapsizmi?

– Xalaqit beryapti, deysanmi? Sirayam! O'qlar o'ralashib qolsin, deyapman-da! – katta leytenant rasta ovozda shunday deya o'qlar tegaverib, ilma-teshik bo'lib ketgan plash-palatkasining etagini mamnun silkitib qo'ydi. – Ko'rdingmi? Har bir hujumdan keyin bittayarimta belgi qoladi! Dneprdanda beri yechmay kelyapman o'ziyam buni! Bamisoli sehrli qalqon! O'zim uchun iltimos qilayotganim yo'q, birodarlar! Berlin olingandan keyin ham yigitlarimni nobud qilishga haqim yo'q! Yuzlab askarlarimdan ayrilganman, hisoblasam, undan ham ko'p chiqadi! Kimlardir omon qolishi kerak-ku. Yo bizlar odam qatoriga kirmaymizmi?!

– Bas qiling! Xaritadan o'rmonning ma'muriy tuzilishini ko'rsating, – Knyajko ta'bi tirriq bo'lib uning gapini bo'ldi-da, planshetkasidan Berlinga hujum arafasida berilgan yangigina xaritasini oldi. – Qayerda u?

– Eh, leytenant, xarita shartmi? Shundoq yonginasida turibmizku! Manavi yerdan to'g'ri borib, keyin qishloq yo'lidan uch yuz metr yuriladi. Ko'lning shimoli-sharqiy tomonida, yonginasida! – katta leytenant kir timog'i bilan xaritagaga nuqidi. – Xaritadan ko'rishning nima keragi bor, leytenant? Gapimga ishonmaysanmi? Shtab zobiti emassan-ku? Xaritaning senga nima keragi bor?

– Xarita o‘rmondan asfalt yo‘lga chiqolamanmi, yo‘qmi, shunga kerak. – Knyajko shartga Perlinning gapini bo‘lib, barmog‘ini xaritadan nari surdi. – Muhtaram piyoda askarlar pusgan o‘rmonga tasmollab o‘q uzish uchun emas, siz o‘z vazifangizni bilib olishingiz uchun bu ishni qilishim kerak. Shunday! – dedi Knyajko xaritasini taxlay turib. – Qishloq yo‘li o‘rmondan keyin asfaltga chiqadi. Uzunligi ikki kilometrcha. Qoyil... Sen nima deysan, Nikitin? E‘tirozing yo‘qmi?

«Nahtki u shunga qaror qilgan bo‘lsa? – ko‘nglidan o‘tkazdi Nikitin Knyajkoning cho‘rtkesarligi va o‘jarligidan biroz xavotirlanib. – U haliyam yo‘lda o‘ziyurar to‘plarni uchratishga umid qilyap-timikin? Yo‘q, unda aql bilan ish tutmagan bo‘lamiz!»

– Sen batareya komandirisan, – javob qildi Nikitin ovozini pastlatib. Bu uning rizoligidan dalolat berardi.

– Begona hujjat bilan jannatgami? – dedi xirqiroq ovozda to‘p yonidagi Mejenin. – Piyodaning boshga bitgan baloligi ruschada qanday aytilishini bilasizlarmi? Eshitganmisizlar hech?

– Unda qoyil, – Knyajko parvoyi falak Mejeninga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi. Keyin sumkasini yopib, o‘zicha nimalarnidir o‘ylagach, Perlinga qovog‘ini uydi. – Qoyil. O‘rmoningizga sayohat uyushtiramiz. Odamlaringizni yig‘ing, faqat tez! To‘pchilarimizga to‘plarni g‘ildiratishda ko‘maklashasizlar! Buyuring!

– Yashavor, shayton! Bu yaxshiligingni hech qachon unutmayman! Sizlarday odamlarni yaxshi ko‘raman, boshimga ko‘taraman! – Katta leytenant quvonchi ichiga sig‘may kiftidan avtomatini olib, osmonga qarata tarillatib o‘q uzdi. – Bu yoqqa, hoy piyoda askarlar! Qani, to‘plarni suringlar! Bo‘la qolinglar! Tezroq!

Nikitinning katta leytenantning xushchaqchaqlik bilan shovqin solishini, tavakkaliga hujum boshlab, o‘rmonni ishg‘ol qilishga otlangan piyoda askarlar xatti-harakatlarini ham xushlamay kuzatib turardi. Piyoda askarlar bundan bir hafta oldinoq o‘rmonga tap tortmay tashlangan bo‘lishardi. Ular hozir qishloq yo‘lidan madad qilishga tayyor va oyoq tagidan chiqib qolgan artilleriyachilar tomon jon-jon deb yugurgilab kelisharkan, Nikitin bo‘lak fikrga kelolmasligini bilib tursa-da, Knyajkoning bu qaroriga xo‘p deb qo‘ygani o‘ziga hamon erish tuyulayotganini sezardi.

## SAKKIZINCHI BOB

Nikitin o'rmondan ikki yuz metr beridayoq to'plarni piyoda askarlarning baqir-chaqir yordamlari bilan o't-o'lan bosa boshlagan o'rmon yo'liga olib chiqqanlarida daraxtlarning naryog'idan kelayotgan kuchli otishma ovozlari – yirik kalibrli pulemyot va nemis avtomatlarining tarillashi, unga javoban sovet avtomatchilarining o'q yog'dirishi, o'rmon yalangligida uchayotgan o'qlar qarag'aylarga tegib daraxt tanalarini yalab o'tayotgani, xullas, mana shu ovozlarning hammasidan u o'zlari siljiyotgan tarafda ayovsiz jang borayotganini sezardi. Shuning uchun ham Nikitinning tanqa burni, qiyshiq oyoq, o'q ilma-teshik qilgan splash-palatkasini irim qilib hech yechmaydigan katta leytenantdan jahli chiqib, u tobora ko'ziga yomon ko'rinib borardi. Perlin familiyasi bu muttaham, surbet baqiroqning nazarida chamasi batareya mohirona jang qilgan, endi esa bir chekkada tinchgina dam olib, o'zini oftobga solib yotganday tuyulgan piyoda askarlar talafotlar ko'rib, artilleriyachilarning mada-disiz xatarli burchini bajarayotganday edi.

«Beo'xshov, yoqimsiz yigit, – ko'nglidan o'tkazdi Nikitin tutoqib. – Burniga o'xshab dabdala basharasiyam juda yalpoq ekan».

Perlin, Knyajko va Nikitin to'plardan oldinda jadal ketishar, katta leytenantning eski, unniqib ketgan splash-palatkasining etagi yurganda o'ralashib qolaverardi. Berilib kulgandagina o'chadigan va piyoda askarlar komandiriga xos do'rildoq ovozi ham Nikitinni g'ijintirardi:

– Hozir ularni boplab adabini beramiz! To'rtta to'pdan o'q uzil-sa, qanday to'zib ketishini ko'rasizlar! Keyin hujumga o'tamiz! Men jangchilarim bilan chekinib, endi to boshqalar yordamga kelmaguncha kutib turamiz-da, deb turgan joyimda sizlarni ko'rib qoldim. Xudo yo'q bo'lsa, urush xudosi bor-ku! Ha-ha! («Nega u ko'p gapirarkan? O'zini oqlayaptimi?») Qani, shu xudoga sig'inib ko'ray-chi, deb o'yladim... Uyni hozir ikkita vsvodim qamal qilib turibdi! Ax-tung, birodarlar! Bu yog'i ancha yengil ko'chadi. Bu yog'idan uygacha bir qadam...

– To'xta! – to'pchilarga buyruq berdi shu paytgacha jim kelayotgan Knyajko. – Shu yerda kutinglar. Ketdik! Qani, ko'rsating nimangiz borligini? – buyurdi endi u Perlinga, – rotaning marrasi qayerda? Boshlang.

Ular ochiq yo'lda yana bir necha metr bermalol yurishdi, biroq Perlinga ergashib chappa. qarag'aylarning dim ko'lkasiga burilishlari bilanoq avtomatlardan tinimsiz o'q yog'ilayotgani, paq-puq ovozlari, daraxt tanalariga o'q tegayotgani, o'q qirqib tushirayotgan igna barglar shitirlashi, Perlin yosh archalar oralab, «sehrli» plash-palatkasiga o'ralashgan ko'yi borayotgan tomondan yangrayotgan otishma ovozlari taraddudlanib qolishdi.

Ular shu tariqa yuz metrcha yurishgach, qulagan bahaybat qarag'ayning ildiziga qapishib yotgan nemis jasadiga duch kelishdi. Yangi va yashil mundirli nemis bir oyog'ini qorniga tortib, changchung etikli ikkinchi oyog'ini cho'zganicha qolgan, navqiron chehrasi zahil, o'ng chakkasini qonli barmoqlari bilan changallab yotar, qiyshaygan og'zi o'lim oldidan faryod qilganda ochilganicha qolgan, o'siq va qizlarniki kabi mayin sarg'ish sochi novdalar orasidan tushib turgan oftob nurida tovlanar, uning o'lik ekaniga ham ishonish qiyin edi. Jasadning gezargan yuzida, kipriklarida chumolilar o'rmalab, lablarida qolgan tomchilarni chetlab og'ziga kirib-chiqib turardi. Nikitin nemis bir yoki bir yarim soat burnn halok bo'lganini taxmin qildi.

– Bu go'dak qaydan kelib qoldi? – so'radi qovog'ini uyub Knyajko Perlin tomonga bosh irg'ab. – Hujjatlarini ko'ring. Kim ekan o'zi? Gitler yugenddanmi? Yo vervolfdanmi? Yoshi o'n olti yoshda bo'lsa kerag-ov...

– E, leytenant, o'n oltidami, yoki yo'qmi senga-baribir emasmi? – Perlin nemisning oyog'i tomonga nafrat bilan tupurdi. – Ular mana shu yerdan o'rmon ichkarisiga chekinishuvdi. O'rmonda bunaqalardan ancha-munchasi yotibdi. Nima qilasan buni? Qo'l iflos bo'lgani, vaqt behuda ketgani qoladi.

Shunday desa-da Perlin jirkanib jasadning hamma cho'ntaklarini bir chekkadan titkilab, hech qanday hujjat topolmadi. O'likning yonidan chiqqan mayda-chuydalar uning jangda kam qatnashganini ko'rsatardi. Arzon-garov qalamtarosh, xanjar, xanjar tasvirli xira qandaydir nishon, shompol zanjiri, buzuq, tepkisi yo'q kichkinagina brauning, uchi to'mtoq kalta qizil qalam, ochilgan va maydalanib ketgan bir parcha galet. Lekin hamyon bilan surat chiqmadi. Marhumni chamasi muhabbat ham, oila ham, Vatan ham ona tuproqqa mehrini tovlamagan, uni mexanik



o'yinchoq singari o't sachratadigan avtomatga o'xshash temir buyumlarni qo'lda tutish qiziqtirgan xolos. Nikitin ham o'zi va boshqalar misolida qurolga mehri, harbiy bilim yurtini bitirgan kuni shaxsiy to'pponchasini olganida undan ko'zini uzolmay qolgani eslab: «U maktabdan yaqindagina chiqqan bo'lsa kerak», deya ko'nglidan kechirdi.

– Go'dak ekan hali, – dedi Knyajko o'ychan holda g'alati qilib.  
– Qiziq, qayerlik ekan-a? Shaharchadanmi? Nima deysan, Nikitin?

– Balki.

– Gitlervachcha cho'ntagida qayoqdagi narsalarni olib yurganini qaranglar, – Perlin qo'lidagi mayda-chuydalarni jasad ustiga uloqtirdi. – Hatto soati ham yo'q ekan bolakayning.

– Juda ham xom ekansiz, – qisti-bastiga oldi Perlinni Knyajko ko'zlari darg'azab chaqnab. – Qani, olg'a! Rotangiz marrasiga boshlang, katta leytenant!

Nikitin miq etmadi. U jasadlarga tikilishni yoqtirmasdi. Murdalar xunukdan-xunuk, qiyofalarida tortgan azoblari yoki talvasalari mangu qotib qolganday tuyulardi. Jasadlar tiriklardan yoki endi hech kim o'q uzmaydigan ahvolga tushib qolgan o'zi kabi boshqa murdalardan kulayotganday taassurot qoldirardi. Shuning uchun ham Nikitin odam o'likni ko'raversa, diydasi qotib ketadi, degan gaplarni yoqtirmasdi. Urushdagi birovning o'limi sening ham omonatligingni eslatib turadi, jang payti ajal izma-iz ketidan yurmaydigan odam bo'lmaydi.

«Nemisga bu birinchi jang bo'lgan, – deb o'ylardi Nikitin Knyajko bilan yonma-yon Perlinga ergashib borarkan, – u o'qlarimiz yomg'iri ostida o'rmon chekkasidan qochganida hayot bilan urush nimaligini tushunib olgan. Chamasi, o'shanda avtomati bo'lmagan. O'limdan qochganida qurolini keraksiz o'yinchoqday uloqtirib yuborgan. Qiziq, uni nega o'ylayapman-a?»

Ular jang maydoniga yaqinlashganlari sari tinimsiz o'q ovozlari ayon yangrar, bundan Nikitinning badani battar muzlab, ko'ngli behuzur bo'lardi. Omadi kelishiga ishongani ming marta sinalgani, qaltis tasodifning o'tkir boltasi boshi uzra o'ynoqlaganida ham o'zini bosib olganiga qaramay, o'ziyurar to'plar bilan jang uzilib qolganidan keyin yaqinlashayotgan xavfni sezib, ichiga chiroq yoqsa yorishmasdi.

Knyajko qarag'aylarning bo'rtiq ildizlarini bosa-bosa borar, qoshi tashvishli chimirilgani uchun hozir ko'nglidan nimalar kechayotganini bilib bo'lmasdi.

– Shu yerda! To'xtanglar, artilleriyachilar! – buyruq berib qoldi birdan Perlin dov-daraxtlar orasida to'xtab va Knyajkoga o'girildi. – Oldinga qara! Bu yerda butalar orasidan hamma narsa ko'rinadi! To'pni shu yerga o'rnatish kerak. Ular huv anavi uyga joylashib olishgan! Bronetransportyor bostirmaning orqasida. Uyning chap tomonida.

– Gap bunday bo'lmasa, – dedi Knyajko sovuqqonlik bilan. – To'pni qayerga va qanday o'rnatishni o'rgatmasligingizni so'rayman. Buni endi o'zimiz hal qilamiz. Buyruq punktingizgacha hali bormi?

– Yaqin qolgandi. Buyruq punktida o'rinbosarim qolgan. Leytenant, bu yoqqa kel, panaga o't. Axir hamma joyda ham xavf bor, hamma yerda ham o'q tegishi mumkin! – dedi Perlin.

Shundan keyin u kimnidir chaqirib, engashganicha butalarning o'ngrog'ida pastak taxlab qo'yilgan o'tinlar tomon o'n odimcha yurdi. Banogoh yer tagidan chiqqanday ro'parasida bir kichik leytenant paydo bo'ldi. Shalpangquloq kichik leytenantning gangib qolganligi yuzidan yaqqol sezilib turardi. U shosha-pisha so'radi:

– Qaytib keldingizmi, o'rtoq katta leytenant? Bular kim?

– Sekin, Lavrentev! – jerkib tashladi Perlin. – Xudoga shukur qilaver, artilleriyachilarni olib keldim. Hammang plyajdagi sayyohlarday yalpayib yotibsanlar, shaytonlar, senlar uchun amaking hujumga o'tadimi?

– Ular nima qilayotganini o'zingiz ko'ring, – Lavrentev piyoda askarlarga xos bo'lmagan ovozda chiyillardi. Nikitin shunda uning yangi tasmasi, yechiq va hali ko'p qo'l tegmagan to'pponchasining qiniga qarab urushga yaqinda kelganini bildi.

O'rmon ichida joylashgan binodan ikki yuz metrcha masofadagi bu joy xatarli, chekkaroqdagi qarag'aylar oldida bir daqiqa to'xtash ham qaltis, o'rmon chekkasi o'qqa tutilar, ular bamisoli qizilishtonlarday qarag'aylarning tanalarini cho'qilab turardi. Shuning uchun ham zobitlar taxlangan o'tin g'arami panasiga o'tib, vaziyatni o'sha yerdan kuzatishga majbur bo'lishdi. Bu yer birmuncha xavfsizroq edi.

Lavrentev komandirining artilleriyachilar oldida qo‘pollik qilganidan xafa bo‘ldi chog‘i, o‘tin panasida qarag‘aylarning gimnastyorkasiga yopishgan igna barglarini olib tashlab, e‘tiborsiz turaverdi.

– Mana shunday gaplar, birodarlar. Uyni ko‘ryapsizlar-a? – Perlin qizariqiragan qora ko‘zlarini uylar orasidagi bo‘shliqqa tikarkan, birdan Lavrentevga o‘shqirdi: – Qani, g‘o‘dayib turavermasdan bu yoqqa kel, shalpanquloq qahramon!

Ha, oldinda Perlinni ham, uning rotasini ham Nikitinning ko‘ziga baloday ko‘rsatayotgan bino yaxshi ko‘rinib turardi. U yalanglikdagi, atrofini mayda taxta imoratlar qurshagan ikki qavatli yaxshigina uydan iborat edi. Piyoda askarlar chekkadagi qayinlar ostida yer bag‘irlab yotib olgan, o‘rmidan turolmas, bu ochiq joydan yugurib o‘tolmas, boisi nemislar o‘rmonga o‘q yog‘dirib hatto ko‘z ochirgani qo‘ymas, yalanglikning har bir metrda ajal o‘qi vizillab uchardi. Uyning hamma joyidan – oynalari sindirilgan derazalardan tortib, to boloxonadagi teshik-tirqishlargacha avtomatdan o‘q yog‘ilar, yarmi chap tomondagi imorat panasida turgan bronetransportyor yirik kalibrli pulemyoti bilan uy mudofaasiga ko‘maklashar, yalanglik tevaragidagi qarag‘aylar ostida o‘rmlayotgan piyoda askarlarga o‘qtin-o‘qtin oq chiziq hosil qilib uchadigan o‘qlarini otib qolardi.

– Ko‘rib turganingizdek vaziyat og‘ir, birodarlar. Bu gansu franslarni bir gangitganlaringdan keyin men mushak otib yigitlarimni hujumga tashlayman, – dedi Perlin yuz terisini plash-palatkasi bilan artarkan. – Hujum signali – qizil mushak. Buni yana mening yigitlarimni to‘pga tutib qolmasliklaring uchun aytyapman.

– Nemislar qo‘l jangidan qo‘rqadi, – deb qo‘ydi Lavrentev chi-yillab. Keyin yengilgina tomoq qirib, shartta qindan yap-yangi «TT» to‘pponchasini oldi-da, qo‘l jangida zarur bo‘ladigan o‘q qanchaligiga aniq ishonch hosil qilganday, to‘pponchasining kasetasiga namoyishkorona urib qo‘ydi.

– Seni qara-ya, juda ildam chiqib qolding-ku, Lavrentev! Qo‘l jangini qo‘msab qolganini qarang! – Perlin yalpoq burnini tortib qo‘ydi. – Senga aytsam, aziz va azamat do‘stim, butun urush davomida nemislar transheyasida bir marta qahramonlik qilib, qo‘ndoq qimirlatganimni bilaman xolos. O‘shanda gospitalda uch oy yotib, arang o‘nglanganman! Avtomat o‘qi turganda qo‘l jangiga balo bor-

mi?! Nayza hozir konserva ochishga yarab turibdi. Mayli, bolalik qilib gapga bir aralashib qo'ying-da, jin ursin seni!

– Men o'z o'ylaganimni aytdim, o'rtoq katta leytenant, – g'udrandi Lavrentev qovog'ini solib, to'pponchasining stvoliga puf-larkan. – Mening fikrim shunday.

«Juda yaxshi yigit ekan», ko'nglidan o'tkazdi Nikitin.

– Tushunarli, – chamasi Lavrentev Knyajkoga ham yoqib qoldi shekilli, xiyol kulimsirab qo'ydi. Keyin Nikitinga buyurdi: – Bu yer-da bitta to'p bilan ikki quti snaryad kifoya qiladi. Boshqalar pana-roqda kutib turishsin.

– Bitta to'p yetishiga ishonching komilmi? – dedi Nikitin. – Vzvodni ko'ndalang qo'ysak ma'qulroq bo'lasmikin?

Knyajko uning gapini bo'ldi:

– Mutlaqo ishonchim komil. Tanklarga o't ochilmasin. Bu yerga Mejeninning to'pini keltiringlar. O'tin g'aramining chap tomoni yo-mon marra emas. To'pni shu yerga kelgan yo'limizdan olib keling-lar.

– Men ketdim.

«Nimaga u bunchalar xotirjam va piyoda askarlarga bitta to'p-u ikki quti snaryad bilan madad qilish mumkinligiga qattiq ishonyapti? – deb o'yladi Nikitin. – Vaziyatga to'g'ri baho bera olmayotganmi-kin? Unga hammasi osonlikcha ko'chadiganday tuyulmayotganmi-kin?»

Piyoda askarlar vzvodi ko'magida o'n besh daqiqalardan keyin boyagi yo'ldan Nikitin to'pni olib kelganida Knyajko o'tin g'arami yonidagi qalin to'shalib yotgan va sarg'ish igna barglarni bosib, eti-gining qo'njiga xivich bilan ura-ura u yoqdan bu yoqqa yurar, avto-matlardan ketma-ket uzilayotgan o'qlar qarag'aylarga vizillab tegib sachrashiga tikilardi. U Nikitin ko'rinishi bilanoq qo'lidagi xivich bilan yerga doira chizib, buyruq berdi:

– To'pni shu yerga qo'yasizlar. Bundan zo'r marra yo'q. Bronet-ransportyor bilan uy naq mo'ljalda. To'p jangga tayyorlansin!

– Jangga tayyorlansin! – hayqirdi Nikitin ham. U jangchilar to'pning qalqon panasida uning suyanchiqlarini ikki tomonga kerib, ilmoqlarini gavdalarining vazminligi bilan qumga sanchayotganlari-ni ko'rdi-yu, darhol yana buyruq berdi: – Ilmoqlar ko'milsin! Yot-qizib! Mejenin, to'p qimir etmasligi lozim! Aniqlik bo'lsin, aniqlik!

Mejenin aftidan go'yo buyruqqa parvo qilmayotganday, to'p qalqoni panasidan sal ko'tarilib, yalanglikka, aniq ko'rinib turgan imoratga kipriklarini pipiratganicha tikilib turgach, boshqa jangchilarning g'ovurini bosgudek ovozdagi o'shqirib berdi:

– Ilmoqlar ko'milsin! Gapni to'xtatinglar!

U shundan keyin to'p mo'ljali oldida cho'k tushgancha kuymalanayotgan nishonga oluvchi Tatkin uzra egilib, uning qiltiriq yelkasidan bosgandi, og'riqdan Tatkin bechora malla sochli boshini orqaga oldi.

– Nima qildim? – so'radi qo'ng'ir mo'ylovli ostidagi tishlarini ko'rsatib Tatkin.

– Qani, hisobchi, yo'qol bu yerdan! – Mejenin xirillab shunday dedi-da, Tatkinni orqaga surib tashladi va o'zi mo'ljal yoniga cho'k tushib, unga ko'zini qadadi.

– Mejenin, sizmisiz? – deb qo'ydi Nikitin. U sobiq nishonga oluvchi Mejeninning juda ildam, chaqqon va bu vazifaga ustaligini bilsa ham, hozir to'pni mo'ljalga olishga o'zi kirishganligi negadir g'alati tuyuldi.

Mejenin javob qilmadi, Nikitin ham unga ortiq hech narsa demadi. Xuddi shu payt Knyajkoning tanish, jarangdor, aniq va bo'g'inlari cho'zilganroq buyrug'i yangradi:

– Brone-trans-portyor-rga!..

Nikitinga otilgan birinchi snaryaddan keyin bronetransportyorning bo'zrang korpusidan uchqun, alanga parchalari sachrab, tarillayotgan pulemyotning ovozi o'chganday tuyuldi. Imorat uzra quyuc tutun buralib o'rladi, keyin qora sharpalar bronetransportyor bortidan oshib tushib, ikki odam ilang-bilang uy tomon yugurdi. Nikitin o'q mo'ljalga tekkanini bilib shu zahotiyuq oshig'ich ikkinchi buyruqni berdi:

– O'ngroq, nol-nol to'rt, uyning muyulishiga, oskolkali snaryad bilan o't och!

O'qdonga solingan snaryadning shiq etgani va Ushatikovning hayajon ichidagi: «Uyga qochishyaptimi?» degan ovozi eshitildi. Mejeninning bir kifti ko'tarilib, sekinlashdi, qo'li to'p tepasiga sirg'ilibroq tushdi va shundan keyin to'p otilib, serjantning boshi bilan go'shtdor yag'rini orqaga siltanib ketdi. Ammo Mejenin terga botgan peshanasini yana nishonga olgichga qadadi. Sal chetga suril-



ganda Nikitin yon tomondan uning qiyshaygan og'zini ko'rdi. Mejenin go'yo mast va darg'azabday ko'rinardi.

Ikkinchi snaryad qora-qizg'ish rangda chopib borayotgan ikkita odamdan ikki metrcha berida portlab, ularni uy muyulishi yonida qulatdi. Uy devorlariga oskolka bilan tutun urildi. Mejenin shunda quruqshagan lablarini yutoqib yalab, yana nishonga olgichga yopishdi-da, xirqiroq ovoz chiqardi. Shunda to'pning mo'ljallangan joyga tushib, o'qlari nishonga tekkani, jang g'alaba bilan tugashini sezgan Nikitinning kayfiyati ko'tarildi. Kechadan beri Mejeninga kek saqlab yurgani tarqab, ko'ngli ravshanlashdi. Muvaffaqiyatli boshlangan jang ta'siridan sarxush Mejenin ham o'rtadagi gina-kudratni esdan chiqarib yuborgandi chamasi.

– Buyruq ber, leytenant, buyruq!..

Ikkinchi snaryad portlab, uy muyulishida ikki nemisni yer tishlatganida bronetransportyorning orqa tomonidagi porox dudi qoplangan yalanglikka birdan jimlik cho'kdi-qoldi. Yirik kalibrli pulemyotning ovozi o'chdi. Avtomatlar ham tindi. Imorat deraza oynalarining sinib, duv to'kilgani va ichkaridan faryodga o'xshash qandaydir zaif baqiriqlar eshitildi-yu, yana tinchidi.

– To'xta! O't ochish to'xtatilsin! Chakki emas, Mejenin.

«Ha, bu mening buyrug'im emas, buni Knyajko beryapti».

Knyajko esa odaticha bosqlik bilan to'pdan o'n qadam chaproqda qaddini g'oz tutib, xivich bilan etigi qo'njini ura-ura uyga hayratlanib, hatto achingansimon, yo'lda mashina ostida qolib turishga urinayotgan jonivorga qaraganday tikilardi.

«Nega u o't ochishni to'xtatdi? Sabab? Hozir derazalarga loaqal bitta bo'lsa ham snaryad yo'llash kerak!» deb o'yladi Nikitin o'tin g'arami yonida Perlin bilan yoshgina Lavrentevning to'p tomon intiq qaragan yuzlarini ko'rib.

– Yashanglar, birodarlar! Bo'shshanglar! Adablarini be-raveringlar, azamat artilleriyachilar! Jahannam o'tida kuyishsin, la'natilar! – Perlin splash-palatkasini hilpiratgancha Knyajko-ning oldiga yugurib keldi-da, mushak otadigan to'pponchasi bilan uyni ko'rsatdi. – Yana bir marta o't ochinglar! Keyin biz hujumga o'tamiz! Yana bir juft snaryad tashlanglar, do'stlarim!

– Nikitin! Derazalarni mo'ljalga olib yana ikkita snaryad! – g'azabdan peshanasi tirishib ketgan Knyajko Perlinga yuzlandi. –

Otishmaga aralashmasligingizni so'rayman. Keyin behuda baqiravermang ham! Y'o'qsa, o'z ochishni to'xtataman.

– Buyruq ber, leytenant, buyruq! – xirilladi Mejenin to'p nishon olgichiga qansharini tirab. Uning o'ng kifti yana ko'tarilib, bir zunda qo'li to'p tepkisiga sirg'alib tushdi. – Buyruq ber, leytenant!

Mejenin nishon olgichdan ko'zini uzmay, o'q bexato otilishini sezganday ishini tez va o'xshatib bajarar, o'zini ham, Nikitinni ham, tayyorligini barmoq ko'tarib qo'yishidan bilishga arang ulgurib turgan butun raschyotni ham shoshirardi.

– Derazalarga oskolkali ikkita snaryad otilsin!

Snaryadlarning qanday portlagani ko'rinmadi. Chunki ikkala snaryad ham uy ichida portlab, atrofga sachragan oskolkalar binoni qattiq larzaga keltirdi. Birinchi qavat derazalaridan sarg'ish tutun o'rlab, o'sha tomondan odamlarning qiy-chuvllari eshitildi. Pastdagi qavatlarining tutun qoplaman derazalaridan odamlarning o'lim oldidagi dahshatli dod-faryodlari, keyin nemischa buyruqlar, yakkamdukkam o'q ovozlari yangradi. Nikitin Mejenin merganlik bilan otgan oskolkali ikki snaryad nimalar qilganini ko'z oldiga keltirib badani junjikib ketdi.

– Buyruq ber, leytenant, buyruq! – Mejenin esini yo'qotganday tinimsiz shunday der, har snaryad otilganidan keyin og'ir xirillab qo'yardi. – Yana ikkita snaryad! Yana! Buyruq ber!..

Uydagi dod-faryod tinmasdi.

– Ular nima qilishyapti o'zi? – bosiq shivirlashardi to'pchilar. – Yig'lashyaptimikin?

Nikitin shundan keyin qo'lida xivich silkitayotgan Knyajkoning aftiga qarab u qattiq hayajonlanayotgani va ezilayotganini sezdi, nariroqdagi kichik leytenant Lavrentev ko'zlarini yumib, quloqlarini berkitib olgan, Perlin esa o'ch olib maza qilgan odamday xaxolar, mushak otadigan to'pponchasini silkitib, so'kinishi quloqlarni qomatga keltirardi: «Taslim bo'lishyapti, gazandalar, taslim bo'lishyapti. Ularni yanchish kerak o'zi!..» Nikitin uyga qarab, derazadan oq gazlama parchasi hilpiraganini ko'rdi va shu zahoti ichkaridan bo'g'iq o'q ovozi yangrab oq mato g'oyib bo'ldi. Biroq chamasi, bir joyga tiqilishib qolgan odamlarning dahshatli faryodlari derazalardan loyqa to'lqin yanglig' otilib chiqar, bamisoli o't ketgan va eshigi yopiq uylardan keladigan oh-vohday dam pasayib, dam kuchayardi.

– Ular taslim bo‘lib bo‘pti! – xirilladi nafasi bo‘g‘ilgan Mejenin hamon nishon olgichdan ko‘z uzmay. – Oq inatoni olishdi, dastro‘mol silkishdi! Buyruq ber, leytenant, buyruq! Oskolkaligidan yana bir juftini o‘stir! Jizg‘anaklari chiqsin... Kuyib kulga aylanishsin... To‘pni o‘qqa, deya boshladi!

– To‘xta! Birorta ham snaryad otilmasin! – baqirdi Knyajko va qo‘lidagi xivichni uloqtirib, Nikitinga yaqinlashdi. U rangi oqarib ketgan bo‘lsa ham bosiq, hamon hayajonli ovozda jadal gapirardi: – Menga qara... chamasi yosh bolalar bo‘lsa kerak... O‘rmondagi o‘lik bolaning sheriklari. Jang qilishni bilishmaydi. Mo‘ljalga to‘g‘ri urayotganga o‘xshaymiz: oq bayroq chiqarib, keyin qaytib olishdi. Verwolfar yoki gitleryugendlar shekilli. Shafqat qilishimizga ishonmay, asir tushishdan qo‘rqishyapti... To‘xtat, o‘q uzilmasin!

Nikitin urushning ikki yili ichida, ya‘ni Knyajko Dneprda batareyaga kelib qo‘shilganidan beri uning ikkilanib va paypaslab gapirishini sezmagandi. Shuning uchun ham hozirda uning aytgan so‘zlari haqiqatga yaqin yoki ayni haqiqat ekanligini Nikitin tushunib turardi. Boringki, Knyajkoning bir qarorga kelishda ikkilanishdek odati bordek tuyulsa ham, aslida u odamlarni o‘ziga bo‘ysundira olish qobiliyatini namoyish qila bilgan, bunda picha takabburlik ham yo‘q emasdi.

– Nimani taklif etasan? – so‘radi Nikitin. – Tushunmayapman...

– To‘xtat! Hech kim o‘q uzmasin! Piyoda askarlar! Perlin! Birorta ham o‘q otilmasin! – baqirdi Knyajko Perlinga. Uning yonida yonoqlarida dog‘ izi bor, ingichka daraxtday kichik leytenant Lavrentev chayqalib turardi. – Menga qarang, Perlin, birorta ham o‘q uzilmasin. Tushunarlimi? Ular shunday ham asir tushishadi! Faqat mening buyrug‘im bilan o‘t ochilsin! Faqat mening buyrug‘im bilan!..

Buyruq berib bo‘lishi bilanoq, Knyajko yana asliga qaytdi, faqat rangi o‘chinqirab turardi xolos. U har doimgi odaticha kamarini siypalagach, peshanasidagi pilotkasini to‘g‘rilab qo‘ydi-da, negadir yo‘l-yo‘lakay cho‘ntagidan dastro‘molini oldi, keyin oshkora oqsoqlana-oqsoqlana to‘p yonidan yalanglikka, yaqin turgan qarag‘aylar yoniga bordi. Maysalar yam-yashil barq urgan yerda dastro‘molini boshi uzra dast ko‘tarib silkidi-da, nemischalab bir nimalar deb baqirdi. Uzuq-yuluq gapirgani uchun Nikitin uning

«nixt shissen», «yunge» soʻzlarini arang ilgʻab ololdi. U Knyajkoning hozir sira xayolga kelmaydigan va qaltis ish qilayotganiga, uyda oʻrnashib olgan nemislarga oʻq otmaslikka buyruq berganiga hayron boʻlar, uning hozirgi xatti-harakatlari behuda tavakkalchilik boʻlib, Knyajko uyga otilgan ikki snaryaddan keyin dahshatli dod-faryod koʻtargan nemislarning ahvoliga achinib, bunga chek qoʻymoqchi edi.

– Nima qilyapti u? Qayerga ketdi? Qa-yoq-qa? Leytenant?

Chorpahil gavdali Perlin qora koʻzlarini Nikitinga qadab, toʻp yoniga otildi-da, shox-shabбалarni qasir-qusur bosganicha oʻtin gʻaramiga yaqinlashib, gangigan Lavrentevning portupeyasidan ushlab silkigancha oʻshqira ketdi:

– Tez boʻl! Safga birma-bir yetkazishsin! Birorta ham oʻq uzilmasin! Chaqqon qimirla! Qani!.. Oyogʻingni qoʻlingga ol!

Soʻngra mushak otadigan toʻpponchasining uchi bilan ter bosgan peshanasidagi furajkasining mayishgan soyabonini zardali koʻtarib qoʻyib, qingʻir oyoqlari bilan qaragʻay ildizlaridan sakray-sakray yana Nikitin tomonga otildi.

– Leytenant, hoy leytenant! – u mushak toʻpponchasi bilan Nikitinga yalanglikni koʻrsataman, deb uni urib yuborayozdi. – Unga nima boʻldi? Esini yeganmi yoki avliyomi? Nimalar qilyapti oʻzi?

Nikitin javob qaytarmadi. Tasavvurida hozir Knyajko rejalashtirgan ishni faqat Knyajkogina bajara olar, Perlin ham, Nikitin ham, Mejenin-u batareya komandiri Granaturov ham uni toʻxtatib, qarorni oʻzgartirolmasdi.

Otishma toʻxtab, endi faqat odamlarning dod-faryodi eshitilardi. Oʻrta boʻy, beli ingichka, koʻrinishi xotirjam Knyajko yosh bola kabi oʻtloq maysalarini etigi bilan salmoqlanib bosib roʻmolcha silkitib borardi. U uy ichidagilar gapini yaxshiroq eshitishlari uchun qoʻlini ogʻziga qoʻygancha sof nemischa soʻzlarni aytib baqirardi. Ichkaridan kelayotgan dahshatli dod-faryodlar pasaydi. Oraga choʻkkan jimlikda pastdagi deraza koʻzlaridan odamlarning boshlari koʻrina boshladi. Keyin ichkarida buyruqlar berilgani, bir necha odamning qiy-chuvi eshitildi va shu lahzada boloxona derazasidan tushirilgan mato oftobda oqarib koʻrindi.

– Xayriyat-e! Tamom! Ish degan bunday boʻlibdi! – Perlin Nikitinga ogʻzidan tamaki hidini gurkiratib shunday dedi-da, mushak

otadigan to'pponchasi bilan ikki marta uning tirsagiga tushirayozdi. – Barakal...

Nikitin Perlinning xursandchiligidan baqirib aytilgan so'zlarini oxirigacha eshitishga ulguradi. U chamasi Knyajko ko'rolmagan (chunki Knyajko hamon boyagiday uy tomon xotirjam odimlardi) narsani ko'rib qoldi. Yuqori qavat boloxonasining singan derazasidagi mato g'oyib bo'lib, kaskali bosh ko'rindi. So'ngra boloxonaga yana to'p otildi-yu, ichkaridan dahshatli, bo'g'iq baqiriq eshitildi. Qattiq gumburlashdan so'ng hammayoqni tutun qoplab, hech nimani ilg'ab bo'lmay qoldi.

Shundan so'ng kaska ko'ringan boloxona derazasidan ketma-ket uzilgan yalt-yult avtomat o'qlari Knyajkoning ko'krigidan itarganday bo'ldi. U oldinga bir qadam tashladi-yu, nogahon qoqilib, yana bir qadam yurgach ohista cho'kkaladi, so'ng boshi ortga ketib, tor pilotkasi yerga tushdi va doimo silliq tarab yuriladigan sarg'ish sochlari ko'rindi. U dastro'moli bilan yuzini bazo'r siyparkan, to'pga, ortidagi safdoshlariga so'nggi marta qaramoqchi bo'ldi. Lekin boshi ko'ksi uzra salanglab, yalanglik o'rtasidagi issiq oftob jimir-jimir yoritib turgan maysalar ustiga yuztuban quladi.

– Ana ko'rsatgan karomatlari! O'ldirishdi! Leytenantimizni halok qilishdi, yaramaslar!

«Nima? Mejeninning ovozi bu? Nega u to'p yonidan men tomon yugurib kelyapti? Nimaga? Knyajkomi? Andrey mi? Nahotki Andrey? Nahotki u? Rostdanmi? Nahotki halokat ro'y bergan bo'lsa? Yerdagi qapishib yotganlar piyoda askarlarmi? Perlinmi? Shu yerdami? O'ziyurar to'plardan keyin-a? Bugun-a? Hozir-a? Oq bayroq ko'targanlaridan keyin ham-a? Boloxonadan otishdimi? Yarador bo'ldimi? O'ldirildimi? Yosh bolalar bilan jangda-ya? Qanaqa yosh bolalar? Kimdir uyda baqirdi-ku! Nega bordi u? Perlinmi? To'pchilarga nima bo'ldi? Ular qayerda? Snaryadlar qani? Snaryadlar! Bu uyning kulini ko'kka sovurish kerak! O'sha yoqqa, Andreyning yoniga, Andreyning ustiga borish kerak! O'lmagan u! Yo'q, ro'parasidan o'q uzishdi! Ko'kragiga tegdimi yo boshigami? Snaryadlar! Snaryadlar!»

Nikitin telbaday nimalarnidir qattiq baqirib, tomog'iga tiqilib kelgan narsani yutishga urinar, o'zining ham, atrofidagilarning ham ovozlari eshitmas, to'p ortida kuymalanayotgan jangchilarning tal-



vasali yuzlarini ham ko'rmadi. Shundan keyin butunlay bardosh tugab, ko'ziga hech nima ko'rinmay qoldi. Faqat to'p har o'q uzgarnida oldinda allaqanday pahmoq va qizg'ish narsa yorilib, yog'och parchalari tevarakka sachrayotgani, boloxonaning abjag'i chiqqaderazasidan qizil qayun rangdagi tutun buralib chiqayotganini anglarlardi xolos. Ilma-teshik tomdan to'kilayotgan cherepitsalar tagidagiyog'ochlar singan qovurg'aday chiqib turardi. Nikitin sira o'ziga kelolmasdi. Hatto buyruq berayotib beixtiyor qarag'ay tanasiga uriturgani uchun timdalanib, qonagan mushtini kimdir qattiq ushlab olganida ham darhol o'ziga kelolmadi. Uning yonida terlab-pishitilayuzi qurumdan qorayib ketgan Mejenin turar, chang qo'ngan kiprik lari ostidagi ko'zlari qizarib ketgandi. U Nikitinning qo'lini mahkamlashlab qovog'i uyuq holda ohista gapirdi:

– Snaryadlar tugadi, leytenant. Bitta ham qolmadi. O'sha yoqq ketdik.

– Nima? Tugadi? – Nikitinning ko'z oldi qorong'ilashib turgan uchun uning gaplarini tezda ilg'ab ololmadi. – Nega tugaydi? Halo bo'ldimi? Knyajko halok bo'ldimi?

Nikitin qalt-qalt titrar, oyoqlari o'ziga bo'ysunmay, mayishib ketardi.

– Ketdik, leytenant, – takrorladi Mejenin, so'ngra yer suzgan ko'yi yong'in tutuni chulg'ab, vazmin sukunat cho'kkan yalanglikdan qayoqqadir shoshilmay keta boshladi...

«Snaryadlar tugadimi? Andrey u yerda... Andreyning yoniga Halok bo'ldimi? O'ldirildimi?..»

Yalanglikda, tutunning old tomonida birorta ham o'q ovo: eshitilmas, binoni ilang-bilang chulg'ab olgan alanganing o'n va so'l tomonida piyoda askarlarning darg'azab ovozlari yangradi. Keng yalanglikda esa zabardast Knyajko yotar, atrofdan faq: «o'ldirildi», degan bir og'izgina beayov so'z eshitalardi. «Knyajko o'ldirildimi? Andrey halok bo'ldimi? Bu sira ham mumkin emas. B yolg'on! Bu xato! Boshqa har qanday odam o'lishi mumkin, faqat emas! Faqat ugina emas!»

Nikitin oqimga qarshi kalovlana-kalovlana yaqin borib, Knya koning aftini emas, muk tushib yotgan jasadini g'ira-shira ko'rganida hali ham xayoli joyida emas, hamon o'ziga kelolmagand Knyajko go'yo ajal zarbini, qonli dastro'molini kishilar ko'zida

yashirmoqchiday ko'ksiga bosgan, boshini solintirganicha yotardi. O'z odamlarini ana shu la'nati o'rmonda saqlab turgan rota komandiri Perlin esa eski va beso'naqay «qo'sqi» plash-palatkasini ustidan tashlamay, cho'nqayib o'tirar, xunuk va yassi burun kataklarini kerib nafas olardi. U Knyajkoning jonsiz qo'lidan alvon rangga bo'yalgan dastro'molini ohistagina sug'urib oldi-da, baquvvat va to'mtoq barmoqlari bilan leytenantning ko'kragini siypaladi, so'ngra qo'lini maysaga surkab, tim qora ko'zlari bilan Nikitinga gunohkorona boqdi-yu, birdan nigohini olib qochdi. O'rta bo'y, hayotning o'ziday qudratli bu odam qaddini o'nqlab, tomoq qirgach, piyoda askarlarga buyruq beraverib, dag'allashgan ovozi birmuncha yumshatibroq «Ikki o'q bilan naq... yuragining yonidan...», dedi. Nikitin Knyajkoning maysa ustida jonsiz yotgani va yonidagi ro'molchasini ko'rgach, yalpoq yuzli, puchuq, ovozi do'rilloq Perlinga tarsaki tortib yuborishdan bazo'r o'zini tiyib, jahl va nafrat bilan so'z qotdi:

– Menga qarang, hoy katta leytenant! Qo'sqi plash-palatkangizni yechsangiz-chi! Leytenantni o'rash kerak... Bo'ling, sizga aytyapman!

Shundan keyin bor vujudi titrayotgan Nikitin Knyajkoning boshi uzra egilib, qo'llari bilan uning gezargan, qon sachragan, loqayd va ilgari hech ham e'tibor bermagan navqiron yuzini o'zi tomon o'girdi. Shunda tomog'iga nimadir tiqilib achchiq alam, yuz bergan adolatsizlik ta'sirida benihoya gangib qolganidan hozir yo ho'ngrab yoki qah-qah urib yuborishi mumkinligini sezdi.

Knyajkoning jonsiz qiyofasi uning odamlarni o'ziga itoat ettiruvchi avvalgi xotirjam avzoyiga sira ham o'xshamas, nigohida so'nggi lahzada ko'rinish bergan – o'tmishning tinch-osoyishta davri, kitob varaqlarining shildirashi, yomg'ir paytlari hovur taratuvchi maktab yonidagi asfalt, o'sha musaffo bolalik kunlaridagi masrurlik qotib qolgandi. Knyajko Nikitinga o'tmishi haqida kam gapirardi. Sarg'ish sochini farqini ochib yaxshilab tarab yurardi. Hozir esa sochi qonsiz chakkasiga bir tutam bo'lib tushib turganidan uni juda navqiron ko'rsatib turardi. Chamasi, avtomatdan uzilgan o'qlar ko'kragiga tekkanida Knyajko cho'kkalab qolib, dastro'moli bilan chakkasini silaganida sochi to'zg'igan bo'lsa kerak.

– O'rtoq leytenant...

«Nima? Kim? Meni nega chaqirishyapti? Kim bu? Mejeninmi?»

– O‘rtoq leytenant... Kombat keldi...

«Kombat? Qayoqdan keldi? Qanaqa kombat?»

Nikitinning tevaragida kayfiyatsiz, ajal yoqasidan qaytgan to‘pchilar jimgina turishar, gimnastyorkalari hali ho‘l, yuz terlari ham selgiganicha yo‘q edi. Ixcham Tatkin qorni ustida negadir pilotkasini ezg‘ilar, bo‘ynini cho‘zgan Ushatikov kiprik qoqmay qaq-qayib qolgan, u hanuz ro‘y bergan falokatdan karaxt edi. Chunki leytenantning buyrug‘i hamon qulog‘i ostida jaranglar, uning yalanglikdan oq mato ko‘targancha jadal odimlayotganini unutilmasdi. Mejenin bilan piyoda askarlar komandiri Perlin splash-palatkani yerga yoya boshlashdi. Mejenin go‘yo Knyajko bemalol yotsin deya yotganday maysa ustidagi splash-palatkaning chekkalarini to‘g‘rilay turib Nikitinga murojaat qildi:

– Kombat keldi, o‘rtoq leytenant.

– Uni yotqizinglar, – dedi Nikitin past ovozda. – Splash-palatkaga yotqizinglar. To‘p yoniga olib boramiz.

«Granaturovga nima deyman? Qanday bo‘lganini aytib beraymi? Jangni qayta boshdan aytib beraymi? Ajab, Granaturov bilan Knyajko qalin do‘st emasdilar-ku, – safdoshining o‘limidan gangib qolgan Nikitinning miyasida fikrlar ham paydar-pay edi. – Ha, ha, Granaturov tirik, Knyajko esa halok bo‘ldi...».

Shundan keyin Nikitin noiloj o‘sha tomonga qaradi.

Ha, yuragi siqilgan katta leytenant Granaturov kecha oqshom medsanbatda o‘tirolmay Soo rayonidagi batareyaga kelganday, bu yerga ham jang tugaganidan bexabar bosh suqqandi. Uning bir hafta burun Berlin ko‘chalarida qo‘lga kiritgan hashamdor «opel» mashinasi to‘p marrasidan chamasi ellik metr narida – o‘rmon yo‘li boshlanadigan yalanglik chekkasida turar, qora bo‘yog‘i va oynalari oftobda ko‘zni olgudek yaltillardidi. Zabardast, qalin dokali qo‘lini bo‘yniga osib olgan Granaturov yalanglikdagi askarlar to‘dasini olisdan ko‘rgani uchun mashinadan tushib katta-katta odimlab bu yoqqa kelardi. Kombat bilan ketma-ket «opel»dan tushgan Galya eshikni yopdi-da, shofyorga nimadir degach, qora sochini bosib turgan pilotkasini to‘g‘rilab qo‘yib, u ham odatdagiday jiddiy qiyofada yalanglik tomon kela boshladi.

«Galya nega kelyapti? Nima uchun Granaturov u bilan birga yuribdi?» degan fikrdan Nikitinning vujudi zirqirab ketdi.

Granaturov bilan Galya yaqinlashganlari sari Nikitin ularni ayonroq ko'ra boshladi. Granaturovning chakka soqollari o'sgan bug'doyrang yuzi shiddatkor bo'lib, askarlarning to'planib turishi boisini bilolmay taajjublanar, Galyaning chuvakkina chehrasi esa dahshatli xabarni go'yo sezganday benihoya o'zgarib ketgandi. U ro'y bergan falokatni ayollarga xos sezgirlik bilan ilg'ab, bir qo'li bilan tomog'ini ushlagancha, shoshib kela boshladi. Nikitin esa hamon ro'y bergan baxtsizlikka ishongisi kelmas, nuqul tishlarini g'ijirlatardi.

– Knyajko qayerda?.. Qayerda? Knyajko? – deb baqirdi Granaturov askarlar tomon oshiqib. Uning ko'zlari chaqchaygan, chamasi, bunday bo'lishini xayoliga ham keltirmagani gap topolmay qisqa-qisqa savol tashlardi: – Nimaga Knyajko? Nimaga? Qanday qilib? Nega indamaysan, Nikitin? Qanday bo'ldi bu? Shu yerda-ya? O'ldimi?..

– Keyinroq, kombat, xudo haqqi...

Go'yo sim sirtmoqdan arang qutulgandek zo'rg'a gapirgan Nikitin hozir Granaturovga, tomog'ini ushlab plash-palatka ustiga yetib kelgan Galyaga nima deyishni bilmay boshi qotardi. U umri bino bo'lib odamning yuzi bunchalar oqarib, ko'zlari bu qadar dahshatda qotib qolishini ko'rmagandi. Galya hozir shunday alfozda bo'lib, pilotkasiga bo'y bermagan to'sday sochi qanot yanglig' oppoq yonoqlarini yashirib turardi. Mejenin, nima bo'ldi o'zi, deb tiqilinch qilayotgan Granaturovga leytenant Knyajko hayotining oxirgi daqiqalari, boloxonada avtomatdan o'q uzilishigacha oqizmay-tomizmay gapirar, Galya esa qonsiz lablarini qattiq qimtigancha miq etmasdi. Uning qulog'iga hech nima kirmas, chehrasi butunlay o'zgarib, Knyajkoning planshetiga, uning Mejenin ushlab turgan to'pponchasi qiniga tikilib qolgandi. Shundan keyin Galyaning dil iztirobi lablariga ko'chib, ingraganicha Knyajkoning boshi tomonga cho'kkaladi-da, titroq barmoqlari bilan leytenantning qon yuqi peshanasini (o'layotib nega peshanasini mato bilan artgan ekan-a?) ushladi, ko'kragidagi o'q yegan joyini siladi. So'ngra cho'kkalagan ko'yi o'zini o'nqlab, sal orqaroqqa tashladi-da, ko'zlarini yumib, yuzini bu yorug' olamni tark etgan sevgilisiga qaratdi.

– Galya... – Nikitin ayolni chaqirmoqchi bo'lgandi, ovozi o'ziga bo'ysunmadi, shundan keyin u burilib, bas qil, deganday Mejeninning kiftiga turtidi.

Mejenin gapi og'zida qolib, yelkasi osha Galyaga xira ko'zlarini tikdi, Granaturov bilan Perlin ham serjant qaragan tomonga boshlarini o'girishdi. Perlin biroz gangibroq turgach, tomoq qirib olib, xirillagancha Mejenindan so'radi:

– Kim bu ayol?.. Uning «pepeje»simi?

– Ji-im! O'chir ovozingni! – Granaturov zabardast gavdasini ixcham Perlin uzra engashtirib, sog'lom o'ng qo'lini uning cho'chigan yapaloq yuzi qarshisida silkitdi. – Hoziroq jim bo'!! Uning chiqmasin! Tushundingmi? – U alanga ichidagi imoratga qaradi. – Ablahlar! Behuda qon to'kilmasin, deb borgan odamga o'q uzgan gazandalar! A! Ana o'sha itvachchalar, ana! Qa-ni ularni bir ko'rib qo'yay-chi, qanday jangchilar ekan o'zi! Qani, boshla piyodalar boshlig'i! Nega baqrayib turibsan? Ularni bu yoqqa boshlab kel! Tezda! Hoziroq!

Binoning birinchi qavati butkul yong'in ichida qolganidan alan-gasi osmonga o'rlardi. Yondosh imoratlar ham quyuq tutun ichida qolgan, og'ildagi sigirga o'q tekkan shekilli, buning ustiga tutunda bo'g'ilayotganidan zo'r berib ma'rardi. O'sha tomondan ustlariga qurama nemischa mundir, harbiycha ko'ylak, grajdancha pidjak kiygan va piyoda askarlar hujumi paytida asir tushganlar guruhi tobora yaqinlashib kelardi. O'lja avtomatlarni yelka-yu bo'yinlariga osib olgan ikki askar asirlar to'dasi yonida shahdam va jadal odimlab, to'pponchasini o'ynatgancha: «Vorwärts! Schnell!»<sup>1</sup> deb shoshirib kelayotgan yoshgina kichik leytenant Lavrentevga savolchan qarab-qarab ko'yishardi.

– Qani, katta leytenant, ularni bu yoqqa keltir-chi! Oldinga olib kel ablahlarni! – buyurdi Granaturov Perlinga. Biroq g'azabi toshib, sabri chidamaganidan Perlinni ham kutmay, piyoda askarlar kichik leytenantiga hayqirdi. – Hoy! Zobit! Asirlarni bu yoqqa olib kel! Yugur!

Kichik leytenant Lavrentev soqchilarga buyurgach, ular asirlar tevaragida yugurgilab, avtomatlari bilan nuqib: «Shnel, shnel, frits-lar!» deya to'dani yalanglik tomon burib, jadal surib kela boshladi. Lavrentev asirlardan oldinga o'tib oldi. U hamon jang hayajonida bo'lgani uchun yonoqlarining qizili ketmagan, ko'rinishi bolalardek va shalpanquloq edi. U zipillagancha hammadan oldin yetib keldida, kaftini chakkasiga qo'yib, g'oz turgancha doklad qilmoqchi

<sup>1</sup>Olg'a! Tezroq.



edi, komandiri Perlin yonidagi notanish katta leytenant va terlagan boshlaridan pilotkalarini olib turgan artilleriyachilar to'dasini ko'rib g'o'ldirab qoldi.

– O'rtoq katta leytenant...

– Ha, unga doklad qilmoqchimiding? – Granaturov kichik leytenantning so'zini shart kesib Perlin tomonga boshi bilan imo qilar ekan. – Shoshmay tur. – So'ng vujudi titrab asirlar to'dasiga qarab yurdi. – To'xta! Xalt! Hali shunday ekansanlar-da! O'lguncha olishmoqchi bo'libsanlar-da, a? Urush oxirida-ya? Qurolsiz rus zobitiga o'q uzdilaringmi hali? Qani, basharalaringni bir ko'rib qo'yay-chi!

Granaturov va soqchilarning o'shqirishidan joyida tek qotgan asirlar bir-birining pinjiga battar tiqilishdi. Ularning porox qurumi qo'ngan ayanchli yuzlari yaltirar, hadikli ko'zlarini ro'paralarida paydo bo'lgan Granaturovning naq ikki metr keladigan gavdasidan uzishmasdi. Granaturov har gapirganida falaj kasali bor odamday og'zi qiyshayib ketardi.

– Xo'sh, ferflyuxterlar, Gitler itvachchalari, tungi tuvaklarningi avtomatlarga alishtiribsanlar-da! O'q uzishni tusab qolibsanlar-da, a? – o'dag'ayladi Granaturov qorachiqalari bilinmay ketgan ola-kula ko'zlarini asirlarga qadab.

Shu payt saf o'rtasidan go'daknikiga o'xshash ovoz eshitilib, zich odamlar aro kimdir keskin buyruq bergandi, haligi hiqillayotganning nafasi o'chdi. Asirlar hadikda boshlarini kiftlari orasiga tortishdi. Granaturov so'kina-so'kina ularni turtib-surtib, chorpahil, vermacthilarning changga belangan mundiri va boshida yashil kasasi bor sersoqol nemisni sudrab chiqdi. Uning o'ng pogoni yelkasi-da ilinib turar, g'azab to'la ko'zlari talvasali chaqchaygan, qalin soqoli titroq lablarini yashirolmas, aytgan har bir so'zi Granaturovning poyiga bamisoli ilonday vishillab tushardi:

– Russisches Schwein! Alle sind Schweine<sup>1</sup>. Ivan... Schweinedreck!<sup>2</sup> – deya sersoqol nemis asirlar to'dasi tomon burilib, alamli kuldi.

Bu mag'lub, sho'ri qurigan kimsaning faryodi, so'nggi kuchanishi edi. Soqolli nemisning darg'azab gapi bilan alamli kulgisi atrofdagilarni ang-tang qildi. Nemisga zimdan chimirilib qaragan Me-

<sup>1</sup> Rus cho'chqasi! Cho'chqasan hammang!

<sup>2</sup> Cho'chqa tezagi!

jenin ketma-ket lunjlarini shishirib qo'ydi, Granaturov bo'lsa bor kuchi bilan soqolli nemisning yelkasidan tortdi-da, chir aylantirib, tumshug'ini tumshug'iga tiradi. Nemis g'azab bilan yana nimadir deb xirillagandi, Nikitin Galyaning kiprik qoqmay asirlar to'dasiga o'qrayayotganini ko'rib qoldi.

– Shunaqa soqollilarni ham asir oldinglarmi? Liberallar! Bunchayam ko'ngli bo'sh bo'lmasak! – Granaturov qarshisidagi nemis kabi zaharxanda qilgach, bog'langan yarador qo'li beso'naqay tepaga ko'tarilib, o'ng qo'li to'pponcha qiniga yugurdi. U qin tugmasini yechmoqchi bo'lardi. – Shunaqalarni asir oldilaringmi? Ko'paytirish uchunmi? Shularni-ya? Yashashsin, debmi? – xarsillayotgan Granaturov ikki qadam orqaga chekindi. – Asirlikda jon saqlashmoqchimi? Asirlikda-ya! Yo'-o'q! Men senga Knyajkoning o'chi qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yaman, soqolli alvasti!.. Qani! – U Galya tomon yurib, tahdidli irshaydi-da, to'pponchasini ayolning qo'lga tutqazdi. – Otib tashla uni! Ot! Men ruxsat beraman! Ot uni, ot! Senga buyuryapman, ot! Knyajko uchun! Ot!..

Shu dam Galyaning tomog'iga tiqilib kelayotgan unsiz far-yod kuchini ko'rsatganday gimnastyorkasi tarang ko'rsatib turgan ko'kragi titrab, oppoq yonog'idagi qayrilma qop-qora sochi silkinib ketdi. Qizning yaraqlagan etigi-yu, tizzalariga ma'nosiz tikilib turgan oldingi qatordagi nemislarning yuraklari taka-puka edi. Negaki, qizning qo'lidagi to'pponcha ajal toshi kabi chayqalib turardi.

O'sha daqiqada asirlardan birortasi ham yuzi cho'zinchoq va chiroyli, yoshsiz ko'zlari birovni ko'rmayotgan mana shu rus freyleyni hozir o'q uzishi mumkinligini xayoliga ham keltirmayotgandi. Ayniqsa, to'daning o'ng tomonida chetroqda turgan oriqqina, malla soch, mundirining tirsagi yirtilgan bir bola Galyaning rahmini keltirish maqsadida ayanchli jilmayib mo'ltirab boqardi. Nikitin ham Galyaning hozir o'q uzishiga ishonmay turardi. Biroq kutilmaganida rangi quv o'chgan Galya qonsiz lablarini qimtib, vujudi titrab, yig'isini yutib, to'pponcha tepkisini no'noqlarcha bosmoqchi bo'layotganini ko'rib qoldi. To'pponcha qarsillab otildi-yu, qo'lidan sirg'alib tushib ketdi. Galya boshini changallab ingrab yubordi: «Ey, xudo! Buning nima keragi bor edi?..»

Galyaning o'qi nishonga tegmadi. Soqolli nemis shalvirab o'zini yon tomonga oldi, asirlar bir-birlariga urila-urila orqaga tisarilish-

di. Oldingi safdagilar o'layotganday chiyillashdi, orqaroqdagilar esa qutlari o'chib, qattiq dod-voy solishgandi, bu Nikitinning qu-log'iga uyning derazalari to'pga tutilgan paytda yangragan faryodlarday eshitildi. Safning o'ng chekkasidagi tortinchoq, jilmaymoqchi bo'layotgan malla soch, asirlar orasida eng yoshi jon holatda loy yuqi kaflari bilan o'zini to'sib, ho'ngar va «Eses! Eses!» deya o'zi tomonga chekingan soqolli nemisning yag'riniga madorsiz shapaloq tushirardi.

– E, demak, sen iflos otuvdingmi? – Mejenin bir sakrashda soqolli nemisga yaqinlashib, avtomati uchini uning qorniga tiradi. – Knyajkoning boshiga yetgan senmiding hali, eseschilar olqindisi? Boloxonadan o'q uzgan gazanda senmiding?

Mejenin avtomatining uchini qahr bilan nemisning to'shiga botirgandi, u orqaga chayqalib, muvozanatini yo'qotdi. Keyin bir nimalarni g'o'ldiragancha orqaga chekina boshlagandi, Mejenin shartta avtomatini o'qtaldi-da, nishonga oldi.

– Mana javobi bo'lmasa, o'laksa!

Avtomatdan ketma-ket uzilgan o'q nemisni uch metr nariga uloqtirib yubordi. Uning soqolli dahani osmonga qarab, boshidagi kaskasi uchib ketdi-da, ko'zlari ola-kula holda o't ustiga chalqanchasiga quladi. Barvasta gavdasi bukilib, og'ir pixillarkan, har iyak qoqqanida og'zidan qoni otiliqib, soqolini bo'yardi. Asirlar to'dasini qo'rquv bosib, kimdir jon holatda ho'ngrab yubordi:

– A-a! Hali senlar ham uning tarafdorimisan, la'natilar! – Mejenin yiqilmaslik uchun titrayotgan oyoqlarini kergancha asirlar tomonga burildi, avtomati shay holda yutoqib nafas ola boshladi. – Ha-a! Gitler kanalari! Hammangni quritaman! Hammangni!..

Nikitin himoyasiz to'da faryodidan gangib, bu nogahoniy xunrezlikni to'xtatish maqsadida Mejenin tomon otildi-da, orqadan uning avtomati stvoliga bir urib, qurolni shartta tortib oldi.

– To'xta, to'xta!.. Buyuraman, to'xta!..

– R-rahming kelyaptimi? – Mejenin og'iz chekkalaridagi ko'pikni yalab xirilladi. – Shularga achinyapsanmi? Knyajko-chi, Knyajkoga achinmaysanmi? Buncha rahmdilsan, leytenant!

– Nikitin! Galyaga qara! – buyurdi hamon g'azabnok Granaturov. – Uni mashinaga olib bor! Ortidan yugur! Bo'laqol! Nega baqrayasan? Bo'l tezroq!

Nikitin shunda Granaturovni ham, Mejeninni ham shahdidan qaytarolmasligi, hozir Knyajko kabi irodali emasligini tushundi. Shuning uchun ham o'zining ojizligidan nafratlanib, titroq lablarini bazo'r qimirlatdi:

– Mabodo asirlarni otib tashlasangiz, tribunal oldida javob berasiz, kombat! Buni men... sirayam... esimdan chiqarmayman... Yaxshisi, gospitalga jo'nang, eshityapsizmi?

So'ngra Nikitin go'yo chayqalayotganday yalanglikda eran-qaran yurib ketdi. Nazarida oyoqlari yerga tegib-tegmayotgandek edi.

Nikitin Galyani o't ochish marrasidan topdi. U bir o'zi to'pning panasida qunishgancha yuzini kaftlariga qo'yib o'tirardi. Nikitin uning yoniga yaqinlashganida Galyaning butun vujudi titrar, ingrar, ho'ng-ho'ng yig'lardi. Yuzini yashirgan barmoqlarida Knyajkoning qoni qotib qolgan, duv-duv ko'z yoshlari nozik bilaklaridan gimnastyorkasining yengiga oqardi.

– Galya... – shivirladi asta Nikitin.

Lekin Galyadan sado chiqmadi.

– Galya, – dedi yana Nikitin battar gangib, – o'tinaman...

«Undan nimani o'tinyapman? Nimalar deyapman o'zi?»

Galya yoshli yonoqlaridan qo'llarini oldi-da, Nikitinga jirkanib qaradi.

– Qo'rqqoqlar, – shivirladi u alamli yig'isini ichiga yutib, – ham-mang... u hammangizdan ustun... yaxshi edi! Birortangiz ham... faqat u, yolg'iz ugina halok bo'ldi!.. O, birortangizni ham ko'rarga ko'zim yo'q!

Galya shundan keyin qon yuqi barmoqlari bilan tomog'ini qisib, yig'isini qaytardi-da, o'rnidan irg'ib turib, oldinga egilgan ko'yi, mashina tomon chopqilladi. Nikitin esa to'p o'qdoniga ko'kragini bosgancha o'tiraverdi. Nihoyat, ko'ksiga o'qdon qattiq botib, butun vujudini muzlatayotganday va nafas oldirmayotganday tuyuldi.

«Faqat u... yolg'iz ugina!..»

Tevarak-atrof jimjit, faqat o'q-dori va gilzalarning achimsiq isi kelardi. Yonayotgan tomdan cherepitsa sharaqlab tushar, o'rmon yalangligidagi imorat butkul o't ichida qolgandi. O'sha tomondan bir guruh askarlar Knyajkoning jasadini plash-palatkaga solib olib kelishar, sal nariroqda soqchilar haydab kelayotgan asirlar mung'ayib siljishardi.

Orqada esa Mejenin bilan Granaturov jimgina odimlashardi.

## TO'QQIZINCHI BOB

Nikitin alamini bosish uchun hamma bilan baravar ichar, hatto o'lja shnapsning badxo'r ta'mini ham sezmas, ichkilik tomog'ini kuydirib o'tar, nafasini bo'g'ar, kayfdagi gaplar, shishalar va bo'shagan stakanlarning jarangini ilg'ashi tobora qiyinlashib borardi. Soyabonli lampamoy chiroq yoritgan mehmonxona havosi tobora isib, dim tortib ketayotgani kabi odamlarning ham tobora balandroq va kuchliroq shovqin sola boshlaganlari qandaydir g'ayritabiiy ko'rinardi. Kechagina Knyajko ana shu mehmonxonada sochining farqi ochib taralgan boshini bir tomonga egib karta o'ynagan, nemislarni so'roq qilgan, portupeyasini to'g'rilab, u yoqdan bu yoqqa yurgan, suhbatlashgan, buyruqlar bergan, kamindagi olovga o'ychan tikilgandi... hozir esa ana shu mehmonxonada yig'ilganlar uni xotirlab o'tirishardi.

Granaturov har bir stakan to'ldirilganda qaddini g'oz tutib: «Leytenant Knyajkoni xotirlaylik», deyishi, mehmonxonada askarlarning ko'pligi, paydar-pay ichish ta'sirida g'ala-g'ovur avjiga chiqqaniga qaramay, baribir kerakli odam yetishmas, hech bir narsa uning o'rmini bosolmas, shu bois Nikitinning vujudini kuchli alam va iztirob o'rtardi. Mabodo Nikitinning o'zi Knyajkoning boloxonadan uzilgan o'qdan tizzalab qolib, qonini artib tashlamoqchi bo'lganday dastro'molini peshanasiga surkaganini ko'rmaganida hozirgi ahvolga tushnasmidi balki. O'rmon yalangligida Knyajko halok bo'lgan so'nggi soniyalar, uning qon sachragan oppoq yuzidagi bolalarga xos ifoda va Galyaning: «Faqat u halok bo'ldi, faqat ugina», degan so'zlarni dahshatli, ho'ngrab aytgani sarxush miyasidan nari ketmasdi. Bu yerda Knyajkoning xotirasiga aytilayotgan so'zlar Nikitinning qulog'iga deyarli kirmas, u ichkilikdan ho'plab-ho'plab qo'yarkan, hoziroq medsanbatga borib, u yerda Galyani topish, o'zi, butun batareya nomidan undan uzr so'rash, qarshisida tiz cho'kib, yolvormoqchi bo'lardi. Unga Knyajkoning hammadan dovyurak, aqlli, halol bo'lganligi, batareyani endi uningsiz tasavvur qilish qiyinligi, uning o'rmini endi hech kim bosolmasligini aytgisi kelardi. Shuning uchun ham Nikitin titroq barmoqlari bilan tomog'ini siypalab, ichdan kelgan yig'isini yutar, ko'zlaridan sizayotgan qaynoq yosh qovoqlarini kuydirgandek bo'lardi.



Nihoyat, Nikitin tishini tishiga qo'yib, chiroq yorug'idan chetda yengi bilan ko'z yoshini yashiriqcha artib, Granaturov taklif qilmasa ham shartta limillatib aroq quyib ichdi-da, o'rmidan turdi. Lekin ko'ngli behuzur bo'lib, turgan joyida chayqala boshladi. Ammo Nikitinga hech kim ahamiyat bermadi, chunki gurunglashayotgan askarlar bir-birlariga gap bermas, ketini ketiga ulab chekishar, qopqog'i ochiq konservalardagi yog'li cho'chqa go'shtini paqqos tushirishardi. Nishonchi Tatkinning kulayotganini ham, yig'layotganini ham bilib bo'lmas, negaki, sariq mo'ylovida oppoq tomchilar yaltirar, Ushatikovning yelkasidan (u bo'lsa tizza-sidagi mushukni asta silab, u-bu yedirib o'tirardi) quchoqlagancha muloyim ovozda «Xudoga shukur, urush tugadi, bolaginalarimni ko'rishga sog' oyog'im yoki qo'limni ham ayamagan bo'lardim», deya hiqillardi. To'rtinchi to'pning yoshi katta komandiri, katta serjant Zikin esa quyuq tamaki tutuni orasidan Nikitinga horg'in va qayg'uli nigoh tashlardi. «Nega menga xuddi mast odamga qaragandek buncha tikiladi? – deb qo'ydi Nikitin ichida jahl bilan. – Yo'q, men mast emasman, faqat og'ir judolik dardi ezyapti, xolos. Nima qilishimni bilolmayapman. Nega o'mimdan turdim? Ular nimalarni gaplashishyapti? Nima demoqchiman o'zi? Nima demoqchiydim?»

Me'yoridan oshgan aroq askarlarni yayratib yuborgan, ular kunduzgi jang, yaqindagina bo'lib o'tgan dafn marosimi, shahar qabristonidagi yangi go'r uzra avtomatlardan vidolashuv uchun o'q uzganlarini tezda unutganlari Nikitinga og'ir botardi. Qabr taxtachasidagi «halok bo'ldi» degan so'zlar leytenant Knyajkoni bu hayotdan abadiy ayirgandi. Endi hech kim Nikitin yonida ko'zlarini yumgancha qimir etolmay turib qolgan Galyaning oq marnar yanglig' yonog'iga tushgan to'sday sochini eslamas, hozir nemislarning mana shu arog'ini ichib, Granaturov buyrug'i bilan starshina dasturxonga tortgan o'lja konservalarni kavshayotganlardan birortasi ham o'ziyurar to'plar bilan olishuv, o'rmondagi jang, boloxonadan o'q uzilgan mudhish lahzani xotirlamas, barcha omon qolib, birgina Knyajkoning sho'ri quriganini hech kim o'ylab ko'rmasdi. Shu vajdan bugungi qaltis jang, hozirgi bekorchi gurunglar, tamaki tutuni to'la xonadagi shovqin-suron, terlab-pishgan odamlar – bularning hech qaysisi Nikitinning ko'ngliga sig'masdi.

«Nailoj, jimgina joyimga o'tiraman. Yo'qsa, birorta nojo'ya ish qilib qo'yishim mumkin... Nachora... Ularga nima bo'lgan? Qayoqdagi arzimagan, bema'ni narsalarni gapirishyaptimi?» ko'nglidan o'tkazdi Nikitin, anchagina shirakayf Granaturovga, uning sog' qo'lidagi yo'g'on barmoqlariga tikilarkan. Shu payt Granaturov Knyajkoning dala sumkasidan qandaydir qog'ozlarni oldi. Bu sumkani Mejenin dasturxonga o'tirmaslaridan oldin kombatning oldiga qo'yib qo'ygandi.

«U nima qilyapti?.. Nimalarni ko'ryapti? Knyajkoning sumkasini titkilashga nima haqi bor? Bilaman, kombat uni xushlamasdi. Knyajko ham yoqtirmasdi uni. Bir-biriga toblari yo'q edi. Nega Mejenin Granaturovga allaqanday xatni ko'rsatyapti? Xatni qaydan oldi? Sumkadanmi? Ular, Knyajko halok bo'lganini ota-onasiga yetkazish kerak, deyishyapti shekilli? Xatni kim yozadi?.. Granaturovmi? O'zimi? Kim?..»

– Kombat... – dedi Nikitin shivirlaganday ovozda. U ko'kragini to'ldirib nafas oldi-da, o'ziga ham yoqmaydigan ohangda takrorladi. – Katta leytenant Granaturov!

Granaturov Nikitinga ko'z ostidan sekin qaradi-da, keyin vazminlik bilan so'radi:

– Nima demoqchisan, Nikitin?

– Hujjatlar... Knyajkoning sumkasini menga bering, – dedi Nikitin shartta. – Mening o'zim... xat yozaman... – u o'zini xotirjam ko'rsatishga tirishib kulimsirasa ham yuzi yorishmay, xunuk va tundligicha qolganini sezdi. – Siz, kombat, leytenant Knyajkoning ota-onasiga xat yozishni eplayolmaysiz. Ha, eplay olmaysiz. Siz... bilan Knyajko boshqa-boshqa odamsizlar...

– O'tir, Nikitin, – dedi Granaturov g'amgin ovozda.

«Nega unga bunday deyapman? Nima sababdan? – Nikitin nohaqligini anglab, terdan namiqqan gimnastyorkasi yoqasini tortib qo'ydi. – Knyajko vafotidan keyin hisob-kitob qilyapmanmi? Xo'sh, unda... kim aybdor? Granaturovmi? Mejeninmi? Ushatikovmi? Yo o'zimmi? Bugun hech aqlga sig'maydigan ish bo'ldi-da... Hamma buni oxirgi jang deb o'ylovmididi? Jonlari shirinlik qildimi? Yo'q, men ko'p ichib qo'ydim, lekin unchalik ham mast emasman. Es-hushim joyida, demak, Granaturov o'ylayotganchalik mast emasman...».

– O'tir, Nikitin, – Granaturov qoshlarini chimirdi-da, xatni o'qib bo'lib, stoldagi ochiq turgan sumkaga solib qo'ydi. – Ikkingiz qalin do'st bo'lganingizni bilaman! Sumkani ol. Xatingda farzandingiz leytenant Knyajko Berlin uchun bo'lgan janglarda qahramonlarcha halok bo'ldi, degin, – qo'shib qo'ydi Granaturov Knyajkoning sumkasini Nikitinga qo'lma-qo'l uzatishayotganini kuzata turib, – ya'ni o'xshatibroq yoz. Tanklar hujumga o'tishdi, hayot-mamot jangi bo'ldi, leytenant Knyajko yaralanganiga qaramay jang maydonidan chekinmadi, o'zi dushmanning bir necha tankini yondirib yuborib, to'p yonida halok bo'ldi, deb yozasanmi... Xullas, shunga o'xshatib yozish kerak. Ha, shunday. Mazmunliroq chiqsin. Bo'lmasa...

Granaturov gapini tugatolmadi. Nikitin kutilmaganda stolga qatiq musht tushirib qoldi-yu, shishalar va stakanlar bir-biriga tegib janglab ketdi.

– Yo'q, unday emas, kombat! Mutlaqo unday emas!

– Nega endi? – Granaturov hushyor tortib, bug'doyrang yuzi no-rozi tus oldi.

– Nima, yolg'on gap yozaymi? Knyajko haqida yolg'on yozishga qo'lim bormaydi! Nima bo'lgan bo'lsa, o'shani yozaman!

«Nega unga jahl qilyapman? Xatni durustroq yoz, dedimi? Shtab kotiblariday jimjimani qilib-a? Bu nimasi o'zi? Zo'rroq yoki beriroq o'lim ham bo'larkanmi? Nimalar deyapman o'zi? Askarlar oldidaya... Nega stolga mushtladim?» Nikitin bahslashish noo'rinligini sezsa ham, sira yon bergisi kelmasdi:

– Knyajko hammamizdan dovyurak edi, u hammamizdan yaxshiligi uchun ham qurbon bo'ldi. Ha, yaxshiroq edi. Jim, Mejenin! Nega tirjayasiz? – o'dag'ayladi Nikitin yana stolga mushtlab. – Qurolsiz nemisni otib tashlash har kimning ham qo'lidan keladi! Bu qo'rqqoqlik! Ahmoqlikning o'zginasi! Juda bema'ni ish bo'ldi! Sharmandalik! Nemisga o'q uzildi... Knyajko esa halok bo'ldi... U faqatgina behuda qon to'kilishini istamagandi, xolos. U jang to'xtashini xohlagandi! Biz bo'lsak xuddi qo'rqqoqlarday, ha, qo'rqqoqlarday...

«Hamma menga g'alati qarayapti-ku. Ha, hozir vajohatim judayam xunuk. Yuzim lovullab borayotganini o'zim ham sezyapman».

– Leytenant, hoy leytenant...

Qovog'ini solib o'tirgan Granaturovning turtkisi bilan o'midan turgan Mejenin Nikitinga yaqin kelib, yelkasidan ushladi-da, sekingina dedi:

– Leytenant, hoy leytenant, keling yuqoriga chiqamiz. Sizni kuzatib qo'yaman, maylimi? Bugun og'ir kun bo'ldi o'zi.

Mejeninning hozirgi terlagan, jiddiy qiyofasi boya nemisga o'q uzgan paytidagi yuziga sira ham o'xshamas, yasama iltifoti, Nikitinning mastligidan kulayotganini ustalik bilan yashirishga harakat qilardi. Jimib qolgan askarlar mehmonxonani bosgan sarg'ish tutun aro Nikitinga achinganday tikilishardi. Nikitin esa ularga Knyajko halokatini oqlaydigan sababni hech kim topolmasligini, do'sti endi yo'qligini, yurak-bag'rini o'rtayotgan bu musibat, iztirob, ko'ksiga nashtardek sanchilgan bu og'ir judolikni hozirgiday xotirlash bilangina unutishga o'zligini tushuntirib berolmasdi. Nikitin uchun endi hamma narsa keraksiz va ahamiyatsiz, rangsiz va ma'nosiz edi: Knyajko endi yonida yo'q, marhum do'stining farqi ochib taralgan sarg'ish sochini ham, gimnastyorkasiga doimo oppoqqina ichyoqa qadab, xrom etigini yengil bosib yurishini ham, jiddiy, ko'mko'k, gohida takabburona boquvchi, birovga aytilmaydigan, faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan qandaydir sirni ifodalovchi ko'zlarini qaytib ko'rolmaydi endi.

Ha, yelkasi osha taqilgan kamari adl qomatiga yarashgan, dilidagi gaplari pinhon ketgan Knyajko hozir tirik bo'lganida bu xonada ko'p narsalar boshqacha kechardi. Lekin endi u yo'q. Knyajko endi abadiy yo'q. Nikitinning nazarida yon-veridagi odamlar ham xira tumanga singib, butkul yo'qolib ketganday tuyuldi.

– Leytenant, menga qarang, yuring, kuzatib qo'yaman...

– Qayoqqa kuzatasiz? Nega endi? Qo'lingizni torting! – Nikitin yelkasidan serjantning zilday qo'lini turtib yuborarkan, askarlar churq etmay qarab turishganini ko'rdi. Shunda go'yo ulardan, endi Knyajkosiz ham yana avvalgidek yashay olasizlarmi, deya so'rayotganday tili zo'rg'a aylandi: – Biz hammamiz... U halok bo'lib, biz esa tirik qolib, ayb ish qilganimizni tushunib olamiz hali... omadimiz bor ekan, deb yuribmiz-a! Biz hammasini o'zi bajaradi, deb qarab turdik. U esa o'limdan qo'rqmadi. O'zimdan ham nafratlanaman. Hech qaysingni kechira olmayman, o'zimni ham. Qo'rqoqlik...

Tizzasidagi mushukka ovqat berishni to'xtatgan Ushatikov boshini ko'targandi, stol uzra uning dahani ko'rindi, karaxt Tatkinning malla mo'ylovi ham konserva bankalari tepasida qimirladi. U qayoqqadir mungli va g'amgin boqib xo'rsindi:

– Ha, hali ko'p yashashi kerak edi boyoqish. Qattiqqo'l bo'lsayam haqgo'y edi...

– Mu-mushuk olib kelgani eslaringdami? Unga ovqat bering, degandi... Nima jin urib la'nati nemislar tomonga bordi o'zi? – dili xufton Ushatikov ko'zlarini pipirratib hamon o'kinardi. – Jonini ham ayamadi, ular bo'lsa... Eh, la'natilar!

– Ha, balli, xuddi shunday! Darvoqe, o'q uzayotganda aybdor odam bo'lmaydi! – dedi Mejenin gapga yakun yasaganday. Keyin eran-qaran o'z joyiga bordi-da, Granaturovga tiqilibroq o'tirib, krujkaga aroq quydi.

– Judayam donosizlar-da, ikkalang ham, – deb qo'ydi o'y surayotgan katta serjant Zikin qovog'ini solib. U kleyonkadagi non uvoqlarini iylab o'tirardi. – Bittang mushukdan gapirsang, bittang bunda hech kimning aybi yo'q, deysan. Haqiqat shuki hozir leytenant oramizda yo'q, Mejenin! Tiriklar esa har doim o'lganlar uchun javob berishadi. O'ziyurar to'plar o'qqa tutganda... sen avvaliga gangib qolganingni ko'ruvdim. Seni o'sha alfozda birinchi ko'rishim. Urush oxirlab qolganda o'lib ketishing ko'z oldingga keldi-yu, keyin soqolli nemisni gum qilding. Bu ishni leytenantning xuni uchun emas, qo'rqqaningdan qilding. Xuddi shunday, serjant!

Mejeninning yonoqlari bo'rtib, uzun kipriklari orasidagi ko'zlari sovuq yaltiradi.

– Ovozingni o'chirsang bo'lardi, qanotsiz farishta! – Mejenin shunday deya xotirjam hingillagandi, chakkalari battar tarang tortdi. – Muncha ming'illamasang? Ovozing chiqmasin! Tushunarlimi? Ba'zi bir rahmdillar aralashmaganida ularning hammasini gum qilgan bo'lardim! Bular esa nuqul fritslarning yonini olishadi, kombat! Durustmi shu?

Nemis uyining mehmonxonasi, lampamoyli chiroq va stol Niki-tinga g'ira-shira ko'rinar, Granaturovni ham ko'zi zo'rg'a ilg'ardi. Kombatning qiyshiq o'stirilgan chakka soqoli qorayib ko'rinar, qovog'i soliq holda miq etmay o'tirardi. To'p komandirlari orasida ko'pdan buyon arzanda bo'lgan va Granaturov oldida batamom gu-



nohsizligiga ishongan Mejeninning g'azabnok va ter chiqqan avzoyi ham abajur ko'lkasida lipillab qolardi.

Zikin kleyonkadagi non uvoqlarini surdi.

– Sodda qilib aytganda, qotilsan, chunki quolsiz nemisni bekor-dan-bekorga otib tashlading. Demak, sen jallodsan, – dedi u g'azabi qaynab. – Senga aytadiganim shu. Basharangga qaragim ham kelmayapti. Bu qilig'ingdan keyin yana nima deyish mumkin, serjant. Buni askarlar va kombatning – hammaning oldida aytyapman...

– Ba-as, Zikin! Iso Masihning diydiyosini boshlading-ku! O'sha buyruqni men beruvdim! Urush payti dushman bilan pachakilashib o'tirilmaydi! Aks holda biz jangchi bo'lolmaymiz! Nemislar esa hammamizni bitta qo'ymay qirib tashlashadi! Biz bo'lsak bu yerda gapni chuvalashtirib o'tiribmiz! – gapga aralashdi o'shqirib Granaturov. – Mabodo bor haqiqatni aytadigan bo'lsak, o'rtoq Nikitin, – u stulini taraqlatib o'rnidan turgandi, bo'yniga osilgan dokali qo'li ko'tarilib ketdi, – Knyajko o'sha mishiqlarni ayadi, ular esa bu olijanoblikni avtomat o'qlari bilan siylashdi. Ha-a, bunaqangi vallo-matlikda to'ppa-to'g'ri xudoning jannatiga jo'nayverasan! Yuzingni tutib berib, uraver, deganing-da! Kimni ayash kerak o'zi? Pichoq qayrab turgannimi? U hammadan yaxshi edi, deding-a, Nikitin? Mayli, shunday bo'la qolsin! Uning xatini bir o'qib ko'r. Aslida, xat kimga yozilganining ahamiyati yo'q, o'zing tushunib olarsan! Men Knyajkoni ko'p fazilatlarini uchun sendan kam ko'rmasdim, hurmat ham qilardim, biroq... borib nima qilardi? Ajal haydab borgan uni... tushunyapsanmi?

– Yolg'on, kombat! Bema'ni gap bu! Uni yaxshi ko'rarmiding? Hecham-da, g'ashing kelib, undan doim cho'chib turarding! – g'azabi qo'zigan Nikitin sensirashga o'tdi. – Shu sababli medsanbatda tinchgina o'tirolmagansan. Sen hech qachon Knyajkoday bo'lolmaysan! Mejeninga kelsak, uni bemalol o'zingga ordinarchi<sup>1</sup> qilib olaver! Vzvodda ko'rishga toqatim yo'q bu nusxani!

– Bu nimasi, Nikitin, Mejeninni qo'rqityapsanmi?

– Jazo bataloniga jo'nataman, deb qo'rqityapti chog'i, – hingil-lab qo'ydi Mejenin. – Ko'rib qo'ying, o'rtoq katta leytenant.

Xonaga og'ir sukunat cho'kib, havoning tabiiy bosimi ko'tarilgan devor yanglig' g'ov bo'lib Nikitinni to'sib turar, uni

<sup>1</sup> Ordinarchi – komandimning turli topshiriqlarini bajaruvchi zobit.

bosib o'tishga holi kelmas, shunga qaramay u, Knyajko haqidagi bor haqiqatni aytishim bilanoq yengil tortaman, deb umid qilar, biroq bunday bo'lmasdi. Bugungi kun, Mejenin, bevaqt kelib qolgan Granaturov, Knyajkoning vafoti bilan bog'liq hodisalarning bari osoyishta dam olish bilan o'tgan so'nggi uch kundagi voqealar bilan aralashib ketgandi. Ana shu keyingi uch kun urushni olis-olis-larga ulotirib tashlagan, shiddatli jang-u jadal ariganday tuyulardi. Lekin aslida unday emasdi. Uch kun burun jangni to'xtatib, o't ichidagi Berlindan chiqqanlarida bu yolg'onga ishonishgandi. Ha, ular aldanishdi. Shu bois bugun halokat ro'y berdi. Sodir bo'lgan voqeaning butun dahshatini his qilgan Nikitinning g'azabi to'lib toshardi:

– Palidlik bu! Sen ham, kombat, palidsan. sen ham Mejenin! Asirlar oldida o'zingizcha botirlik qilgan bo'ldilaring... Esizgina Knyajko... Hammamiz aybdormiz. Men ham. Hamma!

Nikitinning o'rtanib aytayotgan zilday so'zlari og'ir sukunat qa'riga singib ketar, ro'parasidagi sarg'ish g'ira-shiralikda tevaragini zich va mahkam qurshab olgan askarlar jimgina turishardi.

– Ichkilikni ko'tarolmas ekansan! – dedi Granaturov do'rillab. – Gapir, gapiraver, ammo avval hushingga kelib olsang bo'lardi!

– Baqirma, kombat, tupurdim o'sha...

– Nikitin! Og'zingga qarab gapir, mastlik ekan deb haddingdan oshyapsan! Buning oqibati nima bo'lishini bilasanmi?

– Nahotki meni qo'rqadi, deb o'ylasang, kombat? Qolaversa... hozir batareyaga komandirlik qilmayapsan, chunki medsanbatdasan... qani, o'sha yoqqa qarab tuyog'ingni shiqillatib qol-chi bu yerdan!

Ko'z o'ngi qorong'ilashgan Nikitin Knyajkoning sumkasini oldida, gindiraklamaslikka harakat qilib ortiga o'girildi va bazo'r tashqariga yo'nalarkan, kiftini baribir eshik kesakisiga urib oldi. So'ng xunuk so'kinib eshikni tarsillatib yopib chiqib ketdi.

*«Galina!*

*Medsanbatdan chiqqanimdan keyin batareyaga tez-tez kelib turishing menga sirayam yoqmayapti. O'rtamizdagi munosabatni hayotda bir martagina uchraydigan tuyg'u – sevgi deb bo'lmaydi. Medsanbatda senga boshqa vrach va hamshiralarga qilganday*

muomala qildim, o'sha tundagi suhbatimizni esa bo'lakcha tushunibsan. Shuning uchun ham men hozir senga bor gapni aytishga majburman. Seni sevishga mening haqim yo'q, sening ham bunga haqing yo'q, nega deganda, urushda harbiy formadagi pogonli Juletta bilan Romeo uchun qasrlar ham, saroylar ham bo'lmaydi. Qo'pol istehzoim uchun uzr, biroq har safar (harbiy til bilan ayt-sam) biror qarorga kelganimda, ehtimol ko'nglim tilagan ish-ni qilmay, – buni tushuntirish ham qiyin, – o'zimni o'zimday ko'rsatmaslikka majbur etaman. Shunda ham baribir aslida qanday odam ekanligimni bilolmayman. Hammasidan ham o'zimga o'zim zaif ko'rinishni istamayman... (jumla o'chirilgan). O'sha oqshom menga xotinlardan nafratlanasan, yoki qo'rqasan, yoxud ularga kitobiy muomala qilasan, deding. Balki... Otamning kabineti ajib so-kin bo'lguchi edi, tashqarida bo'ron quturgan va pag'a-pag'a qor yoqqan izg'irin qish kunlarida shinamgina eski divanda kitob o'qib yotish yoki varaqlash ham juda nash'ali bo'lardi. Men Turgenev asarlaridagi qizlarni sevib qolgandim, qanchalar g'alati tuyulma-sin, Natasha Rostovaga ko'ngil qo'ygandim. Sen haqsan: garchi bu hozir qanchalik kulgili tuyulmasin men yo ritsar, yoki Andrey Bol-konskiyday (mening adashim) bo'lishni istar edim. Mening frontda-gi har xil maishatlarga, isqirt okoplardagi ishratga, askarlarning bu boradagi mish-mishlariga tobim yo'q va polk donjuanlarining bu boradagi oshkora maqtanib yurishlaridan nafratlanaman. Bu-larning bari borib turgan qabohat... Men ularga o'xshashni ista-mayman, ularday bo'lolmayman ham. Bundan ikki yil muqaddam o'zimga so'z berganman... (jumla o'chirilgan). Buni istamayman, qilolmayman ham. Shu vajdan o'rtamizda hech qanday jiddiy nar-sa bo'lishi mumkin emas. Urush... ming qilsayam urush-da, urush-da esa chinakam muhabbat (qanchular ajib va go'zal kalomlar!) bo'lishi mumkin emas, unda faqat sevgisifat tuyg'u, tubanlik, razolat bo'ladi...

Bularning barini to'g'ri tushunishingni o'tinaman. Bundan tash-qari meni kutishyapti... (jumla o'chirilgan).

Leytenant Knyajko».

Nikitin ana shu egasiga yetmagan xatni lampamoy chiroqni yoqmay qo'l fonari yorug'ida o'qib chiqdi, keyin fonarni o'chirdi-

da, xatni paypaslab Knyajkoning sumkasiga soldi. O'rnidan turib chiroqni yoqishga, hatto yechinishga ham hushi va holi kelmagani uchun taxi buzilmagan to'shagiga cho'zildi. Uning ko'ngli behuzur bo'lar, ko'kragi birov beayov ezg'ilayotganday qattiq siqilardi. Ostidagi o'rin chirpirak bo'lib, tubsiz qa'rga sho'ng'ib ketayotganga o'xshar, vujudidagi behuzurlikni bazo'r bosib turardi. U na qayt qilari, na ichkilik kayfidan yengil tortardi.

«Bundan chiqdi, Knyajko uni sevmagan ekan-da, – xayolidan o'tkazdi Nikitin boshini yostiqqa burkab. – Yoki sevgan bo'lsa ham, o'rtalarida biror nima bo'lishini xohlamaganmikin? Turgenev tasvirlagan ayollar kimlar edi o'zi? Adashmasam, buni to'qqizinchi sinfda o'tgandik. Nimalarni o'tuvdik o'zi?.. Yaxshiyamki xatni Galyaga bermabdi. Knyajkoning Moskvaga xat yozganini biror marta ham ko'rmovdim. Onasidan xat olib turgani esimda, o'shanda ham ah-yon-ahyonda...»

Boloxonaning derazasidan yulduzli osmon ko'rinardi. Oy hali ko'tarilmagani uchun baland qarag'aylar, cherkov ortidagi ufq alvon tusda yallig'lana boshlagan, uning shu'lasini xuddi kechagiday nemislarning bu sokin muzofot shaharchasidagi cherepitsali tomlarda o'ynar, ko'chalarni qiya yoritardi. Biroq kechagi tundan beri bir necha yil o'tganga o'xshar, o'sha olis zamonlar va bugun ro'y bergan voqealar Nikitinning xayolidan g'ira-shira qiyofalar, ko'm-ko'k maysa, to'plar gumburlashi, motorlar guvullashi, uzuq-yuluq gaplar, ayanchli faryodlar kechar, qulog'ini parmalab, boshini qattiq zirqiratardi. U tomog'iga tiqilib kelgan behuzurlikdan qiynalib, endi qayta takrorlanmaydigan kechagi va bugungi kun voqealariga qandaydir durustroq asos, vaj topish uchun yotgan joyida to'lg'agnar, go'yo kechirib bo'lmaydigan biror jinoyat yoki sharmandali ish qilib qo'yganday ingrardi.

«Ich weiß nicht, was soll es bedeuten» jumlasini yarq-yurq gotik harflarda ko'z o'ngiga kelaverar, qora ilonday salanglardi. Ko'zlarini yumganda esa qo'ng'ir zulmatda avvaliga yo'qolar, so'ng yana paydo bo'lar, undan atirsovunning hidi kelar, xonani chulg'agan qorong'ilikdan ham negadir shu hid anqirdi. «Emma! – birdan nemis qiz xayoliga keldi-yu, uyalib, vijdoni qiynalib va pushaymondan yuzini yashirguday yostiqqa bosib, to'lg'ondi. – Nimalar qilib qo'ydim? Bu qanday bo'ldi o'zi? Nega bunday bo'lganini bilmayman, bunday bo'lishi

mumkin emasdi. Nemis qiz bilan birga bo'ldim-a? Knyajko esa halok bo'ldi... Ha, men xiyonat qildim...»

Nikitin behuzur bo'lib o'rindan irg'ib turdi-da, go'yo mavjlana-yotgan to'lqinda yurganday kalovlanib ochiq oyna oldiga keldi. Deraza rafidan pastga egildi. U bo'g'ilar, ingrar, ko'z yoshlari yuzini yuvar, o'zini o'zi so'kar, yig'lar, sal ko'ngli yozilishini, badbaxtlik, sharmandalik, xiyonat ezib yuborgan g'amdan xalos bo'lishni istardi. Hozirgi ayanchli holati ko'ziga xunuk ko'rinar, o'zini idora etolmagani, ichishni eplolmagani, keyingi kunlarda ro'y bergan barcha chalkashliklar-u ishkalliklardan nafratlanardi. Urushning oxirgi kunlari yaqindagina ko'p narsalar va'da qilayotganday tuyulgan bo'lsa, endilikda butunlay ahamiyatini yo'qotgandi.

Nikitin qorong'ida paypaslab kotelogini topdi. Idishda ertalab soqol olganida keltirilgan suvdan ozroq qolgandi, Nikitin o'sha suvni boshidan quydi-da, to'shakka yuztuban yotdi. So'ngra ingrab yana yostiqaqa burkandi.

«Ich weiß nicht, was soll es bedeuten...»

Shundan keyin boyagi bo'shliqda bir xilda lipillab aylanib turgan jumla g'ira-shiralikdan ko'm-ko'k maysa uzra ko'tarildi. Tepada o'ng tomonga, tomlarni g'ira-shira yoritayotgan oyning nimpushti yog'dusiga belangan qorong'i bo'shliq tomon suzib, qo'ng'ir tusli cherkov, olisdagi uchli tomlar ortida g'oyib bo'lib, yana so'l tomondan qalqib chiqdi.

Shundan keyin quyuq zulmat Nikitinni dim jaflikka uloqtirganday bo'ldi. Nikitin jarlikning taqir tubida yaxshi o'rnmasholmay osmonga qarab yotarkan, go'yo qabrga uloqtirilganday nafasi bo'g'ilib, qo'rquvdan yuragi muzlab qolayozdi. Qulog'iga tepadan belkuraklar ovozi eshitilar, ustiga tashlanayotgan tuproq yuzini, ko'zini yashirar va u tobora qalinlashib borar, ko'kragini ham eza boshlagandi.

...Nikitin hozirgina o'zini jangdan keyin plash-palatkada olib kelib, noma'lum qabristonda qazilgan go'rga tushirishganini sezardi-yu, lekin hali joni borligi, tuzatib bo'lmaydigan qaltis xatolik yuz berib, uni kimningdir o'miga dafn etayotganlarini negadir ovoz chiqarib aytolmasdi. Odamlar choqqina belkuraklarda tuproq tushirayotgan yuqori tomon benihoya zim-ziyo, hech kim ko'rinmas, churq etgan ovoz eshitilmasdi. Nikitin qanday bo'lmasin baqirib, tirikman,



meni yanglish tiriklayin ko'mishyapti, deb ularni to'xtatmoqchi bo'lardi-yu, ustidan tuproq bosib turgani uchun baqirish tugul, nafas ham ololmasdi. Shu payt tepadagi qorong'ilikda qandaydir tuyenuk hosil bo'lib, kimningdir tirjaygan tund basharasi ko'rindi. O'sha odam o'shqirib, go'rni tezroq ko'minglar, unda hech kim yo'q, deb baqira boshladi... Nikitin arang ingrab, safdoshlarini yordamga chaqirardi. Biroq yuqoridagilardan hech kim uning ovozi eshitmasdi. Jadal tortilayotgan nam tuproq uning peshanasi, bo'yniga tushib, nafasini qaytarardi. Banogoh kimdir vidolashayotganga o'xshash ayanchli faryod chekdi. A-a-a!

Nikitin o'lim changalidan qutulish uchun zo'r berib yulqinarkan, bu xatoning aybdori kimligini, askarlarga o'zini ko'mishni buyurgan odamni elas-elas payqagandek bo'ldi. Ustini tuproq bosib, zulmat ichida xo'rliigi kelib kuyunib yig'lab, jon talvasasida arang nafas olarkan, shu dam kimdir ko'kragini ohista silayotgani va qulog'iga shivirlayotganini sezdi:

– Herr Leutnant, Herr Leutnant!

Nikitin cho'chib uyg'onib ketdi.

– Kim u?

Tevarakda tun, sukunat hukmron, baland ko'tarilgan oy derazadan boloxonaga yog'du sochardi. Yonidagi stulda kimdir o'tirar, uning muzdek barmoqlari terlagan ko'kragini bir tekisda silar, hiqilagancha sekin shivirlardi:

– Herr Leutnant... Herr Leutnant...

«Nahotki? Kim bu? Bu yerga qanday kelib qoldi? Bu o'shami? Emmami? Qanday qilib keldiykin-a? Ha, bu o'sha, o'sha», aloq-chaloq tushidan hali ham o'ziga kelolmagan Nikitinning chakkasidan sovuq ter quyib kelardi.

Kiyimlari yechib olingan Nikitinnng ustiga issiq va yums-hoqqina par ko'rpa yopilgan, chamasi, qattiq mastligini ko'rib uni Emmaning o'zi yechintirgan, terga botgan va jang maydonidagi qurumdan qoraygan gimnastyorkasi, loyga belangan etigini ham yechib olib, o'rniga yotqizib qo'ygandi. Shu payt qiz Nikitinning ko'ziga juda xunuk ko'rinib ketdi. U go'yo qarshisida xiyonatkor turganday qizning qo'lini qo'pollik bilan itarib tashlab, o'tirib oldi.

– Ket bu yerdan! Weg!

– Nein, nein! Herr Leutnant!..

Emma birdan qunishib, bukchaydi-da, sovun hidli boshini Nikitinning ko'ksiga qo'ydi. So'ngra ko'z yoshlaridan nam bo'lgan lablari bilan Nikitinning yonoqlaridan iltijoli o'pa boshlagandi, qizning butun vujudi titrayotganini sezgan Nikitin xirildoq ovozda shivirladi:

– Hoziroq ket... Nega kelding? Weg bu yerdan!

– Ich bin traurig, ich bin traurig...<sup>1</sup>

Nikitin uni nari itarib, xunuk kuldi.

– Traurig? G'amginmisan? Qanaqasiga? Hali rus zobitiga rahmim kelyapti, ham dersan? Xo'sh, u bilan nima ishing bor? Nima? Qani ayt? Umuman, menga nima aloqang bor sening? Ket deyapman! Weg!

Nikitin keskin gapirganidan Emma mung'ayib qoldi. Nikitinning faqat «veg» deganini tushunib, xo'rliigi kelib yig'lagancha bo'ynidan gunohkorona quchdi. Yonoqlari qizning qaynoq ko'z yoshlaridan ho'l bo'lganidan g'ashi kelgan Nikitin avvaliga yulqinib, qo'lini tortib olmoqchi bo'ldi. Biroq qiz go'dakday yig'layotganini ko'rib, azbaroyi rahmi kelganidan bo'shashdi-qoldi, ko'zlarini yumib, churq etolmay qoldi. Emma arang shivirlab nimalarnidir uqdirar, so'rar, o'tinar va ana shu iltijosi bilan Nikitinni tanholikning og'ir azobidan, hozirgina ko'rgan tushi asoratidan qutqarmoqda edi.

– Ich bin traurig... Vadi-im!.. Entschuldige mien...<sup>2</sup> Mein Vadi-im!..

«Yo'q, yo'q, men hech kimga xiyonat qilmadim. Ha, bitta-yarimtaga xiyonat qilganimda o'lgan bo'lardim! Bu qandaysi? Qiz aldamayaptimikin? Uning qo'lidan bunaqa aldash kelmaydi», ko'nglidan o'tkazdi Nikitin qizning ko'z yoshlari yonog'iga tomib, burni atrofiga oqayotganini ko'rib.

## O'NINCHI BOB

Toliqqan qiz qo'llarini yoniga tashlab yotardi. Ko'z yoshi yuvgan yuzi xiyol chetga burilgan, yostiq bilan bitta bo'lib yotgan sarg'ish sochi oftobda tovlanar, xuddi shirin uyqudagidek xotirjam va tekis nafas olardi. Lekin Emmaning mudroq kipriklari orasidan

<sup>1</sup> Men g'amginman, g'amginman.

<sup>2</sup> Meni kechir.

shiftdagi guldor qog'ozda o'ynoqlayotgan shu'lani kuzatgan ko'yi uxlamay yotganini payqagan Nikitin o'ylay boshladi:

«Yanami? Nahotki? Tag'in o'sha gapmi?»

So'lim, beg'ubor bahor tongi otib, qayerdadir yaqinda, chamasi deraza rafi yonidagi bog'da qushlar parvoz qilar, xonada shudringi ko'tarilayotgan olma daraxtlarining yengil isi anqirdi. Ochiq derazadan uchib kirgan kapalak ana shu oftobli subhidamda oltinday yaltirab, o'zidan to'kilgan mayda zarralarni ham oftobda yaltiratganacha shift tagida parvoz qildi, keyin devorga yopishtirilgan gulqog'ozga qo'ndi.

Nikitin urush boshlanganidan beri tabiatning jonli parchasi bo'lmish kapalakni endi ko'rishi edi. Yoz payti so'lim va yam-yashil chorbog'da, oftob qizitgan, daryoga tutash va chekkasi devor bilan o'ralgan o'tloqning maymunjonlar va to'p-to'p qoqio'tlar orasida uchib yuradigan shunga o'xshash kapalaklarni ko'rganini unutmagandi. Unga tikilib yotarkan, qimirlashga ham madori kelmay, jonli mo'jizaning uchishini uzoq tomosha qildi va o'ziga maktabdan tanish, Emma ham tushuna oladigan so'zni shivirladi:

– Batterflyay...

– Butterfly? – Emma yarim yumuq kipriklarini ochib, Nikitinning so'ziga bir lahza tushunolmay turdi-da, so'ngra sal tortinibroq barmog'ini yigit labiga tekkizib, o'sha barmog'ini o'parkan, shivirladi: – Butterfly – english... Deutsch... Bitte, lerne Deutsch... Schmetterling, Schmetterling.<sup>1</sup>

Yana barmog'i bilan Nikitinning labini silab, boyagiday tortinchoq qiyofada yigit bu so'zni qanday talaffuz etishini kuta boshladi.

– Babochka (kapalak), batterflyay, – dedi Nikitin asta. – Juda o'xshaydi. Schmetterling? Yo'q, o'xshamaydi. Qandaydir mubham so'z. Sen haqsan, maktabda nemischani yaxshi o'qimaganman. Hech nima esimda qolmagan, «Ich gehe in die Schule»<sup>2</sup>ga o'xshash ba'zi so'zlar va jumalarni bilaman, xolos.

Emma Nikitin aytgan jumladan faqat «maktabga boraman» deganini tushunib, aftini bujmaytirsam ham yigitning yuzidan ko'zini uzmay quloq tutib turaverdi. U nozik barmog'ini Nikitinning pastki

<sup>1</sup> Batterflyay – bu inglizchasi. Nemischasi... Iltimos, nemischasini o'rgan... Kapalak, kapalak.

<sup>2</sup> Maktabga boraman.

labidan olmas, go'yo begona tildagi so'zlar jarangini barmog'i bilan tekshirayotganday edi.

– Bitte, sprich<sup>1</sup>, – so'radi Emma.

– Chamasi, yettinchi sinfda, – davom etdi Nikitin qiz hammasini tushunishga ishonmasa ham, – bizga Genrix Geyne she'rini yodlashga berishgandi. Nemis tili darsidan... Sen shunday shoirmi bilasanmi?

– Heinrich? Heine? – Emma aftini ayanchli bujmaytirib, nimalarnidir tez va ishonch bilan gapira boshladi. Keyin kulib yubordi-da, joyidan sal ko'tarilgach, qulog'i bilan tilini ko'rsatib yana nimalardir dedi, so'ng istig'no aralash kaftida Nikitinning og'zini berkitdi. Emma bu bilan hozir turli tilda ko'p gaplashmaylik, deganday chalqanchasiga yotib shiftdagi kapalakni qidirarkan, irim qilgan kabi iltijoli gap qotdi: – Schmetterling, Schmetterling. Lieber Gott, Schmetterling!<sup>2</sup>

Qiz ikkala qo'lini dahaniga yaqinlashtirib qayiqchasimon chirmashtirdi-da, avaylab nafas olib go'yo chindan ham iltijo qilib, afsun o'qib, dil-dilidan minnatdorchiilik bildirayotganday g'alati so'zlarni shosha-pisha aytardi. Bunda u irim belgisi sifatida bog'dan xonaga uchib kirgan kapalakni, yo bo'lmasa dahshatli kechadan keyingi benihoya sokin may subhidamini, yoyinki rus leytenanti qi-yofasida nasib etgan baxtli taqdirini ko'zda tutgan bo'lsa, ehtimol. Nega deganda, kecha uni himoya qilgan zobit, o'zi bilan ukasining dushman askarlari egallagan uyda qolishlariga ijozat bergan boshqa bir rus leytenanti kabi halok bo'lmagandi.

Nikitin qiz nimalarni shivirlyotganini bilmay, tushunib yetishga urinsa ham Emmaning hozirgina to'kkan ko'z yoshlari, istig'no-li qiliqlari, ko'rsatgan muruvvatida qandaydir soxtalik ko'rganday vujudi zirqirab ketdi. Bu uyda Nikitinning kechagi jangdan g'azabi qo'zigan askarlar ham turishgani uchun Emma jon saqlash maqsadida makr ishlatayotganday tuyulardi.

– Schmetterling, Schmetterling, – deb shivirladi Emma shiftdagi kapalakning unsiz parvozidan ko'zini uzmay. Nikitin xo'mraygancha uning yuziga tikilar, qizning chehrasi esa dam o'tmay o'zgarib turardi. Nigohida goh qo'rquv sharpasi, goh umidning tiniq ifodasi paydo bo'lar va yo'qolar, goh ayanchli tabassum-

<sup>1</sup> Marhamat, gapiraver.

<sup>2</sup> Yo xudoyim, kapalak!

dan tishlari yaltirab ketib, oftob nuri tushgan shiftga tikilgan ko'zlari ham tabassum qilayotganday bo'lardi.

«Nima qilyapman o'zi? Bu yog'i nima bo'ladi? Nima bilan tugaydi? – o'ylardi Nikitin g'azab bilan. – Biz bir-birimizni bilmaymiz, biroq xuddi qadrdonlarday munosabatda bo'lyapmiz. Mana, u men bilan yotibdi. «Ich weiß nicht, was soll es bedeuten, daß ich so traurig bin...»<sup>1</sup> Ha, ha, bu Geynening she'ri, uni men maktabda yodlagandim. Xo'sh, u yog'i-chi? U yog'i nimaydi? «...So traurig bin...» Xo'sh, u yog'i qanday edi?»

– Du bist... Schmetterling<sup>2</sup> – deb qo'ydi qiz birdan o'ychan qiyo-fada. Emma chamasi achinganday yumshoq lablari bilan Nikitinning qo'lidan o'pib, o'tli nafasi yigitning kaftiga urilarkan, yana picha o'ylab turdi-da, tushunib olsin, deganday har bir so'zni salmoqlab qo'shimcha qildi: – und... ich... bin... Schmetterling.<sup>3</sup> Vadim und Emma... Verstehst du mich?<sup>4</sup>

– Men kapalakmanmi? – Nikitin kulimsiradi. – Qandaydir g'alati safsata, Emma. Meni kapalakka o'xshatsa bo'ladimi?

– Philosophie? Keine Philosophie!<sup>5</sup>

Emma Nikitinning qo'lini qo'yib yubormay, chaqqonlik bilan turib o'tirdi-da, sochini orqaga tashlab, boshini solintirgancha yigit kaftini kuzata boshladi, so'ngra kesishgan ikkita egri chiziqni tirnog'i bilan ko'rsatib, botinmaygina dedi:

– Madchen Emma und ein junger Leutnant. Krieg... Schmetterling und das Madchen Emma.<sup>6</sup>

– Bu ehtimol, to'g'ridir, – dedi Nikitin. – Faqat sen anavi masalada haq emassan, hah, nimaydi... Schmetterling, – yigit taajjub-da shiftda sarg'ish yaltirab turgan kapalakka bosh irg'ab, jim qoldi. Negaki bisotida boshqa birorta ham biladigan nemischa so'zi qolmangandi.

Nikitinday jangovar ordenlar bilan to'rt marta mukofotlangan, urushda ko'rish mumkin bo'lgan ko'p narsalarni boshdan kechirgan,

<sup>1</sup> Buning nimaligini, nega bunchalar ma'yusligimni bilmayman.

<sup>2</sup> Sen – kapalaksan.

<sup>3</sup> Men ham kapalakman.

<sup>4</sup> Gapimni tushunyapsanmi?

<sup>5</sup> Safsata? Hech qanday safsata emas!

<sup>6</sup> Emma degan qiz bilan yoshgina leytenant. Urush... Kapalak bilan Emma ismli qiz.



biror qarorga kelish va qo'l ostidagi askarlarga buyruqlar berishni o'rniga qo'yadigan zobitni kapalakka o'xshatish bema'nilikdan boshqa narsa emasdi, albatta. Nikitin o'zini to'la mustaqil, tajribali odam hisoblar, goho vaziyatga qarab obro'talab, serjahl va qattiqqo'l bo'lar, lekin zobitlikdagi bor hayotim ko'ngilsiz o'tdi, deb aslo birovga shikoyat qilmasdi. Umrining qolgan qismi, ya'ni boshqalar bilmaydigan va urush tufayli putur yetgan yoshligining nurli, ajib kunlarini gohida faqat Knyajkogagina gapirib berar, ular endi yorqin shu'laday o'tmishda, dunyoda eng yaxshi ko'cha bo'lgan Ordinkaning chekkalarida, arg'uvonlar o'sgan tor puchmoqlarda qolib ketgandi. Emmaning rahmi kelib qo'lidan o'pgani, yoshiga shama qilayotgandek bo'layotgani, «yunger leytenant», tajribang yo'qroqqa o'xshaydi-ku, deganday nafsoniyatiga tegardi. «Meni yechintirib, o'ringa yotqizganida judayam ojiz ko'rindimmikin?»

– Kapalak masalasi, Emma, qandaydir bo'lmag'ur gap, – Nikitin nemischa so'zlar topishga behuda urinarkan, qovog'ini ochmay davom etdi: – Gap bunda emas. E, jin ursin, til bilmaslik yomon-da! Xo'sh, senga qanday tushuntirsam ekan?

Nikitin meni shunchaki kapalakka o'xshatish mumkin emas, zero men sovet zobitiman, xudodan ham, shaytondan ham, nemis tanklaridan ham, kechagi ish uchun askarlar gap-so'z qilishlaridan ham qo'rqmayman, qilmishlarimga javob bera olaman (bunda hatto oshkora jur'at ham bor edi), demoqchi bo'ldi-yu, so'z qidira-qidira bir necha osonginasidan nariga o'tolmadi:

– Ich bin zwanzig Jahre alt! («Bema'ni va bo'lmag'ur gaplarni gapiryapman! Nimaga yoshimni aytyapman o'zi? – deb o'yladi u beo'xshov javobidan ko'ngli to'lmay. – Butunlay boshqa va bema'ni gapni aytyapman...»).

– O, zwanzig, – Emmaning chehrasi yorishib, suyunib ketdi va shu zahotiyuq menga ishongin, deganday qo'lini ko'ksiga qo'yib, o'zi haqida uchinchi shaxs tilidan axborot berdi. – Emma achtzehn... Ein, zwei, drei... und so weiter!<sup>2</sup>

«O'n yettimi yo o'n sakkizmi?» Nikitin o'ndan u yog'i qanday bo'lishini yaxshi eslayolmay, ichida sanay boshladi. Emma esa oppoq tishlarini yaltiratgancha o'rin chetiga engashib, Nikitin bosh

<sup>1</sup> Yoshim yigirmada.

<sup>2</sup> Emma o'n sakkizda... Bir, ikki, uch... va hokazo.

tomondagi stulga qo'ygan soatni oldi. Undagi o'n besh raqamidan so'ng timog'i bilan uch marta chizdi-da, maktabda matematika darsida o'quvchiga o'rgatganday sinchkovlik bilan sanadi:

– Also, funfzehn, sechzehn, siebzehn, achtzehn. – So'ngra yonog'ini Nikitinning yonog'iga tirab, cho'chinqiraganday xitob qildi.  
– O, mein Gott, ich bin so alt! Eine richtige Großmutter! Verstehst du mich?<sup>1</sup>

«O'nta kam sakkiz! – Nikitin soatga qarab, tashvishga tushdi. – O'n daqiqadan keyin uyg'onish. Hozir uyg'otgani kelib qolishsa-ya?»

Nikitin sarosimada qolganini bildirmaslikka harakat qilib, pastdan kelayotgan tovushlarga quloq solganicha bilagiga soat tasmasini taqarkan, Emmaga qanday qilib bu yerda qolishing mumkin emas, ketishing, hoziroq ketishing kerak deyishini o'ylardi. Emma esa Nikitin eshik tomonga shunchaki qarab qo'yganidanoq sarosimada ekanini darhol payqadi, go'yo xonaga ikkoviga tahdid soladigan nimadir nogahon va sezdirmay kirib keladiganday sepkilli yuzida qo'rquv aks etdi.

– Was ist los? Soldaten?.. Was?<sup>2</sup>

– Emma, – u esida qolgan nemischa so'zlarni qiynalib tanlarkan, qiz oldida gunohkorligidan vujudi zirqirab ketdi. – Emma... Sen ketishing kerak. Komm zurück. Ya'ni, men... Ya'ni, ikkovimizning ham vaqtimiz tugadi. Hozir batareyada uyg'onish bo'ladi. Komm. Emma... Auf Wiedersehen... Seni bu yerda ko'rib qolishlarini istamayman.

Emma tiniq va ko'm-ko'k may subhidamida ko'tarilib kelayotgan quyosh nurining qizil cherepitsali tomlar uzra suzayotgani ko'rinib turgan lang ochiq derazaga, so'ng esa eshikka ko'zlari ola-kula bo'lib qaradi-da, bir lahza boloxona sukunatida birinchi qavatdan kelayotgan ovozlarga quloq tutdi. Keyin ayanchli hiqillab peshanasini uning yelkasiga qo'yganicha bo'ynidan quchoqlarkan, shivirladi:

– O, Vadi-im, mein liber Vadi-im!

– Auf Wiedersehen, Emma. Vaqt bo'ldi. Tong otdi. Emma...

---

<sup>1</sup> Mana, o'n besh, o'n olti, o'n yetti, o'n sakkiz. O, xudoyim, kampir ekanman-a! Naq buviman-a! Gapimni tushudingmi?

<sup>2</sup> Nima bo'ldi? Askarlarmi?.. Nima?

– Wiedersehen, wiedersehen, wiedersehen...

Irg'ib turgan Emma yalang'och badaniga xalatini shosha-pisha ilib, belbog'ini bog'lagach, boshini bir tomonga engashtirgan ko'yi yuvosh qizchaday eshik tomon yurdi. Nikitin esa hamon qandaydir xayollar og'ushida yotar, qizning: «wiedersehen» deb cho'zibroq shivirlagani qulog'ida jaranglar, yoqimli, o'mrovi sariq sochlari-dan anqigan atirsovunning xushbo'y isi dimog'ida qolgandi. Biroq Emma ikkovi o'ylamay-netmay, ko'zlarini chirt yumgan holda qilib qo'ygan ish, kechagi va bugungi gaplar diliga picha xavotir solar, buning oqibati yomon bo'lishi, boshiga o'zi bilgan va bilmagan ne savdolar tushajagi mumkin edi.

Shundan keyin pastdan: «Ikkinchi vzvod, uyg'on» degan buyruq kuchli to'lqin yanglig' yangradi va oradan ko'p o'tmay hali uyqusi ochilmagan askarlarning g'ala-g'ovuri boshlandi. Besh daqiqadan keyin esa zinadan qadam tovushlari eshilib, kimdir chiqib kela boshladi. Eshik oldiga yetganda tingan qadam tovushlari yo'talga ulandi-da, ohista taqillagan eshik ortidan Ushatikovning ovozi eshitildi:

– Uyg'onish! Turing, o'rtoq leytenant.

– Ha, eshityapman, – javob qildi Nikitin. – Uyg'onganman. Hozir tushaman.

– Sizni kombat kutyapti, o'rtoq leytenant. Tezda pastga tushsin, dedi.

«Granaturovmi? Shu yerda ekanmi? – o'yladi Nikitin. – Demak, u medsanbatga ketmay shu yerda yotib qolibdi-da?»

## O'N BIRINCHI BOB

Mehmonxona odatda ertalablari bo'ladiganday nurafshon, Berlindan kelgan kunlarining birinchi so'lim subhidamidagi singari derazalardan o'tloqning ko'm-ko'k maysalari ko'rinar, tevarak osoyishta, bahorga xos iliq ob-havo hukmron edi. Faqat anqiyotgan tamaki, nordon shnaps hidi, bo'shagan shishalar, qoshiq qolib ketgan konserva bankalari, polda ezg'ilangan tamaki qoldiqlari va gimnast-yorkalarning hali ham arimagan badbo'yigina xonada kechqurun bazmi jamshid bo'lganini eslatardi.

Qovoqlarining ostigacha shishgan, rangi lavlagiday, salqi mo'ylovli Tatkin stoldagi idishlarni yig'ishtirar, shishalarni tara-

latmaslikka urinib, qopchiqqa joylardi. Yonida unga qarashib, qopchiqning og'zidan ushlab turgan Ushatikov dam-badam divan tomonga hayron qarab qo'yardi. U yerda, burchakda Galya oyoqlarini chalishtirgan ko'yi o'zini orqaga tashlabroq sigareta chekib o'tirar, askarlarga ham, yonidagi zabardast Granaturovga ham e'tibor qilmay, ko'zlari shiftga qadalgandi.

Nikitin tushib qisqagina: «Keldim», deganida ham ular churq etishmadi. Granaturov xo'mrayib chimirilgandi, qovoqlari tagi shishinqirab, basharasi keksa odamnikiday yanada bujmayib ketdi. Birozdan so'ng Granaturov negadir xuddi batareyasiga xizmat qilgani zaxira polkdan kelgan mutlaqo notanish zobitga qaraganday Nikitinga boshdan-oyoq nigoh tashlab qo'ydi. So'ng yo'g'on ovoqda:

– Hm-m! – deya stol yonida kuymalanayotgan askarlarga boshi bilan imo qildi. – Chiqinglar, keyin yig'ishtirarsizlar!

– Ayni vaziyatda polning yuvilgani ma'qul edi, o'rtoq katta leytenant. Har qalay ruslarmiz... – Tatkin shishalarni qopchiqqa joylay turib Galyaga qaradi. – Leytenantimiz blindajda, okopda emas, mana shu uyda, hammamiz bilan birga yashagandi. Esizgina, go'rida tinch yotsin...

– Nemislarning polini yuvish?! Tushunmadim! – shang'illadi Granaturov. – U jang maydonida askarday halok bo'ldi, issiq to'shakda emas! Xo'sh, keldingmi. Iso payg'ambar? – kesatiq qildi u Nikitinga. – Qani, o'tir, haqiqatgo'y. Menga juda kerak bo'lib turuvding. Galyaga ham. Uning esa ikkimizda ham gapi bor ekan. Qani, o'tir-chi, ba'zi narsalarni gaplashib olishimiz kerak...

– Tashakkur. O'tirgim kelmayapti, – quruqqina javob qildi Nikitin. U kechagi suhbatni davom ettirishga hushi bo'lmagani uchun ensasi qotdi. «Galya bu yerda nima qilib yuribdi? Granaturov bilan munosabatlarimizni oydinlashtirib olishimizning nima qizig'i bor ekan unga?»

– Har qalay polni yuvib qo'ysak bo'lardi, o'rtoq katta leytenant, – dedi Tatkin yana. Keyin tomoq qirib, qopchiqni kiftiga ildida, eshik tomon eran-qaran yo'naldi. – O'lik chiqqan joyda bunday ishni odatda qarindoshlari yoki ayollar bajarishadi. Taomili shunday. Okopdama, har qalay uydami-ku.

– Bas! – uning gapini choʻrt kesdi Granaturov. – Diydiyoni yigʻishtiring.

Askarlar oldinma-keyin chiqib ketishgach, Granaturov eshikni yopib, stolga yaqinlashdi-da, Nikitindan sinchkov nigohini uzmay xunuk tirjaydi:

– Qalay dam olding, leytenant? Kecha nimalar deganing esingdami? Haqiqatni gapirding-da? Shundaymi?

– Menimcha shunday. Lekin hozir buni yana takrorlashning hojati bormikin? – javob qildi Nikitin. U kecha umrida birinchi marta qattiq mast boʻlib yaqin doʻsti, safdoshidan judo boʻlgani alamini Granaturovdan olmoqchi boʻlgani, Knyajkonining oʻlimida barchani, jumladan, oʻzini ham ayblaganini birma-bir xayolidan oʻtkazdi.

Granaturov oʻtirib, stolga tirsagini tiradi-da, Galyaga tikildi. U esa sigareta tutgan qoʻlini divan suyanchigʻiga tashlaganча boyagiday indamay oʻtirardi.

– Xoʻsh, haqiqat boʻlsa haqiqat-da, Nikitin. Lekin bu haqiqatni endi oxirigacha yetkazaylik. – pisanda qildi Granaturov. – Leytenant Knyajkoning sumkasida xat bor edi... Galinaga yozilgan. Qani u? Oʻshani olib kelib ber. Ha, Galinaning oʻziga ber.

Nikitin kombat xat mavzusini qoʻzgʻaydi, deb sira kutmagan va xayoliga ham keltirmagandi. U Galyaning sezilar-sezilmas titrayotgan qoʻli surilib sigaretasining kuli divanning charm oʻrindigʻiga tushganini koʻrdi. Galya yolqinli, besaranjom koʻzlarini Nikitinga tikib qandaydir izoh, biror gap kutardi: «Xoʻsh, Nikitin? U va men haqimda nimalarni bilib oldingiz? Uni oʻqishingiz shartmidi?» Nikitin nima deb javob qilishni bilmay jim qoldi. Nihoyat, bemajol Galyaning toqati toq boʻlib oʻzi savol tashladi:

– Qanaqa xat edi, leytenant?

– Xat?.. – dedi Nikitin goʻyo bundan mutlaqo bexabar odamday.

– Ha, gapir, nega merovsiraysan? – doʻrilladi Granaturov gʻijinib. – Haykalga oʻxshab muncha serrayasan? Xatni egasiga ber. Yo gapimni tushunmadingmi?

– Tushunmadim.

– Maynavozchilik qilyapsanmi, Nikitin? Nimasi tushunarsiz? Xat qayerda?

– Nimasi «tushunarli» boʻlishi kerak? – dedi Nikitin kechagiday tutoqib. U Granaturov xatni Galyaga nima maqsadda koʻrsatmoqchi



bo'layotganini yaxshi tushunib turardi. – Birinchidan, – dedi u g'ijjib, – birinchidan, kombat, keling, ustav bo'yicha «siz»lashib gaplashaylik! Ikkinchidan, nimani so'rayapsiz? Leytenant Knyajkoning hujjatlari orasida hech qanday xat yo'q edi. Siz ham menga o'xshab kecha ko'proq ichib qo'ygansiz chog'i, oddiy qog'oz ham ko'zingizga xat bo'lib ko'ringan bo'lsa kerak, kombat. («Bundan chiqdi, men kelgunimcha u Galyaga xatdan og'iz ochgan, men esa hozir yolg'on gapiryapman... – xayolidan o'tkazdi Nikitin. – Bundan chiqdi, kombat bu xat Knyajkoning Galyaga munosabati qanday bo'lganligini ko'rsatadi uchun hozir mendan bor haqiqatni ayti-shimni talab qilaypti».) Kechirasiz, Galya. – Nikitin qizga o'girilib, yumshoqlik bilan dedi. – Bu qandaydir anglashilmovchilik...

– Sen, Nikitin, laqillatyapsan, aldayapsan! Xat qayerda? Yirtib tashladingmi?

– Menga qarang, kombat, sensirab o'shqiraversangiz, hoziroq chiqib ketaman!

Granaturov stolni tirsagi bilan turtib o'rnidan turgandi, yig'ishtirilmagan ovqat yuqi idishlar taraqlab ketdi. Uning rangi gezargan, chamasi, stol qirrasiga tekkan yarador qo'lga og'riq kirgandi. Granaturov o'sha qo'lini ko'ksiga bosib Nikitinga yaqinlashar ekan, kirlangan dokadan gospitalda qo'yilgan qandaydir dori isi anqidi. Vajohatli, telbanamo chaqchaygan ko'zlaridagi qorachilari kattalashib ketgandi.

– Bo'pti, unda ziyolilarday «siz»lashamiz. Meni laqillatmoqchimisiz, leytenant? Ha, siz ko'p ichdingiz! Lekin mening aqlim hozircha o'zimda, hammasini bilaman! Siz, leytenant, – Granaturov «siz» so'ziga alohida istehzoli urg'u berdi, – xatni mendan qay tariqa olganingiz ham esimda turibdi. Bilasizmi, Galochka, – uning ovozi endi ancha muloyimlashgandi, – xatda nimalar yozilganini bilasizmi?

– Yo'q.

– Bilmaysizmi? Ha, albatta, bilishingiz ham mumkin emas. Qaydan ham bilardingiz?

– Yo'q. Bilmayman. – Divan suyanchig'idan gavdasini ko'tarolmagan, ko'zlari yumuq Galyaning kekirdagi yuqori chiqib past tushdi, Nikitin esa xuddi yalanglikdagi kabi qizning oppoq yonog'iga tushgan tim qora sochini ko'rib yana hayratlandi. – Yo'q... bilishni

ham istamayman, – u ko'zlari yumuq shivirlarkan, oppoq peshanasiga iztirob ajini qalqdi. – Yo'q, – takrorladi keyin ko'zlarini ochib va derazadan subhidam quyoshi qarag'aylarga nur sochishiga tikilarkan: – Sizga, kombat, men ishonmayman... – dedi.

Granaturovning musht bo'lib siqilgan qo'li uchib, burun kataklari kerildi.

– Unga ishonasizmi? Mengamas, unga ishonasiz, shundaymi Galya? Demak, men yolg'onchi va ovsar ekanman-da? Mana buni chindan ham aybsiz aybdor, deydilar! Garchi ayrim masalalarda u bilan hamfikir bo'lmagan bo'lsam ham, mardligi va ko'p fazilatlar uchun Knyajkoni yaxshi ko'rganimni sizdan boshqalar ham bilishadi. Men siz haqiqatni bilib qo'ysangiz, devdim! Siz bor gapni bilishingiz kerak, hali o'n gulingizdan bir gulingiz ham ochilmagan, Galya! Sizning hali...

– Bas, Granaturov! – iltimos qildi Galya peshana ajinlari yanada chuqurlashib. – Bularning bari bema'nilik, Granaturov, siz Knyajkoni yaxshi ko'raman, demang, ha, demang...

– Bema'nilik bo'ldimi? Mayli, bo'la qolsin! Men boshqa hech narsa demayman! Endi so'rasangiz ham aytmayman, iltimos qilsangiz ham. To'g'ri, hech qanday xat yo'q edi. Men ham hech nima demadim. Leytenant Nikitin haq! Bo'пти, tamom! Gapirmaganim bo'lsin!

Granaturovning yon bergani o'ziga yoqmadi shekilli, xonada u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. U asosiy gapini aytmagan odamday zimdan g'azabnok boqarkan, nihoyat yurishdan to'xtab o'dag'aylashga o'tdi:

– Bundan chiqdi, doimo bor gapni yuziga aytadiganlardanman, demoqchimisiz, leytenant? Yoki payti kelganda shunday qilasizmi?

«Granaturov endi meni sira ham kechirolmasa kerak», dedi ichida Nikitin Granaturovning qattiq nigohiga dosh berib. U bo'lsa bat-tar tutoqa boshladi:

– O'zingizni qo'y og'zidan cho'p olmagan beozor qilib ko'rsatmoqchimisiz, leytenant? Meni kim deb o'ylayapsiz? Unda, qani ayting-chi, nemis qiz bilan aloqada bo'lganingizni qanday tushunish kerak? Nima deb baholaylik buni? Menga bu ham ma'lum, leytenant! Haqiqat bo'lsa rosmana haqiqat bo'lsin. Galyaning oldida o'z og'zingiz bilan ayting. Yo'qsa, haqiqat nima-yu, yolg'on nima, bilib bo'lmay qoladi!..

– Sizga nima ma'lum? – uning gapini bo'ldi Nikitin. – Aynan nima?

Kaminning is bosgan og'zidan kuygan qog'oz, sovuq kul hidi kelar, Granaturovning ovozi ham odamni xun qilar, kuldan farq qilmaydigan ko'zlari ham sovuq yiltirardi.

– Ma'lumi shuki, leytenant, siz to'shakda nemis qiz bilan «jang» olib boryapsiz! – qizisha boshladi Granaturov. – O'sha sepkildor nemis qizni so'roqda himoya qilganingiz yetmaganday, ukasining ham yonini oldingiz. Ukasi esa... oti nimaydi... ha, Kurt, o'sha mishiqi isqirtning guvohligi yolg'on bo'lib chiqdi: o'rmonda faqat bolalarnigina emas, o'ziyurar to'plar hujumini ham ko'rdik. Oqibatda Knyajko halok bo'ldi. Qizning esa qayoqqa ketgani noma'lum. Bu sizni shubhaga solmayptimi? Xo'sh, kim aybdor bo'lib chiqyapti? Xo'sh, haqiqat shumi?

Nikitin bunday qaltis savol berilishini kutmagandi. Granaturov shubhalanibgina qolmay, uning yelkasiga jinoyat ham ilayotgandi. Nima deyishini bilmay qolgan Nikitin ichida faqat: «Bu Mejenin, ha, o'sha!» derdi. Shundan so'ng u Granaturovning ochiqdan ochiq tahdidiga javoban faqat kulimsirab qo'yib: «Nimalar deyayotganingizni o'ylayapsizmi, o'rtoq katta leytenant?» deya pinagini buzmay turavermoqchi ham bo'ldi. Bu bilan kimningdir tuhmatiga e'tibor qilmaslik kerak, demoqchi edi.

«Bu o'sha, o'sha!» derdi Nikitin ichida beto'xtov Mejeninni, uning chaqimchilikdan maqsadini, o'ch olishga tanlagan fursatini o'ylarkan. So'ng o'zini bosolmay so'radi:

– Asosli dalilingiz bormi, o'rtoq katta leytenant? («Nimaga dalildan gapiryapman? Emmaga munosabatimdan tonib, chap bermoqchi bo'lyapmanmi? Galyaning oldida Granaturovga tushuntirib, o'zimni yerga uraymi?») Kurt bu yerga josus sifatida kelgani va keyin nemislar hujumga o'tganiga dalillaringiz bormi?

– Topiladi! – do'rilladi Granaturov. – Nima, quruq gap deb o'ylayapsizmi? Xo'sh, unda Kurt qayerda? Qaerga yashirindi? Mishiqi qayoqqa g'oyib bo'ldi? Knyajko ikkalang ularga uyda qolishga ijozat berganlaringda bo'shtoblik qildim, buni bo'ynimga olaman. Biroq bugun uzil-kesil xulosaga keldim: nemis qizning joyi smershda. U bilan smershdagilar shug'ullanishlari kerak!

«Smersh! Nahotki?...» Ha, Nikitin nemislarga ishonmas va har safar asirlarni uchratganida – dastlabki asirlarni qish payti Stalin-gradda, keyingilarini esa Berlinda ko'rgandi – ularning ham hamma qatori odamlar ekani, ko'zlaridan qattiq charchaganlari sezilib turgani, isqirt va yirtiq mundirlari, egilib-bukilganicha bir xilda: «Gitler kaput!» deya g'o'ldirashlaridan hayron bo'lardi. U nemislardagi yovuzlik izlarini ko'rmoqchi bo'lib yuzlariga, qo'llariga sinchiklab tikilar, nazarida, bu izlar ularning badanlarida fashistlarning jirkanch belgilariday tamg'alanib qolishi kerak edi go'yo. Asir olingan nemislar ham shu vajdan ko'ziga bir xil ko'rinardi. Ular tirik qolmoq maqsadida odam siyog'iga kirishgan bo'lsa ham, bu ikki oyoqli maxluqlar o'zga, zim-ziyo, zulmatli vahshiy dunyodan kelganga o'xshardi. Ha, u nemislarga keyinchalik, ya'ni Germaniya chegarasidan o'tishganida ham, Berlindagi ko'cha janglari kunlarida ham ishonmagandi. Yer ostining beton gumbazlari ostiga tiqilishgan shaharliklar sermulozamat boqib, qisqa suhbatlarda o'zlarini oqlab, urushning aybdori telba Gitler va «SS»chilar deya ularni qoralaganlarini ko'rganida ham shubhalangandi. U nemislarning barini tanobi tortilishi lozim bo'lgan dushmani o'rmda ko'rar, negaki urushni shular boshlagandi. Lekin Nikitin o'zini bag'rikeng ko'rsatishga majbur edi, chunki bu narsa g'oliblarning mag'lublar maydonidagi muruvati sifatida talab etilardi.

Nikitin bu yerdagi, Kyonigsdorfdagi hodisalarga avvalboshda ko'pda parvo qilmagandi. O'sha bolakay Kurt bilan Emma uning nazdida egilib-bukiladigan, tundliklariga qaramay tirjayishga tayyor bo'lgan (u Sharqiy Prussiyada bo'lganida askarlar uylaridan chiqib ketishlari bilanoq nemislar lab-lunjarini yig'ishtirib olganlarini ko'p ko'rgandi) chinakam nemislarga sirayam o'xshamasdi. Nikitin Mejeninni nemis qiz bilan boloxonada ko'rib qolgan o'sha kecha, qizning jon holatda «neyn, neyn!» deyishi, so'roq paytida opa-ukaning qo'rqqani, Emmaning dahshatga tushgani, ko'ylagi belidan yirtilgani, pirovardida gangib qolgan beso'naqay ukasining tarafini olgani – bularning hamma-hammasi Nikitinda asirlarga nisbatan boshqacha fikr uyg'otar, ularga achinganday bo'lar, hatto himoya qilgisi kelardi. Ehtimol, bularning bariga Emmaning aldov nimaligini bilmaydigan benihoya zangori ko'zlari (ko'zi nemis qizlarining ko'ziga sira o'xshamas, Nikitin bunaqasini ilgari hech ko'rmagandi), yumshoq,

do'rdoq, tishlanaverganidan qorayib ketgan lablari, uyiga qaytish sabablarini tushuntirishga uringanida mushtipar opaday tuyulgan, biroq bukchaygan, nimjon, ko'kragi botiq, hech qachon gapidan chiqmaydigan ukasiga o'xshamagani sababdir. Ha, o'sha so'roqda ikkovi ham Nikitin bir lahza bo'lsa-da, xayol qilganiday dushmanning gapini aytishmadi. Keyin esa Nikitin urush yetib kelmagan Kyonigsdorfdan, subhidam paytida afsonalardagiday keng-mo'l o'rinda, ajoyib par ko'rpada uyg'ondi. So'lim sukunatdagi qushlarning sayrashi, eshik tiqirlashi, oftob charaqlab turgan bog'dan esayotgan shabadaga qo'shilib taralgan qaynoq qahvaning yoqimli hidi, Emmaning xalatda belini xipcha bog'lab kirib kelishi, ko'm-ko'k ko'zlarini tortinibroq tikib: «Guten morgen, gerr leytenant», degani, yelkasiga tushgan misday yaltiroq sochidan atirsovun isi kelayotgani, yumshoq lablari va sarxush etuvchi, ajib hayajonga soluvchi nash'u namolar... Nikitin keyin bu ishiga izoh topolmadi, faqat rus zobiti bilan nemis qizi o'rtasida bunday munosabat bo'lishi mumkin emas, degan to'xtamga keldi. Shuning uchun ham o'zidan nafratlanib, boshqalar qatorida o'zini ham ayblab yurar, Emmaning oppoqqina badani, bo'yniga chirmashadigan qo'llari, jilmayib: «Vadi-im, meyn liber Vadi-im», deganida yaltirab ketadigan tishlarini o'ylasa juda ajib va g'alati ko'yg'a tushar, go'yo osmonlarda uchib yurgan-day bo'lardi.

Kechagi jang taloto'pi, dafn va taskin berish o'rniga battar motamsarolik olib kelgan xotirlash marosimidan keyin Nikitin Emmani o'ylashni ham, uni ko'rishni ham istamasdi; tanholik azobi va tushida o'zini dafn etayotganlarini ko'rib dahshatga tushgani, Emma zimiston boloxonada yonida hiq-hih yig'lab o'tirganida uyg'onib ketgani, uning yuzini yuvgan ko'z yoshlari, iltijo bilan: «Ix bin traurig, Vadi-im!» degani, chamasi, shularning bari ularni bir-birlariga beixtiyor yaqinlashtirgandi. Nahotki Emma bunda o'z jonini o'ylab, dog'ulilik qilgan, nahotki Nikitin unga shunchalar aldanib, buni tushunib yetmagan bo'lsa? Yo'q, Emma o'shanda yolg'on ishlatmadi, uning yolg'onchiligiga ishonish mumkin emasdi. Ha, Emma Nikitin mehribon va rahmdilligini bilgani uchun ham o'zi bilan Kurtga shafqat tilar, ukasi ikkovini odam o'ldiradigan va Knyajkoni halok etgan nemislar qatorida ko'rmasliklarini o'tinardi.

– Dalil deypasanmi, leytenant? Dalil kerakmi senga? Nemis qiz bilan smersh shug'ullanganda hamma dalillar bo'ladi. Bog'liqliklar



juda ko'p, shunday emasmi leytenant? Opa-uka kechasi xuddi uy xo'jalariday paydo bo'lishdi, kechasi bolakay qayoqqadir g'oyib bo'ldi, erta bilan esa nemislar hujumga o'tishdi. Qani, aying-chi, kimga ishondik o'zi? Rahmdillik qildik, ularga ishondik. Ular bizga tupurishdi! Shunday emasmi?

– O'sha Kurt asirlar orasida yo'q edi, – dedi Nikitin.

– O'rmondagi o'liklar-chi? Ehtimol, o'sha yerda o'lib, uy bilan yonib ketgandir? Go'llik ham evi bilan-da, leytenant! Gaplaringiz kulgili. Judayam kulgili.

– Yo'q, men uning Gamburgga emas, o'rmonga ketganiga ishonmayman, – dedi Nikitin. – Bo'lishi mumkin emas. Ishonmayman bunga!

Granaturov ovozini balandlatdi:

– Men esa senga ishonmayman! Tushudingmi? Senga ham, nemis qizingga ham ishonmayman! Sening hatto batareyaga vaqtinchalik komandirlik qilishingga ham ishonchim yo'q! Garchi batareyada sendan boshqa zobit qolmagan bo'lsa ham! Endi gap bunday. Kel, erkakchasiga ish qilaylik. Men qo'l ostimdagilar ustidan chaquv yozmayman. Bunaqa odatim yo'q. Smershga o'zing raport yozasan: nimalar bo'lgani, qanday yuz bergani, vervolfchi qayoqqa g'oyib bo'lgani va... nemis qiz bilan munosabatlaringni ham aytasan! Eh, kechirasiz, leytenant Nikitin, yana sansirashga o'tib ketibman-ku...

– Ixtiyoringiz. Faqat bular haqida o'zingiz yozasiz, kombat.

– Nima? Men-a?

– Hatto... hatto jazo bataloniga yuborilsam-da, to bari aniqlanmaguncha biror satr ham yozmayman. Kurt o'rmonga qaytib borgan-bormaganligini u yerda asir olinganlar aytib berishlari mumkin, shtabga telefon qilib surishtiring. Uni o'zi ko'ruvmidingiz? Shuyam askar bo'ldimi? Go'dak-ku hali! Qo'lidan nima ham kelardi!

– Ana xolos! Shunchalik dovyurakmisan, Nikitin? Mabodo hammasi isbotlansa keyin nima qilasan?

– Asirlar uni bilishsa kerak. Mabodo, Kurt ayg'oqchi bo'lsa, unda siz emas, men javob beraman!

– Nimaga javob berasan, nemis qiz bilan to'shakda «jang» qilayotganingami? Oldiniga uni zo'rlashga uringaning, keyin ko'ndirganingami?

– Men... zo'rlashga uringanman?! Bu gapni qayoqdan oldingiz?

– Hammasidan xabarim bor! Sen, leytenant, hamma aybni Mejeninga to'nkamoqchi bo'lganingni ham bilaman, u boloxonadagi bema'nigarchiliging ustidan chiqib qolgan. O'zingcha farishta bo'lib ko'rinmoqchi bo'larding! Endi esa hammasiga javob berishingga to'g'ri keladi! Hammasiga! Buni senga Galinaning oldida aytyapman, leytenant Nikitin!..

Granaturov go'yo dalillarini nigohi bilan tasdiqlayotganday serjahl va o'ynoqi ko'zlarini Galyaga qaratdi. U divanda hamon beparvo, ko'zlarini yumib o'tirsa-da lekin Granaturovning tahdidi Nikitinga avtomatdan o'q uzilganday ta'sir qildi. Nikitinga zarar yetkazishi va abgor qilishi mumkin bo'lgan bu yomon xatar birdan uni go'yo okop tubiga emas, balki Brustver'lardan asar ham bo'lmagan ochiq maydonga, ikki qadam naridagi jar yoqasiga uloqtirdi. Jarning narigi betida nemislar emas, avtomatli Granaturov turar, orqasidan uni Mejenin g'oyibona suyab olgan. Jarning bu tomonida esa Knyajkoning halokatida bevosita yoki bilvosita aybdor Nikitin turar, unga nemislar bilan xoinona aloqang bor, deya tiqilinch qilishmoqda. Nikitinga qo'yilayotgan ana shu ayon (bevosita yoki bilvosita) aybni Granaturov dalillari yetarlicha bo'lmagani bois to'lig'icha uning bo'yniga ilolmasdi. Nikitin Galyaning oldida unga atalgan hech qanday xat yo'qligini aytib kombatni yolg'onchiga chiqargani uchun, oriyati qo'zib jahli chiqqan Granaturov Nikitinning sha'niga teguvchi to'shaddagi «jang» iborasini keltirgach Nikitinning ham benihoya g'azabi qo'zg'ab ketdi.

– Menga qarang, kombat... – dedi u. – Axborotingiz uchun Knyajkoning, hozir duelga chiqish yo'q-da, degani esimda turibdi.

– Knyajkoga taqlid qilmoqchimisan? – Granaturov o'zini eplolmay poshnasida Nikitinga o'girildi. – Galinaning yonida o'zingni ko'rsatmoqchimisan? Sen buni eplayolmaysan! Knyajko boshqa, sen boshqasan! Atos, Portos va mushketyor! Qani, gapir!.. Xo'sh, duelga chaqirmoqchimisan? Bo'пти, qani yur! Otishamiz! Qani! Bo'! Ketdik!

Granaturov sog' qo'li bilan belidagi to'pponchasiga yopishgandi, dokali chap qo'li bazo'r dahani tomon ko'tarilgani uchun og'riqdan yuzi bujmayib, oppoq va sog'lom tishlari ko'rinib

---

<sup>1</sup> Brustver – okop tepasiga uyulgan tuproq, yasama do'nglik.

ketdi. Nikitin Granaturovning yuzida jahl bilan ojizlik olisha-yotganini ko'rdi. Kechagi kungacha qo'pol baqiroq bo'lsa ham ulfat kombat sanalgan Granaturovdan endi asar ham qolmagan, kecha o'rmondagi havoyiligi, o'zini bosa bilish, qiziqchiligi ham allaqayoqqa g'oyib bo'lib, butunlay boshqa odamga aylanganday edi. Nikitin ham negadir Granaturovning ilgarigi yurish-turishlari Knyajko tirikligida vaqtincha, o'zini xaspo'slash uchun ekan-da, degan xayolga bordi. Granaturov Knyajkoni keyingi kunlarda yoqtirmay qo'ygan, undan hayiqib, g'ashi kelib yurardi. U xotirjam va matonatli Knyajko oldida chamasi o'zining pastroq turishini bilar, chunki Knyajko batareyani osongina bo'ysundirib olgandi. Granaturov bemalol yura olmas, itoat etishga majbur edi, mana endi o'sha Knyajko yo'q...

– Tentaklik bu, kombat, – dedi Nikitin, – Knyajkoga o'xshasam koshkiydi-ya, biroq eplolmayman... Afsuski, eplolmayman.

Shundan keyin Granaturov qo'lini to'pponchasi g'ilofidan oldida, tishlarini g'ijirlatib tahdid qildi:

– Esingda bo'lsin, Nikitin! Ilgari batareyada nimaiki bo'lgan bo'lsa, endi hammasi tugadi! Men Knyajkning ba'zi bir ishlari-ga yo'l qo'yib berardim, senga esa ruxsat bermayman! Bas endi! Batareyada o'z tartibimni o'rnataman. Ziyolicha hazil-huzul-u lo'ttivozliklaring endi ketmaydi!

– Jim bo'ling! Ikkovingiz ham jim bo'ling!..

Galyaning iltijoli baqirig'i Nikitin va Granaturovni hushyor tortirdi. Ayniqsa, Nikitinning yonoqlari uvishganday bo'ldi. Galyaning yorqin ko'zlari nafratli boqar, qoshlari ham bulardan hazar qilayot-ganday chimirilgan, go'yo xonada qandaydir iflos, sharmandali bir ish bo'lgandek taassurot uyg'otardi.

– Ha, ha... Siz nafratga moliksiz, Granaturov, – shivirladi Galya xuddi nafas olishga qiynalayotgandek tomog'ini silab qo'yarkan. – Judayam haddingizdan oshib ketdingiz... Endi sira ham, hech qa-chon! O'rtamizdagi munosabatlarning bari xato edi, unga o'cha-kishib qiluvdim, tushundingizmi... Granaturov? Tushunarlimi?

Galya divanning g'olasiga kiftining yoni bilan urdi-da, qon-siz lablarini qattiq tishlab qoldi. Nikitin uning beayov va oshkora so'zlari zarbidan gangib qolgani uchun ichida: «Rostmikin shu gap-lar? Demak, o'rtalarida bir gap bor ekan-da? Bundan chiqdi, Gra-

naturrov o'shanda Knyajkoning rashkini keltirish uchun atay oshirib yuborgan ekan-da», deb qo'ydi. So'ngra Granaturovga qaradi.

Granaturov kamin oldida qaqqayib turardi. Keyin u sapchishga hozirlik ko'rayotganday yo'g'on bo'ynini kiftlari orasiga torta boshladi. Yelkalari, yarador qo'li o'rog'liq dokadan ko'rinib turgan yod yuqi barmoqlari ham g'ujanak bo'lib, go'yo gavdasi kichrayib borardi. U birdan bukchaydi-da, qat'iy va og'ir zarbani kutganday xona to'g'risidagi burchakka so'qirday odimladi, to'xtab, polga, top-talga gilamga uzoq tikildi, yana boyagi alfozda kamin tomon qay-tarkan, benihoya xunuk tirjayardi. U nimadir demoqchiga o'xshar, biroq kuchini tirjayishga sarflar, go'yo yuziga masxarabozlarning ni-qobini kiyib olganga o'xshardi.

– Galya, demak siz hali men bilan... – Granaturovning ovozi xir-qirab chiqdi.

Kombat yana boyagiday yurib, kaminga yetmay stol tomonga burildi, yig'ishtirilmagan krujkalarni to'pladi, kimdandir qolgan stakan-dagi aroqni bir ko'tarishda bo'shatdi. So'ngra stol chekkasiga tir-sagini tirab, peshanasini bahaybat mushtiga qo'ydi.

– Men ketdim, kombat. – dedi Nikitin o'zini ancha yengil sezib. Nega deganda, Granaturovning bahaybat mushti ayanchli va xunuk tirjayishini yashirgandi. Mabodo Granaturov Galyaga baqirib, stakan-ni sindirib, stulni otganida ham hozirgi beo'xshov kulgisiga nisbatan tabiiyroq ish qilgan bo'lardi. U chamasi o'zini shu tariqa yu-patmoqchiga, Galya aytgan bor haqiqatdan qochmoqchiga o'xshardi. Granaturov aftidan Knyajko bilan Galya munosabatlarining tagiga yetmoqchi bo'lganida bundan qizning nafrati qo'zishini, u o'zini azoblab kelgan bu yaqinlikni inkor etishini xayoliga ham keltirma-gandi. Bu munosabat amalga oshmaydigan, boshqa chora izlash-ga ham yo'l bermaydigan omonat bir rishta edi. Shunday bo'lsa ham Granaturovning Galya bilan o'rtalarida biror gap bo'lgan-bo'lmaganidan qat'i nazar, Knyajko tirikligida Galyani badnom qi-lishga yuragi dov bergani erish tuyulardi... Negaki o'sha kuni Gra-naturov medsanbatdan juda xursand qaytgandi. U naq gusarlarday kular, Knyajkoga sirli ravishda qarab-qarab qo'yar, tunni medsan-batda ishlaydigan qiz bilan maza qilib o'tkazganini uyalmay-netmay mayda-chuydasigacha gapirgan, ishonmasanglar, mana, deb Galya-ni bir havaskor olgan suratini stolga tashlagandi. Uning bu ish-

larida dilni vayron qiluvchi maqsad, haqiqatning yo'liga to'g'anoq bo'ladigan qandaydir jirkanch narsa bor edi. Knyajkoning Galyaga yozgan va qandaydir sabablarga ko'ra yubora olmagan xatida ham bu narsa o'zini ko'rsatib turgandi.

– Ketaver, Nikitin, – Granaturov qansharini mushtiga ishqab, boshini asta chayqadi. – Nemis qiz masalasida smershga raport yozasan... Ha, sen ham farishta emassan, Nikitin, ha-a...

Granaturovning bahaybat gavdasini ayanchli bukib o'tirishi, Galyadan sira sas chiqmay, yer suzishi, kecha yalanglikdagi singari rangiada rang qolmagani, Knyajko yo'qligidan bu yerning benihoya huvillab qolgani, Nikitinning xayolidan ketmayotgan dahshatli tush. Emmaning yumshoqqina lablari, ohistagina: «Du bist meyn shmetterling» («Nimaga kapalak? Nimaga?») deb shivirlashlari... qo'yingchi, bularning bari nemislarning benihoya shinamgina shaharchasi Kyonigsdorfdagi barchani xarob qilgan sarobning davomi, urush bugun-erta tugaydi, deb ishonib yurganlarning aldanishi edi. Ehtimol ana shu kishilarning bari frontdan olisdagi osuda hayotning baxtiyor fasliga ishonib qolganlaridan shoshib qolib, o'zlarini bu ishlarga giritfor qilishgandir. Oldingi marrada ekanliklarida bunday qilishga yuraklari dov bermasdi-ku.

Endi nimadir qilish, biror qarorga kelib, sehrli sukunati, oppoqqina gullagan bog'-rog'lari, mayning huzurbaxsh oftobi bilan ularni aldagan ana shu la'nati va xatarli holatdan bir amallab qutulib ketish lozim edi. Negaki urush barcha uchun tugagan bo'lsa ham, bu yerda makkorlik ila kuchini ko'rsatar, Knyajko ham xuddi shu tufayli halok bo'lgandi.

– Bir narsani aytmoqchiman, kombat, – dedi Nikitin asta. – Smershga raportni avval Mejenin yozsin. Keyin esa men...

Granaturov peshanasini mushtiga sekin ishqab ingradi-yu, javob qilmadi. Nikitin esa juda siqilganidan, sal o'ziga kelib olish uchun eshikka qarab yurdi. U tashqariga chiqib, maysalar, gullagan sirenning huzurbaxsh hididan to'yib-to'yib nafas olishni, garchi aldamchi bo'lsa ham bahor og'ushidagi bog'ning biror burchida xoli qolishni xohlardi.

U eshik tutqichidan ushlagandi hamki, orqa tomondan Galina ning jarangdor ovozi qulog'iga chalindi:

– To'xtang, Nikitin. Sizga aytadigan gapim bor...



Nikitin shartta orqasiga o'girilib, dilidan: «Hozir u asosiy gapni aytsa kerak... lekin nega?» degan fikr o'tarkan, ko'zi qizning kulib turgan ko'zlariga tushdi.

– To'xtang, Nikitin.

Galya etigini g'ijirlatib Granaturovning bukik gavdasini keraksiz buyumdek beparvo aylanib o'tdi-da, stolda yotgan o'lja sigareta qutisidan bir donasini olib labiga qistirib tutatdi. Sigaretani simirib tortib, tutunini sekin-asta chiqararkan, asta gap boshladi:

– Rahmat, Nikitin. («Nega Galya unga rahmat deyapti?») Mabodo batareyaga kelmay qo'ysam, mendan xafa bo'lmang, shunisi ma'qul. Kechagi kungacha kelishim sababini hamma bilardi, albat-ta.

Granaturov mushtidan boshini ko'tardi. Endi uning boyagiday katta og'zini kichraytirib irshayishidan asar ham qolmagan, qoshlari alamli chimirilgani bois qanshari tepasida tutashib ketgandi. U tund qiyofada Galyaning yuziga tikilib turar, chamasi uning chehrasidan nimanidir izlab, topolmasdi.

Galya esa burnidan tutun chiqarayotib yo'tal tutib qoldi-yu, gimnastyorkasi durkun ko'rsatayotgan ko'kragiga qo'lini bosdi. Kamari mahkam tortilgani uchun qizning beli yanayam ingichka ko'rinardi. Shu vajdan Nikitin goho Galyaning ko'kragidagi bir tekis qadalgan tillarang tugmachalariga qarashga istihola qilardi. Qizning quyuq qora sochlari, silliq va pokiza tirmoqlari, xipcha beli, chiroyli odimlashi, hatto chekishi-yu beo'xshov tabassumidan ham Nikitin haya-jonlanar va negadir xijolat tortardi. Shu bilan birga Galyaning bo-siqligidan bitta-yarimtaning gapiga uchib o'zini uning quchog'iga otmas, degan xayolga borar, birorta erkak bilan yolg'iz qolajagini tasavvur ham qilolmasdi.

Galya sigaretasini kuldonga bosib o'chirdi.

– Undan uch yosh katta edim, u esa... hali boladay edi, – dedi Galya yo'tali oxirigacha bosilmay. – Men bilardim... Buning oxiri xayrli bo'lmasligini bilardim.

– Men boray, – dedi kechagi voqealar yana esiga tushib, a'zoyi badani junjikib ketgan Nikitin. – Men ketdim, Galya.

– Siz uning do'sti edingiz... men ham siz bilib qo'yishingizni istayman. Men faqat uni sevardim... o'zimcha xayoliy qasrlar ham qurmasdim, Nikitin, – Galya shunday derkan, ko'ksidagi tillarang

tugmalari g'ayritabiiy kulgisidanmi, bo'g'iq ho'ngrashidanmi titrab ketdi. – Tavba! Urushda xayoliy qasrlar qurib bo'larkanmi?

– Men boray, – dedi Nikitin to'rtinchi marta takrorlab.

U Galyaning ovozi eshitmaslik, qizning chehrasidan biror narsa ilg'ab olish uchun tikilayotgan Granaturovning xunuk ko'zlarini ko'rmaslik maqsadida yo'lak eshigini tortdi. Yo'lak nimqorong'i, hamma uyg'ongan bo'lishiga qaramay sokin, bo'tqa hidi anqirdi. Nikitin ostonaga qadam qo'yarkan, uni yana Galyaning ovozi to'xtatdi:

– Nikitin, iltimos, Tatkinga ayting, bir paqir suv keltirishsin. Polni yuvmoqchiman. Sizdan yana iltimosim, menga hech kim qarashmasin. Bir o'zim yuvaman...

«Bizni tark etadi endi, – deb qo'ydi Nikitin ichida. – Batareyaga qaytib kelmaydi, sirayam kelmaydi...».

## O'N IKKINCHI BOB

Vzvoddagilar har kungidan boshqacharoq, jimgina nonush-ta qilishardi. Odatdagidek qoshiqlar shaqir-shuquri, guring, hazil-mutoyibalar, kulgi eshitilmas, koteloklar uzra egilgan askarlar qovoqlarini ochmay o'tirishardi. Serjant Mejenin kecha ko'p ichgani uchun stol boshida badqovoq va gezarib o'tirar, bo'tqaga qo'l urmay erinchoqlik bilan nondan chimdib beparvo kavshanardi. Eshikda Nikitin ko'ringanida Mejenin negadir dadil tortib, unga: «E-e, leytenant!» dedi-da, sovuq yaltirovchi ko'zlaridagi ehtiyotkorlik ifodasi yo'qolib, leytenantga o'sha tanish qiziquvchanlik bilan tiki-la boshladi. Nikitin unga savolchan va xotirjam boqarkan, ko'nglida: «Hozir unga nisbatan nimani his qilyapman o'zi? Mejeninni yomon ko'ryapmanmi yo undan jirkanyapmanmi?» degan savol kechardi.

– O'tiring, o'rtoq leytenant. Ushatikov, vzvod komandiriga bir kotelok bo'tqa ber! – dedi Mejenin buyruq ohangida. – Chaqqon qimirla! Buncha mushukka yopishib olmasang? Hayvonni emas, leytenantni ovqatlantir!

Askarlar Nikitinga o'girilib qarashsa ham hech kimdan sado chiqmadi, serjantning gapiga ham hech kim kulmadi. Aftidan, askarlar kechagi xotirlash marosimidan keyin kombat bilan vzvod komandiri bir biriga chap bo'lib qolishgani, Granaturov ertalab gospitalga nega ketmagani va bundan bir daqiqa oldin o'rtalarida kechgan suh-

bat ko'ngilli bo'lmaganini yaxshi bilishardi. Tatkin mo'ylovi osilib tushib, qat-qat qovoqlari orasidan sarg'ish ko'zlarini javdiratib turar, tizzasidagi mushukka yashirincha go'sht berayotgan Ushatkov esa serjantning dag'dag'asidan keyin ko'zlarini ayanchli pipiratib, tizzasidan mushukni qo'ymay, kaftini gimnastyorkasiga artarkan. o'rnidan sal qo'zg'aldi-yu, ammo Mejeninning buyrug'ini yaxshi anglamagani va leytenant Nikitinning nega ichkariga kirmay ostona turgani sababini tushunmay, gangib yana joyiga o'tirdi. So'ng o'sal bo'lib o'zini oqlayotgandek g'o'ldiradi:

– Och-da jonivor, bamisoli yetimchaday...

– Yosh bola ekansan, – dedi katta serjant Zikin qoshig'ini bir chekkaga qo'yib. – Aslida sening kallang yetim, xom. Xuddi huvilagan saroyday ichida aql-paql yo'q. – So'ng Nikitinga yuzlandi. – O'tiring, o'rtoq leytenant, ozroq tamaddi qilib oling.

Askarlar churq etmay Mejeninga zimdan boqishar, u bo'lsa ko'zlarini qisgancha tamaki sarg'aytirgan kurak tishlarini ko'rsatib, beo'xshov irshayardi.

– Ovqat yemaslikka qaror qilmaganmidingiz, o'rtoq leytenant?

– Ovqat yegim kelmayapti, – javob qildi Nikitin. Keyin stolga yaqinlashib boshi lo'qillab og'riyotgani, tomog'i quruqshab ketganini sezdi. Yalanglikda, to'p panasida turganlarida Knyajko may-sazordan odimlab, hech kim kutmagan voqea yuz berganidan so'ng Mejenin darhol to'p tepkisini bosgan, snaryad yuqori qavat derazasida yashinday chaqnagan, o'sha yerdan avtomatdan sidirg'asiga o'q uzilganida, Knyajko bir qadam tashlab, cho'kkalagan, keyin ro'molchasini peshanasiga bosgan mahalda Nikitin xuddi shu ko'yga tushgandi. «Men Mejeninga buyruq bermovdim-ku. Nega u to'pdan o'q uzdi? – Nikitin boshi lo'qillab tursa ham xotiriga kelib qolgan o'sha lahzani esladi. Undan keyingi voqealar xayolini parishon kilib yuborgan bo'lsa ham birorta odam – o'zi ham, askarlar ham kecha shuni eslamaganlaridan taajjublandi. – Ha, uni hech kim ayblamadi... Mabodo Mejenin to'p otmaganida o'sha nemis o'q uzarmidi?.. Nega uni hech kim ayblamayapti-yu, yolg'iz men qoralayapman? Unga nisabatan adovatim bormi? Nafratlayapmanmi? Yo jirkanyapmanmi? Bundan chiqdi, Granaturov unga to'la-to'kis ishonarkan-da? Yoki ishongisi kelarmikan?»

– Rahmat, Zikin, ovqat yegim kelmayapti, – hafsalasiz javob qildi Nikitin ikkala chakkasi lo‘qillab turgani uchun. – Men bir narsani aytmoqchi...

– Biz bilan o‘tirsangiz bo‘lardi, o‘rtoq leytenant, och yurishdan foyda yo‘q. Yoki choy ichasizmi?

– Vzvod komandirimiz ochlik e‘lon qilgan, Zikin, bu ham salomatlikka foyda. O‘zi hammamiz nafsimizni tiysak bo‘lardi. Nemislarning ovqatlarini paqqos tushiraverganimizdan qorin solyapmiz, kamarlarimiz ham sig‘may qolyapti, xo-xo!

«Hali menga kesatiq qilyapsanmi Mejenin?»

– Men sizga bir gapni aytib qo‘ymoqchi edim, serjant Mejenin, he, jin ursin!..

Nikitin anchadan beri Mejeninga nisbatan ko‘nglida yig‘ilib yurgan achchiq-quruq gaplarni aytganidan so‘ng nima qilajagini o‘ylab ko‘rmagandi. Lekin dilidagilarni to‘kib solmasa, yengil tortmasligini sezardi. Zero, shundan so‘nggina mana shu kelishgan, nigohi qattiq Mejenindan qutular, sovuq xiringlashini, tamakidan sarg‘aygan tishlarini qaytib ko‘rmasdi. Uning kecha bemahal o‘q uzgani-yu, yalanglikda xunrezlik qilmoqchi bo‘lgani ham esidan chiqardi... Shularni xayolidan o‘tkazarkan Nikitin baland va jarangdor ovozda gap boshladi:

– Menga qarang, Mejenin... mabodo siz kecha o‘ziyurar to‘plarga qarshi jangdayoq halok bo‘lganingizda... hammasi adolatli bo‘lar edi. Knyajkoning o‘limiga sizning ahmoqona qo‘rqoqligingiz sabab bo‘ldi. («Aniq va dadil gapirishimni qarang-a... Bunchalik jasorat va ishonch qaydan keldi? Juda dadillashib ketdimmi – anchadan buyon bu tuyg‘uni boshdan kechirmagandim...») Va shuni bilib qo‘yingki, mabodo ertaga mening vzvodimda turqingizni ko‘radigan bo‘lsam... sizni o‘ylab-netib o‘tirmay qo‘rqoq va yaramas odam sifatida otib tashlayman! Hammasi uchun... Jitomirdagi qilmishingiz uchun, Knyajko uchun, yolg‘onchi-yu iflosligingiz uchun! Gapimni tushundingizmi? Qulog‘ingizga yaxshilab quyib oling, Mejenin!

Haqgo‘yligi tutgan darg‘azab Nikitin bu so‘zlarni Mejeninning basharasiga baqirib aytsa balki ancha hovuridan tusharmidi. Lekin u o‘zini jilovlab, nihoyatda sovuqqonlik va xotirjam so‘zlardi. Ammo gaplari beayov, ovozidagi keskinlik va qat‘iyat dahshatli eshitilar,

vzvoddagilar oldida Mejeninni o'limga hukm qilayotgan bo'lsa-da, bu jazoning o'ziga ham daxli borligini his etib turardi.

– Esingizda bo'lsin, men so'zimning ustidan chiqaman. Sizdan esa o'qni ayamayman. Oxirgi aytadigan gapim shu!..

Nikitinning tahdididan Mejeninning ko'pchigan, soqoli o'siq tur-tibroq chiqqan dahani yonoqlariga qadar gezarib ketgan bo'lsa-da, serjant buni bildirmaslikka urinib, beo'xshov irshayishi bilan bekit-moqchi bo'lar, yegisi kelmayotgan bo'lsa ham non ushatib og'ziga solarkan, tez-tez chaynay boshladi. U churq etmay non kavsharkan, yonoqlariga qalqqan ter rezalari yaqqol ko'rinib turardi.

Oftob qizdirayotgan kunning tafti kuchayib, xona hammom-day dim bo'lib ketgandi. Butun uyni qoplagan sukunatda Ushatikovning tizzasida o'tirgan mushukning polga sakragani eshitildi. Ko'zlari Nikitinga qadalgan Ushatikov hayratomuz iyagini cho'zganicha stuldan sirg'alib tushib oyog'i Tatkinning tizzasiga tegib ketdi. U esa Ushatikovga parvo ham qilmay, so'z ham qot-may, ikki ko'zi Mejeninda jim turardi. Askarlar ham Mejeninga tikilib qolishgandi. U esa boyagiday beparvo non chaynar, kleyon-kadagi nonni dag'al tirnog'i bilan cho'qilardi. O'rtaga cho'kkan noqulay jimlikdan Nikitinning qulog'i g'uvillay boshladi. Meje-nin bilan askarlarning churq etishmayotgani kechagi kun, xotirlash marosimidan keyin hech kimning serjant bilan ham, vzvod ko-mandiri bilan ham teskari bo'lishni istamayotganidan darak berar, chunki, jangdan tirik chiqishgani uchun ko'p jihatdan hammani kechirib yuborsa bo'lardi.

Nikitin xayolan ishqilib Mejenin bilan yarashib qolmayin-da, deya beixtiyor jig'ibiyron bo'lar, vujudi muzlab, ichidan qaltiroq bo-sib kelardi: «Agar hozir, shu damda, shu yerda... mabodo u o'zini oqlash uchun og'iz ochsa... o'sha dahshatli hodisa yuz beradi, ham-masi tamom bo'ladi...». Nikitin titroqdan a'zoyi badani muzlab, so'nggi gapini aytishga shay turar, go'yo askarlarning sokin yuzlari-yu, Mejeninning turqini ham o'zidan pana qilgan nim qorong'ilik-ka bor vujudi bilan cho'mganday bo'ldi. U endi tevaragi huvillab, sukunat cho'kkanini sezdi, katta serjant Zikinning do'rillab aytgan so'zlarini yaxshi eshitolmadi. Zikin qovog'ini ochmay kotelogiga ti-kilar, negadir vzvod askarlari indashmay turishgani sababini tushun-tirishga oshiqardi:



– Shu iflosni deb jazo bataloniga tushishni istaysizmi, o‘rtoq leytenant? Bu o‘ziga bino qo‘yganlardan! Bu yog‘ini aysam, bozor kuni buni birov bir pulga olmaydi... Odamzodning yaramasi!

– Yo‘q, – dedi Nikitin arang eshitilar-eshitilmas. – Siz ko‘p narsani bilmaysiz, Zikin, talay gaplardan bexabarsiz...

– Aytdim-ku, o‘rtoq leytenant, qo‘lingni axlat bulg‘asa uni har qancha yuvib ham ketkizolmaysan. O‘sha axlatni belkurak bilan chuqur o‘raga ko‘mibgina qutulasan.

Bu gapdan keyin Mejenin chidab turolmadi. Birov orqadan pisib kelib dahaniga solganday boshi orqaga ketib, yonoqlari o‘ynadi, qiyiq ko‘zlari qonga to‘ldi.

– Senmisan hali ustimga tuproq tortmoqchi bo‘lgan, qishloqi?! Til biriktirdilaringmi? Sen... moskvalik qiltiriqni ham jag‘ingni ezib qo‘yaman! Menga tahdid qilyapsanmi? Hali... hali kim kimni ko‘mib, ustiga tuproq tortishi noma‘lum! Meni yo‘q qilmoqchimidilaring, ablahlar! Sizlarni bir o‘zim g‘ajib tashlayman!.. Suyaklaring-gacha! Hali menga o‘chakishyapsizlarmi? Menga-ya?..

– Mejenin! – hayqirdi Nikitin, ammo xayolidan yashin tezligida o‘tgan fikrga bo‘ysunib o‘ng qo‘lini og‘irgina «TT» ezibroq turgan beliga qo‘yarkan, xotirjam gapirishga urindi. – Bas qiling, Mejenin!

– Hali otib tashlamoqchimisani? Menimi? Meni-ya?

Mejenin stoldan irg‘ib turgandi, yelkasi bilan stulni turtib yiqitib yubordi. U deraza tomonga talpinganida sarg‘ayib ketgan tishlari xunuk ko‘rinib ketdi. Avzoyi buzuq Mejenin «hih» deya chapdastlik bilan stulga yopishdi-yu, Nikitinga qarab otdi. Nikitin chaqqonlik bilan o‘zini chetga olishga ulgurib, qotib qolayozgan barmoqlari bilan to‘pponchasi qinini timirskiladi.

Stul eshik kesakisiga tegib, qandaydir to‘mtoq va qattiq narsa Nikitinning yelkasiga urildi. Nikitin yelkasini og‘ritgan narsa nima ekanligini ko‘rishga ulgurolmadi. Oyog‘i singan stul polga taraqlab tushdi. U Mejeninning stulni otgach g‘azabdan xunuklashib ketgan basharasini ham ko‘rolmadi. Nega deganda, hammasi ostin-ustun bo‘lib, ko‘z oldini askarlar shovqini aralash oppoq tuman to‘sib qo‘ygandi. Nikitin yerda yotgan beso‘naqay, qattiq narsaga qoqilib ketdi. Shundan keyin to‘pponchasini bir amallab qo‘liga oldi-da, oqish tuman ichra negadir odam qiyofasi emas, balki og‘zini kapalayotgan xunuk baliqqa o‘xshab ko‘rinayotgan basharani nishonga

olib ikki marta o'q uzdi. Xonani poroxning achchiq tutuni tutib ketdi...

– O'rtoq leytenant! O'rtoq leytenant!..

«Tamom!» xayolidan o'tkazdi Nikitin negadir birdan xotirjam tortib. U nima ish qilib qo'ygani, hozirdan e'tiboran hayoti butunlay o'zgarib ketishini yaxshi anglab turar va tevaragidagi odamlarning shovqin-suroni, to's-to'polonlarini ham, askarlar stolning o'ng tomonida, deraza tarafda kuymalanayotganlarini deyarli ko'rmas, gangu qolgan Ushatikov, Tatkin, Zikinlarning yuzlari, tuman orasidan chiqqan tanish va notanish askarlarning qiyofalarini ham g'ira-shira ilg'ardi. Nikitin qattiq hayajon ichida go'yo bu hozir eng zarur ishday qo'lidagi sirpanchiq temir parchasi – «TT» to'pponchasini zo'r berib qiniga joylashga urinar, lekin dam qinni topolmas, topganda ham joyiga sololmasdi.

Nihoyat, to'pponchani joylay olmagach uni cho'ntagiga solib qo'ydi. Shunda quruqshagan lablari xayoliga kelgan va endilikda qilinishi lozim bo'lgan ishni shivirladi:

– Zikin... o'nimga qolasiz... O'zim hoziroq borib xabar qilaman.

Nikitin go'yo uzoqdan taajjublanib tikilayotgandek ko'ringan Zikinning javobini eshitmadi-yu, biroq o'zini hech kim ushlamagani, to'xtatmagani, qurolini tortib olmagani, qoramagani, beixtiyor yo'lakka chiqqani va u yerdan tashqari eshikka, chamasi, toza havodan nafas olgani yo'nalgani, o'sha damda orqadan askarlarning shovqin-suroni eshilib turgani (ortidan kimdir leytenant serjantni otdi, yo o'ldirdi, yo yarador qildi, deb bidillard) esida edi. U toza havo, ko'm-ko'k o'tloqda charaqlayotgan oftob sari eshik ocharkan, ortidan qadam tovushlari, buyruqnamo hayqiriqlar («qani, qayerda?») eshitildi, yo'lakni yana qadam tovushi va kimningdir boshiga ko'tarib solgan ovozi bo'lak ovozlarni bosib ketdi:

– Nikitin! To'xta! To'xta!

Nikitin ostonadan o'tib, qarag'aylar soyasi tushib turgan ola-bula tosh yo'lakni bosib borarkan, o't-o'lanlarning chuchuk hidi ko'ksini to'ldirdi. Shu payt gupillab urayotgan yuragi to'xtab qolayozib, ro'parasidagi o'tloq nazarida qorayib ketgandek bo'ldi.

– Nikitin, to'xta!

U orqasiga qaramadi. Quloqlari hamon g'uvillard.

– Nikitin, to'xta, buyuraman! To'xta!..

Granaturov etigini do'qillatib, harsillab yetib keldi-da, Nikitinning yelkasidan ushlab qattiq tortdi. U qo'rqinchli vajohat bilan dam Nikitinning ko'zlariga, dam yechilgan qiniga savolchan qarab o'shqirdi:

– Nima gap? Nima qilib qo'yding, Nikitin? Otdingmi? Nimaga? Esing joyidami? Nima bo'ldi senga? Quroling qani? Qayerda quroling?

– Meni qamashingiz mumkin, kombat, – dedi Nikitin. – Qamayvering. – Nikitin bamaylixtor kamarining to'qasini yechdi. – Menimcha, kamar bilan... pogonlarni ham yechish kerak-a? Hibs haqidagi xat bilan soqchi ham kerakdir?

– Qayerda?.. Quroling qayerda, deb so'rayapman? To'pponchang qani? Jim bo'l, ovsar, ahmoq, badbaxt mushketyor!..

Granaturov bahaybat gavdasi bilan Nikitinni yo'lakdan eshitilayotgan shovqin-suron, yugur-yugur, to's-to'polondan to'sib, tirsagida turtib, tizzasi bilan itarib devor tomonga siqib borarkan, bo'm-bo'sh qinni ushlab ko'rdi, so'ng galife shimining cho'ntaklarini paypaslab, o'ng cho'ntagidan to'pponchani oldi. Uni o'zining cho'ntagiga solgach, darg'azab o'shqirdi:

– Nima qilib qo'yding? Uni nega otding? Nima qilganing bu? Nima? Nima ish qaytarganingni bilasanmi, bolakay? Xayoling joyidami o'zi? Knyajkoga o'xshamoqchi bo'ldingmi? O'zingni badnom qilmoqchimisani? Haqiqat yo'lida jaf o'chekmoqchimisani? He, sendaqa shaytonvachcha ziyolidan o'rgildim!

– Yo'q. Unday emas, kombat...

– Unday bo'lmasa, qanday? Qani! Oldimga tush! – Granaturov yelkasi bilan yonlamasiga Nikitinni turtib, o'shqirdi. – Qani! Uyga yur! Orqaga! Seni hibsga olaman! Uyga dedim, leytenant Nikitin! Kamar va pogonlar yechilsin! Tatkin, avtomatingni olib, bu yoqqa kel!

Shundan keyin tinchib qolgan uy yo'lagidan o'tib borisharkan, xuddi kech tushganday qorong'i va askarlarning yuzlari arang ko'rinayotgan devor yonida bo'sh qinli kamarini yechib, pogonlarini oldi-da, kimningdir indamay cho'mich kabi ochilgan (cho'michga o'xshaydi-ya, deb hayron ham bo'ldi) kaftiga tashladi. Shu yerning o'zida – yo'lakda, oshxonaning lang ochiq eshigidan qulog'iga bir xildagi cho'ziq, ayanchli ingroq chalinganday bo'ldi. So'ngra, Gal-

yaning buyruq ohangidagi: «Shinelni boshiga qo'ysalaring-chi!» degan ovozi eshitildi. Nikitin shundan so'ng xonaning yorug' tushib turgan burchagi, o'zi o'q uzgan tomonga qaradi... U yerda Zikin bilan Ushatikovning o'rtasida Galya boshini eggancha tishi bilan dori-darmon xaltachasini yirtar, stollar to'sib turgani uchun yerda yotgan Mejenin yo'lakdan ko'rinmasdi. U ingrardi. Shunda Nikitinning vujudi zirqirab ketdi. Nahotki bu Mejenin bo'lsa? Nahotki o'sha?

Yo'q, bundan bir necha daqiqa oldin jazavasi tutib, o'zini hi-moya qilish, hammayoqning dabdalasini chiqarish uchun quturib ketgan, Nikitin bilan katta serjant Zikinga xezlanib stoldan sanchib turgan Mejenin bunchalar ayanchli, umidsiz ingrashi mumkin emas. Mejenin ko'zi qonga to'lib, telbalarcha bo'kirib («Suyaklaringgacha g'ajiyman») Nikitinga otgan stuli tegmaganidan keyin vzvoddagilarning polga taxlab qo'yilgan avtomatlari sari tashlandi.

«Yo'q, u bunday ingramaydi, bu xato, u Mejeninmas, u emas...»

– Uni gospitalga jo'natinglar! Tez jarohatini bog'lab, mening mashinamda gospitalga jo'natinglar! – Nikitinning orqasida turgan Granaturov ochiq eshik tomonga qarab baqirdi-yu, so'kinib buyrug'ini o'zgartirdi: – To'xtang! Mensiz jo'natilmasin! Jo'natilmasin! U bilan o'zim boraman! Uni mashinamga olib chiqib, meni kutib turinglar! Qani, yur, oldimga tush! – u Nikitinni darg'azab qiyofada oldinga itarib, shoshirdi. – Tez, tez bo'l deyapman!

– Faqat... Iltimos, menga baqirmasangiz, kombat! – dedi Nikitin zo'rma-zo'raki osoyishta gapirishga harakat qilib. – Men istagan joyingizga boraman... polk shtabiga ham, smershga ham, xohlagan joyingizga boraveraman...

– O'chi-ir! Hali menga maslahat ham berarsan! – baqirdi ortdan kelayotgan Granaturov, u yo'lakning oshxonadan keyingi nimqorong'i joyiga yetganlarida Nikitinning yelkasidan mahkam ushlab, boloxonaga olib chiqadigan zinapoya tomonga itardi. Boloxonada esa Nikitin turadigan xona bor edi. – O'sha yoqqa! Yuqoriga! Qamab qo'yilsin! Tatkin! Qamab qo'yib, qo'riqlansin! Eshik oldidan bir qadam ham jilmanglar, hech qayoqqa chiqarilmasin! Tushunarlimi? Boshingiz bilan javob berasizlar-a!

– Bekorga xavotir olyapsiz, kombat, – dedi Nikitin zinaning oldida nima qilarini bilmay turgan, qovoq-tumshug'i osilib ketgan

ushoqdekkina Tatkinga ko'zi tushib. – Hech qayoqqa qochib ketmayman. Keragi yo'q.

Nikitin hibsga olinib, xuddi hukm o'qilgan mahbusdek Tatkin soqchiligida xonasi tomon ko'tarilar ekan, ko'ngli o'ksib o'zini benihoya xo'rlangandek his etdi va so'ngsiz alam bilan oftob nuri qiyalab tushayotgan yuqoriga, kunduzgi yorug'lik o'tayotgan, chang bosgan kichkina derazaga qaradi. Shunda ko'ziga bir sharpa ko'ringanday bo'ldi: zinapoyaning yuqoridagi maydonchasiga qaragan qiya ochiq eshikdan oppoq ko'lanka sirg'alib o'tdi-yu, shu zahoti eshik yopildi, ichkari tomondan kalitning ohista buralgani ham eshitildi.

Nikitin xonasiga kirgach, ostonada qolgan Tatkinga yarim o'girildi. Tatkin devorga tikilib turganini ko'rib, unga: «Bo'pti, qo'riqlayvering...» deb qo'ydi. Va eshik yopilishi bilan oyog'i o'ziga bo'ysunmay tizzasidan bukilib ketdi. Nikitin to'shakka o'zini yuztuban tashlab, alamli shivirladi:

– Tamom bo'ldi. Hammasi tamom bo'ldi.

Eshik kalit bilan tashqari tomondan qulflanib yoqimsiz ovoz chiqardi. Boloxonaga jimlik cho'kdi. Pastdan odamlarning g'o'ng'ir-g'o'ng'iri elas-elas eshitilar, ularning nimalarni gaplashayotganlarini anglab bo'lmasdi.

## O'N UCHINCHI BOB

«Amakijo-on!»

Chap qirg'oqdagi pulemyot tarillab, muzga tekkan o'qlar uchqun sachratdi. U tirsaklarini muz teshigi chekkalariga tirab, boshini engashtirdi. Kamari mavjlanayotgan suv sari tortilayotgani uchun yo'g'on tor kabi lopillar, narigi uchidagi juda salmoqli nimadir uni tortib ketmoqda edi. Shtokalov o'lim talvasasida suvdan bir qalqib chiqqanida ko'zlari oppoq, og'zi esa qiyshayib ketganidan nimalarnidir xirilladi-da, yana teshik tubida ko'rinmay ketdi. Nikitin o'sha tomonga, muz teshigiga qarab surilib borar, qo'liga bog'lab olgan kamari temir tayoqday og'irlashgandi. Sovuq suvdagi qandaydir noma'lum, dahshatli va sirli qudrat Nikitinni qo'liga mustahkam o'rab olingan tasmadan tortqilab, sudrab borardi. Nikitin qarshilik ko'rsatar, tanasidagi bor kuchini to'plab, muz teshik tu-



bida ko'rinmay ketgan tanani yuqoriga tortar, o'zi esa qorni bilan juda sovuq va qop-qora suv tomon sirg'alib borayotganini sezardi. Uni tutib qoladigan hech narsa ko'rinmas, tasma sal nariroqdagi bug'i chiqib turgan muzli teshik tomon tobora tezroq sudrardi. Nikitin banogoh o'ng tomonida, tirsagi yaqinida katta, taram-taram olabug'a baliqni ko'rib qoldi. Portlash zarbi baliqni suvdan itqitgan, u oyquloqlari ochiqligicha muz orasida qolib ketgandi. Nikitin qarasa, o'shandan boshqa tirsagini tirab qoladigan narsa yo'q. U tirsagida bir surilgandi, kamarining qattiq to'qasi kaftini ustaraday tildi. Shtokalov esa suv tubidan kamarni tortar, qattiq-qattiq siltardi. Nikitin muzlagan baliqqa yopishgandi, u ham qars-qurs qilganча sinib, parchalanib ko'ksi ostida qolib ketdi.

Shundan keyin qishning ko'ngilni ozdiradigan bemaza muzdek suvi yuziga urilib, og'ziga, burniga kirdi, oldindagi g'ira-shiralikda qandaydir omonat qora sharpalar ko'rindi. Ular o'tkir qisqichlarini shay qilib turgan och qisqichbaqalarga o'xshardi. Qisqichbaqalar chor tomondan Nikitin tomon ildam o'rmalar, bir-birlariga urilganlari uchun g'ijirlagan ovoz chiqar, shineli ostida g'imirlashar, qorniga yopishib, qattiq azob berardi...

Nikitin o'z ajalini bir lahza ana shunday tasavvur qildi. Xayolan kamarni qo'lidan chiqarmaslikka so'nggi bor urinib, ko'tarilib borayotgan to'lqinda deyarli g'arq bo'lgan bo'lsa-da, tarillagan pulemyotning boshi uzra vizillab uchgan o'qlaridan o'ziga keldi. Pulemyot narigi qirg'oqdan pastlatib o'q yog'dirardi. Nikitin muz teshigining naq og'zida ingrab, suv qusib yotar, muz qirib, qontalash bo'lgan qo'li qotib qolganiga qaramay benihoya yengillashgan kamarni hamon qo'yib yubormasdi. Tinchib qolgan suv betida mayda muz parchalari bir-biriga g'ijir-g'ijir urilar, Nikitin bilan Shtokalovning qalpoqlari muz sathida kosalar kabi suzardi. Shtokalovning eski askarcha qalpog'ining ichkari tomoni terdan sho'ralagan, uddaburon egasi unga igna qadab, ipini o'rab qo'ygandi.

Shtokalov... Bu qachon bo'lgandi? Qirq ikkinchi yili Stalingrad yaqinidagi Aksay daryosida ro'y bergandi. Nikitin kechga yaqin shtabdan yuborilgan Shtokalov degan notanish aloqachi bilan buyruq punktiga ketayotgandi. Shtokalov sergaproq qishloq yigiti bo'lib, odimlashi chumchuq yurishini eslatardi. Ikkovi yarim soat yurganlaridan keyin Aksay o'zanida nemis pulemyotchisiga duch

kelib, oldiniga o'zlarini muzga tappa tashlashdi, emaklashdi. Keyin qirg'oq panasiga o'tishdi. Shtokalov o'shanda chamasi ertalab katta snaryad tushganda hosil bo'lgan va ustini yupqa muz bog'lagan joyga to'g'ri kelib qolgandi.

«Nimaga Shtokalovni o'ylayapman? Bu tush emas, garchi uxlash kerak bo'lsa-da, ko'z yumolmayapman, go'yo kechagina bo'lganday hammasi esimda... O'sha joyda ikkita qalpoq suzib yurar, demak, o'shanda o'zim ham nobud bo'lishim mumkin ekan-da? Shtokalov halok bo'ldi, men esa tirik qoldim... U muz yorilib, suvga g'arq bo'layotganida nega: «Leytenant!» deb emas, qishloqchasiga g'alati qilib: «Amakijo-on!» deb baqirdi. Go'yo urush emas-u, muzlagan daryo ustidan qo'shni qishloqqa ketishayotganday Shtokalovni tushib ketgan joyidan tortib olishga kuchim yetmadi, nimaga buni qilolmadim? Jitomirdagi qurshovdan saninstruktorni ham olib chiqolmagan, saqlab qololmagandim. Uning ismi nimaydi? Jenya edi shekilli?.. O'shanda ham kuchim yetmagandi... Kecha Knyajkoni to'xtatib, yalanglikdagi xatardan ogoh qilishim mumkinmidi?.. Biroq qaysi paytda? Qanday? Knyajko avtomatdan uzilgan o'qlardan keyin tizzalab qolganini sira ham unutilmayapman. O'shanda u nimaga yuzini g'alati silab qo'ydi? O'sha dam xayolidan nimalar o'tdi ekan?»

Nikitin kun bo'yi oftob tushib turgani uchun kechga yaqin dim bo'lib ketgan boloxonadagi o'rnida mudroq aralash terlab yotar, qulog'iga yurak urishigacha eshitalardi. Esiga o'zini himoyalovchi so'zlar kelmas, o'zini oqlashga, aybini yuvishga yordam beradigan sabablarni topishga harakat ham qilmas, negaki birov o'layotgan so'nggi lahzalarda oshig'ich chora ko'rolmagan, madad berish, ogohlantirishni eplay olmagan uchun o'zidan yozg'irardi. U ana shu ojizligini, iztirobga solayotgan gunohini azbaroyi katta deb bilgani uchun qop-qora suvli muz teshigidan Shtokalovning jon talvasasidagi yuzi qalqib chiqqani, «Amakijo-on!» deb baqirgani sira ko'z oldidan nari ketmayotgandi. Jenyaning ayanchli yumilgan namxush kiprikklarida bahorgi chumolilar o'rmlayotgani, Knyajkoning bir tutam sarg'ish sochi oppoq chakkasiga tushib turgani ham ko'z oldiga kelganida Nikitin alamli ingrab, tishlarini g'ijirlatdi. U mudroqlik changalidan qutulmoqchi bo'ldi. Shu payt ko'z o'ngida sarg'ish tuman lipillab, bulut yanglig' sirg'aldi, so'ng kimningdir sovuq basharasi

paydo bo'lib, boshqalarning yuzlarini to'sib qo'ydi. Haligi bashara ancha xira ko'rinsa ham tishlarini sovuq irshaytirardi. Keyin u of-tobli deraza tomon surildi-yu, Nikitinning tepasidan qip-qizil o'qlar vizillab uchib o'tgandek bo'ldi, turli shovqinlar eshitilib, birozdan so'ng sukunat cho'kdi. So'ng qulog'iga vahima ichidagi notanish ovoz chalindi: «Leytenant Mejeninga o'q uzibdi! Nahotki o'ldirgan bo'lsa?..»

Nikitinning nazarida u uxlab, faqat bitta tushni ko'rayotgandek bo'lar, ayni paytda o'ngidagiday omonat mudroq mavjida suzib, bu alahsirashdan qutulolmay qiynalar, ana shu narsa ko'z o'ngini qora parda yanglig' to'sib olgandi.

«Bunchalik vahima ko'tarayotgan kim? Kim haqda gapiryap-ti? Qanaqa leytenant? Yo'q, bular tush emas. Bari, o'ngimda sodir bo'ldi. Men oshxonaga kiruvdim chog'i, qo'limda to'pponcha ham bor edi! Bundan chiqdi, Mejeninga o'q uzibman-da. Men otdim... Oshxonadagilar nonushta qilib o'tirishardi. Hamma bor edi... Endi javob beraman. Qilmishim uchun. Keyin nima bo'ladi? Harbiy sud bo'ladi, unvondan ajrayman, jazo bataloniga jo'natishadi, gunohim-ni qonim bilan yuvamanmi? Ha, jinoyat qildim. O'zimni oqlashga haqim yo'q, uni men o'ldirdim... U ingrayotgandi. Yarasini bog'lab qo'yishdi. Ha, men hibsdaman, mana endi, qayoqqadir eltishlarini kutib yotibman. Nachora, o'zim ham bilaman... boshqacha yo'l tu-tishim kerak edi. Lekin boshqachasi qanday bo'lardi? Nahotki unga achinayotgan bo'lsam? Yoki shunday bo'lishi kerakmidi? Unda nega? Nimalar qilganimni negadir yaxshi eslolmayapman. Ayb kimda? Mendami? Undami? O'zimni himoya qildimmi? Barchasini shunchaki unutib ketolmadimmi?»

Nikitin o'ng qo'lini to'pponcha qiniga yuborib, uni olib, xona-dagi oqish tumanga o'q uzgunga qadar kechadan beri ko'ziga juda xunuk ko'rinib qolgan bir kishi timsolida sotqinlik, qo'rzoqlik, soxtalikni jazolab aqlli ish qilayotganiga, bu adolatli hukm bilan butun batareyani qutqarib qolayotganiga shubha qilmagandi. Bir daqiqadan keyin Granaturov uni o'tloqda to'xtatib, hibsga olga-nida, so'ng aybdor sifatida yo'lakdan o'tayotib yaradorga yordam ko'rsatayotgan Galyaga ko'zi tushganida, stollar panasida yotgan Mejeninning ingrayotganini eshitganida avvaliga ko'rishga tobi to-qati yo'q bu odam insonday azob cheka olishiga nshonmagan, vu-

judini nimadir kuydirib o'tganday bo'lgandi. Ha, Nikitin Mejeninni o'zicha sud qilib, hukmni ijro etgach, undan keyin nimalar bo'lishini (qamoqqa olinishi, tribunalga tushishi, jazo bataloniga yuborilishi) bilardi. Yo'q, bu o'ch olish yoki shaxsiy adovat emasdi, mutlaqo unday emas. Aksincha, Nikitin nazarida o'zini ham, Knyajkoni ham, butun batareyani ham jirkanch va iflos kimsadan tozaladim deb o'ylagandi. Lekin o'q uzgan odamining og'riqqa chidayolmay ingrayotganini eshitganida oniy pushaymon va achinishdan gangigan, o'shanda xayolidan: «Bunday qilishga menga kim huquq berdi?» degan fikr o'tgandi.

Nikitin hibis qilinganidan so'ng qulflog'liq, soqchi qo'riqlab turgan dim boloxonada yolg'iz o'zi yotarkan, nimalar bo'lganini, Mejenin bilan munosabati yomonlashib borganini birma-bir esladi, bunda bir alamini ikkinchisi bilan bosishga harakat qildi. Shunda mudrabmi, alahsirabmi, o'sha la'nati yalanglikda ko'kragini avtomat o'qlari teshib o'tganda Knyajko qanday og'riqni his qilgani, uning o'limiga esa to'pdan buyruqsiz, bemavrid o't ochib, nemislarni hurkitib, ularni javob o'qi uzishga majbur etgan Mejenin aybdor ekanligini o'ylardi. Nikitin huv o'shanda, Aksay daryosida ham, Jitomir qurshovida ham safdoshlari o'lganida ko'p narsada o'zini qandaydir aybdor sanagan, agar kechagi xotirlash marosimi, Andreyning xati va Granaturovga chaquv bo'lmaganda, bu yog'i ham mubhamligicha qolaverar va Mejeninning barcha qilmishlari jangda ko'rsatgan jasorati sifatida yuvilib ketarmidi...

«Qabohat, razillik! Ha, men unga achinmasligim kerak, u achinish, rahm-shafqatga arzimaydi. Men qilishim lozim bo'lgan ishni bajardim. Shunday qilishim kerak edi. O'zi hammasi shunga qarab borayotgandi. Buning boshlanganiga ancha bo'lgandi. Biroq voqealar shunga qarab borayotgandi! – Nikitin ahvoli tangligi, taqdirini tamomila o'zgartirib, abgor qilib yuboradigan jazoga mustahiqligini bilgani uchun shularni o'ylagani o'ylagan, qilmishini eslaganida yuragi zirqirab ketardi. – Men shu ishni qildim... Buni o'zim xohladim. Mayli, bu yog'i bo'lganicha bo'lar!..»

Iztirobda qora terga botib ketgan Nikitin birdan ko'zlarini ochib, xuddi hozirgina kurash tushgan odamday nafasini rosladi.

Xona qorong'i, oqshomgi paytdagi kabi emas, go'yo tun cho'kkanday borliq osuda, hamma yerda sukunat hukmron, pastki

qavat ham, boloxona eshigining naryog'i, tim qora deraza orti ham jimjit bo'lib, tiq etgan tovush, biror kimsa ovozi eshitilmasdi.

«Endi vaqt o'tdi, afsus-nadomat qilishga haqim yo'q! – Nikitin uy sukunatiga quloq tutib o'ziga-o'zi shunday dedi-da, uvishgan oyoqlarini (etigini yechmagandi) karavotdan pastga tushirdi. So'ng tavakkal eshik tomonga, chamasi soqchi kun bo'yi qimirlamay turgan yoqqa qarab yurdi, ammo joyiga qaytdi va yana eshikka bordi. – Nega bunday qilishyapti? Nega cho'zishyapti? Tezroq, faqat tezroq bo'la qolishsaydi!»

Oyoq tagidagi polning eski taxtalari qisirlar, qadam tovushlari va kamarsiz gimnastyorkaning hilpirashi esa nafas olishi hamda yuragi dukur-dukurini bosib ketardi. Nikitin ertalabgacha vaqtini qanday tezroq o'tkazishni bilolmay tek qotdi. Ertalab hammasi oydinlashishi, qat'iy va aniq hal bo'lishini tushunib turardi.

«Soat necha bo'ldiykin?» U qo'l soatini derazaga yaqinlashtirib, sinchiklab tikildi. Deraza picha yorishibroq turardi. Soat oynasi moviy tovlanib, yaltirasa ham raqamlarni ilg'ash mumkin: o'n ikki bo'lgandi. «Ertalabgacha nima qilsam ekan? Uyqum kelmeyapti...»

Uni qorong'i boloxonaning issiqligi, hamon dimligi qiynardi. Nikitin deraza tabaqasini ochib, rafiga cho'kdi. Pastdan mayin va xushbo'y is kelardi. Bog' to'sig'idan naridagi olmalar oppoq gullagandi. Tun endi boshlanayotgan, oy hali chiqmagan palla edi. G'arb tomondagi, o'rmonlar ortidagi ufqdan anchaga cho'zilgan shafaq ketib, ko'kimtirroq tusga kirgan bo'lsa ham cheksiz osmonning qora tubini yorishtirib turar, may oyida yuksak ko'rinadigan yulduzlar to'p-to'p sho'xchan jilva qilardi. Hamma joyda – uylar atroflari, shaharning uchli tomlari ko'lkalarida, siyrak yulduzlar aks etayotgan ko'l va o'ziyurar to'plar hujum qilgan o'sha qarag'ayzor chekkasida ham noxush sukunat hukmron edi. Faqat bir tomonda, batareya mar-rasi bilan ko'l oralig'idagina allaqanday tungi qush muttasil chiyil-lab sayrashini qo'ymas, nemislarning osuda shaharchasi chekkasida-gi so'lim va huvillagan maysazordan bir xilda eshitilayotgan bu sado Nikitinga tasodifiy, tosh imoratlarga to'la Germaniyadagi shaharcha-ga adashib kirib qolganday tuyuldi.

«Tartarqush sayrayotganga o'xshaydi. Bu yerga qanday kelib qoldi ekan-a?»



Nikitin sigareta xumorida cho'ntaklarini kavlashtirib, bo'sh qutini oldi-da, qo'lida g'ijimladi. Chunki kunduzi o'rinda yotib oxirgi sigaretani chekkandi.

Shundan keyin u o'zini chalg'itish uchun sof havoda yuvina-yotganday peshanasini qattiq ishqaladi, so'ngra zarurati bo'lmasa ham zajigalkasini chiriqlatib yoqib-o'chirdi-da, ovozini chiqarib: «Tamom!» deb qo'ydi. Banogoh eshik ortida eshitilgan ovozdan cho'chib tushdi:

– O'rtoq leytenant!

– Kim? Nima? – u deraza rafidan sakrab tushdi-da, apil-tapil zajigalkasini yoqib, eshik tomon uch-to'rt qadam tashladi.

Eshikning narigi tomonida kimdir etigi bilan polni qisirlatib yurdi, yo'taldi va picha o'tgach, asta shivirladi:

– O'rtoq leytenant, yoningizda odam bormi, deyman? Kim bilan gaplashyapsiz?

«E-e, soqchi-ku!.. Alahsirayapmanmi, deb o'ylabman».

Nikitin zinapoya maydonchasidan arang eshitilgan bu ovozni tanib, qo'lida yoqilgan zajigalkasi bilan eshikka yaqinlashdi-da, o'zi ham shivirlab so'radi:

– Ushatikovmisiz? Tatkinni bilan almashdingizmi?

– Ha, menman, o'rtoq leytenant. – Ushatikov jimib qoldi, keyin xo'rsinibmi yo burnini qattiqroq tortibmi, ohista dedi: – Menman, Vanya Ushatikov, askaringizman...

– Batareyada nima gap, Ushatikov? Nega hammayoq jimjit?

Nikitin shunday dedi-da, jim qolib, yelkasi bilan eshik kesakisiga suyandi, chakkasini esa eski bo'yoq hidi kelib turgan yog'ochga bosdi. Tashqarida, zinapoya maydonchasida, qulflangan eshik oldida o'zining askari, o'n sakkiz yashar Ushatikov turar, ikkovining o'rtasida chegara bo'lib turgan eshik unchalik qalin bo'lmasa-da, ayni damda ularning yaqin munosabatlariga g'ayritabiiy va adoqsiz raxna solib turardi. Vzvoddagilar orasida eng yoshi bo'lgan Ushatikov oldingi marraga bultur qishda, Polsha hududida bo'lib turganlarida kelgandi. Bo'yni nisbatan uzun, ilk janglardan keyin xam pishiqroq bo'lolmagan Ushatikov urushdagi har bir narsadan hayratlanar, kabutarnikiga o'xshagan ko'zlari anqovsirab boqar, zavqi kelganda erkaklarga xos bo'lmagan qiliq bilan qo'lini beliga urib, oh-oh deb qo'yardi. U Nikitinga juda ma'qul tushib qolgandi.

Boshqalar uni doimo kalaka qilsa-da, Vanya o'zini samimiy tutar, xushfe'l, xushaxloq, kim nima desa chippa ishonar, shuning uchun ham vzvoddagi pixini yorgan askarlar Ushatikovni laqillatib, mudom ustidan kulib yurishardi.

– Demak, hamma uxlayotgan ekan-da, Vanya? – dedi Nikitin yana tortinchoq Ushatikov bilan o'rtasidagi suhbat, uning etigini to'qillatib yurishi va xijolatda yo'talib qo'yishlari uzilib qolmasligini istab. – Kombat qayerda? Ketdimi?

– Vrach bilan birga Mejeninni gospitalga olib ketdi, ancha bo'ldi, – shivirladi Ushatikov. Nikitin shunda Ushatikov maxfiy gap aytish uchun eshik tomon bo'yin cho'zganini taxmin qildi. – Pastda hech kim uxlamayapti shekilli. Shunchaki yotishibdi... Uyg'oq. Kata serjant Zikin nuqul siz bilan Mejenin haqida gapiryapti...

– Nimalarni gapiryapti?

– Bu ishni chakki qildi, deydi, o'rtoq leytenant... vzvoddagilar sizga achinishyapti. Juda bosiq odam edi, deyishyapti. Endi nima qilasiz? Sud qilib, jazo bataloniga jo'natishadimi yoki boshqa chora ko'risharmikin? Biror yoqqa jo'natishsa kerak. Mejenin yosh umringizga jabr qildi-da. Falokatni qarang-a! Granaturov ketayotganida hammaga, batareyada bo'lib o'tgan bu ishdan birovga og'iz ochmaysanlar, deb qattiq tayinlab ketdi. Judayam tutoqqandi... Rosa so'kindi. Eh, nega bunday qildingiz-a?

– Bo'lar ish bo'ldi, – dedi Nikitin Ushatikovning ayollarday achinib ketgani-yu, vzvoddagi gaplarni soddadillarcha yetkazganidan sal ensasi qotib. – Bu ancha murakkab, chigal masala.

– Har holda siz uchun juda yomon bo'ldi-da, o'rtoq leytenant! – dedi eshik ortidagi Ushatikov. Nikitin qorong'ida uning qo'rquv va hayratda pirpirayotgan ko'zlarini tasavvur qildi. – Mejenin yaramas, yomon odam. Telba, xullas. Zaharli ilondek sudralib yuravermasmi-di, sizni chaqolmasdi-ku baribir. O'zimizning odam tugul nemisni o'ldirish ham dahshat-ku. Men uyda oyim buyurganida tovuqlarni zo'rg'a so'yardim. Shunda ham qo'rqqanimdan ko'zlarimni chirt yumib olardim. O'rtoq leytenant, shu ko'rgilikni sotib olib nima qilardingiz-a?

– Yo'q, men ham bunday bo'lishini xohlamovdim, – Nikitin qovog'ini solib, zajigalkasini yoqdi-da, alangasiga tikildi. – Ha, xohlamagandim. Buni uzoq tushuntirish kerak, Vanya. Qolaversa, tushuntirib ham nima qildim?

– Menimcha esa bu ko'rgulikni o'zingiz xohlab qilganday bo'ldingiz, o'rtoq leytenant. Qamab yuborishsa... vzvodning holi nima kechadi? Sizga o'rganib qoluvdik. Leytenant Knyajko halok bo'ldi. Siz esa manavi falokatga yo'liqib o'tiribsiz. Biz nima qilamiz endi?

– Yangi vzvod komandiri yuborishadi. Urush ham oxirlab qoldi. Hammasi tez orada tugaydi, Vanya. Ishonchim komil.

Eshikning narigi tomoni yana qorong'i tunday tinchidi-qoldi. Ushatikov polni g'ijirlatib yurgani ham eshitilmas, gapirmasdi ham. Nikitin ostonadan narida o'zini, ya'ni vzvod komandirini qo'riqlayotgan Ushatikov mung'ayib turganini, to'satdan ro'y bergan bu dahshatga tushunolmay yurak-bag'ri ezilayotganini ko'z oldiga keltirdi.

«U «o'rganib qoluvdik» dedimi? – ko'nglidan o'tkazdi Nikitin zajigalkasini beixtiyor yoqib-o'chirarkan, ma'yus tortib. – Ha, o'zim ham o'rganib qoluvdim ularga, juda ham o'rganib qoluvdim!»

Ikkovi ham bir muddat jim qolishdi. So'ng Ushatikov birdan qattiq burun tortdi-da, maydonchadan oldinga qarab yurdi. Xonaga uning sarosimali shivirlashi eshitildi:

– O'rtoq leytenant, nimani chirqillatyapspz? Qo'lingizdagi qurolmasmi?

– Yo'q, Vanya, zajigalka. Juda ham chekkim kelyapti. Sigaretam tamom bo'libdi. Sizda chekishga biror narsa bormi?

– Yo, tavba! – deb yubordi Ushatikov, chamasi beliga ham urib qo'yib. – Men bo'lsam chirqillayotgan narsa to'pponchamikin, deb o'ylabman. Xayolimga tag'in alamingizdan o'zingizni otib qo'ysangiz-a, degan fikr keldi! Yo xudoyim-e, menda chekishdan bor. O'lja sigareta. Naq bir quti...

– Mumkin bo'lsa eshikni ochsangiz. Menga bir necha dona bering.

– Nega ilgariroq aytmadingiz? Men hozir... Ilgariroq aytganingizda-ku, men albatta... Hozir kalit solay, faqat sekinroq gapiring, o'rtoq leytenant, xo'pmi?..

– Oching.

Kalit sekin g'ijirlab aylandi, so'ngra eshik ochilib yuqorisida yulduzlar yog'dusidan moviy tus olgan dumaloq darchasi bor qorong'i zinapoya maydonchasidagi Ushatikov Nikitin tomon eran-qaran yurdi. Nikitinning ko'zi uni arang ilg'adi. Ushatikov

taftli qo'lidagi sigareta qutisini Nikitinga tutqazayotib xijolatli g'o'ldiradi:

– Nega avvalroq aytmadingiz-a? Men ko'p chekmayman. Shunchaki nomiga, olihtagarchilikka olib yuraman. Ko'pchilikdan qolmayin deb. Qutisi bilan olavering. Menga kerak emas...

– Rahmat.

Nikitin sigaretani paypasladi, zajigalka alangasi yosh Ushatikovning hayrat to'la yuzini qizg'ish yoritdi. Ushatikov nimanidir ko'rmoqchiday ko'zlarini pirpiratar, ingichka bo'yni yanayam cho'zilib, gimnastyorkasi yoqavayron edi. Zinapoyaning tor maydonchasi dim, pastki qavatdan ham hovur ko'tarilardi.

– Balki birgalashib chekarmiz, Ushatikov, – dedi Nikitin. Keyin Ushatikovning quroli yo'qligini ko'rib kulimsirab so'radi. – Xo'sh, avtomatingiz qayerda? Nega meni quolsiz qo'riqlayapsiz?

Nikitin sigaretasini yondirib olsa ham zajigalkasini o'chirmay, Ushatikovning qalin lablariga qaradi. U hozir ancha quvnoq va xotirjam ko'rinardi.

– Avtomatim burchakda edi... kechirasiz, o'rtoq leytenant, – g'udrandi Ushatikov. Etikli oyog'i tovush chiqarmasligiga harakat qilib, picha turgach, gapni boshqa yoqqa burib yubordi: – Nemislarning bu mushugi juda bo'lmag'ur ekan, kecha pastdan chiqqanidan beri xuddi o'z uyiday qulay joylashib olib o'zimizning mushuklarday xurillab uyquni uryapti, shayton, juda parvoyi falak. Mendan hech ayrilmaydi, – Ushatikov muloyimlik bilan qo'shimcha qilarkan, oyog'i tagiga qarab qo'ydi. – O'zicha xur-xur qilib yotibdi. Xuddi egasini topib olganday xotirjam. Shu yerda men bilan birga, bexos bosib olmayin, deb qo'rqaman ham.

Nikitin mushukka qiyo ham boqmay, zajigalkasini jimgina Ushatikov sigareta yondirib olishi uchun tutdi-da, keyin o'chirdi. Ikki kovi anchagacha miq etishmadi. Tunning barcha uyquda bo'ladigan bunday paytida uydan hech qanday sas-sado eshitilmasdi.

– Yo xudoyim-ey, yo xudoyim-ey, – Ushatikov yo'talini arang bosib, g'amgin shivirladi. – Qo'rqmayapsizmi? Endi ertalab nima bo'larkin-a, o'rtoq leytenant?

– Men urushdan ancha avval qayerdadir, Vanya, qilgan hamma ishlaringga javob va hisob berish kerak, degan so'zlarni o'qigandim.

Ha, hammasiga. Tushunyapsizmi, Vanya? Ilgari men bunga ishonmasdim.

– Qanaqasiga bunday bo'lishi mumkin? – xo'rsindi Ushatikov tushunmaganidan xijil bo'lib. – Mabodo odam faqat yaxshi ish qilgan bo'lsa-chi? Unda nimaga javob berishi kerak? Voy xudoyim-ey, voy xudoyim-ey. Ular yana jimib, sukunat cho'mgan uyda sigareta cheka boshlashdi. O'rtalarida ochiq eshik ostonasigina bo'lib, Nikitin ichkarida eshik kesakisiga yelkasini suyab turar, Ushatikov zinapoya maydonchasida edi. Qorong'ilikda ularning sigaretalari cho'g'lanib turardi. Ana shu ulfatchilik hozirgi vaziyat nechog'lik qaltisligiga qaramay, ikkovini ham bir-biriga yaqin qilib qo'ygandi.

– O'rtoq leytenant, eshityapsizmi? – Ushatikov sigaretasini tortgandi, cho'g'i yuzini yoritdi. Ko'zlari ko'kimtir pirqirab, sigareta ham so'na qoldi. – Doimo shunday... – u burnini tortib, gapini qisqa qildi: – Postda turganimdan beri shuni eshitaman...

– Nima... Nimani gapiryapsiz, Ushatikov? – so'radi Nikitin beparvo.

Ushatikov shundan keyin so'zlarni yamlaganday shoshib shivir-lay ketdi:

– U oyoq uchida eshik oldiga kelib, go'yo uni timdalagandek bo'ladi, keyin nari ketib, eshitib qolishmasin, deganday ovoz chiqar-maslikka tirishib yum-yum yig'laydi, men bo'lsam juda sezgirman... Kombat uni tashqariga chiqarmaslikni buyurdi, u bo'lsa xonasidan chiqishga cho'chiydi, o'rtoq leytenant, unga nimadir kerak. Ne-mis qiz tiyrakkina, chaqqongina bo'lsa ham bizdan naq maxluqdan ko'rqqanday qo'rqadi. Mana, hozir ham eshityapsizmi, o'rtoq leyte-nant, eshikni timdalayotganga o'xshaydi-a?

«Emma, Emma!» dedi Nikitin ichida o'rtanib. U Emmaning qorong'idagi eshigiga tikilarkan, yuzi lovullab, chakkalari qizib, sirqirab ketdi. Ertalab o'zini Granaturov hibsga olib, Tatkin beka-mar, bepogon holda haydab kelayotganida, zinapoyadan bu yoqqa ko'tarilganida eshik tirqishidan oq sharpa lip etganini, so'ngra eshik yopilgani, ichkaridan kimdir tezda qulflab olganini esladi. «Ha, o'sha xonada... Emma shu yerda, yonma-yon, bu o'sha...»

Nikitin hibsga olinganidan beri boloxonada yotib Emmani umu-man eslamagani yodiga tushdi. Axir ertalabki qilmishidan so'ng xayolga boshqa narsa kelarmidi. U Emmani eslab, uning do'rdoq



lablari, jilmayganicha qiya ochilgan. «Vadim» degan ruscha ismi xursand va hayratlangan holda xijolat bo'lgandek aytganida yaltirab ketadigan namxush tishlarining ta'mini sezganday bo'ldi... Biroq muqaddas qonunlarga to'g'ri kelmaydigan qandaydir gunohi kabirga qo'l urayotganday darhol Emma bilan bo'lib o'tgan barcha shirin xotiralarni unutib, xayolidan chiqarib tashlashga urindi.

– Mejenin yaqindagina Zikinga yolg'on-yashiqlarni gapiruvdi, o'rtoq leytenant, – dedi Ushatikov xijolat tortib. – Go'yo siz nemis qiz bilan oshiq-ma'shuq emishsiz. Yolg'onniyam yamlamay yutdi. Qayoqdagi narsalarni gapiradi-ya...

– Yo'q, Mejenin aldamagan, – dedi Nikitin to'satdan. – Men u bilan yaqinman.

Sigareta cho'g'lanib, Ushatikov gangib qoldi. U sigareta tortarkan g'o'ldirab so'radi.

– Buni qanday tushunsa bo'ladi? O'rtoq leytenant... O'rtalaringda sevgi bormi? Yo xudoyim-ey... Chinmi yo hazilmi? Bu qandaysi bo'ldi o'zi?

– Bilmadim.

Nikitin yana g'alati ahvolda qoldi. Ha, albatta, Emma pastdagi o'q ovozlarni, shovqin-suronlarni eshitgan, keyin eshik tirqishidan Nikitin kamari va pogoni yechib olingan holda zinapoyadan haydab chiqilayotganini ko'rgan, ehtimol o'shanda bu ishlarga men sababchi bo'ldim, deb o'takasi yorilgandir. Endi esa yolg'iz o'zi xun bo'lib, goho-goho eshikka yaqin kelib, nima gap bo'lganini bilishga urinib, lekin ochishga botinolmayotgan bo'lsa ajab emas. Negaki zinapoya maydonchasida soqchi hech qayoqqa jilmay qaqqayib turardi. Nikitin ham Emmaga aloqador narsalarni, chunonchi, ikkovi birga bo'lganlarini unutishga uringani, umuman, ularning yaqin munosabatlari o'ziga ham, Emmaga ham jabr bo'lganini (kombat uni tashqariga chiqarimaslikni buyurdi) anglab turardi.

– Ushatikov, – dedi Nikitin birdan botinib. U hozir bir to'xtamga kelgandi. – Ushatikov, menga qarang, sizga bir iltimosim bor, – davom etdi Nikitin, – mabodo xo'p desangiz... nemis qizning bu ishga sirayam daxli yo'q. Biroq u hammasiga o'zim sababchiman, deb o'ylayotgan bo'lsa kerak. Men u bilan gaplashishim, bor gapni aytib qo'yishim kerak. Tushunyapsizmi? Uning eshigini asta tiqillatib.

gaplashaman. Ovozimizni balandlatmaymiz, hech kimni uyg'otib yubormaymiz. Gapimni tushunyapsizmi?

– Qanaqasiga... o'rtoq leytenant, men nima qilay? – Ushatikov shoshilmay qadam bosdi. – Men har holda soqchiman-ku. Ustavni menga o'zingiz o'rgatgandingiz. Endi o'zingiz... buzishga ruxsat etyapsizmi?

«Ha, bu Ushatikov juda ajoyib va sodda yigit-da! Xuddi mendan kechirim so'rayotgandek».

– Tushuning, Ushatikov, men hech qayerga qochib ketmayman, sizga eng keragi shu! Qochadigan joyim ham yo'q! Boshqa gaplarning esa ahamiyati yo'q. Menga ishonasizmi? Yo ishonmaysizmi?

– Nahotki sizga ishonmasam, o'rtoq leytenant? – Ushatikov o'ylab o'tirmay rozilik bildirgan bo'lsa-da, ohangidan ishonqirama-yroq turgani sezilardi. – Lekin nemis qiz bilan aloqangiz borligini bilmovdim, sirayam xabarim yo'q edi...

– Bu muhim, Ushatikov, judayam zarur. U bilan gaplashmasam bo'lmaydi. Hoziroq gaplashishim lozim.

Nikitin zajigalkasini yoqib, zinapoya tomonga qaradi-da, ostondan o'tib, ro'paradagi yopiq eshikka qarab yurdi. So'ngra zajigalkasi yoritgan eshikni asta tiqillatdi-da, shivirlab: «Emma, komm zu mir»<sup>1</sup> dedi. Ammo ichkaridan sado bo'lmadi, shitirlash ham, qadam tovuylari ham, birovning nafas olishi ham eshitilmasdi. Nikitin shundan keyin eshikni yana tiqillatib, ovozini picha ko'tardi:

– Emma, bu menman... Vadimman, Emma...

Banogoh avval hiqillaganga, so'ng esa piq-piq yig'laganga o'xshash ovoz eshitildi. Keyin yig'i kuchayganday va eshik tomon yaqinlashganday bo'ldi, biroq kalit buralib, eshik ochilmadi. Nikitinning qo'lidagi zajigalkaning xira alangasi zinapoya yelvizagida ilang-bilang qilardi. Eshik qiya ochilib, zajigalkaning o'chay-o'chay degan alangasi Emmaning qo'rquv bosgan ko'zlari, yuzining bir tomonga beo'xshov tushgan sochini yoritdi. Go'yo yo'lakdan sovuq kirayotganday Emma ikkala kiftini ushlab olgan, yumshoq lablariyu, qoshlari titrar, ko'zlari yig'idan qizargandi. U Nikitinga xasta, nochor va xunuk ko'rinib ketdi. Nikitin shundan keyin chala soqovday nemischalab, gapini tushuntirishga urindi:

<sup>1</sup> Emma, bu yoqqa kel.

– Emma, alles... alles... alles gut...<sup>1</sup>

Emma bo'shshib Nikitinga tikilib turdi-yu, so'ng boshini chay-qagancha yig'lab, shivirladi:

– Herr Leutnant... Vadi-im! Alles sehr schlecht, sehr schlecht!<sup>2</sup>

Benzini tugagan zajigalkaning alangasi pasayib, keyin o'chdi. Nikitin zajigalkani yoqmoqchi bo'lgandi, uchqun sachrab pilikni qizartirdi, so'ng lop etib bir yondi-yu yana o'chdi. Nikitin so'kinib qo'ydi.

– Jin ursin, benzini tugabdi!

– O'rtoq leytenant... menda bor, – g'o'ldiradi yonida turgan Ushatikov. – Oling.

Nikitin zajigalkani olarkan, paypaslab, uning o'lja ekanligini bildi. Artilleriya snaryadi shaklida Avstriyada ishlab chiqarilgan bunday jaji zajigalkalar Nikitin vuzvodida Berlinga kirmaslaridan oldin paydo bo'lgandi. Nikitin zajigalkani oldi-yu, lekin yoqmadi, go'yo hozirgi ahvolidagi buyruq berishga haqi yo'qligini unutganday xotirjam gapirdi:

– Mening xonamda gaplashsak yaxshi bo'lardi. Shunisi ma'qul, Ushatikov. Mabodo biror gap bo'lsa... yo Granaturov kelib qolsa, xabar qiling... qattiqroq yo'talib qo'ying... Yana sizga pand berib qo'ymayin deyman. Tushunyapsizmi?

Ushatikov qorong'ilikda mug'ambirlik bilan shivirladi:

– O'rtoq leytenant, shu yerdan turib pastdagi tiq etgan tovushni eshitaman. Naq itday sezgirman. Ko'ngilni to'q qilavering. Bir nima bo'lsa ishora beraman.

– Emma... – shivirladi yana Nikitin zajigalkani yoqmay (u ikkovining hozirgi holatini Ushatikov ko'rishini xohlamasdi), qiz unsiz turgan xona eshigini ochdi. Uning belidan paypaslab, nozik qo'lini topdi. Qiz ham yigitning qo'lini mahkam qisdi. Nikitin Emmanni ehtiyotkorlik bilan o'z xonasiga boshlarkan shivirladi: – Emma, Komm zu mir! Komm zu mir! Ruhig, Emma!..<sup>3</sup>

– Vadi-im...

<sup>1</sup> Emma, hammasi... hammasi... hammasi joyida.

<sup>2</sup> Hammasi juda yomon, juda yomon.

<sup>3</sup> Emma, bu yoqqa kel! Bu yoqqa kel! Sekin, Emma.

Ushatkov eshikni yopib, kalitni burashi bilanoq ikkovi ham sabri chidamay bir-biriga otildi. Ular bir-birining og'ushiga singib ketgan, berilib va yutoqib o'pishishardi. Emma ohista yig'lar, bo'sa oralig'ida faqat: «Vadi-im, Vadi-im...» deyishini qo'ymasdi. Nikitin bo'lsa Emmaning ko'z yoshlari ta'mi, yonoqlariga tegayotgan paxmoq sochini sezib turar, o'zi ham labini uning labidan arang ayirib, o'ziga ham tushunarsiz nimalardir der, nafasiga qizning harorati, notekis chiqayotgan nafasi urilardi. Shunda xayolidan, nimaiki bo'lib, boshimga har qanday ish tushsa ham hozir ixtiyorim o'zimda emas, o'zimni to'xtatishga ojizman, degan qat'iy fikr olisdan kuchli shamol to'zg'itib kelayotgan uchqunlarday o'ynoqlab o'tdi. U go'yo Emma bilan ko'pdan buyon, biroq onda-sonda uchrashib yurganday lablariga, ohista chiqayotgan ovoziga, har bir harakatini ilg'ab turgan ko'zlariga cheksiz mehr bilan boqar, bu lazzatni u totigan, qalbiga ham yaqin edi.

– Emma, jonginam, – shivirladi Nikitin Emmani bag'ridan bo'shatmay. U qizning chehrasiga tikilardi-yu, biroq zulmatda ko'rolmasdi. – Nimalar bo'lyapti o'zi? Qanday qilib? Sen bilan men-a? Men rus zobiti, sen bo'lsa nemis qizisan. Mening sira haqim yo'q axir, Emma, jonginam... Men bularning barini o'tkinchi havas deb o'ylagandim... Shunchaki havas. Lekin bunday emas ekan, Emma, shunchaki emas...

Emma Nikitinning bo'ynidan quchib, ko'z yoshini uning yonog'iga artdi.

– Vadi-im, ich sterbe... Ich liebe dich. Ich liebe dich von ganzem Herzen. O, was wird mit uns weiter?<sup>1</sup>

Nikitin bu «wird» va «weiter» degan so'zlarni unutmagan, nemislarning qurollaridagi («Gott mit uns»)<sup>2</sup> degan tamg'alarga ko'zi tushganidan Emma hozir nimani so'raganini bilib olgandi.

– Qaniydi nima bo'lishni bilsam... – dedi Nikitin shivirlab, nihoyatda past ovozda. – Agar meni qayoqqa jo'natishlarini bilganimda ham qo'limdan nima kelardi-yu, sen ham nima qila olarding?

<sup>1</sup> Vadim, men o'laman... Seni yaxshi ko'raman. Jonimdan ham yaxshi ko'raman. O, keyin holimiz nima bo'ladi?

<sup>2</sup> Xudo bizga yor.

Umuman, ikkimiz nima ham qila olardik? – Nikitin beixtiyor ruscha gapirayotganini sezib to'xtadi-da, esiga Geyne she'rini maktabda o'qiganida yodlab olgan bir satri tushdi. – Ich weiß nicht, ich weiß nicht!.. – Emma uning bo'ynidan quchgancha jim turardi... – Sen bu yerda, Kyonigsdorfdansan, men esa Moskva, Rossiyadanman... Biz siz – nemislar bilan urushyapmiz. Qani endi sen ham Rossiya-da yashasang-u, seni o'sha yerda uchratib qolsam edi. Men har doim hayotimda sendek qiz uchrashini istaganman... Nazarimda men seni sevsam kerak, gapimga tushunyapsanmi, Emma, jonginam?.. Seni sevsam kerak...

– O, Vadi-im, mein Lieber... Warum Rußland? Warum?!

Emma titroq barmoqlarini Nikitinning bo'ynidan oldi; noziknihol vujudi ham Nikitinning bag'ridan sirg'alib chiqdi. Emma polga cho'kib peshanasini uning oyog'iga qo'ydi, Nikitin esa gangib qolganidan tili kalimaga kelmay, ildam uni yerdan ko'tarib, shunday mehr bilan og'ushiga tortdiki, qizning vujudi vujudiga butunlay singib ketganday bo'ldi. Ular bir-birining og'ushida qimir etmay turishar, Nikitin bor olamni unutilib qizning ko'z yoshlaridan nam bo'lgan sho'rtang lablaridan tinimsiz bo'sa olib unga hali tushuntirilmagan narsalarini so'zsiz tushuntirmoqchi bo'lardi.

– Emma, Emma, – Nikitin qizning yuzini ko'rish uchun uning yonoqlaridagi to'zigan uzun sochini surib, boshini orqaga tortdi, – shunday bo'lib qolgani uchun meni kechir. Bunday bo'lishini bilmagandim. Ertalab kirib kelganingda xayolimga boshqa narsalar kelgandi! Ayb menda. Qay birimiz aybdor ekanligimizni ham bilmayman. Yo'q, gap bunda ham emas, bunda emas...

– Vadi-im, ich liebe dich, ich liebe, ich liebe!..

Emma Nikitinni mahkamroq quchoqlarkan, tizzasi qaltirardi. Shundan keyin oyog'i chalishib, gavdasining og'irligi tushib, Nikitinni pastga torta boshladi. Emma o'ziga tushunarsiz bo'lgan ruscha so'zlar, Nikitinning bunchalar dildan suyib, erkalayotganidan erib, zavqlanib va yuragi orqasiga tortib ketganday, go'yo u bilan birga yerga yiqilayotganday bo'lardi, bu bilan go'yo sening ixtiyoringdaman, demoqchi edi. U qo'llari bilan ham Nikitinni pastga qarab tortarkan, xonani bosgan benihoya sokinlikda shivirladi:

---

<sup>1</sup> Oh, Vadim, sevgilim... Nimaga Rossiya? Nimaga?



– Vadi-im... Mein Lieber... Vadi-im...

Nikitin Emmaning silab-siypalab, ehtirosli shivirlashi ta'sirida sarxush ekan, birdan bir necha qadam naridagi eshik ortida, zina-poya maydonchasida Ushatikov turganini, buni esdan chiqarmaslik lozimligi esiga tushib hushyor tortdi. U Emmaning quyi egilgan kiftlaridan mahkam ushlab gapirarkan, o'zining ovozi ham qulog'iga arang kirardi:

– Emma, hozir bunday qilmasligimiz kerak. Yo'q kerak emas. Gaplashib olishimiz lozim. Emma, bu yoqqa o'tir. Mana bu yerga, deraza rafiga. Shu yer qulayroq. Nehmen Sie Platz, Emma. Bitte, Emma...

Nikitin Emmani quchgancha deraza oldiga boshladi. U qizni deraza rafiga o'tqazgandi, Emma yigitning nima qilmoqchiligini tushunmadi chog'i, kaftini topib, o'zining ochiq va silliq tizzasiga bosdi-da, harir matodan tikilgan ko'ylagini beligacha ohista ko'tara boshladi. Nikitin ham uning tizzasidan qo'lini olmay, qizning ilhaq lablaridan o'parkan, kuchli ehtirosdan aqlini yo'qotib ko'zlarigacha yumilib ketdi.

– Emma, Emma... •

– Vadi-im, ich liebe dich, ich liebe...

– Menga qara, Emma, – dedi Nikitin benihoya to'lqinlanib. – Bu yerda sen bilishing kerak bo'lmagan bir ish bo'ldi. Chunki bunga sira ham daxling yo'q. Buning uchun sen mutlaqo aybdor emasan. Mutlaqo. Qo'rqmasang ham bo'ladi. Tushudingmi? Men ketishim kerak... ya'ni, ertalab bu yerda bo'lmayman. Shunday bo'lib qoldi. Men leytenant Knyajkoni juda ham yaxshi ko'rardim. Nima ish qilib qo'yganimni o'zim ham bilmayman. Endi seni ham boshqa ko'rolmasam kerak. Kyonigsdorfga yana qachon kela olishimga sira aqlim yetmayapti! Hali jazo batalonida bir amallab jon saqlash, so'ng esa hammasini boshidan boshlash kerak. Mayli... Baribir Stalingrad, Dnepr yoki Berlindagidan battar bo'lmaydi-ku! Urush yaqin kunlarda tugaydi, buni sezib turibman. Kyonigsdorfga endi boshqa kelolmasligimni ham bilaman! Tushunyapsanmi? Hech qachon! Men seni... sevaman, Emma. Sezib turibman... lekin nima qilishni bilmayapman. Shunday bo'lib qoldi, Emma. Lekin bunday bo'lishini istamagandim.

– Vadi-im! Ich verstehe nichts! Wozu Stalingrad? Wozu Berlin?<sup>1</sup>

U deraza rafidan engashib, burnini yigit burniga ishqarkan, xushbo‘y sochi Nikitinning dahanini qitiqlardi. Emma qahvali patnis bilan ishvali jilmayib kirib kelgan o‘sha subhidamda ham sochidan ana shunday xushbo‘y is taralib turgandi.

– Wozu? Wozu? Sprich Deutsch! Ich verstehe nichts!<sup>2</sup>

– Ich weiß nicht, was soll es bedeuten, – dedi Nikitin yodiga kelgan va o‘zi o‘rganib olgan jumalardan foydalanib. – Men maktabda yod olgan she‘rimni eslaganim yodingdami? Sakkizinchi sinfda yodlagandim shekilli. O‘shanda nemis tilidan «a‘lo» olmoqchi bo‘lgandim. Sen esa bu she‘rni bilmaysan. Chunki Gitler Geyne kitoblarini gulxanda yondirgan. Sizlarni faqat Gitlerning «Mein Kampf»ini o‘qishga majbur qilishganini bilaman...

– Hitler? – Emma shunday deya peshanasini Nikitinning ko‘ksiga bosdi. – Hitler ist ein Wahnsinniger! Das ist ein böser Alpdruck! So sagte mein Vater, als Hitler den Krieg gegen Rußland losbrach. Aber wenn nicht dieser furchtbarer Krieg, so ware ich dir nicht begegnet! So warest du nicht naeh Konigsdorf gekommen. Verzeihe mich, wenn ich ungeschickt gesagt hahe!<sup>3</sup>

– Mendan nimaga uzr so‘rayapsan? – dedi Nikitin Emma shosha-pisha gapirgani uchun ayrim so‘zlarnigina tushunib. – Urush senga bog‘liq emasdi. Emma, menga qara... – U yana qizning boshini sal orqaga egib, yosh qalqqanidan yaltirayotgan ko‘zlariga tikildi. – Senga hali asosiy gapni aytganim yo‘q. Sen bilan... ertaga boshqa ko‘rishmaymiz! Men ham sening boshqa xayollarga borishingni, o‘rtamizdagi munosabatni noto‘g‘ri tushunishingni istamasdim. Seni judayam sevaman, Emma. Sening urushga sira ham aloqang yo‘q. To‘g‘ri, unga daxldorsan, lekin bu butunlay boshqa masala. Gapimni tushunyapsanmi? Bu butunlay boshqa narsa.

– Sprich weiter. Urn Gottes Willen, sprich!<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Vadi-im, hech nimani tushunmayapman! Stalingradning bunga nima aloqasi bor? Berlinning nima aloqasi bor?

<sup>2</sup> Buning nima daxli bor? Qanday? Nemischa gapir! Men tushunmayapman.

<sup>3</sup> Nimaga Gitlerni gapirding? Gitler tentak! U yomon, yovuz! Gitler Rossiyaga urush boshlaganida otam shunday degandi. Mabodo ana shu dahshatli urush bo‘lmaganida sen Kyonigsdorfga kelib qolmagan bo‘larding. O‘xshatib gapirmagan bo‘lsam, meni kechir!

<sup>4</sup> Gapiraver. Xudo xayringni bersin, gapir.

Emma o'kinib, barmog'ining uchini Nikitinning labiga tekizib qo'ydi. U go'yo Nikitinning gaplari ma'nosini fahmlab, tushunib olayotganga o'xshardi. – Vadi-im, ich hore. Du mußst Deutsch lernen, und ich werde Russisch lernen.<sup>1</sup>

– Men gapimga tushunishingni juda ham istardim. Sabr qil, shoshilmasdan, dona-dona gapiraman. Men istayman – ich will... gapimga tushunishingni... Ha, buning nemischasi yodimdan ko'tarildi... Loaqal birgina jumla: sen doimo yodimda bo'lasan. «Yodimda bo'lasan»ning nemischasi qanday bo'lardi? Vergessen – unutish. Ha, nicht vergessen, nicht vergessen! Tushunyapsanmi?

– Nicht vergessen? – Emma uning gapini qaytardi-da, bor vujudi bilan yigit tomon cho'zilib, qorong'ida rangpar ko'rinayotgan yuzini o'ziga yaqinlashtirdi. U barmog'ining uchi bilan Nikitinning pastki labini dam bosib, dam qo'yib yuborarkan asta shivirladi. – O, Vadim! Lerne Deutsch, lerne Deutsch. Russisch, Deutsch... Warum so? Ein Moment, Vadi-im... Komm, Vadim!<sup>2</sup>

Emma Nikitinning yelkasiga tayanib, deraza rafidan sakrab tushdi-da, qo'lidan tortqilab boloxonaning qorong'i burchagiga sudrab qoldi. U yerda «jim» deya shivirlab to'xtatuvdi hamki, Nikitin stulga qoqilib ketib, bundan tumbochka yozuv stoliga urilib taraq-ladi. Nikitin vzvodi shu uyga joylashganidan keyin ilk e'tibor bergani – ana shu stolda plastmassadan ishlangan yozuv jihozlari, soyabonli va mumi erib tushgan yo'g'on sham, xilma-xil qalamlar turgan seluloid idishcha, maktab o'quvchisining kitoblariday taxlab qo'yilgan darsliklar bo'lgandi. Nikitin o'zi egallagan xona Kurtga qarashli bo'lganligini keyinroq bilib olgandi.

– Vadim, nimm Platz. Bitte, lies, mein Lieber.<sup>3</sup>

Nikitin qiz uni boloxona burchiga, Kurtning yozuv stoliga nega sudrab kelgani, tortmalarni besabr titkilab, nimalarnidir qidirayotgani sababini avvaliga tushuna olmadi. Emma gugurt chaqdi. Gugurt qizning nozikkina hovuchini hamda «Vadim, nimm Platz» degan-day jovdirayotgan ko'zlarini yoritdi. Nikitin barini fahmlaganidan, indamay stulni surib o'tirdi. Emma qo'lidagi yonayotgan gugurtni shamning erigan mumi orasidagi piligiga tutdi. Qiz shundan keyin

<sup>1</sup> Eshityapman. Sen nemischa o'rganishing kerak. Men esa ruscha o'rganaman.

<sup>2</sup> Rus tili, nemis tili – nimaga shunday? Bu yoqqa kel, Vadim.

<sup>3</sup> Vadim, o'tir. Jonginam, bermalol o'qiyver.

nafasini rostlab, stol yonidagi baxmali sirilgan kresloga cho'kdi-da, gugurtni puflab o'chirib, oq qog'ozga zimdan qaradi.

– Vadim, Russisch, Deutsch, – dedi qiz boshini silkib. – Bitte, ich schreibe Namen: Vadi-im, Emma...<sup>1</sup>

Nikitin yon tomondan Emmaning yuzi, nemischa harflar bilan ismini aniq va yirik qilib yozayotgan qalamiga qarar, qizning qoshi, qimtilgan labi, puchuqroq burni tevaragidagi sepkillarini ko'rib turardi. Qiz «Vadim» so'zining tagiga aylana ichidagi yulduzcha rasmini chizib qo'ydi. Keyin «Rußland» va «Emma» so'zlarini yozib, yana kichkinagina doira yasadi-da, ostiga «Konigsdorf» so'zini qo'shimcha qilib, ikkovining ismini birlashtiruvchi chiziq tortdi va chiziq ustiga «Ich liebe dich» degan uchta so'zni qoraladi.

– Übersetze,<sup>2</sup> – dedi Emma o'tinib.

– «Seni sevaman», – javob qildi Nikitin.

Emma ko'm-ko'k ko'zlarini chaqnatib, shirin tabassum bilan qalamni Nikitinga uzatdi.

– Schreibe Russisch.

Nikitin ham uning so'zlari yoniga o'z tilida «seni sevaman» jumllarini yozdi. Emma ruscha harflar ustida barmoqlarini yurgizib, uzoq va erinmay tomosha qildi, keyin nemischa va ruscha so'zlarni solishtirarkan, yuragi toshib shivirladi:

– Ich... und Russisch?

– Men, – javob qildi Nikitin.

– Liebe?

– Sevaman.

– Dich?..

– Seni, «Ich liebe dich». «Men seni sevaman». Takrorla, Emma. Men seni sevaman.

– Men seni sev... – hijjalab, shoshilmay talaffuz etdi qiz, – va-ma-an.

– Ha, men seni sevaman. Seni sevaman...

– O, Vadim, ich lerne Russisch!<sup>3</sup> – Emma notanish ruscha so'zlarni ayta olayotganidan suyunib kulib yubordi. Chehrasi bir yorishdi-yu, yana ma'yus tortdi. – Du fahrst nach Rußland. Ich bin

<sup>1</sup> Marhamat, men ismlarni yozyapman: Vadim, Emma.

<sup>2</sup> Tarjima qil.

<sup>3</sup> Men ruschani o'rganaman.

traurig. Ich sterbe. Tod,<sup>1</sup> – dedi-da, ikkita so'roq alomati bilan ismlarini biriktirib turgan chiziqni o'chirib, tagiga qo'sh suyak kesishgan kalla suyagi suratini soldi. So'ngra Nikitinning pinjiga tiqilib, yonog'ini chakkasiga ishqadi. Nikitin uning kipriklari pիրpirayotganini sezib turardi.

– Tod, – shivirladi qiz. – Du fahrst, und ich sterbe... Tod... Wie Russisch, Russisch?..

– O'lim, – javob qildi Nikitin. U frontda goho batareyasiga nemislarning «Todenkopf», «Todenkampfdivision» deb atalgan qismlari qarshi turganini esladi. – «O'lim» so'zining ruschasini bilib nima qilasan?

– O'lim? – bu so'zni yaxshi talaffuz qila olmagan Emmaning pիրpirayotgan kipriklari Nikitinning chakkasiga tegib qitig'ini keltirdi.

– Bu yomon so'z, Emma, – dedi Nikitin. – Men urush davomida tinimsiz bu so'zni eshitaverganim uchun ham undan nafratlanaman. «O'lim», «halokat», «qahramonlarcha halok bo'ldi» deganday... Buni eslab qolishingni istamayman. Undan ko'ra boshqa, yaxshi so'zlarni eslab qol. Xo'pmi? Men hozir yozib beraman.

Emma uni tinglarkan, bir lablariga tikilar, bir qog'ozga, undagi mudhish bosh chanog'i suratini ustidan tez o'chirib tashlayotgan qalamiga qarardi. Nikitin qog'oz o'rtasiga «Ko'rishguncha», keyin bir qator tashlab, chap tomoniga bir zamonlar maktabda o'rganib olgani «Auf Wiedersehen!»ni yozdi.

– Kein Tod. Nicht Tod. Nicht vergessen, nicht vergessen,<sup>2</sup> – dedi Nikitin. – Hech kim hech nima bilmaydi. Bu yog'i qanday kechishi, nima bo'lishini ikkovimiz ham bilmaymiz. Men urushda bir necha marta jon olib, jon berganman. Auf Wiedersehen tushunyapsanmi, Emma? Hijron – o'lim emas. Urush tugay deb qolganida o'limdan gaplashmasligimiz kerak. Imkon topildi deguncha seni ko'rishga kelaman, Emma.

Nikitin gapirayotgan gaplarining loaqal yarmisiga o'zi ham ishonmasa-da, lekin frontda uch yildan beri qon kechib, har qanday ko'rguliklarni ko'raverib ko'nikib qolganiga qaramay, mo'jiza

<sup>1</sup> Sen Rossiyaga ketasan. Men chidolmayman. O'laman. O'lim.

<sup>2</sup> Hech qanday o'limning keragi yo'q. Kerak emas, unutmayman, unutmayman (buzib aytilgani).



ro'y berib, yo'li yana Berlinga tushib qolishidan ham umidini uzmasdi. Agar yana Berlinga kelib qolsa bir soatgami, ikki soatgami, bir sutkagami Kyonigsdorfga kirib o'tishni niyat qilar, bu har qalay ehtimoldan xoli emasdi. Shunday bo'lsa ham ayni damda qaytib ko'risholmasliklarini his etib tobora iztirobga tushar, ularni tasodifiy vaziyat emas, balki mutlaqo kutilmaganda yuazaga kelgan jiddiy sabab ayirayotgandi-da.

– Qanday bo'lmasin, seni yani topishga harakat qilaman. Emma, – dedi Nikitin qizga dalda berib. – Demak, ko'rishguncha. Qismatim qanday kechishidan qat'i nazar seni hech qachon unutmayman. Bizda Rossiyada olis safarga yo'l olganda... xayrlashayotib odatda «Ko'rishguncha xayr... meni unutma!» deyishadi. Mana bunday yoziladi, Emma...

Nikitin «meni unutma» degan so'zlarni yozarkan, Emmaning jiqqa yosh ko'zlarida sham yog'dusi akslanayotganini ko'rdi. U Nikitinning so'zlariga tushunmagandi. Shundan keyin Nikitin Emmaning nozik qo'lidan tutib, bemajol barmoqlaridan o'parkan, o'kinch bilan dedi:

– Emma shuni bilginki, men seni unutmayman va sen ham meni yodingdan chiqarma!

Nikitinning so'zlarini Emma eshitib-eshitmas, boshini orqaroqqa tashlab, ko'z yoshlarini sezdirmaslikka urinar, kiprik qoqqani ham qo'rqardi. Nikitin Emmaning behol kaftini avaylabgina yuqoriga qaratdi-da, yuziga jilmayib qaradi:

– Esingdami?

– Me-en se-ni se-va-man, – dedi u bo'g'inlab. Shundan keyin butun vujudi titrab, boshini egdi-da, bo'sh qo'li bilan stol tortmasidan toza qog'oz olib, bamisoli dastro'molday oldin o'ng, so'ngra chap ko'ziga bosa-bosa yuzini pana qildi. – Was wird mit uns?!

– Jonginam, bunchalar ham yaxshisan, Emma. Men hech qachon, hech nimani bilmagandim, ishonmagandim. Barcha nemislar-dan nafratlanardim. Nemis ayollari ko'zimga qanday ko'ringanlarini bilasanmi? Ular yo qo'lida qamchisi bo'lgan baqaloq kampirlar, yoshroqlari esa... xuddi qo'g'irchoq qiyofasidagi zolimlarday tuyulishardi. Ko'rgani ko'zim yo'q edi. Hammasini yomon ko'rardim...

<sup>1</sup> Holimiz nima kechadi?

Keyin esa Prussiyada... Sen ularga o'xshamaysan, boshqachasan, Emma, seni sevaman...

– Vadi-im, men seni sevaman! O, Vadim! Warum? Warum must du nach Rußland fahren?<sup>1</sup>

– Nima «varum?» Gapingga tushunmadim, tushunmadim...

Nikitin birdan Emmaning qo'lini qo'yib yubordi-da, hushyor tortib, eshikka quloq tutdi, qiz esa kreslodan irg'ib turdi. U naq o'limga hukm qilingan odamday ko'zlari ola-kula bo'lib, shosha-pisha ibodat qilayotganday kaftini labiga yaqinlashtirib, nimalarnidir pichir-lay boshladi. Shu tobda qiz taqdiri va muhabbatini toptagan urushni boshlaganlarni qarg'ayotganga o'xshardi.

– Nahotki Ushatikov bo'lsa?.. – deya Nikitin shivirlab eshikka yaqinlashdi. – Nima gap?

– O'rtoq leytenant...

Zinyapoya maydonchasidan yo'tal, bezovta qadam tovushlari eshitildi va lahza o'tmayoq yana: «O'rtoq leytenant!» degan ovoz yangradi. Nikitin shu zahoti apil-tapil o'zini bir chekkaga oldi.

– Nima gap? Ushatikov, tinchlikmi?

– Tezroq bo'ling, o'rtoq leytenant! Pastda qandaydir shovqin-suron bo'lyapti! – Ushatikov shunday deya eshikni mushukday tataladi. – Aloqachilar negadir pitillab qolishdi. Nima gapligini hozircha bilolmayapman. Kombat kelmaganmikin ishqilib?

– Hozir, Ushatikov, hozir, – dedi Nikitin. – Eshikni oching. Hozir.

Yaqindagina sukunat hukmron bo'lgan birinchi qavatda shovqin-suron kuchayib, bezovta ovozlar, etiklar do'piri, eshiklarning ketma-ket qarsillab yopilishi eshitilardi. Ana shu yugur-yugurlar orasida kimningdir: «Zikin, telefonga! O'rtoq katta serjant, jangovar trevoga! Apparatga tezroq!» deb baqirgani eshitildi. Shundan keyin keskin yangragan va barchani oyoqqa qalqtirgan jangovar trevoga boloxonaga ham yetib keldi. Nikitinga trevoga qanday e'lon qilinishi yaxshi tanish bo'lgani uchun badani jimirlashib ketib, xayoliga darhol: «Nahotki nemislar shaharga yana hujum qilishayotgan bo'lsa?» degan fikr urildi.

Nikitin deraza oldiga yugurib kelib, o'rmon tomon cho'zilgan tosh yo'lga qaradi. Tong yaqinligi uchun atrof moviy tus ola bosh-

<sup>1</sup> Nimaga? Rossiyaga nima uchun borishing kerak?

lagan, yulduzlar chamani pastroq tushganday tuyular, ko'l va qora-yib turgan o'rmon chekkasi uzra arang chaqnar, ko'lning narigi tarafidagi qoramtir maysalar orasidagi yo'l ingichka ko'rinar, xullas, hamma narsa subhidam paytidagiday so'lim, osoyishta va osuda edi. Hozircha shaharchada sukunat hukmron, harakatlar yo'q, buyruqlar eshitilmas, derazalarda chiroq ham ko'rinmasdi. Faqat pastda, birinchi qavatdagina odamlar besaranjom, u yoqdan bu yoqqa yugurishar, etiklar do'qillardi. Eshik ortidan esa Ushatikovning shivirlashi eshitalardi:

– O'rtoq leytenant, o'rtoq leytenant!

Nikitin qizga sekingina dedi:

– Emma, endi sen ketishing kerak...

Emma buni tushunib, ko'zida yosh bilan ho'ngrab o'zini Nikitininga otdi-da, bag'riga singib ketguday bo'ldi. U Nikitinning bo'ynidan mahkam quchib, yigitning yuziga kuchli qo'rquv va dahshat aks etgan yuzini qo'yganicha titroq lablarini lablaridan uzmasdi. Nikitin shuning uchun ham qizning tishlarigacha takillayotganini sezib turardi.

– Vadi-im, Vadi-im...

– Emma, jonginam... Sen ketishing kerak. Ko'rishguncha xayr, Emma. Men istardimki, shuni judayam istardimki... Auf Wiedersehen Emma... Kurishguncha...

Nikitin qizning mayin, to'zg'igan sochlaridan o'pib, yelkasidan qattiq quchgancha oyoqlari chalishib eshik oldigacha olib bordi. O'zi ko'rinmay turgan Ushatikov eshikni qiya ochib qo'ygan, zina-poya maydonchasi qop-qorong'i edi. Emma ana shu qorong'ilikda ko'zdan yo'qoldi.

Shundan keyin Nikitin xonasiga qaytdi-da, beixtiyor stol yoniga o'tirdi. U entikib nafas olgancha oldidagi yozuvli qog'ozga, sham alangasiga qaradi. Sham arang yonar, Nikitin har nafas chiqarganida buralib o'ynoqlab, o'chay-o'chay derdi.

Zinadan kimningdir yugurib chiqqani, etikning qattiq do'qillashi eshitildi, keyin: «Ushatikov, batareyaga marsh!» degan buyruq zina-poya maydonchasini boshga ko'targuday bo'ldi. Eshik shitob bilan ochilgani uchun sham alangasi yelvizakda o'chishiga sal qoldi. Shaxd bilan kirib kelgan Granaturovning yarador qo'li oppoq doka

bilan bog'langan bo'lib, uyqudan qolgani uchun yuzi salqi, qovoqlari osti qorayib ketgandi. Hayajonda ovozi ham guldirab chiqardi:

– Hoy, Nikitin! Uxlamayapsanmi? Xo'sh, leytenant, jang qilamizmi yo hibsda o'tiraverasanmi? Eshityapsanmi? Yo eshitmayapsanmi? Xo'sh, nima deysan? Nega baqrayasan?

Nikitin miq etmay qo'lidagi sigaretani ezg'ilab o'tiraverdi.

– Nega baqrayasan, deyapman? – o'shqirib berdi Granaturov. – Jangovar trevoga! Butun diviziyaga! Bizning artpolkka ham! Bu yerdan tezda qo'zg'alib, zudlik bilan Pragaga yo'l olishimiz kerak! Tank armiyasining ixtiyoriga berilganmiz! Men to'g'ri shtabdan kel-yapman. Pragada nemislarga qarshi qo'zg'olon ko'tarilibdi! Diviziyadagi ratsiyalarning bari tunda yordam so'rab yuborilgan signalni tutishibdi! Tushunarlimi, Nikitin? Janubga yo'l olamiz! Pragaga! Pragaga!

Granaturov kuchli hayajonda, juda qizishib ketgani uchun tinimsiz xonaning u burchidan bu burchiga yurar, hatto quvnoqroq ham ko'rinardi. Bo'yniga osilgan yarador qo'li yurganida silkinardi. Nikitin hamon chekilmagan sigaretasini ezg'ilab o'tirar, Granaturov bu so'zlarni unga nima uchun gapirayotganini uncha tushunolmas, zero, kecha urushdan, batareyadan. Granaturovning o'zidan batamom uzoqlashtirilgan, malbus sifatida bu yog'i nima bo'lishini kutib yotgandi.

– Xo'sh? Keyin nima bo'ladi? Mening ishim nima bo'ladi? – tilga kirdi Nikitin xirillab – Men nima qilaman, kombat?

Granaturov karavot yonida to'xtab, qizarib ketgan o'ynoqi ko'zlarini chaqchaytirdi-da, engashgan ko'yi shunday baqirib berdiki, Nikitinning a'zoyi badani jimirlab ketdi.

– Bo'ldi, Nikitin! Xudoga shukur qil! Omading keldi! Qutulib qolding! Boshing toshdan ekan! Faqat eng yaxshi to'p komandirini safdan chiqarganing qoldi xolos! Endi uni o'ldirib qo'ymaganing uchun shukur qilaver! Ha, qutulib qolding! O'qing qulog'iga tegib, yaralabdi xolos, tushundingmi? To'pponchadan to'p otgandan ham rasvo otarkansan! Ha, rasvo! Keyinroq o'n sutka qamoqda yotib chiqasan! Diviziya komandiri senga o'n sutka qamoq buyurdi! Sening go'dakliging va tentakligingni hisobga olib muruvvat qildi! Faqat Pragadan keyin o'tirasan! Tushunarlimi?

– Menga muruvvat qilishning nima keragi bor, kombat? – dedi Nikitin quruqqina qilib. Terlagan barmoqlari sigaretani ezg'ilar, qaynoq qoni chakkasini zirqiratar, xayoli alg'ov-dalg'ov bo'lib ketganidan nafasini arang rostlab, ichida dedi: «Mejeninni o'ldirmabmanmi? O'qim tegmabdimi? O'n sutka qamoqmi? Diviziya komandiri... Pragadan keyin o'n sutka».

Nikitin indamas, go'yo nafas olishga havo yetishmayotgandek edi. U shiftga tikilar, shunda qandaydir achimsiq bir narsa tomog'idan bo'g'ib turib, qo'yib yuborar, butun vujudi qalt-qalt titrab, o'zini eplolmayotganidan ko'zlaridan yosh oqayotgan bo'lsa ham kulgisi qistab turganini sezardi.

– Qulog'iga tegibdimi? Yarador qilibman xolosmi, la'natini... jazosini tortsin!

– Jim bo'l, Nikitin! Jazavani bas qil! Tur o'rningdan, tur! – buyurdi Granaturov tishlarini g'ijirlatib. – Esing og'ib qoldimi? Yo haddingdan oshyapsanmi? O'rningdan turib, ko'zingni och!

Nikitin esa joyida qimirlamay o'tirar, ko'z yoshlari yuzini yuvar-di.

– Baqirma, kombat, – shivirladi Nikitin hiqillab. – Sabr qil... hozir, hozir o'tib ketadi. Uni yarador qilibmanmi? Nahotki uni yaralabman? Qulog'idan yaralaganim uchun o'n sutka qamoq. Bu kulgili. Yo'q, bu jazava emas. Ehtimol, jazavadir. Menga endi baribir. Xo'sh, nima qilishim kerak?

Granaturov xonada u yoqdan bu yoqqa borib kelar, har burchakka yetganida shartta orqasiga o'girilardi.

– Agar esing joyida bo'lsa, avvalo, shuni qulog'ingga quyib ol! – U shunday deya bo'ralatib so'kindi. – E, hammangiyam!... Yo'lda ketayotganimizda diviziya komandiri seni chaqirtirib qolishi mumkin. Men artilleriya polki komandiriga hisobot berganman, u esa diviziya komandiriga yetkazgan. Endi gap bunday, shuni yodingda tutginki, men sen esi past ahmoqni hayotingni saqlab qoldim! Xullas, serjant Mejenin buyrug'ingni bajarmaganidan keyin g'ijillashib qolgansanlar, so'ng sen qizishib ketib qurol ishlatgansan, lekin hozir bundan juda afsusdasan. Tushunarlimi? Polk komandiri yoki diviziya komandiri so'rab qolsa xuddi shunday deysan. Sen ahmoqlarni deb diviziya sha'niga dog' tushirmoqchimasman! Ha-ya.



Mejenin ham bundan xabardor, u bilan gaplashdim. Gospitalda gaplashdim. Tushunarlimi, Nikitin? Eslab qoldingmi?

– Yo‘q, kombat, tushunarli emas, – dedi Nikitin ko‘z yoshlarini artib. – Mabodo chaqirib qolishsa, Mejenin bilan til birlashtirib o‘tirmayman. Hammasi esimda turibdi, kombat. Agar u batareyaga qaytib kelsa ham ikkovimizdan birimiz baribir sudlanishga majbur bo‘lamiz.

– Esingni yeganmisan, Nikitin? Sen bilasanmi kimsan? Tentsan, ahmoqsan!.. Prinsiplaringni boshimga uramanmi?! Oq qo‘lqopda jang qilmoqchimisani? Bundan yaxshi to‘p komandirini qaydan topasan?

– Qarorimni o‘zgartirmayman, kombat, – dedi Nikitin. – O‘sha gap: yoki u, yoki men. Meni hatto front qo‘mondoni chaqirtirsa ham borini aytaman.

– Qani endi ikkoving ham gumdon bo‘lsalaring-u, senlardan birato‘la qutulsam! Uh, sirkasi suv ko‘tarmasliklaring jonimga tegib ketdi. – Granaturov do‘rillab shunday deya etigi bilan bir tepib eshikni ochgach, pastga qarab baqirdi. – Ushatikov! Leytenant Nikitinga qurol, kamar, pogonlarini keltir! Tez bo‘l! – So‘ng yelkasi osha Nikitinga qararkan, ohistaroq ovozda qo‘shimcha qildi: – Hozircha batareyani qabul qilib olasan, u yog‘i Pragadan keyin ma‘lum bo‘ladi.

Pastda, birinchi qavatda askarlarning yugur-yuguri tinmas, eshiklar tinimsiz ochilib-yopilardi. Qurollarning sharaq-shuruq tovushi bilan birga besaranjom askarlarning baland ovozlari ham eshilib qolar, bahorning lojuvard subhidami og‘ushidagi hovli va shaharcha ko‘chalarida mashina motorlari ham pishqirishga tushgandi. Shu payt katta serjant Zikinning deraza tagidan: «Oldingi saf, batareyaga-a-a!..» degan buyrug‘i yangradi.

– Ma‘lum bo‘lsa bo‘lar, – dedi Nikitin ham Granaturovga. – Oxirgi iltimosim, kombat: menga uch daqiqa bir joyga borib kelishim uchun ruxsat bersangiz.

– Qayoqqa bormoqchisan?

– Bu mening shaxsiy ishim, kombat.



## UCHINCHI QISM SOG'INCH

### BIRINCHI BOB

Nikitin kechasi allamahalda barga sigareta olgani tushdi-da, qaytayotib, liftidan chiqib uzun yo'lak bo'ylab bir xil tusdagi bo'zrang eshiklarni ko'rganida o'zi joylashgan nomerning to'rt xonali raqami yodidan ko'tarilganligini eslab qoldi. Yo'lakdagi nim qorong'ilikda bu eshiklarning hammasi unga bir xildek ko'rinardi.

U xonadan chiqib ketayotganida karavotining bosh tomonidagi ko'k soyabonchali chiroqni yoqib qo'ygani yodida edi. Ana shu belgini eslab, yoqilgan tungi chiroqni ko'rish umidida tavakkal ikkita eshigi qulflanmagan xonaga bosh suqdi. Biroq ularda chiroq yoqilmagan, sintetik gilamlarning hidi anquvchi bu dim va qorong'i xonalardan uxlayotgan odamlarning xurraklari, pishillashlari va ayrimlarining alahlayotganlari eshitilardi. Bunday noqulay ahvolda qolgani o'ziga nash'a qilib, biror daqiqa turib qolgach, ko'nglidan «Hm-m, juda qiziq, ochiq joyda adashib qoldim, deganlariday...» degan fikr o'tdi.

Butun mehmonxona uyquda bo'lgani uchun devor chiroqlari o'chirib qo'yilgan va g'ira-shira yorug' yo'lakdagi uzun poyandoz gilamda erkak va ayollarning tuftilari tizilgan bo'lib, xonalarda istiqomat qiluvchilar bularni xizmatchi ayol ertalab artib-tozalashi uchun chiqarib qo'yishgandi.

«Yaxshiyam botinkamni chiqarib qo'ymaganim. Demak, shu yer», ko'nglidan o'tkazdi Nikitin oyoq kiyimi yo'q nomer yoniga kelganida. Keyin yengil tortib eshikning yaltiroq tutqichini bosdi-da, hech bir ikkilanmay xonaga bemalol kirdi.

Ammo ostona hatlashi bilanoq taqqa to'xtab qoldi. Xonadagi yoqilgan qandil bilan torsherlar yog'dusi ko'zini qamashtirdi, di-

mog'iga xushbo'y hid urildi. Shishalar qalashgan va tepasida sigareta tutuni buralib aylanayotgan jurnal stolchasi yonida o'tirgan ikki erkak unga sergaklanib qarashdi. Ular oq ko'ylak va qora kostumda bo'lganlari uchun qora galstuklari yaqqol ko'zga tashlanardi. Eraklarning novcha, qaddi-qomati adl, suyakdor yuzi silliq qirtishlangani shartta turib, Nikitinga yaqinlashdi-da, tanimagani uchun uzoq tiki-lib qoldi, keyin kayf aralash qandaydir nemis lahjasida nimalarnidir g'o'ldirarkan, hiringlab karavotdagi adyol ustida yotgan, sochlari kalta, yarim yalang'och yosh juvonga imo qildi. Juvonning qo'lidagi sigaretadan tutun buruqsardi.

– Entschuldigen Sie, bitte, – deya Nikitin uzr so'radi-da, yo'lakka tisarildi. Uni go'yo ayolning xirillagansimon kulgisi surib chiqarganday bo'lib, eshikni ham yopa qoldi.

Butun qavat suv quyganday jimjit edi.

Nikitin ana shu jimlikda bir necha daqiqa qovog'ini uyub turib qoldi. U hali ham ikkita notanish erkak o'tirgan xona o'ziga qarashli nomer emasligiga ishongisi kelmas, bu esa qandaydir telbalikka o'xshabroq ketardi.

«Bo'lmag'ur gap! Ular mening nomerimda nima qilishadi! Ikki erkak va... bir ayol-a! Bunday bo'lishi mumkin emas!»

Ayni paytda uni xuddi tushdagiday beomon, g'alati qo'rquv bosa boshladi.

Bundan to'rt yil oldin kuzakda rutubatli Chikagoda yashaganida ham shunday hissiyotni boshdan kechirgandi. U kechki allamahalda qandaydir qabuldan keyin o'n oltinchi qavatdagi o'ziga qarashli keng-mo'l va qorong'i vannaxonada yuvinayotib suvning shovul-lashi aralash eshik qulfi ikki marta buralgani, yengil shitirlashdan a'zoyi badani muzlab ketgandi. Vannaxonaning ochiq eshigidan ot yuzli, boshidagi shlapasi ivib, plashida yomg'ir tomchilari titrab tur-gan notanish kishi ko'rinib, bir qo'lini cho'ntagidan olmay, ostonada g'o'dayib turardi.

Nikitin dahshatga tushib: «Kimsiz? Bu yerda sizga nima kerak?» deb baqirib berganida, haligi kishi og'zini qiyshaytirgancha ajinaday g'oyib bo'lgandi. Nikitin o'shanda hech nimaga aqli bovar qilmay, suvni o'chirib, badanidagi sovun ko'pigi bilan xonasining tashqari eshigi qulfini yaxshilab tekshirgan, kalitini ham ushlab ko'rgandi. Eshik qulf, kalit ikki marta buralganicha turardi. Nikitin shundan

keyin ham shubhasi tarqamay, nomerni ko'zdan kechirgan – deraza pardalarning qati, kiyim javoni, karavot tagigacha qolmagan, ameri-kachasiga keng va boshidan oyog'igacha yoritilgan yo'lakni ko'zdan kechirgan, biroq u yerda ham hech kim yo'q edi. Shundan so'ng bezovtaligini bosishga harakat qilib, ko'zimga shunday ko'rindi shekilli, notanish odamning tashrifi asab toliqqani oqibati bo'lsa kerak, deb o'zini ishontirishga uringandi. Negaki, nomeriga kirgach kalitni ikki marta burab, eshikni qulflagani, undan oldin, chamasi, mehmon-xona ma'murlari yostiqa tashlab qo'ygan eslatma qog'ozdagi: «Yotishdan oldin eshikni qulflashni unutmang», degan so'zlarni o'qigani esida edi. Shunday bo'lsa ham ko'zimga ko'ringan bo'lsa kerak, degan fikrga sira ishongisi kelmas, qulf shiqillab buralgani, plash shaldirab, vannaxona ostonasida boyagi odam turgani, boshida ivigan shlapa, egnida plash, soqoli qirtishlangani ham ayon ko'ringandi. «Kim bo'ldi u? Kechasi soat o'n ikkida-ya!..».

Vahimadan ta'bi xira bo'lgan Nikitin tungi sukunat qo'ynidagi Chikago mehmonxonasining o'ziga tegishli va sigareta tutuni to'la nomerida uxlayolmay yotarkan, yana boyagi odamning basharasi, tugmalari qadoqli plashi va ko'zi tushgan boshqa narsalarning mayda-chuydasigacha xayoliga kelgandi. Shundan keyin har qalay asosliroq xulosa qilib, ya'ni plashli haligi odam ajnabiylarga ko'z-quloq bo'lib yuradiganlardan va mening nomerga qaytganimdan bexabar bo'lgan, degan fikrda to'xtagandi. Bu ehtimoldan xoli edi. Biroq vannaxonada suv shovullayotganini eshitsa ham tirik ajina kabi Xichkok filmlaridagiday ashaddiy qotil va gazanda sifatida ichkariga vahimali suratda bosh suqqaniga sira aql bovar qilmas, Nikitinning nazarida bu g'irt telbalikning o'zginasi edi.

Keyinchalik naq bir haftagacha Nikitinni tish og'rig'iga o'xshash dard tinchlik bermay qiynab yurgandi.

U hozir ham barcha uxlayotgan nemis mehmonxonasidagi erkak va ayollar poyabzallari tizilgan yopiq eshiklar oldida turarkan, zulmat qo'ynidagi jimjitlikda yolg'iz o'zi qolganidan ezilardi. Go'yo bu mehmonxonada o'zidan bo'lak tirik jon yo'qdek, ko'p yillardan beri inson qadami tegmaganga, yo'lakdagi tizilgan poyabzallar esa odamlar bu yerda bir zamonlar turganini eslatayotgandek bo'lardi.

«Qiziq! Xayolimga nimalar kelyapti o'zi? Yoki telbalik shunday boshlanarmikin?» deya ko'nglidan o'tkazdi Nikitin. Hozir butun

fikr-zikri bir narsada, u ham bo'lsa kimsasiz bu yo'lakni tezroq tark etib, nomerini topib olishda edi. Shundan so'ng o'ng tomonidagi poyabzal ko'rinmayotgan yana bir eshikni ochgandi, dimog'iga qorong'ilikdan nam choyshab hidi aralash lavanda isi gup etib urildi.

«Yo'q, bu ham emas! Naqadar bema'nilik!» Nikitin o'z ustidan kulib nima qilarini bilmay, gangib qolayozgani uchun shosha-pisha keyingi eshikka yopishgandi, ammo ichkaridan qulflog'liq xona ochilmadi.

Nikitinning xonasi ikki nomer narida ekan.

U xonasiga kirib, nimqorong'ilikka ko'kimtir yog'du sochayotgan soyabonli tanish chiroqni, chiqib ketishidan oldin o'zi qayirib qo'ygan oppoqqina jildli par adyolni, yozuv stolidagi buyumlarini, yog'och taglikdagi chamadoni va yotishdan oldin ko'zdan kechiriluvchi, hozir esa yostiqda ochiq yotgan, rangli suratlari yaltiroq «Shtern» jurnalini, xullas, o'ziga tegishli va tegishsiz buyumlarni ko'rganidan keyin peshanasiga qalqqan terni g'ijinib artida-da, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. U kutilmaganda ro'y bergan hozirgi ishlar, boshidan kechirgan g'alati qo'rquv uchun o'zini o'zi ovoz chiqarib koyidi.

«Qo'rqib ketdimmi? Nega o'sha la'nati yo'lakda cho'chib, yolg'iz qolganimdan hatto dahshatga tushdim?» xonadagi jihoz-u boshqa buyumlarga: hafta sayin har kimlarning turlicha is qoldiradigan kostumlari, ko'ylaklari, galstuklari turadigan, hozir esa uning kostumi bor kiyim javoniga, oppoq o'rinli ikki kishilik karavotga shosha-pisha ko'z yugurtirarkan, shularni ko'nglidan o'tkazib siqilardi. Mana shu karavotda lavanda, xushbo'y upa, konyak, sigareta yoki lab bo'yog'i hidi kelib turgan o'nlab, yuzlab yoki minglab notanish kishilar dam olishgan, uxlashgan, xurрак otishgan. Mana shu bejirimgina tungi chiroq tugmasini ham vino quyilgan bokal tutgan, uyqu oldidan jurnallarni varaqlagan, homiladorlikdan saqlovchi tabletkalarni ushlagan, taksiga, restorandagi kechki ovqatga, nomerlarga olib kelingan yengiltak ayollarga pul bergan begona barmoqlar ham bosgan.

Nikitin bu yerga kelib-ketgan turfa xil odamlarning ko'zga ko'rinmas izlari qolgan nomerlar va mehmonxonaning dim havosidan ko'ngli behuzur bo'lganday bo'ldi. Noma'lum manzillarga yo'l olgan o'sha odamlar o'zidan so'ng keladiganlarga bu zamindagi



kichkinagina va vaqtincha joylarini, begona islar anquvchi kiyim javonlari, karavotlar va vannaxonalarni qoldirib ketishgandi.

Nikitin ko'ksini silagancha xonasida u yoqdan bu yoqqa yurarkan, yuragi qattiq siqilib, jonsarak tepar, xorijga borganlarida ko'p marta shu ko'yga tushgandi...

Sigareta tutatayotgan Nikitin nihoyat telefonga yaqinlashib, yon daftaridan Samsonovning telefon raqamini topdi (xonalari yonmayon bo'lsa ham ehtiyoti shart uchun bir-birining telefon raqamlarini yozib olishgandi). U Samsonovga qo'ng'iroq qilarkan, anchadan keyin sherigining uyquli ovozdagi sarosimali: «Kim? Nima?» degan ovozi eshitildi. Nikitin kechasi bemahalda qo'ng'iroq qilgani uchun uzr so'rab, malol kelmasa xonasiga birrov kirishini iltimos qildi. «Nima bo'ldi? Jiddiy gap deysanmi? Soat necha bo'ldi o'zi?» dedi Samsonov pishillab. Shunga qaramay, do'stining qadr don ovozi Nikitinni tun qorong'isida yarq etgan olovdek ancha xotirjam torttirdi.

– Juda, o'tinaman, Platosha, kirgin...

Oradan ikki daqiqa o'tib Samsonov eshikni taqillatmay nomerga kirib keldi. Uning yo'l-yo'l keng pijamasi ichida qorni do'ppayib turar, sarpoychan shippak kiyib olgan, yuzida yostiqqa qo'yib yotganidan qizil iz qolgan, bularning bari Samsonov uyqusizlik dardiga muhtalo bo'lmay, nomerida maza qilib uxlayotib, hozir bezovta qilingani yoqmayotgani va bemahaldagi bu qo'ng'iroqdan taajjubdaligini ko'rsatib turardi.

Samsonov vazmin gavdasini kresloga tashladi-da, shabko'r ko'zlarini piri-pirata-piri-pirata so'radi:

– Soat necha bo'lganini bilasanmi o'zi? Tungi uch. Uxlolmayapsanmi? Dimedroling bormi? Bir sinab ko'r-chi.

Samsonov pijamasining cho'ntagidan dimedrolli paketcha oldida, silkitib kaftiga bitta xapdori soldi. So'ngra stakanga mineral suv quydi.

– Ich. Kafolat beraman! Tajribadan o'tgan.

– Yo'q, Platosha, yo'q, bu sen o'ylagan uyqusizlik dardi emas. – Nikitin sigaretasini kuldonga bosib o'chirdi-da, vannaxonaga kirib, ikkita plastmassa stakanча olib chiqdi. Keyin yozuv stolidagi ochilgan konyakdan stakanlarga quyib, mamnun taklif qildi. – Kel, yaxshisi, arman konyagi icha qolaylik. Chamasi, sal dab-dabaliroq. Doriligi ham bor.

– Yarim kechada bu qandaysi bo'ldi? Buncha maishatga berilmasang? Meni shunga uyg'otuvdingmi? Bunaqada ichkilikka berilib ketamiz-ku, do'stginam! Bunchalar yayrayotganing tagida biror sir yo'qmi ishqilib?

– E, salomat bo'l, oldik, Platosha!

Nikitin ichdi-da, ochilgan qutidan pechene sindirib olib, chaynadi, so'ngra xonaning u yog'idan bu yog'iga borib kelib, deraza oldida turib qoldi. Tizzasiga issiqlik urilib, elektr isitgichning shiriqlashi eshitilardi. Kuz tuni bo'lgani uchun derazalar qorong'i, oynaga siyrak tomchilar urilar, tosh ko'cha muyulishidagi reklamaning to'q qizil nuri nam yo'lakni xira yoritardi. Yomg'irli noyabrning allamahol vaqtida ko'rimsiz va ulkan Gamburgning hayoti ham ko'zdan pinhon, yog'in-sochinli hozirgi qorong'ilikda bu yanada ayon bilinardi. Ayniqsa, Nikitin sal avvalroq uzun, zeriktiruvchi g'ira-shira, ikkala tomondagi eshiklari yopiq mehmonxona yo'lagida yurganida o'zini taqir sahrodagi zarraday sezgani yoki Gerbert xonim bilan suhbatlashganidan keyin uni tanib qolib, o'zini ma'lum darajada gunohkor his qilgani va nimadandir ko'ngli to'lmay, ko'ziga tik qarayolmaganidan, hozir bularning bariga chek qo'yib, unutgisi, yana bu yerga dastlab qadam qo'yan mahalidagiday o'zini bemalol tutgisi kelardi.

Tomog'ini kuydiribroq o'tgan bir qultum konyak ham, uyqudan arang ko'zini ochib, oyog'iga shippagini ilgancha kirib kelgan beso'naqay gavdali Samsonovning o'zini bemalol tutib o'tirishi ham Nikitinni xayol qilgan kayfiyatga sololmadi.

«Anavi ishlarni qanday aytsam ekan? – Nikitin tund qiyofada shularni ko'nglidan o'tkazarkan. Samsonovning ro'parasidagi kresloga cho'kdi. – Unga qanday aytsam ekan-a?»

– Bunaqa uyqusizligingda piyonistaga aylanib qolasan, – Samsonov konyak quyilgan plastmassa stakanni istamaygina labiga tegizib qo'yarkan, tomoq qirdi. – Xo'sh, nima gap? Nega kayfiyating yo'q, Vadik? – Samsonov shippaklarini shapillatib, yo'g'on tizzalarini keribroq o'tirdi. – Nimalarni o'ylab qolding? Parishon ko'rinasan? Biror narsa bo'ldimi? Nima maqsadda ushlab qolgan ekan seni badavlat xonim? Mabodo sir bo'lmasa ayt. Dastxat berdingmi yo san'at xususida bahslashdilaringmi? Senga aytsam, haliyam chakkimasga o'xshaydi, ha...

– «Chakkimasing» nimasi? – Nikitin barmoqlarini qirsillatib, shiftga qaradi.

– Qaddi qomati, ko'zlari, oppoq yoki bo'yalgan sochi, kim biladi deysan, bu hozir urf bo'lgan-ku, umuman, nimasidir yaxshi-da... Garchi yoshi o'tganroq bo'lsa ham yomon emas.

Samsonov yana konyakdan ho'pladi-da, qoshlarini chimirgan ko'yi tumbochkadagi pechenega cho'zilayotib gapini istehzoli tugatdi:

– Ehtiyot bo'l, Vadimushka, qadamingni bilib bos, tag'in u ruslarning senday mashhur yozuvchisini avrab qo'ymasin. Avragudek bo'lsa bormi, vatanimiz adabiyotiga jabr bo'ladi-ya. G'arb inqilobiga xos zo'ravonlik qurboniga aylanasan-qolasan.

Sigaretasini xotirjam ezg'ilayotgan Nikitin indamay turdi-da, so'ng qandaydir tutoqqan ohangda so'radi:

– Uning kimligini bilasanmi?

– Ya'ni, qanday? Qaysi ma'noda? Xususiy mulkchi bir ayol-da. Gamburglik boy, chamasi, san'at kishilari qurshovidagi badavlat juvon. Qarashlari demokratik. Boshqa, biz bilmagan fazilatlarini hisobga olinmasa, bor karomati shu.

«Hozir bor gapni aytishga hojat bormikin? U boshqacha tushunishi ham mumkin», deb o'yladi Nikitin. U o'zini go'yo bamisoli bir to'siq oldida to'xtatib qolinganday sezardi. O'sha to'siq ortida shaxsiy, bir zamonlar, yoshligida qilgan ishlari pinhon turar, go'yo bir paytlari ko'ngliga yaqin bo'lgan xonaning gulqog'oz yopishtirilgan devorlaridagi botayotgan oftob nurlari singari esida elas-elas qolgan. Shunday bo'lsa ham o'sha, bundan ko'p yillar muqaddam, yoshligida bo'lgan o'sha ertaknamo voqealar o'tgan umrining qorong'i fasllari aro o'zini sezdirayotganday tuyular, o'sha umr ham Nikitinning emas, boshqa birovning hayotiga o'xshardi. O'sha tiniq va beg'ubor may subhidami esga tushar, urush oxirlaganda vzvod komandiri bo'lgan Nikitin yoshlik qilib, qiziqqonlik bilan bor gapni dangal aytgani uchun g'alva chiqib, juvonmarg bo'lishiga sal qolgani eslatib turuvchi yaxshi-yomon xotiralar ham unutilgan, keyinchalik esa yoshlikdagi ana shu beg'uborlig-u dovyuraklik qayta nasib bo'lmagandi.

– Har qalay, Gerbert xoninning kimligini bilasanmi? – so'radi yana Nikitin Samsonovning semiz yuzida hayrat alomati sezib.

– Ha, azizim, Platosha, bunaqa tasodif inson hayotida faqat bir marta uchrashi, yo‘q, hayotda ham emas, to‘g‘rirog‘i, butun insoniyatning unutilgan tushlarida ro‘y berishi mumkin. – U yana barmoqlarini qirsillatdi, keyin ichkilikka kulimsirab razm soldi-da, stakanni qo‘liga olib, gapini davom ettirdi. – Yoshligimizda ko‘rgan oltin tushlar uchun ichaylik, Platosha. Negadir bugun kayfiyatim yo‘q, Platosha. Juda ham ko‘nglim g‘ash. Negadir juda ezilyapman.

– Ko‘p ichyapsan. – Samsonov shunday deya noxushlik bilan stakanchasini Nikitinning stakanchasiga tekizib qo‘ydi. – Yoshlikdagi... yoki insoniyat tushlari uchun desang ham menga farqi yo‘q, ichaveraman. Biroq senga nima bo‘ldi o‘zi, Vadik? He yo‘q, be yo‘q, yarim kechada odamni uyqudan uyg‘otib, xuddi to‘ydagiday konyak otyapsan, nimalarnidir alahsirayapsan. Men, nima, gaplaringni tinglab, aqlimni peshlab o‘tiraveraymi?

– Uyqu va alahsirash. Ha, aynan uyqu bilan alahsirashning o‘zginasi, – Nikitin shunday dedi-da, konyagini yutoqib ichdi. – Senga bir gap aytmoqchiman, Platosha. Hayron bo‘lma, chunki o‘zim ham bunga hanuzgacha ishonolmayapman. Gerbert xonim – bu Emma degan bir qiz. Bir zamonlar o‘n sakkiz yashar, ko‘zlari ko‘m-ko‘k bu nemis qiz bilan urush oxirlab qolganda Kyonigsdorfda tasodifan uchrashib qolgandim. Batareyamiz o‘shanda Emmaning xonadoniga joylashgandi. Kyonigsdorf chorbog‘lardan iborat sokingina shaharcha bo‘lib, bizning tinkasi qurigan diviziyamiz Berlin dan u yerga nafas rostlagani yuborilgandi. Pragaga jo‘nashdan oldin. Gerbert xonim o‘sha qiz bo‘ladi... Hayron bo‘lmadingmi, Platosha?

Nikitin bu gapni o‘zini atayin xotirjamroq ko‘rsatib aytsa ham Samsonovning o‘siq qoshlari shubhali chimirilib, qo‘lidagi stakanchani tumbochkaga qo‘ydi-da, qattiq pishqirdi:

– Bu qandaydir ilmiy-fantastik safsatami? Ha, shunga o‘xshayapti! Xo‘sh, nima bo‘pti? Ya‘ni, qanday qizcha? Qanaqa Emma? Hech nimani tushunmayapman! Nima, u bilan qandaydir yaqin munosabatda bo‘lganmidig? Yoki boshqa biror gap bormi?

– Ehtimol, – dedi Nikitin. – O‘shanda men... yigirma bir yashar edim. Bu voqea bundan yigirma olti yil muqaddam, qirq beshinchi yilning mayida sodir bo‘lgandi.

– Ol-a! Harbiy latifa ekan-ku! – deb yubordi Samsonov ikkala qo‘lini ko‘kka ko‘tarib, tizzasiga tashlarkan. – Endi o‘ngingda alah-

layapsan. Vadimushka, qayoqdagi narsalarni to'qiyapsan! Ko'zlari ko'm-ko'k bo'lsa-da, yigirma olti yil avvalgi qiz ham esda turarkanmi? Xo'sh, o'shanda nima bo'lgandi? Darvoqe, nima ham ro'y berishi mumkin edi, urush payti nemislar bilan munosabatimiz ma'lum bo'lsa?!

– Xullas, nima bo'lsa bo'lgandi-da, Platosh, – javob qildi Nikitin. – Biz Kyonigsdorfdagi besh kun turgandik. Ikkinchi mayda bizni Berlindan olib chiqib ketishgandi.

– Xo'sh, demak o'shandagi qizcha – hozirgi Gerbert xonim, shundaymi? Yo tavba! Sen, Vadimushka, hozir dimedroldan yutib, ustidan mineral suv ichib yuborasan-da, adyolga o'ralibroq yotasan. Ertalab qarabsanki, juda hushyor tortib, keyingi munozaralarga tap-pa-tayyor bo'lib uyg'onasan. – Samsonov og'zini katta ochib, qat-tiq esnadi. – Ava-va-a... naqadar genial! Oradan chorak asr o'tib ketibdi-yu, sen uning tiniq, ko'rkam, ma'suma chehrasini xuddi ke-chagidek eslab... iztirob chekib o'tiribsan-a. O'n sakkizinchi asrga xos sujet, Vadimushka. Lekin men realistman har qalay.

Samsonov esnog'ini xirillaganroq kulgi bilan bosib, qo'llarini qornida chalishtirdi. U yo'g'on barmoqlarini bir-biriga ura-ura qo'llarini ikki tomonga olarkan, yumaloq, ko'zoynaksiz, beo'xshov-roq yuzida, huzurli esnoqdan namlangan ko'zlarida achingansimon nigoh sezilardi.

– Maynavozchilikni bas qil, Platon. Senga jiddiy gapiryapman. Gaplarimga ishonsang davom etay yoki hoziroq ovozimni o'chirib, bas qilay!

– Qulog'im senda, Vadimushka! Lekin hozir dam olvolsang bo'larmidi...

Sigareta tutatayotgan Nikitin uyqudan qolgan va hazil gaplar qilayotgan Samsonovga qaradi. Samsonov uyqusizliging tufayli qo'ng'iroq qilib, meni bezovta qilding-u, biroq tun yarmidan oqqan-da gapimiz baribir qovushmaydi, harakatlaring behuda, deyayotgan-dek tuyuldi. Uning xiringlashi ham, esnog'i ham, istehzoli gaplari ham Nikitin mehmonxonaning bo'm-bo'sh yo'lagida, eshiklar tagidagi qator tuflilar orasida qolib, o'zining xonasini topolmay ne qilarini bilmagan paytdagiday g'ashiga tega boshladi.

– Uni tanimagandim, – dedi Nikitin bundan o'zi ham xursand emasligini yashirmay dangal. – O'zi tanib qoldi. Tasodifan shekil-



li. Nemis tiliga tarjima qilingan kitoblarimdagi suratimdan tanigan, albatta. Bu yerga ham xuddi shu sababli taklif qilgan. Ha, ikkimizni aeroportda kutib olib mulozamat ko'rsatgan Gerbert xonim kyonigsdorflik o'sha Emmaning o'zginasi, buni men aniq bilaman. Endi, Platon, istaganingcha maynavozchilik qilsang bo'laveradi.

– O'h-ho'-ho', Va-adik! Xo'sh-xo'sh, bilasanmi?..

Samsonov rasmana hayratda qolgani uchun yuzi avvaliga g'alati cho'zildi, biroq shu zahoti asliga tortib, shishinqiragani ham tarqadi, shabko'r ko'zlari esa jonsarak pирpirab, kulgili chaqchaydi.

– Hay, hay, Vadim. Hali, demak, shunday degin-a, – Samsonov ko'kragini to'ldirib nafas olarkan, cho'zibroq takrorladi. – Meni butkul hayratda qoldirding. Shoshma, shoshma, men bir narsani sira ham... Demak, u yigirma olti yil o'tgandan keyin seni tanib qolib, taklif qilgan, shundaymi? Xo'sh, keyin-chi? Buni u senga qanday tushuntirdi? Nega taklif qildi? Axir yigirma olti yilda hamma narsa unutilib, xotiradan o'chib ketadi-ku. Bugun-chi, seni nimaga olib qoldi? Shuni ayta olasanmi?

– Ko'p ham murakkablashtirma. Sinchkovligi tufayli bo'lsa kerak.

– Sinchkovligi... Gerbert xonimningmi? Nahotki faqat sinchkovligi tufayli bo'lsa? Ishonching komilmi? O'zingda-chi, Vadim? Iloji bo'lsa, borini aytaver... U seni olib qolayotganida menga negadir g'alatiroq ko'rinuvdi. Nima, uning senda qandaydir ilinji bormi?

– Menimcha, yo'q bo'lsa kerak. Biroq o'tgan kunlarning bari esimga tushdi-qo'ydi. Tasavvur qilyapsanmi, o'zimni go'yo qirq beshinchi yilga qaytgandek his qildim. Hatto, hammayoqni siren isi tutib ketganday bo'ldi. Shaharda o'shanda siren va olmalar qiyg'os gullagandi. Urush davom etayotganiga qaramay, juda ajoyib damlar edi.

– Shoshma, shoshma... «Ajoyib damlar edi», deysanmi? Sen uni bir necha kungina ko'ruvdim, deganding. Nima, o'rtalaringda jiddiyroq munosabat bo'lganmidi?

– Bir narsa deyish qiyin, Platosha. Lekin urushdan keyin uni ko'p eslaganman. Qani endi bu munosabatning qachon boshlanib, qachon tugashini tushuntirib bera olsang?

– Ha, Vadim!..

– Nima «Vadim?» Xo'sh, nima demoqchisan?

– Endi boshqa konyak ichma, demoqchiydim, Vadimushka. Keyin... shoshma-chi. Xorijda telefon apparatlarini unchalik xushlamayman.

Samsonov kreslo suyanchig'iga tirsaklarini tirab o'rnidan arang qo'zg'alarkan, pijamasining ko'kragida burishib turgan joylari tekis tortdi. U Nikitinning karavotidagi yostiqni olib, uni stoldagi telefon apparati ustiga tashladi-da, ogohlantirgan bo'ldi:

– Ruslar turadigan hamma nomerlarda bo'ladigan gaplarni tegishli tashkilotlar odamlari eshitib turishiga shak-shubham yo'q. Biz bo'lsak shang'illab yotibmiz...

– Unchalik emasdir, – dedi Nikitin. – Lekin gaping to'g'ri, har holda sekinroq gaplashsak ham bo'ladi.

– Hozir, shoshma, buni ilgariroq o'ylash kerak edi... Bir bor ekan, bir yo'q ekan, ikkita tentak bo'lgan ekan! Anavi matohing ishlaydimi? Yoqib qo'rganmisan?

Samsonov gilam ustida shippagini sudrab priyomnik turgan tumbochka yoniga bordi-da, uni paypaslab tugmasini bosgandi, suyak shiqillaganiday ovoz chiqdi. Keyin priyomnik qitirlab, shig'illab, simfonik musiqa eshitila boshladi, bu qorishiq tovushlar orasida ayol kishining ingichka ovozi ham kelayotganday edi. Bu sokin tun qo'ynidagi nomerda quloqqa yoqimli eshitilmasdi, albatta. Samsonov priyomnik shkalasiga qarab, picha ovora bo'lib, uning ovozini sal pasaytirganidan keyin qanoat hosil qilganday dedi:

– Endi gaplashsak bo'laveradi. Guvohlarsiz. Shunisi ma'qulroq.

– Hammasini bilasan-a, Platon, – kulimsirab qo'ydi Nikitin. – Konspiratorlikda tengi yo'qsan.

– Yigirmanchi asrda buni har qanday ahmoq ham biladi, – uning gapini bo'ldi Samsonov ma'yuslik bilan oqish tovonlarini ko'rsatgancha yana xonada u yoqdan bu yoqqa yurarkan. – Senga avvalo shuni aytib qo'yishim kerakki Vadim, gaplaringni unchalik ham tushunmayapman. Keyin u qadar yoqmayroq ham turibdi. Bu g'alati his-tuyg'ularing hech bir qolipga to'g'ri kelmayapti. Seni suratlarindan tanib qolib, munozaraga chaqirgan ekan, xo'sh, nimaga, nima uchun, nima sababdan? Gurunglashib, shirin jilmayib, o'zini muloyim ko'rsatib, seni sekingina mendan ayirib, ikkimizga pul tiqishtirishdan maqsadi nima? Sening hurmatingni joyiga qo'yib, kattagina qalam haqi yozdiribdi, jurnalistlik da'vosini qilayotgan

lo'ttiboz janob Ditsman esa bu ham kamlik qilganday, chek dafta-  
rini pesh qilyapti... Bular senga g'alati tuyulmayptimi, Vadim?  
Qani, biz ularga nima-yu, kimligimizni bir o'ylab ko'raylik. Sen frau  
Gerbertga kim bo'lasan o'zi? Xudo o'zi kechirsin-u, urush davrida  
hammamizning ham omonat xushtorilarimiz bo'lgan. Xo'sh, endi  
men o'sha gunohlarim uchun tazarru qilishim kerakmi? Hozir hat-  
to ularning qiyofalarini ham eslayolmayman-ku... Anavi xonim esa  
seni eslaganmish. Besh kungina birga bo'libsanlar-u ma'shuqa o'z  
yurtining fotihini esidan chiqarmaganmish. Negadir kalavanning uchi  
topilmaypti?

– Biror narsani yodingda saqlab qolish yoki qolmaslik, bu sening  
shaxsiy xususiyating, Platosha, – uning gapini bo'ldi Nikitin. – Bu  
bahona emas. Sen kalavanning uchi deganda nimani nazarda tutyap-  
san? Uning qandaydir da'vo qilishi mumkinliginimi? Yo boshqa  
narsanimi? Bu gapni jiddiy aytyapsanmi?

Samsonov kresloga vazmin o'tirgandi, o'rindig'i cho'kib ketdi.  
U joylashibroq olgach, hayajondan ko'zlariga yosh keldi.

– Juda dovyuraksan-da, Vadim, yigirma yoshingda to'p yonida,  
frontda bo'lganingni eslab qolding. Yo chet elga birinchi kelishing-  
mi? Mabodo fikrimni bilmoqchi bo'lsang, tevaragingda bo'layotgan  
shubhali ishlarga soddalarcha ishonayotganing meni taajjubga sol-  
yapti. Ular atrofingda bekorga kuymalanishayotgani yo'q, o'zing  
ham buning sababini bilasan. Men gunohkorni-ku, ular mutlaqo bi-  
lishmaydi. Ularga men «noma'lum» shaxsman, sen bo'lsang taniqli  
kishisan, va hokazo, va hokazo... ya'ni, masalan, ularning nazdida  
katta odamsan! Ular har bir so'zingni ilib olishayotganini, og'zingga  
tikilib qolishganini ko'rib turibman. Ular seni nimada ilintirsak  
ekan, deb turishibdi. O'zing buni payqamayapsanmi? Ehtimol, men  
adashayotgandirman. U holda bularning barini qanday tushunish  
kerak? Xonimingning ishvasimi? U nimaga ikkimizni ayirmoqchi  
bo'lyapti? Mana shuni bilsam devdim!

Samsonovning peshanasi lavlagiday qizarib ketib, bir tizzasi asa-  
biy titray boshlaganidan pijamasining keng pochasi ham qimirlardi.  
Nikitin shunda Gerbert xonimning do'stiga muloyimlik bilan bo'lsa-  
da, lekin e'tiborsizroq muomala qilgani ko'ngli nozik Samsonovga  
tegib ketganini dilidan o'tkazdi. Gerbert xonim Samsonovga bami-  
soli kasbdoshi yonida kelgan shunchaki hamroh sifatida qaragan, bu

ayniqsa, kecha Nikitinni yolg'iz olib qolganidan keyin yaqqolroq sezilgandi. Gerbert xonimning bunday qilishi Nikitinning ham, Samsonovning ham xayoliga kelmagandi.

Shunga qaramay, kechagi ishda odamni asabiylashtiradigan jiddiy biror narsa yo'q edi. Nikitin shu vajdan Samsonovning hozir o'pkalashi va pichinglaridan negadir tutoqa boshlagandi. Chunki u ko'nglida borini ochiq-oydin aytgan, Samsonov esa buni teskari tushungandi.

– Mendan jahling chiqyapti, Platon, – dedi Nikitin. – Biroq bunga jiddiyroq sabab yo'q shekilli. To'g'rimi? Men ham jahl qilishim mumkin. Biroq bundan hech qanday naf chiqmaydi. Ikkovimizning ham asablarimiz...

Nikitin stakanchasini Samsonov tumbochkaga qo'yib esidan chiqargan stakanchaga cho'qishtirdi-da, bu bilan muloyimgina ol, ich, deganday gapini davom ettirdi:

– Uyg'otganim uchun kechirasan, Platon. Balki bu suhbatni ertalabga qoldirarmiz? Ochig'ini aytganda, boya juda g'alati kayfiyatda edim... Hozir ancha durustman. Mana endi uxlasam ham bo'ladi. Rahmat senga...

Jahldan lo'ppi yuzi taranglashgan Samsonov shivirlashga o'tdi:

– Menga qara, Vadim, sen meni kim deb o'ylayapsan o'zi? Senga hali balogardon, Sancho Panso bo'lib qoldimmi? Sendan achchiqlanishga haqim bor axir. O'zing ayt-chi, men bu yerlarga nega keldim o'zi? Qaysi buyuk vazifalar uchun ishlarimni tashlab bu o'lkalarda yuribman? Odam bundan ham ortiq ahmoq bo'lmas, deyman! Nima, men Nikitinning tilmochimanmi? Qurolbardorimi? Komissarimi? Nemislar buni juda ham yaxshi tushunishadi! Men senga kimman o'zi? – Samsonov kresloda chayqalib, xonaga ohista musiqqa taratayotgan priyomnikka zimdan qarab ko'ydi. – Sen bo'lsang shundayngi kutilmagan gaplarni aytyapsanki, hatto odamning esi teskari bo'lib ketadi! Senga o'zimizning jonajon vatanimiz tilida ochiq-oydin aytib qo'ya qolay... Ha, o'zimizning ona tilimizda aytaman! Bilsang, o'sha qirq beshinchi yildagi nemis qiz-u Gerbert xonimning ivir-shivirlari hammasi bo'lmagan gap, maynavozchilik! Men ularning tirjayishlariga ham, gaplariga ham ishonmayman! Ular senga to'r tashlab, qandaydir oltin qafaslariga tiqishmoqchi! Payqamayapsanmi? Sezmayapsanmi?

Samsonov yana odatiga ko'ra qo'llarini ko'ksida chalishtirgandi, Nikitin uning nam ko'zlari xunuk yaltirayotganini sezdi. Samsonov shu tobda bor gaplarini to'kib solishga o'zlik qilayotganday ko'rinardi. Nikitin og'aynisining behuda koyinayotganini ko'rib butun vujudi alamdandun junjikib ketganday bo'ldi.

Bundan ko'p yillar muqaddam ikkovining o'rtasida shunga o'xshaganroq bir ish bo'lib o'tgandi. O'shanda ikkovi «Praga» restorani (yoz kuni edi) har qanday to'siqlarni yengib, pirovardida adabiyotga yorib kirgan, asta-sekin uning cho'qqilarini egallayotgan harbiy avlod haqida gaplashib o'tirishardi. Harbiy avlodning birov tanimaydigan leytenantlaridan katta zobitlar yetishib chiqqanini ham tilga olishdi. Samsonov tongda Yaltadan qaytib kelgan, u yerda har yili yozdagi kabi kuniga yarim betdan bazo'r yozib, povesti ustida ish olib borgandi. U har qalay qorayib, birmuncha to'lishib kelgani uchun to'rt qadah konyakdan keyin terlab-pishib qizishgancha Nikitinga, sen Olimpga chiqib olding, yaqin orada polkovnik unvo-nini ham olasan, men hozircha oddiy kapitanligimcha qolsam-da, olti oylardan keyin, ehtimol bir yil o'tgach, hamma polkovnig-u, generallaring og'izlarini ochib qolaveradilar, mana ko'rasan, deb shang'illardi...

«Ha, haqiqiy asar yaratmoq uchun, Vadik, – derdi Samsonov qorni stolga tiralganidan har nafas olganida uni lopillatib, – yoningda qadoq toshing bo'lishi, har kuni bir satr, bir abzas, chorak sahifa yozishing kerak. Ha, yuni shundayngi yaxshi qurginki, uning birorta kovagi bo'lmasin, eshiklari g'ichirlamasin, igna o'tadigan ham joyi qolmasin. Men urush haqidagi haqiqat va avlodimizga oid bor gapni yozaman. Povestimni tugatay, ana o'shanda hammang chapak chilib qolasizlar, ha, shunday! O'shandagi ahvolingizga qattiq achinaman! Eh, o'shanda senga o'xshash maqtalgan prozaiklar oyoqlarim ostida o'ralashib qolasanlar! Qani, o'shanda senlarga yo'l bo'lsin, qo'llaringdan nima ham kelardi? Mana shuni unutmasing uchun alohida ichaman! – Samsonov konyakni ko'tarib, boshini silkigach, ko'zoynagi tepasidan Nikitinga qaragan ko'yi gazakli likoplarni nari surarkan, stol chekkasiga tirsagini tirab, sosiskani eslatuvchi bar-moqlarini kayfda tutoqib qimirlatdi. – Qani, Vadim, bir kuch sinab ko'raylik-chi, kim kimni yengarkan-a, xo'sh, boshladikmi? O'zingni sinab ko'r! Jek Londonchasiga».



«Sen, Yaltaning oftobida aynib qolganga o'xshaysan, Platosha, – dedi Nikitin yaqinrog'idagi stollar tomonga qarab. – O'zingni g'olibman, deb hisoblayver».

«Yo'q, Vadik, qani, mardlarcha olishamiz, ayashingga tobim yo'q, – Samsonov bo'sh kelmay Nikitinning qo'lidan tortib, qo'yvormay ushlab turaverdi. – Qani, boshladik, klassik!»

«Bo'pti, bo'pti. Butun Ivanovskayani boshingga ko'tarma. Uzat qo'lingni, pahlavon!»

Nikitin bo'sh kelmay, kuchi boricha uzoq qarshilik ko'rsatdi, biroq Samsonovning bahaybat, katta va terlagan qo'li bamisoli darvoza qisganday qo'lini zirqiratar va tobora stolga egardi. Nikitin yengilarkan, Samsonov olishuv paytida juda g'azabnok, kayf va hazilni ham unutib, juda yomon – dushmanona qarash qilganidan hayratda qolgandi.

«Kimning qandayligi mana endi ma'lum bo'ldi, Vadim, – dedi Samsonov mamnunlik bilan nafasini rostlab, – endi hisob-kitob qil-sak ham bo'ladi. Men to'layman».

Lekin Nikitin ham o'shanda yonidan kartmonini chiqarib, katta ketayotgan prozaik Samsonovga xufiya millionlari borligini aytib maqtanmoqchi va shu yo'l bilan mag'lubiyati alamini biroz bosmoqchi bo'lgandi. Samsonov esa Nikitin cho'ntak kovlayotganini ko'rib, bunga sira ham ko'nmay, o'zi hisob-kitob qilgan, choy puli ham bergandi. «Bizning pullarimiz ham halol mehnat bilan topilgan, Vadimushka». Shundan keyin ikkovi taksi bekatiga borgan, Samsonov sherigi bilan shosha-pisha va quruqqina xayrlashgan, Nikitin esa g'alati ahvolda qolavergandi.

Keyinchalik ular o'sha suhbatni ham, «Praga»dagi «Jek Londoncha» olishuvni ham eslashmagan, Samsonovning kattaroq ketgani ham bora-bora yoddan butunlay ko'tarilgandi. Lekin Nikitin ayni paytda Moskvadagi birorta restoranda emas, balki nemislar mehmonxonasida tungi allamahal pallada Samsonovdan nordon gaplar eshitib, uning xo'mrayishiga javoban na qilarini bilmasdi. «Yo tavba, bu gaplarni nega aytyapti o'zi? Meni muhokama qilib, ogohlantiryaptimi? Bo'lmasa, nega meni yerga urmoqchi bo'layotganday g'ijinib gapiryapti?»

– Rahmat, uyqungni buzganim uchun kechirasan, albatta, – dedi Nikitin. Ammo uning uzri zo'raki va nosamimiy chiqdi. – Qolgani-

ni ertaga gaplasharmiz. Menimcha, sening xaloskor doringni konyak bilan ichadigan va gud bay, deydigan fursat yetdi. Mabodo mendan oldinroq uyg'onib qolsang, eshigimni taqillat yo qo'ng'iroq qil! Yaxshi yotib tur, Platosha.

– Umid qilamanki, hammasini yaxshi tushunib turibsan? – so'radi Samsonov priyomnikdan chaqchaygan va shishinqiragan ko'zlarini uzmay, alamli ohangda. – Men jiddiy gapiryapman...

– Yaxshi tushundim. Mayda-chuydasigacha. Minnatdorman, Platon. Ma'nili maslahating uchun tashakkur.

– Unda tez yotib, miriqib uxlab ol. Ertaga hammasini oxirigacha muhokama qilamiz. Men barvaqt turaman, o'zim uyg'otaman.

– Yaxshi yotib tur, Platon. Dorini konyak bilan ichib qo'yamizmi?

– Ol-a! Yolg'onni qo'y, Vadim! Kechirasan-u, o'zingni zo'r berib samimiy ko'rsatishga urinishlaring yoqmayapti. Salomat bo'l, Yevropa vaqti bilan seni yettida uyg'otaman! – Samsonov ostonaga yetganda shunday dedi-da, bumini qattiq torta-torta nomerdan chiqib ketdi.

Eshik qulfining shiq etgani eshitildi. Nikitin yolg'iz o'zi qolgani-dan keyin eshikni qulflab, uyqusizligi tufayli hali yana qiynalishini o'ylab kresloga og'ir cho'kdi-da, Samsonov tumbochkada qoldirgan dimedrolni konyakka qo'shib ichdi. So'ngra yechinarkan, o'zini yomon his qilib yana xayolga berildi:

«Nachora, gapimiz qovushmadi hisob, ikkimiz ham o'zimizdan va bir-birimizdan qanoat hosil qilolmadik. Men boshqacha musobaqani xohlovdim. Biroq Samsonov meni yaxshi ko'rgani uchun rashk qilayotganga o'xshaydi; shuning uchun ham keskin gapirgani botinolmayapti. Uf, bularning bari naqadar bema'ni va yoqimsiz! Qani endi hozir to'yib uxlab olsam-u, o'sha la'nati gaplarini unutsam. Ertalab tiniqib va yengil tortib uyg'onsam, Gerbert xonimni ko'rsam. So'ng bari ochiq-oydin bo'lardi-qolardi. Emma! Emma? Yo'q, bunaqa bo'ladi deb xayolingayam kelmagandi. Sira ham o'ylamagandim! Ha, dunyoning ishlari g'alati, bu olam esa shunchalik tor! Nahotki Gerbert xonim o'sha Emmaning o'zginasi bo'lsa, nimalar bo'lyapti o'zi?...»

Nikitin yechinib bo'lib, sigareta tutatdi-da, yotishdan oldin pijamada sarpoychan qalin sintetik gilamni bosib, qorong'ilikda yoqim-

siz musiqa yangrab turgan priyomnikka yaqinlashdi. U priyomnikni o'chiradigan tugmani qidirarkan, shu payt eshikning qattiq va tinimsiz taqillashidan cho'chib tushdi:

– Kim u? Senmisan, Platon, nima bo'ldi?

– Men, och!

Nikitin ham taajjub, ham xavotirda shoshib eshikni ochdi. Beso'naqay Samsonov eshik kesakisiga urilib shippagini tapillatgan ko'yi, jonsarak holda shiddat bilan ichkariga kirdi. Chamasi u tez-tez yurib kelgani uchun harsillab bidirlay ketdi:

– Bir gap esimga tushib qoldi, Vadim. Quloq sol: haligi nemis jurnalist, nashriyotning bosh muharriri bor-ku, oti nimaydi... Ditsman. Uning senga go'yo Berlinda, qirq beshinchi yilda ko'ruvdim, degani esingdami? O'sha savol yodingdan chiqmadimi? Urush haqida gap ketgandi... Hammasi aniq esingda turibdimi?

– Ha, esimda.

– U mendan qayerda jang qilganimni ham so'ragandi. Senga daxldor yana qandaydir g'alati, o'xshovsizroq gap ham qiluvdi. O'sha g'alati gap yodingdami? Shundan so'ng u qandaydir shamalar qilgan, Gerbert xonim bilan ko'zlarini urishtirib qo'ygandi-a! Shundan keyin chek daftarchasini oldingda silkitgan o'sha... shubhali shahvatparast faylasuf chiqib ketdi! Ilonday cho'zilib, tirjayib, ingichka barmoqlaridagi sigaretani iskardi... U nimaga shamalar qilgandi, Vadim? Nimaga? Maqsadi nima edi? Uning gapni senga burib, nemisni o'ldirishga ko'zingiz qiymaydi, degani yodingdami? Bu qandaydir ayyorona yaltoqilik edi!..

– Mengami? Bunday narsani aytolmagan bo'lardi. Yanayam esimda yo'q...

– Nima? «Aytolmasdi», deysanmi? Nimasi «esingda yo'q?»

Nikitin karavotga o'tirib «Shtern»ni varaqladi-da, keyin yostiqqa tashladi.

– Gap shundaki, Platon, janob Ditsman bilan urushda uchrashmaganman, uni eslolmayman. Biroq qirq beshinchi yili men boshqa bir nemisni bilardim – uning ismi Kurt edi. U Gerbert xonimning tug'ishgan ukasi edi. Yurak oldirib qo'ygan askarcha, mishiqli bir bola. Hammasini aytadigan bo'lsam, ancha-muncha vaqtni oladi. Ditsman ham Gerbert xonimdan ba'zi bir narsalarni eshitgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bu ehtimolga yaqin. Qirq beshinchi yilda

Kurtning taqdiri ma'lum darajada bir leytenant do'stinga va menga bog'liq bo'lib qolgandi. Kurtni Berlindan keyin asir olgandik. Umu-man aytganda, Platosha, bu borada juda chuqurlashib ketmayapsan-mi?

Samsonov hayajonda xonaning u boshidan bu boshiga yurar, chamasi, ko'zoynaksiz yaxshi ko'rmayotgani uchun tizzasi bilan dam kresloga, dam chamadon qo'yadigan taglikka, dam pastakkina jurnal stolchasiga qoqilib ketardi. Nihoyat, karavot oldida to'xtab, ko'zlari bilan Nikitinga xuddi teshib yuborguday tikildi.

– Soddalarning juda ko'pini ko'rganman-u, biroq sendaqasi-ni sira ham uchratmagandim, Vadim, ha! Tushunsang-chi axir, hoy inson, ikkimiz ham hozir qichitqi o't ichida berkinmahoq o'ynayotgan ko'rlarning ahvoliga tushib qolyapmiz! Rossiyada emasmiz, bu yerda ham hov o'sha qovohxonadagi singari sharmandali vaziyatga tushib qolishimiz hech gap emas, har nima bo'lishi mumkin, birovga dod deb borolmaysan! Bu yerda, Gamburgda hat-toki konsulxonamiz ham yo'q! O'sha Ditsman bilan Gerbert xoni-ming bizdan nima istayotganlarini tushunib yetgunimizcha kech bo'lmasaydi, deb qo'rqaman!..

– Qo'ysang-chi, azizim Platon! – Nikitinning toqati toq bo'ldi. – Nima bo'ldi o'zi senga? Xudo haqqi, uzluksiz dakkilaring jonimga tegdi. Bu shubhalaringga birorta asosli daliling bormi? Nimalarni gapiryapsan o'zi? Shubhalaring quyushqondan chiqib ketmayapti-mi?

«Nimaga u bunchalar azoblangan ko'rinadi? – o'yladi Niki-tin ichida. – Ko'zlari qadimiy butlardagi ommaviy halokatimiz qayg'usida ezilayotgan avliyolarning ko'zlarini eslatadi-ya... Mana hozir undagi o'zgarish yaqqol sezilyapti. Nahotki u o'zining gapla-riga mutlaqo ishonsa yo bu gaplarida boshqa narsa, ho' o'shanda, «Praga»da bo'lgandagiday menga g'ashlik pinhonimikin? Rostdan ham bu dunyoning ishlari g'alati-da... Samsonov odamlar haqida bir qarashdayoq xulosa qilaveradi, bu ish unga ham yengil, ham qiyin. Qiyinligi shundaki, u hukm chiqarishda juda beayov, lekin mantiqqa suyanadi. Jumladan, menga nisbatan ham».

Samsonov ikkala qo'li bilan lo'ppi yuzini ishqalarkan, komil ishonch bilan dadil gap boshladi:

– Quyushqon, deysanmi? Mabodo oqilona xulosani quyushqon deydigan bo'lsang, shunday bo'la qolsin, Vadim! Xulosa esa shunday – iloji boricha bu yerdan tezroq jo'nab qolish kerak. Bu eng oqilona qaror. Iloji boricha tezroq! Imkoni bo'lsa, ertaga ertalab yo kunduzi. Bilet buyurish kerag-u Moskvaga uchish kerak. Bunga har qancha sabab topsa bo'ladi: iqlim o'zgarishining sog'lig'imizga ko'rsatgan ta'siri deysanmi, xullas, shunga o'xshash biror narsa deyiladi. Vaqt borida jo'nash, tezroq jo'nash lozim. Bo'lmasa asalga botgan pashshaday osongina qo'lga tushamiz.

– Nimalar deypasan, Platon, – dedi Nikitin kulimsirab, – yoki menga ishonmayapsan yoki Rim papasidan ham pokdomonroq ko'rinmoqchisan shekilli. Xayolingga kelgan gaplarni qara! Nega bunchalar tashvishlanib, qafasga tushgan qushdek pitillaysan? Senga hech tushunolmay qolyapman. Ayni paytda sen xotirjam, bag'rikeng bo'lishing, ko'p yeb, ko'p ichishing, tabassum qilishing, hazillashishing, xullas, jozibali ko'rinishing kerak. Sen bo'lsang naq ko'zi qonga to'lgan buqani eslatyapsan!

– O'sha gapim gap, – davom etdi Samsonov Nikitinning gaplariga parvo ham qilmay. – Birinchidan, biz bu yerdan tezda jo'nab qolishimiz lozim, buning uchun bahonani oldindan aytib qo'yish kerak bo'ladi. Biroq bu arzimagan narsalar, mayda-chuydalar. Ikkinchidan, men o'zimdanda emas, sendan xavotir olyapman. Uchinchidan, sen o'zingni Gamburgda emas, Kalugada deb xayol qilyapsan, raykom yoki militsiyaga qo'ng'iroq qilsam hammasi tinchiydi, deb o'ylayapsan! Shundaymi? Yoki...

– Hozir aytishib qolamiz, Platon! Gaplaringda asos yo'q, bari uydirma xolos, sira ham aqlga to'g'ri kelmaydi! Biz hech qayoqqa ketmaymiz. Bu bema'nilik bo'ladi. Yo'q joydan vahimaga tushaverma. Nimalarni o'ylayapsan o'zi? Seningcha meni janob Ditsmanga o'xshaganlar chalg'itib, G'arbiy Germaniyada zo'rlab olib qolishmoqchi, shundaymi? Nega? Bundan nima naf? Men kimman – vodorod bombasining sirini biladigan fizikmidim? Yoki konstruktorlik byurosining boshlig'imanmi? Bu yerda kimga ham kerakman?

– Demak, yolg'iz o'zim qaytarkanman, – Samsonov harsillab gapirarkan, ko'zlarini takabburona suzib, kulimsiradi. – Ha, o'zim, – dedi-yu jahl bilan so'radi. – Sen shuni istaysanmi?

Nikitin karavotga cho'zildi-da, qo'lini boshi tagiga qo'yib dedi:



– Nachora, ketaver. Meni rosa ogohlantirding. – Nikitin shunday dedi-yu, lekin gapi qovushmaganidan, bunday vaziyatlarda doimo qo‘l keladigan beg‘araz hazil qilolmaganidan ko‘ngli to‘lmay qo‘shib qo‘ydi. – Biz o‘zi nimaga janjallashyapmiz, Platon? Nima, shuning uchun xorijga kelish shartmidi?

– Bas qil! Agarda men senday badbaxt idealistni yaxshi ko‘rmaganimda bularning bariga tupurgan bo‘lardim... Ha, men sensiz hech hayoqqa ketmayman, chunki do‘stlarga xiyonat qilishni o‘rganmaganman! Hozircha shundayman! – Samsonov ovozi balandlatdi. – Biroq men, badgumon tentak, seni ogohlantirganim esingdan chiqmasin! Bor gapni aytdim! Mabodo ko‘zingni ochmasang, holing xarob bo‘ladi! Ko‘zingni och, Vadim, qadamingni bilib bos! Es-hushingni yig‘ib ol, aks holda, ertaga kech bo‘ladi, shuni unutma!

– Platon, men uxlamoqchiman. Dori ichgandim...

– Men esa sen – subyektiv idealistga yana takrorlashdan charchamayman: es-hushingni yig‘ib ol, do‘stim!..

– Platon, men uxlamoqchiman. Dimedrolni ichgandim.

Nikitin Samsonov xonadan qanday chiqib ketganini ko‘rmadi, faqat eshik qulfining shiq etgani eshitildi. Bir ozdan so‘ng mehmonxona yo‘lagi eshigining ham ohista yopilgani eshitildi. Yo‘lakda tun sukunati hukmron, uni devorlardagi chiroqlar xiragina yoritar, oqish tuyulgan poyandoz gilam bo‘zrang devor tagida cho‘zilgan, har bir ostona oldida juft-juft tizilib turgan tuflilar go‘yo egalaridan abadiy ayrilganday tuyulardi. Yo‘lakda ham, butun mehmonxonada ham na biror harakat va na biror tovush eshitilardi.

Sintetikaning chuchmal hidi kelib turgan Nikitinning nomerida elektr isitgich chirsillagan tovush chiqarar, yomg‘ir goh-gohida oynani chertar, priyomnikdan yasama ehtiros bilan kuylayotgan xonandaning ovozi eshitar, u Madlen degan yosh qizchaga mashinangni to‘xtat, tizzamga o‘tirib, ko‘ylaging tugmalarini yech, deb il-tijo qilardi. Xullas, bu xonada kimdir uzaytirgan, bo‘lakcha, begona, noma‘lum bir hayot mavjud edi. Nikitin ko‘zlarini yumib yot-gancha xayol surardi.

«Nega baribir o‘zinga kelolmayapman? Hozir o‘rimdan turib, Emmaga telefon qilib, yomg‘irda tun qo‘ynidagi Gamburgni kezib, ertalabgacha gaplashib yurishni taklif qilsam-chi? Biroq nimani gap-

lashamiz? Bu nimani ham har qilardi? Yoki ketsammikin, ertagayoq jo'nab qolsammikin? Samsonov vahimada, bu gaplardan yurak ol-dirib qo'ydi. Ko'p narsani bilib olgani uchun ularni endi hazm qila olmayapti. Bularning bari nima bilan tugar ekan-a?...»

## IKKINCHI BOB

– Xo'sh, G'arbiy Germaniya sizga yoqdimi, janob Nikitin? O, yo'q, savolni bu tarzda qo'ymasligim kerak edi. Sizning biz – g'arblik nemislardan hafsalangiz pir bo'lmadimi?

– To'g'risini aytaveraymi? Agar «ha, yoqdi» desam o'zimni aldagan bo'laman, «yo'q» desam sizni xafa qilib qo'yishim muqarrar, janob Ditsman. Men bir aqlli nemisning quyidagi gaplariga qo'shilaman. U taxminan shunday degandi: «Bir mamlakatning ikkinchi mamlakatdan alamzadaligi va o'zaro ishonchsizlik Yevropaning jarohatli vujudini zaharlamoqda». Durust aytilgan-a, shunday emasmi?

– Bu sitatami? Muallifi kim? Tomas Mannmi? Remarkmi?

– Stefan Sveyg, yaxshi nemis yozuvchisi.

– Afsuski, Sveyg hozir urfdan qolgan va allaqachonlar o'lib ketgani uchun uni juda kamchilik eslaydi.

– Bekor qilasizlar. Sveyg qirq ikkinchi yilda vafot etgan. qir-qinchi yillar esa Germaniyaning yaqin o'tmishi.

– G'arbiy Germaniya qirqinchi yillardan ancha yiroqlab ketgan. Bizda, siyosiy urushda yutqazdig-u iqtisodiy urushda yutdik, degan gap bor. Bu jumboqli g'alabani bilmoq sizga qiziqarli bo'lar, deyman? Reyx mag'lubiyatidan keyin ittifoqchilar nemis zavodlaridagi uskunalarni reparatsiyalarga binoan sanoat markazidan tashib keta boshladilar. Biroq ular eski, urushgacha bo'lgan dastgohlar edi, janob Nikitin. G'arb bilan Sharq o'rtasida «temir parda» mavjud bo'lgan yillarda Amerika Germaniyaning vayron qilingan sanoatiga million-million dollar kiritishga tushdi, g'arblik nemislarga ko'p qarz berib, zamonaviy uskunalar bilan ta'minladi. Shunday qilib qisqa vaqt ichida, Marks iborasi bilan aytganda, aso-siy kapitalni yangiladi. Siz marksistsiz-ku, axir... Shundan keyin farovonlik boshlandi, bu esa barcha turdagi tovarlarning bo'lishi, barqaror marka va iqtisodning gullashi demakdir... O'z tirikchi-

ligini o'ylagan nemis qirqinchi yillarni allaqachonlar unutib yuborgan, u yangicha yashayapti, qorni to'q, endi o'sha davrdagi kartochkalar-u sun'iy mahsulotlarni eslamaydi ham. Siz Gamburg do'konlarini aylandingizmi?

– Ha, peshoynalariga qaraganda ajoyib do'konlar.

– Janob Nikitin, sizdan hech nimani yashirmayman, bor haqiqatni aytaman. G'arbiy Germaniya urushdan keyin cho'chqaday semirib, ko'zlari-yu miyasini yog' bosdi. Odamlar barcha narsa muhayyo olamda yashab, hissiz iste'mol mashinalariga aylanib bormoqdalar. Sigaretangizdan bitta olsam maylimi? Chekishni tashlab yuborganman, biroq hanuzgacha tamaki isini xush ko'raman.

– Marhamat.

– Minnatdorman. Hidi juda yoqadi-da qurnag'urning. Xullas, gap shundaki, janob Nikitin, hozirgi zamon g'arb nemislari «mersedes»ning yangi modellari. muzlatkichlar va shahar tashqarisidagi qulay hovli-bog'lar haqida bosh qotiradilar, o'rtahol nemisning yuksak ma'naviy hayoti, ma'naviy e'tiqodi yo'qolyapti yoki allaqachon yo'qolib bo'lgan... Pragmatizm barini o'ziga bo'ysundirgan. Hammaning manbasi-yu andozasi – Amerika. Oradan bir necha yillar o'tgandan keyin Sovet Ittifoqi ham semirib ketadimi, deb qo'rqaman, janob Nikitin. Ana o'shanda sizlarda ham ma'naviy hayot yo'qoladi: mashina, kvartira, shahar tashqarisidagi kottej, muzlatkich kabi maishiy mayda-chuydalar xuddi G'arbdagi singari asosiy maqsadga aylanadi. Sizlar ham asta-sekin qirqinchi yillarni, urushni, azoblarni unutasizlar...

– Unchalik emasdir. Lekin to'g'ri, bizni ham buyumlar olami-ning sinovi kutmoqda.

– E'tiqod sinovi ham.

– E'tiqod sinovi deganda nimani nazarda tutyapsiz, janob Ditsman?

– Sizlarning e'tiqodingiz kommunistik nekbinlik. Sizlar amaliyotchisizlar. Bir vaqtning o'zida ham materialist, ham idealistsizlar, garchi qadimiy aqidalarni talqin qilsangizlar ham inson, qandaydir ideallar va hayot mazmunidan so'z ochmoqchi bo'lasizlar. Urushdan keyingi G'arbda esa idealga bunday e'tiqod yo'q, hamma Injildagi va insoniy yaxshilikka to'ygan, yaxshilikni ravo ko'ruvchi eski ilohalar o'tib ketgan, endi ular yo'q, misol uchun ilgarigi oila, mu-

habbat, nikoh tushunchalaridan ham asar qolmagan. Sizningcha, hozirgi dunyoni ushlab turgan narsa nima?

– Mening nazaramda orzu va umid.

– O, tushunaman! Ruslar dunyoni ikkita kit ushlab turishini orzu qilishadi, ya'ni ular – umumiy tenglik va har bir odam uchun bir xildagi farovonlik olib kelishi lozim. G'arb olami esa hozir olamni uchta kit – sport, ishqiy sarguzasht va televizor yordamida ushlab turishda davom etmoqda. Yana bitta jirkanch kitcha ham bor, u – siyosat. Bu kitcha Sharqda ham suzib yurganini aytishni istardim.

– Faqat ikkita jihatga aniqlik kiritaman, janob Ditsman. Birinchidan, o'sha bizga tarixan ma'lum bo'lgan jamiyatlarning bi-rortasi ham o'sha kitchasiz yashay olmagan bo'lardi. Ikkinchidan, noma'lum, yolg'iz zarralarning bir tekisdagi tengligi, – men ayon haqiqatlarni aytyapman, – moddiy boyliklar taqsimotidagi tenglikdir. Fan va san'at haqida gapiradigan bo'lsak, o'rtamiyonalik bilan qobiliyat va iste'dod doimo bir-biridan farqlanadi, deb o'ylayman.

– Siz bir xildagi zarralarga qarshisiz, shundaymi?.. Biroq bashariyatning aksar qismi shunchaki g'imirlab yurgan nomsiz chumolilarning o'zginasidir, janob Nikitin.

– Bu, menimcha, tushkun ta'rif janob Ditsman. Men har bir odam cho'qintirilishi, o'z ismi bilan atalishi tarafdoriman. Qolaversa, buni ongni yuksaltirish marosimi, deb atasa ham bo'laveradi,

– Siz romantiksiz, kitoblaringizda garchi bu unchalik sezilmasada, ilg'ab olsa bo'ladi. Ko'pchilik odamlar nimani istayotganlarini o'zlari ham bilmaydilar degan fikrimga qo'shilersiz? Ular nima istashadi: bifshteksmi, mashinalarmi, televizormi? Haqiqat shumi? Pirovard maqsad shundami? Yo'q, odamlar hali o'zligini anglab yetmaganlar. Ular o'zlariga o'zlari ishonishlari uchun nima qilishlari kerak? Inqilobmi? Siz bunga, turgan gap, marksistik nuqtai nazardan qaraysiz... Inqilobmi? Sinfy kurashmi? So'nggi mohiyat qanday bo'ladi, u nimalarga olib keladi? Yana o'sha gap, muzlatkichlar hamma uchun degan bema'ni orzu so'nggi maqsad bo'lib qolaveradi.

– Inqilob – axloqsizlikni inkor etish va axloqni barqaror etish, ya'ni insoniyat va kurashga ishonch. shuningdek, harakatga qo'llanma sifatidagi vijdon tarafdoridir. G'arbda e'tiqod va ideallar

bo'lmaydi, degan gapni o'zingiz aytdingiz. Menimcha, e'tiqod – umid va haqiqatga hissiy munosabatdir. Agar u bo'lmasa yechim ham bo'lmaydi.

– Yechim hozircha yo'q, janob Nikitin... bunda bitta narsa – palliativ<sup>1</sup> xristianlikni marksizmga uyg'unlashtirish mustasno. Men dinsizman va kishini poklovchi ibodatlariga ham ishonmayman. Men faqat ana shu g'alati simbiozga – bechoralar uchun biror chora bo'lishi lozimligiga ishonaman, ularning loqal birorta narsaga e'tiqodlari bo'lsin-da.

– Bunga ishonchingiz komilmi? Buni qanday amalga oshirish mumkin? Birlashmaydigan narsani birlashtirib bo'larkanmi? Axir Iso Masihning ham odamlarga o'zingni urintirma, deb inson g'ayratini yerga urgani azaldan ma'lum-ku...

– G'ayrat?! G'ayratini, deysizmi? Siz gapingizni oxirigacha aytmadingiz: shuning uchun ham Isoni chormix qilishgan, demoqchisiz-da... Shundaymi, janob Nikitin?

– Yo'q, menimcha, Isoni qariyb barchani qanoatlantiradigan boshqa bir taqvo kirib kelishiga ishonganlari uchun ham chormix qilishgan. Biroq bunday bo'lmaydi.

– Mamlakatingizda bu taxlit fikrlash va gapirish taqiqlanmaganmi?

– Mana, gapirayotganimni ko'rib turibsiz-ku... Biroq... kechirasiz, taajjubingiz sababi menga tushunarsiz. Nima uchun mamlakatingizda taqiqlanishi kerak ekan bu?

– Meni sizlarda uzoq yillardan buyon shaxsga sig'inish mavjud bo'lgani taajjubga soladi. Iso Masihning ham shaxsiga sig'inilgan edi. Stalin shaxsiga sig'inish ham shunday bo'ldi. Stalin ham sizlarda xudoning noibiday gap edi. Unga sajda qilardingizlar.

– Menga qarang, janob Ditsman, pirovardida sizga ochiq-oshkora va ehtimol qo'polroq savol berishimga ijozat etasizmi? Men sizga rosa quloq soldim, endi esa gapingizni bo'lishga ruxsat etasiz.

– Albatta, janob Samsonov! Siz chindan ham uzoq sukut saqladingiz, men istagan savolingizga bajonidil javob beraman.

– Savolim sizga zavq bag'ishlaydi, deb o'ylamayman, janob Ditsman. Shunday bo'lsa ham, ochig'ini aytganda, bizdagi shaxsga

<sup>1</sup> Palliativ - vaqtinchalik chora, tadbir.



sig'inish bilan sizning nima ishingiz bor? Ha, avvalo shaxsan sizning? Qolaversa, boshqa g'arblik nemislarning ham?

– Men ishlaringizga aralashishni istamayman, biroq siz, janob Samsonov, ayni paytda istagan ishingizni qilishingiz va og'zingizga kelganini gapirishingiz mumkin bo'lgan, qusurlar va kamchiliklar to'lib yotgan G'arb mamlakatidasiz. Lekin bunda ham ma'lum chegara bor, albatta. Siz nisbatan erkin ekanligimizni inkor qilmasangiz kerak? Yana bir bor ta'kidlayman: nisbatan...

– Hm! Jumboq! Unda nima sababdan mamlakatingizda kommunistlarga kun bermay kompartiyani taqiqlab qo'yishdi?

– Bu meni ham g'azablantirayotgan bema'niliklardan biri. G'arbiy Germaniyaga kommunizm ham, natsizm ham malol kelmaydi. Sharqiy Germaniyadagi nemislarga birgina kommunizmning o'zi yetarli. Qo'shnilarimiz uchun bu tashrif qog'oziday bir gap va bu hammaga birday yoqmayapti.

– U nimasi bilan yoqmayapti? Bunga sabab u yerdagi tuzumning boshqa ekanligimi?

– Ba'zi jabhalarda sharqlik nemislardan durustroq yashayotganimiz uchun.

– Ular ertami-kechmi barcha sohalarda sizlardan o'zib ketishlari ham mumkin-ku! O'shanda nima deya olasiz?

– Hozir odamlar faqat bugungi kun bilan yashashadi, janob Samsonov. Shunday bo'lsa ham men janob Nikitindan so'ramoqchiman. Siz ham hozirda demokratik mamlakatda bo'lib turganingizni inkor etasizmi?

– O'zingiz hozirgina mamlakatingizdagi ozodlik nisbiy ekanligi borasida fikr bildirdingiz. Bu borada men siz bilan hamfikrman. Avvalgi savolga kelsak, bundan yigirma yillar muqaddam myunxenlik bir vasvas o'zini ikkinchi Iso Masih, bashariyat xaloskori deb e'lon qilgandi. U insonlarni kommunizm va slavyan illatidan qutqaraman, degan gaplarni qilgandi. Shundan keyin Yevropa va Osiyoda ellik olti million kishi nobud bo'ldi. Ular orasida slavyanlar ham, slavyan bo'lmaganlar ham bor edi.

– Shoshilmasdan, sekinroq gapiravering, janob Nikitin, kechirasiz-u, sizni tushunishimga shevangiz xalal beryapti. Gapingizni tushundim, biroq jumlangizdagi ishorani ilg'ab ololmadim. Natsizmga shama qilyapsizmi? Nemislarning bashariyat oldidagi ulkan gunohlarini eslatyapsizmi?

– Bu yerda hech qanday ishora ham, shama ham yo‘q. Men insoniyatni qutqaruvchi ishonch va ezgulikni har xil tushunish mumkinligini aytdim: ezgulik uchun yovuzlikni, yovuzlik uchun ezgulikni qurol qilish ham mumkin. Buni qadimgi rimliklar ham juda yaxshi bilishgan.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri! Ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasida bamisoli siam egizaklarini birlashtirib turgan qon tomirlari singari omonatgina chegara bor, shunday emasmi? Hozirgi zamon kishisi ichki olamining eng qiziq tomoni, ruhiy chegaraning omonatligi ham shundan. Sizning Dostoyevskiy degan yozuvchingiz romanlaridagi asosiy narsa shu. Uning romanlari G‘arbda juda mashhur. Bundan xabaringiz bormi?

– Safsata!

– Uzi, nima dedingiz?

– Kechirasiz, buni ruschasiga aytuvdim... Yumshoqroq qilib nemichasiga aytganda, «bunday emas», ya‘ni Dostoyevskiy haqidagi gaplaringizga javoban aytyapman.

– Xo‘sh, nega?

– Menimcha, Dostoyevskiy asarlaridagi asosiy mavzu insondagi haqiqatni, olamdagi va o‘zidagi ilohni qidirmoqdan iboratdir. Aniqroq aytadigan bo‘lsam, ilohiylik bu yerda ezgulik bilan odamlarning ko‘zini ochishga nisbatan qo‘llanilmoqda. O‘ta aqliy bahsimizdan toliqib qolmadingizmi, janob Ditsman? Buning ustiga men nemis-chani uncha eplayolmayman, chamasi, sizni charchatib qo‘ydim. Ikkovimiz ham zaldagilarni toliqtirib qo‘ydik. Ehtimol, boshqa biror aniqroq mavzuda suhbatlasharmiz. Nima dedingiz?

– Mutlaqo toliqqanim yo‘q, janob Nikitin... Bu suhbatimiz bahs emas, balki G‘arb bilan Sharq, sharqlik yozuvchi bilan g‘arb jurnalistining ko‘pchilik oldidagi ochiq muloqotidir. Ko‘pchilik e‘tibor bilan gapimizga quloq solayotganiga qaraganda, har qancha g‘alati tuyulishiga qaramay, nuqtai nazarlarimiz mushtarak kelayotgan o‘rinlar ham bor. Men siz haqingizda bahs ustasi va g‘arblik yozuvchilar bilan ko‘p marta uchrashib muloqot qilgan, degan fikrga keldim. Parijda bo‘lgan bir munozaradagi ishtirokingiz haqida o‘qigandim. O‘shanda siz sotsialistik realizm, ma‘no san‘ati haqida so‘zlagandingiz. Adashmayapmanmi?

– G‘arbdagilar romanlarim va shaxsiyatimga qiziq boshlaganlaridan beri meni xalqaro munozaralarga taklif qila boshlashdi. Men

ham har qanday yozuvchi singari bahslashishni va bu orqali nimani-dir o'rganib olishga intilaman – loaqal opponentimning nuqtai nazarini bilishga harakat qilaman. Oddiy haqiqat, janob Ditsman, aslida juda jiddiy hodisa. Mabodo boshingiz og'riyotgan bo'lsa, oshqozon og'rig'i dorisini ichmaysiz-ku. Mabodo ayolni sevsangiz, simyog'ochni quchoqlab o'pmaysiz-ku. Nimaiki demang, bu dunyoda mutlaqlik degan tushuncha bor.

– Zo'r gap, janob Nikitin! Shunga qaramay fikringizga qo'shilolmayman. «Sevgi» tushunchasiga hozirgi zamon odami o'n to'qqizinchi asr yoki urushgacha bo'lgan odamga nisbatan butunlay boshqa, o'ziga ma'qul bo'lgan ma'noni jo qiladi. Siz bu yerda qovushishdek ijobiy holatni ko'zda tutayotganingizda adashyapsiz. Yo'q, hozirgi zamon kishisining sevgisi ayriliqqa olib kelmoqda. Haqiqiy sevgi nima ekanligini hech kim bilmaydi. Sevgi doimo muqobilli tushuncha bo'lib kelgan.

– Buni qanday tushunish kerak? Ya'ni soddaroq qilib aytganda... xo'sh, erkakning ayolga muhabbati yoki aksincha. Mabodo tabiiy jismoniy sevgi haqida gap ketganda, siz qanday ayrilig'-u qanday muqobillikni ko'zda tutaysiz?

– Janob Nikitin, siz jiddiy odamsiz, meni ham sotsialistik nuqtai nazardan emas, balki G'arbdagi axloq nuqtai nazaridan tushunishga harakat qilsangiz. Hozirgi zamondagi sevgi soxta bid'atlardan xoli, erkin tamaddun «to'xta» degan soxta signallarni ulotqirib tashlagan, bular erkak bilan ayol... erkak bilan erkak yoki ayol bilan ayol o'rtasidagi insoniy tuyg'ular erkini bo'g'ib kelgan ko'hna to'siqlardir... Har bir odam o'ziga sherik tanlashda mutlaqo erkindir.

– Yaxshi tushunolmayapman. Siz besoqolbozlik haqida gapir-yapsizmi? Aynigan, buzilgan sevgi haqidami? Men realistman, axir, haqiqatga ta'zim qilaman. Shuning uchun ham kulgi xonasidagi qiyshiq ko'zgul aksiga sira ham toqat qilolmayman.

– Kulmang, janob Nikitin. Sevgi bobida aynish nima-yu, aynimaslik nimaligini hech kim bilmaydi, har bir odam o'z yuragi sado-siga quloq solishni afzal ko'radi. Eng ko'p aynish siyosatda bo'ladi, bu dahshatli aynishlar odam erkini bo'g'ib o'ldiradi.

– Sizning rafiqangiz, farzandlaringiz bo'lsa kerag-a, janob Ditsman?

– Xayriyatki, uylangan emasman.

– Taassuf. Unda men xayolimda aylanib turgan kamtaringina misolimni keltira olmayman.

– Janob Nikitin! Siz bizni hech qanday misol bilan tang qoldirolmaysiz. Biz jinsiy munosabatlarda portlash ro‘y bergan, inson badanini yashirib turgan liboslar yulqilab tashlangan va ilgari taqiqlangan g‘ayritabiiy tuyg‘ularni bermalol tanlash mumkin bo‘lgan davrda yashayapmiz.

– Ha, men siz aytayotgan bu portlashlarni dunyoning ba‘zi mamlakatlarida va sizlarda ham ekran bilan sahnada ko‘rganman.

– O, go‘zal! Bu realist sifatida sizga maroqli bo‘lgandir?

– Menimcha, realistlar bor narsalardan ko‘zlarini yummasliklari kerak. Barini bilmoq lozim. Qolaversa, bizda Rossiyada, xudoga shukurki, sahnalarda g‘ayritabiiy sevgi tomoshalari ko‘rsatilmaydi...

– Shu joyda bir daqiqa to‘xtang, janob Nikitin. Demak, ruslarda siz aytmoqchi g‘ayritabiiy sevgi yo‘q, shundaymi? Bunga ishonchingiz komilmi?

– Yo‘q, bunday narsalar mutlaqo uchramaydi, demoqchi emasman. Buni klinikalar biladi. Men boshqa narsani aytmoqchiman, janob Ditsman. Gaplarim asosli bo‘lishi uchun misol keltirishga majburman. Buning uchun bu yerda o‘tirgan ayollar meni kechirishsin... Tasavvur qiling-ki, chiroyli, yosh qizingiz bor. Bir ko‘z oldingizga keltiring. O‘sha qiz muhabbat mahsuli sifatida bu olamga go‘zallikda o‘zidan qolishmaydigan boshqa bir insonni hadya etmog‘i, dunyoga keltirmog‘i mumkin. Biroq o‘sha qizingiz o‘ziga o‘xshagan ko‘rkam yigitni emas, qiz bolani sevishga moyil. Siz shunda ham mana shunday g‘ayritabiiylikdan ko‘z yumib, tanlash erki borasida hozirgiday bermalol gapira olarmidingiz?

– Shaxsan men unga hech narsa demagan bo‘lardim. Xohlaganini qilmaydimi. Ishq predmetini men emas, uning o‘zi tanlayapti-ku.

– Buning o‘zi g‘ayrihaqiqat, tabiat va haqiqat ustidan zo‘ravonlik emasmi?

– Sira ham. Men inson «men»ining erkin namoyon bo‘lishini, shaxs ozodligini mana shunda ko‘raman.

– Unday bo‘lsa, menda dalillar yo‘q. Muammo hal.

– Ijzatingiz bilan suhbatingizga aralashsam, janoblar! Buni aytmasam bo‘lmaydi!

– Albatta, Tittel xonim, marhamat, ovozingizni eshitishning o'ziyoq hammamizga zavq bag'ishlaydi!

– Men ashula aytmoqchi emasman... Muhabbatda, menimcha, did bilan bema'ni mayllar masalasini ajrata bilish lozim. Ayol nozik xilqat, bu shak-shubhasiz. Shu bois men ham har qanday yaramas nuqsonlaridan qat'i nazar, aynimagan erkakni afzal ko'raman. Men Mopassan asarlarini o'qiganman. Uning yaxshi bir gapi bor: yashasin erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi ozgina tafovut, deydi u. Men fransuz adibi uchun ham qizarib o'tirmoqchi emasman.

– Muhtarama, go'zal Tittel xonim, tashlagan luqmangiz uchun minnatdorchilik bilmoqchiman. Sizni hamma boshiga ko'taradi, erkaklar ham, ayollar ham sizni birday sevadilar, negaki iste'dod barchaga tegishlidir! Hurmatli xonimlar va janoblar! Biz munozaramizda qatnashayotgan Tittel xonimni olqishlashimiz kerak. Sizlarning olqishlaringiz va zavqlanayotganingizni tushunaman va ularga qo'shilaman... Siz, janob Nikitin, dalillaringiz yo'qligi tufayli muammo hal, deb gapingizni tugatdingiz. Men sizning javobingizda ters istehzo payqaganday bo'ldim, shunday emasmi?

– Adashmadingiz. Men bunchalar keng muhokama qilinayotgan intim mavzuda bunchalik chuqurlashish shartmi, demoqchi edim.

– Shunda ham chuqur adashyapsiz! Bu masalalar bizda matbuotda, televideniya keng muhokama qilinadi, pornografiyani taqiqlashni bekor qilish to'g'risidagi qonun ham shular jumlasidan. Shundaymi, janob Veber? UZR, janoblar, endi men zalga murojaat etaman. Nima dedingiz, janob Veber?

– Sizning bama'ni muammolaringizdan miyam achib ketdi... O'zi ziyolilar to'plangan joyda mavzular aralash-quralash bo'ladi. O'shanda barcha masalalar jinsiy yaqinlikka borib taqaladi.

– Hazilingiz olqishlarga sazovor, janob Veber... Garchi janob Nikitin bahsga yakun yasagan bo'lsa-da, menda uning boyagi fikrlariga ba'zi e'tirozlarim bor. Mabodo men o'sha tasavvur qilingan qizimga o'zi tanlagan odamni sevishga yo'l bermasam, u gapimga kirardi-yu, ammo oradan bir necha yillar o'tib: «Ota, men baxtsiz bo'ldim, o'shanda meni sevgimdan mahrum etganding!» degan bo'lardi.

– Naqadar hayratomuz mantiq! Demak, siz ham ana shunday erkin tanlov tarafdori ekansiz-da? Menimcha, bundan ko'ra odam o'zini osib o'ldirgani ma'qul! Ha, uyga borish kerak-da, mustah-



kamroq ilgak topib, kamarni yechib, bunday jirkanch erkin jinsiy hayotdan ko'ra go'zal jahannamga iloji boricha tezroq daf bo'lishi kerak! Bu yagona to'g'ri tanlovgina emas, balki insonni xo'rllovchi bemazagarchiliklardan qutulishning ham chorasidir!

– Jahlingiz chiqdimi, janob Samsonov? Siz-chi, siz qanday fikrdasiz, janob Nikitin? Siz ham bu kabi jinsiy yaqinlikni bemazagarchilik deb hisoblaysizmi?

– Mening fikrimni so'rayapsizmi? Tabiatning o'zi zo'rlanganda va buzilganda u dardga chalinib, halok bo'ladi va u bilan birga inson ham nobud bo'ladi, albatta. Bu esa biosferani kimyoviy chiqindilar bilan bulg'ashdan ham dahshatliroqdir... Platon, seni bir daqiqaga mumkinmi... menga qara, o'zingni bos, sening qizishib gapirishing bu munozarada hech kim qo'llab-quvvatlamaydi. Tinchlan...

– Nima uchun xotirjam bo'lishim kerak? Nahotki har qanday bemaza gapga xo'p deb o'tiraveradigan mo'min-qobil rusga o'xshashimni istayotgan bo'lsang? Mahmaddonagarchilikning ham o'ziga yarasha chegarasi bo'ladi, bilsang agar...

– Insonning o'zi tabiatning aynishi ekanligini o'ylab ko'rmaganmisiz, janob Nikitin? Bu fikr hech xayolingizga kelmaganmi? Olamda chiroyli va xunuk narsalar bo'lishi kerakligini kim belgilagan? Nahotki buni ham Xudo qonunlashtirgan bo'lsa? Xudoning o'zi chiroylilar toifasidanmi? Odamlar-chi? Ular chiroylimi? Umuman, chiroylilik nima o'zi, unga qaysi nuqtai nazardan yondashiladi? Odamlar ishqning ezgu ishiga tegishli so'zlarni eng yomon haqorat o'rniida ishlatsalar, bu ularning buzilganlaridan dalolat emasmi? Bularni o'ylab ko'ring, o'ylab ko'ring... Devorlardagi, jamoat hojatxonalaridagi yozuvlar ham esingizdami?..

– Biz bahsda shunchalar chuqurlashib ketyapmizki, ortga qaytishga yo'l topolmay qolamizmi, deb qo'rquyapman.

– Xo-xo-xo, chiroyli dalil va tashbeh uchun tashakkur. Bu mavzuda gapni davom ettirishga hushingiz yo'q ekan, shu bois men ham endi ba'zi bir xulosalarimni bildirib o'tsam. G'arb kishisining ongi – men intelligensiyani nazarda tutyapman – o'ta ilmiy. Lekin sotsialistik mamlakatlarda hozirgi zamon falsafasi bilan sotsiologiyasi negadir taraqqiyotdan ortda qolgan. Bu esa e'tiqodingizning muhofaza usuli bo'lib, u yalpi optimizm hisobiga jon saqlashi kerak edi. Shundaymi? Siz, janob Nikitin, garchi ko'zlaringiz ma'yus boqib, mungli

romanlar yozsangiz ham, optimistsiz. Biroq siz ham, butun adabiyotingiz ham romantik Shekspir va Tolstoyingiz tomonidan yaratilgan inson haqidagi qadim afsonani saqlashga urinyapsizlar. Sizlarda hayot va adabiyot qahramoni deb ko'rsatiladigan kishi G'arb odami-ning ongida boshqacha baholanadi, sizning qahramoningiz bizning tushunchamizga ko'ra mutlaqo boshqacha ataladi.

– Jon qulog'im bilan eshityapman. Davom etavering.

– G'arbdagi bugungi kunning intellektual personaji, janob Nikitin, odamzodning kimyoviy jihatdan tozalangan, yalang'och subyektidir. U bamisoli uyqudagiday harakat qiladi. Mutlaqo erkinlikdagi shaxsiy hayot bo'lmaydi, chunki buguni kun kishisi o'z davri qarshisida juda ojizdir, uni nega, keyin nima bo'ladi, degan muammo-li savollar parchalab tashlagan. G'arb intelligentlari sizning barcha sotsialistik adabiyotingiz singari voqelikni shunchaki tasdiq etmaydilar, balki unga savol qo'yadilar, talab qiladilar, bunda sudyalalar ham, aybdorlar ham yo'q... Bu modernizm ham emas, janob Nikitin, mutlaqo. Turli mashinalar bilan qurollangan hozirgi davrga Shekspir ham, Tolstoy ham, Dostoyevskiy ham kerak emas. G'arb romanchiligi realistik bo'lishni istagani uchun o'z o'tmishi realizmidan yiroqlab ketgan. Bu paradoks emas. Roman-rentgen, biroq unda kasallikning tashxisi yo'q, negaki vrachlar uni qanday davolashni bilmaydilar, buni bironta ham odam bilmaydi. Hozirda, masalan, Tolstoy, Tomas Mann yoki odam haqidagi hamma narsani bilaman, degan Zolyaga o'xshagan risoladagiday yozuvchi yo'q. Siz Zolyaning formulasiga qo'shilasizmi?

– Yo'q, qo'shilmayman. Menimcha, fransuz naturalistlarining bunday deyishlarida o'ziga ishonch bilan da'vat mavjud. Darvoqe, Zolya bilan bir davrda yashagan bir rus klassigi butunlay teskari gapni aytgan: bor haqiqatni hech kim bilmaydi, degandi. Bu esa haqiqatga yaqinroq.

– O! Janob Nikitin! Siz hozir g'arb yozuvchisiday gapirib, mening fikrimni tasdiqlayapsiz!

– Bu mening emas, o'n to'qqizinchi asrda yashagan rus klassigining gapi. Menga xushomad shart emas. Men buyuk rus adabiyotiga daxldorligimdan faxrlanaman. Mana ko'rdingizmi, siz meni balandparvoz gapirishga majbur etyapsiz.

– Siz bir klassikning bor haqiqatni hech kim bilmaydi, degan gapiga qanday qaraysiz? Unga qo'shilmaysizmi?

– Yo'q, unga qo'shilaman. Bu sizga g'alati tuyulyaptimi?

– Siz-a? Bu fikrga qo'shilasizmi? Buni sal batafsilroq tushuntirib bera olasizmi?

– Siz shunchalar taajjubda ekansiz, unda urinib ko'raman... Bu haqda ko'p marta bosh qotirganman. Janob Ditsman. Biz qator haqiqatlarni bilamiz, biroq u bitta va asosiy haqiqatning jamuljamidir. Biz haqiqatlarning pirovard jamuljamini bilmaymiz. Aks holda mabodo biz inson haqidagi hamma narsalarni bilganimizda, kitoblar yozish, ilm bilan shug'ullanish va hozirgiday muzokaralar qilishimizga hojat qolmagan bo'lardi. Inson xuddi olam singari sirlidir. Bu esa bundan ikki ming yil ilgari ham ma'lum edi. Bizgacha o'tganlar ham bu xususda bosh qotirganlar. Mabodo odamlar ertaga olamning barcha qonunlarini, demakki, inson qonunlarini ham kashf etsalar, tarix g'ildiragi to'xtab qolgan bo'lardi, bunga ishonchim komil. Bilib oladigan narsa qolmasdi. Bari topilgan, yechilgan, hammasi tushunarli, bashariyat hayotining muammolari oxirigacha hal qilingan. Barcha e'tiqodlar-u, bo'ri falsafalar, hamma san'atlar yaroqsizga chiqarilib yo'qlikka yuz tutardi. Insoniyatning hayotni anglashdagi dasturlashtirilgan yo'li ham intihosiga yetgan bo'lardi. Shundan keyin yana bari boshidan, noldan boshlanardi. Lekin uning bizning hayotimizga sira ham daxli bo'lmasdi. Bu olam zaminning kibernetik mashinasiga yangi andozalarini joylardi. Biz mana shuning uchun ham bor haqiqatni bilmaymiz. Javobimdan qanoatlandingizmi?

– Janob Nikitin! Siz hozir yozuvchi sifatida emas, faylasuf sifatida gapirdingiz, bu bilan meni juda hayratda qoldirdingiz, lekin fikringizni aniqroq bildirsangiz. Odamning asosiy haqiqat tomon yo'lini tabiatning o'zi dasturlashtirib qo'yganmi? Zaldagilar jonlanib qolganiga qaraganda siz nafaqat meni, balki auditoriyani ham qiziqtirib qo'yganga o'xshaysiz... Unday bo'lsa, odamning o'zi nima? Bilim qurolimi? Yo tasodifiylikmi? Dunyo qonunlari mexanizmidagi tishli g'ildirakchami?

– Hayratga arzigulik gap aytmadim, janob Didman. Men faylasuflik shuhratini da'vo qilayotganim yo'q, o'zimga ishonchim ham zo'r emas. Odamning yoshi qirqdan oshgandan keyin o'ttiz yil oldin xuddi apelsin singari oddiy ko'ringan narsalar haqida o'ylab qolar

ekan. Zamindagi inson tasodifiylik emas. Ma'lumki, u o'zligini tanitotgan, anglayotgan tabiatning bir zarrasi. Ajoyib formula, shunday emasmi?

– Kimdandir sitatami? Gegeldanmi? Karl Marksdanmi?

– Yo'q, Fridrix Engelsdan. Inson – zarra, u yaxlit narsa – tabiatni o'rganadi, ya'ni bu bilim izchil ravishda asosiy haqiqat yo'lidagi sirlar va qonuniyatlar eshigiga olib boradi. Asosiy bilim esa cheksizlikni cheklaydi va uzun yo'lakdagi eshiklarning qulflarini ochib beradi. Shu vajdan olov, bug' kuchi, elektr, atom energiyasining kashf etilishi tasodifiy bilim emas, balki tabiat tomonidan ma'lum davrda turtki berilgan izchil yaqinlashuvlar metodi bo'yicha muqarrar bilimdir. Inson bosib o'tgan yo'lini belgilovchi bosqichlardir. Darvoqe, bizning munozaramiz ham xuddi shunday. Biz bundan o'n yil oldin hozirgiday suhbat qurolmasdik, janob Ditsman. Bu ham bosqich.

– Kapitalizm ham sizning nazariyangizga ko'ra muqarrar bilimmi? Yo o'zingiz aytganday, qiya ochiq eshikmi?

– Ha. Kamchilik va muammolari yetarlicha bo'lgan bilim.

– Sotsializm-chi?

– Shod-xurramlikka eltuvchi yo'l. Qo'rquv iskanjasidan qutulish. Chinakam ozodlikni anglashdir.

– Shod-xurramlikka eltuvchi, deysizmi? Shunday ham bo'la qolsin. Biroq sizning nazariyangizda, janob Nikitin, fatalizm degan narsa bor, uning esa marksizmga hech qanday aloqasi yo'q. Siz marksistsiz, axir, shuning uchun proletar inqilobga va proletar diktaturaga ishonasiz. Nahotki bu sizga asosiy haqiqat bo'lolmasa?

– Hech qanday fatalizm emas. Aniqroq aytadigan bo'lsam, janob Ditsman, sotsializm – bu insonning oliy erkinlikka yetishishidir.

– Bir kishining ozodligi boshlangan joyda boshqa birovning erki cheklanadi. Bu esa oliy erkka daxl qilmay qolmaydi. Shunday emasmi?

– Shunday. Bu axloqiy cheklash bo'lib, u insonning insonga hurmatini vujudga keltiradi.

– Men asosiy haqiqat borasidagi avvalgi savolimga javobingizni bilishni juda ham istardim. Asosiy haqiqat qayerda, siyosatdami, yo undan tashqaridami?

– Muhtaram janob Ditsman! Siz mening hamkasbimga boyadan beri nuqul adabiyotga sira ham aloqasi bo'lmagan bitta savol

berib yotibsiz. Siz bahsimizda mohiyatni aniqlashni emas, suhbatdoshingizni tilidan ilintirishga urinmoqchiga o'xshaysiz, degan fikrga kelganim bois, ruxsatingiz bilan, luqma tashlashga majbur bo'ldim!

– Lekin qattiq yanglishdingiz, janob Samsonov, mening Shpringer matbuotiga sira ham aloqam yo'q. Janoblar, qarsaklaringiz uchun tashakkur, biroq bu olqishlar, aytishim lozimki, menga nimadadir ishonmayotgan janob Samsonov uchun bo'ldi desam mubolag'a qilmagan bo'laman!

– Menimcha esa bu olqishlar sizning o'tkir zakovatingiz uchun yangradi, janob rais, men siz terlab-pishib erishgan shuhratingizni tortib olmoqchi emasman! Biroq, takror aytamanki, biz munozarada juda chuqurlashib ketyapmiz!..

– Xo'sh, janob Nikitin, sizning jiddiy hamkasbingiz o'z luqmasi bilan mening qiyin savolimni bekor qildimi?

– Nega endi? So'raganingiz unchalik ham murakkab emas. Aksincha, savolingiz hamkasbim aytmqochi boshqacha ma'nolarga ega bo'lsa ham benihoya soddadir. Darvoqe, bu uning mohiyatini o'zgartirilmaydi. Men inqilob bilan proletariat diktaturasiga ishonaman, chunki yangi ijtimoiy formatsiya – bu bashariyatning o'z-o'zini anglashidir.

– Biroq bu sizning nazariyangiz bo'yicha asosiy haqiqat emas-ku?

– Asosiy haqiqat oldinda.

– Kommunizmimi?

– Kommunizm ham. Biroq haqiqatni bilishning ana shu yuksak shaklidan keyin ham izlanishlar davom etaveradi.

– Shunday qilib, janob Nikitin, tushunishimcha, siz hayot mazmunini uni umr bo'yi izlash va anglashdan iborat, demoqchisizda? Mabodo mening savolim janob Samsonovning luqmasiga ko'ra ig'vogarlik ruhida bo'lmasa, shaxsan o'zingizning hayotingizda hayot mazmuni nimadan iboratligini aytib bersangiz. O'zingiz bor haqiqatni hech kim bilmaydi, degan gapni aytdingiz-ku.

– Kovboylar haqidagi filmlarda, chamamda, nishonga tekizish uchun uch soniya ichida to'pponchani olib, o'q uzish zarur. Siz, janob Ditsman, to'pponchangizni olib, menga o'q uzdingiz. Sizga javob o'qi uzish uchun esa, menga ancha vaqt kerak bo'ladi.



– Ajab jumboq... Mabodo sizga yana ig'vogarlikdan iborat savol berib qo'ymadimmi ishqilib?

– Qo'ysangiz-chi! Aslo. Sizning savolingizga javob berish uch soniyadan ko'proq vaqt talab qiladi. Buning uchun barcha kitoblarning mazmunini aytib chiqishimga to'g'ri keladi. Ha, hayotimning mazmuni o'sha kitoblarimda.

– Men sizning ikkita romaningizni o'qiganman, janob Nikitin, ikkita filmingizni ko'rganman. Ular yaqindagina G'arbiy Germaniyada ko'rsatilgandi. Ularda ayanchli, mungli narsalar ko'proq...

– Qo'shimcha qilaman: ularda, aniqroq qilib aytsak, quvonchli narsalar ham ko'p.

– Shunga qaramay, siz optimistdan ko'ra ko'proq pessimistsiz. Kitoblaringizda mehr-muhabbat yo'q.

– Sizning pessimizm borasidagi qarashlaringiz judayam chegaralangan ekan. Adashdingiz, men optimistman. Nazarimda haqiqat kaliti yozuv stolimning tortmasida yotganday tuyulaveradi. Roman yozish – bu bardosh va maqsad tomon azobli yo'l demakdir. O'shanda hamma narsa to'liq ma'no kasb etadi, toki navbatdagi kitobgacha.

– Nonsens, janob Nikitin. Nonsens! Bir tarafdin siz, bor haqiqatni bilmayman, deyapsiz. Ikkinchi tarafdin, adabiyotingiz odamlarga bilim berish, ularni ilhomlantirishga da'vat etadi – sotsialistik realizm metodining vazifasi ham shundadir. Shunday qilib, sizning romanlaringiz sotsialistik realizmning ko'zini ochishga xizmat qiladi, shundaymi? Aqidaparast sovet tanqidchilari sizni bekorga urib chiqishmagan ekan-da!..

– Shunaqasi ham bo'lgandi, janob Ditsman, biroq men sizning hayajonli e'tirofingizdan taltayib ketmayman. Siz metoddan so'z ochganingiz uchun javobim shunday: men birgina xudo – realizmga bosh egib ta'zim qilaman. Ya'ni men, ma'noviy san'at tarafdoriman. Metod bo'yicha yozish nima degani? Nahotki, siz adib yozuv stoliga o'tirishdan oldin, o'ziga-o'zi men bu romanimni falon metod bo'yicha yozaman deydi, degan xayolga borsangiz? Menimcha, u birinchi navbatda kitobxonga nimani va uni qanday aytishni o'ylaydi. U yog'i esa mehnat, mehnat, mehnat. Agar fikrimga qo'shilmasangiz, yozuvchi mehnati qanday bo'lishini o'zingiz tushuntirib berarsiz. Xo'sh, uni qanday tasavvur etasiz? U Kremldan telefonda buyruqlar olib turadi, yoki qovog'i soliq militsioner or-

tidan har bir satrini o'qib, tuzatib boradimi? Buni qanday tasavvur qilishingiz men uchun qiziq.

– Bilganim shuki: sizning adabiyotingiz sovet kishisi va sovet jamiyatini madh etishi kerak. Chunki sizlarda nuqul shu haqda gapirishadi.

– Kuylash, madh etish – vokal san'atiga daxldor terminlar, bu masalada men ojizman. Qo'pol, yalang'och proza masalasiga kelsak, u alohida shaxs va yaxlit holdagi xalq xarakterini tadqiq etadi va o'rganadi. Har qanday tadqiqot esa jiddiy jarayon bo'lib, uning ertalabki badantarbiya paytida eshittiriladigan tetiklantiruvchi musiqaga sirayam aloqasi yo'q.

– Siz o'z hukumatingizni tanqid qila olasizmi? Deylik, biror bir oliy martabali vazirni?

– Bu felyetonchining ishi.

– Javobingiz uchun tashakkur, janob Nikitin. Garchi sizni toliqirib qo'ygan bo'lsam-da, oxirgi savolimni berishga ijozat eting. Bu savol shaxsiy xarakterda. Siz nemislarni Rossiyaga qarshi kurashgan millat sifatida avvalgiday yomon ko'rasizmi? Menimcha, bu savolda ham ig'vogarlik ruhi bo'lmasa kerak?

– Yo'q, ig'vogarlik yo'q. Men siz aytganingizday, nemis millatini yomon ko'rmayman, chunki har qanday ko'rinishdagi millatchilik yaramas va pastkash kishilarga xos illatdir. Xalq hech qachon aybdor bo'lmaydi. Biroq bizning o'zaro munosabatlarimizni bir necha marta qon bilan loyqalattirdi. So'nggi to'rt yillik urushda Rossiya yigirma million, Germaniya esa sakkiz million kishidan ayrildi, buni men hech qachon unutmayman. Bu tarixda misli ko'rilmagan, dahshatli judolikdir.

– Oltinchi asrda, janob Nikitin, o'pka vabosidan yuz million kishi vafot etgandi.

– Sizning gaplaringizda ovutuvchi muqoyasa belgilari bor. Biroq oltinchi asrdagi o'sha odamlar bir-biriga o'q uzganidan o'lmaganlar.

– G'arbdagi urushning ba'zi bir nazariyotchilari, umuman olganda, aqlli odamlar to'kilgan qon – tarixning moylovchi materialidir, chunki butun tarix qondan iboratdir, deyishadi. Ular, so'nggi urush zang bosa boshlagan nemis mashinasining tishli g'ildirakchalarini moyladi, deyishyapti.

– Siz bu yerda yangi qasoskorlarni nazarda tutyapsizmi?

– Faqat ularnigina emas.

– Kim bo'lsa ham o'sha «aqli odamlar»dan so'rab ko'ring-chi: ularning o'zlari tarixning moylovchi materiali bo'lishga rozilik berisharmikin?

– Xa-xa-xa! Tashakkur sizga!.. Shunday qilib, xonimlar va janoblardan barchangizning nomingizdan samimiy va betakror – buni men quvunch bilan qayd etmoqchiman – javoblari uchun janob Nikitinning qo'lini qisishimga ijozat berasizlar. Janob Nikitinning javoblari mamlakatlarimiz ziyolilari o'rtasidagi bir-birini yomon ko'rish va begonasirash panjaralarini chilparchin qiladi. Men munozaramiz juda yoqimli va ko'tarinki ruhda o'tganligini qayd qilmoqchiman va garchi ko'p masalalarda sizga qo'shilmasam-da, tashakkur bildiraman. Sizning, butun haqiqatni bilmayman, degan fikringiz esa ajoyib fikr. Siz kapitalizm haqidagi butun haqiqatni bilmaysiz, biz esa sizning kommunistingiz haqidagi bor haqiqatni bilmaymiz! Shunday emasmi?

– Aynan xulosangizda, janob Ditsman, mening fikrimni soddalashtirib ifoda etdingiz.

– O, yo'q, yo'q, men barini juda yaxshi tushunaman, janob Nikitin, chin yurakdan sizga tashakkur. Munozaradagi uzoq va bardoshli e'tiboringiz uchun sizlarga ham tashakkur, azizlar! Ko'rishguncha xayr!..

## UCHINCHI BOB

Ustidagi plashi yelvagay, shodon va hayajonda bo'lgan janob Ditsman munozara bo'lib o'tgan klub zinasidan uchi ingichka botinkasida bir-bir bosib hammadan keyin pastga tushdi-da, chiqave-rishda o'zini tutib qolgan kishilar qurshovidan tezda qutilib, xursand odamday Nikitinga yaqinlashdi. Mashina yonida Nikitinni yoshlar o'rab olishgan, aftidan, ular rus adibidan dastxat olmoqchi edilar. Nikitinga hozirgina bo'lib o'tgan munozaraning bosma nusxasini har tomondan uzatishar yoki yozuvchining shu kechada sotib olingan kitoblarini tepadan cho'zishar, qo'liga qandaydir qog'ozlarni qistirishar, u esa gangib savollarga beixtiyor javob qaytarar va bir vaqtning o'zida dastxat uchun familiyasini yozar, ko'pchilikning qurshovida ovozi qandaydir bo'g'ilibroq chiqardi. Ayni payta u yen-

gil plashdagi Lota Titel sal egilib, mushtini biqiniga qo'ygancha yon daftarini ko'kragi oldida tutgan va na qilarini bilmay dovdirab turgan soqolli jurnalistga shang'illayotganini ko'rib kulgisi qistadi.

– Sizning «Bild»ingiz rasvo, – derdi Lota Tittel asabiylashib. – Savollaringiz ham rasvo! Sizning Shpringeringiz ham rasvo! Sizlar doimo bu qovoq kallalaringizga kelgan behuda safsatalarni yozaverasizlar! Sizning gazetangizda meni mushuklar orasida yalang'och bo'lib uxlaydi, degan gaplar chiqibdi! Buni qayoqdan oldinglar? Men mushuklarni yomon ko'raman! Janob Nikitinning javoblarini eshitdingizmi, nimalarni eshitgan bo'lsangiz, o'shalmi yozing! Sizning gazetangiz hatto hojatxonaga ham yaramasligini bu yerda turgan janoblar ham bilib qo'ysinlar! Sizga aytadigan gapim shu!

– Go'zal Tittel xonim jurnalistlarning tanobini tortyapti, – hayqirdi janob Ditsman. – Ertangi gazetalar uchun ajoyib sarlavha!

O'z mashinalari atrofida kuymalanib turgan keksaroq nemislar mashhur Lota Tittelga qiziqsinib tikilishardi. U esa tovlanib, suratga tushirayotgan fotoapparatlar orasida qad kerib, g'iq etolmay qolgan jurnalistni boplagandan boplardi. Janob Veber ham shu yerda bo'lib, sochsiz boshini muloyim silar, so'ljaygancha xotiniga jimit ko'zlarini mehr bilan tikardi. Gerbert xonim bo'lsa, kaliti bilan «mersedes»ning eshigini shosha-pisha ocharkan. Nikitinga mayin jilmaygancha: «Janoblar, rus yozuvchisiga ruxsat beringlar endi», dedi-da, uni qo'ltig'idan olib mashinasi tomon boshladi.

– Lota bemaza matbuotchilar bilan olishib turganida biz mashinaga o'tirib olaylik, – dedi Gerbert xonim. – Do'stingiz qayerda? Janob Samsonov! – u boyagiday jilmayib Samsonovni chaqirdi. – Siz men bilan ketasizmi yo janob Veber bilanmi?

– Meni ma'zur tutasizlar, – javob qildi janob Veber. U yaltirab turgan kal boshini picha engashtirib, Gerbert xonimning qo'lidan o'pdi, keyin Nikitinning qo'lini qisdi. – Bugungi qizg'in suhbatdan keyin o'zimga kelib olmasam bo'lmaydi. Sizlar miyamga bir dunyo aqlli gaplardan quydingizlar, endi ularni singdirib, hazm qilib olishim kerak, shuning uchun kechki ovqatdan voz kechaman. Aks holda, mazam qochishi tayin. Lota esa sizlar bilan bo'ladi, bu aniq. U tezda tinchiydiganlardan emas, aslo, aslo! Janob Samsonov, janob Ditsman, sizlar bilan ham xayrlashaman.

Bir oz kuymalanib turganlardan keyin, nihoyat, mashinalarga o'tirishdi, fotoapparatlarning chiroqlari yoritib turgan yo'lkadagi Lota Tittel esa matbuot vakili bilan olishuvini g'olibona tugatdi-da, plashini shildiratgancha atir hidini burqsitib orqa o'rindiqdagi baqa-loq Samsonov bilan Nikitin orasiga ilonday buralib o'tirib olgach janob Ditsman uning ortidan mashina eshigini yopdi. U jurnalistlarga yasama iltifot bilan qo'l silkib, mashinaning old o'rindig'iga, Gerbert xonimning yoniga o'tirgach, yengil tortib kuldi.

– Janoblar, biz go'zal Lotamiz tufayli Shpringer qurshovidan qutuldik, endi esa ana shu erishgan ozodlik zavqini suramiz! Menimcha, biz osmono'par cho'qqilardan pastga tushib, haqiqatga moddiy tomondan nazar tashlashimiz lozim. Biz sarf qilgan energiyamizni tiklab olishimiz zarur. Birinchidan, qaysi restoranda tamaddi qilishni istaysizlar?

– Gamburgdagi barcha restoranlarni bilishda janob Ditsmandan o'tadigani yo'q, – shodon javob qildi Gerbert xonim qo'lqopini kiyarkan. – Mehmonlarimiz sizga besh qo'lday ma'lum bo'lgan bizning restoranlarimiz haqidagi haqiqatlarni qaydan ham bilsinlar? Siz buyruq berasiz, men bo'lsam mashinani haydayman. E'tirozlar yo'qmi?

– Burjuaziyaning sokingina oilaviy restoranida o'tirib, uyquli qiyofalarga tikilmoq naqadar zerikarli. Men sershovqin joylar tarafdoriman. Tomosha qiladigan narsalar ham bo'lsin-da, – Lota Tittel shang'illab gapga aralashdi. – Bo'lmasa bugungi bahsdan keyin bosh bombaday yorilib ketadi! Ketdik, janoblar! Sizlarga rostini aytсам, men bugun to'yib ichmoqchiman.

Gerbert xonim mashinasini qorong'i, zim-ziyo bog' ortidagi chiroqlari jivirlab turgan markaziy ko'cha tomonga avaylab olib chiqa boshladi.

– Striptizmi? – janob Ditsman savolomuz o'girilgandi, qiyiq va nashavandalarnikiga o'xshash ko'zlari yaltirab ketdi. – Biroq u yerda yeydigan hech narsa yo'q-da. Faqat vino, apelsin sharbati, koka-kola, mineral suv va har xil ayollarning turli nag'malariga to'yasiz. Lekin bu bilan qorin to'ymaydi-da.

– San-Pauli rayonida «Valensiya» restorani bor, juda zo'r joy, ovqatlari ham yaxshi, – dedi Lota Tittel. – Yerto'lasifat joy...



– Noma'lum jinslilar makonimi? Ha, u yer chindan ham qiziqarli. – Janob Ditsman soatiga qaradi. – Hozir aynan ularning navbatdagi yig'ini boshlanadigan payt, biroq...

– Yo'q, yo'q, bunisi endi oshib tushdi... – rozi bo'lmadi Gerbert xonim. – Faqat bu emas. Boshqa birortasiga. Janob Nikitin bilan janob Samsonov, sizlar nima deysizlar?

– Qayer bo'lishidan qat'i nazar, ular Gamburgning alohida, e'tiborga molik joylarini ko'rishlari kerak. Bunaqa joylarni ular monastirga o'xshash odmigina Rossiyalarida sira ham ko'risholmaydi! – Tittel xonim chiyillab qo'ydi-da, plashini shildiratganicha kulib, sira tap tortmay qo'llarini Nikitin bilan Samsonovning qo'ltig'idan o'tkazib, ularning pinjiga tiqildi. – Xafa bo'lmaysizlarmi, janob rus yozuvchilari? Bilishimcha, sizlarda strip-tiz ham, noma'lum jinslilar qovoqxonalari ham, pornofilmlar ham yo'q, to'g'rimi?

– Siz haqsiz, Tittel xonim. Bizda unisi ham, bunisi ham, uchinchisi ham yo'q, – javob qildi Nikitin hazil aralash. – Bu masalada sizlarga yetish mushkul. Restoranni o'zingiz tanlang. Men har qandayiga tayyorman. Senchi, Platon?

Bahsdan keyin tishining oqini ko'rsatmagan Samsonov mashina oynasidan kechqurungi peshtaxtalarning chiroqlariga tikilib kelardi. U Nikitinning savolidan keyin noxushroq, lekin muloyim ovozda gap boshladi:

– Sizlarda odmiroq, lekin yaxshi joy bormi? Masalan, aytaylik, odatdagi restoran, misol uchun, oddiy nemislar... el qatori odamlar tamaddi qiladigan restoran bormi? Men, janob intellektuallar, oddiy nemislarni ko'rishni istardim, balki shundagina haqiqiy nemis hayotidan boxabar bo'larmiz. Mabodo fikrimni bilmoqchi bo'lsangizlar, men mana shunday restoran tarafdoriman.

– O! O! O! – Janob Ditsmanga jon kirib, uch marta shunday deya ikkala qo'lini ko'tardi. – Men taslim bo'laman! Sotsialistik realizm boshlanyaptimi? Ishchilar sinfi, qo'shimcha qiymat, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari! Sizning siyosiy mujmal va darvoqe, ig'vogarona savolingizga javob beraman, janob Samsonov. G'arbiy Germaniyada ishchi kuchi yetishmaydi va bu yerda ishsizlik yo'q, shuning uchun ham gadoylar yemish qidirib, axlat qutilarini titishmaydi. Odatda sizlarda biz haqimizda gapiriladigan va yoziladigan mutlaqo aks gaplarni bu yerda

ko'rmaysiz. Ular sizga juda ham qiziq tuyulyaptimi? Sizni ilhomlantiradimi?

Samsonov to'ng'illab qo'ydi.

– Bo'lmasa bu yer jannat ekan-da?

– Germaniya – ham kichik jahannam, ham kichkina jannat, siz yoqtirgan va yaxshigina oylik oladigan oddiygina nemislar esa, janob Samsonov, kechqurunlari ovqatni paqqos tushirib, televizor ko'rishdan bo'lak narsalarga qiziqmaydilar! – gapga aralashdi Lota Tittel. – Televizor qarshisida o'tirib olishadi-da, meshchanlik ruhidagi dasturlarni ko'rishgani ko'rishgan. Pul topishda uncha-muncha yankidan qolishmaydigan baqaloq erim ularni mana shunday ko'rsatuvlar bilan ta'minlab turadi!

Lota Tittel Nikitin bilan Samsonovning orasida dahanini mushtiga tiradi, sal oldinga egilib, pardozlangan cho'zinchoq yuziga mudroq va nopisand tus berib, o'zini kavshanayotganga soldi. So'ngra uyquli ovozda dedi:

– Ahmoqona televizor nemisni shu ko'yga soladi. Og'iz-u ko'zing bilan chaynaganingda o'ylashning iloji bo'lmaydi. Zo'r-a, janob Nikitin?

– O'xshatishni bopladigiz, – javob qildi Nikitin. – Ta'rifingiz ham yaxshi bo'ldi. Demak, televizor ko'z chaynaydigan saqich ekan-da? Shunday tushunish kerakmi?

– Bunda yaxshi narsa kam, – Samsonov ruschalab go'yo Nikitiga ham javob qaytarayotganday keskin gapirdi. So'ngra o'lganining kunidan jilmayib, Lota Titteldan so'radi: – Odamlarni televizor bilan chalg'itish naqadar xatarli ekanligini bilsangiz ham eringizga dasturlarni o'zgartirish, uni mazmunan boyitish lozimligini tushuntirishni istamaysizmi?

– Men erim xonavayron bo'lishini istamayman, – dedi Lota Tittel kulib. – Sizga yoqadimi yo yo'qmi, bizning jamiyatimizda xo'jayin – pul.

– Unda meni kechirasiz, Tittel xonim, sizning hurmatga sazovor g'arbona intelligensiyangizni konformizm ishdan chiqarib qo'ygan. Nuqul gap, gap, gap. Hammasi quruq gap. Bir xil mazmundagi gaplar. So'zlar libosiga burkangan konformizm. Quruq vahimaning o'zginasi!

– Platon, azizim, mehmon ekanligingni unutma, mezbonlarni ko'yishdan ham o'zingni tiy, – Nikitin ham sherigiga ruschaladi. U avvaliga boyagi bahsda xalaqit berib, dam-badam jahlini chiqarib turgan Samsonovning endi konformizmni go'yo miridan sirigacha bilib olganday masxaraomuz yengil xulosalagani uchun tutoqib ketdi. U o'zini bazo'r bosib olishga, ichidan toshib kelayotgan g'azabini yutishga urinarkan, ko'nglidan o'tkazdi: «Kechagi suhbatimizdan keyin bir-birimizga aytgan nordon gaplarimiz esimizda turibdi, ikkovimiz ham nohaqmiz, albatta».

– Siz juda jiddiy va chamasi, juda ham baxtli odam bo'lsangiz kerak, janob Samsonov, – dedi Ditsman ma'noli qilib. Biroq uning ovozidagi istehzo ohangi Nikitinga erish tuyuldi. Go'yo Ditsman Nikitinning ruscha gaplarini tushunib, uning yonini olayotganga o'xshab ketdi.

– Gohida qat'iy ishonchni dangallikday qabul qilamiz, – dedi Nikitin. – Bunda esa ish ko'pincha o'sha ishonchi komilning foydasiga hal bo'ladi. Ayrim ojiz kishilarning «ha» degani ham ularning zaifliklari bois odatda «yo'q» deganday eshutiladi.

– Janoblar, bahsni bas qilamiz-da, kelinglar, haqiqatni topdik, yo'qotib qo'yib, so'ng yana topib oldik, deb hisoblaymiz! – dedi Ditsman murosaga chaqirayotgandek ohangda. – Bu haqiqat esa: «Butun dunyo ziyolilari, birlashingiz!»dan iboratdir.

– Men janob Nikitinning gaplariga qo'shilaman. G'arb ziyoli qatlamiga qat'iy nuqtai nazar yetishmayapti, – Gerbert xonim ohistagina shunday dedi-da, qo'lqopli qo'li bilan mashinaning orqa tomonini ko'rsatuvchi ko'zglasini to'g'rilab qo'ydi. Bu ko'zguda neon chiroqli reklamalarning aksi tez-tez o'tib turardi.

«Ha, mana, u o'tiribdi, biz bitta mashinada qaysidir restoranga ketyapmiz, xayolidan o'tkazdi Nikitin. – Bu Emma, Gerbert xonim o'sha... Bir zamonlar Kyonigsdorf shahri bo'lgandi, o'shanda may oyi edi, oftob charaqlab turardi, o'zimiz ham yosh edik, bizni hech narsa, hatto urush ham tutib qololmasdi. O'shanda, yoshligimizda bir kun kelib Gamburgda begona odamlar... umrining yarmidan ko'pini yashab bo'lgan butunlay boshqa odamlar sifatida uchrashajagimizni tasavvur qila olarmidik? Bularning bariga sira ham aql bovar qilib bo'lmaydi...».

Nikitin Gerbert xonim mashina ko'zgisiga goho-goho ko'z qirini tashlab qo'yayotganini sezardi. Ko'zguda esa orqada kelayotgan mashinalarning chiroqlari tez-tez akslanib turgani uchun Nikitinning ko'zi Gerbert xonimning nigohi bilan to'qnashuviga xalal berardi. Nikitin mashina chiroqlarining oqish nuri Gerbert xonimning yonoqlari, sochlari, ko'cha chiroqlariga bir lahza tikilgan ko'z chakkalarida o'ynayotganini ko'rar, ruldagi charm qo'lqopli qo'li ham nazariidan chetdan qolmasdi. Shunda bundan ko'p yillar burun bir shaharchada Emma bilan tanishgani, beorom o'tgan kunlari, vaziyat taqozosi bilan bir-biridan judo bo'lib ketganlari hozir ichetini kemirar, unga urush go'yo yoshlikda ko'rilgan chala-yarim tush kabi unutilib ketganday tuyulardi. Nikitin ayni paytda Gerbert xonim ilk oqshomdagi suhbatni bir daqiqa ham unutmaganini bilar, chunki buni o'zi esdan chiqarmagan, Gerbert xonimning gunohkorona bosliqlik bilan muloyimgina boqishlari, jilmayib qarashlari sira ko'z o'ngidan ketmasdi. Nikitin o'sha suhbatda Gerbert xonimdan turmush qurganmisiz, baxtlimisiz, bolalaringiz bormi, deb so'rashga yuragi dov bermaganidan, hozir qiziqsinsa-da, afsuslanib o'tirardi.

«Bunga aql bovar qilmaydi, – dedi Nikitin ichida, – u shu yerda, mashinada, shundoqqina yonimda o'tiribdi, men ham uning yonida bo'lsam-u, bo'lib o'tgan gaplardan nahot yolg'iz xotiralar qolgan bo'lsa».

– Janoblar, agar yo'lboshlovchilik bugun mening bo'ynimda bo'lsa, rejam mana bunday... – old tomondan Ditsmanning tetik ovozi eshitildi. – Bu reja yo'lda tug'ildi. Biz «Quvnoq boyqush» degan tungi musiqali qovoqxonaga boramiz, biroq u yergacha mashina kirolmaydi. Shuning uchun mashinani yaqinroq biror joyda qoldirib, u yog'iga piyoda boramiz. Yo'l-yo'lakay erkaklarni bitta zo'r ko'chaga olib kiraman. Undagi juda ajib va shavqli narsalar Gamburgdan boshqa joyda uchramaydi. Afsuski, boadab xonimlarning u yoqqa kirishlari mumkin emas. Mana, ozodlikning cheklanganiga yana bir misol, janoblar! Demak, o'n daqiqadan keyin «Quvnoq boyqush» oldida uchrashamiz. Xo'sh, sizlarda e'tirozlar yo'qmi, go'zal xonimlar?

– Nakadar tengsizlik! – Lota Tittel arazlagandek o'zini orqa o'rindiqqa tashladi. – Qovoqxonaga yo'lida bizni ajnabiy dengizchilar

o'g'irlab ketishmaydimi ishqilib? U ko'chaga kirganingizdan keyin o'n daqiqadan so'ng uchrashish nasib qilarmikin? U yer erkaklar uchun juda ham xatarli joy-da.

– Biz sizlarni kutib turamiz, – dedi Gerbert xonim mashinasini ro'paradan kelayotgan mashinalar-u xilma-xil chiroqlardan chetlab belgilangan joy tomon burarkan, so'ng yana mashina ko'zgisiga ko'z qirini tashlab qo'ydi. Shunda Nikitinning nazarida ikkovining yoshlikdagi shirin xotiralari bir yaqinlashib, yana birdan olislab ketganday tuyuldi.

«Berlindan keyingi o'sha g'alati kunlarda menday yosh va sodda yigitning xayoliga oradan ko'p yillar, naq yigirma olti yil o'tgandan keyin boloxonaga tortinibgina patnis ko'tarib kirgan o'sha dilbar endi mashina rulida o'tirib, mana shunday gaplarni aytishi, oynadan nigohimni axtarishi, o'zim esa qalbidan zamon beayov olib ketgan xotiralarni izlashimni keltirib, tasavvur qilib bo'larmidi?!»

Orqa tomonda San-Pauli ko'chasidagi mayxonalar, tungi klublarning chiroqlari, kinoteatrlarning bahaybat viveskalari charaqlab turar, tomlar uzra yulduzsiz osmonda chiroqli konveyerlar chirillab aylanar, bundan go'yo qizigan qorong'ilik chirillayotganday bo'lib, yorug'lik tirband mashinalar uzra bamisoli uzunasiga va ko'ndalangiga uchayotganga o'xshardi. Reklamalarning chiroqlari lip-lip yonib-o'chib, qora ko'lkali olomon qaynayotgan yo'lkalarga neon chiroqlarning aralash-quralash yog'dusi tushardi. Mashinani qo'rganlaridan so'ng Ditsman boshlab borgan markaziy ko'cha mu-yulishidagi bu joy juda ovloq maskan bo'lib, o'zi ham nimqorong'i, o'tkinchlarning qadam tovushlari deyarli eshitilmas, siyrak chiroqlar ham xira yonardi. Shundan keyin temir darvoza yonida shapaloqday chiroq ko'zga tashlandi. Deraza yonidagi eshikka qorong'ilikdan chiqib kelgan kishilar kirib ketishardi. Ditsman shu yerga yetganlarida qo'lidagi sigaretaning tamakisini sirli va g'alati bir tarzda iskab, ovozini pastlatib dedi:

– Darvozaning u yog'i ayollar ko'chasi, ularning kvartiralari. Bu joyning bitta xususiyati bor: bu yerda ayol odatdagi fohisha singari erkakni taklif qilishga haqi yo'q, tanlash huquqi erkakda. Hozir o'zingiz ham guvohi bo'lasizlar. Ular xuddi peshoyalardagidek o'tirishadi. Tartibi shunday: mabodo sizga birortasi yoqib qolsa, de-



razasini taqillatishingiz, narxi va boshqa jihatlarni kelishib olishingiz kerak...

– Siz, janob Ditsman, chamasi... – Samsonov dastro'molini olib burnini qattiq qoqqandi, ko'zoynagi titrab, peshanasi qizarib ketdi. – Chamasi, siz Gamburg fohishasi bizda alohida qiziqish uyg'otadi, deb o'ylayotgandirsiz-da? – Samsonov ro'molchasi bilan yapaloq burnini arta turib gapini tugatdi. – Buni yana qay maqsadda qilyapsiz?

– Nima? Meni juda hayron qoldiryapsiz! Sizlar Vatikanda tarbiya ko'rmagansizlar-ku axir! – qichqirgudek bo'lib kulib yubordi Ditsman. – Erkaksizlar har holda! Buning ustiga realistsizlar. Kapitalistik dunyo bilan yanada yaqinroq tanishishni istamaysizlarmi?

– «Ayollar va o'n sakkiz yoshga to'lmaganlarning kirishi taqiqlanadi», – Nikitin tepadan chiroq yoritib turgan yozuvni ovozi chiqarib o'qirgan, qo'shimcha qildi: – Qiziqtirib qo'ydingiz, janob Ditsman. Ko'rish kerak. Menda e'tiroz yo'q. Aksincha, kapitalistik olamni yaqinroqdan ko'rishni istayman.

Nikitin buni Ditsmanga hazilnamo qilib aytarkan, Samsonovga hatto ko'z qisib qo'ydi, u bo'lsa Nikitinga ayanchli (xuddi kecha tunda mehmonxonada tikilganday) qarab, indamay qo'lini orqasiga oldi. Shunda keng plashi ostidagi qomi chiqib, ijirg'angan yuzi xunuklashib, beo'xshov tusga kirdi. Ditsman esa yelkasini qimirlatib kulgandi, tishlari yaltirab ketdi.

– Nimadandir sarosimadasiz-a, janob Samsonov? Axloqingiz aziyat chekyaptimi?


– Har holda juda xursand emasligimni ham aytib qo'yishim kerak, janob Ditsman!

– Platosha, bas, – dedi Nikitin ruschalab, – o'tinaman, qovog'ingni och. Xo'sh, nimani isbot qilmoqchisan o'zi?

– Gaplashishga holing kelsa mehmonxonada tushuntiraman. Agar sen qulog'ingga gap olsang...

– Olaman, olaman... Ketdik.

Yonida xufiya eshigi bor temir darvoza xira chiroqlar yorug'i tushgan torgina ko'chani to'sib turardi. Ko'cha gavjum, erkaklarga to'la, ular ohista chaqchaqlashib, to'da-to'da yoki yakka-yakka holda ikkala tomondagi yo'lkadan shoshilmay borishar, dam-badam do'konlardagi kabi peshonalar oldida to'xtashib, qorong'iroq de-



razalardan ichkariga qarashardi. Birinchi qavatdagi derazalarning pardasi tortib qo'yilganidan chog'roq xonalardagi arzon jihozlar shundoqqina ko'rinib turardi. Oppoq to'r salfetkali komodlarda shamlar yonar, divanlarning yon suyanchiqlariga guldor yostiqlar qo'yilgan, devorlarda arzon reproduksiyalar, yog'ochdan yasalgan butlar va ilk boqishda manikenni eslatuvchi qizlar turlicha holatlarda o'tirishardi. Ular tashqariga beparvo tikilishar, ba'zilar kalta yubkalari yashirolmagan harir paypoqli tizzalari orasiga kaftlarini ustma-ust qo'yganicha rohibalarday qilt etmay ma'suma holda o'tirishar, ba'zilar kreslolarda oyoqlarini chalishtirgancha, yaltiroq etiklarini likillatib yonboshlabroq yotishardi. Ular jim turishmas, yo bo'yalgan ko'zlarini o'ynatishar yoki erinibgina sigareta tutatishar va naq deraza oynasiga tutun puflashardi. Ko'zgu olib quloqlaridagi arzon isirg'alarini to'g'rilab qo'yishar, lak surtilgan timoqlari bilan ingichka qoshlarini silashardi. Qizlar orasida sarg'ish sochli, hali voyaga yetmagan o'smir yoshdagi oriq va rangpar yuzli bittasi alohida ajralib turardi. U deraza to'g'risidagi kresloda o'quvchi qizday yerga qarab, olma yeb o'tirardi. Bamisoli raqqosalarday latif va nozik, bo'yni begona qo'l tegmaganday nihoyatda silliq, hali uncha yetilmagan siynasi oq neylon koftasini turtibroq turardi. Shu payt novcha, sochlari oppoq, to'lagina, ustiga sarg'ish katak-katak palto kiygan bir erkak yo'lkadan burilib, barmog'i bilan oynani chertgandi. qizcha birov cho'chitib yuborganday taqqa olma yeyishdan to'xtadi-da, nozik qo'li bilan derazani yarim ochdi, erkak esa barmaylixotir uni gapga sola boshladi. Qiz erkakning zaxil va ajin bosgan yuzidan ko'z uzmay, ziyoli xonadondan chiqqanday tortinibroq va jilmayib ohista javob qilardi. Erkak shunda bosh silkib, qattiqroq: «Nein» dedi-da, narigi derazaga qarab yurdi. U, aftidan, cho'ntagiga va ta'biga mos, yana qandaydir talablarini bajaruvchi nozanin axtarar, shuning uchun ham qizdan nimalarnidir so'ragandi. Qizning rozi bo'lmaganidan va erkakning qisqagina qilib: «Nein» deganidan Nikitin ikkovi kelisholmaganini sezdi.

«Bu qurumsoq nemis kim bo'ldi? – deb o'yladi negadir Nikitin ichida. – Qizdan nimani talab qildi? Uylanganmikin? Bo'ydoqmikin? Bu yerga tez-tez kelib turarmikin?»

Oqsoch nemis odamlar orasida g'oyib bo'ldi, erkaklar hamon derazalar oldidan o'tib-qaytishar, ular go'yo o'zlariga mos juft iz-

layotganday ichkaridagi ayollarga parishonxotir boqishardi. Nikitin Germaniyaga kelganining ilk kuni Reeperbanda mushkul ahvolda qolganini eslab peshoynalardagi ayollarning manekenlarday qimir-lamay o'tirishlariga, ko'chadan o'tayotgan erkaklarga ko'z-ko'z qilayotgan quyuq bo'yoqli lablariga, sigaretali silliq barmoqlarining pushtirang timoqlariga, silliq va to'laroq bellariga, qo'nji uzun etikdagi baquvvat oyoqlariga qarashga negadir xijolat bo'lardi. Bu yerdagi ayollarning hammaga ma'lum bo'lgan o'sha soxta, nosamimiy qiliqlari sezilib turar, u ham bo'lsa behayo kasblarini yashirishga urinish edi. Yo'q, ular o'zlarini o'tgan-ketganga maqtab, qo'yarda-qo'ymay xonalariga sudrashmasdi. Ular ko'zlarini lo'q qilib o'tkinchi erkaklarning savollariga pinaklarini buzmay javob berishar, agar pulini to'lasangiz barcha istaklaringizni bajarishga tayyor bo'lsalar-da, go'yo buni sezdirmaslikka urinishardi. Holbuki, bu yerda hamma narsa sotqin edi.

– Janob Nikitin, bu yoqqa marhamat qiling, manavini qarang...

Nikitin yonginasida sekingina oyna taqillayotganini eshitib, o'zidan ikki qadam oldindagi Ditsmanni ko'rdi. U deraza oldida to'xtab, qo'lidagi sigareta tamakisini yutoqib hidlar, tim qora sochini silliq taragan, ispanlarga o'xshash yoshgina bug'doyrang fohishaga tikilardi. Qiz yolg'iz o'zi siren tusli torsher yaqinidagi kresloda mung'ayibgina o'tirardi. Chehrasi sarg'imtir, qora qosh, uzun kipriklari yonoqlariga soya tashlar, ikkita barmog'i bilan xuddi ibodat qilayotganday ko'ksidagi tilla xochni ushlab olgandi. Ditsman timog'i bilan oynani qattiqroq chertdi. Ispan qiz asta ko'zlarini ochdi, uning nigohi xuddi begunoh rohibalarniki singari iztirobli porlardi. Ditsman unga tezda ko'z yugurtirib, o'giril, deganday imo qildi. Qiz bajonidil rozi bo'lib, bo'ynini ohista cho'zdi-da, Ditsmanga o'tli qarash qildi. Aqiq lablariga tabassum qalqdi. Ditsman bir muddat xayol surib qoldi-yu, so'ng hafsalasi pir bo'lganday boshini chayqadi, fohisha esa lablarini qimtib yasama kipriklarini ohista pastga qaratdi.

– Naqadar ko'hlik qizcha-ya, – shivirladi Ditsman. – O'zini ma'suma ko'rsatishga ustaligini qarang. Naq Rafaelning Madonnasi deysiz! Siz shunday chiroyli katolik qizni hech ko'rganmidingiz?

– Ochig'ini aytsam, janob Ditsman, ayollarning bu universal do'konida negadir mazam qochib qoldi, – dedi Nikitin. – Hammasi

ravshan. Endi bu yerda turishning ham hojati bo'lmasa kerak. Yetar, ketaylik. Qolaversa, bizni kutishyapti.

– Albatta, albatta. Biz hozir bu yerdan boshqa darvozaga o'tamiz... Biroq bizning jiddiy janob Samsonovimiz qayda qoldi? Gamburglik tannoqlar uni yo'ldan urishmadimikin ishqilib? E, u anavi yerda ekan-ku! Uni nima qiziqtirib qolganikin? Chamasi, apoq-chapoq dugonalmikin? E, buning unchalik qizig'i yo'q!

Beretini bostirib kiygan Samsonov ko'chaning narigi betida Iso payg'ambarga o'xshash sochlari uzun qandaydir yigitlar to'dasi yonida turardi. Yigitlardan uchtasi to'piqlarigacha tushadigan yamoq-samoq po'stinda edi. Ular shirakayf holda xaxolashib yo'lkada turgancha, derazadan ko'rinayotgan ikkita fohishaga inglizchalab nimalardir deyishardi. Fohishalarning biri oppoqqina, qo'g'irchoqqa o'xshar, ikkinchisi esa qorasoch, keng jussali edi. Ayollar bir-birini quchoqlagancha yonoqlarini yonoqlariga qo'yib, ularga: «Frau lesbos, bravo, lesbos!..» deya hayajon bilan qichqirayotgan yigitlarga parvo ham qilmay, loqaydlik bilan ularning boshi uzra qayoqlargadir nigoh tashlashardi.

– Platon! – chaqirdi Nikitin yuzi bo'g'riqib ketgan Samsonovni. – Qani, ketdik, yur.

– Sizlarda jinsiy inqilob muvaffaqiyatli tugallanganligini aytib qo'yishim kerak, – dedi Samsonov derazalar tomon yopirilib kelayotgan erkaklarni qorni bilan sura-sura Ditsmanga yaqinlasharkan. – Biroq boshqa bir narsa, jinsiy kontrinqilob yetishmayapti. Nimaga? Chunki biz siz bilan hayot mazmuni, taraqqiyot, inson shaxsi borasida munozara qilyapmiz, bu esa manavi, aytaylik, inqilobiy o'zgarishga nisbatan safсатаbozlik xolos!

Ditsman yengil jilmayib, ta'zim qildi.

– Sizga aytishim kerakki, janob Samsonov, natsizm muxlisi bo'lgan ba'zi bir nemislar shunday demoqdalar: Gitler hozir bo'lganida sochi uzunlarning sochlarini kestirar, Kafka asarlarini o'qishni man etar, jinsiy inqilobni tugatib, bunaqangi maskanlarni ham yo'qotardi va itoatgo'y mamlakatda qat'iy axloq o'rnatgan bo'lardi. Siz, shunday qilib, qasoskorlar bilan birlashmoqchimisiz? Hozircha hech kim jinsiy portlashga oid bor haqiqatni bilmaydi. Hozircha hech kim.

– O‘tinaman, meni qasoskorlar safiga qo‘shmang! – dedi Samsonov ko‘zoynaklari ortidan ko‘zini ola-kula qilib. – Janob Nikitin aytgan «bor haqiqat»ga kelsak, hamkasbim hozir o‘zini qanday his qilayotganini bilmadi-u, lekin men bu yerda yana bir daqiqadan ortiqroq tursam bu qabih shahvat bozorida ko‘nglim behuzur bo‘lishi turgan gap.

– Sizning maqtovgga arzigulik pokizaligingizga havas qilaman, janob Samsonov! – dedi Ditsman kulib. – Siz yo tolstoychisiz, yo avliyosiz, ammo jahldor avliyosiz!

«Nega Samsonov nuqul jig‘imga tegyapti? – ko‘nglidan o‘tkazdi Nikitin qovog‘ini solib. – U Ditsman bilan emas, men bilan janjallashmoqchi, nimanidir ma‘qullab, o‘zini ko‘rsatish-u menga isbotlashga urinayotganday. Bu ishi o‘ta bema‘nilik, qolaversa hozir mavridi emas buning!»

## TO‘RTINCHI BOB

G‘ala-g‘ovur, odam gavjum va tamaki tutuniga to‘la bu qovoqxonada Ditsmanni yaxshi bilishar ekan shekilli, yoqimtoy, kamtargina o‘smir ofitsiant ularni burchakdagi o‘zlariga atalgan, ustiga oppoq dasturxon yozilib, salfetkalar, katta-kichik qadahlar terilgan stol yoniga boshlab bordi. Ochiq chehra bilan buyurtma olgach, pushtirang sigareta tutuni orasida raqs tushayotgan yoshlarni chetlaganicha sirg‘alib o‘tib ketdi. Tevarakdagi choqqina zalning stolchalarida yonayotgan shamlar juft-juft jazavali o‘ynayotganlarning tapir-tupuri, jaz musiqasining quloqni yirtgudek tovushi, kulgi, gangir-gungur suhbatlardan o‘chay-o‘chay der, yerto‘lasimon bu joyning havosi odamlar nafasi, harakatlari, ter, uzun sochlar-u qiyqirib qarsak chalishlar, bellarning likillashi, kalta yubkalardagi oyoqlarning dikillashidan aynib ketgandi.

«Chamasi, bu «Quvnoq boyqush»da yaxshi dam ololmaydiganga o‘xshaymiz», deb qo‘ydi Nikitin ichida. U qovoqxonaning g‘ishtin devorlarini qiziqsinib ko‘zdan kechirardi. Devorlarga bo‘r bilan har xil narsalar chizib, yozib tashlangan, siferblat va millarsiz xilma-xil va qadimiy soatlar, eskicha soyabonlar, erkaklar shlapalari, simlari shaloq velosiped g‘ildiraklari, avtomobillarning qiyshaygan rullari, siyqa rezina pokrishkalar ilib qo‘yilgandi. Nikitin sal naridagi devor-



ning botiq joyida chang bosgan majaq yozuv mashinkasini, tevaragidagi bo'sh shishalarni, o'ng tomonda esa Betxovenning xiralashib, o'rgimchak to'rlari orasida qolgan portretini, uning ostidagi dabdala-si chiqqan, klavishlari o'ynab yotgan pianinoni ko'rdi. U eski-tuski-lar kolleksiyasidan ajablanib Ditsmandan so'radi:

– Bular nima o'zi, uslubmi yo qiziqchilikmi? Taxmin qilishim mumkin-u, lekin o'zingiz tushuntirib bersangiz.

– Bunga faqat qovoqxona xo'jayinining o'zigina javob beri-shi mumkin, – mamnun javob qildi Ditsman, so'ng Samsonovga tikildi. – Hozirgina sizga yoqmagan ko'chadan keyin bu joy ma'qul bo'lyaptimi?

– Yoqmadimi hali? Gamburg nozaninlari janob Samsonovning boshini aylantira olishmadimi? – Lota Tittelning qoshlari taajjub-da chimirildi. – Go'zallar behuda ovora bo'lishdimi? Unaqada siz-ni chakka suyaklari chiqqan va qarashlari olovli ilonsifat ayolga ro'para qilish kerak ekan – vish-vish-vish! Qani, menga qarang-chi!

Shundan keyin Lota Tittel Samsonovni sehrlamoqchiday ko'zlarini suzdi, sapchiyman, deb turgan mushukka o'xshab tirnoq-larini oldinga chiqarib, ishvali boqdi. Samsonov esa unga e'tibor ham qilmay qulayroq joylashib o'tirib oldi-da, o'yin tushayotganlar-ga istehzoli qarab javob qildi:

– Ovora bo'lasiz. Umrimda biror marta ham ayol sevgisini pulga sotib olmaganman. Bunchalar tubanlikdan xudoning o'zi asrasin.

Lota Tittel nozik barmoqlari bilan dahanini silab, ovozigga jiddiy tus berib shivirladi:

– Voy xudoyim, siz begunohlikning timsoli ekansiz, janob Sam-sonov. Siz ikkita umr ko'rasiz. Jannatga tushganingizda oqqush kabi qanot chiqarasiz. Sizga qarab shunday ibodat qilishni istardim: yo xudoyim, men gunohkor bandangni o'zing kechir, barcha gunoh-larimni: erkaklar bilan gaplashganlarim-u ichgan vinolarim, chek-kan sigaretalarim gunohini o'zing afv et. Siz menga rus Sharqining ta'sirini o'tkazyapsiz. Ichish, chekish, ashula aytishni tashlab, siz-ning Rossiyangizga, Sibirdagi birorta monastirga ketaman!

– Minnatdorman, – dedi Samsonov iltifot bilan. – Lekin sizni qa-bul qilisharmikin? Bu ish qimmatga tushmasmikini?

Gerbert xonim kelganlaridan beri jimgina o'tirardi. U sigareta-sini shamdan tutatib olarkan, olovli ko'zlarini diqqat bilan Nikitin-

ga tikdi. Nikitin ham sigareta bilan shamga cho'zilgandi, Gerbert xonim nazokat bilan xushnud jilmayib qo'ydi. Gerbert xonimning oniy sinovchan nigohini sezgan Nikitin beixtiyor jilmaydi. Gerbert xonimning ko'zlarida sham shu'lasini akslanar, negadir, ko'zlari ko'k emas, timqora ko'rinar va mehrdan porlardi. Nikitin ham yuragi gupillab urib ketib, Gerbert xonim unutmashligim zarur bo'lgan o'sha narsalarni bir lahza esladi, degan xayolga bordi. Munozara va keti ko'rinmas musohabalar, mashinada kelishgani, Gerbert xonim ko'zgu orqali Nikitinni ta'qib qilgani, ehtimol xonimga, unga arzi-mas tuyulayotgan ushbu oqshom – go'yo tushdek, nimagadir mun-tazirlikda kechayotgandir? Ehtimol, Gerbert xonim Nikitin ham jil-mayib qo'yadigan soniyalarni kutayotgandir? Boloxonadagi stolda sham yonib turgan, tashqarida may tuni hukmron bo'lgan onlarda ham Emma yig'isini ichiga yutib, qog'ozga ruscha harflarni oxirgi marta yozayotganday holatga tushgandi-ku...

«Ajab, – o'yladi Nikitin boshi g'uvullab. – Hozir u menga shun-dayngi qaradiki, go'yo mana shu birgina nigohi bilan o'shanda ik-kovimiz xayrlashganimizda hech nimaga ishonmagandik, mana endi g'alati, ishonish qiyin voqea ro'y berdi-ku, deb eslayotganga o'xshaydi-ya... yo'q, ma'lum bo'ldiki, hech nimani unutmabman. Yo menga shunday tuyulyapti-yu, o'zimni o'zim, uning o'sha tun-dagi yuzi, qoshi, lablari yodimda turibdi, deb ishontiryapman xolos-mi? Ha, men uning lablari qanday titragani, ular qanchalar yumshoq, ko'z yoshlari yuvgani uchun sho'rroq ekanligini... ketishni sira istamaganligini... polga men bilan qo'shilishib tappa tashlashga tay-yorligini... sochlaridan atirsovun hidi kelib turganligini eslayman... Xo'sh, bu nima o'zi? Emma – Gerbert xonimmi? Gerbert xonim – Emmami? Unda o'tmishini eslatuvchi biror narsa qolganmikin? Menda ham ilgari gunohkor va dadil leytenant Nikitinni eslatuvchi biror nima bormikin? Ha, bularning bariga sira aql bovar qilmaydi, sirayam!..»

«Emma... Nahotki esingizda bo'lmasa?» Nikitin sekingina shun-day demoqchi bo'ldi, biroq ovozi chiqmadi. Shundan keyin u kulim-sirab yo'taldi-da, dunyoviy tarbiya ko'rgan odamday gap boshladi:

– Frau Gerbert, kechirasiz, ovozim picha bo'g'ilibdi, ayb muno-zarada, shu vajdan jim o'tirsam ham bo'lardi-yu... Kechirasiz... –

Nikitin soʻzlarni tanlab, gapida davom etdi: – Munozaradan xursandmisiz?

– Juda ham, – javob qildi Gerbert xonim. Uning koʻzlari yanada chaqnaq, maʼsum va muloyim boqdi. Nikitin, u boʻlak savolni kutuvdi, ikkimiz nimadandir bir daqiqa yiroqlab, nimadadir birlashib, bir shamdan sigaretalarimizni tutatib bir-birimizga jilmayganimizda yoq tushunuvdi, degan xayolga bordi.

«Siz, chamasi, men bilan gaplashishni xohlayapsiz, – derdi xonimning koʻzlari. – Biroq sizni nima tutib turibdi? Nahotki sizni tutib turgan oʻsha narsa shunchalar muhim boʻlsa? Siz menga ishonishingiz kerak, men sizga samimiyman, sizni aldamayman. Nimaiki boʻlgan boʻlsa, bari esimda turibdi. Gapimga tushunyapsizmi?»

«Ha, men siz bilan gaplashishni istagandim, – javob qildi Nikitin koʻzlarini uning muloyim va chaqnoq boqayotgan koʻzlariga tikib. – Garchi bunga aql bovar qilmay, bari boshqa bir hayotda yuz berayotganday tuyulgan boʻlsa-da, mening ham esimda turibdi. Oʻshanda Ushatikov degan yoqimtoy askarim eshik oldida qoʻriqlab turuvdi, ikkimiz sham yorugʻida qogʻozga nemischa va ruscha soʻzlarni alamimiz, qoʻrquvimiz va yoshlik muhabbatimizni jo qilib yozgandik, bundan boʻlak narsamiz ham yoʻq edi oʻzi. Oʻshanda oʻrtamizda nima ishlar boʻlgandi? Bahorning oftobli subhidami, olmalar hidi, eshik taqillashi, patnida olib kirilgan qahva, uyqusiragan koʻrinishing, gunohkorona tabassuming, tishlangan va shishinqiragan lablaring, nam sochlaring... Oʻsha birinchi subhidamda boloxonada oldimga kirganing yodingdami?..»

«Ha, esimda, esimda. – derdi uning koʻzlari ham buni tasdiqlab. – Sizga va shamga boqib, siz eslayotgan kunlarni xotirlash menga ham yoqadi...».

– Janob Nikitin, Badenning zoʻr vinosi, tatib koʻring-a! U nimasi bilandir ruslarning shampanini eslatadi. Siz-ning sogʻ-li-gʻin-gizga!..

– Rahmat, janob Ditsman. Sogʻligʻingiz uchun, desangiz ruschaga toʻgʻriroq boʻladi!

Nikitin asta-sekin oʻzini qoʻlga ola boshladi, maʼyus oʻylardan qutuldi. Koʻm-koʻk koʻzlarini uzmay turgan Gerbert xonim Nikitin kabi bu koʻyga tushmayotgani nigohidan ham sezilib turardi. Nikitin u yoq-bu yogʻiga qaradi. Jaz musiqasi boyagiday tinimsiz gumburlar, stollardagi shamlar buralib yonar, sigareta tutunidan hosil

bo'lgan nimpushti tumanda raqs tushayotganlar aralash-quralash ko'rinardi. Yoqimtoy yosh ofitsiant g'ira-shiralikdan jimgina paydo bo'lardi-da, bo'yniga oppoq salfetka o'ralgan shishadan qadahlariga qizil vino quyardi. Samsonov qo'llarini ko'ksida chalkashtirganча yon tarafdagi stolga jiddiy tikilar, u yerda o'tirgan kurtkali sersoqol yigit (bo'yniga guldor sharf o'ragan, uzun sochlari yelkasiga tushib turardi) tap tortmay ozg'in va uyqu xumorida bo'shshib ketgan yonidagi qizni tinimsiz o'par, qizning biqinidan joy olgan sarg'imir sviterdagi yoshgina negr esa yonidagilarga befarq vilkasi bilan yog'li makaronni tushirar, tez-tez pivodan ho'plab qo'yib, vilkasi bilan stolni musiqaga monand chalardi. Lota Tittel inju tishlarida uzun qahrabo mundshtukni qimtib, nozik barmoqlari bilan qadahdagi vini noni chayqab, siypalab chamasi uni isitar, yelpig'ichsimon kipriklarini dam Ditsmanga, dam Samsonovga (Lotaning ko'rkam, pardozdandan ochilib ketgan va odamni shoshirib qo'yadigan o'tkir nigohi-yu chehrasi har qanday vaziyatda ham xijolat tortmaydiganday tuyulardi) pipirataradi. Ditsman qadahini baland ko'tardi-da, zavq bilan gap boshladi:

– Bu yerda, «Quvnoq boyqush» qovoqxonasida siyosiy alyorlar aytilmaydi, mavridi emas, bu yerda ichish, ko'ngil ochish, raqs tushish lozim, jiddiy narsalar esa esdan chiqarilishi kerak. Sog'li-g'ingiz uchun, ich-dik!

– Men besiyosat shuni aytmoqchiman, – gap qo'shdi Lota Tittel. – Butun dunyo ziyolilari, birlashingiz! Bundan bo'lak chora ham yo'q, darhaqiqat, yo'q!

– Ziyolilar sinf emas, Tittel xonim, – deb qo'ydi Samsonov istehzoli ohangda. – U qaysi nuqtada birlashadi? Revizionizm negizidami? Yo konformizmdami? Nimada?

Lota Tittel e'tiroz bildirdi:

– Baribir! Men garchi tentak bo'lishsa ham intellektuallar tarafdoriman, bor gap shu. Sizga aytsam, Iso payg'ambar ham intellektual bo'lgan!

– Sog'lig'ingiz uchun, Gerbert xonim, – Nikitin shunday dediyu, dilida u bilan boshlangan suhbat ta'siridan chiqolmay kulayotgan ko'zlari bilan xayolan qo'shimcha qildi: «Keling, hozir uchrashganimiz sharafiga ichaylik, garchi bundan negadir ma'yusroq bo'lsak ham, baribir shuning uchun ichaylik».

– Sizning sogʻligʻingiz uchun, janob Nikitin, – deb qoʻydi Gerbert xonim ham ohistagina. Uning muloyimgina jilmayishi faqat Nikitingagina tushunarli boʻlib, Gerbert xonim ham fikran qoʻshimcha qilgandi: «Keling, yoshligimizda boʻlgan ishlarni yodimizda tutganimiz uchun qadah koʻtaraylik. Boʻlib oʻtgan ishlarni rad etmoqchi emasman».

– Otam ham keldi, janob Ditsman. Siz uni soʻrovingiz, – dedi ofitsiant stolga shisha qoʻyayotib. U endi oʻzgaribroq qolgan, rangi oqarinqirab, jiddiylashgan edi. – U shu tomonga kelyapti...

– O, restoranning xoʻjayini, dilkash Aleks, – dedi Ditsman Nikitinga. – Aleks ajoyib inson, hozir oʻzingiz guvohi boʻlasiz!

Shu payt zaldagi gʻira-shiralikda raqs tushayotganlar orasidan ixcham va baqaloq odam qoʻlidagi patnisni yargʻoq boshi tepasida tutganicha chiqib keldi. U oʻynoqi koʻzlarini xushchaqchaq, muloyim chaqnatib, oʻng-u soʻlidagi kimlargadir dalda berib qoʻyardi. Aleksning egnida bashang qora kostum, kapalaknusxa galstuk taqqan, oppoq neylon koʻylakda edi. U jaz musiqasi aralash bir nimalar deb qichqirdi, estradadagi musiqachilarga qiziqroq gap aytdi shekilli, stol atrofidagilar mast-alast kulib yuborishdi. Shundan keyin u shartta stulga chiqdi-da, shisha va qadahlar bor patnisini boshi uzra epchil aylantirgan koʻyi xonandaning jigʻiga tegibmi, boʻgʻiq ashula aytib, tvist tushayotganlarga oʻxshab lik-lik qilgandi, zaldagilar qoyil qolishdi. Shundan keyin Aleks ovozini chiqarmoqchi boʻlganday koʻkragiga mushtladi, yoʻtaldi, stuldan sakrab tushib, xuddi poyezdni quvib yetmoqchi odamday Ditsmanning stoliga yetib, baxtdan iyib ketgan qiyofada hayqirdi:

– Janob Ditsman! Tittel xonim! Oʻzinning shinam, maishatbop va koʻrimsiz kulbamda sizlarni chin yurakdan qutlayman! Kechangiz maroqli oʻtsin, janoblari! Mening bu qovoqxonamdagi maishatdan keyin barchangiz: «Yashasin «Quvnoq boyqush», deb hayqirasizlar! Tittel xonim, bizning goʻzal Tittelimiz, sizni men har galgiday oʻpaman...

– Oʻp, Aleks.

Tittel xonim labini tutdi, janob Aleks esa uni masxarabozlarday ming koʻyga tushib, koʻzlarini oʻynatib, boshini likillatib oʻpdi, keyin yangi qadahlarni artib-surtib stolga qoʻya boshladi. Bu orada u sira tinch turmay ob-havo, Lota Tittelning oxirgi plastinkasi, uning



ajoyib iste'dodi, toza rus arog'ining g'aroyib xususiyatlari, uni hozirgina muhtaram rus mehmonlari uchun to'g'ri muzlatkichdan olib kelganini bidiray boshladi. Shundan keyin rus tilini urush davridan beri bilishini aytib, qip-qizil yuzini xunuk bujmaytirgancha: «Davay-davay... kak dela, saja bela», «na chujoy rot ne razevay karavay», deya chala-yarim buni isbotlagan bo'ldi. Ochiqko'ngil, sira zerikmaydigan bu amaki bir lahza tinchiganida toliqqan, restoran-dagi shovqin-suron, musiqa, yasama xushchaqchaqlik sovib qolishidan xavotirga tushgan bolaga o'xshab ketdi. U muzday sovuq shishadan jajji qadahlariga epchillik bilan aroq quyarkan, ayollarga hayrat, dahshat va zavqda ekanligini ifodalovchi qiliqlar qilardi. Nikitin unga qiziqish bilan tikilib o'zicha o'yladi: «U har kuni shunday jonsarakmikin? Shunchalar g'ayratni qayerdan oladi? Qiliqlari, jilmayishlari, harakatlari... Yoshi nechada ekan? Elliklarga borganmikin?»

– Janob rus yozuvchisi, sizning ko'zingizdan sezib turibman, menga savol bermoqchiga o'xshaysiz-a? Kechirasiz, bu qovoqxonaning xo'jayini sifatida savolni men beraman. Siz Gamburging inson qo'li bilan taraqqiyot yo'q qilingan muassasalarida bo'ldingizmi?

Janob Aleks irshaygancha Nikitinning qadahini to'latdi, keyin Ditsman bilan Tittelga qanday qaragan bo'lsa, Nikitinga ham shunday tikildi.

Nikitin kulib qo'ydi.

– Bunday qovoqxonada bo'lmaganingiz aniq, – janob Aleks Samsonovning ortiga o'tib, qadahiga vino quyarkan, gapida davom etdi. – Bu yerda vaqt yo'q qilingan, hech bir narsa yuqorida dahshatli voqelik borligini eslatib turmasligi lozim. – U barmog'i bilan tepaga ishora qildi. – Bu yer telba dunyodan ajralgan orolcha, bu yerda iflos siyosat, qabih hasad, yaramas millatchilik yo'q! Bu yerda Iso payg'ambarini hech kim xochga tortmaydi, nega deganda, men zanglagan mixlar o'rniga faqat musiqa, kulgi va vino taklif etaman! Jahl o'rniga faqat tabassum taklif etaman. Odamlar ko'proq tabassum qilishsa, mehribon bo'lishadi. Ular agar kulgi va tabassumdan qarisalar, bu barchaning saodatga erishganidan darak bo'lar edi! Shunday emasmi? Boyqush – donolik ramzi! Quvnoq boyqush – quvnoq donoligidir! Shuning uchun qovoqxonamga san'at vakillari

ham kirib turishadi! Ruslarning esa bu yerda ilk bor bo'lishlari, shu sababli ularga qovoqxonamni ko'rsatayotganimdan boshim osmonda! Ko'ngil yozinglar, quvnanlar, kulinglar!..

– Ehtimol, men adashayotgandirman. Biroq siz... yo sobiq jurnalist, yo aktyor bo'lgan bo'lsangiz kerak, janob Aleks, – dedi Nikitin. – Adashmadimmi?

Janob Aleks nogahon taajjubda qolib, cho'chigan odamday ko'zlarini chaqchaytirdi.

– Yo'q, yo'q va yana bir bor yo'q! Men o'zimning restoran-chamda masxarabozman xolos. Umrim bo'yi masxarabozlik qilib kelaman. Jurnalist odamlarni yoqtirmaydi va aldaydi, kechirasiz, janob Ditsman, men bu o'rinda qalamkashlikdagi yovuz qaroqchilarni ko'zda tutyapman. Men esa masxarabozman. Ha, odamlarni sevish kerak... Hammani. Baxtililarni ham, baxtsizlarni ham. Hatto dushmanlaringni ham sevish kerak. Hammani yaxshi ko'r. Hozir urush emas.

– Matveyning injili, – dedi Nikitin.

– Men Injilni o'qimaganman, xudoning o'zi kechirsin, janob yozuvchi!

– Hatto dushmanlaringizni ham yaxshi ko'rasizmi? – deb so'radi Samsonov burnini tortib, o'tirgan joyida qimirlab, ko'zoynagini to'g'rilarkan.

– Hammani! Aks holda, odamlar bir-birlarini kemiradigan mashinalarga aylanib qoladilar. Unda bolalarni kim tug'adi? Zurriyodni kim davom ettiradi?

– Hm, g'oyat qiziq, – deb qo'ydi Samsonov.

– Men masxarabozman, ha, – janob Aleks xirillab g'alati kuldi-da, yer tepinib, tirsaklarini chiqarib, o'yinga tushmoqchi bo'lgandi, qo'shni stoldagilar kulib yuborishdi. – Mana, ko'rdingizmi? Men odamlarning dimog'lari chog' bo'lishini istayman. Hozir urush ham, millatchilik ham yo'q. Men har kuni kechqurun shu yerda masxarabozman. Har kecha. Hamma kuladi, vijdoni toza har qanday masxaraboz singari o'zim ham maza qilaman. Men kulgi bilan odamlarning kirlangan yuraklaridagi g'uborlarni yuvib yuborishga intilaman. Menga bugungi kundagi kir yuvishda ishlatiladigan «OMO» kukunining hojati yo'q! Rus janoblar mening ajoyib o'g'lim bilan tanishmilar?

Indamaygina, chaqqonlik bilan gazaklarni stolga birma-bir tortayotgan ofitsiant sochi silliq taralgan boshini ko'targandi, Nikitin uning peshanasini ter marjonlari bosganini ko'rib qoldi. Bola ehtiromlar bilan, lekin alamli ohangda bosiqlik bilan dedi:

– Yo'q, dada, sen masxaraboz emassan...

Janob Aleks kichkina qo'llarini bir-biriga urdi.

– Mening bitta-yu bittagina, arzanda o'g'lim nima deganini eshitingizmi? U mening masxaraboz bo'lishimni xush ko'rmayapti. Men har oqshom, har kecha masxarabozman. Mening talaba o'g'lim, qobil farzand, bo'lajak advokat esa buni xohlamayapti. O'g'lim birinchi safar menga qarashgani kelganida dahshatga tushib yig'lab yuboray degandi. O'shanda men ham bo'lganimcha bo'lgandim. O'g'lim o'shanda meni mayxona ichkarisiga olib kiritib: «Dada, sening masxaraboz bo'lishingni istamayman. Masxaraboz emassan-ku axir», degandi. O'zim ham unga rahmim kelganidan yig'laguday bo'lib: «Mening restoranimdagi odamlarning bari masxarabozlar, ular ajoyib odamlar, hayot esa masxarabozlikning o'zginasi. Bu yerda o'zimni yaxshi his qilaman... Men ham barcha qatori masxarabozman!» degandim.

– Dada, o'tinaman... – janob Aleksning o'g'li asta shivirlab, bo'shagan idishlarni patnisga solib, qo'shni stol tomon ketdi. U yerda o'pishayotgan yigit bilan qiz yonidagi yoshgina va kelishgan negr hamon makaron yeb, vilkasini stolga urib o'tirardi. Negr ofitsiantni imlab chaqiradi.

– U ajoyib farzand, yagona o'g'lim! – dedi janob Aleks go'daklarnikiga o'xshash lo'ppi qiyofasi yorishib. – U endi yigirmaga kirgan, yaqin o'tmishda Mautxaufen, Buxenvald va Osvensim degan narsalar bo'lganini menchalik bilmaydi. Buni nega gapiryapman? Amerikada mening bir do'stim yashaydi, u badavlat odam, o'ziga to'q xonadonning boshlig'i. Bultur uyida bo'ldim, meni mehmonga chaqirgandi. O'zi Nyu-Yorkda turadi, uyi juda hashamdor, biroq derazalari xuddi qamoqdagi kabi temir panjaradan. kiyimlari yo'l-yo'l, yotadigan o'rni – kat. U hamon konslagerini unutilmaydi. O'sha hayotga o'rganib qolgan. Konslagerda birga bo'lgandik. Biz hech nimani unutilmaymiz. Lekin unutilishga shunchalik harakat qilamizki... Shu vajdan masxaraboz bo'lgan yaxshiroq, biz turlicha bo'lsak-da, baribir barimiz – masxarabozlarmiz. Men hech bir mil-

latni: nemislarni ham, yahudiylarni ham, ruslarni ham, amerikaliklarni ham tan olmayman, ularning bari og'a-ini! Bari teng, men hammasini yaxshi ko'raman! Bu dahshatli olamda hammaga rahmim keladi, siyosat deb atalmish qattol maxluq esa odamlarni bir-birini o'ldirishga majbur qilmoqda! Janob rus, siz buning mazasini bilasiz, ichib ko'ring, qovoqxonamga chinakam aroqni ichgani yana kelasiz! Menda nayrang bo'lmaydi.

Janob Aleks stol tevaragida pildiragancha aroqli qadahni Nikitinning naq og'ziga tutgandi, u beixtiyor aroqni mezbondan olib, tashvish va xijolatda ho'plab qo'yarkan, dedi:

– Sizlarda totib ko'rish odatmi yo «Quvnoq boyqush»da rus arog'iga alohida ehtirom bormi?

– Haqiqiy, toza rus arog'i! – hayqirdi janob Aleks juda baxtiyor odamday ko'zlarini shiftga tikib. – Bunda suv yo'q! Bu «Stolichnaya!» Rossiya esingizga tushib ketdimi? Konslagerdagi ruslar Rossiya qo'msaganlarini bilaman. Mening qovoqxonamda ham vataningizni eslashingizdan mamnun bo'laman! Olma bilan nokni yaxshi ko'radigan ajoyib qizcha Katyusha haqidagi zo'r ruscha ashula... Katyusha ham esingizga tushadi. Janoblar, ishtahangiz karnay bo'lsin, hammangizni o'paman va yaxshi ko'raman! Sizlar mening aziz mehmonimsizlar, men esa sizlarning masxarabozingizman! Sizlarni sevaman!..

Janob Aleks o'zining barmoqlari uchini o'pib, go'yo mehrini barchaga sochib ulashganday qo'lini havoda silkib, jaz musiqasiga monand likillaganicha ichkari kirib ketgandi, ortidan barcha qiyqirib qoldi.

– Juda qiziq, – dedi Nikitin.

– Urushdan keyin, – dedi Ditsman sigaretasini iskay turib, – o'takasi yorilgani uchun konslagerdan qutulib chiqqanidan keyin burnini plastik operatsiya qildirdi. Siz uning burni oriylar burni singari to'g'ri ekanligiga ahamiyat berdingizmi? Shundan keyin qovoqxonani sotib oldi-da, masxarabozligini qila boshladi. U barchaga birdek yoqishni, hamma o'zini yaxshi ko'rishini istaydi! Qiziq-a, to'g'rimi?.. Go'zal Lota, vaqtimiz behuda o'tyapti, men sizni raqsga taklif qilaman.

– Biz ham raqs tushsak bo'larmikin? – dedi Gerbert xonim jilmayib. – Bu bizning yoshimizga to'g'ri kelarmikin? Qandaydir sokinroq kuy chalishyapti, nimaligini bilmayman ham...

– E, baribir emasmi! Eng muhimi, bir qarorga kelish, – javob qildi Nikitin. Shunda go‘yo birdan bolalikdagi sho‘xligi tutib ketganday bo‘ldi. – To‘g‘risi, Gerbert xonim, anchadan beri raqs tushmagandim. Bu yog‘i tavakkal. Sharmanda bo‘lsam ham mayli. Nimaga ham qilardim? Bir necha daqiqa yolg‘izlikda qolishga rozimisan, Platon?

Samsonov qadahdagi vinodan ho‘plab, qovog‘ini ochmay g‘o‘l-diradi:

– Tivist, sheyk va qorin raqsi – hammasini bir yo‘la ko‘raman, degan umiddaman. Salomatlikka bo‘lsin, azizlar, raqs tushaveringlar, o‘ynab-kulinglar, men esa sizlarni tomosha qilaman.

Orkestrning taraqa-turug‘i tingani uchun zal darhol tinchib, stollardagi shamlar shu‘lasi ham endi bir maromda yonardi. Tuman qo‘ynida juft-juft erkak-ayollar ohista yangrayotgan musiqada horg‘in siljishar, ba‘zilar bir-birining pinjiga tiqilganча mudroq holda aylanishar, ba‘zilar esa bir joyda chayqalib turishar, terlagan, sochlari o‘siq, «surgi»li kurtkalari yelvagay yigitlar stollari yoniga yetishganda koka-kolali shishalarni olib ichishar, og‘izlarini artib, sheriklariga uzatishar, shunda ham joylarida depsinishaverardi.

Nikitin davraga kirib borganidan keyingina Gamburdagi bu tungi qovoqxonada Gerbert xonim bilan raqs tushishga jazm etgani o‘ziga hayratlanarli tuyula boshladi.

– O‘lay agar, bu qanday raqsligini bilmayman-u, biroq endi sharmanda bo‘lmaslik uchun menga bo‘ysunavering. Bir zamonlar unga qanday tushganimni eslashga urinib ko‘raman.

Gerbert xonim rozi bo‘lganday jilmayib, Nikitinning yelkasini ohista silab qo‘ydi. Nikitin Gerbert xonim o‘ziga yaqinlashib, pinjiga kirgach, beliga qo‘lini tekkizarkan, dimog‘iga shirintob-chuchmalroq atir hidi urildi. Shunda o‘shal subhidam, Emma quchog‘iga dadil kirib: «Eh, gerr leytenant!» deganida nam sochidan atirsovu hidi kelgani yana yodiga tushdi.

– Gerbert xonim, men jim qolib, nimalarnidir o‘ylaganingizni payqadam... – dedi Nikitin o‘zini Gerbert xonimning sochidagi oq tolalarni ko‘rmaganga solib. U o‘shal ajib subhidam, Emmaning ko‘k va chaqnoq ko‘zlarini eslarkan, urush dahshatlaridan olis osuda jannatmonand go‘sha, taftli maysalar, oftobli bahor havosini bami-soli tushida ko‘rayotganday bo‘lardi. – Gerbert xonim, – dedi Niki-



tin yana uning chaqnoq ko'zlariga tikilib. – Mening yodimda... Men ko'p narsalarni eslayman, Gerbert xonim... – Nikitin to'xtab, nafasini rostladi. – ...Siz hattoki, meni nemischa «Shmetterling» deyishni o'rgatganingizgacha eslayman. Quyosh chiqqan, subhidam, derazadan kapalak uchib kirgandi. Esingizdami? «Lerne doych, lerne doych...»ni ham eslaysizmi?

– Lerne doych? – shivirladi Gerbert xonim. – Hamon yodingizdami? Yo xudoyim...

Gerbert xonimning Nikitin ushlagan barmoqlari terlab, tizzalari mayishganidan bir-biriga tegib ketardi. Nikitin Gerbert xonimni hozir qandaydir qo'rquv va pinhoniyl shodlanganini sezgani uchun vujudi titrab ketganday bo'ldi. Nahotki o'shanda bir-biriga aytgan so'zlarini unutmay, shu choqqacha eslab yurgan bo'lsa? Nikitin shoshib qoldi.

– Sizga bir nechta ruscha gap o'rgatganim esingizdami?

Gerbert xonim kuldi-da, labini cho'chchaytirib, bo'g'inlab dedi:

– Do svi-dan-ya... n-ne zabi-vay men-ya... – U picha jim qol-gach, terlagan barmoqlari bilan Nikitinning qo'lini siqibroq qo'shimcha qildi. – Ya lyublyu t-teb-ya... Shundaymi? Shundaymi-di?

Nikitin uning yigirma olti yil burun osmonga siyrak yulduzlar chiqqan may oqshomi qo'ynidagi sokin va osuda shaharchada o'rganib olib, aytib ko'rgan so'zlari yodida qoladi, deb o'ylamagandi. O'shanda ikkovining nafas olishlaridan sham pirpirab ketar, qog'ozga ruscha va nemischa jummalarni bundan buyon judo bo'lib ketishlariga ishonib-ishonmay navbati bilan yozishardi. Ha, Nikitin o'shanda ertasi kuni hayotida keskin o'zgarishlar bo'lishi va qayta ko'rishmasliklarini sezib turardi. Emma ana shu umid uchquniga mahkam yopishib olib, o'zi o'rgatgan ruscha so'zlarni yodlagan ekan-da? Nikitin esa hozir negadir suhbatning chuqurlashishini istamay, hazilga oldi:

– Universitetda nemischaning o'rganib yurib, bu fandan imtihonda har gal yiqilganimda sizning: «Lerne doych, lerne doych», degan gapingizni esladim. Siz menga kuchli ta'sir ko'rsatgandingiz...

– Siz nemischaning yaxshi gapiryapsiz, – dedi Gerbert xonim. So'ngra duv qizargancha ikkilanib so'radi: – Sizning xotiningiz... Uning kasbi nima?

– U vrach. Sizning... eringiz-chi?

– U ellik to'rtinchi yilda vafot etdi. Biz bor-yo'g'i to'rt yilgina birga yashadik.

– Bolalaringiz bormi?

– Bitta qizim bor. Biroq Gamburgda yashamaydi. Turmushga chiqqach, eri bilan Kanadaga ko'chib ketdi.

– Ukangiz-chi? Ukangizni g'ira-shira eslayman. Ismi Kurt edi shekilli? U qayerda?

– Dyusseldorfda. Taniqli advokat, o'zining idorasi bor. Ishi, yumushlari nihoyatda ko'p. Siz kelishingizdan oldin unga qo'ng'iroq qilgandim, Gamburgga kelishni juda ham istovdi, biroq iloji bo'lmadi.

– Ayting-chi, munozaraga nima uchun meni aynan siz taklif qildingiz, kecha shuni sizdan batafsil so'ramoqchiydim. Meni qanday tanidingiz? Nahotki suratlarim orqali bo'lsa?

– Sizning G'arbda nashr qilingan kitoblaringizda suratingizni ko'rib qoluvdim. Romanlaringiz mening do'konlarim orqali o'tardi. Men ularning barini o'qib chiqardim.

– Meni suratlarimdan tanib olsa bo'larmidi?

– Ha, men tanib oldim.

– Xotirangiz mening xotiramdan o'tkir ekan. Urushdan keyin xotiram ham siyqalashib ketdi. Juda ko'p voqealar bo'lib o'tdi-da. Umuman aytganda, garchi bu haqda so'zlashning mavridi bo'lmasa ham, umrning yarmi xayf ketdi.

– Men juda ham o'zgarib ketibmanmi, janob Nikitin? Siz meni tanimadingiz... Butunlay boshqachamanmi? Ilgarigi Emmaga o'xshamayman-a, shundaymi?

– Men ham ilgarigi leytenant Nikitin emasman.

– Yo'q, ayol uchun yigirma olti yil butun bir umr. Siz gapirgan haqiqat mana shuning o'zginasi.

– Buni men o'zim ham sezaman. Gohida ertalablari, soqol olayotganda chakkam oqarganini ko'rib, ellikkacha hali bor-ku, deb o'zimni yupatib qo'yardim. Amalda esa umrning ko'pi – asosiy yillari o'tib bo'lgan. Garchi ba'zi bировlar oltmishga kirmaguncha buni tan olmaslar ham bu achchiq haqiqatdan ko'z yumib bo'lmaydi. Qolaversa, hozir oltmishgacha yetib olish ham oson emas.

– Siz «asosiy yillar», deyapsizmi? Men esam... sizni baxtli odam bo'lsangiz kerak... oilangiz, ishingiz bor... taniqli odamsiz... deb o'ylardim, bunga ishonchim komil edi... Nahotki sizda ham armon bo'lsa?

– Bu dunyoda mendan-da omadli, mendan-da ishi yurishgan odam yo'q.

– Bu gapingiz hazilmi, chinmi?

– Meni qo'ying, men sizdan so'ramoqchiydim... O'shanda uyinigizda bo'lib o'tgan voqealarning hammasini anglab yetganmidingiz?

– Men Kurtdan, o'zimdanda xavotir olardim. Siz meni qutqarib qolganingizni bilardim.

– Mabodo o'tmishdan gapiradigan bo'lsak, sizni men emas, leytenant Knyajko qutqargandi. Nemischani yaxshi gapiradigan o'sha leytenant esingizdami?

– Men esa siz qutqargansiz deb bilardim. O'sha leytenant jiddiy va qattiqqo'l edi. Ochig'ini aytsam, men undan qo'rqardim, siz esa...

– Leytenant Knyajkoga o'xshaganlarni keyinchalik hech uchratmadim. Haligacha uni qo'msayman, sog'inaman. Odatda bunday odamlar ko'p yashashmaydi, bu ham qandaydir dahshatli, ayovsiz qonuniyat.

– Siz esa, xudoga shukurki, tirik qolibsiz.

– Mening omadim keldi.. Leytenant Knyajkoga o'xshagan odamlar bo'lmagandan keyin chinakam do'stlar ham bo'lmaydi, shuning uchun ham olamdagi ko'p narsalar ko'zga xiraroq ko'rinadi. Men uni shu vaqtgacha unutilmaganimdan tushlarimga ham kiradi. Ertalablari esa iztirob chekib, o'zimni qo'ygani joy topolmay qolaman. O'g'lim o'lgandan keyin ham shu ko'yga tushuvdim. Kechirasiz. Biz Knyajko haqida gaplashayotgandik, chalg'ib ketdim...

– Sizning... o'g'lingiz o'lganmi? Qachon?

– To'rt yil burun. O'shanda yagona do'stim – xotinimdan ham ayrilishimga sal qoluvdi. U asab kasaliga chalingan. Shoshmang, biz o'sha leytenant, mening harbiydagi do'stim Knyajkoni gaplashayotuvdik. Uni eslarsiz albatta...

– O, men hech nimani so'ramayman. Xotiningiz... o'zingiz ham... tushunaman. Nega ko'zlaringiz ma'yus tortib qolishlarini tushunyapman, buni sezgandim, uzr. Siz baxtiyor odam bo'lishingiz kerak, deganimda bunday bo'lishi mumkinligi xayolimga ham kel-

magandi. Meni kechiring. Balki o'tirib vino icharmiz. Anchadan beri raqs tushyapmiz. Mening juda ham ichgim va chekkim kelyapti. Ha, ha, bu yer dim... shunda ham negadir junjikib ketyapman...

– Tobingiz qochdimi, Gerbert xonim? Qo'llaringiz muzlab ketibdi. O'zingizni yomon his qilyapsizmi?

– Yo'q, yo'q, bu ham asabdan. Ayollarda shunday asab kasalligi bo'ladi o'zi. Men shunchaki siz tilga olgan eng yaxshi yillarimni esladim. Ularni yillar deyish qiyin, kunlar, lahzalar desa to'g'riroq bo'ladi... Bolalikning qandaydir sarobi, tushi... Janob Nikitin, musiqani eshityapsizmi? Menimcha, hozir tvist yoki sheykka raqs tushilyapti. Biz bo'lsak yoshlarga xalaqit beryapmiz... Keling, yaxshisi, o'tirib vino ichib, chekamiz.

– Qo'llaringiz isimadi, hali ham muzday...

– Vino ichsam, o'tib ketadi. Picha toliqdim chog'i.

– Unda yuring, o'tiramiz.

– Kechirasiz, janob Nikitin, hamkasbingiz janob Samsonov shak-shubhasiz, dadil odam. U bir vaqtlar ikkimiz tanish bo'lganimizni biladimi?

– Buning ahamiyati yo'q. Nimaga edi?

– Uning bu haqda bilishini istamadingizmi?

– Bu haqda o'ylashga ulgurmadim.

– Tashakkur. Stolga yuring.

## BESHINCHI BOB

Nikitin bilan Gerbert xonim raqs tushayotganlar orasidan chiqib, o'zlarining stollariga yaqinlashishdi. Ditsman bilan Lota Tittel hali ham raqs tushishar, Samsonov esa qo'lini ko'ksida chalkashtirgan-cha yolg'iz o'zi o'tirardi.

– Sizlar na tvist, na xusht, na sheyk, na babeyka... hozirgi zamonda yana nima deyilardi... xullas, hech biriga o'ynamadinglar-ku, – dedi u. – Kamtarinlikda ham hech bir qolipga to'g'ri kelmaydigan kamtarinlik qildingizlar.

– Janob Nikitin, menga vino quyib bersangiz, – Gerbert xonim shunday deya qutidan sigareta oldi. Nikitin vino quydi, u esa xuddi chanqog'ini qondirayotganday yutoqib ho'plarkan, tishi qadahga tegib takillayotgani ayon eshitalardi. Nikitin yana so'radi:

– Tobingiz yo‘qmi, Gerbert xonim?

– Bu yerto‘la negadir dim va zax, – dedi Gerbert xonim shunchaki. U sigaretasini yondirgach, sham tepasidan Nikitinga qaradi. – Kechirasiz, janob Nikitin, shunday bo‘lib turadi o‘zi... Picha toliqqanman. Bu jaz, shovqin, tor joy... Janob Aleksning gapi to‘g‘ri: ha, masxarabozlik...

– Miyasi g‘ovlab ketadi odamning... – uning gapini ma‘qulladi Samsonov. – Esdan og‘ish hech gapmas... Yigirmanchi asrning ko‘ngilochar maskani. Bunaqa joylarga mustahkam asab bilan suli bo‘tqasi yeb kelish kerak.

Ular vinoni gap-so‘zsiz ichishdi. Nikitin Gerbert xonimga yana quydi. U xonimning tishlari takillayotgani, ayni paytda uzr so‘rash payidan bo‘lib qarayotganini ham sezardi. Gerbert xonim Nikitinga tikilarkan, jilmayish bilan bir qatorda nimanidir aytgisi kelar, bunga esa chamasi Samsonovning borligi xalal berardi.

– Men, janob Nikitin...

«Emma, o‘sha-o‘sha Emma, ko‘zlari o‘zgarmabdi, hamma gap ko‘zlarida», xayolidan o‘tkazdi Nikitin. Shunda Gerbert xonimning ko‘m-ko‘k ko‘zlaridagi ifoda, ayniqsa, sokin ovozidagi muloyimlik unga mehrini tovladi. Ilgarigi Emmaning allaqaysi jihatlarini Gerbert xonimga o‘tgan, Nikitin bunga sira ham shubha qilmasdi. Shunga qaramay, Nikitin hayotda bunday mushtarak narsalar bo‘lishi mumkin emas, bular bari, ya‘ni Gerbert xonimning o‘zini oqiz va gunohkorona tutayotgani xayolot o‘yini, unga urush yillaridagi yoshligim xotiralari sababchi, degan fikrga bordi. Zero, Gerbert xonim judayam o‘zgarib ketganidan Nikitin uni tanimagandi-da... «Nima bo‘lyapti? Yana o‘sha xotiralar qiynayaptimi? O‘tmish vasvasalaridan qutulishning chorasi yo‘qmi?»

– Men... janob Samsonovdan uzr so‘ramoqchiydim, – davom etdi Gerbert xonim gunohkorona ohangda. – Yarim soatlardan keyin uyimda bo‘lishim kerak... Mabodo toliqqan bo‘lsangizlar, sizlarni ham mehmonxonagacha eltib qo‘yishim mumkin. Menimcha, janob Ditsman bilan Tittel xonim bu yerda hali yana bo‘lishsa kerak. Ular Aleksning qovoqxonasini xush ko‘rishadi... Inglizchasiga ketsak ham bo‘ladi, – qo‘shimcha qildi u. – Ya‘ni xayr-ma‘zur qilmasdan. Bu bizda ham urf bo‘lib boryapti.



– Gerbert xonim! Men siz tarafdaman, – jonlanib uni qo‘llab-quvvatladi Samsonov. – Hozir dunyodagi hamma narsadan ham mehmonxonaga borib, liftida nomerimga chiqib, karavotda cho‘zilib yotgim kelyapti...

– Albatta, albatta, – deb qo‘ydi Nikitin ham o‘ychan. U Gerbert xonim nimaga bezovta bo‘layotganiga tushunib, raqs tushayotgan sheriklariga qaradi. – Nima bo‘lganda ham xayrlashishimiz lozim.

Musiqa gumburlab, avjiga chiqdi. Shamlar nurida juft-juft bo‘lib o‘ynayotganlar bir-birlariga yaqinlashishar, surilishar, nari-roq ketishar, yana qovushib olishardi. Yoshlarning ter bosgan yuzlari, qilpillayotgan sochlari, cho‘zilgan o‘mrovlari, bukkir tirsaklari lip-lip ko‘rinar, jinsilari siqib turgan bellari likillar, yubkalari tiz-zalariga urilardi. Nikitin axiri bu girdobdan xipchabel Lota Tittelni topib oldi. Xushqomat va lik-lik qilayotgan Lota Tittel g‘amza bilan Ditsmanni nimagadir da‘vat etar, ko‘kragi, kiftlarini uchirar, Ditsman bo‘lsa beparvo holda uchi ingichka botinkasining poshnasini poshnasiga urib, joyida chopayotganday harakatlar qilardi. Shu payt qovoqxona xo‘jayini bo‘lmish baqaloq, qizil yuzli janob Aleks ko‘zlari g‘alati chaqnagancha zalda yugurgilab, raqs tushayotganlarga, sozandalarga va stollar atrofidagi tutunda yuzlari elas-elas ko‘rinayotganlarga qiziqchiliklar qilardi. Janob Aleks qaysi stolga borsa, uning qiziq gaplaridan o‘sha joyda qahqaha ko‘tarilardi. Xullas, ayni dam uning qovoqxonasida o‘yin-kulgi avjida edi.

Nikitin Ditsmanning yaqinlashishini kutib turdi-yu, so‘ng barmog‘ini ko‘tarib, ketamiz, deganday imo qildi. Ditsman bunga javoban qoshini taajjubli chimirdi, so‘ngra hamon lik-lik qilayotgan Lota Tittelga nimadir dedi. Shundan keyin ikkovi ularning yoniga yaqinlashishdi. Lota Tittel harsillab o‘zini stulga tashlarkan: «Bu eng zo‘r gimnastika!» dedi-da, sumkasidan ko‘zgu chiqarib, dastro‘molning uchi bilan ko‘zlarining tagini artib qo‘ydi.

– Tivist bilan sheyk, janob Nikitin, – dedi Tittel hayajonda, – aytishlaricha, saratondan saqllovchi vosita emish. Lekin bilib qo‘ying: mabodo men ana shu dahshatli kasalga chalinsam, o‘zimning pol-yaklarim qo‘lida o‘laman!

– Xudo ko‘rsatmasin-u, mabodo shunday bo‘lsa, bizning Ros-siyaga ham borish mumkin. Bilib qo‘ying, bizda yaxshi vrachlar bor, – dedi Samsonov yarim hazil, yarim chin ohangda, so‘ng

o'pkasi tiqilib ketgan Ditsmanga qaradi. – Tivist insonning yashashdan maqsadi borasida ajoyib fikrlar uyg'otadi shekilli? Siz fikrlaganda oyoqlaringizni ham ishga solasizmi, deyman? Yordami tegadimi?

– Mendan biror masalada gina qilmoqchimisiz? Nima uchun? Aybim bormi? Bo'lsa qanday? Biror begunoh insonni o'ldirdimmi? Meni ortiqcha muhokama qilib yubormayapsizmi, janob Samsonov? Menga bunday muomala qilmasligingizni so'ragan bo'lardim.

«Bu jin urgur havoriyga nima bo'ldi o'zi, – Nikitin birdan qizishib, tishlarini g'ijirlatdi. – Nimaga hadeb zaharini sochib, har narsaga burmini tiqaveradi?»

Nikitin shundan so'ng ular o'rtasidagi bemavrid va keraksiz bahsning oldini olish maqsadida gap boshladi:

– Ming taassuf, biroq mehmonxonaga bormasak bo'lmaydi. Siz haqsiz, janob Ditsman, bu restoranchada qiziqarli nimadir bor ekan. Mehmondo'stligingiz uchun tashakkur.

– Masxarabozlik bor, janob Nikitin, masxarabozlik, – Samsonov achchig'i chiqib, ruschalay boshladi. – Gapiraver, gapiraver... pokdomon hazrat.

– O'tinaman, janob Ditsman, Tittel xonim, bezovta bo'lmanglar, bizni kuzatmanglar. Shunday ham ancha ovora bo'ldingizlar o'zi, – Nikitin Samsonovning gapini eshitmaganga olib, xushchaqchaq holda dedi: – Gerbert xonim eltib qo'yaman, deb iltifot qilyaptilar. Ziyofat buzilmasin... Sizlardan o'tinaman, janoblar! Majburiyat va rasmiyatchilik qilib o'tirmaymiz. Ma'qulmi?

U o'midan turdi.

– Mayli, biz hali qolamiz, – deb qo'ydi Lota Tittel yelpig'ichga o'xshagan kipriklarini pipiratib. – Biroq munozara haqida bilib qo'yishingiz uchun sizga shuni aytaman, janob Nikitin. Ba'zi masalalarda janob Ditsmanning rosa ham tanobini tortdingiz. Buni o'zi ham aytdi menga. Ba'zi masalalarda. Ko'rishguncha. Qo'limni o'ping. Polshada ayollarning qo'llarini o'pishadi. Aytishlaricha, sizning Rossiyangizda ham shunday qilisharmish. Qorni to'ygan Germaniyada esa hamma vaqt ham bunday qilishavermaydi. Men indinga Kyolnga jo'nayman, lekin ketgunimcha siz bilan yana uch-rashsam devdim.

– Tashakkur, Tittel xonim. Biz bilan birga bo'lganingizdan xursandman.

Nikitin uning latif, tirmoqlari sadafrang va uchli (Lota Tittel labini qimtib, tirmoqlarini kaftiga botirib oldi) uzun barmoqlaridan o'pdi. So'ngra hurmat ko'rsatib o'rnidan qo'zg'algan, tansa tushaverganidan qizib ketib, do'stona jilmayib turgan Ditsmanning qo'lini qisdi. Ditsman poshnasini poshnasiga urib, eski tanishlarday hazil qildi:

– Menimcha, janob Nikitin, janob Aleks qovoqxonasida qizlarga serob boyagi ko'chadagiday bor haqiqatni bilib olmoqqa jur'at qilolmadingiz.

– Bu haqda o'ylab ko'raman, – hazilga hazil bilan javob qildi Nikitin ham. – Ertalabgacha o'ylayman. Vaqtim bor.

Samsonov Gerbert xonimdan keyin stol yonidan qo'zg'aldi. U qolganlar bilan muloyimroq xayrlashib, Gerbert xonimga stol suyanchig'idagi plashini tutdi. Jaz musiqasi gumburlab turgan, sershovqin qiyqiriq, kulgi tinmayotgan va shamlar lipillab turgan issiqqina yerto'lasimon bu joydan yaxshi yoritilmagan ko'chaga chiqishdi. Kuz havosi ancha namxush, xira chiroqlar yoritgan yo'lkada qog'oz parchalari, qora paypoqli, ko'krakdor va yalang'och oyimchalarning rangli suratlari uchrar, bular San-Paulining tungi yelvizak bu yerga uchirib kelgan reklamalari qoldig'i edi.

– Ochig'ini aytsam, janob Aleks qovoqxonasidagi shovqin-suron va musiqadan toliqidim, – dedi Gerbert xonim Nikitinga. Gerbert xonim orqadagi o'rindiqa pixillab kelayotgan Samsonovga sal o'girilibroq o'tirardi. – Bu yerda birinchi bo'lishim, lekin men odatda bunaqangi telbaliklardan xoli, dam olsa bo'ladigan tinchgina restoranlarni xush ko'raman.

Tungi soat birlar edi. Reeperbanning ko'chalari, bedor, chiroqlari serjilva, ammo odamlar kamayibroq qolgan, viveskalari neon chiroqlardan yasalgan tungi kabarelar oldida kuymalanayotganlarning ham safi siyraklashgan, mayxonalardagi muzli kokteyllar talabgorlarga intizor edi. Sahnalardagi qizlar zaldagilar tinimsiz chekishayotganlaridan tutunda g'ira-shira ko'rinayotgan tomoshabinlar oldida yuzlaridan soxta tabassum arimagan holda g'amza bilan behayo raqs tushishar, kinoteatrlarda esa besh markaga shvedcha shunday filmlar ko'rsatilar, xullas, maishatbozlik avjida edi. Ushbu olovli maydonda inson hirs pullanar, eshiklar oldida ishratparastlarni chorlovchilar, afisha do'konlari yonida yakka fohishalar ko'zga tashlanardi. Yo'lak chekkasidagi mashinalar ertalabgacha qimir etmay turadigan

Gamburgning markaziy ko'chalari esa Nikitinga sovuq, kimsasiz ko'rinar, bemahal daydigan oshiq-ma'shuqlar yonlaridan o'tib borayotgan yopiq do'konlar oqish yog'du taratayotganiga qaramay hamma yoq zim-ziyoday tuyulardi.

– Qulog'im bitib qolayozdi, – davom etdi Gerberg xonim odob doirasida o'zini gunohkor sezganday. – Men loaqal bir-birimizning ovozimizni eshitsa bo'ladigan tinchroq joyda o'tirishni istagandim... Mabodo qarshi bo'lmasangiz, qahva ichgani va shovqin-surondan o'zimizga kelgani sizlarni xonadonda ochilgan restoranchaga olib boraman. Rozimisizlar, janoblar?

«Ajab, – dedi ichida Nikitin. – U janob Aleksning g'ala-g'ovur dargohidan bejiz qochmabdi-da. Uning uyiga, mening esa mehmonxonaga qaytgim kelmayapti. Men unga talpinib, nimaningdir tagiga yetishga urinayotganday g'alati ahvolga tushyapman...».

– Mening hali qahva ichib, hech nimaga parvo qilmay kapitalistik Gamburgning tungi hayotini o'rganishga yetarlicha quvvatim bor, – Nikitin boshidan beretini olib, asabiy va chuqur homuza tortgan Samsonovga qaradi. – Nima deysan, Platon? Rozimisan?

– Bas-s, – dedi Samsonov esnog'ini bosib. – Hech qanday restoranning keragi yo'q, yotib uxlamoqchiman. Tungi hayotdan to'ydim. Mehmonxonaga, mehmonxonaga haydang. Bugunga yetar, sizdan minnatdormiz.

Samsonovning gapidagi «bugunga yetar, sizdan minnatdormiz» jumlasini ikkovi uchun ham berilgan javob bo'lib, bundan endi yetar, ko'radigan narsalarni ko'rib bo'ldik, degan ma'no chiqardi. Gerbert xonim bunga e'tiroz bildirmay, majburlamay, qo'lqopli qo'li bilan mashinaning terlagan oynasini artib qo'ydi. Oynaga osuda ko'chalarning chiroqlari tushib, uning yuzini lip-lip yoritardi.

– Bunday qilamiz bo'lmasa, – dedi Nikitin. – Samsonovchasiga emas, Solomonchasiga ish tutamiz. G'oyat charchagan rus yozuvchisini mehmonxonaga eltib qo'yamiz-da, o'zimiz qahva ichgani birorta tinchroq restoranchaga boramiz. Men taklifingizni qabul qilaman, Gerbert xonim.

– Bachkanalik, – ruschaladi Samsonov ensasi qotib. – Bema'nilik. Sening bolalarga xos bu o'yinqaroqligingni tushunmayapman. Nega? Esingni yig'ib olsang-chi endi. Gerbert xonim, – Samsonov ayolga qarab nemischa gapira boshladi. – Sizdan mehmondo'stlik

taklifingizni qaytarib olishingizni iltimos qilaman, bo'lmasa janob Nikitinning ertaga yuragi xuruj qilib yotib qolishi mumkin... Uning sog'lig'i menga yaxshi ayon. Hozir yotib uxlashi kerak. Qovoqxona-qovoqxona daydiguncha validol bilan uyqu dori ichishi lozim.

Gerbert xonim mashina ko'zglasini to'g'rilab Samsonovga qaradi-yu, lekin e'tiroz bildirmadi, faqat Nikitinga botinqiramay dedi:

– Bu bir soat ham vaqtimizni olmaydi. Lekin agar sizga mumkin bo'lmasa, agar janob Samsonov...

– Janob Samsonov temir irodali, vazmin kishi, zohidona, eskicha tartiblarni yoqlaydigan inson. Bundan tashqari, qahvaga bolaligidan tobi yo'q, – dedi Nikitin. – Shu bois ma'naviy jihatdan qiynalsak ham, u bilan mehmonxonada oldida xayrlashishga majburlamiz.

Samsonov yana rus tilida do'rilladi:

– Bu zo'r gapingdan tamom bo'layozdim, qaysi olamdiligimni o'ylab, sira o'zimga kelolmayapman... Mening vazifam – unga eslatib qo'yish, Gerbert xonim, – nemischalab ayolga murojaat qildi Samsonov, – Qarorni esa, albatta, uning o'zi qabul qiladi. Lekin yengiltaklik unga xos odatdir.

– Boplading. Ko'zlarimga yosh keldi. Ho'ngrab yubormasam bo'lgani ishqilib. Mehmonxonaga yaqinlashyapmiz. Qahva ichmaganingga afsus qilib, uxlolmay chiqasan hali.

– Bitta xulosani bugun eshitib oldim o'zi, – Samsonov yag'rinini orqa o'rindiq suyanchig'iga tashlab, yasama homuza tortdi. – Haligi nimaydi? Bashariyat... ha, ha, bor haqiqatni bilmaydi. Men hamkasbimning bu e'tirofidagi benihoya teranlikdan g'oyat hayratdaman. Gerbert xonim. O'n yoshga ulg'aydim desam ham bo'ladi. Bu falsafiy formuladan azbaroyi gangib qolganim uchun hanuz o'zimga kelolmayapman. Siz-chi? Uning fikriga qo'shilasizmi?

Gerbert xonim ohista javob qildi:

– Janob Nikitin haq. Buni hech kim bilmaydi.

– E, ha, hech kim deng? Unda ayon haqiqatlar qayda qoldi? Bundan chiqdi, bashariyat shu choqqacha zulmat ichida yurib hamon undan chiqolmayotgan ekan-da? Bu nima, so'qirlikmi? Odamlar haqiqatni harchand izlab baribir uni topisholmayotgan ekan-da? Xuddi kuchukvachchalarday tumshug'ini duch kelgan kavakka tiqib yurgan ekan-da?



– Faqat bitta odamni hisobga olmaganda, Platosha, – dedi Nikitin yarim jiddiy qilib. – Bo‘ldi munozara allaqachon tugagan... Mehmonxonaga yaqinlashdik, qimmatli muxolifim. Mehmonxona yo-piq. Shveysar uyquni uryapti. Qo‘ng‘iroqni bos. Ozroq marka uzat. So‘ng rahmat ayt. Eshikni ochishadi. Hatto liftda xonangacha chiqarib ham qo‘yishadi. Shinamgina nomeringga yetib olishingga hozircha mana shu haqiqatning o‘zi kifoya.

Ular markaziy ko‘cha muyulishidan burilib, barcha qavatlardagi chiroqlari o‘chiq osuda mehmonxona yonida to‘xtashdi. Mehmonxonaning oyna devorlari ortidagi osma chiroqlar ham o‘chgandi. Kalitlar saqlanadigan tortmalar tepasidagi chiroq xiragina yog‘du taratar. vestibulda shveysarning ko‘rinmayotgani, ayniqsa, yo‘lkalar kimsasizligi, mehmonxona oldidagi qorayib turgan mashinalar Nikitinga vaqt allamahal bo‘lganini, toliqish, xoriydagi qisqa, ayni vaqtda oxiri ko‘rinmaydiganday kunlari intihosiga yetayotganini eslatardi. Lekin ayni damda uning uyqusi kelmas, har kungiday tinchgina nomeriga kirib, o‘zini yumshoq o‘ringa tashlab yotsa ham baribir mijja qoqolmasligini yaxshi bilardi. Qolaversa, hali o‘zi o‘rganmagan nomerda ko‘zi ilinishini kutib yotaverib, yolg‘izlik vasvasasidan battar dahshatga tushardi.

– Faqat bir iltimos, qaytganingdan keyin qo‘ng‘iroq qil, – noxush g‘udrandi Samsonov tund qiyofada. – Bo‘pti, safsataboz, ishqilib, o‘zingga ehtiyot bo‘l! Barining ortidan bosh og‘rig‘i chiqmasin ishqilib, xayr, azizlar!..

Samsonov sochlari paxmoq boshiga beretini bostirib kiydi-da, inqillab-sinqillab mashinadan vazmin gavdasini chiqardi, keyin lapanglaganicha mehmonxona eshigiga qarab yurdi. Qo‘ng‘iroq tugmasini bosib picha kutib turdi. Oradan ko‘p o‘tmay oynaband eshik ortidan uyqusi buzilgan shveysarning qorasi ko‘rindi.

Shundan so‘ng Nikitin:

– Hammasi joyida. Ketaversak bo‘ladi, – dedi.

– Yo xudoyim, – deb yubordi sumkasini titkilayotgan Gerbert xonim. – Gamburgga kelganingiz qanday yaxshi bo‘ldi-ya!.. Bu yerda, Gamburgda ekanligingizdan shu qadar xursandmanki... Sizni bilmadim-u, lekin mening quvonchim cheksiz... Chekasizmi? Keling, ozroq shunday o‘tirib, chekishaylik.

Gerbert xonim sigareta chiqardi, Nikitin esa gugurt chaqdi. Gerbert xonim sigaretasini yondirib tutunini tortarkan, yoz faslidagi lojuvard ko'l yanglig' ko'm-ko'k ko'zlari bilan yon tomondan muloyim, samimiy va minnatdorona boqib qo'yardi. Nikitin shunda yana o'zi bilgan o'sha Emmaning tip-tiniq ko'zlarini yaqindan ko'rganday bo'ldi. Bu ko'zlar yoshlikning o'shal subhidamdagi quvonchli lahzasini saqlab qolganday edi. O'sha tongdan xotira bo'lib uy oldidagi ko'm-ko'k o'tloq, qarag'aylar ostidagi «studebekker»lar, Kyonigsdorf bog'larida qiyg'os gullagan olmalarning shabnam aralash ifori, ibodatxona oldidagi oftobda charaqlagan yassi tosh yotqizilgan maydon, salqini ketmagan plitalarda bemalol chekishayotgan askarlar yodi qolgandi. Ayolning ko'zlari barcha narsalarni eslatib, ifodalab turar, hatto goho-goho sal tikilibroq qaraganida qoshining chimirilishi ham ko'p narsalarni yodiga tushirardi. Biroq Nikitin Gerbert xonimning chehrasidagi o'zgarishlar, kerakli va keraksiz so'zlarni pichirlayotgan lablarining qimirlashida nimalarnidir ilg'ab olgisi kelayotgan bo'lsa ham, yuragi qafasga tushgan qushday potirlab turgan bo'lsa ham, negadir o'zini juda sipo va vazmin tutardi. Nikitin bamisoli pinhoniylir qirg'ish orqali o'shal kunlarga boqar, undagi g'ira-shira voqeliklarda o'zini ham ko'rar, o'sha baxtiyor, Knyajko ikkovi uzra siren osilib tushgan panjaralar tagidagi yo'lkada odimlayotgan onlariga qaytayotganidan rohatlanardi.

– Rimda bo'lganmisiz, janob Nikitin?

– Ha.

– Va albatta, Navona maydoni bo'ylab sayr qilish ham yoqqan bo'lsa kerak?

– Albatta. U yer ajoyib joy.

Gerbert xonim chala chekilgan sigaretasini kuldonda ezg'iladida, Nikitinga qaramay sirli jilmaydi.

– Hozir men oftob charaqlaganda doimo sokin bo'ladigan o'sha maydondagiday ochilib turibman. Ko'nglim salgina ma'yus, quvonchga to'la va picha xavotirda. Negaki, o'sha maydonda yashamaymiz. Siz-chi? Siz nimani his qilyapsiz? Sizdan so'rashga haqim bo'lmagan narsalarni ham so'rayotganim uchun kechirasiz.

– So'rayvering... Hozir mening ham qalbim negadir ma'yus. – javob qildi Nikitin. – So'rayvering.

Gerbert xonim jimgina charm qo'lqopdagi barmoqlarini silardi.

– Ma'yusmisiz? Shu yerda, Gamburgda ekanligingiz uchunmi? Rimni eslab qolganingiz uchunmi? Yo Moskvanimi?

– Yo'q, ma'yusligimga... sabab... – Nikitin jo'rttaga mavhumroq so'z topishga urinar, chunki bu javob Gerbert xonimga juda samimiy tuyulishi aniq edi. Nikitin shu bois gapni hazilga burdi. – Sababi shuki, ma'yusman, vassalom. – U kulib yubordi. – Begona shaharlarda vaqt allamahol bo'lganda ma'yus tortib qolaman. Hamma uyquda, shahar ham odamlari uni yoppasiga tark etib, boshqa sayyoraga ko'chib ketganday huvillagan va jon asari yo'qday tuyuladi. Mana shundan...

– Yo xudoyim, nega ularning bari uyquda ekan-a? Bizning nemislar naqadar ojiz va ayanchli, tejamkor odamlar-a! Ular tushlarida ham markalarini tejasam deyishadi! – Gerbert xonim ham kulib yubordi-da, ko'zi bilan qorong'i ko'cha ichkarisida qorayib turgan derazalarga imo qildi. – Nahotki vaqtni shu zayl behuda sovurish mumkin bo'lsa? Hozir ikkimiz Rimga boramiz. Axir, badavlatimiz. Avtomobilimiz bor. Ertalabgacha maishat qilishimiz mumkin. Istaganimizcha. Erta bilan esa Rimdan yana Gamburgga, shahar uyg'onayotgan mahal qaytib kelamiz. Dilingiz ham ancha ravshanlashadi.

Nikitin uning gapiga tushunmadi:

– Rimga? Qanday qilib?

– O, o'sha restorancha «Navona» deb ataladi. Gamburgdagi Rim. Yo San-Paulidagi boshqa birorta joyga borishni istaysizmi? Kabarega boramizmi? Chiroyli, yoshgina juvonlarni ko'rgingiz kelmayptimi?

– Yo'q, Rimga bora qolamiz.

– Men bu tun sizning shofyoringizman... Amerika vestemlaridagiday uchirganim-uchirgan. Siz vestemlarni yoqtirasizmi?

– Unchalik emas.

– Mayli, ahamiyatsiz.

Gerbert xonim asta engashib, oyog'ini tapillatgandi, Nikitin uning bir poy tuffisini pedalga tirab yechganini sezdi. Keyin boshqa poyi ham shu tariqa yechildi. Gerbert xonim tuffilarini oyog'i bilan o'rindiq tagiga surib yuborgach Nikitin ajablanib so'radi:

– Paypoqning o'zida sovqotib qolmaysizmi?

– Odam shunda tezlikni yaxshi his qiladi. Goho kechalari shunday qilaman.

Ular borgan mo'jazgina «Navona» restorani chindan ham xonadondagiday sokin, yarmi bo'sh edi. Bir-biridan yog'och to'siqlar bilan ajratilgan chog'roq stollarga kraxmallangan oppoq dasturxonlar yozilgan, zangori soyabonli chiroqlar mayin nur taratib, guldor gazlama qoplangan devorlarda Rimning akvarelda ishlangan manzara va suratlari ko'zga tashlanardi. Zalning qayeridandir, har holda ichkarirog'idan bo'lsa kerak, elas-elas musiqa eshitilar, bu esa Vadimga xush yoqar, go'yo u moziyning ajib olamidani taralayotganga o'xshardi. Bu yerdagi barcha narsalar pokiza, batar-tib, ofitsiantlar ham ohista gaplashishardi. Restorancha bag'oyat shinam, derazalariga qalin pardalar ilingan, osuda, quloqqa faqat musiqagina chalinardi. Shu bois ham bu joy Nikitin nazarida tun qo'ynidagi Gamburgning bamisoli sokin bir oroli, orzu qilgulik joy, ikki kvartal naridagi biror soniya ham tinchimay, odamlari jazavadan bo'shamaydigan Reeperbanga nisbatan tinch va ajib mas-kan edi.

– Janob Nikitin, mabodo konyak bilan qahva buyurtirsak qarshimasmisiz? Men negadir junjikib ketyapman. – dedi Gerbert xonim ular stolga o'tirishlari hamono oppoq peshband tutgan yoshgina qiz muloyim boqqancha mehmonxona xizmatchisiday uyalinqirab yaqin kelgach. – Bugun biz yana jinday ichsak bo'lar?

Nikitin Gerbert xonim dadilroq tortganini sezib, javob qildi:

– Keyin mashinani qanday qilib haydaysiz? Rulni boshqara olasizmi ishqilib?

– O, bu qiyin emas! – jilmayib qo'ydi Gerbert xonim.

Ofitsiant qiz konyak, chinni finjonlarda quyuq va qaynoq qahva keltirdi. Gerbert xonim chorburchak qilib qadoqlangan qandni shig'irlatib ocharkan, o'ychanroq dedi: – Ishqilib hech bir yomonlik bo'lmasin-u, ammo sizning Gamburgga kelishingizni xudoning o'zi xohladi. Men sizni boshqacha... ha, boshqacha tasavvur qildim, o'zingizni meni tanimaydiganday, hech nima esida qolmagan odamday qilib ko'rsatasiz, deb qo'rqqandim. O'shanda biz yosh edik axir... ha, o'zingiz aytganday, bizning eng yaxshi yillarimiz o'tmishda qolib ketdi... Nega deganda, men hozir o'n sakkiz yashar Emma emasman, endi «Gerbert xonim»man, yigirma olti yoshga qa-

riganman. Bu haqda endi o'ylay boshladim. Ko'pincha hayotimda ro'y bergan eng muhim voqea nima o'zi, deb bosh qotiraman.

– Keling, eng yaxshi yillarimiz uchun ichaylik, – Nikitin ham ochilib quvonch va qayg'u aralash gap boshladi. – Men ham keyingi paytlarda shuni tez-tez o'ylaydigan bo'lib qoldim. O'tgan umringga bunday nazar tashlasang, xo'sh, o'shanda nima bo'luvdi, deb o'ylaysan. Urushdan qaytgandan keyin o'zim istaganday va tasavvur qilganday yashadimmi? Ko'p narsalar boshqacha kechdi. Xatoliklar ham, bema'niliklar ham shundayngi ko'p bo'ldiki, ularni o'ylagani ham uyalaman. Biroq shunisi qiziqki, yomon narsalar unutilib, esdan chiqib ketaverar ekan. Mana, xotirada talabalik yillarim, uylanish, o'g'limning tug'ilishi, birinchi muvaffaqiyat, bir ming to'qqiz yuz ellik sakkizinchi yildagi xorijsa qilingan birinchi safar qoldi. Hammasi birinchi... Shuning uchun ham hayot favqulodda qisqa va ayni paytda uzunday tuyuladi, ba'zi bir yillar xuddi tumandagiday g'irashira ko'rinadi.

– Urush-chi? – asta eslatdi Gerbert xonim gunohkorona ohangda, – malol kelmasa... agar shunday tushuntirishning imkoni bo'lsa, ya'ni siyosatni aralastirmay gapirsangiz...

– Siyosatsiz urushmi? Bu mumkin emas. Siz nimani so'ramoqchi ekanligingizni tushunib turibman. Men urushdan naf ratlanaman, biroq goho o'zim urushda uchratgan ba'zi odamlar yonimda yo'qligidan shundayngi siqilib ketamanki. Bunda men urushdagi hamma odamlarni, yomonlarni ham, yaxshilarni ham nazarda tutyapman. O'zim tanigan-bilganlarning barini. Nega, degan savolga esa javob berib bo'lmaydi. Chamasi, yomonmizmi yoki yaxshimizmi, bir-birimizga kerakligimiz tufayli bo'lsa kerak. Bir oila a'zolariday edik. Mana bugun janob Aleks do'stlaringni ham, dushmanlaringni ham sev, degan gapni aytdi... – Nikitin biroz o'yga botib, so'ng davom etdi: – Iso payg'ambarday rahmdil emasman, urush esa tugagan, oradan ko'p yillar o'tdi, men ham shundan keyin o'sha odamlardan yaxshiroq bo'lganlarni uchratmadim. Bu o'sha avlodni qo'msash dardi. Tushunyapsizmi? Men hamma vaqt leytenant Knyajkoday do'stga zor bo'lib keldim. Hozirgacha uni sog'inaman. Knyajkoga o'xshagan odam hozir yo'q. Bizning avlodni esa keraksizday bir chetga surib tashlashdi. Deyarli hammani. Ehtimol shuning uchun ham men ularning barini sog'inib, hanuzgacha unutil-



mayotgandirman. Hatto o'sha serjant Mejeninni ham... Siz uni... boloxonada sizni ko'rib qolgan zobitni eslasangiz kerak...

Nikitinning gapini diqqat bilan tinglayotgan Gerbert xonim qoshlarini chimirdi.

– Siz ularni yaxshi ko'rasizmi? Hatto o'sha serjantniyammi? Eslashimcha, unga o'q uzgandingiz, sizni esa hibis qilishgandi... o'sha kunning o'zidamidi?

– U menga nisbatan adovatida samimiy edi, – javob qildi Nikitin. – Uning qismati qanday kechganini bilasizmi? Odamga urushdan keyin o'lgani alam qiladi-da. Avstriyada, o'rmonda kimdir mashinani o'qqa tutibdi. Mashinada to'rt kishi ketishayotgan ekan, faqat u o'libdi. Bu voqea Kyonigsdorfdagi so'nggi jang paytida sodir bo'lgandayam ajablanmasa bo'lardi. Chunki u o'shandayoq o'limga mahkum edi. Bu dahshatli tuyulsa ham haqiqat. Urush so'ngida har bir askar kabi tirik qolishni juda ham xohlagandi. Menga uning halok bo'lganini xabar qilganlarida anchagacha o'zimga kelolmay yurdim. Uning o'limi qismatida bor edi, har qanday urushda bo'lgani kabi ajal ham uning peshonasiga yozilgandi.

– Men yana ichmoqchiman. Bugun sira ham mast bo'lmayman, – Gerbert xonim shunday deya ofitsiant qizga imo qildi. Qiz ham muloyimgina yaqinlashdi. – Iltimos, freyleyn, ikki hissa konyak.

– Xo'p bo'ladi, Gerbert xonim. Hozir.

Bu orada birin-ketin tungi xo'randalar kela boshlaganlari uchun restorancha ham asta to'lib borardi. Stollar yonida chamasi kabaredan chiqib, bir finjon qahva ichgani, kechroq bo'lsa ham tamaddi qilgani kirgan keksaroq so'qqabosh ayollar, katta yoshli oshiqma'shuqlar o'tirishar, chiroqlarning soyabonlari sigaretalar tutunida moviy ko'rinar, menyular shitirlar, sanchqi, qoshiqlarning yengil shiqirlashi eshitilar, musiqa ovozi ham go'yo bu yerni chetlab o'tayotganday ohista suzardi. Go'yo derazalarga tortilgan pardalar, gazlama qoplangan, Rimning akvarelda ishlangan manzaralari va suratlari bezagan devorlar bu mustahkam, sokin va chekkaroqdagi xonadon kemasini, dilni yayratadigan maskanni saqlab turganidan xizmatchilar shoshilishmas, ishlar bir tekisda ketar, qayga qaramang, shinamlik sezilardi. Shunda Nikitinning xayoliga Gerbert xonim suratlardagina aks etib turgan «Navona»ni (Rimdagi eng sokin maydon) yoqtirib qolgani uchun shu yerga olib kelibdi-da, degan fikr

keldi. Gerbert xonim shu bilan o'zini aldab, ovuntirib yurgani bois hozir butun hayoti ko'ziga qaygadir shiddat bilan yelayotgan kuch, ixtiyorsiz zavq, tezlik (u tuflisini yechib qo'ygani uchun mashinani sekinlatmay Gamburg ko'chalaridan uchirib haydagandi) yanglig' ko'rinar, hozir abadiy yo'qolgan, voqealari esa ko'ngil to'ridan mustahkam joy olgan o'tmishdagi o'sha osoyishta kunlari bamisoli ertaklardagiday qaytib kelishini kutayotganga o'xshardi. «Men uning hayotini o'zimcha bichib-to'qiyapman, – dedi Nikitin xayoliga kelib qolgan jumboqni o'zicha yechib, Gerbert xonim hayotiga qiziqsinish unga tinchlik bermayotgandi. – Hozirda Gerbert xonimga aylangan Emmaning hayoti... yo'q, uni bilmasdan turib tasavvur etib bo'lmaydi, aks holda bu borada adashishim, mutlaqo noto'g'ri fikrlarga, xulosalarga borishim mumkin».

– Men sizga... – Nikitin og'iz juftladi-yu, biroq konyakli qadah-larni stolga qo'yayotgan ofitsiant qiz nariroq ketishini kutib turdi, – men sizga bir necha savol berishimga ijozat qilishingizni istardim... buning evaziga mendan istagan narsangizni so'rashingiz mumkin.

– Men savol ayirboshlashga roziman, faqat cplayolsam bo'lgani...

Nikitin so'radi:

– Urushdan keyin qanday yashadingiz? Ukangiz bilan Gamburgdan ketmoqchi bo'lganingiz esimda turibdi. Ukangiz o'zi ketib, siz qolgandingiz... Keyin nima bo'ldi? Ukangizni topdingizmi?

Gerbert xonim Nikitinga diqqat bilan uzoq tikildi-da, keyin ko'zlarini chetga burdi. U yana qaraganida nigohida sarosima sezilardi.

– Ha, men o'shanda amerikaliklar allaqachon egallab olgan Gamburgga yetib oldim. Ukamni ham topdim, u tog'amning uyida ekan. Kurt qattiq qo'rqib, o'takasi yorilgani uchun divanda qimir-lamay yotar, xuddi bemorday shiftdan ko'zini uzmas, uydan tashqari-ga chiqmasdi. Bir kuni shkafdan tog'amning harbiy mundirini olib, kaminga tashladi, keyin yig'ladi, eshikni ichidan qulflab, ruslar ke-lib, meni otib tashlashadi, deb dod soldi. Bu dahshatli jazava edi. Bir oydan keyin sog'aya boshladi.

– Ukangiz ko'zimga kasalmand va asabiy ko'ringandi, – dedi Nikitin. U Kurtning qiyofasi, bukchayganroq gavdasini, ustida-gi uzun, bo'zrang, kattaligidan qoqsuyak yelkasida halpirab turgan

mundirini g'ira-shira eslardi. – Ukangiz omon bo'lsin ishqilib, uni yaxshi eslolmayman. Xo'sh, o'zingizdan gapiring, keyin nima qildingiz? Universitetda o'qidingizmi?

– Kurt mendan ikki yosh kichik, – dedi Gerbert xonim ukasining bolaligicha Nikitinning esida qolganidan negadir o'ng'aysiz ahvolda tushib, shosha-pisha uning yonini olarkan. – Yo'q, men universitetni tugatmadim, ishlab pul topishim kerak edi. Kichikroq bir firmada kotibalik qildim, keyin kutubxona, so'ngra kitob do'konida ishladim. O'sha kezlarda turmushga chiqdim. Faqat... – u ayanchli jilmaydi. – O'sha yillar umrimning eng yaxshi davrlari bo'lmadi. Erim mendan o'n yosh katta, aqlli, yaxshi odam edi. So'qqabosh o'tishim mumkin emasligini tushunardim... turmush qurishim zarur edi. Uchta yirik kitob do'koni, katta kvartira, ikkita mashinali bo'ldim, badavlat ayolga aylandim. Qizimning tug'ilishi hammasidan ham yaxshi bo'ldi. Urushdan keyin hayotimdagi eng yaxshi narsa shu edi. Eng yaxshisi... So'ngra erim bilan birgalikda pul topa boshladik, chet ellarga ham tez-tez borib turardik. Biroq bu ko'pga bormadi. Erim vafot etdi, qizim bir fransuzga turmushga chiqib, Kanadaga jo'nab ketdi. O'zim pullarim, do'kon va mashinalarim bilan yana so'ppayganча yolg'iz qolaverdim. Umrim ana shunday, sezilarsiz darajada kechdi... Hozir esimga tushdi... Sizning oxirgi romaningizda qahramon yoshi bir joyga borganda baxtli yashagani yo yashamagani haqida xayolga botadi. Bunga javob izlab topolmaydi. Shundaymidi?

Gerbert xonim Nikitinga stol chirog'i osha savolchan qaradi. Nikitin esa Gerbert xonimning zo'rma-zo'raki osoyishta chiqqan ovo-zidan qanoat hosil qilmadi. U negadir bir vaqtlari o'ziga yaqinlashib, yuragini o'rtaqan Gerbert xonimning pinhon, olisda kechgan hayotidagi asosiy narsani bilib olishni istardi. Shu vajdan chegaradan chiqibroq bo'lsa ham so'radi:

– Shunga qaramay siz hayotingizning qaysidir pallasida baxtli bo'lganmidingiz? Odam o'zining baxtli bo'lgan-bo'lmaganini o'ylaganida darhol baxtsizligini sezadi. Buni tushunaman albatta... – Nikitin bemavrid sinchkovligidan ranjib qo'shimcha qildi. – Kechirasiz, men bu noo'rin va og'ir savolni bermoqchi emasdim! Bu, kechirasiz, g'irt bema'nilik bo'ldi! – Nikitin shundan keyin barmog'i

bilan havoga chiziq tortdi. – Mening savolimni qizil qalam bilan o'chirib tashlaysiz. Iltimos.

– Nima uchun? Savolingiz oddiy. Faqat javobi og'ir. Siz mendan oshkora bo'lishni iltimos qilganingiz yodimda. Shuning uchun biz ochiq-oydin gaplashishimiz kerak. Negaki, biz siyosatdan gaplashayotganimiz yo'q. O, ming yillardan beri odamlarning joniga tegib, ularning yashashlariga xalal berib kelayotgan siyosatni ko'rgani ko'zim yo'q! – Gerbert xonim konyakli qadahga qo'l cho'zib, uni stoldan uzmay ohista dasturxon uzra surarkan, birdan dadil tortib, zo'rma-zo'raki xushchaqchaqlik bilan davom etdi: – Bularning bari bir zamonlarda bo'lgandi. Berlin yaqinidagi kurort shaharchada Emma degan qizcha, nemislarning soddadil Zolushkasi yashardi. Yuzlarida sepkili bor ko'rimsizgina qizcha. O'sha shaharchada urush juda tez, bir necha kun ichida o'tdi-ketdi. Bu yog'i xatarli va dahshatli edi, nega deganda, qizcha endi vahshiylar bostirib kelishini kutardi. Chindan ham avvaliga qizcha u yerda... boloxonada qo'rquv va vahimada yashadi. Keyin esa xonasiga rus leytenanti, ritsar bola nemislarning ezgulik haqidagi ertagidagi kapalak timsolida uchib kirdi. Emma bu ertakni bolaligida o'qigandi. Qizcha ana shu qisqa va ajoyib ertakni umr bo'yi unutmadi. U turmushga chiqqanida, qizi tug'ilganida va hatto eri bilan o'zi sevgan Rimga borganida ham bu unga bamisoli bir tushday kechdi. O'sha yerda ham bolaligidagi kapalak yanglig' uchib keladigan ritsari nogahon paydo bo'lishini kutardi. Lekin... keling biz hozir o'zimizni Rimda deb tasavvur qilamiz! Xo'sh, sizda boshqa savollar qolmadimi?

Gerbert xonim qo'lidagi qadahi uzra Nikitinning sodda va beparvo ko'zlariga qarab kulib yubordi. Shunda Nikitin ichki qaltiroqqa o'xshagan bir nima Gerbert xonimning tomog'idan sirg'alib o'tganini, go'yo janob Aleksning restoranida raqs tushgan paytidagiday yoqimli xotiralalar vujudini zirqiratganini sezdi. O'tmishdagi shirin xotiralarni Emma unutmay kelayotganidan Nikitin xursand edi. Shunga qaramay Nikitin Emma hayoti haqida bunchalar oshkora gapirar, deb o'ylamagandi. Ayol o'zini samimiy tutishi, ehtiyotkor kulgisi va tomog'iga kelgan yig'isini bo'g'gani Nikitinga qattiq ta'sir qildi.

Nahotki o'sha takrorlanmas, uzoq yillar muqaddam ro'y bergan, dahshatli va anglashilmovchilikday tuyulgan voqea, uzluksiz

xavotirda kechgan o'sha bir necha kun Emmaga hanuzgacha quvonch shabadasi yanglig' huzur bag'ishlasa va keyinchalik boshidan o'tgan narsalardan zo'rroq, ajoyibroq va nash'aliroq bo'lsa? Nikitin shuning uchun ham, nahotki bu qirq to'rtga kirgan, uyli-joyli, qizi bor Gerbert xonim o'n sakkizdagi Emmaning tuyg'ularini hamon unutmagan, degan fikrga ishonolmasdi. O'sha rus leytenanti, «ritsar bola» «rossiyalik kapalak», ya'ni o'zi hozir qirq yettini urib qo'ygan, boshidan ko'p narsalarni o'tkazgandi. U xotinini sevar, urush oxirlab qolganda es-hushini o'g'irlagan Emma bilan munosabatlari bir necha kungina davom etgan «frontcha» sevgi bo'lgani bois ko'p ham esiga tushavermasdi.

– Gerbert xonim! – dedi u. – Gerbert xonim...

Shundan keyin jim qoldi.

Nikitin mana shu soniyada o'zini tobora aybdor sanab, achchiq iztirobda buning sabablarini izlar va Gerbert xonimga achinardi. Gerbert xonim esa konyakli qadahini o'ynab, Nikitindan ko'zlarini uzmay o'tirar, yoshlik shunchaki o'tib ketgan, o'zini ham, Nikitinni ham qiynab qo'ymaydigan narsani aytmoqchiday nimanidir poylardi. Gerbert xonim nigohlar to'nashuviga dosh berolmay ko'zlarini olib qochdi. So'ng o'zini ham, Nikitinni ham chalg'itib tinchlantirish uchun shosha-pisha gap boshladi:

– Janob Nikitin, yoshligimizni eslasak, ko'p narsalar mana shunday... sal romantikroq, kulgiliroq bo'lgan ekan, nima dedingiz?

– Kulgili deysizmi, yo'q!.. Kulgili narsa kam edi. Aksincha.

Gerbert xonim o'zini o'nqlab olib, gap boshladi:

– Hozir kulgili tuyuladi. Biz birov to'sqinlik qilolmaydi, tez orada uchrasharmiz, deb o'ylovdik. Biz urush ketayotgani haqida, umuman, u haqda mutlaqo o'ylamasdik. Men kun kelib yana uchra-shishimizga ishonardim... Odam faqat yoshlikdagina mana shunday ishonuvchan bo'ladi.

– Siz haqsiz. Faqat yoshlikdagina, – dedi Nikitin. – Siz haqsiz.

Gerbert xonim sarosimalanib kafti bilan chakkasini siladi.

– Kechirasiz-u, mabodo o'shanda buning iloji bo'lganida, o'zingiz... o'zingiz ham Kyonigsdorfga kelgan bo'larmidingiz, janob Nikitin?

Nikitin o'tmishdagi Emma va o'zining leytenantlik davrlarini xayolidan o'tkazar ekan, u kunlar hayotining bir qismi bo'lganini,



lekin endi o'tmishda qolganini, jo'shqin, navqiron va hech nimadan tap tortmas yoshligi boshqa hech qachon qaytib kelmasligidan o'kinardi. Biroq uning ana shu hech nimadan tap tortmaslik fe'li goho o'zini jilovlab olishga xalal berardi. U leytenantlik davrida urushga oid har qanday ishlarni o'rniga qo'yardi. Oradan ancha vaqt o'tdi. Fe'l-atvori o'zgardi. Axir, ko'p narsalar yo'qotdi, ko'p narsalar topdi. Va leytenant Nikitin ham uzoq o'tmishda qolib ketdi.

– Ha, kelgan bo'lardim, – Nikitin nihoyat bamaylixtir javob qildi. – Urush o'zining g'alati yo'llari bilan meni Kyonigsdorfga qaytarishiga ham ishonar, ham ishonmasdim. Keyin esa Chexoslovakiyaga jo'nadik, urush oxirladi, demobilizatsiya bo'ldik. Xullas, «keyin»lar ko'paydi.

– Meni eslarmidingiz?

– Ha. Garchi hayotim butunlay boshqacha kechgan bo'lsa-da, es-lardim.

– Yo xudoyim! – deb yubordi Gerbert xonim. Shunda uning chehrasi so'nib, bo'zarinqirab, so'lg'in tortdi. Xuddi janob Aleks restoranida bo'lganiday yelkalari junjikdi, gavdasi ham ayanchli egildi. U endi pastga qaragancha lablarini tishlab o'tirardi. – Yo xudoyim!.. – U barmoqlari bilan tizzasini mahkam qisib olgandi. – Men kutgandim... Sizni kelasiz, deb o'ylagandim. O'shanda nimalarni iltijo qilganimni bilasizmi? Urushdan keyin o'ylagan narsalarimni eslasam dahshatga tushaman. Yo xudoyim, deb iltijo qilardim, mayli, yana urush bo'lsin, yana o'qlar otilsin, mayli meni zo'rlashsin, faqat rus leytenanti qaytib kelsa bas... yana Kyonigsdorfga, Gamburgga zambaraklari bilan kelib: «Emma, seni sevaman», desa, men unga: «Sensiz o'lib qolaman...» desam bo'lgani derdim... Va buni o'zimcha tasavvur ham qilardim. Men bir nodon, yig'loqi qizcha edim-da, to'g'rimi? Hozir buni gapirish kulgili. Biz hozir konyak ichib, yoqimli xotiralarni esga olishimiz kerak. Kayfiyatimiz yaxshi bo'lishi lozim. To'g'rimi, janob Nikitin?

Gerbert xonim o'zini atayin xushchaqchaq ko'rsatishga urinar, biroq buni uddalay olmasdi. U qo'lidagi qadahni tabassum qalqqan lablariga amal-taqal yaqinlashtirarkan, gapini ohista tugatdi:

– Siz sira ham ichmayapsiz, janob Nikitin. Kechirasiz, men sal kayfim oshib, ko'p gapirib yubordim. Berilib ketibman, kechirasiz...

Nikitinning ko'ksini tikonli po'lat prujinaga o'xshash nimadir ichdan siqib kelib, xonimga javob qaytarishiga yo'l qo'ymadi. Gerbert xonimning ahvolini ko'rib vujudi zirqirab ketdi. Nikitin shundan keyin xonimga urushdan keyingi umrim qanday o'tganini tushuntirib berolmayman, degan xayolga bordi. Ikkovimiz ham go'yo turlicha sayyoralarda yashardik, mana shu sayyoralar g'animlarday to'qnashayotgan paytda, lahzaning mingdan bir ulushini tashkil qiladigan onda uchrashib qoldik, chamasi, yoshlikda bir-biringni yaqindan ko'rishning o'zi baxtli damlar ekan, mana endi sayyoralarimiz vayron bo'lib, bir-birimizdan yanada yiroqlab ketdik, barqaror dunyoning turli nuqtalarida qo'nim topdik, degan fikr lip etib o'tdi. Har bir sayyorada shundan keyin o'zimizdagiga sira to'g'ri kelmaydigan vaqt, beo'xshov yil hisobi, bir-biriga ulanmaydigan yorug' kunlar va zim-ziyo tunlar, boshqacha azoblar, kulfatlar, muhabbat va odamlarni shaxsan bo'ysundiruvchi qonuniyatlar qaror topdi. Nikitin ham o'z sayyorasi baxsh etgan qonuniyatlar asosida yashagan, yangi voqealar, boshqacha tuyg'ular oqimiga ham tushgan, bunda o'zini Emma bilan qovushtirajak tug'yonli voqeani unuta borgandi. «O'shanda xuddi go'daklarday ko'zimga hech nima ko'rinmay qolganida mening aybim bormidi? Ha, men ham, Emma ham bir-birimizga ilk bor mehr qo'yganimizda ko'zlarimizga hech nima ko'rinmagandi. Nahotki Emma, uzoq vaqtgacha uchrashib qolarmiz, deb umidini uzmay, taqdiri kuchiga ishongan bo'lsa? Men qirq beshinchi yili uni ko'p eslardim, qirq oltinchi yilda ham boshqa yuzlarcha leytenantlarday boshlangan tinch kunlar oqimida edim. O, butun ixtiyorim o'sha kunlarga berib qo'yilgandi! Men butunlay boshqacha taxlitda, bo'lakcha tarzda yashardim. Armiyadan bo'shab Moskvaga qaytishim, hayotdan xursandligim va unga to'yasligim, shinelli yigitlar bilan o'tirishlar, yangi do'stlar, universitet, kitoblarga tashnaligim, talabalar yotoqxonasi... Gerbert xonimning hayoti boshqacha kechganmidi? Nima, uning uchun vaqt bir joyda to'xtab qolganmidi?»

– Gerbert xonim, – dedi Nikitin ko'ksidagi ichdan siqib kelayotgan tug'yonni nafasi bilan arang bosib. – Qirq beshinchi yilda men urushdan keyin hamma narsa o'zgarishiga, butun olam va bor hayot faqat bayramlardan iborat bo'lishiga ishonardim. Qirq oltinchi va qirq to'qqizinchi yillarda esa bularni endi o'ylamay qo'ygandim.

Keyin «sovuq urush» boshlanib, hammayoq batamom ostin-ustun boʻlib ketdi.

«Men butunlay boshqa narsani, boʻlak gaplarni aytyapman, axir uni aldashga haqim yoʻq, – dedi Nikitin ichida. – Buni oʻzi ham sezib turibdi, mendan boshqa gaplarni kutyapti. Unga nimalarni aytay, nima dey? Oʻsha yigirma olti yil yoshligimizning bir necha kuni ni yoʻqotib, yutib yuborganinimi? Yoʻq narsani bor qilish mumkin emasliginimi?»

Nikitin sokin ovozda gapirdi:

– Leytenant Nikitinga oʻshanda hammasi ochiq-oshkora edi. Eslashimcha, u deyarli yolgʻon gapirolmas va hamma narsa oʻzining dadilligi va halolligiga bogʻliqday koʻrinardi. Shunga qaramay, hali u goʻdak boʻlib, hayot nimaligini bilmasdi. Hayot esa undan naqadar kuchli edi.

Gerbert xonim xuddi sovuq shamolda qolganday junjikib, kiftlarini qunishtirdi, soʻngra boshini orqaga tashlab, nim tabassum qilgandi, oppoq tishlari yaraqlab ketdi.

– Men mast boʻlib qoldim, janob Nikitin, boshim aylanib ket-yapti. Shuning uchun ham sizga koʻp ezmalik qildim. Biz Rimda boʻlolmadik, sizni zeriktirib qoʻydim xolos, buning uchun afv etasiz! Rimdan biz hozir yana Gamburgga joʻnaymiz, u yerda boadab nemislar par koʻrpalarga burkanib, allaqachonlar uyquni urishyapti. Ular, sizga aytsam, boshlarini par yostiqlarga qoʻygancha shunchalar miriqib uxlashyaptiki, goʻyo jannat yerga koʻchib tushganday: xur-xur!.. Naq bir million nafar nemis xurrak otyapti! Kulgili-a, toʻgʻrimi?

Gerbert xonim avvalgiday yasama zavq bilan yuzini qoʻliga qoʻyib, boadab nemislar shirin uyqusini koʻrsatishga urinarkan, Nikitin uning zoʻr berib samimiyatni saqlashga, malol kelayotgan suhbatga chek qoʻyishga urinayotganini fahmladi. Shundan keyin picha yengil tortdi, avzoyi oʻzgarmay Gerbert xonim taklifini qabul qildi-da, hazil tariqasida soʻradi:

– Rimdan Gamburggacha mashina haydab borishga qiynalmay-sizmi? Tekshiruvchilaringiz qattiqqoʻl emasmi?

– O, yoʻq! – dedi Gerbert xonim. – Rulga oʻtirib, tuflimni yechsam bas... politsiyachilarning yonidan ularni dahshatga solib oʻtib ketamiz! Men hech narsadan qoʻrqmayman.

– Siz dovyurak ayolsiz...

Gerbert xonimning qoshlari taajjubli chimirildi.

– Menmi? Dovyurakmanmi? Adashasiz!.. Men yolg'izman, janob Nikitin. Kvantiram, «mersedes»im va uchta kitob do'konimdan bo'lak yo'qotadigan narsam yo'q. Biroq... – Gerbert xonim o'zini qo'rqqanday ko'rsatdi. – Biroq men hech qanday inqilobni ham, do'konlarim-u «mersedes»imdan ayrilishni ham istamayman. Bu esa dovyuraklik emas, qo'rqqoqlik, shunday emasmi?

– Ehtimol, – deb qo'ydi Nikitin.

– So'nggi qadah, janob Nikitin. Men siz va xotiningiz uchun ichmoqchiman. Bilaman, siz uni sevasiz. U haqda sira ham gapirmadingiz, demak, sevar ekansiz.

– Sizni... Gerbert xonim, – Nikitin shunday dedi-yu, biroq g'ayriixtiyoriy chiqqan bu mavhum gapdan o'ng'aysiz ahvolda qolib, gapini darhol to'g'riladi: – Siz uchun ichaman, Gerbert xonim.

Gerbert xonim esa uning ustalik qilganini fahmlab, nazokat bilan jilmaydi:

– O, afsuski, men sizning xotiningiz emasman. Sizning chinakam sevimli rafiqangiz uchun ichamiz. Sizni sevadigan odam uchun ham. Qadahlarimizni sizning Rossiyangizdagidek urishtiramiz. Men qaysi bir kitobda o'qigandim, janob Nikitin: qadimgi davlarda odamlar qadahlaridagi vino chayqalib, bir-biriga to'kilsin uchun urishtirisharkan. Nima uchun? Qadahda zahar yo'qligini isbotlash uchun-da. Mening qadahimda zahar yo'q, janob Nikitin. Uning keragi ham yo'q. G'am-g'ussaga ne hojat, shunday emasmi?

– Sizning sog'lig'ingiz uchun, Gerbert xonim.

– Tashakkur. Men juda ko'p umr ko'rishga, Rimga qatnab, konyak ichish, yaxshi kitoblar o'qish va ko'zgdagi ajinlarimga xushchaqchaq boqishga harakat qilaman.

Gerbert xonim rulga o'tirishi bilan motorni yurgizib, tuflilarini yechdi, qo'lqoplarini kiydi-yu, so'ng birdan uloqtirdi, go'yo qo'lini isitmoqchi bo'layotganday tizzalariga bosdi. U egilganча kuzakning shamoli chappar urayotgan qorong'i ko'chaga tikilib qoldi. Ko'chada bironta ham o'tkinchi ko'rinmas, ko'kimtir chiroqlar shu'lası bo'm-bo'sh asfaltni xiragina yoritardi. Gerbert xonim shivirlab dedi:

– Yo xudoyim, juda sovug‘-a...

– Tuflicingizni nimaga yechdingiz? – dedi Nikitin o‘pkalanib. – Kiyib oling. Sal sekinroq yursak ham bo‘ladi-ku.

– Men negadir tez-tez sovqotaman, janob Nikitin, – Gerbert xonim qaltirab javob qildi. Uning ko‘zlari iltijoli va qo‘rquv bilan boqar, negadir boshqacharoq yiltirardi. – Meni hatto konyak ham qizdirolmaydi. – Bir oz jim qolganidan keyin go‘yo o‘ziga-o‘zi gapirayotganday ovozini balandlatib dedi: – Yo xudo, juda sovqotib ketyapman!..

– Gerbert xonim... Emma, – Nikitin azbaroyi shoshib qolgani-dan nima deyishini bilmasdi. Nafasi siqib kelayotganday bo‘ldi-da, ikkala qo‘li bilan Emmaning muzday va latif qo‘llariga yopishib, «kuh-kuh»lab isita boshladi, so‘ng yupatmoqchi bo‘lib shosha-pisha gap boshladi: – Hozir hammasi joyida bo‘ladi. Keyin rulni bemalol boshqarib ketaverasiz. Naq vesterndagi qahramonday. Hozir hammasi yaxshi bo‘ladi. Ikkimiz Rimdan qaytib ketyapmiz. Siz esa Rimga hali yana borasiz.

Nikitin Gerbert xonimni yupatishga urinar, bundan boshqa narsa qo‘lidan kelmasligini ham bilib turardi. Gerbert xonim esa boshini Nikitin tomonga qaratib, lablarini qimtib, ko‘cha chiroqlariga tiki-larkan, yonog‘idan chiroqlar shu‘lasiga o‘xshash nimadir sizib tu-shardi.

– Meni kechiring...

Gerbert xonim piq-piq qildi. Nikitin shunda uning o‘sha yulduz-li may kechasida Granaturov boloxonaga qamab qo‘yganida oldiga kelgandagiday zo‘rg‘a shivirlaganini eshitdi.

– Vadi-im... – Gerbert xonim shundan keyin titrayotgan yen-gil barmoqlarini tortib olib, shosha-pisha qo‘lqopini kiya boshladi, so‘ngra yuzini artdi. – Men yig‘layotganim yo‘q, yig‘lamayapman. Yoshi o‘tgan ayol yig‘lasa g‘alati bo‘larkan. Biz hozir jo‘naymiz. Mashinani xuddi vestern qahramoniday haydayman. Men dovyurak ayolman-ku, to‘g‘rimi? Nemis ayoliman, vikinglar avlodiman axir! Yo xudoyim...

Gerbert xonim jiqqa yosh ko‘zlari bilan Nikitinga dadil qaradi.

– Yo xudoyim, madorim qolmadi, – shivirladi Gerbert xo-nim yana bo‘shashib, – mayli baxtsizlik bo‘lsayam, mayli falokat bo‘lsayam, nimaiki bo‘lsa bo‘lsin, lekin yana o‘sha kunlar qaytib



kelsa, takrorlansa bas... Bilaman bu telbalik, telbalikning o'zginasi, lekin qo'limdan hech narsa kelmasa, o'sha kunlarni unutilmasam nima qilay, meni kechiring!..

Uning gaplaridan qotib qolgan Nikitin nima deyishni bilmas, Gerbert xonim ham ko'zlarini yumgancha mashina o'rindig'iga suyanib o'tirarkan, unsiz yig'lardi.

## OLTINCHI BOB

Reaktiv motorlari vazmin va bir xilda guvullayotgan samolyot bir soatlardan beri to'qqiz ming metr balandlikdagi samoviy ayozda uchib borar, Gamburgning chiroqlari charaqlab turgan burchakli aeroporti ortda qolib ketgandi. Xushmuomala stuardessalar patnislarda tortgan kechki ovqatdan keyin yo'lovchilarga yoping'ichlar ulashildi. Yo'lovchilar gazeta va jurnallarni shitirlatib ko'zdan kechirganlaridan keyin, tepadagi oq plafonli chiroqlar o'chirildi, kreslolarning suyanchiqlari orqaroqqa yotqizildi, illuminatorlarning qat-qat pardalari tortildi. Yo'lovchilari mudray boshlagan issiqqina salon jimib qoldi. Qizil vino va mineral suv ichib, to'qima jun yoping'ichlarga o'ralgan yo'lovchilar churq etishmasdi. Samolyotning zamonaviy qudratli dvigatellari salonni zirillatar, bir maromda guvullab, parvoz yaxshi o'tib, samolyot yerga bexatar qo'najagini va'da qilardi.

Nikitinning yuragi atrofi achishib zirqirayotgani uchun bezovtalanar, uxlolmasdi. Validol tabletkasi ham og'riqni bosolmadi. Nikitin bunga keyingi to'rt kunlik zo'riqishlar, me'yoridan ortiq ichilgan konyak, kuchli qahva, to'yib uxlamaslik, toliqish, Samsonov bilan kecha kechasi bo'lgan yoqimsiz, keskin, oralariga sovuqchilik tushirayozgan suhbat sabab ekanligini bilib turardi. Bu suhbatning Nikitinga og'ir botgan tomoni shunda ediki, Samsonov jazavasi tutganday baqirib-chaqirib, haqoratomuz zaharxanda qilib, uni kamситmoqchi bo'ldi. Uning tutoqib keskin ovozd: «Xo'sh, janob Ditsman bilan qanday yaqinliging bor, javob ber!» degani hamon ko'z o'ngidan ketmasdi.

Aeroportda ular bir birlariga bir-ikki og'iz gap qotishgan bo'ldiyu, lekin ilgarigiday bo'lib ketisholmadi. Samolyotda yana o'sha noxush gap qo'zg'aldi, tamaddi qilishayotganda esa miq etishmadi. Samsonov tamaddidan so'ng chalg'ish uchun rasmi jurnal to-

mosha qildi, yaltiroq sahifalarni shitirlatib varaqladi. Keyin jurnalni o'rindiq cho'ntagiga tiqib, qo'llarini ko'ksiga chalishtirganча boshini orqaga tashlab, burnini asabiylashib torta-torta pinakka ketdi.

Sathidagi yorug' va qorong'i tomonlar yaqqol ko'rinayotgan bahaybat, qizg'ish gardish yanglig' oy illuminatorlardan naridagi sovuq zimistonlikda muallaq qotgandi. Nikitin undan ko'zini uzolmasdi. Oy bag'oyat yarqirab, Nikitinni sehrlab qo'ygandi. Oyning yaltirashi, ulug'vorligi va olisligi Nikitinga nimasi bilandir dalda berar, shu vajdan qimir etmay o'tirardi.

Bahaybat samolyot metall qanotlarini keng yoyganча balandda uchib borar ekan, pastda kumushsimon bulutlar uyumi tun og'ushidagi zaminni ko'zdan yashirgan, oyning mayin yog'dusi yerga yorib o'tolmagani uchun samolyot qanotlarida, silliq tanasida jimirlar, illuminatorlarga tushardi. Goho oy shu'lası Nikitinga siyohrangdagi suv osha tushayotganday bo'lar, hozir to'qqiz ming metr balandlikda emas, balki okeandagi suv osti kemasida ketayotganday tuyulardi. Uning nafasi siqa boshladi.

Nikitin boshi tepasidagi ventilatorni yoqqandi, yuziga havo oqimi urildi.

Endi hamma narsa ortda, noyabrning qizg'ish oyi yoritgan bulutlar pana qilib turgan pastda qolib ketgandi. Olisdagi zaminda boyagina hamma bilan xayrlashgan, aeroportga jo'nashlaridan bir yarim soat burun yetib kelgan janob Veber va janob Ditsman bilan qadah urishtirgan, bir-biriga tashakkurlar bildirishgandi, chamadonlari ortilgan mashinalar oldida boshlaridan shlapalarini olib, jilmaygan ko'yi qo'l siqishib xayrlashishgan, keyin esa aeroportning katta, sershovqin, sintetika va atir hidi to'la restoranida samolyot uchishini kutib o'tirishgan. Lota Tittel buyurgan qahva, konyakdan yana ichishgandi. Toliqqanidan ko'zlarining osti ko'karib ketgan Gerbert xonim uzluksiz sigareta chekar, ob-havo noqulayligi sababli samolyot yana o'n besh daqiqa ushlanib qolishi qo'qqisdan xabar qilinganida Gerbert xonimning rangpar yuziga sarosimali quvonch ifodasi qalqqandi. Nikitin o'shanda hazillashib aeroportning bu shinamgina restoranida chamadonlarda uxlansa zo'r bo'lardi-da, degani, shundan keyin samolyotlari uchishi e'lon qilingani, stolchalar atrofida, kreslolarda, divanlarda o'tirgan yo'lovchilarning g'imirlab qolishgani, bu tashvish ham va nihoyat tugaganidan yengil tortishgani, sa-

molyotga yo'lovchilar chiqarilayotgani e'lon qilingani, oxirgi soniyalar... Nikitin hozir shularni eslab ezilardi. Qahvani ichib bo'lgach, o'zlarini bosib eshik tomon yurishdi. Oynaband eshik ortida chiptalarini qo'llarida ushlab olgan portfelli basavlat va ishbilarmon odamlar tizilishib turishardi. Ular shu yerda xayr-ma'zur qilishdi. Nikitin Lota Tittelga ilgarigiday hazil-huzil gaplar aytib, qo'l uzatgandi, u kulganicha bunga ko'nmedi: «Yo'q, yo'q, bunaqasi ketmaydi! Mengarchi san'atkor bo'lsam ham ayolman! Hali Moskvaga borsam, u yerda dovrug'imni eshitib, xabar topasiz». U shunday deya Nikitinni quchoqlab, lablaridan qattiq o'pdi. Keyin Samsonov bilan ham shunday xayrlashdi. Nikitin xijolatdan arang o'zini o'nglab, Gerbert xonimga o'girilgandi, ko'm-ko'k ko'zlari katta-katta ochilgan Gerbert xonim ho'nragancha o'zini Nikitinga otib, boshini ko'ksiga bosdi. Nikitinning yuragi ezilib, nafasi chiqmay qoldi.

– Vadi-im! Vadi-im! – dedi Gerbert xonim o'rtanib.

Nikitin buni kutmagani uchun gangib qolib, Gerbert xonimning chamasi chakkasidan o'pdi. Uyalganidan o'zini eplayolmay, nazorat qilayotganlar yonidan o'tayotganida u yoq-bu yog'iga qaradi. Ozg'ingina Gerbert xonim esa kalta plashida bo'ynini cho'zibroq turardi. Plashining kapushoni orqaroq surilganidan u yoshi o'tganligiga qaramay, chorak asr avvalgi Emmani eslatib yubordi. Oynaband eshik ortidan Lota Tittel ham ko'rinar, u qo'lqopini tinimsiz silkitardi. Gerbert xonimning neon chiroqlar tekis yoritib turgan yuzi ayanchli, ojiz va alamli ko'rinar, hozirgi ahvoli bundan ko'p yillar muqaddam tunda xayrlashganlaridagi holatining xuddi o'zginasi edi.

Nikitin ikkoviga ham olisdan so'nggi marta qo'l silkidi-da, xursand jilmayarkan. Gerbert xonimning vujudni o'rtovchi: «Vadim! Vadim!» deya shivirlashlarini hamon eshitib turganday bo'lardi. U odamlarning zich oqimida sershamol aerodromning beton yo'lidan samolyotga qarab yurdi. Shamol qo'lidagi portfelini tortqilar, shlapasining ayvonini bukib yuborardi.

Samolyotga chiqqanlaridan keyin Samsonov kresloda pishillagancha o'mashib olishga urinib, mahkamlovchi tasmani tizzasiga oldi-da, Nikitinga shubhali boqib taajjubda pixilladi:

– Xayrlashuv zo'r bo'ldi, qoyil! Gerbert xonim bilan naq xotining yoki o'ynashingday xayrlashding-a! Unga nima bo'lgan?

Senga-chi? Odamlar oldida quchoqlashib, o'pishib, dod soldinglar-a! Bundan chiqdi, kecha uyida yotib qolgan ekansan-da?

– Bema'ni savollardan bo'shamayapsan-da, jin urgur! – Nikitin illuminatorga qarab oldi. – Germaniyada esankirab, aqldan ozding, qadri Platosh, buni senga ochiq aytishim kerak.

– Kim esankirab, kim aqldan ozganini ko'ramiz hali! – dedi Samsonov sapchib. – Balki buning tamomila aksidir? Bu-utunlay! Chamasi men emas, mening bitta tanishim nemislarga afsonaviy bema'niliklarni rosa ko'pirtirib, ularni juda qoyil qoldirib, safsatalariga ishontirgan bo'lsa-chi! Mening taniqli bir hamkasbim pirovardida Gerbert xonim degan bevaga aylanishib, jinni bo'layozdi shekilli?

– Darvoqe, – dedi Nikitin kulimsirab, – bir-birimizni yaxshiroq bilib olish uchun Germaniyaga birga kelganimiz yaxshi bo'ldi. Ha, munosabatlarimiz va qarashlarimiz aslida biz o'ylagandan boshqacharoq ekan. Men afsus qilmayman. Qaytanga yaxshi bo'ldi.

– Umuman aytganda, ha! – Samsonov samolyot saloniga ko'z yugurtirdi-da, qo'lini qornida chalishtirib, nasihatomuz dedi: – Kunlar o'tadi, vaqti kelib hammasini bir-bir eslaysan-da, seni ana shu xatardan sudrab chiqqanim uchun mendan minnatdor bo'lib yurasan. Azizim, seni qalam haqi deya pullarga ko'mib tashlashdi, atrofingda parvona bo'lishdi, qayoqdagi janob ditsmanlar sira nari ketishmadi, qandaydir g'alati, yumshoqroq qilib aytganda, «mersedes»li xonim seni tungi kabarelarga sudrab yurdi. Xo'sh, bularning tagida nima yotganini fahmlamayapsanmi?

– Men avval ham G'arb dunyosida bo'lganman, undan oz-moz xabardorman, azizim, – dedi Nikitin «azizim» degan so'zga alohida urg'u berib, – xilma-xil vaziyatga ham tushganman, Platosh. Biroq o'zingni odamlar va dunyo haqidagi hamma haqiqatlarni biladigan hurpayma kurkaday tutishing kulgili va tentaklik, naq choygga qalampir tashlaganday gap! Go'yo tevaragingdagilarni befahm hisoblab, tikka olishaverding!

– Men o'z pozitsiyamda turdim, azizim! Vijdonim ham pok, bilib qo'y! Top-toza!

– Bo'lmasa, iltimos, menga nisbatan ham shu pozitsiyangda mahkam turaver: Moskvagacha miq etma. Bir-birimizni baribir tushunolmasak kerak.

Samsonov qornida chalishgan barmoqlarini siqdi, keyin katta barmog'ini aylantirarkan, azbaroyi tutoqib gap boshladi:

– Sen meni tentak deb o'ylayotgan ekansan-da! Tashakkur! Bilib qo'y, seni o'sha bemazagarchiliklardan, o'ziga tortayotgan botqoqdan vaqtida qutqarmaganimda hozir oyog'ing ostidagi yerni ko'rmayotgan bo'larding!..

– Qutqardim, deysanmi? Kimdan?

– Ditsmanlardan! O'sha nemis ayoldan! Nahotki u seni faqat sevgisi-yu, oh tortib, jamolingga boqish uchun munozaraga taklif qilgan, deb o'ylasang? Senga tishining oqini ko'rsatgisi kelibdimi? Konyak ichganimi? Bu yerda boshqa bir narsa yo'qmikin, meni kechirgin-u, o'sha go'zal Gerbert xonimingga anavi Ditsman degani bir maqsadni ko'zlab tazyiq o'tkazmaganmikin? Sen uning kimligini yaxshi bilasanmi?

– Iltimos, o'sha taklifimni qabul qilsang, – Nikitin Samsonovning gapini oxirigacha eshitmay, shartta bo'ldi. – Moskvaga-chi jim ketaylik. Juda charchadim, toliqidim. Mabodo sen Sherlok Xolms, Megre va mayor Pronin yoki ularning barining jamuljami bo'lganingda ham uydirmalaringga quloq solishga toqatim yo'q.

– Juda soz, jim ketamiz. Samimiy munosabatlarimizdan aniqlangan haqiqat uchun senga yana bir bor tashakkur. Menga bo'lgan samimiyatingni ko'rib ko'zlarimga yosh keldi.

– Mug'ambirlik qilma. Bularning bari shunday tugashi aniq edi, Platon.

– Oho-ho, Vadim, oho-ho. Seni taniyolmayapman, Vadim, taniyolmayapman.

«Menga munosabati samimiymi? – o'yladi Nikitin Samsonovdan indamay qutulib. Hozir ularning munosabatiga muzning qorayib turgan yorig'i singari darz ketgandi. – Bunaqa samimiyat hamma narsani nobud qiladi. Samsonov samimiyat niqobi ostida meni ojiz, haqoratomuz holga solib, hatto biror nimada ayblamoqchi ham. Ikki-mizni nima ayirdi? Nahotki men unga jahl qilayotgan bo'lsam? Nahotki u «Praga»da sezilayozgan o'sha baxilligini bu yerda, xorijda ham yashirolmasa? U nimaga g'ashlandi? Ko'proq menga parvona bo'lishganigami? Gerbert xonim o'zini yaqin olganiga rashki keldimi? Nimaga g'ashlandi, nimaga? Yaxshi ko'raman, degan odam yoqtirmasligini oshkora bildirib qo'yyapti-ku. Ajabo, unga sira ham



yomolik qilmovdim-ku. Nega ta'bim tobora tirriq bo'lib ketyapti? Bunga uzluksiz chekkanim, ichilgan konyaklar, uyqusiz tunlar sababchi bo'lsa kerak...»

Oy yoritib turgan osmondan ventilatorning kichkina teshigi orqali ichkariga kirayotgan toza salqin havo Nikitinga xush yoqayotgan bo'lsa ham, lekin yuragining sirqirashi bosilmas, sanchiq tutgan paytdagiday hammayog'i og'rirdi. Charchagani, uyqudan qolgani, siqilgani, Samsonovdan hafsalasi pir bo'lgani, Gerbert xonimning ayanchli qiyofasi, so'nggi soniyada: «Vadim, Vadim!» deb o'rtanganida ilgarigi Emmaga o'xshab ketgani, o'shanda shoshapisha beo'xshov o'pgani ham yuragi gupillab turgan hozirgi pallada ko'z oldidan birma-bir o'tardi. Nikitin bularni unutish maqsadida samolyot g'ildiraklari Sheremetevo aerodromining betoniga ohista tegadigan va signal chiroqlari yonidan o'tadigan ajoyib onlar haqida o'ylay boshladi. Aerodromning xushbo'y va tanish shabadasi yuzga urilib, ajib sukunat qamraydi, ona tilidagi so'zlar quloqqa chalinadiyu, pasportlar tekshiruvi boshlanadi, intizor kuta-kuta olingan yuk eski, shaloq taksiga ortilgach, Moskva ko'chalaridagi siyrak chiroqlar, xira yoritilgan peshtaxtalar, o'tkinchi yo'lovchilarning chehralari, trolleybus bekatlarida navbatda turganlar, maydonlardagi tartibga soluvchi militsionerlarning gavdasi ko'zga tashlanadi, chet el sigaretasidan bittadan chekilgandan keyin taksi haydovchisi bilan gapga tushiladi, u ham o'z navbatida u yoqdagilarning sharoitiga qiziqsinadi. Nihoyat, o'z joyida turgan qadrdon, eski va tanish uyingga yaqinlashasan, hammayog'i timdalangan liftga chiqasan, podyezd isi dimoqqa uradi, to'qqizinchi qavatdagi eshiging qo'ng'irog'i tugmasini odatdagiday ikki marta bosasan, dahliz chirog'i yonib, chehrasi yorishgan xotining eshikni ocharkan: «Vadim, xayriyat-e», deb yuboradi. Uning yoqimli lablari lablaringga yopishadi, lablaring esa samolyotda qo'nish oldidan ulashilgan obakidan yopishqoq va shirin tuyuladi. Xotini shu choqqacha Nikitinni aeroportga kuzatib ham chiqmagan, kelganida kutib ham olmagan. Nikitin ilk safarga chiqqanidan beri er-xotin bir-birlarini bezovta qilmay kelishadi. Shu vajdan Nikitinning safardan qaytishi nogahoniy va quvonchli bo'ladi...

«Faqat shoshilmaslik kerak, – o'yladi Nikitin safardan esonomon qaytib kelishi, xotining ovozini eshitishini bir lahza tasavvur qilib. U o'zining ozodagina va sal o'zgaribroq qolgan (o'zi

yo'qligida sotib olingan chiroq yoki haykalcha bilan) kabinetiga kiradi, unda gazetalar, banderollar, jurnal stolchasida dasta-dasta xatlar, alohida qog'ozga esa o'zi yo'qligida qo'ng'iroq qilgan, surishtirgan, kelishini kutayotgan kishilarning familiyalari yozilgan bo'ladi. – Yo'q, men uyni o'ylamasligim kerak. Bo'lmasa vaqt o'tishi cho'zilib ketadi. Men xotinimni juda ham sog'inganman, shu sababdan o'ylamasligim kerak. Taksiga o'tirib, aeroportdan katta ko'chaga chiqqanimizdan keyin, faqat o'shanda... Bir necha kun bo'ldim. Muddatidan oldin qaytyapman... Shunday bo'lsa ham uyimda ko'p zamonlardan beri bo'lmaganga o'xshayman-a? Nega buni men endi his qilyapman? Go'yo butun hayotim qayerdadir olisda, uydan tashqarida o'tib ketganday. Biz Germaniyaga uchib ketayotganimizda bitta jumla xayolimda aylanib yurgandi. O'sha jumla nima edi? U, ya'ni mening qahramonim bolaligida tush ko'radi, majolsiz yoki yaralanib orqa hovlidagi g'ishtlar ustida yotadi. Qizcha tepasiga kelib, boshini tizzasiga oladi. U ana shu qizchaga ko'ngil qo'yadi. Ikkovi ham bir hovlida yashashadi.

Biroq u jumla, jumla... qanday jumla edi? Esimdan chiqibdi. Uni o'ylamaslik, bosh qotirmaslik kerak. Jumlaning o'zi keladi. Mabodo kelsa... Aytmoqchi, balki uning keragi ham yo'qdir. Hozir hech qanday jumlaning keragi yo'q. Jumlalardan charchadim. Gerbert xonimning: «Vadim, Vadim!» deb zorlangani naqadar ayanchli va dahshatli edi. Boshini ko'kragimga bosganini aytmayisizmi. Men bo'lsam miq etolmadim, tilim kalimaga kelmasdi. Nimalarnidir g'o'ldirardim xolos. O'pishim ham beo'xshovroq chiqdi... Gerbert xonim restoranda ham o'zini bosib turgandi-yu, ammo keyin baribir o'zini tutolmagandi. Bu alamli nola. U go'yo mendan nimanidir iltijo qilganday bo'ldi. Rim, Rim... U Rimni nimaga bunchalar yaxshi ko'radi? Navona maydoni... Rimda qachon bo'luvdim? Uzoq bir yili. O'shanda ham munozara bo'lgandi, nima haqda edi? U yerda bir hafta bo'luvdim shekilli? Nimaga u Rimni bunchalar yaxshi ko'rarkin? – Nikitin motorlarning bir xilda guvullashini eshitgan ko'yi oyga, bu sokin tunning yagona yog'dusi bo'lmish oy nurining samolyot qanotlarida jimirlayotganiga tikilganча shularni o'ylarkan, baribir nimadandir ko'ngli to'lmayotgandek bo'lar, o'zini nimadandir ayrilib qolgandek sezar, bundan siqilar va nima qilarini bilmasdi. – Nimaga Parijni emas, aynan Rimni yoqtiradi?»

Nikitin shundan keyin Rimni ko'z oldiga keltirdi. O'shanda kun issiq, aprel oyi, azim piniya<sup>1</sup> daraxtlari, kokos yong'oqlari kurortlarni, janub o'lkalarini eslatar, ko'chalardagi oftob yaraqlatgan derazalardan ko'zlar qamashguday bo'lar, uylar, oppoq ayvonlar uzra soyabonlar, derazalarda qatli pardalar, yarim vayrona kolizeyning bahaybat qoya yanglig' turishi, Vatikanga chegaradosh avliyo Pyotr ibodatxonasining zo'r salobati, yonidagi ulkan maydon, undagi qalashib ketgan avtomobillar, turli millatga mansub turistlar tushgan avtobuslar, qadim zamonlarni eslatib turuvchi kabrioletlar, benzinning bu yerdagi otlarning ter va go'ng hidi aralashgan achimsiq isi dimoqqa uradi. Yuzlari oftobda qoraygan, turistlarni kabrioletlarga chorlashayotgan xushchaqchaq aravakashlar otlarning go'ngini sira xijil bo'lmay belkuraklarda olib tashlashardi. Qora va oq libosdagi, chuvakkina yuzlari rangpar rohibalar tajribali taksichilarday xotirjam mototsikllarni haydab yurishibdi. Sochlari yelkalariga tushgan, bo'yni bu yaqin kunlarda suv ko'rmagan, erkakligini ham, ayolligini ham bilib bo'lmaydigan, Ispaniya maydonining oftob qizdirgan zinalarida gitaralarini ting'illatishayotgan «xippi»lar, pastak va qalin devorlar tagida o'pishayotgan oshiq-ma'shuqlar. Doimo salqin taratib turadigan, tiniq va ko'm-ko'k suvga tashlangan tangalar kumushday yaltirab turadigan Trevi favvorasi oldidagi turistlar to'dasi. Shinamgina va sokin, Rim Monmartri bo'lgan Navona maydoni, undagi rassomlarning rasm ishlayotgan molbertiga kelib qo'nayotgan kabutarlar, tevarakdagi shaxmat kataklari singari ishlov berilgan yassi tosh yotqiziqli joyda futbol o'ynayotgan bolalar. Rang-barang havo sharlari sotayotgan kishi, kimdir uchirgan ko'k sharning ana shu tinchgina va osoyishta ko'ringan maydon uzra ko'tarilib, oltinrang ufq sari intilishi. Savdo-sotiq avjida Corso ko'chasi, undagi turnaqator mashinalar, universal va mo'jazzgina do'konlarning ko'zni qamashtiruvchi peshoyalari, yo'lkalardagi odamlar, qora ko'zoynaklar, kalta shimlar, tugmalari qadalmagan yupqa paltolar, bari hilpiraganida ko'rinib ketadigan oyoqlarni sirib turgan kalta paypoqlar. Qahvaxonalarining yo'l-yo'l soyabonlar tagidagi stolchalari. Restoranchalari derazalarini ertalabdan yuvayotgan kishilar. Ana shu Rimning o'zida Appiyev yo'li ham bor, uning

<sup>1</sup> Piniya – ignabargli daraxt turi.

yarmi tosh, yarmi asfalt. Undan bir zamonlari oyoqlariga yog'och sandal kiygan Spitsion legioni o'tgan. Yo'l bo'yidagi vayrona binolar, tosh to'siqlarning qoldiqlari, bir zamonlar g'oyat qudratli bo'lgan Rim zaminiga yarmi botib ketgan bahaybat toshlar, yonginada, yo'l bo'yidagi yashil o'tloqda, piniya daraxtlari ko'lkasida turgan «fiat»lar, bolalarning oppoq aravachalari, cho'miladigan libosda, yakshanbadagiday hordiq chiqarib taxlama stullarda o'tirgan yoshgina chiroyli juvonlar va erkaklar. Shovqin-suron sira ham tinmaydigan tramvaylarning g'iyqillashi, mototsikllarning tarillashi, ko'chalardagi harakat deyarli boshqarilmagani uchun hammayoq mindi-mindi bo'lib ketganligi... Bunaqangi alg'ov-dalg'ov hatto Parijda ham yo'q. Mashinalardan chiqqan gazlardan havoni tuman bosganday bo'lar, yo'lka bo'ylab qimir etmay turgan mashinalar. Ana shu torgina yo'lakda keti uzilmay, dam-badam sekinlab, yurib-to'xtab va g'uvullab kelayotgan, tinimsiz signal chalayotgan boshqa mashinalar oqimi ko'zga tashlanadi. Ulardagi haydovchilar-u yo'lovchilar qaylargadir ketishyapti, oshiqishadi, chaqchaqlashishadi, sukut saqlashadi. Mashinalar to'xtab qolgan paytlarda tanish-notanish, yosh-u keksa kishilar bir-birlari bilan o'pishishadi, faqat o'zi solgan yo'llardangina o'rmalovchi va inlari to'zg'itilgan chumolilarga o'xshab boshi ham, oxiri ham yo'q aylanada hayratomuz doira bo'ylab yugurib-yelishadi. Ana shu g'aroyib shahar o'sha bahorda rang-barang tovlangan, yaraqlagan, gumburlagan, ko'zni qamash-tirgan, quloqlarni batang qilgan, faqat chekkaroqdagi o'tmish nishonalarigina salqinlik kabi lahzalik orom bergan va osoyishtalik va'da qilgandi.

«Nega u Rimni yoqtirib qolgan? U Rimga borsam kayfiyatim ko'tariladi, deb aytdimi? Jahannamdagi sokin orolday ko'ringan Navona maydonidami?»

Nikitin esa shovqin-suronli, turistlarga to'lib-toshib ketgan shaharda o'zini noqulay his etgandi. U Ispaniya maydoni yaqinidagi pansionda ruslardan yolg'iz o'zi turar, u yerda bitta kichkinagina lift bo'lib, janubiy tarafdagi xonasiga uch lira evaziga chiqarib qo'yar, xonasi qadimiy, baxmal sirilgan kreslolar bilan jihozlangan, kattagina ayvoni bo'lib, uni oftobdan turli o'simliklar va ulkan soyabon to'sib turardi. Nikitin kallai saharda mototsikllarning tarillashidan uyg'onib ketardi-da, so'ngra ana shu soyabon tagida o'tirib nonush-

ta qilardi. O'shanda dasturxonida hozirgina muzlatkichdan chiqqan muzday sariyog', kurs-kurs oppoq non, qayla, termosda qaynoqqina turadigan va subhidamda xushbo'y tuyuladigan qahva bo'lardi. Nikitin nonushta qilar, kabutarlarga ovqat berar va ro'parasidagi qandaydir bir muassasaning derazasiga qarar: u yerdagi kishilar nima bilandir band, stollar yonida o'tirishar, mashinalarda yozishardi; so'ng jivir-jivir hovur qoplagan ibodatxonalarning gumbazlari, Rim imoratlariga tikilardi. Pastda, ayvonlar pana qilgan, hozircha salqin ko'chada mashinalar vag'illlar, Nikitin to pastga tushgunga qadar ko'chada odamlar zichligini, havo mashinalar chiqargan gazlardan buzilganini, avtomobillarning oynalari oftobda yaltirab ko'zni olajagini, maydondagi girdobni, mashinalar va odamlar tinim bilmasliklarini ko'z oldiga keltirardi. Pastdagi oftob qizdirgan tosh ko'chalarda chekishning iloji yo'q, mashinalar gazlari tomoqni bo'g'ardi. Nafas olgulik havo yo'q, hozirgina kiyilgan ko'ylak yoqasi yarim soatdan keyin terga botib, bo'yinga chippa yopishar (kechgacha yag'iri chiqib ketgani uchun almashtirishga to'g'ri kelardi), galstuk ham bo'g'ar.-odamning g'ashini keltirardi. Tepadan oftob urib turar, miya qaynatadigan jazirama, shovqin-suron, yalt-yult etayotgan narsalar kishini toliqtirar, ko'ngil muzdek pivo tilar, bu Abadiy shaharning go'zalligiga ham qiziqish so'nib, birorta salqinda o'tirgich kelar, xayolga: «Menga manavi yalt-yult qilayotgan telba chumoli bozorning nima keragi bor? Buning me'yori va to'xtam biladigan joyi bormi? Bundan keyin yo'l qayoqqa olib boradi?» degan savollar odamni sira tinch qo'ymasdi.

Hatto odamlar g'ij-g'ij, osmono'par hashamatli binolari, bronza, marmar ishlatilgan «markaz»lari, birjalari, Brodveydagi elektrenergiya yordamida odamni gangitib qo'yadigan darajadagi ko'ngilochar reklamalari bo'lgan Nyu-York (Nikitin u yerda bundan uch yil oldin, qishda bo'lgandi) ham, hatto turistlar bisyor va ko'chalarida avtomobillar serob Parij ham Nikitinni oftobdagi Abadiy shahar g'ala-g'ovurichalik toliqtirmagandi.

«U nega Rimni yoqtiradi? U yerda bo'lsam yengil tortaman, dedi-ya...»

Nikitin o'shanda, Rimda bo'lgan kunlarida Moskvani, yoz oqshomlarida ilk chiroqlar (bularni u yoqtirardi) mayingina nur socha boshlashini, ko'chalaridagi kunbotar paytdagi qorong'ilikni, qish



subhidamlarida shamol qorlardan billuriy uyumlar hosil qilishini sog'inmas, butunlay boshqa narsani qo'msar, bundan bir necha yil muqaddam o'zi tug'ilib, besh yashar bo'lgunicha yashagan joyga borib kelgani uchun birdan o'sha yerni sog'inib qolgan, u yerga yetib olish uchun esa Amerikaga borgandagidan ham ko'proq samolyotlarda uchishi kerak edi.

Nikitin ertalablari pansionda oppoq vkluchatellar, sterillangan yaltiroq fayans'li rakovinalar, nikelli ilgaklar akslanib turgan kattakon ko'zgu oldida soqol olayotganida, so'ng ochiq darchasidan shabada kirib turgan vannaxonada devorning chinniday kafellarida o'ynayotgan oftob nurini tomosha qilib yotarkan, Sibirdagi quyosh charaqlab turgan sentyabr kunini esga oldi...

O'shanda pastda buralib oqayotgan Tunguska daryosi samolyotdan anchagacha ko'rinib turgandi. Bu daryoning oxiri ko'rinmas va to'q sarg'ish tusdagi tayganing bag'rini tilib oqar, quyosh nurida ko'llar va daryoning burilgan joylari yaltirab ko'rinar, ular oftobni bamisoli ko'zguday akslantirib o'n ikki o'rinli, xuddi primusga o'xshab vishillab ketayotgan samolyotning derazalariga yo'llardi. Samolyot tez-tez keskin burilar, bir yon qanoti pastlab ketgan paytlarda yo'lovchilarning damlari chiqmay qolar, ular o'zlarini naq jarliklar, buralib oqayotgan va valt-yult qilayotgan Tunguska, yarqiroq ko'llar va taygadagi ulardan qolishmaydigan oynasifat yalangliklar uzra osilib qolganday his etishardi. Keyin, «chekib olish uchun o'n daqiqaga» (uchuvchining o'zi shunday degandi) yerga qo'nganlarida Nikitin ajoyib sukunat va yengil sabo esayotganidan hayratda qolgandi. Bu sabo pichan hidini (o't o'sgan aerodromning chekkasida pichan uyumlari ko'rinar) olib kelar, shundoqqina yonidagi daryo osuda ko'rinar, uning yoqasidagi uylar ham ko'zga tashlanar, bularning barida qishloqqa, bolalikka, bir zamonlar ko'rilgan tushlarga xos qandaydir osoyishtalik va unutilgan nimalardir mavjud edi.

Bu serhavo, ibtidoiy sukunat Nikitinni hayratga solib, tang qoldirdi, bolaligi o'tgan ovulni yodiga tushirdi. Yozda ovul ko'chalaridagi taftli o't-o'lanlarning xushbo'y islari va dekabr subhidamlari derazaga qadar ko'mib yog'adigan qandday oppoq qorlar ko'p marta xayolidan o'tgandi. O'zi tug'ilib o'sgan bu ovul il-

<sup>1</sup> Fayans – ganch aralash loy.

gari unga Tunguska daryosi bo'yidagi ulkan shaharchaday tuyulgan bo'lsa, endi juda kichkinagina, shinamgina, taxtadan yo'lkalar qilingan, tayga daryo bo'yiga siqib surib kelgan mo'jazgina mungli qishloqday ko'rinardi. Ayniqsa, bir kechani Rimdan boshqa joylarda ham eslab-eslab turar, o'shanda bu yerdagi qarindoshlarini ko'rgani kelgan irkutsklik yoshgina talaba bilan tanishgan, otasini bu yerda muallimlik qilgan yillaridan beri biladigan, yoshi yetmishga borgan Matvey Lukich bilan uchovi qarqur ovlaymiz, deb taygada o'n kilometrcha yo'l bosishgan – xatarli botqoqlardan, bo'shtob do'nglardan arang o'tib, silla-yu madorlari qurib, qosh qoraygan mahalda Tunguskaning irmog'i Umotka bo'yida tunash tadorigiga kirishishgandi. Umotka kichkinagina, burilishlari ko'p, pixta daraxtlari tagidagi sarg'ish zich o'tlar orasidan oqar, kuzakda tayga benihoya sokin va jimjit bo'lib, ahyon-ahyondagina chittak sayrog'i eshilib qolardi.

Nikitin o'shanda kechasi allamahalda junjikib ketib uyg'ondi. U tag-tugi bilan ag'anagan daraxtlarning yulqilangan igna barglari ustida yotarkan, pixta daraxtlarining shoxlari orasidan qop-qora, bahaybat, yulduzlari chaqnayotgan osmonga tikildi. Qish yaqin qolgani uchun osmondagi yuksak va yirik ko'ringan yulduzlar sovuq yaltirar, ularning tayga tepasida yorqin va sovuq charaqlashini ko'rarkan, zumda junjikib ketganday bo'ldi. Yonginasida gulxan chirsillar, u tobora so'nib borar, Nikitinning dimog'iga sovuq zamin isi, tutunning achchiq va taftli hidi ham kirib turardi. Nikitin joyida qimirlamay ko'kka, sentyabrda serob bo'ladigan yulduzlar chamaniga tikilar, ana shu osoyishta olam qo'ynida asta suzayotganday bo'lardi. Shundan keyin osmondan boshqa, quloqqa arang chalinadigan ovozlar eshitildi, yer hayotining g'alati, azobli, yo'qolmaydigan va abadiyatning osoyishta go'zalligiga xos bo'lmagan sadolar ham kela boshladi.

Qayerdadir, shamol bulutlarni quvgan balandlikdan uchib ketayotgan g'ozlar ovozi kelar, barqaror sovuq va chamasi, Yoqutiston shimolidagi ko'llarga tushgan qor ularni janub tomonga quvayotgandi. Nikitin shunda nogahon Arktikaning yuksak osmonida bo'ladigan dahshatli sovuqni his qilganday bo'ldi. Yulduzlar yoritgan qorong'i osmonda sillasi qurigan g'ozlar to'dasi uchib borar, ular yerdan ko'zga ko'rinmasdi. Nikitin ular uchib ketayotgan balandlikdan pastdagi gulxan juda ham kichkina, zarra uchqunday

zim-ziyo tun osmonida ko'rinmay ketishini his etarkan, g'ozlar qorong'ilik va cheksizlik dahshatini yengishga qaratilgan sezgi bilan ilgarilashayotganiga havasi keldi.

Shundan keyin u bu yerdan juda ham olisda, tutayotgan gulxandan, cheksiz qorong'ilikdagi ushbu issiqlik zarrasidan minglarcha kilometr narida taraqqiyot borligi, ko'chalar elektrdan charog'onligi, shinamgina kvartiralar bug' yordamida isitilishi, qulaygina karavotlari pokizaligi, devorlari kafel bilan ishlangan vannaxonani, tezyurar liftlarni, stol chirog'i, sevimli kitoblari borligini ko'z oldiga keltirdi, tez orada ular yoniga qaytajagini ko'nglidan o'tkazdi. U a'zoyi badani muz bo'lib, sovuqdan qaltirab ketayotgan bo'lsa ham iljayar, boyagi narsalar yoniga qaytishga haqi bor ozod inson bo'lgani uchun o'zini xotirjam va baxtli sezardi. Mana hozir esa dunyoning bir chekkasidagi o'zi tug'ilgan joyga qiziqsinganidan osmonida yulduzlar charaqlayotgan Umotka bo'yidagi gulxan yonida yotibdi. Bu nima o'zi? O'zini sir-sinoatlar, go'zallik va tashvishlarga ro'para qilgan borliqdan benihoya zavqlanyaptimi yoki ko'ngli ozoda va hamma qulayliklar mavjud bo'lgan shaharga qaytishni qo'msayaptimi?

...Matvey Lukich o'rmidan turib, gulxanni qo'zg'ab kavlashtirgandi, tutun hidi anqib, qizg'ish changday yulduzlar charaqlayotgan va hali yorishmagan osmonga qarab uchqunlar sachradi. Nikitin shunda igna barglar ustida yotgan talaba bu yonboshiga ag'darilib, xo'rsinib qo'yganini eshitdi.

– Qanday yaxshi-ya, xudoyim, qanday yaxshi-a! – U turib o'tirarkan, zavqi kelib so'radi: – Nahotki Amikin boboga ov qilgani yolg'iz borgan bo'lsangiz? Qanday bo'ldi? Ovingiz baroridan keldimi?

– Ayiqqami? – Matvey Lukich tutundan yo'talib, tupurdi-da, yana gulxandagi shox-shabbalarni kovladi. – Ovga borganman. Ikki juft ichki ishton bilan kiyim soladigan savat ham olish kerak bo'ladi, ayih oviga borish uchun.

Nikitin ularning gaplariga quloq solib yotardi.

– Hazillashyapsizmi? Bu shunchalik xatarlimi? – so'radi talaba.

– Ayiq osonlikcha jon bermaydi. Otgan o'qing tegmasa yo yador qilsang bormi, ayiq sho'ringni quritadi. O'qing u yog'idan kirib bu yog'idan chiqsa ham, ichini titib ketsa ham parvo qilmaydi.

Boshini mo'ljalga olsang, o'q temirga tekkanday sachraydi yo toyib ketadi. Bosh suyagi naq betonday mustahkam-da. Yaralasang quturib ketib, zumda quvib yetadi. Yugurishda tezyurar poyezdning o'zi deyaver. Shuning uchun uning chap kuraging tagini nishonga olish kerak. Yoningda itlarning bo'lishi ham lozim. Itlarsiz ovga bora ko'rma. Ikkita og'ayning bo'lmasa ham, yoningda bitta iting bo'lsin. Ovda it ikkita og'ayningdan ham ishonchliroq bo'ladi.

– Agar u... lekin daraxt ortiga berkinib olsa ham bo'ladi-ku.

– Bo'ladi, ammo keragi yo'q. – Matvey Lukich gulxanni titkila turib kulib yubordi. – Daraxt tomonga orqang bilan tisarilsang yoki «quyon» bo'lsang, bitta panjasi bilan daraxt orqasidan seni tortib olib, kallangni sapchaday uzib tashlaydi. Birinchi marta o'q uzsang-u, ayiqni yiqitolmasang, orqangga tisarilma, oyog'ing osmondan kelib, iching o'tib ketsa ham joyingdan jilma. U sening qo'rqqaningni zumda ko'radi-yu, quyunday tashlanadi, nega deganda, o'ch olishga kelganda birorta ham maxluq unga tenglasholmaydi.

– Itlarning nima keragi bor?.. Ular ayiq inini topib berishadi, dedingizmi, Matvey Lukich?

– Ayiq inini qor ko'rsatib beradi. Qor tushsa, ayiq inining tepasidan hovur ko'tarilayotgani ko'rinib turadi. Sentyabr oyida ayiq semiradi, meva bilan yong'oq yeydi, inini tayyorlaydi, qishga hozirlik ko'radi. Buning uchun oldiniga suv ichib, ketidan tuproq yeydi. Oshqozonini tozalaydi. Rosa semirib tanasi yog' bog'laganidan keyin loy bilan dimog'ini tambalaydi. Uxlayotganida oshqozoniga chumoli-pumoli o'rmalamasin deb shunday qiladi.

– Qarang-a!

– Itlar ayiq inini ko'rdi deguncha vovullashga tushadi. Ular huridi deguncha tayoq bilan xivich tayyorlash kerak bo'ladi.

– Nega? Qanaqa tayoq?

– Oddiy tayoq. Ana, gulxanda yotibdi-ku. Mana shunday yo'g'onidan... Tayoq tayyor bo'lsa, uni ayiq yotgan in tirqishidan tiqasan. Ayiq o'sha yerdan chiqib keladi. Tayoqni tiqqanda mahkam tutib turish kerak. Bo'lmasa, ayiq uni tortib oladi.

– «Tortib oladi»si qanday?

– O'ziga tortadi-da.

– Keyin nima bo'ladi?

– Inida turib bo‘kiradi, sen bo‘lsang, tayoq ketidan xivichni suqasan. Ini buzilib ketsa ham ayiq osonlikcha chiqmaydi, nihoyat yirtqich ko‘rindi deguncha uning chap kuragini mo‘ljallab darhol o‘q uz. Qulat. Yarador qilsang, boya aytganimday ajalim yetdi, de-yaver. Ana endi itlarga navbat yetadi. Ayiq inidan chiqishi bilan itlar uning oyog‘idan olishi kerak. Ha, oyog‘idan olib, yulqilashlari lozim. Ikkita do‘stning keragi yo‘q, bitta itning yonidan o‘taversin. Xullas, iting bo‘lmasa, ayiq oviga bormay qo‘ya qol.

Talaba nimanidir o‘ylab, xiyol jim qoldi. So‘ngra yana boyagi-day yoshlik zavqi va soddadillik bilan so‘radi:

– Siz kecha ayiq bilan bug‘u izini ko‘rdim, devdingizmi?

– To‘g‘ri, bu yerda ayiq bo‘lgan ekan. – Matvey Lukich salobat bilan tasdiqladi. – U bug‘uning izidan tushibdi. Poylabdi. Bo‘g‘izlamoqchi bo‘libdi. Bug‘u go‘shini xush ko‘radi u. Bitta bug‘uning go‘shiti unga uch haftaga yetadi. Yeganicha yeydi-da, qolganini yerga ko‘mib qo‘yadi. Yeganda maza kirsin uchun sal aynisin, sasisin, deydi-da. Ayiq bu yerdan ketibdi, izi eski, bug‘u esa shu yerda, o‘tlar payhon bo‘lgan, ag‘anab rosa dam olibdi. Daryo bo‘yidagi tollarni g‘ajibdi, ustki barglarini yebdi. Bug‘u shu atrofda yuribdi. Hozir ular kuyikadigan payt-da.

– Kuyikadi nima degani?

– Urg‘ochisini izlayapti. Ya‘ni, ayolini... Xo‘sh, yigit, choy ichamizmi? Sovuqda eting uvishmadimi? – dedi Matvey Lukich qorayib ketgan qumg‘onni gulxanga o‘mashtirarkan. – Choy kechasi odamga eng yaxshi hamroh.

Kavlashtirilgan gulxan daraxtlar tagida yaxshiroq yonib, tevarakka issiqlik purkar, undagi o‘tinlar tutab, chars-churs qilardi. Nikitin gapga aralashmasdan zavqlanib tinglar, chol bilan talaba gulxan yonida o‘tirib, krujkalaridagi qaynoq choydan ho‘plashar, qorong‘ilikda gulxandan uchqunlar uchib chiqib, atrofga sachrardi. Ularni qurshagan zulmat devoridan tashqarida, pastda, jar tubida sokin va tiniq suvli Umotka (kunduzi uning tiniq tubidagi suv o‘tlari buralib turgandi) daryosi oqar, qirg‘oqdan narida esa tayga, botqoqlik, qiyoqlar bosib ketgan qandaydir ko‘llar, ayiqlar, bug‘ular borligi aniq edi. Yaqinroqdagi sohil chekkalarida gulxan yorug‘i o‘ynar, zaminning sovuq nafasi kelayotgan zulmat devori oldida esa ikkita it yotar, ular aqlli, sarg‘ish ko‘zlarini gulxandan uzishmasdi. Tumshuqla-



rini oldinga cho'zilgan oyoqlariga qo'yib yotgan itlar bamisoli tayga va yulduzlar orasidagi bu gulxanni qo'riqlashayotganday edi.

Ana shu lahzada qorong'i tun, yulduzlar tomon o'rlayotgan tutundagi uchqunlar, osmonda uchib ketayotgan g'ozlar, aqlli ko'zlarini gulxandan uzmayotgan itlar va talabaning gulxan oldida:

– Qanday yaxshi-ya, yo xudoyim, qanday yaxshi-ya... – deb entikishidan ham go'zal abadiy va chinakam hech nima yo'q edi.

Nikitin ikkinchi marta uyg'onganida sovuq zabtiga olgan, gulxan esa chirs-chirs qilganicha tutardi. Matvey Lukich bilan talaba uyquda edi. Ancha pastlashganday tuyulgan turkum-turkum yulduzlar havoda uchlari ko'rinayotgan archalar ortiga o'tishgan, faqat tikkadagi kattaroq yulduzlargina hamon charaqlar va daraxt shoxlari orasidan mo'ralardi. Gulxan ortidagi o'tlar uzra namxush tuman suzardi.

Ikkita it birdan irg'ib turib, o'rmonning qalin joyiga qaragan ko'yi qulog'ini ding qilib qotib qoldi. Matvey Lukich ham shu zahoti qandaydir xatarni sezgandek o'rnidan sakrab turdi. Uning egnida yelvagay paxtaligi bor edi. Chol pixta daraxtiga suyab qo'yilgan karabinini olib, sohildagʻ do'nlar ustidan o'n qadam bosib, boshini ko'tardi. Nikitin ham o'sha tomonga qaradi, biroq avvaliga hech narsa ko'rmadi. Yarmini tuman chulg'ab turgan archaning uchrog'ida jigarrang-sarg'ish olmaxon o'ynoqlab yurardi. Shundan keyin daraxt uchida uning oltinrang dumi lipilladi, bir titrab, so'ng g'oyib bo'ldi. Matvey Lukich shoshilmay karabinini olib, nishonni mo'ljallab o'q uzdi. «Tekizolmadi», deb o'yladi Nikitin qulog'i shang'illab ketib. Biroq yuqoridan qandaydir qoramtir va kichikroq narsa novdalarni shitirlatgancha mayda butalar yashirgan ildizga tushdi. Matvey Lukich pichadan keyin jonsiz olmaxonni orqa oyog'idan ushlab gulxanga yaqin olib keldi-da, itlardan biriga uni iskatib, qonini yalatdi. Chamasi yoshroq bo'lgan ikkinchi it bundan benasib qoldi. Shunga qaramay, u o'zidan katta itning tumshug'ini yaladi. Shundan keyin itlar tinchib, yana cho'zilishdi. Matvey Lukich esa qulagan qayinga o'tirdi-da, yonidan buklama pichog'ini olib (kecha u bilan non kesgandi), o'lik olmaxonni tizzasiga qo'ydi. Boshidan o'q yegan olmaxonning qoni yerga chakillab tomardi. U olmaxonning oyoqlari tagini kesib-kesib oldi-da, sira qiynalmay, bamisoli paypoqni yechib olganday terisini osongina tortib shilib olib, yumshoqqina dumini pastga qilib qayinga osib qo'ydi. Matvey

Lukichning tizzasida olmaxonning terisi shilinganidan so'ng yangi tug'ilgan o'lik chaqaloqqa o'xshash jasadi yotar, uning tizzalari bukkik, boshi qontalash edi. Bularning bari dahshatli qatlga o'xshab ketganidan Nikitinning ko'ngli behuzur bo'layozdi.

– O'ldirdingizmi? Urg'ochisimi yo erkagimi? – so'radi o'q ovozidan sarosimaga tushgan talaba shosha-pisha.

– Erkagi.

Matvey Lukich itlariga yaqin borib, zumda oldiga kelgan qarirog'iga olmaxon jasadini tashladi. Jonivor uni iskab, qontalash boshini kursillatib yeya boshladi. It uni ko'ngli tortmayroq yeyayotganini oshkora qilayotganday shoshilmas, yoshrog'i esa uning bir maromda kurs-kurs chaynayotganiga e'tibor qilmay, chetga qarab oldi. Chamasi, u o'lja unga tegishli emasligini tushunardi. Oradan ko'p o'tmay, kursillash ham tindi. It u yoq-bu yog'ini yalab, Matvey Lukichga minnatdor boqdi, dumini likillatib, gulxan yonida kulcha bo'lib yotib oldi. Yoshrog'i esa irg'ib turdi-da, oqarib kelayotgan yalanglik tomon qarab, quloqlarini ding qildi. Yoshi katta it sarg'ish aqli ko'zlarini salgina ochib qo'ydi-yu, qimirlamay yotaverdi. Matvey Lukich yana karabinini olib ohista dedi:

– Yana bittasi o'ynoqlayapti shekilli. Olmaxon odatda kun yorishshidan oldin o'ynoqlaydi.

Shundan keyin Matvey Lukich yerdagi quruq barglarni chetlab, o'rmonning qalin joyi sari yurdi.

Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas o'q ovozi eshitildi. Matvey Lukich gulxan yoniga qaytarkan, o'lik olmaxonning orqa oyog'idan ushlab olgandi. Ikkinchi olmaxon bo'zrang-oqishroq bo'lib, yumshoqqina dumi o't ustida sudralib kelardi. Matvey Lukich bu safar qo'lidagi olmaxonni yosh itning burniga tutdi, kattasi esa erinibgina qo'zg'alib, esnadi-da, parvoyi falak nari ketdi.

Matvey Lukich yana o'sha qulagan qayinda o'tirib, nimanidir uzoq kutdi. U dag'al kafti bilan jonivorning yag'rinini silardi.

– Haliyam titrayapti, tirik, – dedi u achinganday. Oradan biroz vaqt o'tib o'lganidan so'nggina terisini shilib, birinchisining yoniga osib qo'ydi.

– Bunisiyam erkakmi? – deb so'radi hayratda qolgan talaba beixtiyor Matvey Lukichning lahjasiga ko'chib. – Juda zo'r otarkan-siz-e!

– Yo‘q, ayoli. Er-xotin ekan.

Matvey Lukich o‘rnidan turdi-da, hushtak chalib, olmaxonning jasadini yosh itga tashladi. U esa ingichka tumshug‘ini cho‘zib olmaxonning qontalash jasadini iskadi-yu, lekin negadir yemadi. Matvey Lukich tushuntirgan bo‘ldi:

– Yosh-da hali. Taygaga chiqishdan bir kun oldin ovqat bermovdim, shunda ham yemayapti.

Shundan keyin olmaxon jasadini katta it oldiga qo‘ygandi, u shoshilmasdan, ehtiyotkorona va ishtahasizroq yedi.

Kuzning namxush subhidami boshlangan, Umotka bo‘yidagi butalar, yaltillab turgan suv uzra ertalabki tuman suzar, o‘rmonning qalin va namli joylari sokin, pixta daraxtlarining sarg‘imtir uchlari, ag‘anagan qayin tanasi uzra buralardi. Qulagan qayinda esa o‘ftob chiqsa o‘ynoqlamoqchi bo‘lgan ikkita quvnoq va ajib jonivorning shilingan terilari osig‘liq turardi.

«...Bularni nega bunchalik aniq eslayapman? Nega Rimda bo‘lganimda taygadagi tunni, taygada esa Moskvani yodga olgandim? Haqiqatni topishga utindim-u, biroq faqat uning lahasini his etdimmi? Men o‘shanda sehrlı tun, gulxan, sovuq yulduzli osmon ostidagi inson hayotining odmiligini sezsam ham baribir nimadandir ko‘nglim to‘lmadi. O‘zim ham, talaba ham, zavqlanganida, ko‘kdagi g‘ozlar g‘aqillashida, Matvey Lukich otib olgan o‘sha go‘zal olmaxonlarda hayotiy mazmun axtardimmi? Matvey Lukich ikkita olmaxonni o‘ldirib, go‘zal olam muvozanatini buzdi. U o‘sha tunni, suvning sovuq nafasini, gulxanni mahv etib, yulduzlarni so‘ndirganida, taygani yondirganida ham yerning buyuk va nozik posangisi – shu muvozanatga putur yetgan bo‘lardi. Urush yillarida shu taxlit fikrlay olarmidim?

Ha, Matvey Lukich olmaxonlarga o‘q uzgan lahza hayot mazmunining qandaydir ulushi edi. Bu bir lahza hayotning bor mazmunini emasdi. Bori qayerda o‘zi? O‘sha charaqlayotgan osmon ostidagi taygadami? Bo‘lmasa, nega meni Moskva, undagi qulayliklar, elektr nuri, top-toza o‘rin, issiq suvli vanna o‘ziga tortadi, o‘sha tun lazzatmisan lazzat edi-ku? Bir lahzaga tortdimi? Bir necha soatgami?

Nachora, to‘la-to‘kis javob hech yerda yo‘q, chunki barchaga atalgan, mustahkam, tugal haqiqatlar bo‘lmaydi. Gerbert xonimga Rim xush yoqadi, men uchun esa azob, toliqtiradi... Emma bilan

uchrashuvimning mazmuni nimada? Uning uchun ham, men uchun ham og'ir ko'chgan gaplarning mazmuni-chi? Men nimalar deya-man o'zi? Validol... ikkinchi tabletkani ham ichish kerak. Endi bir kamim chet eldan uchib kelib, yurak xuruji bilan yotib qolishim qo-luvdi...».

Nikitin og'zini ochib, qisqa nafas oldi-da, aftini bujmaytirgan ko'yi yuragi atrofini silashga tushdi. Yuragi esa qattiq urar, siqilardi.

Samolyot motorlari bir maromda guvullar, salondagilar dvigatel-lar ovozi, tungi plafonlarning ko'kimsir shu'lasidan orom olganday uyquga ketishgandi.

Nikitinning chap tomonida Samsonov hamon qo'llarini ko'ksida chalishtirganicha mudrar, go'shtdor yuzida ayanchli jahl ifodasi qotib qolgandi. Nikitin validol tabletkasini olarkan, birinchi marta Samsonovning uyquli yuziga qarab, uning bolaligida baqaloq, xom-semiz, oyoqlari kalta, sinfdoshlari tegajoqlik qilishidan tutoqib yura-digan bola bo'lganligini bilib olish mumkin bo'ladi, degan xayolga bordi.

«O'rtamizda bo'lib o'tgan gaplar bema'nilik, – ko'nglidan o'tkazdi Nikitin. – Garchi munosabatlarimiz ilgarigiday saqlanib qolsa ham, baribir bema'nilik. Nahotki o'zimni qo'lga ololmasam? Biz juda ko'p yillardan beri tanishmiz-a, ajab. Qani endi hayotimiz-da nima narsa muhim-u, nima muhim emasligini bilib olish mumkin bo'lsa. Rim muhim narsamidi? Yo taygada o'tgan tun bilan subhi-dammi? Gamburg ham muhimmidi? Emma bilan uchrashuv-chi? Samsonov bilan g'alva-chi? Urushdan keyin yoshim yigirma birda-ligida hamma narsa muhim edi. Ayni paytda hayotning o'zida ham-ma narsa arziyasdek ko'rinardi. Nainki hamma narsa, hayot mohi-yati hali oldinda edi. Hayot mavhumlikdan iborat baxtli «keyin»ga yashin tezligida eltar, to'xtash nimaligini bilmas, shak-shubhalarga o'rin qolmagan, ketma-ket o'tib turgan kunlar, oylar va yillarda nima muhim-u, nimalar arziyas ekanligini o'ylab o'tirishning hoja-ti ham qolmagandi. Kutilgan «Keyin» ham kela qoldi, universitetni tamomladi, uylandi, muvaffaqiyat qozondi, tanildi. Keyingi besh yil ichida nega bular haqida ko'proq o'ylaydigan bo'lib qoldi? O'zidan tez-tez baxtlimanmi, har bir ishimda, begona jumlada, yog'ayotgan qorda, suvning oqishida, taygadagi yulduzli kechada hayot mazmu-nini izlaymi, deb so'rardi. Nima bo'ldi o'zi? «Keyin» ko'p narsalar-ni tushunib yetdimi? Yoshi aslida nechadaligini ham bilib oldimi?

Gerbert xonim mendan baxtlimisiz, deb nega so'radi? Uning xayrlashayotganimizdagi oxirgi marta: «Vadim, Vadim!» deganlari... Bundan chiqdi, so'nggi yigirma olti yil mobaynida Gerbert xonimning ko'ngli faqat menda bo'lgan ekan-da? Uning hayoti mazmuni intizorligida-yu, g'ayritabiiy umididamidi? Men bo'lsam, hayot mazmunining mohiyatini doimiy qanoat hosil qilmaganimdan axtardim, (haqiqatning ikki yoqlamaligi ilgari u oddiy va ayon ramzlar sifatida ko'ringandi), yaxshiroq va odmiroq bo'lmagan hayot ziddiyatlari xususida o'zimga o'zim savollar berdim. Men gohida odamlarning badjahl yuzlarini, yomon qarashlarini, xo'rlikni, birovning birovga rahmsizligini ko'rganimda ularga nafratim ortganday, shafqatim va mehrim qolmaganday ko'yga tushardim. Biroq o'sha zahoti kimningdir tasodifiy xayrixohlik bilan qaraganini, kimningdir jarangdor ovozi, mehribon gapini eshitdim deguncha tezda nafratim tarqab, hammaga – birovning yig'layotgan chaqalog'iga, ko'chadagi notanish, xunuk va yoshgina juvonga, har bir o'tkinchiga va ayniqsa, xotinimga rahmim kelardi. Xotinimni va o'g'lim vafotidan keyingi alamimni faqat xayolimdagina tasavvur qila olardim. Yo'q, bularning bari xotinimga muhabbatgina emas, balki undan ham kattaroq tuyg'u, tug'ishganday gap, hamrozlik bo'lib, undan ham oliyroq narsa bo'lishi mumkin emasdi. Bu savdolar boshimga qachon tushuvdi o'zi? Haqiqatga qachondan boshlab darz keta boshladi? O'g'limning vafotidan keyinmi?

Bu dafn marosimidan ikki oy keyin bo'lgandi. O'shanda Igorning huvillab qolgan xonasidagi narsalar – pardaning yengil qimirlashi, sholchasi tepasidagi devorga yopishtirilgan qog'ozlar, hozir uyub qo'yilgan va endi keraksiz o'yinchoqlarida o'ynayotgan oftob nurlarida uning sho'x qiyqiriqlari, gilamda tap-tap yurishlari, vijir-vijir qilishi va kulishlari eshitilayotganday bo'lgani uchun er-xotin chorboqqa jo'nab ketishgandi. Nikitin bu yerda, chorbog'da holdan toyib, sillasi quriguncha ishlar va kechqurunlari allamahalda qishloq yo'ldan chekkaroqdagi dalalarni aylanib yurar, uzoq sayr bilan har xil xayollardan bo'shamayotgan kallasiga dam bermoqchi bo'lardi.

U bir safar kechasi soat o'n ikkida mana shunday sayrdan qaytib kelardi. Yuraverib ancha charchadi, pastlikdan chiqarkan, kimsasiz yo'ldan oldinda miltillayotgan chiroqlarga qarab yurdi. U o'pkasining shishganini sezib, istamasa-da, qadamini sekinlatdi.



Shunda orqa tomonidan qadam tovushlari eshitilganday bo'ldi. Go'yo unga nimadir xalal berar, nimadir ushlab turardi. Nikitin shunda nogahon kimdir orqasidan ko'zini uzmay, qattiq tikilib turganini his qilib, cho'chib tushdi. Nafasini rostlab olishga urinarkan, tezda u yoq-bu yoqqa qaradi. Ortida zulmatdan bo'lak hech narsa yo'q, tiq etgan ovoz eshitilmas, qimir etgan narsa ham, odamning o'zi ham ko'rinmasdi.


Nikitin bunday bo'lishi mumkin emas, bu ko'p ishlab toliqqanim oqibati, deb o'yladi. U pastlikdan xaloskor chiroqlar sari intildi, biroq ayni paytda qandaydir noma'lum kuch uni orqaga tortar, yelkasi-dan tutar, to'xtatar, qahraton sovuq yanglig' yag'rinini uzib olguday bo'lar, bundan Nikitin qattiq cho'chib, yuragi o'ynoqlab ketdi.

Nikitin nega bunday ko'yga tushganini bilmasdi. Ehtimol, uni qandaydir bir kuch ogohlantirgan yoki olisdagi chorbog'ning xira chiroqlariga yetib olishiga madad qilgandir? Yo ko'zga ko'rinmas nimadir uni chorlaganmikin?

Nikitin o'z chorbog'iga yetib oldi-da, yog'och zinani g'ijirlatib, xotini uyg'otib yubormaslikka urinib yuqoridagi kabinetiga ko'tarildi. Stol chirog'ini yoqib, azbaroyi hayajonlanganidan chekib, xona ichida u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. Shunda ham nazarida qorong'ilikdan odamga o'xshagan nimadir unga tikilib turganday tuyuldi.

Nikitin chirog'i yoqiq kabinetida kechasi bilan uxlayolmay, divanda ag'anab chiqdi. U o'midan turib, yana u yoq-bu yoqqa yurdi, qorong'ilikdagi boqqa qiya ochiq deraza oldida muzday havodan simirdi, suvga valeriana tomizib ichib, yana yotarkan, tomog'iga nimadir tiqildi. Shunda o'ziga tanish keksa rassomning o'g'li vafot etgan kunlardagi so'zlarini esladi. «Biz o'lganimizdan keyin ham, – degandi u, – yuraveramiz, bir-birimiz tomon harakat qilaveramiz. Biroq bir-birimizni ko'rmay o'tib ketaveramiz, go'yo vaqtning bo'lakcha sinusoidida yashaymiz».

Nikitin uning so'zlarini eslarkan, yaqinginada pastlikdan ko'tarilib kelayotganida orqa tomondan kimdir tikilayotganday bo'lganini yana eslab, ko'zlarini yumib oldi. U farzandidan ayrilgan bo'lsa-da, o'zi va xotini ikki oydan beri soppa-sog' yurganini o'yladi, o'g'li esa hozir u yoqda – muzdek va zimiston yer ostida bir o'zi jonsiz yotibdi, oyog'ida oppoq paypog'i ham yo'q, vijir-vijir



ovozi ham o'chgan, sarg'ish sochlarining yoqimli isi ham dimoqqa urilmaydi. U endi abadiy sovuq zulmat, vaqtning bo'lakcha sinusoidi og'ushida. O'g'li yonidan o'tib ketaveradi-yu, sira ham to'qnash kelmaydi. Nikitin o'sha kecha o'ksib yig'ladi. Fevralning qahraton tunida o'g'li jasadining muzday og'zidan o'pgani uchun lablaridagi o'sha ta'mni, yaqindagina sho'xchan, quvnoq, zavqli boquvchi ko'zlarining yumilmagan kipriklari orasidan ko'kishroq ko'ringanini ham hali unutmagandi...

«O'shanda umrim yarmiga qisqargandi. Metin haqiqatga ham o'shandayoq darz keta boshlamadimikin?»

Kechasi uxlayolmaganidan boshi og'rib, yuragi zirqirab turgan Nikitin ertasiga oftob tushib turgan, yarmi hali soyali, xushhavo ayvonga chiqib keldi. Ayvonda sochini turmaklagan, miriqib bo'lmasa-da, har holda uxlaganligi sezilib turgan xotini jimgina (u o'g'li o'lganidan beri kam gapirardi) nonushta tayyorlardi. Nikitin xotining o'ziga yaqinroq kelgan lablari chekkasidan o'pib: «Xayrli tong», derkan, qo'lini yelkasidan olmay turdi. Va xotining ko'zlari qo'rquvda: «Yomon uxla'dingmi? Yana-ya? Nima bo'ldi senga?» deyayotganini sezdi.

– Tuzukmisan? – so'radi xotini.

– Hammasi joyida, – har mahalgiday tinchlantirishga urindi Nikitin, ammo javobi soxta chiqdi. U boshqa yolg'on gapirmaslik, ko'zi yana xotining tashvishli ko'zi bilan to'qnashmasligi uchun zinadan boqqa tushdi. Ko'm-ko'k novdalar orasidan aprel oftobi mo'ralardi. Nikitin maysalarni bosib, u yoqdan bu yoqqa yurdi, shudringli olma salqinida, yaproqlari ko'm-ko'k qayin tagida turdi. Keyin butoqlardagi chug'urchiqlarning subhidam havosida yoqimli sayrashni bamisoli suv sathidagi halqalar yanglig' yoyilardi. Biroq bahor subhidaming bu quvonchli osoyishtaligi Nikitinning ko'nglini yozolmas, sayr ham bahri-dilini ocholmasdi. Shundan keyin u nonushta paytida xotini indamay kuymalanayotganiga dosh berolmay, o'zi ham sezmagani holda unga, kayfiyatim yaxshi, kechasi bilan ishladim, deb yolg'on gapirdi-yu, bunga o'zi ham afsus qildi.

Xotini buni sezib qoldi.

– Vadim, meni aldama! Men kabinetingga kirgandim. Bir satr ham yozmabsan. Nimalarni o'ylaganingni bilaman.

– Ha, – dedi Nikitin ma'yus tortib, – hech unutmayapman... Yo uch oyga biror yoqqa jo'nab ketsakmikin-a? Hamma ishni tashlab, jo'navorsak...

Xotini unga qahva quyarkan, finjonni to'ldirguncha bo'lmay majolsizlanib, qahva choynagini taglikka qo'ydi-da, to'qima stulga cho'kib, yuzini chetga burgan ko'yi yig'lab yubordi:

– Yo xudoyim, yo xudoyim, nima ko'rgilik bu?!

– Lida, – dedi Nikitin, – biz... ikkovimiz ham kuchli bo'lishimiz kerak.

– Ha, ha, kuchli bo'lishimiz kerak, – dedi xotini sochiqni burniga bosib. – Biroq qandaysiga? Qanday qilib? Men hamma narsadan qo'rqadigan bo'lib qolganman. O'g'lim o'lganidan beri. Nimadandir, yolg'izligimdan qo'rquv bosadi. Sen yo'qligingda hatto telefon jiringlasa ham cho'chib tushaman. Ko'zimga hamma yerda xatar ko'rinadi. Meni kechir, o'zimga nima bo'layotganini tushunolmayapman, endi bo'lsa sendan xavotirlanyapman. Sen tinimsiz ishlayapsan, uxlamaysan... Sendan o'tinaman, chekmagin, jilla qursa, kamroq chek... Soching oqara boshladi, chakkalaring oppoq bo'lib ketibdi.

– Menga hech nima qilmaydi, – dedi Nikitin yana. – Mening yoshimda ko'p odamlarning sochi oqaradi.

Xotini burnini sochiqqa artib, erining qahva idishini to'ldirdi-da, yoshli yonog'ini uning chakkasiga qo'yib, ohista gap boshladi:

– Igorga og'iroyoqligimda faqat chiroyli xotinlarga qarardim. O'g'lim chiroyli bo'lishini, ko'zlari sening ko'zlaringga o'xshashini xohlardim, Vadim. Nechun bunchalar qattiq jazolanmasak? Biz kimga ham yomonlik qiluvdik? Nega boshimizga tashvish yog'ilaveradi?

– Lida, – dedi Nikitin, – biz bu haqda qancha ko'p gapirsak, shuncha ko'p qiynalamiz.

Xotini indamay bosh iring'adi.

– Men seni hozir ishlamay, faqat yotib kitob o'qishingni istardim. Charchaganing ko'rinib turibdi, Vadim. Mashinani ham bugun o'zim haydayman.

Nikitin o'zini mazasi yo'qroq sezgani uchun xotini tush paytida mashinani garajdan olib chiqib, rulga o'zi o'tirganida unga e'tiroz bildirmadi. Chorbog'chilar qishlog'idan o'tganlaridan keyin serqat-

nov yo'l chekkalarida bahorgi keng paykallar ko'rina boshlaganida ham ular ertalabki suhbatni esga olmay, jim boraverishdi. Goho-goho bir-biriga savolchan qarab qo'yishardi. Moskvadan besh kilometr berida, arg'uvonli bog'dan oqarib ko'ringan shahar chekkasiga tushgan chorburchakli minorasifat yangi uylar taqalib kelgan so'nggi qishloqqa yetganlarida xotini mashinani negadir temir panjara yaqinida to'xtatdi. Panjaradan chog'roq cherkovning ochiq eshigi, ichkaridagi yoniq shamlar, eshik oldidagi ayvonda boshlariga bo'zrang ro'mol o'ragan kampirlar ko'zga tashlanardi. Xotini shunda iyma-nibgina dedi:

– Kechir, Vadim, bir kirib chiqay. Bu yerga anchadan buyon kelmoqchi bo'lib yuruvdim.

– Nega? – so'radi Nikitin o'zini ham, xotinini ham tinch qo'ymayotgan qandaydir xayollardan cho'chib. – Mayli, kutib tura-man. Yaxshi, bora qol.

– Men xudoga ishonmayman, Vadim, biroq shu yerga kirmoq-chiman, kechir, – u o'rindiqdagi sumkasini oldi. – Shunday qilishim kerak, o'g'limizga... shara yoqaman.

Nikitin oftob qizitgan mashinada xotinini chidam bilan yarim so-atdan ko'proq kutdi. Cherkovning sirli gumbazi ostida salobatli ja-ranglayotgan hazrat ovozi olisdan kelayotganday eshitilar, Igor ar-vohi uchun yoqilgan sham ham boshqa shamlar qatorida gumbazda shu'la sochar, quyosh tig'ida qizib ketgan mashinaning dim havosi-yu, qulog'iga dam-badam urilayotgan ibodatxona ovozlaridan yu-ragi ezilardi. Uning yuragi naq to'xtab qolayotganday bo'lar, havo yetishmasdi. Shundan so'ng Nikitin yonidan validol olib, tilining os-tiga tashlarkan, xotinining chiqib kelayotganini ko'rib qoldi. U yo'l-yo'lakay sumkachasini ochib, kaftlarini cho'zgan qariyalarga xijo-latda tanga ulasha boshladi. Shundan keyin rulga o'tirgach, yoshli ko'zlarini eriga qaratib dedi:

– Kechir, jonim, seni kuttirib qo'ydim. Tezda chiqolmadim... – keyin ma'yus gapira boshladi: – «Iso cherkovi, cherkov Iso ruhida, Iso nomidagi cherkov» yoki «Bu jonsarak gunohkor zamin», «Pyotr-ning arvohi shod bo'lsin», degan gaplar naqadar zo'r jaranglaydi. Afsuski, cherkovga oid slavyan tilidan sira ham ta'lim olmaganman, bu qadimiy so'zlar naqadar mungli!

Xotini chamasi cherkovda xayoliga kelgan narsalardan gapirma-da, Nikitin uning xudoga ishonmasligidan qat'i nazar,

g'amdand ado bo'lsa ham boshiga tushgan og'ir, nogahoniy va ayovsiz musibat dardini totib ko'rmoqchi bo'lganligini sezib miq etmay turardi. Xotini esa boshini sal engashtirgan ko'yi sumkachasi bilan ancha ovora bo'ldi, go'yo xayolini bir joyga to'playolmayotganday tizzasida uni bemaqsad ochib-yopar, endi qayoqqa va nima uchun borishlarini bilolmayotgandek edi. U nihoyat sumkchasini qo'ydi-da, mashina motorini yurgizmay yana eriga sarosimali nigoh tashladi. Uning ko'zlari pirpirar, qo'rquvni bamisoli ichiga yutayotganday edi.

– Vadim, yuraging sanchyaptimi? Og'riq bosilmayaptimi? – Xotini shundan keyin ro'molchasini olib, erining chakkasidagi terlarini artarkan, shivirladi: – Nimaga mendan bekitasan? Yuraging sanchyaptimi? Qani, dardingni menga bera qol, jonginam. iloji bo'lsa, ber... Sen yonimda bo'lsang bas, shu kifoya!..

– Lida, kechasi yomon uxlovdim, – dedi Nikitin xotini bunchalar jon fido qilib, parvona bo'layotganidan mehri tovlanib. Shuning uchun minnatdor bo'lib, uning hamon dastro'molni changallab turgan qo'lidan shu qadar berilib o'pdiki, hatto yangi tanishgan kezlari-da ham bunchalar o'pmagandi.

«U, Lida, dardimni olmoqchi bo'ldi. Men bo'lsam... Men bo'lsam, boshqaning dardini – Emmaning dardini olmoqchi bo'ldim. Uni ham mashinada qo'lidan o'pdim. Boshqaning dardini olish nima o'zi? Ehtimol, bunda o'sha odangarchilik, dilimizning qayeridadir yashiringan o'sha asosiy tuyg'u bordir? O'zganing dardi oldida o'zini aybdor sezishmi? Men buni ilk marta ko'p zamonlar muqaddam sezgandim... Nemislarning chorbog'li shaharchasida, bahor payti, urush oxirlab qolib Knyajko halok bo'lganida his etgandim.

Odam abadiyatga yo'l olgandagina baxtiyor bo'la oladi, degan gapni kim aytgan ekan? Bunda qanday ma'no bor o'zi? Hayot va o'limning buyuk sirini bilish, ammo qanday qilib? Demak, barcha azoblar, shubhalar, izlanishlar, kurashni oxirigacha totib ko'rish va odamlarni hayot mazmunidan mahrum qilish, bundan chiqdi – yengishning vaqtinchalik quvonchidan ham mahrum qilish demakdir. Ha, ha, asosiy mohiyat shunda. Mana shu xususiyatni tortib olsang, odamlar chumolilarga aylanib, o'zlarining abadiyatlarini la'natlashadi. Ehtimol, ajal – so'nggi haqiqatni yuksak darajada



bilmoqlikdir? Qandaydir tanish fikr... Kimning fikri? Baribir emasmi. Yo'q, inson bilish mumkin bo'lmagan sirlarni ochgandagina to'la-to'kis baxtiyor bo'la oladi – o'limdan qo'rqmaydi. O'shanda u o'tgan hayotini o'ylamaydi va baxt nima, deb boshini qotirib o'tirmaydi. Keyin-chi, keyin? Inson baxtiyor ekanligini o'ylashga tushdi deguncha, zumda undan ayrilib qolsam-a, deya xavotir ola boshlaydi, endi u baxtsiz demakdir. Men bularni nega o'ylayapman? Men baxtli edimmi? Qachon? Hayotimning eng yaxshi lahzalari sifatida eslay oladigan qandaydir lahzalar, daqiqalar, soatlarmi? Bolaligimmi? Yoshligimmi? Biroq urush, urush... Nahotki ulardan ham mangu ayrilgan bo'lsam? Ajab, inson biror nimasidan ayrila turib, boshidan o'tganlarning takrorlanmasligidek xususiyatga ega bo'ladi, yo'qotilgan va hozir mavjud narsalar ayricha quvonch bag'ishlaydi. Balki o'tmishga qaytmoqqa urinish – muhofaza reaksiyasidir? Nahotki o'tmish birinchi muhabbat, tush paytidagi oftobda jannatmonand ko'ringan sol, undagi qora moy, otlar, aravadagi jaziramada qizigan pichan hidi, bolalikdagi ajib kunlarning bir bo'lagi, ko'm-ko'k, baxt-iqbol mavjudligi sezilib turgan qirg'oq kabi takrorlash va qaytarish mumkin bo'lmagan narsalarni qo'msash bo'lsa? Ha, bu o'sha qirg'oq edi... U tushimga ko'p marta kirgan, faqat unda mubhamroq va ma'yusroq ko'z o'ngimga kelar, shundan ertalablari yig'lagudek bo'lib uyg'onar, bolaligimning o'zimga nasib etgan va qayerdadir yo'qotgan bunday oltin lahzalarini tasavvurimda ushlab qolishga harakat qilardim. Shu vajdan tushlarimni eslaganimda bita narsani sezib, ilg'ab olishni istardim: inson hayotining muqaddas, ezgu va buyuk qonuni, hech narsa beiz yo'qolmasligiga umid, ishonch qonuni xuddi shundadir. Bu har bir odam jisman o'lsa-da, ruh abadiy deydigan qonun, hamma narsaning abadiyligiga umid-dir... Qirqa yetganingdan keyin ko'p narsalarni o'ylab, tushunib, seza boshlashing naqadar rohatbaxsh... bu fikrning o'zi qanchalar lazzatbaxsh... Ehtimol, bu fikrlar tushlarning ajib olanidan kelayotgandir? Nega yuragim qattiq zirqirayapti? Biz qayerdamiz? Samolyotdami? Validol naf bermayapti. Buni hisobga olmabman, nitroglitserin ham olvolsam bo'larkan... Shularning o'zi qanchalar lazzatli. «Vadim, Vadim!» deya yig'lagani-chi. Yoki Lida ikkovimiz mashinada... o'sha bog'dan, o'sha cherkovning panjarasi oldidan qo'zg'alarkanmiz, ro'molchasi bilan chakkamni artib: «Dardingni

olay...» degani, ro`molchasidan qandaydir xushbo`y, tanish... subhidamgi pichan isi kelardi... Men qayerdaman? Qayerdaman?...».

Nikitin arang uyg`onib, motorlarning bir maromda sust guvullayotganini ilg`adi, salonning aksariyat chiroqlari o`chirib qo`yilgan, qorong`i bo`lsa ham oldindagi kresloning suyanchig`i orqaroqqa tushirib qo`yilganini ko`rdi. Chap tomonida Samsonov qo`llarini qornida chalishtirganicha betashvish uyquni urardi. Nikitin yuragini silay-silay illuminatorga egildi. Osmonda orqaroqqa chekingan oy nur sochar, moviy-binafsharang g`ira-shiralikda samolyotning bahaybat qanoti ko`zga tashlanar, hozirgi zamonning qudratli mo`jizasi bo`lgan samolyot bo`shliqni yorib uchib borardi. Samolyot signal berar, qanotlari tagida pushtirang chiroqlar yonib o`char, illuminator oynasida otsillograf<sup>1</sup> ekranidagi impulslar singari ingichka iz qolar, chamasi, bu siqilgan havoning mayda zarralari edi.

«Bashariyat hayotining, insoniyat istiqbolining mazmuni nimaligini bilasizmi? – Nikitin nimagadir bundan bir yil muqaddam yoshgina fizik tanishi bilan bahslashganini esladi. – Mazmun – harakat tezlashishida, fazoni, so`ngra olamni zabt etishda. Biroq nisbiylik nazariyasida bitta jumboq bor: mabodo tezlik nur tezligidan ohsa, harakat tezligining benihoya ortishi bizni qayga olib boradi – kelajakkami yoki o`tmishgami? Bu bizni Marsga emas, balki Kiyev Rusi davriga eltib tashlaydi, deyavering».

«Insonga koinot va Kiyev Rusining nima hojati bor? O`zining saodatli, alohida qirg`og`i bor-ku...»

Nikitin ko`zlarini yumarkan, hozir yerdan juda balandda, quyuq zulmat qo`ynidagi samolyotning tashqarisi qattiq sovuqligini, pastdagi odamlar oyoqosti qilgan sayyora yanglig` zarrani ko`z oldiga keltirdi, shuningdek, o`tmishi, insonligiga xos narsalardan ayrilishni istamayotganini, ular hozir qalbida kuchliroq, ayonroq, mustahkamroq ekanini sezardi. Keyin o`zi ko`rgan-kechirgan quvonchli damlar tush singari xayolidan birma-bir o`tdi.

Nikitin oldiniga tunni, qorayib yotgan namxush dalalarni ko`rdi, pichanxonaning ochiq eshigidan sovuq shamol urar, osmon nim mo`viylashgan, havo sovib borar, o`rmon tepasidagi osmonda yulduz-

<sup>1</sup> Otsillograf – elektr hodisalarini kuzatish va egri chiziq ravishida yozib olish uchun ishlatiladigan asbob.

lar turkumi miltirab, subhidamda maysalar ham muzlardi. Shundan keyin xuddi bolalik paytidagidek, oftob tushib turgan qishloq yo'li ko'z oldida namoyon bo'ldi, shamol tog'teraklarning uchlaridagi o'ynoqi, ingichka, oftobda yaltirovchi yaproqlarni shitirlatar, ana shu dalalar va siyrak daraxtli o'rmonlardan (bu bepoyon kenglikni u aniq tasavvur qilardi) ancha olisda shahar bor, ahyon-ahyonda undan qandaydir gulduros eshilib turar, bu shahar shamolli zulmat qo'ynida qolib ketgan, tramvaylar va ko'chalardagi chiroqlar ham qor quyunida ko'rinmas, to'plar bahor quyoshi charaqlab turgan paytda nam dalalardan siljib borishar, ko'zlari ko'm-ko'k, qadamlari yengil, adl qomatli leytenant Knyajko Nikitin bilan birga loyga belangan uchi ingichka etigini bir-bir bosgancha to'p yonida odimlardi. Uyning baxmal devoriga shafaq tushar, mart oyining oltin o'rog'i ko'rinar, nemis xonadonlarining cherepitsali tomlariga tegay-tegay der, Treptov bog'i xiyobonlarida sokin tong otar, seroftob subhidam yorishtirgan xonada kapalak uchar, bog' salqini kelar, Emmaning lablari muzdek tuyular, sevinchdan porlagan ko'm-ko'k ko'zlarini oppoq shiftan uzmasdi. Yana tush paytidagi suvi iliq daryo, otlar, qoramoy, aravalardagi xushbo'y pichanning yoqimli isi kelar, o'sha ko'm-ko'k, sirli, ajib qirg'oq ko'rinar, u hali butun hayoting oldinda, derdi...

Yuragining zirqirashiga chidolmay, vujudini titroq bosgani uchun ingrab, kreslo suyanchig'iga yopishdi. Ko'zlarini ocharkan, tepada ham, pastda ham yulduzli osmonni ko'rди, samolyotning g'ildiraklari ochilgan bo'lsa ham, u ilgarigiday qizil chiroqlari bilan tinimsiz signal berardi. Nikitin shunda: «Nahotki shu yerda?» deb o'ylashga ulgurdi.

Shu payt samolyotning pasaygan ovozi, ingroqdan uyg'onib ketgan Samsonov sarosimada, nima bo'lganiga tushunolmay o'ziga yopishganini, yelkasidan qattiq silkigancha xirqiroq ovozda:

– Vadim, Vadim! Senga nima bo'ldi? – deyayotgani qulog'iga elas-elas chalinardi.

«Meni yaqinda kim shunday chaqirgandi? – degan fikr o'tdi Nikitinning xayolidan. – Xotinimmi? Emmami? Qayerda? Qachon? Bularning bari o'tmishmi? Nega u qalbmida yashab keldi? Uni doimo xotirlaganim uchunmi? Lidaning holi nima kechadi? U nima bo'ladi endi?...».

Nikitin yengillashgan vujudida endi og'riq sezmay, o'zi bilan vidolasharkan, peshin paytida suvi iliq daryodagi xushbo'y pichan isi anqib turgan solda suzar va o'sha ko'm-ko'k, osoyishta, serquyosh, hali butun hayoti oldinda ekanligini va'da qilayotgan qirg'oqqa sira yetolmasdi.

1970 – 1974





## MUNDARIJA

<i>Birinchi qism. NARIGI TOMONDA</i> .....	3
<i>Ikkinchi qism. TELBALIK</i> .....	87
<i>Uchinchi qism. SOG'INCH</i> .....	300



*Adabiy-badiiy nashr*

**YURIY VASILYEVICH BONDAREV**

**QIRG'OQ**

*Roman*

**Tarjimon:**

D. Matyoqubova

Nashr uchun mas'ul *A. Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *J. Matyoqubov*

Muharrir *J. Matyoqubov*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih *M. Ishonxonova*

Kompyuterda tayyorlovchi *F. Botirova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.  
Bosishga 2021-yil 25-oktabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>, Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida  
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 26,0.  
Nashr tabog'i 25,93. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-441.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz).

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)



**Y.V. Bondarev**

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7605-2-3



9 789943 760523